


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**



**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN
“RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA OLIY TA'LIMNING
TRANSFORMATSIYASI”
2023 YIL, 23-24 NOYABR**

**РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ТРАНСФОРМАЦИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ
ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ»**

23-24 НОЯБРЬ, 2023 ГОД

**REPUBLIC SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
“TRANSFORMATION OF HIGHER EDUCATION IN DIGITAL
TECHNOLOGY”
NOVEMBER 23-24, 2023**

TOSHKENT – 2023

“RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA OLIY TA’LIMNING TRANSFORMATSIYASI” nomli Respublika ilmiy-amaliy Anjumani ilmiy ishlari to’plami (Toshkent, 2023 yil, 23-24-noyabr).

Taqrizchilar: dots. Aripova N.A., t.f.n., dots. Fazilov A.Sh., i.f.d., dots. Mirdjalilova D.Sh., t.f.n., dos. Shadmanova Z.S., katta o’qituvchi, PhD Aripova V.B.

Arxitektura - qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini transformatsiya qilishning mazmuni; Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish; Ta’lim muhitini raqamlashtirish orqali iqtisodiyotga o’tishning istiqbollari; Axborotlashtirilgan ta’lim muhitida bo’lajak mutaxassislarni kasbiy innovatsion - faoliyatga tayyorlashda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi; Professional ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning ustuvor yo’nalishlari bo’yicha istiqboldagi rejalar muhokama qilindi.

Arxitektura va qurilish, professional ta’lim, pedagogika sohasidagi olimlar va mutaxassislar, professor-o’qituvchilar, ilmiy xodimlar va stajyorlar uchun mo’ljallangan.

Mualliflar tahririyatga taqdim etilgan materiallarning mazmuni va haqqoniyligi uchun huquqiy va boshqa javobgarlikni o’z zimmlariga oladilar.

SO'Z BOSHI

Bugungi raqamlashtirish asrida ta'limda jamoaviy o'zaro hamkorlik shakllari juda muhimdir. Inson virtual olamga kirishi bilanoq to'liq anglab etmasdan boshqa odamlar jamoasida "jonli" muloqotga kirisha boshlaydi.

Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda yangi raqamli ta'lim muhitini yaratish yuzasidan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ4851-sonli "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori asosida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlari va u bilan bog'liq jarayonlar belgilab berildi.

Konferensiyadan maqsad, Arxitektura - qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini transformatsiya qilishning mazmuni; Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish; Ta'lim muhitini raqamlashtirish orqali iqtisodiyotga o'tishning istiqbollari; Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy innovatsion - faoliyatga tayyorlashda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi; Professional ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha istiqboldagi rejalar muhokama qilindi.

Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya quyidagi yo'nalishlarda o'tkazilishi rejalashtirilgan:

1-sho'ba: Arxitektura - qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini transformatsiya qilishning mazmuni

2-sho'ba: Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish

3-sho'ba: Ta'lim muhitini raqamlashtirish orqali iqtisodiyotga o'tishning istiqbollari

4-sho'ba: Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy innovatsion - faoliyatga tayyorlashda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi.

5-sho'ba: Professional ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning ustuvor yo'nalishlari.

TASHKILY QO'MITA

1-SHO'BA: ARXITEKTURA - QURILISH SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING MAZMUNI

YANGI O'ZBEKISTONDAGI ENG YANGI – TAQU

E.B.Xaltursunov

TAQU, Akademik faoliyat prorektori v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada universitetning shakllanish tarixi, bugungi kundagi faoliyati, ta'lim sohasidagi erishgan va erishayotgan yutuqlari, shuningdek, Universitetning transformasiya jarayoni jadallashtirish maqsadida, Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qo'shimcha ravishda maqsadli moliyalashtirilishi: etakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlarini joriy etilishi; o'quv dasturlari xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning akkreditasiyasidan o'tkazish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqildi; bir nechta salohiyatli chet ellik va (yoki) Vatandosh professor-o'qituvchilarni shartnoma asosida universitetlarning boshqaruv, ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonlariga jalb etilishi, va universistet faoliyati ilmiy jihatdan asoslangan.

Аннотация: В данной статье рассматривается история становления университета, его деятельность на сегодняшний день, достигнутые и достигаемые успехи в области образования, а также целевое финансирование университета в целях ускорения процесса трансформации, за счет средств государственного бюджета: внедрение образовательных программ ведущих зарубежных высших учебных заведений; разработаны меры по аккредитации образовательных программ международно признанных организаций; привлечение на договорной основе нескольких потенциальных зарубежных и (или) отечественных профессоров-преподавателей к управленческим, образовательным и научно-исследовательским процессам Вузов, а деятельность вуза научно обоснована.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, universitetning ta'lim jarayoni, ta'lim tizimi, ilmiy faoliyat, ilmiy salohiyat

Ключевые слова: высшее образование, образовательный процесс Вуза, система образования, научная деятельность, научный потенциал

Universitet 1991-yil 6-mayda O'zbekiston SSR Prezidenti I.A.Karimovning farmoni bilan Abu Rayxon Beruniy nomidagi Toshkent politexnika institutining

arxitektura fakulteti, sanoat-qurilish fakulteti va qurilish fakulteti negizida tashkil etilgan.

Universitet arxitektura-qurilish ta'lim yo'nalishlari bo'yicha respublikaning yetakchi ta'lim muassasasi bo'lib, kadrlar tayyorlash milliy dasturi bo'yicha oliy ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga mas'uldir. 2023 yilgacha Universitetda "Arxitektura", "Bino va inshootlar qurilishi", "Muhandislik va qurilish infratuzilmasi", "Qurilish menejmenti" fakultetlari, shuningdek, akademik litsey, qurilish sohasida rahbar kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi va xalqaro aloqalar bo'limi faoliyat ko'rsatib kelgan edi.

Toshkent arxitektura-qurilish universitetida 335 nafar professor-o'qituvchilar, jumladan, 28 nafar fan doktori va professorlar, 121 nafar fan nomzodi va dotsentlar faoliyat ko'rsatmoqda. Universitet professor-o'qituvchilarining 50 % dan ortig'i ilmiy daraja va unvonlarga ega. Universitetda 13 ta bakalavriat yo'nalishi va 20 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha besh mingdan ortiq talaba tahsil oladi. O'quv jarayonida talabalar chuqur nazariy bilim va ilmiy-amaliy maslahatlar olish imkoniyatiga ega. Universitetda arxitektura va qurilish yo'nalishi bo'yicha doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha ixtisoslashtirilgan kengashlar faoliyat ko'rsatmoqda. Fan va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi orqali 7 ta yo'nalish bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlanadi. Universitet ilmiy-tadqiqot ishlari O'zbekiston Respublikasining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish bo'yicha Davlat ilmiy-nazariy dasturiga kiritilgan.

Universitet mutaxassislari binolar qurish, jamoat va turar-joy binolarini loyihalash, bino va binolarning zilzilalarga chidamliligini aniqlash, texnogen chiqindilar asosida yuqori sifatli qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun buyurtmalar qabul qiladi. Universitetning nashriyot-tahririyat bo'limi tomonidan darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar va ilmiy ishlar to'plamlari nashr etiladi.

Umumiy texnologiya va maxsus fanlarni o'rganish, eng yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasi qurilish sohasida rahbar kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi tashkil etildi.

1996 yildan buyon faoliyat yuritayotgan Arxitektura-qurilish universiteti qoshidagi akademik litseyda 300 nafarga yaqin o'quvchi tahsil olmoqda. Litseyda 2 nafar professor, 2 nafar fan nomzodi va dotsentlar dars berishadi.

TAQU MDH, Osiyo va Yevropaning 20 dan ortiq yetakchi universitetlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida o'z faoliyatini olib borilmoqda.

Universitetda professor-o'qituvchilar va talabalar uchun: 1075,2 m² maydoni bo'lgan axborot-resurs markazi, internet tarmog'iga ulangan zamonaviy

kompyuterlar va 247 958 dona elektron kitoblar fondi mavjud. Universitetda turli sport turlari bilan shug'ullanish uchun sport majmuasi mavjud; viloyatlardan kelgan talabalar uchun yotoqxonalar ajratilgan; Universitetning asosiy binosida oshxonalar, fakultetlarda bufetlar mavjud.

Kafedralarda taniqli va yuqori malakali mutaxassislar ishlaydi. Bir qator professor-o'qituvchilar Gollandiya, Germaniya, Fransiyaning yetakchi o'quv markazlarida o'z malakasini oshirib kelmoqda. Fakultetlarda bilim olish va chet tillarini yuqori saviyada o'rganish uchun barcha sharoit yaratilgan. Fakultetlarda 11 kompyuter, 2 lingafon va multimedia kabinetlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali TAQU talabalar AQSH, Angliya va Janubiy Osiyo mamlakatlari universitetlariga o'qishga yuborilmoqda.


Oliy kasbiy bilim va ko'nikmalar bitiruvchilarga ularning bank, soliq, qurilish va loyihalash tashkilotlarida muvaffaqiyatli qo'llashga imkoniyatini beradi. Respublika olimpiadalarida qatnashayotgan talabalar yakkalik va jamoaviy bahslarda sovrinli o'rnlarni qo'lga kiritib, izchil yuqori natijalarga erishmoqda.

Universitet olimlari tomonidan respublikada qurilish iqtisodiyotini liberallashtirish sharoitida qurilish majmuasi samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Universitetning kunduzgi, sirtqi va kechki shakldagi bakalavriatning 24 ta ta'lim yo'nalishi va 29 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha sakkiz yarim mingdan ortiq talaba tayyorlanmoqda. O'quv jarayonida talabalar chuqur nazariy bilim va ilmiy-amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ko'plab mutaxassisliklar bo'yicha doktorantura orqali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlanadi. 2018/2019 o'quv yilidan boshlab universitetda sirtqi va 2022/2023 o'quv yilidan masofaviy ta'lim ochildi, unda ta'lim faqat to'lov asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston hukumatining 2018-yilda qabul qilingan qaroriga muvofiq, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti talabalar dizayn yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari va mamlakatimiz iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlari korxonalarida majburiy amaliyot o'tamoqda. 2017-yilda O'zbekiston hukumati Toshkent shahrining Yunusobod tumanida yangi universitet binosi qurilishini boshlash to'g'risida qaror qabul qildi. 2022 yildan universitetimiz Toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi Yangi shahar ko'chasidagi yangi binolarga ko'chib kelgan (rasm 2). Avvalo, universitet uchun ikkita 5 qavatli o'quv korpusi, 8 qavatli ma'muriy bino barpo etildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 10-avgust kuni universitetga yangi binosiga tashrif ham buyurgan edi. Shavkat Mirziyoyev bu yerga 2020 yil oktyabrda kelgan, universitet negizida qurilish klasteri tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar bergan edi. Shundan so'ng, ajratilgan maydon kengaytirilib, yangi loyiha ishlab chiqildi.

TOSHKENT ARXITEKTURA - QURILISH UNIVERSITETINING TASHKILIY TUZILMASI



Rasm 1. Tashkent arxitektura-qurilish universitetining yangi tuzilmasi.



Rasm 2. Toshkent arxitektura-qurilish universitetining yangi binosi.

2018-yildan boshlab universitetda 7 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha, 2022 yildan boshlab esa 8 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha Belarus Milliy texnika universiteti bilan qo'shma ta'lim yo'lga qo'yilgan. Germaniyaning Anhalt amaliy fanlar universitetida 1 ta magistraturada.

21.08.2021 dagi 535-sonli hukumat qarori ko'ra shu paytgacha Istanbul texnika universiteti professori sifatida faoliyat yuritib kelayotgan Ercan Kahya Toshkent arxitektura-qurilish instituti rektori etib tayinlandi.

Bugungi kunga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noabrdagi "Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-416-sonli qarori asosida universitetda transformatsiya o'zgarishlar yuz berdi.

Universitet Kuzatuv kengashi tashkil etildi. Kuzatuv kengashi qaroriga muvofiq Universitetning yangi tuzilmasi tasdiqlandi (rasm 1). 2023 yil 1 yanvardan boshlab universitet akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqillik berildi. Universitet tuzilmasida Strategik rivojlantirish bo'yicha birinchi prorektor lavozimi joriy etildi.

Qarordagi Universitetni transformatsiya qilish va kompleks rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"sidagi vazifalar ijrosini ta'minlash, rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish hamda xalqaro tan olingan reyting tashkilotlarining ro'yxatiga kiritish bo'yicha bugungi kunga qadar quyidagi ishlar amalga oshirildi.

2023-2024 o'quv yillidan 14 bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va 19 magistratura mutaxassisliklarini xalqaro ta'lim va kasb klassifikatorlariga muvofiq maqbullashtirildi.

Universitetning yangi Logotipi ishlab chikildi. Yangi 4 fakultet (Muhandislik, Texnologiya, Arxitektura va Menejment) va 14 kafedra (Iqtisodiyot, Menejment, Dunyo tillari, O'zbek tili va adabiyoti, Arxitektura yodgorliklari restavratsiyasi, Arxitektura, Shaharsozlik, Dizayn, Geomatika muhandisligi, Qurilish va atrof-muhit muhandisligi, Raqamli texnologiyalar, Hidrotexnika va Geotexnika muxandisligi texnologiyasi, Qurilish muhandisligi texnologiyasi, Qurilish materiallari texnologiyasi) tashkil qilindi. Kechki ta'lim turi ochildi.

Universitetning transformasiya jarayoni jadallashtirish maqsadida 2023-2024 yillar davomida Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qo'shimcha ravishda maqsadli moliyalashtirildi: etakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlarini joriy etildi; o'quv dasturlari xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning akkreditatsiyasidan o'tkazish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqildi; bir nechta salohiyatli chet ellik va (yoki) Vatandosh professor-o'qituvchilarni shartnoma asosida universitetlarning boshqaruv, ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonlariga jalb etildi; Turkiya, Germaniya va Janubiy Koreyaga 20 professor-o'qituvchilar oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalariga malaka oshirish va stajirovkaga yuborildi.

Universitetning qayta tashkil etilishi munosabati bilan professor-o'qituvchilar, ma'muriy-boshqaruv va o'quv-yordamchi xodimlar tarkibi tanqidiy qayta ko'rib chiqildi hamda Universitetga yuqori malakali, halol va tashabbuskor kadrlarni jalb etildi.

Universiteti huzurida Texnopark tashkil etilishi rejalashtirilgan va uning asosiy faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan texnologik va innovatsion g'oyalarga yo'naltirilgan startap loyihalarni yaratish hamda amaliyotga joriy etish;

arxitektura va qurilish sohasida raqobatbardosh energiya tejamkor qurilish materiallarini ishlab chiqarish va dasturiy xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni ichki va tashqi bozorlarda ilgari surish, innovatsion ishlanmalarni rag'batlantirish;

yosh olimlarning ilmiy izlanishlari va maqsadli loyihalar doirasida milliy va xorijiy tashkilotlarning, shu jumladan ilmiy va ta'lim muassasalarining buyurtmanomalari asosida arxitektura, qurilish konstruksiyalari va materiallari, muhandislik kommunikatsiyalari, qurilish fizikasi va boshqa yo'nalishlarda ilmiy tajriba va tadqiqotlar olib borish;

iqtisodiyot tarmoqlarining yetakchi kompaniyalari mutaxassisleri ishtirokida sohaning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan mahorat darslari, treninglar va malaka oshirish kurslari, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlar o‘tkazish.

Xulosada shuni aytish lozimki, hozirgi kungacha transformatsiya jarayoni natijasida Universitetimiz dunyodagi reytingi va nufuzi yanada yangi pogonaga qo‘tarilishi asos bo‘ldi va transformatsiya jarayoni yakunida zamon talablariga javob beradigan va rivojlangan mamlakatlar universitetlar qatoriga etib borilishi zamin yaratiladi.

ASSESSMENT OF ARCHITECTURAL STUDENT PRESENTATION AND USED SOFTWARE TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

1. Sattorov Zafar Muradovich. 2. Aripova Nasiba Atxamovna .3 Ayoubi, Majid, 3. Yuvasheva Dilnoza. 5. Mirzoev Yunus

Sattorov Zafar Murodovich, Ph.D., professor, Tashkent University of Architecture and Construction, General Secretary.

Aripova Nasiba Atkhamovna, associate professor, head of the department "Uzbek language and literature" of Tashkent University of Architecture and Construction.

Dalian University of Technology, School of Software Technology, Software Engineering Department, China

Dalian University of Technology, School of Materials science and engineering, Materials science Department, China

Dalian University of Technology, School of mechanical engineering, Mechanical automation Department, China

Abstract: This study examines the impact of educational technology tools some of which include; Computers, mobile devices, smartboards, software, cloud computing, 3d printing and virtual facilities. It was motivated by a dearth of empirical studies on the impact of information technology tools in relation to performance of users in schools of architecture in China. Methodology for this research employed both primary and secondary data collection processes. Secondary data were collected from documented literature and archival records. Primary data were collected through interviews conducted, physical investigation and the use of structured questionnaires. To analyze data

obtained, inferential and descriptive (tables, frequencies, charts, moquette) statistical tools were employed. Significant relationship between the performance of students of Architecture and the inclusion of educational technology tools in selected study areas were examined. Findings from empirical investigation in this study show that the inclusion of technology tools in architectural education in China schools of architecture has a significant effect on the performance of students of architecture.

Key words: Architectural education, 2D and 3D modeling, Performance, Technology.

Introduction

Lately, the construction industry is facing substantial technological transformations that enrich both architecture and engineering curricula. Advances in technology have led to changes in the perception of individuals for education in the construction industry. Today's graduates need to develop broader perspectives to consider both cost, time and quality constraints with social, environmental and lifecycle related economic factors (Beleric-Gerber, Gerber, & Ku, 2011; Johnson & Gunderson, 2009) [1].

Contemporary youth spend an enormous amount of time sarong the Internet for social and academic reasons [2]. Besides, online learning has been growing steadfastly for the past two decades [3]. Although current students use technology more than any previous generation, such use is notably absent within the classroom [4]. If students do not learn with and through technology, it is probably more due to the lack of meaningful integration of it by the teacher, than the lack of student technological abilities [5]. Various barriers prevent successful technology integration into teaching and learning environments [6], despite its proliferation [7] and access to a technology-rich environment [8]. Focusing on positive correlations between the characteristics and their use of technology, Thompson (2013) and Bolaños and Salinas (2021) argued that students today approach learning differently. Educators also use new approaches to cater to individual needs [9]. Kolikant (2012) observed a disconnect between theory and practice on the efficacy of learning technology and implementing tools in higher learning institutions. Some ways to narrow the gap between theory and practice are to incorporate students' conceptions of learning technology into the curriculum, keeping abreast of current technological approaches in the field of study, and enabling students to become better prepared for higher education and employment. [10] As material for this Study 45 presentation sheets of architectural faculty student bachelor students selected and assessed. Examples of used presentation presented in following (Check Figure 1).



Figure 1 Examples of student's presentation

To assess architectural student presentations, a mixed-methods approach will be used. Firstly, a content analysis will be conducted to systematically review the presentations and identify key themes and ideas. Additionally, participant observations and interviews will be conducted to gather qualitative data and gain a deeper understanding of the students' experiences and perceptions of using software technologies in educational settings.

Table 1 Evaluated Factors and Descriptions for Assessment

Factors	descriptions
Site analysis	Evaluate the students' ability to analyze and understand site characteristics, including topography, climate, and context, as they relate to the project design.
Concept	Assess the students' ability to create a clear and cohesive concept that is responsive to the site context and program requirements.
Plans, sections, elevations	Evaluate the students' ability to develop accurate and comprehensive plans, sections, and elevations, demonstrating their understanding of architectural conventions and design principles.
Sectional perspective	Assess the students' ability to create a convincing sectional perspective, displaying their understanding of spatial relationships and depth perception.

Internal perspective	Evaluate the students' ability to create a detailed and accurate internal perspective, demonstrating their understanding of spatial organization, lighting, and material selection.
External perspective	Assess the students' ability to create a convincing external perspective, displaying their understanding of scale and proportion.
Structure	Evaluate the students' ability to design and evaluate structural systems, considering factors such as structural integrity, materials, and connections.
Landscape	Assess the students' ability to create engaging and visually pleasing landscape designs, considering elements such as vegetation, hardscape, and spatial composition.

Methodology

Presentation means in the illustrations by the students includes: text, Photo-collage, sketch, two-dimension drawings (2D), three dimensions (3D), Marquette, diagrams, and neighborhood maps. Used illustrations inside the presentations include; texts, site analysis, concept plans, sections, elevations, sectional perspectives, internal perspectives, external perspectives, structure, and landscape. In this assessment we also evaluated percentage area for each of the previous used illustration in the presentations. Also used software in the presentations for drawings and 3d modelling also recorded and evaluated. There are several software applications that are commonly used in the day-to-day activities of studying and creating architectural designs. This software provides students with the necessary tools and functionalities to effectively visualize, analyze, and simulate architectural concepts. Here are some of the main software used by BA architectural students in Table 2.

Table 2 main software used by BA architectural students

Software	Main usage
AutoCAD	AutoCAD is a computer-aided design (CAD) software widely used by architects to create technical drawings, floor plans, and elevations. It allows students to accurately represent complex architectural details, ensuring accuracy and precision in their designs.

Revit	Revit is an advanced architectural design software that combines 3D modeling with BIM (Building Information Modeling) capabilities. It allows architects to create immersive, real-time visualizations of their designs, making it easy to share and collaborate with stakeholders.
SketchUp	SketchUp is a user-friendly 3D modeling software that allows students to quickly create and refine architectural models. It is particularly useful in the early stages of design, allowing students to explore different design options and iterations.
Rhinoceros	Rhinoceros is a powerful 3D modeling software that is particularly well-suited for complex architectural designs. It allows students to create intricate geometries, manipulate surfaces, and simulate various design scenarios.
Photoshop	Adobe Photoshop is a versatile image editing software that is extensively used in architectural visualization. It allows students to manipulate images, create realistic renderings, and assemble virtual scenes to showcase their architectural designs.
InDesign	InDesign is a professional page layout software that allows students to design professional-looking portfolios, presentations, and other architectural documentation. It helps in organizing and presenting architectural ideas and concepts in a visually appealing manner.
ArchiCAD	ArchiCAD is another popular architectural design software that offers a comprehensive set of tools for creating and manipulating architectural models. It offers features such as intelligent 3D modeling, building information modeling, and visualization capabilities.

The results of the assessment will be organized into different categories, including content organization, visual aids, software technologies used, and audience engagement. The findings will provide a comprehensive overview of the strengths and weaknesses of architectural student presentations and identify areas for improvement.

Results:

To evaluate the architectural students' presentations, we have discussed the means within the following three evaluation points. First, the Students' presented

means and the overall percentage of different the mean used (Table 3). The second prospective summarizes the usage of space by different contents in the presentation (Table 4). The last table indicates the percentage of different software technologies used to represent the architectural designs (Table 5).

Table 3 Presented means and their percentage (%)

Presentation means	Text	Photo-collage	Sketches	2D	3D	Marquette	Diagrams	Neighborhood map
Presentation	23	18	12	45	45	15	20	12
Percentage (%)	51	40	27	100	100	33	44	27

In Table 3, Generally, the Text covers more than the half of presentation which is acceptable due to the explanation needed for the contents. Consequently, it is visible that every means used in the presentation are 2D and 3D. Diagrams as one of the means to visually represent the data are of high importance in presentation which is available in almost half of the presentations. The use of Photo-Collage, Marquette, Sketches and Neighborhood maps in the presentations is considered less than others respectively.

Table 4 Used illustrations and covered space percentage (%) in presentations

Used illustrations	text	Site analysis	Concept plan	Plans, sections, elevations	Sectional perspective
Presentation	23	23	18	45	12
Space (%)	5.3	6.7	6.6	33.1	5.3
used illustrations	Internal perspective		External perspective	Structure analysis	landscape design
Presentation	14		45	9	18
Space (%)	5.9		25.9	5.0	6.2

We discussed the types of illustration and respective space it covered in presentation to analyze the important factors needed in effective presentation for the architectural students. In Table 4, many of these factors has been mentioned. As evident, the majority of the covered space within the presentation are the plans, sections, elevations and on the other side, the external perspective of the presentations covers more than 59 % of it. The usage of other materials has been considered to

cover less area needed. The share of the percentage of each material has been visualized in the Figure 2.




Figure 2: Used Illustrations and Covered Space Percentage

Table 5 Used software and usage percentage (%)

Name	AutoCAD	Sketchup	3rdmax	Revit	Photoshop	InDesign	ArchiCAD	Rhinoceros
software used	30	20	14	8	34	11	6	8
%	23	15	11	6	26	8	5	6

To evaluate the usage of different technologies by students we can see from Table 5, that the Photoshop and AutoCAD are the mostly used software technologies respectively. Followed by Sketchup which is considered as one of the best 3D modeling software technologies. The percentage of the share of different technologies can be seen in Figure 3.




Figure 3: Percentage of Each Technology used by students

To conclude the results, we should consider the use of 2D and 3D modeling in higher priority while presenting the materials by students of architecture. On the other hand, the plans, sections, elevations and the external perspectives needed to contain the majority of the presentation which shows the importance of the mentioned illustrations. In terms of technology, AutoCAD and Photoshop software technologies are mostly used in the work done by students. Still there are plenty of choices available that students can prefer out of the new technologies which can do the architectural design in best was possible.

Conclusion

The analysis of the results will be accompanied by a comprehensive discussion. The discussion will compare the results of this study with previous research on architectural education and discuss the implications of the findings for architectural educators and institutions. It will also explore the challenges and opportunities associated with integrating software technologies into architectural education.

Each factor can play a crucial role in assessing architectural students' presentation skills. Evaluation should be holistic and include several factors to assess the overall performance.

In conclusion, this assessment will provide valuable insights into architectural student presentations and their use of software technologies in educational settings. The findings of this study will contribute to the development of more effective teaching methods and encourage the integration of technology into architectural education. Through this assessment, architectural educators and institutions can identify areas of improvement and enhance their teaching practices.

The paper suggests that schools of architecture in China should encourage the inclusion of technology tools in architectural education. Implementation should cover visual/design courses as well as other practical and theoretical endeavors. The use of technology tools in architecture should not be seen as just a technical skill, but rather a way of thinking for the architecture student. By continuously using technology tools in learning, users will be able to master and control technology better which will lead to enhanced creativity and performance.

References

1. Abudayyeh, O., Cai, H., Fenves, S. J., Law, K., O'Neill, R., & Rasdorf, W. (2004). Assessment of the computing component of civil engineering education. *Journal of Computing in Civil Engineering*, 18(3), 187–195.

2. Allan, G. (2013). *Modes of learning: Whitehead's metaphysics and the stages of education*. State University of New York Press.
3. Allen, S. (2012). *The future that is now*. *Places Journal*. Andeans, M., Livingston, C., & Nelson, S. (2012). *In the people's interest? – Design/Build and the shifting landscape of public education*. Paper presented at the International Live Project Pedagogy Symposium, Oxford Brookes University.
4. Andersson, R. & Thorny, R. (2000). *Encouraging Students in Large Classes*. The thirty- SIGCSE technical symposium on Computer science education, March 8–12, in Austin, Texas.
5. Artily, C., Baumert, J., Julius-McElhanney, N., & Paschal, J. (2003). *Learners for life: 29 student approaches to learning: Results from PISA 2000*. Organization for Economic Cooperation and Development. Ashworth, P., & Lucas, U. (2000).
6. *Achieving empathy and engagement: A practical approach to the design, conduct and reporting of phonomyography research*. *Studies in Higher Education*, 25(3), 295–308.
7. Badland, H. M., opt, S., Witten, K., Kearns, R. A., & Manoa, S. (2010). *Can virtual streetscape audits reliably replace physical streetscape audits?* *Journal of Urban Health-Bulletin of the New York Academy of Medicine*, 87(6), 1007–1016. [https:// doi. org/ 10. 1007/ s11524- 010- 9505-x](https://doi.org/10.1007/s11524-010-9505-x).
8. Ben-Joseph, E., Lee, J. S., Cromley, E. K., Laden, F., & Troped, P. J. (2013). *Virtual and actual: Relative accuracy of on-site and web-based instruments in auditing the environment for physical activity*. *Health & Place*, 19, 138–150. [https:// doi. org/ 10. 1016/j. health place. 2012. 11. 001](https://doi.org/10.1016/j.healthplace.2012.11.001).
9. Bicen, H., & Kocakoyun, S. (2018). *Perceptions of students for gamification approach: Kahoot as a case study*. *International Journal of Emerging Technologies in Learning (iJET)*, 13(02), 72–93.
10. Bingimlas, K. A. (2009). *Barriers to the successful integration of ICT in teaching and learning environments: A review of literature*. *Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education*, 5, 235–245. Bishop, G. (2006). *True independent learning - an andragogical approach: Giving control to the learner over choice of material and design of the study session*. *Language Learning Journal*, 33, 40–46. *1154 Education and Information Technologies (2022) 27:1133–1157*

ARXITEKTURA-QURILISH SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH HAQIDA

*Prof. t.f.f.d (PhD). Ilyasov Allanazar Torexanovich¹, k.o'qituvchi Kenjebayeva Nursulu Muxtarovna¹, k.o'qituvchi Urazxanova Elvira Muratovna¹
Qoraqalpoq davlat universiteti¹*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi davrdagi aktual masalalardan biri bo'lgan arxitektura-qurilish sohasida kadrlarni tayyorlash tizimidagi muammolar va ularning yechimlari o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Arxitektura, qurilish, kadrlar, sanoat, ta'lim dasturlari.

Аннотация: В данной статье исследуется один из актуальных вопросов современности, проблемы в системе подготовки кадров в сфере архитектуры и строительства и пути их решения.

Ключевые слова: Архитектура, строительство, кадры, промышленность, образовательные программы.

Annotation: This article examines one of the pressing issues of our time, problems in the system of personnel training in the field of architecture and construction and ways to solve them.

Key words: Architecture, construction, personnel, industry, educational programs.

Hozirgi davrda arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini ilg'or xorijiy tajriba hamda xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish hamda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasini mustahkamlash va arxitektura-qurilish sohasidagi kadrlar yetishmovchiligi dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu masalalarga tegishli chora-tadbirlar ko'rish maqsadida prezidentimiz tarafidanham bir necha ishlar amalga oshirilmoqda. Bu chora-tadbirlarga misol qilib 2022-yilning 8-noyabr kuni qabul qilingan PQ-416-sonli qarorni aytib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu qarorning qabul etilishi natijasida hozirgi davrda qurilish sohasida kasbiy ta'limning barcha darajalari va yo'nalishlari bo'yicha kadrlar, ayniqsa, raqamli iqtisodiyot, atrof-muhitni boshqarish va jamiyatning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondirish bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lgan kadrlarning jiddiy tanqisligi kuzatilmoqda. Bunday muammolarni yechish uchun qurilish ta'limi oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

Arxitektura va qurilish bilan bog'liq kasblar nufuzi va talabini oshirish, keng ko'lamlil kasblar bo'yicha ishchilar tayyorlash, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim dasturlari bo'yicha qurilish tashkilotchilarining malakasini oshirishni jadallashtirish;

shu jumladan, ishlab chiqarish jarayonlariga tahsil olayotgan talabalarni jadal jalb etish, raqamli iqtisodiyot kompetensiyalari sohasida ishlaydigan mutaxassislar va soha yetakchilarining malakasini oshirish, yuqori malakali muhandis-konstruktorlar, arxitektorlar, shaharsozlik va restavratsiya arxitektorlari, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, shuningdek, kelajak kasblari uchun noyob malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash.

Ushbu muammolarni hal qilish mamlakatimizning turli mintaqalarida, shuningdek Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida ta'lim va fanning yuqori darajasini kafolatlaydigan ta'lim va ilmiy makonning birligini ta'minlaydigan tizimli yondashuvni talab qiladi. Qurilish industriyasining kadrlar salohiyatini ta'minlashning birlamchi vazifasi – sohada talab qilinadigan kasblar va kelgusi yillarda talab qilinadigan istiqbolli kasblar bo'yicha ishchilarning malakasini oshirishdan iborat. Qurilish sohasi tashkilotlari va oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda kollejlarda ishchi kasb-hunar egalariga kasb-hunar o'rgatish markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Texnikumlar va oliy o'quv yurtlari ishtirokida ishlab chiqilgan kasbiy ta'lim dasturlari keyinchalik boshqa litsenziyalangan kasb-hunar ta'limi markazlarida takrorlash uchun taklif qilinishi mumkin.

Oliy o'quv yurtlarining vazifasi qurilish sanoatining innovatsion rivojlanishini ta'minlash uchun muhandislik va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashdan iborat bo'lishi kerak. Bundan tashqari, universitetlar tizimni shakllantirish funksiyalarini bajarishi kerak - butun sanoat ta'limining rivojlanish vektorini va vertikal ta'lim tizimini qurish tamoyillarini aniqlashi lozim. Ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlari, jumladan, kasb-hunar ta'limi markazlari va texnikumlar negizida kasb-hunar ta'limi majmualarini yaratish istiqbolli hisoblanadi. Bunday komplekslarning faoliyati tuzilgan strategik sheriklik shartnomalari asosida tarmoqning yetakchi korxonalarini bilan bevosita hamkorlikda amalga oshirilishi kerak. Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va sifatini ta'minlashning barcha bosqichlarida ish beruvchilarning ishtiroki ta'minlanishi kerak.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida yangi talab qilinadigan malakalarga ega bo'lish uchun qurilish sohasida kadrlarni tizimli ravishda kasbiy qayta tayyorlashni tashkil etish zarur bo'lmoqda. Bu vazifa barcha darajadagi sanoat xodimlari uchun har tomonlama hal etilishi kerak. Ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarida, jumladan, mamlakatimizning butun hududini qo'shimcha kasb-hunar ta'limi bilan qamrab olishga qaratilgan qo'shimcha kasbiy dasturlarni amalga oshiradigan qo'shimcha ta'lim markazlari yaratilishi kerak.

Talabalar tomonidan olingan malakalarning sanoat ehtiyojlariga muvofiqligini baholashning etakchi vositasi malakalarni mustaqil baholash bo'lishi kerak. Kasb-

hunar ta'limining barcha bo'g'inlari (Texnikumlar, oliy ta'lim (bakalavr, mutaxassis, magistratura, yuqori malakali kadrlar tayyorlash) va kasb-hunar ta'limi) ta'lim dasturlari bo'yicha o'quvchilarning amaliy tayyorgarligi sifatini baholash tartibini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda mamlakatimizda arxitektura-qurilish sohasida kadrlarni tayyorlash eng aktual masalalardan biri bo'lib turibdi. Bunga misol qilib bir qator rivojlangan mamlakatlarda arxitektor-qurilishchi kadrlarning xalq soniga nisbatini aytib o'tsak bo'ladi. Masalan Buyuk Britaniyada bu ko'rsatgich 1/1900, Germaniyada 1/1850, Yaponiyada 1/2000, Italiyada 1/414 ga teng bo'lsa bizlarda bu ko'rsatgich anchagina past ekanligini qayd etish lozim. Shu sababli ham mamlakatimizda yuqori malakali aritektura-qurilish sohasidagi kadrlarni tayyorlash eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.11.2022 yildagi PQ-416-son
2. КОНЦЕПЦИЯ РАЗВИТИЯ АРХИТЕКТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ (Федеральное учебно-методическое объединение По УГСН «Архитектура»)
3. В.Ш.Нуритдинова «Цифровая экономика и ее роль в системе образования» Economy and business

ГРАФИК DASTUR YORDAMIDA ARHITEKTURAVIY ELEMENTLARNI LOYIHALASHDA UCH O'LCHOVLI MODELLASHTIRISHNING AMALIY AHAMIYATI

Rizayev X.T. katta o'qituvchi -TAQU

Аннотация. Mazkur maqolada Autodesk 3ds Max uch o'lchovli modellashtirish dasturining arxitekturaviy loyihlashda dolzarbligi muhokama qilingan. Ushbu dasturiy ta'minotni professional arxitektura loyiha va dizayni sohasida, shuningdek, o'quv loyihalash sohasida qo'llashning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, bu dasturiy ta'minotning afzalliklari va O'zbekistonda ishlatilishi haqida ma'lumot keltirilgan.

Аннотация. В этой статье обсуждается важность программного обеспечения для трехмерного моделирования Autodesk 3ds Max в архитектурном проектировании. Рассмотрены основные направления применения данной программы в области профессионального архитектурного проектирования и дизайна, а также в области учебного дизайна. Он также

предоставляет информацию о преимуществах этого программного обеспечения и его использования в Узбекистане.

Annotation. This article discusses the importance of Autodesk 3ds Max 3d modeling software in architectural design. The main directions of application of this program in the field of professional architectural design and design, as well as in the field of educational design are considered. It also provides information on the benefits of this software and its use in Uzbekistan.

Kalit soʻzlar: uch oʻlchovli modellashtirish, arxitekturaviy loyihalash, Autodesk 3ds Max, arxitektura, dizayn.

Ключевые слова: трехмерное моделирование, архитектурное проектирование, Autodesk 3ds Max, архитектура, дизайн.

Key words: 3d modeling, architectural design, Autodesk 3ds Max, architecture, design.

Kirish: 3D modellashtirish butun dunyo boʻylab arxitektorlar, muhandislar va dizaynerlar tomonidan ish samaradorligini oshirish va loyihalarning grafik qismida eng katta badiiy ifodasiga erishish uchun keng qoʻllaniladi. Hozirda 3d modellashtirish dasturlari juda koʻp boʻlib, ularning har biri maʼlum qobiliyat va vositalarga ega. U yoki bu dasturni tanlash, bir tomondan, foydalanuvchining shaxsiy istaklari va unga yuklatilgan vazifalarning oʻziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi, boshqa tomondan, ishchi kompyuterning texnik xususiyatlarini inobatga olgan holda aniqlanadi. 3d modellashtirish va koʻrsatishning eng keng tarqalgan va tez-tez ishlatiladigan dasturlaridan biri bu Autodesk 3ds Max dasturi. Ushbu dasturiy taʼminot juda koʻp ishlatilish sohaslariga ega, jumladan arxitektura va qurilish, grafik va atrof-muhit dizayni, marketing va reklama, animatsiya va boshqalarda qoʻllaniladi. Ushbu maqolada arxitekturaviy loyihalash sohasida dasturiy taʼminotdan foydalanish xususiyatlari va imkoniyatlari koʻrib chiqiladi.

3ds Max - bu Autodesk tomonidan 3d grafika bilan toʻlaqonli ishlash uchun yaratilgan, nafaqat toʻgʻridan-toʻgʻri 3d modellashtirish uchun, balki yuqori sifatli animatsiya yaratish uchun ham kuchli vositalarni oʻz ichiga olgan professional dasturiy taʼminot toʻplami ishlab chiqilgan. Koʻproq fotorealistik surʼatlarga (renderlarga) erishish uchun siz ushbu dastur uchun maxsus ishlab chiqilgan, masalan, Corona Renderer, V-Ray, FStorm va OctaneRender kabi yanada kuchli rendererlardan (vizualizatsiya yaratish uchun maxsus yaratilgan qoʻshimcha dasturiy taʼminot) foydalanishingiz mumkin. Ushbu dastur eng tajribasiz foydalanuvchi uchun ham turli xil gʻoyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga va turli xil maqsadlarga erishishga imkon beradi, bunga sodda va tushunarli dastur interfeysi va tayyor modellar hamda materiallarning turli xil kutubxonalari yordam beradi. 3ds Max turli

xil arxitektura ob'yektlarini modellashtirish uchun zarur bo'lgan ko'plab vositalarga ega bo'lganligi sababli, turli sohalar mutaxassislari, shu jumladan me'morlar tomonidan talabga javob beradi.

3ds Max dasturiy ta'minoti professional darajadagi integratsiyalashgan 3d animatsiya, renderlash va poligonal modellashtirish imkoniyatlarini beradi, bu dizaynerga texnik jihatlariga emas, balki loyihaning ijodiy tomoniga e'tibor qaratishda ko'maklashadi. Shuningdek, tezlashtirilgan grafik yadro yordamida vizual sifat va ishlash ko'rsatkichlari yaxshilash mumkin.

3ds Max da arxitekturaviy modellashtirishni uchta asosiy yo'nalishga bo'lish mumkin:

- 1) yangi me'moriy modelni yaratish;
- 2) mavjud binoning batafsil takrorlanishi;
- 3) mavjud shaharsozlik muhitida binoning yuqori darajadagi grafik ekspertizasi.

Shuningdek, bu dasturiy ta'minotda 360 gradusda renderlar qilinib, VR (Virtual Reality) muhitiga o'girish mumkin. Bu esa o'z navbatida loyihalalanayotgan ob'yektning mijozi arxitektor yoki dizaynerning g'oyasini to'g'ri va to'laqonli qabul qilishida katta rol o'ynaydi.

Hozirda O'zbekiston va qolaversa butun dunyoda qo'l grafikasidan butunlay voz kechmagan va o'z ishlarida uch o'lchovli modellashtirish dasturlaridan foydalanmaydigan arxitektura byurolari qolmadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu holat kelajakdagi xodimlarni ishga qabul qilishda nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha bilim va tajriba, balki maxsus dasturiy ta'minot bilan ishlash ko'nikmalari ham talab qilinishiga olib keldi.

Arxitektor-talabalar o'z loyihalarini yaratish uchun turli xil dasturlardan foydalanadilar, ular orasida 3ds Max keng tarqalgan. Ko'pincha, ushbu dastur bilan ishlashning dastlabki bosqichida talabalar quyidagi muammolarga duch kelishadi: taqdim etish uchun yuqori talablar va ko'plab ishchi vositalar mavjudligi, ammo bu qiyinchiliklarni bartaraf etgandan so'ng, dasturda ishlash ular uchun qulaylashadi. Talabalarning o'quv ishidagi muhim tarkibiy qismlardan biri bu yuqori sifatli vizualizatsiya, chunki u loyihaning dastlabki taassurotini shakllantiradi. Loyiha bilan tanishayotgan tanqidchi shaxs avval umumiy rasmga, to'g'ridan-to'g'ri rejalashtirilgan ob'yekt ko'rinishiga, so'ngra faqat uning alohida qismlariga ahamiyat beradi. O'quv jarayonida talabalar o'z ko'nikmalarini Autodesk 3ds Max dasturida oshirsalar, keyinchalik bu ularning shaxsiy kasbiy faoliyatlarida katta yutuq bo'ladi.


Hozirgi kundan - kunga texnologik jihatdan rivojlanib borayotgan dunyoda dasturiy ta'minotlarning ahamiyati beqiyos kattadir. Shu kabi, Autodesk tomonidan ishlab chiqilgan 3ds Max uch o'lchovli modellashtirish dasturi arxitektor, muhandis,

dizayner va boshqa qurilish jarayoni ishtirokchilari uchun katta ko‘makchi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Mazkur dastur yordamida qo‘l mehnati bilan uzoq vaqtda qilinadigan chizma va loyihalarni samarali tarzda amalga oshirishga imkoniyat yaratib berdi. O‘zbekiston Respublikasida arxitekturaviy tashkilotlarning aksariyati shu uch o‘lchovli modellashtirish dasturiy ta‘minotidan foydalanib kelmoqda. Shuningdek, talaba va yoshlardan soha yuzasidan bilim-u ko‘nikmalardan tashqari maxsus dasturiy ta‘minotini yuqori darajada bilish talab etilmoqda. Autodesk 3ds Maxning zamonaviy funksiyalarini tahlil qilish natijasida, ushbu platforma 3d ning murakkab ob‘yektlari va sahnalarini yaratishni soddalashtiradigan keng funksiyalari tufayli afzalroq degan xulosaga kelishimiz mumkin.

3ds max dasturi vektor grafikasida ishlaydigan dasturlar qatoriga kirib, u asosiy uch o‘lchamli sahna ob‘yektlarini yaratish, animatsiya, ba‘zi fizik hodisalarni imitatsiya qilish va ularni tasvirlashga mo‘ljallangan. Undan tashqari bu dastur yordamida olamdagi barcha ob‘yektlarini tasvirlash, ularning harakatlantirish va juda katta fotoaniqlikda vizuallashtirish “Render” qilish imkoniyatini beradi. Dastur ob‘yektlari asosan Mesh- (To‘r), Poly-(Poligon- (To‘rt va undan ortiq uchlarga ega bo‘lgan yuz)), Patch-(Patch) va NURBS (NURBS – V ratsional egri chiziqlar)ga asoslangan modellashtirish ob‘yektlarini qo‘llaydi. Undan tashqari dastur tekis chiziqli splayn chiziqlari bilan ishlash imkoniyatini berib, juda ko‘p uch o‘lchovli modellarni mazkur chiziq turidan foydalanib qurish mumkin. Bu dasturdan asosan arxitektor-dizaynerlar, kino va animatsiya mutaxassislari, rassomlar, injenerlar va boshqa mutaxassislar o‘z ijodiy faoliyatlarida keng foydalanadilar.

Asosiy qism: 3ds Max dasturidagi oddiy primitivlardan, Standard Primitives (Standart primitiv)lar yordamida besetkani uch o‘lchovlik modelini loyihalashni ko‘rip chiqamiz.

Ekranimizning o‘ng tomonida Command Panel-boshqaruv paneli joylashgan. Biz hozir Standard Primitives panelidan oddiy Cylinder ni belgilaymiz Ob‘yektni har-xil usul bilan chizish mumkin. Biz ob‘yekt o‘lchamlari va kordinatalarini klaviatura yordamida qo‘llash usulidan foydalanamiz. Buning uchun Keyboard Entry bo‘limidan ob‘yektni Radius: 250sm va Height: balandligini 30sm o‘lchamlarini yozamiz. Shundan so‘ng Create tugmasini bosamiz. Natijada proeksiya oynasida cylinder ob‘yektini ko‘rishimiz mumkin (1-rasm).





1-rasm.


Yuqoridagi tartibda Cylinder-dan bitta ustun yasaymiz. Standard Primitives panelidan Cylinder ni belgilaymiz. Birinchi ob'yeetni ustida joylashishi uchun balandligini Z: 30sm, cylinder asosning chetiga joylash uchun X: 200sm, Radius: 25sm va Height: balandligini 500sm beramiz (2-rasm). Ushbu ikkita ob'yecktning Perspektive oynasidagi ko'rinishi 3-rasmda ko'rsatilgan holatda namoyon bo'ladi.

2-rasm.

3-rasm.




Navbatdagi bosqichda ob'yecktning (zining) ustida turgan cylinder ustunni aylana bo'ylap teng oltita taxlap chiqamiz. Buning uchun ustunni aylantirish markazini topib olamiz. Command Panel-boshqaruv panelidagi Hierarchy- bo'limiga kirip Affect Pivot Only tugmasini bosamiz. Cylindr ustunning markazida uning aylantirish markazi (ildizi) paydo bo'ladi Uning aylantirish markazini yerdagi zining o'rtasiga joylashtirish uchun Align buyrug'ini bosamiz. Natijada, uning aylantirish markazi zining markaziga joylaship oladi (4-rasm).




4-rasm.

Navbatdagi bosqichda ekranimizning yuqori qismida joylashgan Array buyrug'ini tanlaymiz. Ekranimizning ishchi stoli ichida Array oynasi ochiladi (5-rasm). Ushbu oynani sozlap chiqamiz. Rotate-360 gradusga qo'yamiz, aylanalarni sonini 6-taga tenglimiz, OK tugmasini bosamiz. Natijada, (6-rasm) dagi holat ishchi oynamizda paydo bo'ladi.




5-rasm




6-rasm

Zinani belgilab, o'qini sichqoncha bilan ushlab Shift tugmasini ham birga bosib nusxa ko'chiramiz va ustunlarning tepasiga joylashtiramiz (7-rasm). Besetkamizning ustki qismiga yarim aylana shaklida gumbaz yasaymiz. Buning uchun Standard Primitives buyrug'idan Sphere ni belgilaymiz. Keyboard Entry bo'limidan Sphere (shar) ni Radius: 180sm Hemisphere: 0,5 yozamiz. Shundan so'ng Create tugmasini bosamiz. Natijada, proeksiya oynasida Sphere (shar) ob'yektini ko'rishimiz mumkin. Uni Z kordinata o'qi bo'yicha ushlab Ob'yektimizning yuqorisiga joylaymiz (8-rasm).




8 -rasm.



9-rasm.

Xulosa qilib aytganda biz yuqorida oddiy Standard Primitives buyrug'laridan foydalanib (1-rasm)da tasvirlangan Alisher Navoiy haykali joylashgan besetkani qurib ko'rdik. Dastur imkoniyatlari yordamida murakkab buyruqlardan foydalanib, oddiy Standard Primitives Sirtlarini murakkab detal shakl ko'rinishga keltirishimiz mumkin. Bunga misol qilib talabalarning o'quv darslari davomida chizgan grafik ishidan namunalar ko'ramiz



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murdock, K. L. (2012). Autodesk 3ds Max 2013 Bible (Vol. 799). John Wiley & Sons.
2. . Пекарев Л. Д. Архитектурное моделирование в 3Ds MAX. - СПб.: БХВ-Петербург, 2007. - 256 с. ISBN 978-5-94157-474-2.

КОМПЬЮТЕРНАЯ ГРАФИКА КАК СРЕДСТВО ОТОБРАЖЕНИЯ ВИЗУАЛЬНОЙ ИНФОРМАЦИИ В АВТОМАТИЗИРОВАННОМ ПРОЕКТИРОВАНИИ

Эргашев Алишер Алмахаматович

старший преподаватель Ташкентского архитектурно-строительного университета. 2-сектор: Внедрение цифровых технологий в образовательный процесс.

Аннотация. В статье раскрываются особенности использования системы автоматического проектирования средствами компьютерной графики как вспомогательный элемент в отображении визуальной информации в оформлении архитектурных чертежей, где особая роль отводится применению диалогового метода “оператор-компьютер”. Особое внимание отводится использованию компьютерной графики в шрифтовом оформлении.

Annotatsiya. Maqolada arxitektura chizmalarini loyihalashda vizual ma'lumotlarni ko'rsatishda yordamchi element sifatida kompyuter grafikasidan foydalangan holda avtomatik dizayn tizimidan foydalanish xususiyatlari ochib berilgan, bu yerda “operator-kompyuter” dialog usulidan foydalanishga alohida o'rin beriladi. Shriftlarni loyihalashda kompyuter grafikasidan foydalanishga ham alohida e'tibor berilgan.

Annotation. The article reveals the features of using an automatic design system using computer graphics as an auxiliary element in displaying visual information in the design of architectural drawings, where a special role is given to the use of the “operator-computer” dialog method. Particular attention is paid to the use of computer graphics in font design.

Ключевые слова: автоматическая система, компьютерная графика, формализация, архитектурный проект, визуальная информация, вспомогательный элемент, применение, традиционный метод, наглядные средства.

Kalit so'zlar: avtomatik tizim, kompyuter grafikasi, rasmiylashtirish, arxitekturaviy loyiha, vizual ma'lumot, yordamchi element, qo'llash, an'anaviy usul, tasviriy vositalar.

Key words: automatic system, computer graphics, formalization, architectural design, visual information, auxiliary element, application, traditional method, visual aids.

Компьютерная графика представляет собой совокупность автоматизированных операций, которые предваряются кодированием графической информации в виде алгоритмов. Алгоритм – точное представление, назначающее определенную последовательность выполнения операций и действий, результатом которых является решение данной проектной задачи.

Система автоматизированного проектирования, как и процесс компьютерной графики, представляет собой органическое соединение двух частей. Первая часть – чисто техническая, состоящая из цифровой вычислительной машины – персонального компьютера, устройств ввода исходной информации – сканера и вывода графических изображений в виде чертежей – цветных и черно-белых принтеров. Вторая часть – программно-математическая, базирующаяся на алгоритмах, определяющих как смысловое содержание, так и последовательность процедур автоматизированного проектирования [1].

В процессе построения графического изображения большое значение имеет искусство диалога и содержательность отношения «оператор – компьютер». От того, насколько оператор знает тот или иной программный пакет автоматизированного проектирования, грамотно владеет техникой ввода графической информации или ее построением и обработкой, зависит качество и информационная емкость исполняемой компьютерной графики.

Компьютерная графика как средство визуальной коммуникации отличается от традиционной или рукотворной архитектурной графики. Для традиционной графики характерна ее способность отразить яркость, индивидуальность, образность и графическое своеобразие авторской трактовки излагаемой изобразительной информации. Чем ярче авторская манера графического изображения, тем активнее зрительское восприятие проектной информации. К недостаткам традиционной графики следует отнести неизбежную многозначность ее восприятия, что порождает разночтение, неоднозначное толкование представленной изобразительной информации.

Методы автоматизированного проектирования вносят поправки в сложившееся представление о работе архитектора. Раньше он не только искал и разрабатывал проектную идею, но зачастую в той или иной мере участвовал в исполнении основных проектных чертежей [1]. Современные архитекторы относятся к компьютеру и множительной технике как к чрезвычайно полезным вспомогательным инструментам проектирования, существенно облегчающим их труд.

В целом компьютерная графика используется архитектором в следующих основных случаях. Во-первых, для эскизной разработки вариантов планировочных схем в градостроительном проектировании, для построения поисковых вариантов объемно-планировочных решений архитектурных объектов, их фасадов или их фрагментов в объемном проектировании. Во-вторых, экспозиционная компьютерная графика используется для построения и демонстрации ортогональных, аксонометрических или перспективных графических изображений, которые могут быть выполнены в черно-белой линейной графике, в тоне или цвете. И в-третьих, компьютерная графика используется для построения комплекса рабочих чертежей [2].

За последнее время в архитектурном черчении, рисунке, в оформлении книг, в плакатном и рекламном искусстве активно ощущается прямое воздействие компьютерной графики. Ее применение значительно повлияло на стиль архитектурных чертежей. Это связано в первую очередь с лапидарной простотой чертежа, выполненного на компьютере, а также со знаковой выразительностью изображений, которые побуждают архитекторов к созданию особого стиля изображения «под машинную графику».

Этот процесс несет в себе черты как явных достоинств, так и очевидных недостатков. С одной стороны, любое бездумное подражание в руках малоопытных людей становится лишь манерностью, так как в основе этого явления не понимание позитивных стилистических особенностей компьютерной графики, а ее поверхностное копирование. С другой стороны, аскетичность и точность стиля линейной компьютерной графики сообщает чертежам, схемам и рисункам новые выразительные признаки, очищает изображение от всего лишнего и несущественного.

Особое значение приобретает шрифтовое оформление как архитектурного чертежа, так и дизайнерской графики. Машинописный шрифт легко читается, его удобно моделировать. Преимуществами машинописи являются модульность ее текстовых поверхностей по вертикали и горизонтали. Это позволяет легко рассчитывать величину шрифтовой полосы, композицию шрифтовых текстов и надписей. Кроме того, стилистика машинописного текста сообщает чертежу деловой, современный характер созданного документа [3].

Следует отметить, что широкое внедрение в проектирование автоматизации – сложное многоплановое явление. Само по себе освоение техники компьютерной графики не приводит к положительным эффектам, если этот процесс не будет должным образом осмыслен как часть комплексных изменений как в сфере обычного, так и автоматизированного проектирования, в области работы над проектной архитектурной графикой. Важно развивать и

распространять новую культуру качественных оценок графических материалов, добиваться понимания общности критериев к информативности и визуальной емкости любого элемента чертежной экспозиции, выполненных как методами компьютерной, так и рукотворной графики.

Можно предположить, что компьютерная графика будет укреплять свои позиции. Найдутся пути повышения ее изобразительной эффективности и расширения палитры графических средств и приемов. Кроме того, в сочетании с рукотворной, кино и видеоинформацией компьютерная графика привела к новым качественным эффектам, расширяющим возможности архитектурной графики до невиданных ранее пределов.

В этом случае общая культура архитектурной графики может подняться до уровня общепонятного графического языка, который может стать неким международным эсперанто, стирающим границы в коммуникативном общении между специалистами разных стран, между профессионалами и зрителями, не обладающими специальной профессиональной подготовкой.

Вывод. Компьютерную графику отличает универсальность изобразительного словаря. Все чертежи, изготавливаемые с помощью компьютерной графики, вычерчиваются с использованием стандартной палитры графических средств, универсальной гаммы изобразительных символов, обозначений и знаков. Эти черты сообщают ей почти абсолютную ясность. Более того, в изображениях, выполненных в компьютерной графике, можно в любой момент вносить поправки, повышающие или понижающие степень информативной емкости языка. Это значительно облегчает коммуникативный диалог со зрителем разного уровня культурной и профессиональной подготовки. Иначе говоря, проектные материалы могут иметь такую степень информативности и понятности графического языка, которая будет адресована специально либо архитектору и инженеру, либо заказчику и рядовому потребителю.

Список использованной литературы:

1. Пономаренко Е.В., Шкваря Л.В., Рузина Е.И. Цифровые технологии в образовании, науке, территориальном развитии. Опыт Франции и России. – Москва: ИД Научная библиотека, 2019. – 200 стр.
2. Ваганова О.И., Гладков А.И., Коновалова Е.Ю. Цифровые технологии в образовательном пространстве. – Санкт-Петербург, 2020. _ 132 стр.
3. Уразбахтина Ю.О. Цифровые технологии в отрасли приборостроения. Учебно- методическое пособие. Уфа: УГАТУ, 2021. – 191 стр.

TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Aripova Nasiba Atxamovna, rahbar

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Javlanov Jamshid Xurshid o'g'li, talaba

Annotatsiya: Shu keltirilgan maqolada ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalarini joriy etish, shu jumladan ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va bugungi kunda axborot texnologiyalarining ta'lim sohasidagi ijobiy ro'li haqida fikr mulohazalar bayon etiladi.

Аннотация: В данной статье описано использование современных цифровых технологий в государственной системе высшего образования, в том числе приоритетные направления развития образовательного процесса на основе использования современных цифровых технологий, а также положительная роль информационных технологий в сфере образования сегодня.

Abstract: This situation describes the use of modern digital technologies in the state higher education system, as well as the priority directions of the development of the educational process and the basis of the use of modern digital technologies, as well as the positive role of information technologies in the field. education the field of education today.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, didaktik funksiya, axborot kommunikatsiya, telekommunikatsiya, masofaviy ta'lim, elektron resurslar, internet, kompyuter, planshet, pedagogik texnologiyalar, smart-doskalar.

Ключевые слова: цифровые технологии, дидактическая функция, информационная коммуникация, телекоммуникации, дистанционное образование, электронные ресурсы, интернет, компьютер, планшет, педагогические технологии, смарт-доска.

Key words: digital technologies, didactic function, information communication, telecommunication, distance education, electronic resources, internet, computer, tablet, pedagogical technologies, smart board.

Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- Raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish;
- Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;
- Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;
- Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;
- Milliy elektron ta'lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta'lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;

Ta'lim jarayonlariga axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni qo'llashda avvalo ta'lim muassasalarida axborotlashtirishni tashkil etish, ya'ni barcha o'quv, ma'muriy va xo'jalik xizmatlarini, kutubxona va boshqaruv bo'limlarini yagona tarmoqqa birlashtirish, ularning Internet tizimiga chiqish imkoniyatlarini yaratish, ta'lim muassasasida o'quv jarayonini nazorat qilish, hujjatlar elektron almashuvini hamda axborot texnologiyalari negizida maxsus o'quv-metodik materiallarni yaratish orqali o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish kabi vazifalarni amalga oshirish zarur bo'ladi. Ta'lim tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri – axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar bilan ta'lim jarayonini tizimli integratsiyalash va uni boshqarish hisoblanadi. Islohotlar jarayonida bosh vazifa qilib o'quv jarayonini tashkil etish, uning mazmunini tubdan yangilash, raqamli texnologiyalarni qo'llash, kompyuterlashgan muhitda o'qituvchining pedagogik faoliyati va o'quvchilarning bilim olish jarayonini tashkil etish belgilanadi. Hozirda bunday vazifalarni bajarish raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ijobiy hal etiladi.

Ta'limning turli sohalarida kompyuter telekommunikatsiyalarining qo'llash tajribalaridan shuni ko'rish mumkinki, axborot texnologiyalari bizga bir qator ijobiy imkoniyatlarni yaratib bermoqda, bunga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

1) ilmiy-uslubiy markazda ta'lim olayotgan keng ommaga tezkor mutaxassis maslahatlarini tashkil etish va yetkazish muhim o'rin egallashi va qanday shaklda joriy qilinishi bo'yicha takliflar keltirilgan.

2) professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va talabalarning har xil turdagi hamkorlik ilmiy tadqiqotlarini (har xil ilmiy-amaliy loyihalar yordamida chinakam ijodiy tadqiqot, mustaqil amaliy faoliyat, mustaqil bilim orttirish, amaliy ijodiy faoliyat va boshqa turdagi hamkorliklarni tashkil etish.

3) masofaviy ta'lim va pedagogik kadrlar malakasini oshirish tarmog'ini tashkil etish;

4) ta'limdagi sheriklarning, bu talaba, o'quvchi, o'qituvchi, ilmiy xodim bo'lishidan qat'iy nazar, ularga o'zaro fikr almashinish ko'nikmalarini hosil qilishni, muomala madaniyatini va o'z fikr-mulohazalarini tez, lo'nda va aniq ifoda etishni o'rgatish;

5) madaniy, etnik, insonparvarlikning keng qamrovli ijobiy axborotlari bilan fikr almashinish natijasida yoshlarning madaniy va ijtimoiy qobiliyati va layoqatini o'stirish.

Ta'lim berishda axborot va raqamli texnologiyalarni yaratish va qo'llash quyidagi kontseptual tamoyillarga ega bo'lishi lozim deb hisoblaymiz:

1. Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili. Axborot va raqamli texnologiyalar orqali fan bo'yicha axborot-ta'lim resurslarini taqdim etadi va ta'lim oluvchlar, ta'lim muassasasi, ta'lim xizmatlari bu yurtmachilari, ta'limni boshqarish organlari uchun axborot-ta'lim manbai bo'lib xizmat qiladi.

2. Integrasiya tamoyili. Axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali pedagogik ta'lim muassasasining integrallashgan axborot-ta'lim resurslari yagona manzilda joylashtiriladi, shuningdek, ta'lim muassasasi resurslariga alohida murojaat yo'li ham ajratib ko'rsatiladi.

3. To'laqonlilik tamoyili. Axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sohasi bo'yicha o'quv-me'yoriy, metodik hujjatlar, ilmiy faoliyat, tarbiyaviy faoliyatitashkil etish to'laqonliligi ta'minlaydi.

4. Yaxlitlik tamoyili. Axborot va raqamli texnologiyalar markazlashtirilgan boshqaruv orqali axborot-ta'lim resurslarini taqdim etadi, resurslarini rivojlantirish pedagogik ta'lim muassasalarining resurslarini tahrirlash va joylashtirish yagona tizim asosida amalga oshiriladi.

5. Ochiqlik tamoyili. Axborot va raqamli texnologiyalar pedagogik ta'lim sohasi bo'yicha ma'lumotlarni ochiq taqdim etish tizimini yaratadi va birinchi navbatda, pedagogik axborot-ta'lim resurslarining ochiqligini ta'minlaydi.

Axborot va raqamli texnologiyalar joriy etish quyidagi 3 bosqichni o'z ichiga oladi:

-mazmun bosqichi bu bosqichda Axborot va raqamli texnologiyalarni qo'llashning axborot-ta'lim resurslarini shakllantirish va uning axborot ta'minoti mazmuni yaratiladi;

-tashkiliy bosqich bu bosqichda Axborot va raqamli texnologiyalarni qo'llashning texnik jihatlari bilan bir qatorda, foydalanuvchilarning toifalarini aniqlashtirish, mavjud resurslarni tizimlashtirish va yangilab borish mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim muassasalaridagi mavjud resurslarni integrasiyalash, masofaviy ta'limni tashkil etish, axborot-ta'lim resurslariga bo'lgan talabni aniqlash maqsadida axborot va raqamli texnologiyalari foydalanuvchilari bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil etish amalga oshiriladi;

-metodik ta'minot bosqichi bu bosqichda axborot va raqamli texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini ishlab chiqish, maslahat xizmatlarini bajarish yo'lga qo'yiladi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, dunyoning boshqa joylarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli avlodning yangi ekranli avlodi - televizor, kompyuter, smartfon va smartsoatlari paydo bo'lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Raqamli avlod ota-onalarimiz o'rgangan uslubda o'qitilishi mumkin emas va bo'lmasligi ham kerak. Bugungi rivojlanib borayotgan avlodni o'qitishda qora doska va oq bo'rdan foydalanish ham mumkin emas. Yagona ta'lim muhitini yaratish va o'quvchilarning samarali bilim olishlarini tashkil etish o'qituvchining tayyorgarligining yuqori talablar darajasida bo'lishi, dars mazmunining maqsadga muvofiqligi, axborotlarning tizimlashtirilishini ta'minlash axborot-ta'lim muhitini yaratish va uni rivojlantirishda tizimli yondashuvni amalga oshirishni shart qilib qo'yadi. O'quv jarayonida mustaqil ta'lim salmog'ini ortishi yangi ta'lim resurslaridan foydalanishni taqozo etadi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta'lim qayta ko'rib chiqilishi va ta'lim paradigmasi o'zgartirilishi shart, sababi talabalar ortiq an'anaviy uslubda o'qishni xohlamaydilar va o'qituvchilar ham bu kabi odatiy usulda o'qitishni davom ettirishlari kerak emas, balki yangi innovatsiyalarni darsda qo'llay bilishi kerak. O'quv dars mashg'ulotlarini texnologiyalar yordamida o'qitish anchagina samarali, onson hamda natijali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxitdinov A.B. Jizzax politexnika instituti Muhandislik va kompyuter grafikasi kafedrası katta o'qituvchisi (TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ZAMONAVIY USULLARNI JORIY ETISH)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni

3. Begimkulov U.Sh. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta'limni tashkil etish //Pedagogik ta'lim jurnali. – Toshkent, 2004. – № 1. B. 25-27.

4. D.Babaraximova,O‘qituvchilarning akt sohasida vakolatlarini takomillashtirishda uzluksiz ta`lim : muammolari va ba`zi yechimlari.2023-yil.
<https://unionedu.ru/index.php>

5. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali.

6. D. Babaraximova,Ta`lim tizimida axborot texnologiyalarini qo‘llashning ilmiypedagogik masalalari; 6 – tom 3 – son / 2022 - yil / 15 – mart
<https://bestpublication.org/index.php/pedg/issue/view/81>

7. Yuldashev U, Raxmatullaeva SH.K. Internet asoslari: o‘quv qo‘llanma.
- Toshkent, 2002. -28 b.

2-SHO‘BA:TA’LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O‘ZBEK TILINI INTENSIV O‘QITISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI

*TAQU, “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası v.b.dotsenti N.S.Alimova
Olmazor kasb-hunarga o‘rgatish markazi xodimi S.S.G‘ulomova*

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida bugungi kunda raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga o‘zbek tilini tezkor o‘rgatishning pedagogik asoslarini takomillashtirish borasida fikr yuritilgan. Raqamli texnologiyalariga tayangan holda talabalarda o‘zbek tilini tezkor o‘rgatish modelini , shuningdek, o‘zbek tilidagi o‘quv materialini tezkor o‘zlashtirish bosqichlarini belgilash asosida "raqamli texnologiyalar", "veb-kvest", "veb-munozara" tushunchalarini takomillashtirish, o‘quv axborotini o‘zlashtirishda raqamli texnologiyalarga murojaat etishga oid o‘quv va metodik qo‘llanmalar, tavsiyalar yaratish va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, samaradorligini tahlil etishning ahamiyati haqida ba’zi mulohazalar muhokama etilgan.

Kalit soʻzlar: raqamli texnologiyalar, metodika, "veb-kvest", "veb-munozara", innovatsiya, kommunikatsiya, koʻnikma, malaka, didaktika, madaniyatlararo muloqot.

Аннотация. В статье рассматривается совершенствование педагогических основ ускоренного обучения студентов узбекскому языку в условиях цифровых технологий в высших учебных заведениях нашей страны сегодня. Совершенствование понятий «цифровые технологии», «веб-квест», «веб-дискуссия» на основе определения этапов быстрого усвоения учебного материала узбекского языка на основе модели быстрого обучения узбекскому языку учащихся на основе цифровых технологий, были обсуждены некоторые комментарии о важности учебно-методических пособий, рекомендаций и их внедрения в учебный процесс, анализ их эффективности.

Ключевые слова: цифровые технологии, методология, «веб-квест», «веб-дискуссия», инновация, коммуникация, умение, компетентность, дидактика, межкультурная коммуникация.

Annotation. The article discusses the improvement of the pedagogical foundations of rapid teaching of the Uzbek language to students in the conditions of digital technologies in the higher educational institutions of our country today. Improving the concepts of "digital technologies", "web-quest", "web-discussion" on the basis of determining the stages of rapid acquisition of the Uzbek language learning material, based on the model of rapid teaching of the Uzbek language in students based on digital technologies, some considerations about the importance of educational and methodical manuals, recommendations and their implementation in the educational process, analysis of their effectiveness were discussed.

Key words: digital technologies, methodology, "web-quest", "web-discussion", innovation, communication, skill, competence, didactics, intercultural communication.

Dunyo miqyosida intensiv koʻlamda quloch yozayotgan raqamli texnologiyalar asrida boʻlajak mutaxassislar uchun xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish imkoniyatlarini takomillashtirish, shu asnodan madaniy, siyosiy, iktisodiy chegaralarni kengaytirish alohida dolzarblik va ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi davr taʼlim taraqqiyoti yangi yoʻnalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan boʻlib, u yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bulgan munosabatni oʻrgangan. Ilmiy yoʻnalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari oʻzaro farqlanadi. "Yangilik"- bu vosita, yangi metod,

metodika, texnologiya ma'nosini anglatadi. "Innovatsiya"- bu ta'lim, ma'lum boskichlari buyicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Jahon ilm-fan tarqqiqiyoti kundan kunga gurkirab, rivojlanib bormokda. Aynan bu ijobiy rivojlanish bizning diyorimizga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Ilm dunyomizga ilg'or innovatsion texnologiyalar tatbik etilmokda. Ta'lim sohalariga ilg'or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbik etilishi ham o'zbek tili o'rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan keng foydalanish, ta'lim jarayoniga ularni tatbik kilish orkali taxsil oluvchilarda raqamli texnologiyalar bilan ishlash malakalarini oshirish va shu asnoda ularni bo'lajak kasbiy faoliyatiga tayyorlash muhim bo'lib xisoblanadi.

O'zbek tilini o'qitishda pedagoglarning kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun turli yangi mazmundagi didaktik shakllardan foydalanish, innovatsion tavsifdagi ta'lim vositalarini amaliyotga qo'llash, tahsil oluvchilarda motivatsion va kognitiv qiziqish doiralarini kengaytirishga ehtiyoj mavjud. Bu esa, ta'lim jarayonida akademik bilimlarni o'zlashtirishga mo'ljallangan texnologiyalarni qo'llash asosida tillarni o'zlashtirishni jadallashtirishni taqozo etadi. Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga o'zbek tilini tezkor o'rgatish mashg'ulotlarini samarali tashkil etishga, yoshlarning muhim hayotiy yutuqlarini qondirishga, o'z nuqtai nazarlarini ilmiy asoslashga imkoniyat yaratadi va o'zbek tilini o'qitishda samarali natijalarni beradi. Shu jihatdan olganda, raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga o'zbek tilini tezkor o'rgatish kelgusi mehnat faoliyatiga yo'naltirilgan kreativ qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini o'lchash va monitoring asosida tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat kiladi. Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga o'zbek tilini tezkor o'rgatishda asosiy e'tibor kompyuterli o'yin shaklidagi o'quv faoliyatiga va Veb-kvestlarga qaratish samarali natija beradi. Bu esa, ko'p bilim berish imkoniyatlarini yaratib beruvchi metodlardan foydalanish orqali amalga oshadi. Bunga avvalambor, yangi o'quv materialini mazkur texnologiyalar asosida o'zlashtirish oson kechishini kuzatish mumkin. Taqdim qilinayotgan o'quv materialini bayon etish natijasida mavzuning maqsadi, uning asosiy mazmuni va o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan savollar talabalarga tushunarli bo'lishi kerak. O'zbek tilidagi yangi mavzu Veb kvest, yoki, kompyuterli o'yinlar, yohud Bulutli texnologiyalar asosida barcha talabalarning faol ishtirokida olib borilgandagina, ularda o'rganilayotgan mavzuga bulgan qiziqish ortadi.

O'zbek tili mashg'ulotlarida talabalarning fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida o'qituvchi va talaba maksadga qaratilgan faoliyatda bo'ladi. Bunda axborot-ta'limiy resurslarning mavjudligi, o'quv-metodik ta'minlanganlik

moddiy-texnik bazaning mavjudligi katta ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi va talaba faoliyatining didaktik xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Quyida talabalarning o'zbek tiliga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda o'qituvchi va talaba faoliyatining tarkibiy tuzilmasi keltirilgan. O'qituvchi faoliyati: 1. Talabaning didaktik faoliyatida o'zbek tiliga oid qiziqishni hosil qilish, mantiqiy xulosa chiqarishga o'rgatish; 2. Doimiy ravishda bilimlarni mustaxkamlash va talabalarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, AKT vositalaridan foydalanish; 3. Talabalarning bilish jarayonlarini boshqarish; AKT vositalari triadasi (o'qituvchi-talaba-AKT) da ishlash; 4. Nazariy bilimlardan amaliy foydalana olish jarayonini boshqarish; 5. AKT vositalaridan foydalanish orqali evristik va tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish; 6. Mustaqil fikrlashning shakllanishidagi o'zgarishlarni nazorat qilish va keyingi rivojini bashoratlash. Didaktik muhit mexanizmlarini takomillashtirishda sifatli bilim, ko'nikma, malaka egallashning maksadi, o'qituvchi va talaba faoliyati, mazmun, metod, shakl, vosita, natija ishtirok etadi. O'zbek tili mashg'ulotlarida qo'llaniladigan metodlar talabalarda o'zbek tilini tezkor o'rganishga mo'ljallab, qo'llanishi lozim. Iqtidorli talabalarni tarbiyalash, ularning qobiliyatlari va iqtidorlarini rivojlantirish borasida bugungi kunda mamlakatimizda salmoqli ishlar amalga oshirilmokda. Bu esa qobiliyatlarning yangi qirralarini tadqiq etish imkonini beradi. AKT vositasidagi o'quv-biluv jarayonida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hamkorlikda ularning yechimini topishning turli usullari mavjud. O'zlashtirilgan bilimlarni AKT vositasida chuqurlashtirish natijasida talabalarda muayyan darajada amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Pedagogik hamkorlikni vujudga keltiradigan texnologiyalarning asosiy negizini turli o'quv vaziyatlarida talabalarning birgalikda, jadal harakat qilishlari uchun qulay sharoit yaratish imkoniyati tashkil qiladi. Talabalarning o'zbek tilini tezkor o'rganishlari uchun auditoriya mashg'uloti, auditoriyadan keyingi mashg'ulotlar; interaktiv metodlar: "Bumerang", "Charxpalak", "Zinama-zina", "Zx4" va boshqalar; didaktik vositalar: multimedia va boshqa axborot-resurslaridan foydalanish samarali natija beradi. Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga o'zbek tilini tezkor o'rgatishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar ko'rsatishicha, quyidagi metodologik talablarni amalga oshirish muhim hisoblanadi. Bular:

1) talabalarning o'zbek tilini o'rganishlaridagi mustaqil faoliyatining ustuvorligi;

2) talabalarning individual va yosh xususiyatlarini, shuningdek ularning til o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishning aktual va potensial darajalarini hisobga olish;

3) asosiy nazariy materiallarni o'zlashtirishda talabalar ma'lum kasbiy maxorat darajasiga erishishga ishtiyoqmandligi;

4) talabalarning o'zbek tilini tezkor o'rganishlari uchun kobilyatlarning turli komponentlarini rivojlantirish shart-sharoitlarni yaratish;

5) talabalarda AKT vositasida o'zbek tilini tezkor o'rganishlari faoliyatga ijobiy motivatsiya va doimiy qiziqishni shakllanishiga shart-sharoit yaratish lozimdir.

O'zbek tili o'qitish metodikasi pedagogik fan sifatida boy tajriba to'plagan bo'lsa-da, bu fanning o'qitilishi bilan bog'liq bir qator muammolar ham yuzaga keldi. Buning sababi shundaki, ta'lim jarayoniga bir qator zamonaviy texnologiyalar kirib keldi va kirib kelmoqda, umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darsliklari yangilandi, akademik litsey va oliy o'quv yurtlari uchun darsliklar yaratildi. Bular bilan bog'liq qarashlar va tahlillar, uslubiy ko'rsatmalar o'zbek tili o'qitish metodikasining o'rganish obektiga aylanishi kerak. Shu ma'noda bu fanning mazmunini quydagicha belgilash mumkin: ona tili ta'limining izchil tizimini ishlab chiqish, ona tili darslarini tashkil etishiga oid metodik tavsiyalarni tanlash va amaliyotga joriy etish, shu bilan birga metodika sohasining zamonaviy pedagogik texnologiyalar, til o'rgatishning interfaol metodlarini o'zida aks ettirgan ilmiy asoslarini ishlab chiqishdir. Bu fan egallangan bilimlarni pedagogik amaliyotga joriy etish, ilg'or pedagogik texnologiyadan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. O'zbek tili o'qitish metodikasi ijodiy tafakkur sohibini shakllantirishning didaktik asoslarini o'rganadi. O'zbek tili o'qitish metodikasi fani yosh avlodga ona tilidan nimani?, qancha?, qanday? o'rgatish kerak degan savollarga javob beradi. Til o'qitish metodikasini o'rganish turli ta'lim bosqichlariga mos, qulay metodlarni izlash, tanlash, amaliyotda qo'llay bilishdir. O'zbek tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy — ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, o'quvchilarda milliy istiqloq g'oyasini shakllantirish va talaba shaxsini ma'naviy boyitishdan iborat. Til o'qitish metodikasining asosiy vazifasi talabalarni erkin, ijodiy, mustaqil fikrlarini og'zaki va yozma shaklda, adabiy til meyorlari asosida to'g'ri ifodalay oladigan, bir ma'noni turli holatlarda berish ko'nikmasi shakllangan yetuk murabbiylarni tarbiyalab yetkazishdir.

O'zbek tili o'qitish metodikasi fani o'zining nazariy asoslariga va ilmiy tadqiqot metodlariga ega. Bular quyidagilar:

Kuzatish. Tilshunos va metodist olimlar ilmiy anjumanlarda, vaqtli matbuotlarda, berib borilayotgan uslubiy maqolalarni, pedagogik universitetlarda o'qilayotgan ma'ruzalarni o'qib va eshitib, kuzatib boradilar, zamonaviy dars

namunalarini kuzatib, ulardan tegishli xulosalar chiqaradilar. Bu usul orqali o'zbek tili o'qitish bilan bog'liq muammolar o'rgatiladi, yangicha qarashlar va metodlar aniqlanadi.

Tajriba o'tkazish. Metodist — olimlar o'z ilmiy tadqiqotlari yuzasidan erishilgan natijalar haqida ilmiy anjumanlarda o'rtoqlashadilar, o'zlari ilgari surayotgan, qo'llamoqchi bo'lgan metodlarini asosli va ishonchli mezonlar asosida ma'lum maktab yoki akademik litseylarda tajribadan o'tkazadilar. Natijalarni tahlil qiladilar. Bu usul tavsiya qilinayotgan ilmiy va uslubiy farazlarning ishonchliligini, asosli ekanligini isbotlashga zamin yaratadi.

Test o'tkazish. Bu usul orqali talabalarning nazariy bilimlari, ko'nikma va malakalari o'rganiladi. Test savollari o'tkazish o'quvchi va talabalarning bilimi, egallagan amaliy ko'nikmalari haqida umumlashgan xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

Anketa va savol varaqalari tarqatish. Bu usul orqali o'qituvchi va talabalarning fanga bo'lgan munosabati, qiziqishlari va istaklari o'rganiladi.

Metodik merosni o'rgatish. O'zbek tilini o'qitish tarixi qadimgi davrlarga borib taqalsa-da, uni o'qitish metodikasi uzoq tarixga ega emas.

O'tmishda yashab ijod etgan Al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Zamaxshariy, Navoiy kabi ijodkorlar asarlarida ta'lim-tarbiya bilan, o'qitish bilan bog'liq fikrlar mavjud bo'lsa-da, aynan ona tilini qay usulda o'qitish bilan bog'liq fikrlar uchramaydi. Al-Xorazmiyning "Sezish orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish bu haqiqatdir", Abu Nasr Forobiyning "Bilim, ma'rifat, yaxshi axloq bilan bilimdon, ma'rifatli, yetuk, mukammal inson yetishadi. Buning uchun ta'lim — tarbiya o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilishi, boshqarilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilishi lozim" degan fikrlari o'zbek tili o'qitish metodikasida ham bosh mezon vazifasini o'taydi. XX asr boshlariga kelib an'anaviy o'qitish usullari yoniga Yevropacha o'qitish usullari ham kelib qo'shildi. Mahalliy ziyolilardan Fitrat, Munavvar qori, Hamza, A.Avloniy, Qori Niyozov, Qayum Ramazon, Murod Shams, Majid Qodiriy kabilar darslik va qo'llanmalar yaratishda faol ishtirok etdilar. 1940-yillarda S.A.Fvesaloniskiyning "Ona tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasi bosilib chiqdi. Qo'llanmada nutq o'stirish va insho masalalariga keng o'rin berilgan, morfologiya va sintaksis o'qitish metodikasiga alohida e'tibor berilmagan. 40—yillardan boshlab o'zbek olimlari til o'qitish muammolari bilan bog'liq tadqiqot ishlari olib bora boshladilar. 1944 yilda M.Shams "Orfografiya o'qitish metodikasi", K.Xayrullaev "Tipik orfografik xatolar va ularni bartaraf etish" mavzusidagi tadqiqotlarni amalga oshirishdi. M.Shams 1950-yilda "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasini nashr ettirdi. 1952- yilda esa "O'zbek tili o'qitish metodikasi"ning 1-qismi F.Kamol tahriri ostida nashrdan

chiqdi. 1960-yilda H.Rustamovning “Sintaksis va punktuatsiya o‘qitish metodikasi”, 1963-yilda N.Abdurahmonovning “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” kitoblari nashr ettirildi. 1975-yilga kelib esa ancha mukammal darslik Y.G‘ulomov, I.Rasulov, H.Rustamov, B.Mirzaahmedovlar tomonidan yaratildi. Bu darslik ham “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” deb nomlanadi. Ushbu darslik hozirgi davrgacha amalda qo‘llanib kelindi. 1960-80-yillar davomida metodika bo‘yicha ishlar ko‘lami ko‘paydi. Hozirgi davrda ham ona tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy — tadqiqotlar keng olib borilyapti.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasi birinchi navbatda falsafa va umumiy tilshunoslik bilan, tilshunoslikning nazariy asoslari bilan chambarchas bog‘liq. Maktablarda o‘qitiladigan ona tili predmetining ilmiy asosini va mazmunini, dastavval til haqidagi fan belgilab beradi. Ona tili o‘qitishning to‘g‘ri tashkil etilishi va samarali bo‘lishi til to‘g‘risidagi lingivistik xulosalarning ilmiy va aniq bo‘lishiga bog‘liq. Ona tili o‘qitish metodikasini va uning taraqqiyotini tilshunoslik fanisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ona tili o‘qitish metodikasi pedagogika va psixologiya fanlari bilan ham bog‘liq holda ish olib boradi. Pedagogika ta‘lim — tarbiya prinsplarini belgilab beruvchi fandır. Ona tili darslarida ham ta‘lim prinsplari qo‘llanadi. Pedagogika fanining didaktika qismi ona tili o‘qitish metodikasining nazariy asosi hisoblanadi, Ona tili o‘qitish metodikasi didaktikasining hamma prinsplariga tayanadi. O‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining psixologik qobiliyatlarini o‘rganishi, ona tili materiallarini tushuntirishda ularni hisobga olishi zarur. O‘qituvchi o‘z faniga nisbatan o‘quvchilarda qiziqish uyg‘ota olishi, ularning diqqatini jalb eta olishi, shu materialni esda saqlab qolish yo‘llarini qo‘llashi lozim. Bu ishlarning barchasi ona tili o‘qitish metodikasining psixologiya bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tili o‘qitish mazmuni

Ta‘lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko‘ra, pedagogik texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi. Ta‘lim mazmunini shakllantirish zamonaviy pedagogikada 4 ta muhim tarkibiy qismlar hisobiga amalga oshiriladi.

1. Talabalar egallashi zarur bo‘lgan bilimlar tizimi (til fanlari, tushunchalar, qoidalar va ta‘riflar tizimi)

2. Tanlangan ilmiy — nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko‘nikma va malakalar tizimi

3. Talabalarni ijodiy faoliyat usullariga o‘rgatish. Faoliyat qayta xotirlash, qisman ijodiy va ilmiy — ijodiy darajada bo‘lishi mumkin

4. Talaba va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi ona tili o‘qitish mazmuni fonetika, leksikologiya, grammatika, uslubiyat, to‘g‘ri talaffuz, to‘g‘ri yozish, so‘z

tanlash va gap tuzish, ijodiy fikrlash, fikrni to'g'ri, aniq ifodalash, ifodali o'qish, matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni". 1997B.To'xliiev, M.Shamsieva, T.Ziyadova. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2006-y.
2. Rafiev A. , G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , "Sharq", 2013.
3. Erkaboeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to'plami. T. "Navro'z", 2018.
4. Golish L. V. , Fayzullaeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T. , "Iqtisodiyot", 2012.
5. "Umumta'lim fanlari metodikasi"jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018. 5. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1-12 sonlar, 2018.

ИННОВАЦИОН ҒОЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАДА ФАН ТАЪЛИМ ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ УЙЎУНЛИГИ.

*Аминова Нурхон Бобомуродовна Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) Низомий номидаги ТДПУ ижтимоий фанлар кафедраси
в.б.доценти.*

Калит сўзлар: инновация, ижтимоий тараққиёт, таълим, фан, ишлаб чиқариш

Аннотация: Ушбу мақолада инновацион ғояларни шакллантиришда , фан, таълим ва ишлаб чиқариш уйғунлигининг ижтимоий тараққиётдаги ўрни илмий фалсафий жиҳатдан таҳлил қилинган.

Ключевые слова: инновация, социальные развитие, образование, наука, интерактивные методы, наука – образование – производство

Аннотация. В этой статье рассматривается с научно философской точки зрения роль общественно гуманитарных наук в формировании инновационных идей, а также значение гармонии духовности, науки и образования в социальном развитии

Keywords: innovation, social development, education, science, spirituality, interactive methods

Abstract: This article examines from a scientific and philosophical point of view the role of the social sciences in the formation of innovative ideas, as well as the importance of the harmony of spirituality, science and education in social development.

XX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб ривожланган мамлакатлар инновацион тараққиётга ўта бошлади. Президентимиз Ш. Мирзиёев “Халқимиз дунёқарашида инновация муҳитини яратиш энг муҳим вазифамиздир, инновация бўлмас экан, ҳеч бир соҳада рақобат, ривожланиш бўлмайди. Бу соҳадаги ўзгаришларни халқимизга кенг тарғиб қилмасак, одамларга кўникма пайдо қилмасак бугунги давр фан-техниканинг мислсиз ютуқларидан баҳраманд бўлолмаймиз деб таъкидлаган эди. [1] Инновация бу ривожланиш, янгича ёндашувларнинг янгиликлар билан туғилиб жамиятни ривожлантириш учун ижобий таъсир кўрсатади. Зеро, мамлакатимизни ривожланишига ўз ҳиссамизни қўшиш учун илм-фан соҳасидаги янгиликлар, инновацион ғояларни қўллаб-қувватлаш муҳимдир. Ижтимоий тараққиёт жараёнида таълимда инновацион усуллардан фойдаланишнинг аҳамияти шундаки, у талаба ёшларнинг оғзаки нутқини ўстиради, мантикий тафаккурни ривожлантиради, ҳамкорликда фаолият олиб бориш каби кўникмаларни шакллантиради. Янги технологиялар асосида фан таълим ва ишлаб чиқариш алоқадорлигининг сифатини ошириш, ўқув жараёнида интеграция қилиш долзарб бўлиб қолмоқда. Таълим жараёнидаги инновацион ўзгаришларда малакали мутахассисларни тайёрлаш, давр талабларига жавоб берадиган педагогик технологиялар, методлар, қўлланилса, ижтимоий фанларни амалиётга ҳамкорликда жорий этиш борасида интерактив методлар ишлаб чиқилса мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Жамият тараққиёти илмий инновацион ғоялар, қарашларнинг амалиётга татбиқ этилиши ва янги ғояларнинг шаклланишига сабаб бўлади. Фалсафа фан сифатида барча фанларга таянган ҳолда, илмий жиҳатдан асосланган дунёқарашни индивидлар онгида шакллантиради, айтиш чоғда, у ҳамма фанлар учун

методологик асос вазифасини ўтайди. Бу фан инсоннинг эътиқодни, кенг кўламли дунёқарашни, тўғри фикрлаш маданиятини ўргатади. А.А.Сычев фикрича, фалсафа интеллектуал жиҳатдан мустақил ва ички руҳий дунёси эркин инсоннинг танловидир.[2]. Шундай экан, фалсафага ҳамма фанлар оралиғидаги ва уларни бир-бирига туташтирувчи махсус фан сифатида ёндашиш унинг реал яширин имкониятларини аниқлашда муҳим аҳамият касб этади. Бу эса ўз навбатида фалсафанинг ижтимоий тараққиёт ва инсон камолотидаги роли беқиёс эканлигидан далолат беради.

Агар фундаментал ва табиий фанлар инсонлар ҳаёти ҳамда яшаши учун зарур бўлган моддий бойликларни яратишнинг асоси бўлса, ижтимоий-гуманитар фанлар инсонларни ана шу бойликларни яратишда ўзаро яқинлаштиради, уларни чинакам инсон сифатида яшаш руҳида тарбиялашга, мамлакат ва жамият барқарорлигини таъминлашга хизмат қилади. Бу фанларнинг умумийлашган жиҳатлари уларнинг жамият интеллектуал салоҳиятини рўёбга чиқариш ва маънавий тараққиётида намоён бўлади.

Ижтимоий ҳаёт қонуниятларини фалсафий-методологик ёндашувлар асосида тадқиқ қилиш ҳозирги давр тараққиёти ва истиқболни англаш имконини беради. Бу, ўз навбатида, жамиятни янада ривожлантиришга хизмат қилади. Шунинг учун ҳам инсоншунослик фанлари ўқув дастурларини мукамаллаштириш, соҳага оид замонавий фалсафий дарслик ва махсус адабиётлар нашр қилишга жиддий эътибор қаратилмоқда.

“Фанни олимлар, яъни инсонлар яратади, бинобарин, инсоний хислатлар ва иллатлар уларга ҳам бегона эмас. Улар одамлар фойдасини кўзлаб ҳам ва аксинча, баъзан ёвуз ниятларда ҳам иш кўриши мумкин. Бу ерда олим энг аввало, муайян маънавий ва ахлоқий фазилатларга эга инсон эканини, у ўзи яшайдиган мамлакат фуқароси ва шу тўғрисида давлатнинг қонунларига бўйсунуши лозимлиги, ниҳоят, олим–истеъмолчи, шунинг учун у илмий тадқиқотларга тижоратнинг аралашуши қонунларига бўйсунушини билиши муҳим.» [3]. Бу эса чинакам олимдан жамият олдидаги ўз масъулиятини чуқур англай олишини талаб этади. Олий ва ўрта махсус ўқув юртлари таълим тизимидаги фанлар, чунончи, ижтимоий-гуманитар фанлар ёшларнинг эркин ва танқидий фикрловчи, ўз манфаатларини жамият манфаатлари билан уйғунликда кўрувчи мутахассислар сифатида шаклланишида муҳим ўрин тутаяди.

Ҳозирги даврда таълим трансмиллий тушунчага айланди, мамлакатлар, қитъалар оша ўзгараётган дунёда касбий кўникмаларни шакллантириш учун зарур билимларни ўзлаштиришнинг универсал воситаси бўлиб хизмат қилмоқда.

Ўзбекистонда замон талабларига жавоб берадиган кадрлар тайёрлашга йўналтирилган сиёсат изчиллик билан амалга оширилмоқда. Таълимда унинг тарихий илдизлари, ўз даври учун муҳим бўлган маънавий-ахлоқий тамойиллар, пандномаларнинг ҳозирги давр учун аҳамияти асослаб берилса мақсадга мувофиқ бўлар эди. “Ёшларга таълим ва тарбия беришда фалсафий тафаккурга жиддий таяниб иш олиб бориш лозим. Бу тафаккур оддийликни, мураккабликни содда тушунишга, оддийликдаги мураккабликни, мураккабликдаги оддийликни англай олиш туйғусини тарбиялайди. Фалсафий тафаккур маданияти соғлом эътиқодга таянади. Бу барча динлардаги умуминсоний қадриятлар соғлом маънавий қадрият негизларига таянувчи маданиятдир.”[4]

Жаҳонда кечаётган глобаллашув ва интенсификашув жараёнлари инсоннинг онгу шуури, тафаккурига шиддатли таъсир кўрсатмоқдаки, замоннинг ўзи ёшларда янгича фикрлаш тарзини шакллантириш, улар онги ва тафаккур тарзини ўзгартириш, шахс сифатида камол топиши, таълим жараёнида уларнинг эркин, ўз ижодий иқтидорини намойиш қилишлари учун шарт-шароит яратиш, фан таълим ва ишлаб чиқаришга бўлган ёндашувни такомиллаштиришни тақозо этмоқда.

Фан ва таълим тизими жамиятнинг келажаги бўлмиш ёшларда илмий муаммоларни англаш ва уларни ечиш, олинган натижалардан амалда фойдаланиш имконини берувчи ақлий қобилиятни шакллантиради. Айтиш мумкин ҳам таълим тизимига миллий даромадни истеъмол қилувчи тизим сифатида ёндашиш ноўрин ҳолат ҳисобланади. Зотан, айнан таълим тизими илмий-техник ва ижтимоий тараққиёт заминидир. Ижтимоий тараққиёт ўз-ўзидан содир бўлмайди, бу жараён фан таълим ва ишлаб чиқаришнинг ўзаро уйғун ҳолатдаги таъсири асосида кечади. Ижтимоий тараққиётдаги асосий муаммо мазкур омилларни ўзаро уйғунлаштириш ва асосий мақсадга йўналтира билиш билан боғлиқ.

Ижтимоий тараққиётимизнинг асосий омиллари бўлган фан, таълим ва ишлаб чиқариш соҳасида олиб борилаётган ислохотларда изчиллик етишмаётир. Айниқса, илм-фан ютуқларини амалиётга татбиқ этиш, таълимни ривожлантиришнинг моддий-техник базасини янада мустаҳкамлаш мавжуд эҳтиёжларимиз даражасидан орқада қолмоқда.

Ижтимоий тараққиётимиздаги устувор вазифалардан бири юксак маънавиятли баркамол инсонни тарбиялашдир. Бу ўта муҳим вазифани ҳал этиш мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг муҳим кафолати ҳисобланади. Аммо бу вазифани амалга ошириш осон эмас. Бунинг учун фан, таълим, ва тарбия билан боғлиқ бўлган моддий базани кучайтириш, ёшларни бу

жараёнларга кенг жалб қилишга эътиборни кучайтириш хануз ижтимоий тараққиётимиздаги муҳим вазифалардан бири бўлиб қолмоқда.

Адабиётлар рўйхати

1.Интернет материаллари.

2.Сычев А.А. Основы философии: учебное пособие / А.А. Сычев. -Изд. 2-е, испр. - Москва: Альфа-М: И Н Ф Р А -М , 2010.

3.Философия и методология науки / Под. ред. В.И. Купсова. – Москва, 1996. – С. 471.

4.Бахтиёр Оманович Тўраев.Таълим жараёнини кучайтиришда фалсафий тафаккурнинг ўрни”Глобаллашув шароитида Ўзбекистонда инновацион ғояларнинг хуқуқий, иқтисодий, ижтимоий-фалсафий, таълимий йўналишларининг ривожланиш истиқболлари” Республика онлайн анжумани материаллари 2020 йил 7 май.

KASIBIY MATEMATIKA FANININI O'QITISHNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH MASALALARI

P.B.Nasirov, R.A.Arzieva Qoraqalpoq Davlat universiteti

Annotatsiya: Kasibiy Matematika fani o'qituvchisining bilimdonligini oshirish, uni texnologik va metodik jihatdan tayorlash muammolari, o'quvchilarni pedagogik, texnologik jihatdan tayorlash-aqliy rivojlanish, o'qitishni faollashtirish, texnologiya bilan qurollantirish, ta'lim berishning yangi usullarini izlash, ularni shu fanga qiziqtirish yo'llarini topish.

Kalit so'zlar: dars mashg'ulotlari, pedagogik texnologiyalar, interaktiv o'qitish metodikasi, kasbiy malakalari va ko'nikmalari

Keyingi yillarda ta'limning o'yinli shakli eng istiqbolli va eng muvaffaqiyotli yangilik bo'lib namayon bo'ldi. O'yin texnologiyalari o'quvchilarda maqsadga intilish, faollik, tezkorlik va tafakkur masuldorligi, mustahamlik, xotira tezkorligi, takomillashganlik va o'z kuchi, irodasiga ishonich tuyg'ulari shakillanishida muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda amal qilayotgan uziliksiz ta'lim tizimining barcha turlari uziliksizlik asosida uzviy aloqadorlikda faoliyat ko'rsatishi Kadrlar tayorlash milliy dasturining amaldagi ijrosining muhim shartlaridan biridir.

Umumta'lim maktablaridagi zamonaviy ta'lim maqsadi tarixan shakllanib kelgan pedagogik tizim asosida professional tomondan bilimli faol, ijodiy tomonidan mustakil shaxsni tarbiyalash uchun zamin yaratishdir.

Informatsion jamiyatga o'tishda o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish o'ta muhim vazifaga aylanadi. Bu esa ta'lim modernizatsiya qilinayotgan sharoitda ta'limning zamonaviy texnologiyalarini tadbiiq qilish, o'quvchilarda o'z ustida mustaqil ishlash madaniyatini tarbiyalash va talab qilinayotgan ta'lim sifatiga erishish uchun o'ta muhimdir.

Matematika fanini o'qitishni yangi bosqichga olib chiqishda har hil pedagogik o'yin texnologiyalaridan foydalanish muhim kasb etadi. Keyingi un yillikda pedagogik o'yin texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi un yillikda pedagogik uyin texnologiyalari amaliyotga yetarli darajada joriy qilindi. V.A.Krivova, L.M.Matrosova, T.M.Sorokina, S.L.Tiunnikovalar ilmiy izlanishlar etmoqga loyiq bo'lib, ularda o'yin texnologiyalari orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishi, mustaqil ish olib borishning faollashuvi takidlanadi.

Ta'lim – tarbiya doirasidagi islohatlar asosida yangi ta'lim tizimiga o'tish uchun matematika o'qituvchisi oldiga vazifalarni, muammolarni qo'ydi. Bunday dolzarb muammolar- matematika fani o'qituvchisining bilimdonligini oshirish, uni texnologik va metodik jihatdan tayorlash muammolaridir. O'quvchilarni pedagogik, texnologik jihatdan tayorlash-aqliy rivojlanish, o'qitishni faollashtirish, texnologiya bilan qurollantirish, ta'lim berishning yangi usullarini izlash, ularni shu fanga qiziqtirish yo'llarini topish shu fan o'qituvchilarining ustuvor vazifalaridan biridir,=.

Kundan-kunga rivojlanib borayotgan hozirgi bosqich shuni taqazo etadiki, har bir pedagog zamonaviy yoshlarning dunyoqarashi va talabiga mos holda dars mashg'ulotlari o'tkazishni talab qilmoqda. Shu yulda olib borayotgan barcha tadqiqotlar ilg'or pedagogik g'oya va tajribalarni o'rganish va Matematika ta'lim tarbiya jarayoniga tadbiiq qilish yo'llarini izlamoqda.

Mutaxassislarni tayyorlash jarayonining sifatini oshirishda fanlararo aloqadorlikka erishishning yangi shakllarini topish maqsadga muvofiqdir. Ushbu o'rinda fundamental, xususan, pedagogik va xususiy-metodik bilimlarni o'zlashtirishda fanlararo uyg'unlikni ta'minlash masalasini tahlil etish uchun ularning metodologik asoslari borasida yetarli ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Matematika fanlarning umumta'lim (gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy fanlar) hamda xususiy-metodik fanlar bilan o'zaro aloqasi ko'p qirrali muammodir. Shu bois mazkur muammoga nazariy, metodologik va amaliy jihatdan yondashish taqozo etiladi.

Turli yo‘nalishlarga taaluqli bilimlar asoslarini integratsiyalash ularning fan, ta‘lim, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish hamda iqtisodiyot sohalarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning ijtimoiy jihatdan asoslanishiga zamin yaratadi.

Ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirish mazmunini integratsiyalashning quyidagi darajalari mavjud:

1. Funksiyasiga ko‘ra integratsiyalash (metodologik, kasbga yo‘naltirilgan, muammolik, yaxlitlik, tizimlilik, kommunikativlik).

2. Rivojlanish tendensiyasiga ko‘ra integratsiyalash (ta‘limning ustivorligi, ta‘limning demokratlashuvi, shaxsiy tarbiyalashga qaratilganligi, ta‘lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi).

3. Yo‘nalishiga ko‘ra integratsiyalash (ta‘lim muassasini rivojlantirish, yangi ta‘lim texnologiyalarini joriy etish, kasbiy ta‘lim – fan – ishlab chiqarish integratsiyasi)

4. Tiplariga ko‘ra integratsiyalash (umummetodologik, umumilmiy, xususiy ilmiy, muammoli).

5. Darjasiga ko‘ra integratsiyalash (yaxlitlik, didaktik, sintez, fanlararo aloqadorlik).

6. Amalga oshirish darajasiga ko‘ra integratsiyalash (an‘anaviy va noan‘anaviy).

Yangi pedagogik texnologiyalar matematika o‘qituvchisidan o‘z kasbiga doir bilimdonlik va yangilikka intilishni talab etadi. Pedagogik texnologiyalarni egallash uchun matematika o‘qituvchisi yo‘qori kasbiy bilimdonlik va mohorotiga ega bo‘lmog‘i zarur. Bundan tashqari matematika fanini o‘qitish o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari shakllanishga, grafik tayyorgarlik darajasi ortishiga va bu ularning matematika kursi bilan o‘zaro aloqador bo‘lgan boshqa fanlarni o‘zlashtirishga ijobiy ta‘sir qiladi.

Bolalarning «o‘tish davri» shvetsariyalik psixolog Jan Riaje (1876-1980) ning fikricha, ularda ob‘ekt va umuman borliq haqida mavhum fikrlashning yetilishi bilan xarakterlanadi. Fikrlash faoliyatining murakkablashishi bola hayotining barcha tomonlariga, uning hissiyotiga ta‘sir ko‘rsatadi. Amerika psixologi Shrenli Xoll (1884-1923) ta‘dbiri bilan aytganda, mazkur davr bolaning ichki va tashqi ziddiyatlari kuchaygan davri bo‘lib, unda o‘ziga xoslik vujudga keladi. Boshqa bir Amerikalik psixolog Erik Erikson (1902-1981) «Bolada o‘z maqsadiga erishish yo‘lida «ishbilarmonlik» va «ta‘sirchanlik» sezgilari paydo bo‘ladi. Bu yoshda mehnatga munosabatning asosi tarkib topadi» deydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o‘sib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash vazifasi qoyilgan. Ushbu masalaning hal etuvchi ko‘p jihatdan o‘qitishning interaktiv metodlarini qo‘llashga ham bog‘liq.

Avvalo «interaktiv» tushunchasini aniqlashtirib olaylik. «Interaktiv» degan so'z inglizcha «Interact» so'zidan kelib chiqqan. «Inter» - o'zaro, «act» - ish ko'rmoq, ishlamoq degan ma'nolarni beradi. Interaktiv o'qitishning mohiyati o'quv jarayonini tashkil etishdan iboratki unda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

O'yinli texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanishning asosini o'quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

O'yin olimlari tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

O'quvchining Matematika o'quv jarayonida egallagan bilimlaridan, kasbiy malakalari va ko'nikmalaridan hissiy qoniqish va undan quvonish hissini hosil qilish lozim. Matematika o'quvchilarining fazoviy tasavvurlarini shakillantirishda juda katta imkoniyatlarga ega. Fazoviy tasavvur va uni rivojlanishsiz matematika dasturining asosiy mavzularini o'zlashtirish mumkin emas.

Matematika fanini o'qitishda yuqorida aytib o'tilgandek o'yin texnologiyalaridan va interaktiv o'qitish metodikasidan foydalanib dars olib borilsa o'quvchilar mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi, mustaqil fikrlay olish qobiliyatlari oshadi, kelasi darsga tayyorlanibgina qolmasdan, ilmiy jihatdan o'z istedodlarini ko'rsatishga harakat qiladilar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. //Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: Sharq. 1997.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.T.: 2006.
3. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.T.: 2003.
4. Karimov I.,Seytimbetov S. Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari. T.: 2015.

MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI: KECHA, BUGUN VA ERTAGA

*Xolmirzaev Xayitboy Dedaxonovich, Nizomiy nomidagi TDPU san'atshunoslik
fanlari nomzodi, dotsent.*

Dadahonova Surayyo Xayitboy qizi, ToshDTU talabasi.

Annotatsiya: Yosh avlodning “Media savodxonlik va axborot madaniyati”ni shakllantirish, kechiktirib bo‘lmas masala sifatida baholanadi. Ammo, “Media savodxonlik va axborot madaniyati” tushunchasi, axborotlashgan jamiyat tufayli yuzaga kelgan, sof texnologik jarayon deb qarash davom etmoqda. Aslida esa “Media savodxonlik va axborot madaniyati” tushunchasi mazmun-mohiyatiga ko‘ra madaniy, ma’naviy va sotsial jarayon hisoblanadi. Chunki, axborotlashgan jamiyat tinimsiz rivojlanib, nafaqat shakliy o‘zgarish balki, mazmun va mohiyatdan ham murakkab shakl kashf etib, jamiyat istiqbolini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: Media maydon, media makon, media savodxonlik, axborot vositasi, axborotlashgan jamiyat, kompyuter, internet va mobil telefon, sotsial tarmoq, media madaniyat, axborot madaniyati, ma’naviyat, sotsial jarayon.

Kanadalik zamonaviy axborot ilmi asoschilaridan bo‘lgan Marshall Maklyuen o‘tgan asrning 70-yillarida “Har bir yangi axborot vositasi o‘sha zamon kishilarini imtihon, sinovdan o‘tkazadi”, -deya fikr yuritganda hali kompyuter, internet va mobil telefon kabilar kashf etilmagan edi. Lekin ushbu dono bashorat naqadar to‘g‘ri ekanligini bugungi kun odamlarining kundalik hayoti va turmush tarzi har qadam, har lahzada ko‘rsatib, isbotlamoqda. Bu borada haqli savol tug‘iladi: o‘z ixtiyorimizdagi axborot vositalaridan foydalanish madaniyati me‘yorlarini nechog‘li o‘zlashtirganmiz? Ularni amalda qo‘llash-chi? O‘sha jonsiz va zabonsiz vositalar har birimizni sinab, imtihondan o‘tkazib, fe‘l-atvorimizda yangi axborot madaniyatiga bo‘lgan ehtiyojimiz ortayotganini yetarli darajada his qilyapmizmi?

Media savodxonlik va axborot madaniyati ilmiy, madaniy va sotsial muammo sifatida baholanib, muammolarga yechim topish, ushbu vositadan o‘rinli foydalanish bo‘yicha yechim izlash taklifi, 2007 yilda UNESCO tomonidan ishlab chiqildi. U axborot savodxonligi va mediasavodxonlik bilan bog‘liq barcha kompetensiyalarni, shu jumladan raqamli yoki texnologik savodxonlikni ham qamrab oladi.

Ilk qarashda “Media savodxonlik va axborot madaniyati” ahamiyatga molik masala emasdek, taasurot uyg‘otadi ammo, so‘z qudrati atomdan kuchli bo‘lgan

davrda sotsial tarmoqlarda ro'y berayotgan jarayon va xodislarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Media savodxonlik va axborot madaniyati - bu ijodiy faoliyatda barcha zarur vositalardan foydalangan holda axborot va media mahsulotlarini samarali olish, tahlil qilish, tanqidiy baholash, talqin qilish, foydalanish, yaratish va tarqatish imkonini beradigan bilim, ko'nikma, munosabat, malaka va amaliyotlar majmuidir.

Dunyo xalqlari hayotiga kutilmagan mehmondek tashrif buyurgan "ijtimoiy tarmoqlar" alaqachon butun dunyoni "zabt etib" ulgirdi, yoshlarga u bilan muloqot qilishni taqiqlashdan ko'ra, foydalanish, iste'mol madaniyatini shakllantirish ma'quldir. Bu borada ham tashabbusni oliy ta'lim sohasi o'z zimmasiga oldi.

2016 yildan beri UNESCO har yili dunyoning turli mamlakatlarida o'tkaziladigan "Media savodxonlik va axborot madaniyati" haftaligida yoshlarga bag'ishlangan platformani, ya'ni yoshlar kun tartibi forumini taqdim etib keladi. Forumni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad, yoshlarning media savodxonligi va axborot madaniyatini oshirish dasturlari, tashabbus va tadbirlarida ishtirokini ta'minlash muhimligini targ'ib etishdir. Ta'kidlash joizki, media savodxonlik va axborot madaniyati sohasida bilim va resurslarni yaratish hamda tarqatishda yoshlarni jalb etishdan iborat.

Talabalarga "Media savodxonlik va axborot madaniyati" fanini o'qitish joriy etildi. "Bir qarashda bu fan jurnalist bo'lishni niyat qilgan-larga taluqlidek ko'rinadi. Biroq, axborotlashgan jamiyat tushunchasiga ko'ra barcha tarmoq foydalalanuvchilari uchun u birdek zarur"-deya ta'kidlaydi Yu. Ocheret.

Media savodxonlik tushunchasi mazmun-mohiyati va zamonaviy qo'llanishiga ko'ra mazkur istiloh bir necha ma'noga ega. Birinchidan, "media" so'zi OAVni: gazeta, televidenie, radio, axborot agentligi va internetni anglatadi. Ikkinchidan, undan media kontent: yangilik, reklama e'loni, elektron o'yin va filmlarni-belgilashda foydalaniladi. Uchinchidan, esa u media kontent ishlab chiqaruvchi, jurnalist, suratchi va media kompaniyalarni bildiradi.

Har bir inson aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lsagina dunyo virus va uning oqibatlari bilan kurasha oladi. Verified-bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbusi bo'lib, ishonish mumkin bo'lgan materiallarga kirishda yordam beradi: hayotiy ma'lumotlar, faktlarga asoslangan maslahatlar va haqiqiy qahramonlarning hikoyalari.

"Media savodxonlik va axborot madaniyati" bo'yicha xalqaro kunlar tashkil qilishdan maqsad ? Bu soxada tashkil etilayotgan xalqaro xaftaliklar keng jamoatchilikni o'ylantirayotgan masalalar bo'yicha ma'lumot berish, global muammolarni hal qilish uchun siyosiy iroda va resurslarni safarbar etish, insoniyat erishgan yutuqlarni nishonlash va mustahkamlash uchun imkoniyatdir.

Agar siz biron bir yangilik, xabar yoki biron-bir veb-saytga ilovani uchratsangiz: manba muallifi kim ? Buni kim chop etmoqda ? Buni do'stingiz sizga yuborgan bo'lsa ham, siz asosiy manbani topishga harakat qilishingiz zarur. Keyin bu o'ylab topilgan, uydirma yangiliklar sayti bo'lib chiqishi ham mumkin. Bunaqa hollar ham uchryadi, albatta. Yoki bu ishonchli bo'lmagan ba'zi bir akkaunt bo'lishi mumkin. Bunday akkauntlarni aniqlashni o'rganish ham juda muhim. Bu haqda nima deyish mumkin ? G'alati ismlar, avatarning yo'qligi, fotosurat va xabarlar juda g'alati. Ko'plab repostlari bor, bunday odamlarning shaxsiy fotosuratlari kam bo'lib, do'stlarning akkauntida ham qayd etilgan fotosuratlari bo'lmaydi. Masalaga prinsipial yondashadigan bo'lsak, bu masala asosiy manbani topishga arziydi. Keyin ma'lumotni kim tarqatganiga e'tibor bering: bu qandaydir g'alati akkaunt yoki sayt. Buning uchun bir muhim ishni qiling, mavzuga doir manbalarni qidirishga harakat qiling. Biz odatda talabalar va maktab o'quvchilari bilan bu haqda suhbatlashamiz. Ha, ular ijtimoiy tarmoqlarni juda yaxshi bilishadi, ular bu kabi tarmoqlarda post yozishlari, fikr-mulohazalarini bildirishlari mumkin, ammo negadir ular hali ham Google va Yandeks borligini unutishmoqda. Shu ma'lumotdan nusxa olib uni internetdagi qidiruv tizimiga qo'yishning o'zi kifoya. Qidirish mexanizmi ushbu ma'lumotlar dastlab joylashtirilgan saytlarning ro'yxatini topadi. Siz aynan shu usulda feyk ya'ni soxta ma'lumotni fosh qiladigan maqola topishingiz mumkin.

Media savodxonlik bo'yicha ta'lim jarayoni turli fanlar kesimida amalga oshiriladi. Shu bois mavjud holat va maqsaddan kelib chiqqan holda turli yondashuvlardan foydalanadi. Masalan, media savodxonlikning xavfsizlik, ijtimoiy-axloqiy, madaniy va texnologik jihatlari bilan bog'liq ko'nikmalarni o'rganish hususida fikr yuritadi.

Axborot madaniyati bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri bo'lib, media makonda axborot oqimining jadal o'sib borishi, taqdim etilayotgan axborotlar sirasidan kerakli, zaruriy va foydalilarini saralab olish, eng murakkab jarayondir. Bu borada keng dunyoqarash, tafakkur tarzi va mustaqil fikrga ega, har bir shaxs axborotlar ummonidan o'zi uchun keraklarini ajratish salohiyatiga ega bo'lishi lozim. Axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirining bir nechta bosqichlari mavjud, xususan "axborot madaniyati"ni shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltiradi.

Axborot, inson ong tafakuri mahsuli bo'lib, jamiyat moddiy-ma'naviy boyligi sifatida turli bilimlarning bir kurinishi hisoblanadi, shaxsiy va jamoaviy faoliyat yuritishda o'z ta'sir "kuch"ga egadir. Axborotni taxlil qilishda siyosiy, psixologik, xarbiy, pedagogik, texnik va xukukiy yoki tibbiy kabi nuktai nazardan yondashiladi. Biroq bu axborot xali ijtimoiy ahamiyatga ega, deya hukm chiqarishga asos bo'lmaydi. Qachonki, axborot millat, xalq va insoniyat manfaatlarini himoyalash

hamda qadriyatini asrashni o'zida mujassam etsa, ijtimoiy-madaniy mazmun kasb etadi.

Texnik taraqqiyot borasida yuksaklika erishgan davlatlarda axborot madaniyati (infoetika, mediaetika, mediata'lim va hokazo)ga alohida fan, muammo, ta'lim jarayoni va siyosat darajasiga chiqdi. Axborot madaniyati soxasida ilmiy markaz mutaxassislari va olimlar ushbu muammolar tevaragida ixtisoslashgan tarzda yuz berayotgan holatni tadqiq hamda tahlil qilishnishi bejizga emas.

Amerikalik sotsiolog E. Toffler "Uchinchi to'lqin" asarida Insoniyat ortda qoldirgan yo'l, uch bosqichdan, ya'ni qishloq xo'jaligi, sanoat va hozirgi axborot tamaddunlaridan iboratligini yozadi. Shunday ekan savol tug'ilishi tabiiy: xo'sh, keyin-chi? Insoniyat to'rtinchi to'lqin davrini ham boshidan kechiradimi? U, qanday nomlanadi? Taraqqiyot shiddati bashariyatni qaeirlarga olib boradi? O'zimiz yaratgan, erishgan va erishayotgan taraqqiyot cho'qqilarida omon qolish hamda yashash epini topa olamizmi?

Yosh avlodning axborot madaniyatini shakllantirish, kechiktirib bo'lmas masala sifatida baholanadi. Ammo axborotlashgan jamiyat tushunchasiga esa ko'pincha, sof texnologik jarayon deya qarash davom etmoqda. Aslida esa mazmun-mohiyatiga ko'ra bu hodisa chuqur ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Chunki, axborotlashgan jamiyat tinimsiz rivojlanib, nafaqat shakliy o'zgarish balki, mazmun va mohiyatdan ham murakkab shaklga o'tib, jamiyat istiqbolini belgilaydi. "Sog'lom aql-idrok va mantiqdan kelib chiqilsa, hozirdanoq to'rtinchi to'lqin axborot odobi, madaniyati tamadduni, deb nomlanishi birdan-bir to'g'ri hamda oqilona chora ekanligini ko'rsatadi.

Ha, endilikda odamlar va oilalarning milliy qadriyatlari, insoniyatning rivoji, farog'ati va istiqboli mazkur xaloskor madaniyatga bevosita bog'liq bo'lib qoladi,- deydi Oliy Majlis deputati, yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad o'zning "Axborot madaniyati-hayot momot masalasi" mavzusidagi suhbatdan.

Axborot madaniyati bugungi kunda insondan yangi kompetentlilikni, jumladan, axborot-kommunikatsiya mulokotini tashkil etish, media va axborot muxiti bilan uzaro xamkorlik kilish, zamonaviy axborot texnologiyalarini kullash kunikmalarini egallashni talab kilmokda.

Zamonaviy jamiyatda axborotni tanlash, baxolash, kayta ishlash va uzatish borasidagi kunikma va malakalarni oshirish zarurati tugilib, buning uchun axborot savodxonligi, axborotga egalik, uni baxolash va axlok koidalariga rioya kilgan xolda foydalanishning muximligi xar kachongidan xam dolzarb bulib bormokda. Bugungi kunda zamonaviy innovatsiyalar va texnik tarakkiyot namunalari jamiyat xayotining barcha soxalariga kirib borib, ijtimoiy-iktisodiy rivojlanishning muxim omiliga

aylanishi bilan bir katorida, yoshlarning resotsializatsiya uzgarishi omili xam xisoblanadi.

Yoshlarga internetdagi yangiliklar va boshka axborotlarni "soglom" iste'mol kilish kunikmalarini singdirish, axborotni bir necha mediamanbalardan olish orkali axborotdan tugri foydalanishga urgatish, feyklarni aniklash va yangiliklarga oid onlayn-resurslarning ishonchliligini aniklash buyicha yul-yurik kursatish uchun kutubxonachilar treninglar, ochik ma'ruzalar, loyixaviy ukitish tashkil etish, takdimotlar, broshyuralar, plakatlar tayyorlash, veb-saxifalardagi makolalar chop etish xamda ijtimoiy mediadagi materiallar bilan ishlash kunikmasiga ega bulish zarur xisoblanadi.

Yoshlarning axborot madaniyati darajasi aynan ma'lumotlardan foydalanish nuqtasida shakllanadi, bu vazifani kutubxonalar bajaradi va aynan shu urinda mediakompetentlikni va axborot madaniyatini rivojlantirish samaradorligi faoliyatiga yul ochadi.

Jamiyatni axborotlashtirishning barcha asosiy xususiyatlari, shu jumladan uning dinamikasi media savodxonlik darajasi va axborot madaniyatiga sezilarli darajada boglik. Xususan, bugungi kunga kelib yoshlarning axborot madaniyati nafakat an'anaviy balki yangi axborot texnologiyalaridan foydalanilgan xolda axborotga bulgan extiyojlarni muvofik kondirish buyicha maksadli va mustakil faoliyatni ta'minlovchi dunyokarash xamda bilim va kunikmalarlar tizimining yigindisiga aylandi.

Xulosa o'rnida. AQShda qabul qilingan "XXI asr talabasi uchun standartlar" deb nomlangan yo'riqnomada talabalar malaka, manba va bilim olish vositalarini quyidagi maqsadlarga yo'naltirishi lozimligi belgilangan. Bular: ma'lumot izlash, tanqidiy fikrlash, bilim olish, xulosalar yasash, tegishli ma'lumotga asoslangan holda qaror qabul qilish, bilimni yangi vaziyatlarga yo'naltirish, yangi bilimlarni yaratish, bilim almashish va shaxsiy kamolot hamda estetik jihatdan o'sishga intilishdir. Mazkur standartlar oliy ta'lim sohasidagi axborot madaniyati masalalariga bag'ishlangan bahs-munozalarda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Королева О.С. Почему нам необходима медиаграмотность ?. –М. -20220.
2. Печищев И. В. Три точки. Знай, что смотришь! Новый репортер. <https://newreporter.org>
3. Нурутдинова М. Ёт ғояларга нисбатан медиасаводхонликни ошириш – давр талаби. Ўзбекистон халқаро ислом академияси. moturidiy.uz

4. Медведева Е.А. Информационная культура как предмет преподавания в системе высшего образования. Краснодар,1995.- С.67-68.

5. Атаян А. Информационная культура личности в условиях информатизации общества // Бюллетень ВИУ. 2001. Вып. №1(7).09.2004г.

OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TARBIYASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Aripova Vasila Baxtiyarovna

O'zbek tili va adabiyoti kafedراسи katta o'qituvchisi(PHD)

Toshkent Arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya. Zamonaviy o'zbek ta'limining o'ziga xos xususiyati raqamli texnologiyalarni ko'pgina fanlar va kurslarning o'qitish jarayoniga joriy etishdir. 2022-2023 o'quv yilida Toshkent tibbiyot akademiyasi 1-kurs talabari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 98 foizi o'zlari o'qigan fanlarni o'zlashtirishda raqamli texnologiyalarning ijobiy rolini qayd etishgan. "Jismoniy tarbiya" fani bo'yicha raqamli yondashuv, ya'ni o'quv jarayonini kompyuterlashtirishning afzalliklarini asoslash maqsadida, 2022-yilning sentabr-dekabr oylarida TTA Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya kafedراسи negizida pedagogik tajriba o'tkazildi. Tajriba davomida jismoniy tarbiya elektron darsligi bo'yicha o'quv jarayoniga formativ pedagogik eksperiment kiritildi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, kompyuterlashtirish, jismoniy tarbiya va sport, akademik ko'rsatkichlar, eksperiment.

Zamonaviy jamiyatning texnologik xususiyatlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kiritilishiga va ta'lim sohalarida yangi o'qitish metodologiyalarining paydo bo'lishiga yordam berdi. So'nggi paytlarda jismoniy tarbiyada raqamli texnologiyalardan foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Ta'lim siyosatida o'rganish uchun raqamli texnologiyalar va jismoniy tarbiya bo'yicha yangi o'quv dasturlari o'sib borayotganini hisobga olgan holda, O'zbekiston ta'limida ta'lim jarayoniga eng yangi zamonaviy o'qitish usullari va elektron o'quv qo'llanmalari tobora ko'proq kiritilmoqda. Kompyuter texnologiyalari zamonaviy va ilg'or o'qitish usullari bo'lib, ko'pgina fanlar va talabalar bilan ishlashda keng qo'llaniladi. O'quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish talabalarining o'quv faoliyatini faollashtirish va o'qitish amaliyotida

rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalarini amalga oshirish imkonini beradigan psixologik-pedagogik ishlanmalardan foydalanish imkonini beradi. Kompyuter texnikasining inson faoliyati quroli va o'qitishning prinsipial jihatdan yangi vositasi sifatidagi imkoniyatlari o'qitishning yangi usullari va tashkiliy shakllarining paydo bo'lishiga va ularning ta'lim jarayoniga tezroq joriy etilishiga olib keldi. Afsuski, jismoniy tarbiya sohasiga raqamli texnologiyalar kamdan-kam kiritiladi. Bu esa talabalarning qiziqishi va tashabbuskorligining yo'qligi, aqliy faolligining pasayishi, mashg'ulotlarning harakat zichligining pasayishi, universitetda jismoniy tarbiya va sport darslarida olingan bilim, ko'nikma va malakalar darajasining pasayishiga olib keladi. Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya dasturini modernizatsiya qilish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot vazifalari: 1) maxsus adabiyotlar ma'lumotlari asosida tadqiqot muammosining hozirgi holatini tahlil qilish; 2) "Jismoniy tarbiya va sport" fanidan o'quv jarayoniga kompyuter texnologiyalarini joriy etish bo'yicha talabalarning fikrlarini bilish; 3) universitet talabalari bilan jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini eksperimental asoslash.

Belgilangan maqsadga erishish va shakllantirilgan muammolarni hal qilish quyida keltirilgan tadqiqot usullaridan foydalangan holda amalga oshirildi.

Jismoniy tarbiya fanidan o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurligini asoslash maqsadida "Jismoniy tarbiya va sport" fanidan elektron darslik ishlab chiqildi va formativ pedagogik tajriba davomida sinovdan o'tkazildi. Olingan eksperimental ma'lumotlarni tahlil qilish matematik statistika usullaridan foydalangan holda amalga oshirildi. Asosiy statistik ko'rsatkichlar hisoblab chiqildi (o'rtacha tanlama, standart og'ish, tanlanma o'rtacha xatosi, o'zgarish koeffitsienti). Hisoblash uchun Microsoft Excel dasturidan foydalanilgan.

Natija va ularning muhokamasi 2022-2023 o'quv yilida TTAda jismoniy tarbiya va sport faniga kompyuter texnologiyalarini joriy etish bo'yicha savollar bilan talabalar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Anketa va onlayn so'rovnomalar bilan to'ldirildi. I, II, kurslarning 100 nafar talabasi so'rovdan o'tkazildi. So'rovnoma savollaridan biriga: ("Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'quv intizomini o'zlashtirishga yordam beradimi?") respondentlarning atigi 2 foizi salbiy javob berdi, qolgan 98 foizi ijobiy javob berdi. Respondentlarning fikricha, talabalar jismoniy tarbiyasida bu texnologiyalar yetarli darajada qo'llanilmayapti.

TTAda "Jismoniy tarbiya v sport" fani bo'yicha o'quv jarayoniga elektron ma'lumotlar bazasi-monitoring, sport turlarining texnika va taktikasini o'zlashtirish bo'yicha taqdimot va videomateriallar ko'rinishidagi ko'rgazmali qurollar joriy etilgan. Biroq, bu texnologiyalardan foydalanish vaqti-vaqti bilan, tizimli yondashuv

mavjud emas, o'qitish usullari etarli darajada ishlab chiqilmagan. Jismoniy tarbiya va sport darslarida talabalarning o'quv faoliyatini faollashtirish uchun o'quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha maxsus adabiyotlarda mavjud bo'lgan materiallarni tizimlashtirishga harakat qilindi.

Shu asosda "Jismoniy tarbiya va sport" fanidan elektron darslik yaratildi.

- 1) ta'limda kompyuterlardan foydalanishga tizimli yondashish;
- 2) nazariy materialning qulay va vizual taqdimotidan foydalanish;
- 3) amaliy materialni sifatli o'zlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarni samarali shakllantirish.

Elektron darslik jismoniy tarbiya va sportga oid nazariy, ma'lumot va amaliy materiallar to'plamidir. Ishlab chiqilgan elektron darslik uchta mustaqil va bir vaqtning o'zida mantiqiy jihatdan o'zaro bog'langan qismdan iborat. Birinchi qism taqdimot komponenti bo'lib, qo'llanmaning asosiy ma'lumot qismini belgilaydi. Unda jismoniy tarbiya va sportning tarixi, jismoniy mashqlarning inson organizmiga ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari, sport turlarini o'qitishning texnologiya asoslari, taktikasi va usullari o'rganiladi.

Elektron darslikning navbatdagi qismida "Jismoniy tarbiya va sport tarixi", "Sportdagi sport musobaqalari", "Sport musobaqalarining rasmiy qoidalari", "Sport musobaqalarining rasmiy qoidalari" videokliplari mavjud yuqori malakali sportchilar, asosiy xatolar ko'rsatilgan texnika va taktikalar keltirilgan. Video, tovush va matn yordamida talabalar vosita harakati haqida virtual tasavvurga ega bo'ladilar, harakatlar ketma-ketligini modellashtirishni o'rganadilar, taktika elementlari, haqida tasavvur ega bo'ladilar.

Elektron qo'llanmaning uchinchi qismida talabalarga o'z tayyorgarlik darajasini mustaqil nazorat qilish hamda sport texnikasi va taktikasini o'zlashtirish dinamikasini kuzatish imkonini beruvchi nazorat standartlari va baholash jadvallari keltirilgan.

2022-2023 o'quv yilining sentabr-dekabr oylarida TTA negizida o'tkazilgan pedagogik tajribada "Jismoniy tarbiya va sport" fanidan elektron darslik akademiya 1-kurs talabalari bilan nazariy va amaliy mashg'ulotlarda sinovdan o'tkazildi. Tajribada 24 nafar talaba ishtirok etdi (12 nafar talaba – tajriba guruhi, 12 nafar talaba – nazorat guruhi). Tajribadan oldin talabalarning tayyorgarlik darajasida sezilarli farq yo'q edi. Tajriba guruh talabalariga "Jismoniy tarbiya va sport" fanidan o'quv materialini elektron darslikdan foydalangan holda dastur bo'yicha o'zlashtirish topshirildi. Nazorat guruhi an'anaviy dastur bo'yicha o'rganildi. Ikkala guruhdagi darslarni bir o'qituvchi olib bordi. Tajribada qo'llanilgan metodikaning samaradorligi dasturning nazariy va amaliy bo'limlari bo'yicha har ikki guruh talabalarining ko'rsatkichlari dinamikasi bilan belgilandi. Talabalarning faoliyati maxsus ishlab

chiqilgan elektron testlar yordamida baholandi, bu esa “avtomatik baholashning yuqori aniqligi va xolisligini hamda test sinovlari vaqtini sezilarli darajada tejashni” ta’minladi. Talabalar faoliyatini baholash uchun besh 100 ballik tizim qo'llanildi. Tajriba natijalari jadvalda keltirilgan.

Formativ pedagogik eksperiment davomida tajriba va nazorat guruhlari talabalarining ishlash ko'rsatkichlari dinamikasi (n=12)

Jadval

Guruh	Dastur bo'limlari	Ko'rsatkichlar, ball		P
		Tajribadan oldin M±m	Tajribadan keyin M±m	
Tajriba	Nazariy	2,96±0,20	4,42±0,12	<0,001
	Amaliy	2,92±0,23	4,17±0,11	<0,001
Nazorat	Nazariy	2,79±0,12	2,86±0,18	>0,05
	Amaliy	2,83±0,21	3,0±0,17	>0,05

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, "Jismoniy tarbiya va sport" fanidan (nazariy va amaliy bo'limlar) talabalarning tajriba ko'rsatkichlari har ikki guruhda ham ortib borayotgan dinamikani ko'rsatdi. Ammo tajriba guruhda aniqlangan o'zgarishlar nazorat guruhidagi o'zgarishlarga ((P<0,05) nisbatan sezilarliroq bo'lib chiqdi (P<0,001). Bu “Jismoniy tarbiya va sport” ijobiy natijaga ega degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Buni talabalarning nafaqat amaliy, balki dasturning nazariy qismida ham ish faoliyatini yaxshilashga xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot muammosi va maxsus adabiyotlar etarli darajada yoritilmagan. Innovatsion kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi “Jismoniy tarbiya va sport” fani bo'yicha o'quv jarayonini optimallashtirish va takomillashtirish, uni intensiv, samarali va sifatli qilish, talabalarning jismoniy tarbiya va sport darslariga davomatini oshirish, ularning malakasini oshirish imkonini berdi. Pedagogik tajriba natijalari “Jismoniy tarbiya va sport” fani bo'yicha o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurligini tasdiqladi, bu fanni o'qitishning an'anaviy usullariga nisbatan sezilarli ustunlikka ega.

Qo'llanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ахметшин Ч.И. Обучение физическому воспитанию с использованием цифровых технологий /Ч.И. Ахмеешин, П.Р. Хамидуллин // Вопросы педагогики. – 2019. - №10-1. С.7-9.

2. Бенидзе А.А. Актуальные вопросы модернизации программы по физической культуре в образовательных организациях /А.А. Бенидзе, Е.С. Сотников // Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. – 2019. - №4(170). – С. 47-50.

REFERENCES

1. Akhmetshin Ch.I. Teaching physical education using digital technologies / C.I. Akhmeeshin, P.R. Khamidullin // Questions of pedagogy. – 2019. - No. 10-1. P.7-9.

2. Benidze A.A. Topical issues of modernization of physical education programs in educational organizations /A.A. Benidze, E.S. Sotnikov // Scientific Notes of the University named after. P.F. Lesgafta. – 2019. - No. 4 (170). – P. 47-50.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM SOHASIDA QO'LLANILISHI

*Turdibekova Risolat Shermatovna,
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti
Eyupov Timur Ruslanovich, T25-23guruh talabasi
G.Z. Xusnidinova 102-o'rta maktab o'qituvchisi*

Аннотация: *Статья посвящена применению цифровых технологий в сфере образования, которые способствуют повышению качества, доступности и эффективности образовательного процесса. Статья рассматривает различные виды цифровых технологий, такие как электронные учебники, обучение в онлайн-режиме, цифровая школа, облачные технологии, виртуальная реальность, 3D-моделирование, образовательная робототехника и др. Статья также анализирует преимущества и недостатки цифровых технологий, а также перспективы их развития и внедрения в образовательную систему. Статья делает вывод, что цифровые технологии являются необходимым условием для подготовки квалифицированных и конкурентоспособных специалистов в условиях цифровой экономики и общества.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, образование, электронные учебники, обучение в онлайн-режиме, цифровая школа, облачные технологии, виртуальная реальность, 3D-моделирование, образовательная робототехника.*

Annotatsiya: *Maqola ta'lim jarayonining sifati, mavjudligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llashga bag'ishlangan. Maqolada elektron darsliklar, onlayn ta'lim, raqamli maktab, bulutli texnologiyalar, virtual haqiqat, 3D modellashtirish, ta'lim robototexnika va*

boshqalar kabi turli xil raqamli texnologiyalar ko'rib chiqiladi, maqolada raqamli texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, ularni rivojlantirish va ta'lim tizimiga joriy etish istiqbollari tahlil qilinadi. Maqolada raqamli texnologiyalar raqamli iqtisodiyot va jamiyat sharoitida malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur shart degan xulosaga keladi.

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, ta'lim, elektron darsliklar, onlayn ta'lim, raqamli maktab, bulutli texnologiyalar, virtual haqiqat, 3D modellashtirish, ta'lim robototexnika.*

Annotation: *The article is devoted to the use of digital technologies in the field of education, which contribute to improving the quality, accessibility and efficiency of the educational process. The article examines various types of digital technologies, such as electronic textbooks, online learning, digital school, cloud technologies, virtual reality, 3D modeling, educational robotics, etc. The article also analyzes the advantages and disadvantages of digital technologies, as well as the prospects for their development and implementation in the educational system. The article concludes that digital technologies are a prerequisite for the training of qualified and competitive specialists in the digital economy and society.*

Keywords: *digital technologies, education, electronic textbooks, online learning, digital school, cloud technologies, virtual reality, 3D modeling, educational robotics.*

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida, shu jumladan ta'limda tobora ko'proq rol o'ynamoqda. Raqamli texnologiyalar-bu kompyuterlar, tarmoqlar, dasturiy ta'minot, Internet va ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash, uzatish va raqamli ravishda taqdim etishning boshqa vositalaridan foydalanishga asoslangan texnologiyalar. Raqamli texnologiyalar matnlar, rasmlar, tovushlar, videolar, animatsiyalar, simulyatsiyalar va boshqalar kabi turli xil ta'lim resurslarini yaratish, tarqatish, olish va ulardan foydalanish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar, shuningdek, ta'lim jarayonida masofaviy, gibrid, individual, hamkorlikdagi, moslashuvchan, o'yin va boshqalar kabi yangi tashkil etish va o'zaro aloqalarni ta'minlaydi. raqamli texnologiyalar ta'lim sifati, mavjudligi va samaradorligini oshirishga, shuningdek, raqamli iqtisodiyot va jamiyatda muvaffaqiyatli yashash va ishlash uchun zarur bo'lgan talabalar o'rtasida asosiy vakolatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Ushbu maqolada biz ta'lim sohasida qo'llaniladigan raqamli texnologiyalarning ayrim turlarini, shuningdek ularning afzalliklari va kamchiliklarini, ularni rivojlantirish va ta'lim tizimiga kiritish istiqbollari va muammolarini ko'rib chiqamiz.

Elektron darsliklar

Elektron darsliklar-bu kompyuterlar, planshetlar, smartfonlar va boshqa qurilmalar yordamida ko'rish, yuklab olish, nusxalash, chop etish, o'zgartirish va to'ldirish mumkin bo'lgan raqamli shaklda taqdim etilgan o'quv materiallari hisoblanadi. Elektron darsliklarda nafaqat matn, balki grafika, audio, video, animatsiya, giperhavolalar, interaktiv elementlar, testlar, topshiriqlar va boshqalar ham bo'lishi mumkin. Elektron darsliklarga Internet orqali yoki axborot vositalarida oflayn rejimda kirish mumkin.

Elektron darsliklarning afzalliklari:

- Vaqt, pul va resurslarni tejash. Elektron darsliklar bosib chiqarish, yetkazib berish, saqlash, yangilash va yo'q qilishni talab qilmaydi, bu ularni ishlab chiqarish, tarqatish va ulardan foydalanish xarajatlarini kamaytiradi. Elektron darsliklar, shuningdek, o'qituvchilar va o'quvchilarning vaqtini va kuchini tejaydi, chunki ularni istalgan vaqtda, istalgan joyda osongina topish, yuklab olish, ochish, o'qish, o'rganish va ishlatish mumkin. Elektron darsliklar ham resurslarni tejaydi, chunki ular qog'oz, siyoh, Toner va boshqa materiallarni talab qilmaydi, bu esa atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytiradi.
- Axborot hajmi, sifati va xilma-xilligini oshirish. Elektron darsliklarda qog'ozga qaraganda ko'proq ma'lumot bo'lishi mumkin, chunki ular jismoniy o'lcham va vazn bilan cheklanmaydi. Elektron darsliklar, shuningdek, yaxshiroq va dolzarb ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin, chunki ular osongina yangilanishi, tuzatilishi, to'ldirilishi va o'quv jarayonining o'zgaruvchan talablari va ehtiyojlariga moslashtirilishi mumkin. Elektron darsliklarda turli xil ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin, chunki ular matn, grafika, audio, video, animatsiya, giperhavolalar, interaktiv elementlar va boshqalar kabi ma'lumotlarni taqdim etishning turli formatlari, vositalari va usullaridan foydalanishlari mumkin.
- Axborotdan foydalanish qulayligi va qulayligini yaxshilash. Elektron darsliklar joylashuvi, vaqti, yoshi, tayyorgarlik darajasi va boshqa omillardan qat'iy nazar, o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari uchun mavjud bo'lishi mumkin. Elektron darsliklardan internetga ulanishi yoki oflayn rejimda ishlashi mumkin bo'lgan kompyuterlar, planshetlar, smartfonlar va boshqalar kabi turli xil qurilmalarda foydalanish mumkin. Elektron darsliklardan foydalanish ham qulay bo'lishi mumkin, chunki ularni qidirish, navigatsiya, kattalashtirish, ta'kidlash, izohlash, xatcho'plar va boshqalar kabi turli xil funksiyalar yordamida osongina ko'rish, yuklab olish, nusxalash, chop etish, o'zgartirish va to'ldirish mumkin.

Elektron darsliklarning kamchiliklari:

- Texnik qo'llab-quvvatlash va qo'llab-quvvatlash talablari. Elektron darsliklar kompyuterlar, planshetlar, smartfonlar, Internet, dasturiy ta'minot va boshqalar kabi

turli xil texnik vositalarning mavjudligi va ishonchli ishlashini talab qiladi, bu ayniqsa, axborot infratuzilmasi va raqamli savodxonligi past bo'lgan hududlarda elektron darsliklarga kirish va ulardan foydalanishda qiyinchiliklar va to'siqlarni keltirib chiqarishi mumkin. Elektron darsliklar, shuningdek, doimiy texnik yordam va texnik xizmat ko'rsatishni talab qiladi, bu qimmat va murakkab jarayon bo'lishi mumkin.

- Mualliflik huquqining buzilishi va qaroqchilik ehtimoli. Elektron darsliklar mualliflar va noshirlarning ruxsati va nazoratisiz osongina ko'chirilishi, tarqatilishi, o'zgartirilishi va ishlatilishi mumkin. Bu mualliflik huquqining buzilishi va qaroqchilikka olib kelishi mumkin, bu esa yuqori sifatli va tegishli elektron darsliklarni yaratish va nashr etish uchun rag'batlantirish va daromadlarni kamaytiradi. Bu shuningdek, o'quv jarayoni va o'quv natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan past sifatli, eskirgan, noto'g'ri yoki zararli elektron darsliklarning paydo bo'lishi va tarqalishiga olib kelishi mumkin.

- Qog'oz darsliklarining ba'zi afzalliklarini yo'qotish. Elektron darsliklar o'quvchilar va o'qituvchilarni qog'oz darsliklarining ba'zi afzalliklaridan mahrum qilishi mumkin masalan, teginish, barqarorlik, elektr energiyasi va internetdan mustaqillik sahifalarda yozish va chizish, kitobni varaqlash, qog'ozning hidi va tuzilishini his qilish va boshqalar, ushbu afzalliklar o'qish, o'rganish va yodlash uchun yanada qulay, estetik va hissiy sharoitlarni yaratishi mumkin bo'lgan axborot.

Ta'lim tizimiga elektron darsliklarni rivojlantirish va joriy etish istiqbollari va muammolari

Raqamli texnologiyalar, shu jumladan elektron darsliklar raqamli iqtisodiyot va jamiyat sharoitida malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur shartdir. Shu sababli, ta'lim tizimiga elektron darsliklarni ishlab chiqish va joriy etish zamonaviy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Biroq, ushbu yo'nalishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bir qator muammolarni hal qilish kerak, masalan:

- Elektron darsliklarga kirish va ulardan foydalanishni texnik qo'llab-quvvatlash va qo'llab-quvvatlash, shu jumladan axborot infratuzilmasini rivojlantirish, internetga ulanish sifati va xavfsizligini ta'minlash, apparat va dasturiy ta'minotni yangilash va modernizatsiya qilish, foydalanuvchilarni o'qitish va maslahat berish va boshqalar.

- Elektron darsliklarni yaratish, nashr etish, tarqatish va ulardan foydalanishda mualliflik huquqlariga rioya qilish va qaroqchilikka qarshi kurashish, shu jumladan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qo'llash, elektron darsliklarni litsenziyalash, ro'yxatdan o'tkazish, nazorat qilish va himoya qilish mexanizmlari, raqamli imzolar tizimini joriy etish, shtrix-kodlar va boshqalar.

- Elektron darsliklarga o'tishda qog'oz darsliklarning ba'zi afzalliklarini saqlab qolish va rivojlantirish, shu jumladan bosma nusxalar, audio va video versiyalar, interaktiv qo'shimchalar va boshqalar kabi qog'oz va elektron darsliklar elementlarini birlashtirgan gibrid formatlarni yaratish va ulardan foydalanish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, raqamli texnologiyalar, shu jumladan elektron darsliklar ta'lim sifati, mavjudligi va samaradorligini oshirish uchun kuchli va istiqbolli vositadir. Biroq, ushbu texnologiyalar haqiqatan ham o'quv jarayoni va o'quv natijalarini yaxshilashga hissa qo'shishi uchun ularning afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olish, shuningdek ularning rivojlanishi va ta'lim tizimiga kiritilishi bilan bog'liq muammolarni hal qilish kerak. Shundagina elektron darsliklar nafaqat qog'oz darsliklarning o'rnini bosibgina qolmay, balki ta'limning yangi sifatiga aylanadi.

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ХИМИИ

*Усмонова Дилноза Тулкуновна
старший преподаватель кафедры “Химия и методика ее преподавания”
Ташкентский Государственный Педагогический Университет им. Низами
(dilnoza.usmonova@yandex.ru),
г.Ташкент*

Аннотация. В данной статье рассмотрено направления использования цифровых технологий в экологической практике ориентирован на интеграцию химических знаний и естественнонаучных дисциплин. Приведены примеры использования информационных методов и средств в экологических технологиях. Обращено внимание на проблемы и риски цифровизации экологической сферы

Ключевые слова: цифровизация, информационные технологии, цифровое производство, экологическая безопасность, утилизация отходов, обезвреживание, обеззараживание, утилизация, переработка отходов.

Цифровизация — это процесс внедрения современных цифровых технологий в различные сферы производства и жизни.

Цифровая экология — это совершенно новый этап развития экологии. Структура отражает основные этапы развития экологии. Цифровая экология имеет дело с информационными экосистемами, которые сформированы потоками информации, транслируемыми с помощью разнообразных медиа. Информация широко оцифровывается и становится ресурсом, который можно использовать, производить и трансформировать так же, как материальные ресурсы. Ключевая экологическая идея касается сохранения и увеличения пользовательской стоимости информации для публики в широком смысле и некоммерческих свойств информации в противоположность обменной стоимости. Цифровая экология нацелена на понимание производства, распространения, хранения, доступности, владения, отбора и использования информации в технологизированных средах.

Глобальные масштабы приобретает экологическая проблема. Непреднамеренное воздействие является неосознанным, когда человек не предполагает последствий своей деятельности. Преднамеренное воздействие является осознанным, когда человек ожидает определенные результаты своей деятельности. Воздействие человека на природу в современных условиях постоянно возрастает. Это приводит к резкому обострению экологической ситуации, создает угрозу жизни на Земле. И хотя экологическая проблема имеет планетарный характер, ее решение зависит, в частности, от того, как каждый человек будет подготовлен к разумному использованию достижений цивилизации.

Человек в процессе своей деятельности постоянно изменяет природу. В хозяйственный оборот вовлечена значительная часть ресурсов (земельных, растительных, водных, минеральных, животного мира). Нарастающая эксплуатация ресурсов приводит к их истощению. Объем вредных промышленных и сельскохозяйственных отходов, которые уже не могут быть переработаны естественным путем, постоянно возрастает.

Чрезмерное их накопление приводит к загрязнению биосферы и ухудшению условий проживания, которые становятся опасными для здоровья и жизни человека, животных, растений. Поэтому проблемы рационального использования, воспроизводства и охраны природных ресурсов, защиты природной среды от разрушения и загрязнения приобретают всё более острый характер. Под охраной природы понимается практическое осуществление комплекса мероприятий по улучшению взаимодействия человека с окружающей средой. Важнейшие глобальные экологические проблемы,

стоящие перед современным человеком, следующие: загрязнение окружающей среды, парниковый эффект, истощение «озонового слоя», фотохимический смог, кислотные дожди, деградация почв, опустынивание, проблемы отходов.

Проблема существования человечества как целого может быть рассмотрена в следующих аспектах, человечество существует реально и объективно, люди земли едины сущностно-социально, люди земли едины интеллектуально. Единство и всеобщность возрастают от поколения к поколению, мировое хозяйство, всемирное хозяйство как нечто целостное стало предметной основой, стягивающей воедино все сегменты культурно-исторического калейдоскопа человеческого бытия.

В современную эпоху происходит глобализация проблем человечества. Их актуальность связана с целым рядом факторов, ускорение процессов общественного развития, увеличение антропогенного воздействия на природу; обнаружение истощаемости природных ресурсов; предельное обострение задачи выживания человечества; всепроникающее воздействие современных технических средств и средств массовой информации.

Сущность экологической проблемы состоит в отчетливо обнаружившемся и углубляющемся противоречии между производительной деятельностью человечества и стабильностью природной среды. Растущее давление антропогенных факторов на биосферу может привести к полному разрыву естественных циклов воспроизводства биологических ресурсов, самоочищения вод, почвы, атмосферы. Это порождает "коллапс"- резкое и стремительное ухудшение экологической обстановки, что может повлечь за собой скоротечную гибель населения планеты. Подсчитано, что не менее 1 миллиарда 200 миллионов человек живут, испытывая острую нехватку питьевой воды.

«Кислотные дожди» образуются при промышленных выбросах в атмосферу диоксида серы и оксидов азота, которые, соединяясь с атмосферной влагой, образуют разбавленную серную и азотную кислоты. В результате дождь и снег оказываются подкисленными (число рН ниже 5,6). Окисление природной среды -- одна из важнейших экологических проблем. Закисление природной среды негативно отражается на состоянии экосистем. Под действием кислотных осадков из почвы выщелачиваются не только питательные вещества, но и токсичные металлы: свинец, кадмий, алюминий и др. Далее они сами или их токсичные соединения усваиваются растениями и почвенными организмами, что ведет к весьма негативным последствиям. В подкисленной воде существенно увеличивается растворимость соединений алюминия. Повышение содержания алюминия при попадании его в водоемы всего лишь до 0,2 мг/л. приводит к гибели рыб, к сокращению развития фитопланктона, так

как фосфаты соединяются с алюминием. Токсичность тяжелых металлов (кадмия, свинца и др.) проявляется еще в большей степени. Воздействие кислотных дождей снижает устойчивость лесов к засухам, болезням, природным загрязнениям, что приводит к их деградации как природных экосистем.

Причины выпадения ядовитых дождей являются антропогенные и естественные. В результате развития промышленности и технологий заводы, фабрики и различные предприятия стали выбрасывать в воздух огромное количество оксидов азота и серы. Так, когда сера попадает в атмосферу, она взаимодействует с парами воды, образуется серная кислота. То же происходит и с диоксидом азота, образуется азотная кислота, выпадает вместе с атмосферными осадками. Другим источником загрязнений атмосферы – это выхлопные газы автомобильного транспорта. Попадая в воздух, вредные вещества окисляются и выпадают на землю в виде кислотных дождей. Выпадение в атмосферу азота и серы происходит в результате сгорания торфа, угля на тепловых электростанциях. Огромное количество окиси серы попадает в воздух при переработке металлов. Азотные соединения выделяются при производстве строительных материалов.

Для человечества становится жизненно необходимым изменение самой философии отношения к природе. Все понимают, что природу нужно оберегать и не давать ухудшиться положению ещё больше, пока это не дойдет до необратимой катастрофы для Земли и, в особенности, для всего человечества.

Использованная литература

1. Учебное пособие. «Экология в вопросах и ответах». Авторы: В.И.Коробкин, Л.В.Передельский. Ростов-на-Дону 2002г.
2. Л.Ф. Голдовская. «Химия окружающей среды», Москва, изд. Мир, 2007 г.
3. Экология : учебник для техн. вузов / Л. И. Цветкова, М. И. Алексеев [и др.]. — Санкт-Петербург : Химиздат, 2001 — 552 с.
4. Усмонова, Д. Т., Мирзаева, М., & Маматова, Д. (2023). СИСТЕМА ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ШКОЛЕ. *Conferencea*, 41-44.
5. Усмонова, Д. Т. (2023). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И ХИМИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ. *Conferencea*, 183-187.
6. Ibodulloyeva, M. I., Salimova, D. X., & Alimurodov, M. S. (2022). Teaching The Topic of Sulfur and Its Compounds Through Case Technology. *Eurasian Journal of Physics, Chemistry and Mathematics*, 2, 14-17.

7. Razakov, G. A. (2021). Determination of natural science literacy of students according to the international assessment program. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 866-871.
8. Бердикулов, Р. Ш., Алимова, Ф. А., & Миркамилов, Ш. М. (2010). ВОЗМОЖНОСТИ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ОСНОВ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ ХИМИЧЕСКОГО ПРОИЗВОДСТВА. *Вопросы гуманитарных наук*, (2), 207-211.
9. Усмонова, Д. Т., Игамназарова, З., & Тоирова, Х. ВАЖНЕЙШИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ ТЕНДЕНЦИИ. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 103.
10. Усмонова, Д. Т. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КЕЙС-ТЕХНОЛОГИИ ПО ПРЕДМЕТУ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ХИМИИ НА ТЕМУ «ПРОМЫШЛЕННЫЕ ОТХОДЫ». *Educational Research in Universal Sciences*, 2(2), 637-643.

TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

Aripova Nasiba Atxamovna, TAQU, dotsent
Nigmatov Orifjon Raxmatonovich MDTU 4-kurs talabasi,
Nigmatov Ravshanjon Raxmatjonovich MEI 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqola respublikamiz oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va bugungi kunda axborot texnologiyalarining bir qator ijobiy imkoniyatlari va ta'limda raqamli texnologiyalarini o'qitish sifatining samarali yo'llari haqida.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, axborot kommunikatsiya, kompyuterlashgan muhit, telekommunikatsiya, didaktik funktsiya, masofaviy ta'lim, elektron resurslar, internet, kompyuter, planshet, virtual zallar, 3D printer, smart-doskalar.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrimizni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur eta olmaymiz. Yer yuzida yashayotgan deyarli barcha fuqarolar, jumladan yosh bolalardan tortib keksalarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikr shakllanmoqda. Yurtimizda barcha soholarida raqamli texnologiyalar asta sekinlik bilan rivojlanib bormoqda. Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

ta'kidlaganidek "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi". Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin.

Ta'lim tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri – axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar bilan ta'lim jarayonini tizimli integratsiyalash va uni boshqarish hisoblanadi. Islohotlar jarayonida bosh vazifa qilib o'quv jarayonini tashkil etish, uning mazmunini tubdan yangilash, raqamli texnologiyalarni qo'llash, kompyuterlashgan muhitda o'qituvchining pedagogik faoliyati va o'quvchilarning bilim olish jarayonini tashkil etish belgilanadi. Ta'lim jarayonlariga axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni qo'llashda avvalo ta'lim muassasalarida axborotlashtirishni tashkil etish, ya'ni barcha o'quv, ma'muriy va xo'jalik xizmatlarini, kutubxona va boshqaruv bo'limlarini yagona tarmoqqa birlashtirish, ularning Internet tizimiga chiqish imkoniyatlarini yaratish, ta'lim muassasasida o'quv jarayonini nazorat qilish, hujjatlar elektron almashuvini hamda axborot texnologiyalari negizida maxsus o'quv-metodik materiallarni yaratish orqali o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish kabi vazifalarni amalga oshirish zarur bo'ladi. Hozirda bunday vazifalarni bajarish raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ijobiy hal etiladi. Ta'lim muassasasi yoki ma'lum fanning yagona axborot - ta'lim muhitini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri o'quv jarayonida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilarga axborot-ta'lim resurslaridan foydalanishni yengillashtiradi. Raqamli texnologiyalarni qo'llash axborotlarni mantiqiy tartiblash va tizimlashtirishga yordam beradi. Yagona ta'lim muhitini yaratish va o'quvchilarning samarali bilim olishlarini tashkil etish o'qituvchining tayyorgarligining yuqori talablar darajasida bo'lishi, dars mazmunining maqsadga muvofiqligi, axborotlarning tizimlashtirilishini ta'minlash axborot-ta'lim muhitini yaratish va uni rivojlantirishda tizimli yondashuvni amalga oshirishni shart qilib qo'yadi.

Ta'limning turli sohalarida kompyuter telekommunikatsiyalarining qo'llanilish tajribalaridan shuni ko'rish mumkinki, axborot texnologiyalari bizga bir qator ijobiy imkoniyatlarni yaratib bermoqda, quyidagilar shular jumlasidandir:

1) professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va talabalarning har xil turdagi hamkorlik ilmiy tadqiqotlarini (har xil ilmiy-amaliy loyihalar yordamida chinakam ijodiy tadqiqot, mustaqil amaliy faoliyat, mustaqil bilim orttirish, amaliy ijodiy faoliyat va boshqa turdagi hamkorliklarni) tashkil etish;

2) ilmiy-uslubiy markazda ta'lim olayotgan keng ommaga tezkor mutaxassis maslahatlarini tashkil etish va yetkazish; m o'rin egallashi va qanday shaklda joriy qilinishi bo'yicha takliflar keltirilgan.

3) masofaviy ta'lim va pedagogik kadrlar malakasini oshirish tarmog'ini tashkil etish;

4) tezkor axborot almashinuvi;

5) ta'limdagi sheriklarning, bu talaba, o'quvchi, o'qituvchi, ilmiy xodim bo'lishidan qat'iy nazar, ularga o'zaro fikr almashinish ko'nikmalarini hosil qilishni, muomala madaniyatini va o'z fikr-mulohazalarini tez, lo'nda va aniq ifoda etishni o'rgatish;

6) madaniy, etnik, insonparvarlikning keng qamrovli ijobiy axborotlari bilan fikr almashinish natijasida yoshlarning madaniy va ijtimoiy qobiliyati va layoqatini o'stirish.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashda talabalarni faqatgina ekrandagi axborotlarni ko'rishiga va ularni qabul qilishgagina emas, balki ularning o'zlari ham bu jarayonda ijodiy ishtirok etishlariga o'rgatishimiz lozim. Ta'limning didaktik xossalari bilan bog'langan yashirin imkoniyatlar olamini bevosita kompyuter telekommunikatsiyalari bilan bog'lash bu ta'lim sohasida zamonaviy va istiqbolli maqsadlarga ega. Didaktik funktsiya sifatida biz o'quv-tarbiyaviy jarayonda ma'lum bir maqsadlarda qo'llanilayotgan ta'lim vositalarining tashqi xossalari namoyonini tushunamiz. Tadqiqot usullari sifatida oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga tegishli xulosalar tuzishda normativ hujjatlarni, mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirishdan foydalanildi.

Ta'limda raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo'llash uchun nimalar qilish kerak?

Birinchidan, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilash, mobil operatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va eng muhimi aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining so'ng yutuqlarini o'zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berish.

Ikkinchidan, o'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish va axborot resurslari, o'qitish vositalari va masofaviy o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni

raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish bo'yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O'zbekistonning barcha oliy ta'lim muassasalarida qo'llash.

Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish.

To'rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma'ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o'tkazish.

Beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, videokonferensaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish.

Oltinchidan, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo'llash, raqamli didaktika va raqamli ta'lim modellarini qo'llash, o'qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. [5].

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini ta'lim tizimida qo'llashni umumlashtirib shuni takidlab o'tish mumkinki, bugungi kun auditoriyalari o'n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli avlodning yangi ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo'lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Raqamli avlod ota-onalarimiz o'rgangan uslubda o'qitilishi mumkin emas va bo'lmasligi ham kerak. Bugungi rivojlanib borayotgan avlodni o'qitishda qora doska va oq bo'rdan foydalanish ham mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo'rni markerga o'zgartirish hech narsani o'zgartirmaydi, ya'ni zamonaviy talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko'nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo'la olmaydi. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, o'qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga

yo'naltirilgan interfaol o'quv jarayonida asosiy rolni saqlab qoladi. O'qituvchining obro'si va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina kurs mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o'quv materialini to'plash, qayta ishlash va o'qitishda o'qituvchining qanchalik zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash darajasiga bog'liq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta'lim qayta ko'rib chiqilishi va ta'lim paradigmasi o'zgartirilishi shart, sababi talabalar ortiq an'anaviy uslubda o'qishni xohlamaydilar va o'qituvchilar ham bu kabi odatiy usulda o'qitishni davom ettirishlari kerak emas, balki yangi innovatsiyalarni darsda qo'llay bilishi kerak. O'quv dars mashg'ulotlarini texnologiyalar yordamida o'qitish anchagina samarali, onson hamda natijali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. D. Babaraximova, Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llashning ilmiy pedagogik masalalari; 6 – tom 3 – son / 2022 - yil / 15 – mart
<https://bestpublication.org/index.php/pedg/issue/view/81>
3. D. Babaraximova, O'qituvchilarning akt sohasida vakolatlarini takomillashtirishda uzluksiz ta'lim : muammolari va ba'zi yechimlari. 2023-yil.
<https://unionedu.ru/index.php/use/issue/view/1>
4. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyevningoliy-25-01-2020>
5. Begimkulov U.Sh. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta'limni tashkil etish //Pedagogik ta'lim jurnali. – Toshkent, 2004. – № 1. B. 25-27.
6. Yuldashev U., Raxmatullaeva Sh.K. Internet asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2002. – 28 b.

FUTBOL SPORT TURINI O'RGATISH USLUBIYATIDA RAQAMLI TEXNALOGIYANING VA NAZARIY MASHG'ULOTLARNING TAXLILY JIHATLARI.

Xidirov Dilmurod Qurbonaliyevich

Toshkent arxitektura-qurulish universiteti Jismoniy tarbiya va sport fani o'qituvchisi.

Yosh avlodni har tomonlama: aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlanishida jismoniy tarbiya asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonunida «Maktabgacha yoshdagi bolalar, o'quvchilar, talabalar salomatligini asrash va mustahkamlash, ularda jismoniy barkamollik ehtiyojini shakllantirish maktabgacha tarbiya muassasalari va o'quv yurtlarining asosiy vazifasi hisoblanadi» deyiladi

Yurtboshimiz tomonidan sportga berilayotgan e'tibor tufayli iste'dodli yosh sportchilar dunyo arenalarida o'zlarining yutuqlari bilan yurtimiz bayrog'ini hilpiratib kelmoqdalar. Demak, xalqimiz e'zozlab kelayotgan sport Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi doirasidan joy olgan. Shunday bo'lsada, katta futbol haqida baralla gapirish imkoniyati hozircha yo'q. Fikrimizcha, buning asosiy sabablaridan biri, mamlakatimizda mahoratli yosh futbolchilarni tayyorlashga qodir, o'z kasbini ustasi bo'lgan raqobatbardosh trenerlar yetarli emas. Ommaviy ravishda o'tkazilayotgan futbol mashg'ulotlari aksariyat hollarda ko'r-ko'rona olib boriladi, ilmiy jihatdan asoslanmaydi, uslubiy talablarga javob bermaydi. Beriladigan jismoniy va texnik-taktik mashqlarning fiziologik qiymati e'tiborga olinmaydi.

O'z-o'zidan ma'lumki, texnik-taktik harakatning samaradorligi faqatgina uni foydali koeffitsiyenti bilan belgilanmaydi, balki shu koeffitsiyenti 90 daqiqa saqlab turish bilan ifodalanadi.

Ko'pgina musobaqa o'yinlarida yuqori mahorat bilan o'ynaydigan futbolchilar kuzatilib turiladi, lekin har doim ham ular o'yinni oxirigacha yuqori natija ko'rsata olmaydi. Turg'un mahorat futbolchining umumiy va maxsus chidamkorligiga bog'liq bo'ladi.

Nazariy mashg'ulotlarni olib borish futbolchilarning sport mahoratini tezroq rivojlanishiga yordam beradi. Mashg'ulot o'tish tayyorgarligini shartli ravishda o'zaro bog'liq bo'lgan ikki qismga ajratish mumkin:

- nazariy tayyorgarlik, ya'ni taktik bo'yicha maxsus bilimlarni o'zlashtirish
- amaliy tayyorgarlik, ya'ni aloxida guruxliy va jamoaviy harakatlarni o'zlashtirish shuningdek, o'yinchilarni ijodiy qobiliyatini rivojlantirish.

Amaliyotdan ma'lumki, kim nazariy jixatdan yaxshi tayyorgarlik ko'rgan bo'lsa, texnik - taktik ko'nikmalarni egallashda muvaffaqiyatga erishadi. Nazariy bilimlar murakkab o'yin vaziyatlarda to'g'ri mo'ljal ola bilishga, extimollik

qarorlarni baxolash va ularni taxlil etishga, ularda eng samaradorligini tanlab olishga yordam beradi.

Texnik – taktik tayyorgarlikda nazariy tayyorgarlik o'yin qoidalarini bilish va texnika va taktikaning alohida vositalarini egallashni ko'zda tutadi. Futbolchi o'yinning asosiy tizimlari va ularning variantlarini jamoadagi muayyan ampula o'yinchilarining vazifasini uchrashuvning xar xil bosqichlaridagi harakatlarning o'zaro munosabatini ob'yektiv shart-sharoitlarning o'yin jaryoniga ta'siri hamda tashqi omillardan jamoa manfaatlari yo'lida foydalanishni bilish zarur. Har bir harakatda bularning barchasini inobatga olish kerak. Texnik - taktik maxoart o'sib borgan sayin bilimlarning o'yin jarayonning ko'rsatadigan ta'siri xam ortadi. Futbol texnika-taktika nazariyasini o'rganish o'yinning asosiy qoidalarini tushuntirishdan boshlanib, ular o'yin mashqlarini boshqarish davomida hamda mashg'ulot o'yinlari vaqtida amaliy jihatdan o'zlashtiriladi. Murabbiy jamoa ichidagi vazifalarning taqsimlanishi alohida o'yinchilar oldilaridagi muammolar haqida yosh shug'ullanuvchilarga to'liq tushunarli ma'lumot berishi, muayyan xududda o'ynaydigan aniq bir o'yinchining harakatlari yordamida ixtisoslashtirilgan tarzda ayrim o'yinchilarning asosiy vazifalarini ta'riflab berishi lozim.

O'rgatishning keyingi pog'onasi o'yinning alohida bosqichlarini batafsil tahlil qilib chiqadilar. Yaxshisi bunday tahlilda o'tkazilgan uchrashuvlarda o'yinchilar yo'l qo'ygan kamchiliklarni tanqid qilib o'tgan ma'qul. O'yin bosqichlari tahlilidan so'ng turli murakkablikdagi texnik-taktik vazifalarning nazariy yechimini o'rganishga o'tish mumkin. Xarakat ko'nikmalarini o'rgatish jarayonida texnik-taktik faoliyatlarini amalga joriy etish uchun shug'ullanuvchilarga yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini olish xamda o'rganilgan harakatning mustahkamlash usullari haqida tushuncha beriladi.

Texnika va taktikani o'rgatish va uni takomillashtirishning asosiy usullari:

1.Mashq qilish usuli. (O'rganilayotgan va yangi mashqlarni ko'p karra takrorlash) Shug'ullanuvchilarda harakatlanishning dinamik qoliplari streotiplari shakllanishida yordam beradi.

2.Namoyish etish va ko'rsatish usuli.

3.So'zlashish usuli.

4.Yaxlit qismlarga bo'lingan usul (yaxlit texnik - taktik harakatlarga o'tishdan avval ulardan har birining asosiy qismlari o'zlashtiriladi. Odatda texnik - taktik haraktalarni mustaxkamlash va shakllantirish uchun yaxlit usulga murojaat etiladi).

5.Texnika va taktikaga oid kinomateriallar taxlili raqib jamoa o'yinini baxolashda juda katta axamiyatga ega. O'yinlarni video tasmaga tushirishning afzalligi shundaki, u raqiblar o'yinini ko'p marotalab ko'rib o'rganishga imkon

yaratadi. Bundan tashqari o'z texnik-taktik harakatlarini taxlil etishga eng samarali yo'llaridan biridir.

6.O'z harakatlari va raqib xarakatlarini taxlil etish.

Odatda murabbiylar kuzatuvni mustaqil ravishda olib borishni afzal deb biladilar. Shundan keyin o'yinchilarga faoliyat ko'rsatish variantlarining tayyor qoliplarini beradilar: bu yosh futbolchilarni tashabbuskorlik va mustaqillikdan mahrum etadi. Demak, ularning o'yin tafakkurini rivojlantirishga yo'l qo'ymaydi. Futbolchilarning o'yin musobaqalarini ko'rishga jalb etish juda muxim. Ularni shunchaki o'yin tomosha qilishga emas, balki jamoa qo'llayotgan texnik-taktik variantlarga, xujum va ximoyada o'yinni tashkil etish yo'llariga, texnik-taktik vazifalarni xal etishda o'yinchilar qo'llaydigan vositalarga e'tibor qaratishni o'rgatish zarur. Futbolchi texnik-taktik vazifalar ustida qanchalik ko'p o'ylab, ularning yechimini topsa, har xil sharoitlarda turli raqiblar bilan o'yinlardagi o'z taktikasi xamda shaxsiy tajribasini qanchalik chuqur tahlil etsa, o'zini o'yin vazifalarini to'g'ri tushunish va baholashga o'yin payti oldiga qo'yiladigan xilma xil vazifalarni mustaqil ravishda ijodkorona hal etishga shuncha yaxshi tayyorlaydi.

Texnika va taktikani o'zlashtirishning dastlabki bosqichida murakkab reaksiyalar tezkorligi mo'ljal olish va ziyraklik, futbolchilarda ko'prok jismoniy va texnik tayyorgarlik jarayonida rivojlanib boradi. Buning uchun mashqlarga qo'shimcha sharoitlar kiritiladi:

- ovozli va ko'rish mumkin bo'lgan signallardan foydalaniladi. (o'yinchilar to'p bilan yoki to'psiz bajaradigan u yoki bu harakatlarni tez o'zlashtira olishlari uchun)

- to'plarning miqdori, fishkalar, yordachi jixozlar bilan bog'liq mashqlarning mo'ljal yoki chegaralari soni ko'paytiriladi.

- harakatlarning murakkablashtirish, qiyinlashtirishga o'rgatiladi, ularda shug'ullanuvchilarning joy almashtirish tezligining harakat yo'nalishiga bog'liq bo'ladi.

- shartli sheriklarining faol yoki passiv qarshiligidan foydalaniladi, bunda qo'shimcha sharoitlar yoki murakkablashtirishlar texnik usullar asosida yotuvchi jismoniy sifatlarning rivojlantirishiga yoki xarakat ko'nikmalarining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligiga axamiyat berish muxim.

Texnikaga oid u yoki bu mashqni bajarishda avval, shug'ullanuvchilarning imkoniyatiga mos shunday texnik-taktik topshiriq tanlab berish kerakki, usullarning o'zlashtirilishini murakkablashtirmasin, balki uning to'g'ri anglanishiga o'zgaruvchan sharoitlarda oqilona qo'llanilishiga ko'maklashsin.

Masalan, futbolchi bir vaqtning o'zida harakat boshlash uchun qulay payt tanlab, ham zarba yo'nalishini aniqlashi yoki sheriklarining joylashuvi va siljishiga qarab to'pni olib yurishi lozim bo'lgan sharoitlarda mashq bajarishi mumkin. Keyin alohida harakatlarni o'zlashtirish raqibsiz o'tkazilgan mashqlarda passiv raqiblar bilan va nihoyat o'yin mashqlarida faol raqib bilan davom ettiriladi. Bu bosqichda muhim vazifani bajaradi. Uning faoliyatini murabbiy yo'naltirib turadi. O'rganilgan ko'nikma o'yin sharoitida ko'p marotaba takrorlash yo'li bilan mustahkamlanadi. Bunday futbolchiga muayyan topshiriqlar beriladi. O'quv-mashg'ulot va o'rtoqlik o'yinlarida himoyadan xujumga va xujumdan ximoyaga o'tishda to'pni o'yinna kiritish vaqtida joy tanlashga alohida e'tibor qaratish zarur. O'yinchilarning raqibdan uzilib keta olishiga, jamoa o'yinchilarning ochiq joyiga chiqishiga shuningdek, o'z o'yinchilarni yo'qotgan zahoti raqib o'yinchisini o'z vaqtida to'g'ri bekitishga erishish kerak. Futbolda guruhli texnik-taktik harakatlarning asosini 2, 3 va undan ko'proq o'yinchilarning muayyan usullardagi o'zaro munosabatlari tashkil etadi ahamiyat berishi zarur. Ikki va uch undan ortiq o'yinchilarning munosabatlarini yanada takomillashtirish o'yin mashqlari va o'quv o'yinlari jarayonida davom ettiriladi. O'yin mashqlari dastlab, xujumchilar miqdori jihatdan ustunligida, keyin xujumchilar va ximoyachilar sonini tenglashtirib va nihoyat xujumchilar miqdorni kamaytirib o'tkaziladi. O'yin mashqlari hamda o'quv o'yinlariga futbochilarni o'rganilgan usullarni qulay vaziyatlarda qo'llashga majbur qiluvchi sharoitlarni kiritish maqsadga muvofiq. O'yin mashqlarini bajarish va o'quv o'yinlarini bajarish chog'ida murabbiy shug'ullanuvchilarning harakatlarini to'g'ri davom ettirishi uchun eng qulay variantlarni tanlash malakasiga yuzaga kelgan vaziyatni mustaqil baxolay olishga muayyan sharoitda mo'ljal olish tezligiga alohida ahamiyat berishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Futbolni yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida" gi qarori. Toshkent. 16 mart 2018 yil. PQ-3610.
2. Akramov R.A, Talibjanov A.I "Podgotovka futbolistov visokoy kvalifikatsii. Ucheb noye posobiye. Tashkent, 1994.
3. Aliyev M.B., Usmonxo'jayev T.S., Sagdiyev H.H. Sport o'yinlari. Futbol. T., Ilm Ziyosiy, 2007.
4. Platonov R.A. «Ofitsialnie pravila igri v futbol». Moskva, 2004
5. R.I. Nurimov. "Futbol nazariyasi va uslubiyati". Darslik. ITA-PRESS. Toshkent. 2015 yil.

O'ZBEK TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

*TAQU, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası v.b.dotsenti N.S.Alimova,
Talaba A.G.Yodigarov, 102-o'rta maktab o'qituvchisi G.Z.Xusnidinova*

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalari va boshlang'ich sinfo'quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirishdagi ahamiyati haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, ta'lim texnologiyalari, nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, muammoli o'qitish texnologiyasi, modulli ta'lim, loyihalalash texnologiyasi, didaktiko'yin, differensiallash texnologiyasi, axborot kommunikatsion texnologiyalari, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi.

Аннотация: В статье изложены идеи современных образовательных технологий и их значение в совершенствовании языковой компетенции у младших школьников.

Ключевые слова: обучение, образовательные технологии, речевая компотентность, лингвестическая компотентность, технология проблемного обучение, модульное обучение, технология проектирования, дидиктическая игра, технология дифференциации, информационнокоммуникационные технологии, технология совместного обучения.

Annotation:The article discusses the importance of modern educational technology and its role in improving linguistic competences in primary school students.

Key words: education, educational technology, speech competence, linguistic competence. Problematic teaching technology, modular education, design technology, didactic play, differentiation technology, information communication technology, collaborative learning technology.

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda raqamli texnologiya zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylandi. Maktablarda raqamli texnologiyadan foydalanish o'quvchilarning o'rganish va o'qituvchilarning dars berish usullarini inqilob qildi. Bu ta'limni yanada qulayroq, qiziqarli va interaktiv qilib, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun cheksiz imkoniyatlar yaratdi. Ta'limda raqamli texnologiyaning eng muhim afzalliklaridan biri o'rganishni shaxsiylashtirish qobiliyatidir. Texnologiyalar yordamida o'qituvchilar har bir o'quvchining o'ziga xos ta'lim uslubi, sur'ati va qiziqishlariga mos keladigan individual dars rejalarini

yaratishi mumkin. O'quvchilar, shuningdek, o'z tezligida, o'z vaqtida va o'zlari xohlagan muhitda o'rganish imkonini beruvchi ko'plab onlayn resurslar va vositalardan foydalanishlari mumkin.

Bundan tashqari, raqamli texnologiya o'rganishni yanada qiziqarli va interaktiv holda amalga oshiradi. Doskalar va darsliklar davri o'tdi; zamonaviy o'quv xonalari raqamli qurilmalar, interaktiv doskalar va o'quvchilarga virtual munozaralar, viktorinalar va o'yinlarda qatnashish imkonini beruvchi onlayn platformalar bilan jihozlangan. Ushbu vositalar nafaqat o'rganishni qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarga ma'lumotni yaxshiroq saqlashga yordam beradi va ularning anqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshiradi. Ta'limda raqamli texnologiyaning yana bir muhim jihati hamkorlik va muloqotni kuchaytirish qobiliyatidir. Google Classroom, Microsoft Teams va Zoom kabi onlayn platformalar yordamida o'quvchilar jismoniy joylashuvidan qat'i nazar, loyihalar ustida hamkorlik qilishlari, hujjatlarni almashishlari hamda bir-birlari va o'qituvchilari bilan muloqot qilishlari mumkin. Bu o'quvchilarga hamkorlikda samarali ishlash, fikr almashish va bir-biridan o'rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli ta'lim texnologiyasi o'quvchilarga dunyoning istalgan nuqtasidan ta'lim olish imkoniyatini yaratdi. Onlayn ta'lim an'anaviy ta'lim resurslaridan foydalana olmaydigan, masalan, chekka yoki kam ta'minlangan hududlardagi o'quvchilar uchun imkoniyatlar ochdi. Onlayn kurslar va dasturlar, shuningdek, o'quvchilarga o'z tezligi va jadvali bo'yicha o'qish imkonini beradi, bu esa ish yoki oila kabi boshqa majburiyatlarga ega bo'lganlar uchun ta'limni yanada qulayroq qiladi. Ta'limda raqamli texnologiyaning ko'plab afzalliklariga qaramay, hal qilinishi kerak bo'lgan ba'zi muammolar ham mavjud. Raqamli tafovut eng katta muammolardan biridir. Barcha o'quvchilar kerakli raqamli qurilmalarga yoki ishonchli internet ulanishlariga ega emas, bu esa o'rganish imkoniyatlaridagi nomutanosiblikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun barcha o'quvchilar raqamli ta'limda to'liq ishtirok etish uchun zarur raqamli texnologiyadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash juda muhimdir. Yana bir masala shundaki, texnologiya darsda chalg'itish imkoniyatiga ega. Ko'plab raqamli qurilmalar va onlayn platformalar mavjud bo'lganligi sababli, o'quvchilar o'z o'qishlariga e'tiborini yo'qotish vasvasaga solishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar sinfda raqamli texnologiyadan foydalanishni muvozanatlash yo'llarini topishlari va undan o'rganishni kamaytirish uchun emas, balki uni yaxshilash uchun samarali ishlatilishini ta'minlashlari kerak.

O'zbek tili taraqqiyoti hozirgi kunga qadar bir qancha rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. O'zbek tili til taraqqiyotining qaysidir davrida tahqirlandi, xo'rlandi, qaysidir davrida yanada rivojlanib, sayqallanib bordi. 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgandan keyin esa tilimiz qadri yanada ortdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6084 Farmonida “o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘e‘tiborini tubdan oshirish, unib-o‘tib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta‘minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlari” belgilab qo‘yildi. O‘quvchilarning o‘zbek tiliga muhabbatini orttirish, uning go‘zal va boy til ekanligini o‘rgatish, ularning nutqini o‘stirish ishlari ona tili darslarida amalga oshiriladi. Hozirda amalda bo‘lgan ona tili dasturi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilar olgan bilimlarini, egallagan ko‘nikma va malakalarini hayotda qo‘llay olishga tayyorlaydi. Boshqa fanlar kabi ozbek tili darslarida ham talabalar fanga oid va tayanch kompetensiyalarni egallaydilar. Xususan, o‘zbek tili darslarida o‘quvchilar fanga oid nutqiy va lingvistik kompetensiyalar takomillashtiriladi. Nutqiy kompetensiya – tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish va yozishga asoslangan bo‘lib, talabalar berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushunishi, matnni tushunib o‘qiy olishi, og‘zaki nutqda so‘z va gaplar talaffuziga rioya qilishi, 65 - 70 so‘zdan iborat diktantni yoza olishi, xabar, tasvir asosida 5-6 gapdan iborat matn yaratib, xatboshi va husnixatga amal qilishi, imlo va tinish belgilarini ishlatish qoidalariga amal qilmog‘i lozim. Lingvistik kompetensiya - fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga xos. Lingvistik kompetensiyani egallagan talaba o‘zbek tilidagi nutq tovushlarini farqlay oladi, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga amal qila oladi. Bundan tashqari, mavzuga oid yangi so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash, yozma nutqda tinish belgilaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. O‘quvchilarda lingvistik kompetensiyani takomillashtirish o‘zbek tili darsliklarida berilgan mashqlar, qo‘shimcha topshiriqlar va aydinatoriyadan tashqari ishlar asosida amalga oshiriladi. Xususan, fonetik kompetensiya tovush va harflarni bir-biridan farqlash, so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lish, tushurib qoldirilgan unli va undoshlarni qo‘yish, jarangli va jarangsiz undoshlarni farqlash, so‘zlarni alifbo tartibida yozish, berilgan harflarda so‘zlar tuzish, fonetik tahlil qilishga oid mashqlarni bajartirish orqali shakllantirilsa, garafik kompetensiya so‘z, gap va matnlarni ko‘chirib, yozishga oid mashqlar, ta‘limiy diktantlar asosida amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida orfografik, orfoepik, leksik, grafik (morfologik va sintaktik mashqlarga bo‘linadi) mashqlar berilgan bo‘lib, har biri o‘quvchilarda kompetentlikni shakllantirishga yordam beradi. Fan va texnologiyalarning tezkor sur‘atlarda

rivojlanishi butun dunyo bo‘ylab globallashtirish jarayonini yanada tezlashtirib yubordi. Nafaqat ishlab chiqarishda, balki ta‘lim sohasida ham yangi texnologiyalarning kirib kelishi uchun eshiklar keng ochildi. O‘zaro integratsiyalashuv jarayonlari natijasida eski, samaradorligi past bo‘lgan ta‘limdan sekin-astalik bilan voz kechilib, yangi, o‘quvchilarni yanada faolashtiradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta‘lim tizimiga o‘tilmoqda. O‘quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirishda zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda o‘quv jarayonini ta‘lim texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ta‘lim texnologiyalari o‘quvchining bilimlarni kompleks egallash, ularning ijodiy faolligini yanada oshirish imkonini beradi. O‘quv jarayonida ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash orqali berilgan topshiriqni bajarishga kam vaqt sarflab, tejalgan vaqtdan unumli foydalanish, o‘quvchilarning kengroq ma‘lumot olishlari, o‘rganganlarini amalda qo‘llab ko‘rishlari uchun sharoit yaratish mumkin. Bugungi kunga kelib bir qancha zamonaviy ta‘lim texnologiyalari ommalashib ulgurdi: muammoli o‘qitish texnologiyasi, modulli ta‘lim, o‘quv-biluv faoliyatini loyihalalash texnologiyasi, didaktik o‘yin texnologiyasi, sinf jamoasini differensiallash texnologiyasi, ta‘limda axborot kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash texnologiyasi, hamkorlikdo‘qitish texnologiyasi va boshqalar. Yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijasida maktablarning moddiy-texnik bazasining yaxshilanishiga, elektron ta‘lim joriy qilinishiga erishilmoqda. Bu esa ta‘limda axborot kommunikatsion texnologiyalarning joriy qilinishi, ko‘plab elektron resurslarning yaratilishi natijasida o‘quvchilarning bilim olish imkoniyati bir necha marotaba oshdi. Bolalar endilikda ortiqcha vaqt va kuch sarflamay ma‘lumotlarni Internet tarmog‘idan va elektron resurslardan o‘zi izlab topishi, qayta ishlashi mumkin.

Elektron ta‘lim - Internet texnologiyalari, elektron kutubxonalar, o‘quv metodik multimedia materiallardan foydalanishni o‘z ichiga olgan ta‘lim tizimi. Elektron ta‘lim tizimi o‘qituvchi va o‘quvchi uchun birdek qulay tizim bo‘lib, foydalanuvchining o‘z ustida ishlashi, o‘zini tekshirishi uchun qulay tizimdir. Bolalarda fonetik, orfografik, leksik kompetensiyalarni takomillashtirishda imlo, izohli lug‘atlardan foydalanish eng qulay va samarali usuldir. Ona tili ta‘limida lug‘atlardan foydalanish o‘quvchilarning imlo savodxonligini oshiradi, nutqini yangi leksikalar bilan boyitib boradi. So‘nggi yillarda o‘rganuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida elektron lug‘atlar ham yaratilmoqda. Elektron lug‘at – qattiq diskda saqlanadigan yoki Internet tarmog‘ida joylashtirilgan maxsus tayyorlangan lug‘at. Elektron lug‘atlarning afzalligi shundaki, u qulay qidiruv tizimi va katta hajmga ega. Elektron lug‘atlar foydalanish uchun juda qulay bo‘lib, u o‘quvchilarda orfografik, leksik kompetensiyalarni takomillashtirishda yaqindan yordam beradi. Bundan

tashqari o'quvchilar elektron lug'atlardan istalgan paytda mustaqil foydalanishlari mumkin. O'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda turli xil topshiriqlarni bajarishlari, o'zlarini tekshirib ko'rishlari mumkin. O'quvchilarni elektron lug'atlardan foydalanishga o'rgatish uchun ularda dastlab lug'at bilan ishlash malakalarini shakllantirish, kompyuter savodxonligini o'rgatish lozim bo'ladi. Elektron ta'limning yana bir ko'rinishi kompyuter multimedia taqdimotidir. Kompyuter multimedia taqdimoti Power Point kompyuter dasturi yordamida yaratilgan maxsus o'quv multimedia materiallari bo'lib, uning yordamida o'quvchilar bilan interfaol muloqot ta'minlanadi. Shunga ko'ra mulimedaning uchta turini farqlash mumkin. Ona tili darslarida tillarni o'qitish uchun yaratilgan maxsus kompyuter o'quv kurslaridan foydalanish mumkin. Bunda talaffuzni yaxshilash uchun mashqlar, leksik va grammatik xususiyatdagi yozma vazifalar, turli xil so'z o'yinlari mavjud. Bunday multimedia vositalaro'quvchilarning fonetik, leksik, grammatik kompetentligini oshirishga xizmat qiladi. Ona tili darslarida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tatbiq qilish, turli xilo'quv vositalarini yaratish, bolalarning o'zbek tilini har tomonlama chuqur o'rganishlariga xizmat qiladi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda elektron ta'lim resurslaridan o'rinli foydalanish o'quvchilarning lingvistik kompetentligini oshiradi, ularning imloviy savodxonligi bilan bir qatorda kompyuter va internet tarmog'idan foydalanish ko'nikmlarini ham shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim texnologiyaning biz zamonaviy ta'limdagi roli muhim va keng qamrovli ekanligiga ishonamiz. Bu bizning o'qitish va o'rganish uslubimizni o'zgartirish, ta'limni yanada qulayroq, qiziqarli va interaktiv qilish imkoniyatiga ega. Biroq, ta'limda raqamli texnologiya bilan bog'liq muammolarni hal qilish muhim, masalan, raqamli tafovut va chalg'itish ehtimoli. Shunday qilib, biz texnologiyani o'rganishni yaxshilash va o'quvchilarni raqamli asrda muvaffaqiyatga tayyorlash uchun samarali qo'llanilishini ta'minlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6084 Farmoni. 2020-yil 20-oktabr.
2. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: “Издательство ИКАР”, 2009. – 448 с.
3. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Yo'ldosheva Sh. Ona tili (3-sinf darsligi). –T.: “O'qituvchi”, 2019. -152 bet.

4. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili (4-sinf darsligi). – T.: “O'qituvchi”, 2020. -160 bet.
5. G'afforova T., Shodmonov E., G'ulomova X. Ona tili (1-sinf darsligi). –T.: “Sharq”, 2019. -112 bet.
6. U mumiyo'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. –T., 2017. -240 bet.

INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI “QURILISH MEXANIKASI” FANIDA QO'LLASH.

G.A.Maksudova

“TAQU” “Qurilish muhandisligi texnologiyasi” kafedrası

Annotatsiya: Oliy talim o'quv jarayonida talabalarga “Qurilish mexanikasi” fanini o'zlashtirishida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning o'zni muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan, hamda misollar bilan ba'zi usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion usullar, qurilish mexanikasi, “Aqliy hujum”, “Nilufar guli”.

Аннотация: В учебном процессе высшего образования студентам показана роль применения инновационных педагогических технологий в освоении предмета “Строительная механика”, а также приведены некоторые методы с примерами.

Ключевые слова: инновационные методы, Строительная механика, “мозговой штурм”, “цветок лилии”.

Annotation: In the educational process of higher education, students are shown the role of the use of innovative pedagogical technologies in the development of the subject “Construction Mechanics”, as well as some methods with examples are given.

Keywords: innovative methods, Construction mechanics, "brainstorming", "lily flower".

Bugungi kunda oliy ta'limda talabalarga dars o'tish jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tanlash, faol texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshiriladigan maqsadlar va asosiy ta'lim dasturining vazifalari, xususiyatlarini, hamda ma'lum bir fanning mazmuni talabalar kontingentiga yetkazib berilishi lozim. Zamonaviy o'qitish va diagnostika usullari va texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati natijasida o'qituvchi innovatsion pedagogic texnologiya(rivojlantiruvchi, interaktiv o'qitish usullari va texnikasi)larni qo'llashi kerak.

Qurilish sohasida yetuk, vakolatli quruvchi muhandislarni yetkazishda “Muhandislik dinamikasi”, “Materiallar qarshiligi”, “Qurilish mexanikasi”, “Bino va inshootlarning zilzilabardoshlilik” va “Ustuvorlik dinamikasi” fanlarining ahamiyati katta. Bu fanlarni o’qituvchi dars jarayonida talabalarga yetkazib berishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng qamrovli foydalanishi lozim.

Dars o’tish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish natijasida quyidagi muammolarni hal qilish mumkin:

- har bir talabani ta’limni o’zlashtirish jarayoniga faol jalb qilish;
- muvaffaqiyatli muloqot ko’nikmalarini o’rgatish: tinglash va eshitish qobiliyati, dialog qurish, tushunish uchun savollar berish;
- motivatsiyani oshirish;
- mustaqil faoliyat ko’nikmalarini rivojlantirish;
- jamoada ishlash qobiliyati.

Interaktiv ta’lim texnologiyasi bilan barcha talabalar o’quv jarayoniga jalb etiladi. Ushbu texnologiyadan foydalanish to’g’ridan-to’g’ri talabalar va o’qituvchi o’rtasidagi aloqaga asoslanadi. Interfaol o’qitish texnologiyasi jarayonida o’qituvchi markaziy rolini yo’qotadi va o’quv jarayonining tashkilotchisiga aylanadi. Hamkorlik birinchi o’ringa o’tadi.

Interfaol texnologiyaning misolida master-klass bo’lib, unda o’qituvchi usta, maslahatchi, tashkilotchi vazifasini bajaradi, hamda ijodiy o’quv faoliyati, bilimlarni etkazib berishda talabaning ijodiy salohiyatini ochib beradi. Buning misolida “Qurilish mexanikasi” fani amaliy mashg’ulot “Statik noaniq ramani kuch usulida hisoblashda eguvchi moment, ko’ndalang kuch va bo’ylama kuch epyurallarini qurish” mavzusidagi darsida “Aqliy hujum”, “Nilufar guli” hamda rangli taqdimot va tarqatma materiallardan keng foydalanish mumkinligini ko’rishimiz mumkin.

“Aqliy hujum” usulidan foydalanilganda o’qituvchi tomonidan talabalarga savol beriladi va qisqa vaqt ichida talabalar javob qaytarishadi. Bu jarayonda o’qituvchi va talaba o’rtasida o’zaro hamkorlik asosiy o’ringa o’tadi. Bu usuldan foydalanilganda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:


1. Statik noaniq sistema deb nimaga aytiladi?
2. Rama nima?
3. Nima uchun aynan kuch usuli deyiladi?
4. Statik noaniq sistemani kuch usulida noaniqlik darajasi qanday aniqlanadi?
5. Asosiy sistema nima va u qanday tanlanadi?
6. Kuch usulida asosiy sistema nechta bo’ladi?
7. Kanonik tenglamalar soni nimaga bog’liq?
8. Kanonik tenglamaning koeffitsientlari va ozod hadlar nima?
9. Birlik va tashqi epyuralar qanday quriladi?

10. Mor, Vereshagin va Simpson formulalarini yozib bering.

Bu usul yordamida talabalarning fikri va bor e'tobori darsga jamlanadi, o'tgan mavzular yodga olinadi va talabalarning darsga qiziqishi ortadi. Eng maqbul va ko'p qollaniladigan usullardan biri bu "Nilufar guli"dir. Ushbu usuldan o'tgan mavzularni takrorlash va bilimlarini baholash uchun foydalanishimiz mumkin. Bu usulni mavzuga qo'llash tartibi quyidagicha:

- kichik guruhlar shakllantirish;
- har bir guruhga tayyor "Nilufar guli"ni tarqatish;
- bajarish uchun vaqt ajratish;
- xatolar ustida ishlash.

"Qurilish mexanikasi" fani bo'yicha "Statik noaniq sistemalarni kuch usulida hisoblashda" mavzusi bo'yicha tuzilgan "Nilufar guli"ni kuzatishimiz mumkin.






"Nilufar guli" usulidan foydalanish har qanday mavzuni o'zlashtirish bosqichida tavsiya etiladi. Shuning uchun talaba materialni mustaqil ravishda o'rganishi, hamda o'zi hisoblayotgan grafik ishi asosidan kelib chiqib "Nilufar guli"ni to'ldirishi kerak. Tashkillashtirilgan kichik guruhlarda talabalar o'zaro sheriklarining fikr-mulohazalarini tinglab, kuzatishi lozim. Bu usul asosiy ta'riflarni, hisob grafik ishini ish bajarish tartibini, o'tgan mavzularni yodga olishni hamda guruh bo'lib ishlashni talab qiladi.



Dars davomida mazvuni yanada unumli tushuntirish maqsadida rangli taqdimotdan hamda tarqatma materiallardan foydalaniladi. Bundan tashqari shu mavzuga oid chet el adabiyotlari, taqdimotlari talabalarga mustaqil ta'lim uchun taqdim etiladi.

“Statik noaniq sistemalarni kuch usulida eguvchi moment, ko’ndalang kuch va bo’ylama kuch epyuralarini qurish” mavzusiga oid chet el adabiyotlari va taqdimotlaridan e’tiboriga havola qilindi.



Xulosa qilib aytganda, talabalarga “Qurilish mexanikasi” fanini o’zlashtirishida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo’llash, vaqtdan unumli foydalanish, o’tgan

mavzularni takrorlash, guruh bo'lib ishlash, dars jarayonini qiziqarli o'tishi hamda yanada qo'shimcha mustaqil ishlashga tadbiq etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кларин М. В. Педагогическая технология в учебном процессе: анализ зарубежного опыта.- М: Педагогика, 1989.- 132с.

2. Митина Н. А., Нуржанова Т. Т. Современные педагогические технологии в образовательном процессе высшей школы // Молодой ученый. 2013. №1. С. 345-349.

3. Х.К.Жаббарова ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА «ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ МЕХАНИКА» <https://conferencepublication.com>

4. Горелик В. М., Гаврилов О. М. Мастер-класс как активный метод обучения в вузе по курсу станковой графики. <http://mir-nauki.com>

5. Е.В. Птицына МАСТЕР-КЛАССЫ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ: особенности их организации с позиции деятельностного подхода. DOI: 10.31862/2073-9613-2021-2-145-155

6. Л.В. Макарецва МАСТЕР - КЛАСС КАК ИНТЕРАКТИВНЫЙ МЕТОД ОРГАНИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ БАКАЛАВРОВ.

7. Марюфич Т.В. Методические рекомендации по организации и проведению мастер-класса.

RAQAMLI TEXNOLOGIYQLAR SHAROITIDA OLIY TA'LLIM TIZIMIDA IJTIMOY FANLARNI O'QITILISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

*Tillavoldieva Matluba Xoldarovna
TDPU falsafa fanlari nomzodi, dotsent, professor v.b.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni jumladan : internet, televidenie, kino, radio, video, mobil telefoni, turli ma'lumotlar aks etgan slayd va suratlar kabi aloqa va ma'lumot uzatuvchi vositalarning jadal rivojlanib borayotganligi, shuningdek, oliy ta'limda ijtimoiy fanlardagi tutgan o'rni masalalari taxlil etiladi. Qolaversa, raqamli-axloqiy –aksiologik madaniyatni shakllantirish hamda o'sib kelayotgan avlodning axborot xavfsizligini ta'minlash muammolarini anglash va bartaraf etish – bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligiga e'tibor qaratiladi.

Tayanch tushunchalar: raqamli jamiyat, raqamli texnologiya ,axborot, axboratlashgan jamiyat,internet,madaniyat, kommunikatsiya, globallashuv,

mediasavodxonlik, ijtimoiy taraqqiyot, ta'lim, usul, xavfsizlik, muommo, shaffoflik, rakamli ta'lim, haqiqat, tafakkur, tizim, raqam, milliy taraqqiyot va boshqalar.

Аннотация : В данной статье анализируется стремительное развитие цифровых технологий, в том числе Интернета, телевидения, кино, радио, видео, мобильных телефонов, слайдов и изображений с различной информацией, а также значение социальных наук в высшем образовании. Кроме того, было отмечено, что формирование цифровой этико-аксиологической культуры, понимание и решение проблем информационной безопасности подрастающего поколения является одним из актуальных вопросов современности.

Основные понятия: цифровое общество, цифровые технологии, информация, информированное общество, интернет, культура, коммуникация, глобализация, медиаграмотность, социальное развитие, образование, метод, безопасность, проблема, прозрачность, цифровое образование, истина, мышление, система, число, национальное. развитие и другие.

Abstract: This article analyzes the rapid development of digital technologies, including the Internet, television, cinema, radio, video, mobile phone, slides and pictures with various information, as well as the importance of social sciences in higher education. In addition, it is emphasized that formation of digital-ethical-axiological culture and understanding and elimination of problems of information security of the growing generation is one of the urgent issues of today

Basic concepts: digital society, digital technology, information, informed society, internet, culture, communication, globalization, media literacy, social development, education, method, security, problem, transparency, digital education, truth, thinking, system, number, national development and others.

Ma'lumki, bugungi kunda raqamli texnologiyalarni oliy ta'lim sohasiga ta'siri va ular bilan boyitilishi natijasida ta'lim sifatining yanada ortishi kutilmoqda. Bu borada raqamli texnologiyalar orqali o'qitish usuli o'qituvchi-pedagog va talabalar uchun ham qator qulayliklarga egaligi bilan alohida ahamiyatga ega. Bu esa talabalar uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy materiallar, axborotni himoyalash muammosi asosan kompyuter tizimlari va tarmoqlari sohasida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislar hamda zamonaviy kompyuterlar vositalaridan foydalanuvchilar e'tiborini jalb etmoqda. Bunday raqamli vositalarga asosan, yoshlar juda katta qiziqish bilan qarashi va ulardan keng foydalanishini hisobga olsak, haqiqatdan ham, bu masalaning naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanini anglash qiyin emas.

Shu nuqtai - nazardan ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning oliy ta'lim va ijtimoiy fanlar taraqqiyotdagi tutgan o'rni masalasiga e'tibor qaratildi.

Ushbu munosabat bilan eng avvalo, raqamli texnologiyalarni ijobiy xususiyatlariga e'tibor qaratamiz:

1. Aholi o'rtasida, jumladan, yosh avlod ongida dunyoda, yon-atrofimizda bo'layotgan voqea-hodisalar, yangiliklar haqidagi fikrlarning shakllanishida ;

2. Uzluksiz ta'lim jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga

3. Darsning sifatli o'tilishiga,

4. Ijtimoiy taraqqiyotni tezlashuviga;

5. Talaba- yoshlar tomonidan o'zlashtirish samaradorligini oshirishga;

6. Onlayn o'qitish, muloqot va har sohada yengillik imkoniyatlarini joriy etilishi;

7. Modem, foto, video, kompyuter texnologiyalari, shuningdek, internet bilan do'stlashish, bilimlarni kengaytirish imkonini yaratadi.

Ammo, raqamli texnologiyalar yaxshilik bilan bir qatorda, yovuzlikka ham xizmat qilishga qodir. Bugun "o'rgimchak odam"ga havas qilib, o'zini pastga otgan bolalar, reklamalarda berilayotgan barcha axborotlarga ishonuvchi shaxslar, yot g'oyalarga ergashib ketayotgan kimsalar ham bor. Tezkor internet orqali qabul qilinayotgan, axborotlarning aksariyat foydalanuvchilari yoshlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati Faxriddin Soliyevning **"Internetdan foydalanish madaniyati"** maqolasida shunday deyiladi: Global axborot makoniga real ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, hozirda keng jamoatchilikni xavotir va tashvishga solib kelayotgan muammolardan biri, shubhasiz, axborot makonida "nosog'lom" manfaatlar, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ta'siridagi axborotlarning (o'z joniga qasd qilishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9 ming, axloqsiz mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytlar, kompyuter o'yinlari zo'ravonlik va yovuzlik, o'ta jangari ruhdagi (beshafqat urushlar, o'ldirishlar, otishmalar va hokazo) Internet saytlari mavjudligi, milliy axborot makonimizga kirib kelishidir.

Ushbu raqamlar milliy saytlarimizni yoshlar uchun jozibador, mazmunli, saviyali, qiziqarli, o'ziga tortuvchi qilib yaratish masalasiga jiddiy e'tibor qaratishga undaydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, milliy qonunchiligimizda ham yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud. Xususan,

"O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonunda "O'zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar man etilishi", "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda "Pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni

namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanishi" belgilab berilgan. Internet, televidenie, kino, radio, video, mobil telefoni, turli ma'lumotlar aks etgan slayd va suratlar kabi aloqa va ma'lumot uzatuvchi vositalarning jadal rivojlanib borishi hayotimizni sifat jihatdan o'zgartirib, ko'plab yangi muammolarni, masalan, raqamli axloqiy-aksilogik madaniyatini shakllantirish hamda o'sib kelayotgan avlodning axborot xavfsizligini ta'minlash muammolarini anglash va bartaraf etishni asosiy vazifalardan biriga aylantiradi.

Ushbu masala yechimida bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jarayonida yoshlarda axborotlarni tahlil qila olish, axborotdagi asosiy xabarni ajratish, aloqaning yo'nalishini, uning yashirin ma'nosini to'g'ri tushunish, qisqa qilib aytganda, har qanday axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ta'limning barcha bosqichlarida alohida e'tibor qaratish lozim.

Masala tahlili va o'rganish asnosida itimoiy – ma'naviy-iqtisodiy manbalarda rivojlangan xorijiy mamlakatlar pedagogikasida raqamli ta'lim tushunchasi asosiy o'rinlardan birini egallaganligi haqidagi ma'lumotlar ko'zga tashlanadi. Shuningdek, raqamli ta'lim resurslaridan butun dunyoda keng foydalanilayotganligiga urg'u berish bilan birgalikda, **YUNESKO** tashkilotining 1982-yil Germaniyaning Gryunvald shahrida, 1997-yil Parijda, 2002-yil Ispaniyaning Sevilya shahrida o'tkazilgan konferensiyalari rezolutsiya va tavsiyalarida raqamli ta'lim masalalariga alohida to'xtalib o'tilganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Buyuk Britaniya va Avstraliyada ijtimoiy-gumanitar fanlar majmuasida ushbu masalaga doir alohida fan o'tilsa, Finlandiyada 1970-yildan o'rta maktablarning, 1977-yildan esa oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga kiritilgan. 1990-yillarda esa mamlakatda mediasavodxonlik, mediata'lim tushunchasi bilan almashtirildi. Shvetsiyada u 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan. 1990-yillarda Rossiyada mediata'lim bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. 2002-yilda pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun mediata'lim ixtisosligi joriy qilingan. O'zbekistonda esa 2022 yilda barcha oliy ta'limga medisavodxonlikni kiritilishi ushbu masala yuzasidan olib borilayotgan islohotlarni boshlang'ich samarasi deb atash maqsadga muvofiqdir. Aynan biz faoliyat yuritayotgan TDPUda ham bu yangi fanni o'qitilayotganligi va **5 kredit** soatlari ajratilganligi, qolaversa, ijtimoiy fanlar hisoblanmish falsafa, kasbiy etika, ilmiy tadqiqot metodologiyasiga alohida e'tibor qaratilayotganligiga to'xtalmoq zarur. Ayniqsa, falsafa fanini tanlov fanlar qatoridan majburiy fanlar qatoriga qaytadan joriy qilinishi ushbu fanlarni yoshlarni falsafiy va tanqidiy tafakkur madaniyatini rivojlantirishdagi o'rni bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin..

Ta'kidlash joizki, shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyati ijtimoiy fanlarda talaba-yoshlarni mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatib, yoshlarning dunyoqarashi, intellektual salohiyatining rivojlanishiga va kamol topishiga zamin yaratadi. Yoshlarimizning raqamli axborot bilan ishlash, axborot qidirish, turli yolg'on ma'lumotlarga aldanib qolmaslik, zarur axborotlarni ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, axborot mazmunini tushunish, do'stlarga xolis manbalarni uzatish, mantiqiy fikrlay olishni o'rganish asosida raqamli axloqiy madaniyati shakllanadi. Axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna bilish muhim ahamiyatga ega. Har bir o'qituvchi va talaba aloqa sohasida qanday raqamli texnik vositalar ishlatilishi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishi kerakligi ifodalanadi.

Bugungi axborot muhitini tushunishda raqamli axloqiy madaniyat muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarda avvalo, OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadda uzatilyapti, o'zida kimning manfaatlarini aks ettiryapti degan tushunchalarni shakllantirish lozim. **Qayd etganimizdek,** global axborot jamiyati shakllanishi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, avvalambor, Internet bolalar va o'smirlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omilga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya, internet-texnologiyalarining jamiyat hayotining barcha sohalariga keng miqyosda joriy etilishi yoshlarni axborot sohasidagi xavf-xatarlardan himoya qilish, chetdan kirib kelayotgan mafkuraviy xurujlardan, ularning ongini buzg'unchilik ta'sirlaridan saqlash masalalarining dolzarbligini kuchaytirdi. Ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter o'yinlari foydalanuvchilari, video va kinomahsulot iste'molchilari ularning jismoniy va ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlarga duch kelayotgan holatlari uchramoqda.

Ko'rinib turibdiki, raqamli axborot texnologiyalari kirib bormagan soha qolmadi. Qaysi bir jabhani olmaylik qulaylik, oshkoralik va tezkorlik bobida zamonaviy raqamli axborot texnologiyalari yangilanishlarning muhim omiliga aylanib borayotir. Shu bois, yurtimizda itimoiy-iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy farovonlikni ta'minlash, aholi turmush darajasini yanada oshirish uchun nafaqat oliy ta'lim, balki barcha jabhalarga raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga alohida ahamiyat berilmoqda.. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tantanali marosimda ta'kidlanganidek: 2030 yilgacha mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini 2 barobardan ziyod oshirishda ilg'or

texnologiyalar hamda raqamli axborot-kommunikatsiya tizimlarini barcha sohaga yanada faol jalb etish muhim ahamiyatga egadir.

Demak, bugungi amaliyot raqamli axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti mamlakatning raqobatdoshligini oshirish, katta oqimdagi axborotni to'plash va umumlashtirish, oliy ta'lim boshqaruvi va ijtimoiy fanlar o'qitilishini strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishda asosiy omilga ega ekanligini ko'rsatmoqda.. Bu borada rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasi alohida e'tiborga molik, ularda mazkur masalalar quyidagi vazifalar orqali hal etiladi:

- yoshlar va bolalarni axborot makonida himoya qilishga qaratilgan milliy qonunchilikni rivojlantirish;
- media-savodxonlik, tarmoqda muloqot qilish odobini yuksaltirish;
- internetda xavfsiz ishlashni qo'llab-quvvatlashning texnik mexanizmlarini yaratish;
- mazkur masalalarni hal etishda davlat organlari, oliy ta'lim muassasalari, oila, fuqarolik jamiyati institutlari, OAV keng ishtiroki va o'zaro hamkorligini ta'minlash va boshqalar

Umuman, oliy ta'lim tizimida ushbu masalani yechimida ijtimoiy fanlarni oldidagi ustuvor funksiyalar qaysilar? Nazarimizda, bu ustuvor funksiyalarni quyidagicha taklif va mulohazalar bilan izohlash mumkin:

1. Yosh avlodga zamonaviy bilim berish bilan birga, ularni mustaqil fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni e'zozlovchi, yuksak insoniy fazilatlarga ega vatanparvar inson sifatida tarbiyalash hamda yoshlar ongida turli mafkuraviy tahdidlar va axborot xurujlariga qarshi ma'naviy-g'oyaviy immunitetni shakllantirish;

2. Mohiyati o'rganilmagan, yolg'on tarqatilayotgan xabar va axborotlarning hayotimizni tubdan o'zgartirib yuborishi muqarrardir. "Aynan raqamli texnologiyalar orqali olingan axborotni tahlil etmay, o'z holicha qabul qilish oqibatida, dunyoning turli chekkalarida yoshlar jinoyatga qo'l urmoqda, o'zini kino qahramoni sifatida his qilganlar esa, "qahramon" xatti-harakatlarini takrorlagan holda qo'llariga qurol olib, begunoh insonlar hayotiga zomin bo'lishmoqda. Demak, aynan ana shu holatlarning oldini olish, axborotga ongli ravishda yondashish va taxlilu tanqidiy fikrlashga o'rgatish bugungi ijtimoiy fanlardan zamon talabi ekanligini his qilish;

3. Bugungi raqamlashtirish jarayonida yoshlarning zamonaviy raqamli axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan, xususan, internetdan foydalanish, axborotlarni tahlil etish borasidagi bilim va ko'nikmalarini yuksaltiri;

4. Ma'lumotlarda keltirilishicha, har bir foydalanuvchi kuniga internetdan foydalanish uchun ko'plab vaqt ajratar ekan. Biroq, bugungi kun talabiga ko'ra esa,

zarur axborot va ma'lumotlarni keraksiz va yaroqsiz, soxtalaridan ajrata olish, ya'ni raqamli savodxonlikka ega bo'lish zaruratini anglash va singdirish;

5. Raqamli savodxonlik va axloqiy aksiolik madaniyatni yangi ilmiy ta'rifini ishlab chiqish;

6. Avvalo, raqamli savodxonlikning o'zi nima, nega unga bugun dunyo bo'ylab talab ortib bormoqda kabi savollariga javob topish bilan birgalikda, so'nggi yillarda raqamli axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda, salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi raqamli savodxonlik orqali raqamli aksiologik madaniyatga ega bo'lishishga erishishdir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ijtimoiy fanlar oldidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida raqamli savodxonlik va axloqiy aksiologik madaniyat tushunchalarini yangi ilmiy ta'riflarini ishlab chiqilishini dolzarbligini anglagan holda, quyidagicha qarashlarimizni bayon etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Bizni fikrimizcha, raqamli savodxonlik - zarur texnologik axborot va ma'lumotlarni keraksiz, yaroqsiz, soxtalaridan ajrata olish, ma'no-mazmunini chuqur anglash bilimlariga ega bo'lishdir. Shuningdek, raqamlashtirish jarayonida yoshlarning zamonaviy raqamli texnologiya - kommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish, axborotlarini tahlil etish borasidagi bilim va ko'nikmalarini yuksaltirishdir.

Raqamli axloqiy - aksiologik madaniyat esa, bu raqamli texnologiyalar orqali olingan axborotlarni nega va nima uchun uzatilayotganligini his kilish, anglash , oqilona tushinish, bilish va ulardan to'g'ri foydalanish meyorlariga amal qilish demakdir. Raqamli axloqiy-aksiologik madaniyatli inson o'ziga — bu raqamli texnologiya nima, uni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu texnologiya men uchun zarurmi? — degan savolni bera olishi va to'g'ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondasha olishidir. Mazkur savollar nafaqat oliy ta'lim tizimida balki, oila davrasida televizor ko'rayotgan, mashinada radio eshitayotgan yoki internetdagi xabarlarni ko'rayotgan paytda berilishi, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerakdir.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar nafaqat oliy ta'limda ijtimoiy fanlarni o'qitish jarayonlarida, balki islohotlar jarayonining ochiqligini ta'minlash, davlat va jamiyat o'rtasida samarali axborot almashish mexanizmini o'rnatishda ham muhim vosita sanaladi. Ayni paytda hukumat, vazirlik va idoralar, shuningdek, parlament a'zolarining aholi bilan samarali muloqot o'rnatish uchun maxsus virtual qabulxonalari tashkil etilganligi sir emas. Avvalo, jahon amaliyotiga uyg'un holda sohada qonun hujjatlarini muttasil takomillashtirib borish, yangi qonunlarning mazmun-mohiyatidan keng jamoatchilikni xabardor qilish va ularni amaliyotga

samarali tatbiq etishga xam xizmat qilish bilan birgalikda ulardan samarali foydalanish - oliy ta'lim faoliyatining yanada shaffofligini ta'minlashga xizmat kiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi VM ning 2002 yil 6 iyundagi № 200 “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori”.
3. O'z.RXTV 13.02.2008 yil, 35 sonli buyruk /Xalq ta'limi vazirligining axborot –portali (WWW.EDU PORTAL.UZ).
4. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni.O'RQ-406-son. 2016 yil.14 sentyabr.
5. Aminov I.B. Ta'lim tizimida AKTdan foydalanish. Samdu Samarqand 2012 yil
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). –T.: “Iste'dod” jamg'armasi, 2009. – 160 b.
7. Begimqulov U.Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. Toshkent- 2007 yil.
8. Qodirov B.G', Begimqulov U.Sh.Abduqodirov A.A. Axborot texnologiyalari. Elektron darslik. Toshkent. 2002 yil
9. Abdumannonov A. Ta'lim sifatini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent. 2017 yil.
10. Yeremin A.L. V Informatsionnaya gigiena. Moskva. 2020.
11. Borisova T.S. Gigienicheskie osnovy komp'yuterizatsii obucheniya. Minsk .BGMU, 2018.

OLIV TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI HAMDA ULARNI TRANSFORMATSIYA QILISH ORQALI TA'LIM TIZIMINI YUKSALTIRISHNING ISTIQBOLLARI

Mamatqulova Ozoda Xikmat qizi
TDPU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiya tushunchasi, oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, bu borada davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, oliy ta'lim va raqamli texnologiyalar transformatsiyasini ta'minlashning istiqbollari xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, mazkur mavzu yuzasidan tegishli tavsiya va xulosalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: fan, texnika, bilim, tarbiya, ta'lim, oliy ta'lim, texnologiya, raqamli texnologiyalar, "Besh tashabbus", "elektron hukumat", "elektron savdo", "raqamli iqtisodiyot", Internet, kompyuter, kompyuter savodxonligi.

Аннотация: В данной статье говорится о понятии цифровых технологий, важности использования цифровых технологий в системе высшего образования, реформах, реализуемых нашим государством в этом направлении, а также перспективах обеспечения трансформации высшего образования и цифровых технологий. Также по данной теме даны соответствующие рекомендации и выводы.

Ключевые слова: наука, технологии, знания, воспитание, образование, высшее образование, технологии, цифровые технологии, "Пять инициатив", "электронное правительство", "электронная коммерция", "цифровая экономика", Интернет, компьютер, компьютерная грамотность.

Abstract: This article talks about the concept of digital technology, the importance of using digital technologies in the higher education system, the reforms implemented by our state in this regard, and the prospects for ensuring the transformation of higher education and digital technologies. Also, relevant recommendations and conclusions are given on this topic.

Keywords: science, technology, knowledge, upbringing, education, higher education, technology, digital technologies, "Five initiatives", "e-government", "e-commerce", "digital economy", Internet, computer, computer literacy.

Ma'lumki, mamlakatning yuksalishiga hissa qo'shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq bo'lib, bu borada o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan, ijodkor, tadbirkor, tashabbuskor shaxsni

voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi hamda ushbu maqsadga erishish yo‘lidagi vazifalar respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlarida o‘zining ifodasini topgan. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bejizga: **“Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi!”**¹, deb ta’kidlamaganlar.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta’lim sifatini oshirishda o‘quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovatsion pedagogik va raqamli texnologiyalaridan foydalanish, oliy ta’lim va raqamli texnologiyalarning transformatsiyasini ta’minlash ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir.

Fan va texnika jadal sur‘atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda Vatanimiz kelajagi bo‘lmish yoshlarni har tomonlama yetuk kadrlar etib shakllantirishda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish ko‘zlangan maqsadga erishishimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, bugungi yuksak texnologiyalar zamonida ilmiy bilim, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bordi. “Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi sohalari rivojlanishi tufayli uning differentsiallashtirishini ta’minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayoni vujudga keladi. Bunday sharoitda malakali kadrlarga bo‘lgan talab ortib, o‘z sohasi bo‘yicha fundamental bilimlarni mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuqori bo‘lgan hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni amaliyotda qo‘llay oladigan ijodkor kadrlarni tayyorlash talab etiladi”². Chunki, biz xohlaymizmi yoki yo‘qmi, bugungi kundagi taraqqiyot ko‘p jihatdan raqamli texnologiyalarining rivojlanish ko‘rsatkichlariga bog‘liq bo‘lib qoldi. Prezidentimiz ta’birlari bilan aytganda: **“Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart”**. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga raqamli texnologiyalar chuqur kirib bormoqda.

Shuning uchun ham yoshlarning raqamli texnologiyalar bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi bugungi zamon talabi sanaladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli va samarali tashkil etish bo‘yicha “Besh tashabbus”ning uchinchi tashabbusi “aholi va yoshlar o‘rtasida

¹ Shavkat Mirziyoyev: “Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni — bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi” — Daryo Yangiliklari

² ta-lim-sifati-islohotlar-muammolar-yechimlar-va-istiqbollari-haqida-fikr-va-mulohazalar.pdf

kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish”³ga qaratilganligi bejiz emas edi.

So‘nggi yillarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli ta‘limni samarali tashkil etishda ularning imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanila boshlandi. Ta‘kidlash joizki, bugungi kunda ta‘limni raqamli texnologiyalarisiz tasavvur eta olmaymiz. Zero, bugungi kunda ta‘lim muassasalarida foydalaniladigan multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlarning o‘rni beqiyosdir.

Raqamli texnologiyalar ta‘lim sifatini oshishiga xizmat qiluvchi vositalardan sanaladi. Xususan, bu kabi texnologiyalar ta‘lim jarayonida ta‘lim oluvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni faollashishiga, turli raqamli texnologiyalardan foydalana olish imkoniyatining shakllanishiga imkon yaratadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish auditoriyaning to‘liq qamrab olish va fanga nisbatan ijobiy munosabatni uyg‘otishga sabab bo‘ladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalardan ta‘lim tizimida foydalanilishi talabalarga dars mashg‘ulotlarini sifatli o‘tilishini ta‘minlaydi. Birgina, pandemiya sharoitining o‘zi ham ta‘lim tizimida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi.

Raqamli ta‘limga o‘tishning boshqa ijobiy tomonlari xususida fikr yuritadigan bo‘lsak, darsliklar elektron shaklda ekranlarga ko‘chadi, talabalar o‘zlariga qulay bo‘lgan vaqtda ta‘lim olish imkoniga ega bo‘ladi, internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi, ta‘lim tizimini yangi bosqichga ko‘taradi, vaqt va mablag‘ sarfini kamaytiradi va boshqalar.

Ayni shuning uchun ham hozirgi kunda jamiyat hayotining barcha sohalari qatori, ta‘lim tizimining ham jadal raqamli rivojlanishini ta‘minlash, shu jumladan, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish juda katta ahamiyatga ega. Buning tasdig‘i o‘laroq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni 41-maqsadining beshinchi qismida “kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta‘minlangan 100 mingdan ortiq bepul to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish”⁴ belgilanganligi juda katta ahamiyatga egadir.

Shuningdek, bu boradagi ishlarni takomillashtirish maqsadida 2020 yil 5 oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari

³kun.uz

⁴“2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, № PF-60-son , 28 yanvar 2022 yil. Lex.uz.

to'g'risida"⁵gi PF-6079 – sonli Farmoni qabul qilingan bo'lib, mazkur huquqiy qonunosti hujjati O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning ustuvor maqsadlari, muhim yo'nalishlari hamda istiqbolli vazifalarini belgilaydi. Bundan tashqari BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida qayd etilgan vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonini yanada takomillashtirish uchun axborot texnologiyalaridan ta'lim berish jarayonini yanada optimallashtirish, buning uchun esa o'sib kelayotgan yosh avlod orasida axborot texnologiyalarini yanada ommalashtirish, shuningdek, aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, turli yoshdagi aholiga Internet tarmog'ida ishlash, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan va boshqa texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tegishli bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga qamrab olgan kompyuter savodxonligi o'quv kurslarini tashkil etish, axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar sohasida yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan kadrlarni shakllantirish maqsadida umumta'lim maktabi o'quvchilariga dasturlashni o'rgatish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratib berish va boshqalardan iborat.

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va bu boradagi ishlarning yanada kengaytirilishi ta'lim jarayoni ishtirokchilari uchun juda katta afzalliklarga ega. Aytaylik, oliy ta'lim muassasalariga hujjatlarning onlayn shaklda topshirilishi bu ularning ham vaqtini, ham "naqd"ini tejatishga xizmat qilmoqda. Yokida ta'lim jarayonida dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etilishi ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishilishiga olib keladi. Misol uchun, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda turli vatanparvarlik ruhidagi video-roliklarning namoyish etilishi yoshlarning qalbida o'z Vatanga nisbatan yuksak fuqarolik burchining shakllanishiga xizmat qilishi mumkin.

Shu sababli, ta'lim sohasida ham raqamli ko'nikmalarni oshirish muhim ahamiyatga ega va ushbu jarayonni takomillashtirish uchun ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali ularda raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamlil raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish lozim. Bir so'z bilan

⁵O'zbekiston Respublikasi Prezident SHavkat Mirziyoyevining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079 – sonli Farmoni. 2020 yil 5 oktabr. lex.uz

aytganda, raqamlashtirish jarayoni faoliyatimiz samaradorligi, ta'lim sifati, shaffoflik va hudud xavfsizligini ta'minlashda, o'qituvchi va talabalarga qulaylik yaratish barobarida keng imkoniyatlar yaratib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezident SHavkat Mirziyoyevining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079 – sonli Farmoni. 2020 yil 5 oktabr. lex.uz

2. "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, № PF-60-son, 28 yanvar 2022 yil. Lex.uz.

3. Shavkat Mirziyoyev: "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni — bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi" — Daryo Yangiliklari

4. Ta'lim-sifati-islohotlar-muammolar-yechimlar-va-istiqbollari-haqida-fikr-va-mulohazalar.pdf

5. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Nihol, 2016.

6. Kun.uz.

TARIX FANLARINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

*Mulladjanova Ra'no Abdulladjanovna
Nizomiy noivblfgi TDPU dosenti., T.f.n*

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy axborot texnologiyalaridan, shu jumladan, Raqamli–texnologiyalaridan foydalanish oliy ta'lim muassasasi talabalarini kasbga yo'naltirish va tarix fani sohasida professional tayyorgarlik darajasini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishga o'rgatishdir.

Tayanch so'zlar: axborot texnologiya, tarix, ijtimoiy hayot, Turkiston, ta'lim tizimi, o'qitish metodi, raqamli texnologiya, ilm-fan, xonliklar.

Аннотация: В статье использование современных информационных технологий, в том числе цифровых, направлено на обучение студентов высших учебных заведений созданию дополнительных возможностей для профориентации и повышения уровня профессиональной подготовки в области истории.

Ключевые слова: информационные технологии, история, общественная жизнь, Туркестан, система образования, методика обучения, цифровые технологии, наука, ханы.

Abstract: In the article, the use of modern information technologies, including digital technologies, is aimed at teaching students of higher educational institutions to create additional opportunities for career guidance and raising the level of professional training in the field of history.

Key words: information technology, history, social life, Turkestan, education system, teaching method, digital technology, science, khans.

Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish bugungi kunning eng dolzarb vazifalardan biridir. Tarix ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirish mumkin:

- Raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali tarixchi kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish;
- Zamonaviy axborot–kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;
- Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;
- Zamonaviy axborot–kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;
- Milliy elektron ta'lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta'lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma–bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR–kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;
- Oliy ta'lim muassasasining konferensiya materiallari, bitiruv–malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalaridan iborat ilmiy–texnik ma'lumotlar elektron bazasini yaratish, kelgusidagi ilmiy–texnik ma'lumotlar yangiligini ta'minlash maqsadida antiplagiatsiya tizimidan foydalanishni keng joriy etish tavsiya etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib tarix fanida “O'rta Osiy shaharlarida ananaviy talim tizimining paydo bo'lishi” xaqida ba'zi fikr va mulohazalarni keltiramiz.

O'zbekiston shaharlari mintaqada asrlar davomida ilm-fan va madaniyat markazi bo'lib keldi. Shaharlarda ananaviy madaniy xayotning barcha asosiy yunalishlari - ta'lim, san'at, adabiyot, ilm-fan kabi yo'nalishlari davr bilan hamohang ravishda rivojlanib kelgan. Mamlakat tarixida chuqur iz qoldirgan tarixiy taraqqiyot bosqichlarida, masalan, Temur va temuriylar davrida gurkirab rivojlangan madaniy hayot an'analari so'nggi asrlarda ham davom etib, sayqal topdi. O'rganilayotgan davrga kelib esa, mamlakat hayotida sodir bo'lgan siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlar ta'sirida madaniy hayotda ham, qadim an'analar saqlangan holda, ayrim o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Bu o'zgarishlarni madaniy markazlar bo'lgan shaharlarda yaqqol kuzatish mumkin edi. Shaharlarda madaniy hayotning barcha yunalishlarida tarixiy an'analar saqlangan xolda, ma'lum darajada yangiliklar kirib keldi. Xususan, ananaviy talim tizimi bu davrda ham – maktablar: boshlang'ich talim hamda madrasalar: o'rta va oliy ta'limdan iborat bo'lib o'larning asosiy qismi shaharlarda joylashgan edi.

Maktablar faoliyati arab alifbosida savod chiqarish, hisob-kitobni ya'ni boshlang'ich arifmetikani o'zlashtirish, axloq-odob qoidalari hamda islom dini asoslarini o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lib, asosai ilmi, o'ziga to'q shaxslar tomonidan: hususiy maktab yoki bir manzilda yashagan mahala jamoasi tomonidan: umumiy maktab tashkil etilgan[1].

Deyarli har bir masjid, madrasa qoshida, har bir mahalla, ovul va qishloqda boshlang'ich maktablar mavjud edi. Qishloq maktablarida o'quvchilar soni o'rtacha 10-20 nafar shaharlarda esa 50-60 nafarga yetar edi. Maktablar o'g'il va qizlar uchun alohida tashkil etilgan.

O'g'il bolalar uchun maktablar masjidlar, madrasalar, korxonalar qoshida, qizlar maktabi esa xususiy xonadonlarda, o'qimishli ayollar - otinbibi, otinoyi tomonidan tashkil etilgan[2].

Boshlang'ich maktablarning katta qismi shaharlarda joylashgan edi. Kichik shaharchalarda kamida 10-15 ta, yirik shaharlarda esa yuzlab maktablar faoliyat yuritgan. Masalan, XIX asrning 60-yillarida birgina Toshkent shahrida 118 ta boshlang'ich maktab bo'lib, ularda 12.000 o'quvchi ta'lim olgan, shulardan 8.000 nafari yg'il bola, 4.000 nafari qizlar edi.

1876 yilda Qyqon xonligi tugatilish arafasida Farg'ona vodiysidagi Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan shaharlarida hamda O'zgan va Baliqchi kabi kichik shaharchalarida jami 390 ta maktab bor edi [3].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr 80-yillarida Turkiston o'lkasining Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida 5 mingdan kam bo'lmagan

musulmon maktablari faoliyat yuritgan bo'lib, ularda 46 ming atrofida o'quvchilar tahsil olgan.

XX asr boshiga kelib esa, Turkistonda 7.047 ta, Xiva xonligida 1.500 ta, Buxoro amirligidagi birgina Buxoro shaharnig o'zida esa 350 ta boshlang'ich maktab faoliyat yuritgan[4].

Maktablar davlat tomonidan mablag'lashtirilmagan, ular xususiy maktabdor va jamoa ahli tomonidan tashkil etilgan. Xususiy maktablar ularda ta'lim oluvchi o'quvchilarning ota-onalarining moddiy yordami, masjid va madrasalar qoshidagi maktablar esa, vaqf mulklari daromadi hisobidan ta'minlangan.

Boshlang'ich maktabda 5 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar eng avvalo arab imlosida o'qish va yozishni o'zlashtirishganlar. O'quv dasturi Xiva va Buxoro xonliklari, Turkiston general-gubernatorligi hududidagi barcha maktablar uchun umumiy bo'lgan. Uning asosini arab alifbosi va yozuvi, boshlang'ich arifmetikani o'zlashtirish, islom dini asoslarini o'zlashtirish, diniy ahloqiy tarbiya tashkil etgan. Shuningdek, maktabda y'quvchilar savodi chiqqach, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mashrab kabi mumtoz adabiyot vakillarining ijodini yrganish asosida badiiy adabiyot bilan tanishgan, ulardan namunalar yod olganlar.

Maktablardagi shart-sharoit bu davrga kelib zamon talablaridan ancha ortda qolgan edi. Shunday maktablarda tahsil olgan Sadriddin Ayniy qayd etganidek, maktab xonalari tor, zax, yaxshi yoritilmagan va isitilmagan bo'lib, o'quvchi uchun qulaylik yaratilmagan, ular yerda, bo'ya ustida chordana qurib o'tirishgan. O'qish jarayonida o'quvchining yoshi, iqtidoriga alohida e'tibor qaratilmagan[5]. O'quv dasturi va qo'llanmalar asrlar davomida takomillashtirilmaganligi uni o'zlashtirish muddati qat'iy belgilanmaganligi, bilim darajasi nazorat qilinmaganligi, dunyoviy bilimlarga e'tiborsizlik va shart-sharoitlar o'rta asr darajasida saqlanganligi eng katta muammolardan edi [6].

Boshlang'ich maktabda ta'lim usuli va darajasi zamon talablaridan ortda qolganligini o'sha davrning ilg'or fikrli kishilari o'z vaqtida anglab yetganlar. Maktablarda ta'lim usuli va dasturi, shart-sharoit va moddiy ta'minot masalalarini takomillashtirish va isloh qilish masalasi XX asr boshida ijtimoiy-ma'naviy xayotning eng dolzarb muammosiga aylangan edi. Zero, bu davrga kelib Yevropada jadal kechayotgan ijtimoiy-madaniy taraqqiyot musulmon olamida ham o'z aks-sadosini bera boshlagan edi.

1884 yilda Qrimda Bog'chasaroyda I.Gaspirinskiy tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktabi tez orada shuhrat qozondi. Bu maktabda tovush usuli, ya'ni harflarni sadosi bilan o'rganish "usuli savtiya" orqali qisqa fursatda, tez va oson savod chiqarish ijobiy natija berdi. Bu maktablarda mashg'ulotlarni o'quv jadvali asosida, parta va boshqa zarur jihozlar bilan ta'minlangan yorug' xonalarda olib borish yo'lga qo'yildi. "Hojai sibyon" deb atalgan yangi darslik yaratdi.

1892 yilda I.Gaspirinskiyning Turkiston general gubernatoriga maktub yo'llab, unda yangi maktablar eski maktablardan farq qilib, 6-7 yilda emas, 1,5-2 yilda savod chiqarishga imkon berishini bayon qilib, o'lkada shunday maktablar tashkil qilishda yordam so'raydi.

Ammo bu maktubdagi takliflar "mustamlakachilik manfaatlariga zid" deb topilib, e'tiborsiz qoldiriladi[7]. 1893 yilda Turkistonga tashrif buyurgan I.Gaspirinskiy bu yerdagi do'stlari bilan Samarqand va Buxoro shaharlarida ilk yangi usul maktablarini tashkil etadi. Ijobiy natijalar bilan maxalliy aholi e'tiborini qozongan bunday maktablar "usuli jadid", ya'ni yangi usul maktablari deb nom oladi. Dastlab Turkistonda soni ko'payib borayotgan tatar oilalarining bolalari uchun tashkil etilgan bunday yangi maktablar tez orada mahalliy aholi bolalarini va ziyolilarining ham e'tiborini tortadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XX asr boshiga kelib esa, Turkiston general-gubernatorligida 336 ta Madrasa, Buxoro amirligida 350 ta Madrasa, Xiva xonligida 130 ta nafakat mintakada, balki musulmon olamida xam juda mashhur bo'lib, ularda tahsil olish uchun Kavkaz, Qrim, Qozon, Sibir, Gulja, Arabiston, madrasa faoliyat yuritgan. Buxoro, Toshkent, Samarqand madrasalari Eron, Afg'oniston, Hindiston, Qashg'ar kabi mamlakatlardan musulmon yoshlari tashrif buyurganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Туркестанские ведомости". 1898. № 32.
2. Граменицкий С. Положение инородческого образования в Сырь-Дарьинской области. Ташкент, 1916. С. 26-27; Фитрат А. Хиндистонда бир фираши ила бухоролик мударриснинг жадид мактаблари хусусида килган мунозараси // Танлангам асарлар. Тошкент, 2000. 1-жилд. 255б.
3. Зиёев Д. Ўзбекистон шаҳарлари. (XIX асрнинг иккинчи ярми XX асрнинг бошлари). Ташкент. 2017. 62б.
4. Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошида Тошкентнинг "янги шаҳар" қисми тарихи. Тошкент, 2004.
5. Фитрат А. Мунозара // Шарқ Юлдузи. 1997. №1. 149б.

6. Қосимов Б. Миллий уйғониш. Тошкент, 2002. 236.
7. Хоразм тарихи. Урганч, 1997. 374б.

RAQAMLASHTIRILGAN JAMIYATDA TA'LIM VA TARBIYA MUSHTARAKLIGI-TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA

*Yulchiyev Avazbek TDPU-katta o'qituvchisi
Azizjanova Charos TAQU 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada isloxtlar jarayonida ta'lim -tarbiya masalasi va tarbiya darsi jarayoniga tadbiq etiladigan zamonaviy ped- texnologiyalarni ayrim masalalariga o'rin ajratiladi. SHuningdek, tarbiya fanini o'qitishdagi imkoniyatlarga e'tibor qaratilib, ta'lim –tarbiya bilan shaxs kamolatining mushtarakligi bugungi kun nuqtai – nazaridan taxlil etiladi.

Tayanch tushunchalar: Usul, metod, kamolot, shaxs ,talim, ilm, samaradorlik , tarbiya, texnologiya, qonuniyat, interfaol , ijod.

Аннотация: В ходе реформ в данной статье будут обсуждаться вопросы образования и воспитания и некоторые вопросы современных пед-технологий, применяемых в процессе образовательного урока. Кроме того, уделяется внимание возможностям образования, анализируется общность образования и развития личности с точки зрения сегодняшнего дня.

Базовые концепты: метод, метод, зрелость, человек, образование, наука, эффективность, обучение, технология, законность, интерактив, творчество.

Annotation: In the course of reforms, the issue of education and education and some issues of modern ped-technologies applied to the process of the education lesson will be discussed in this article. In addition, attention is paid to the possibilities of teaching the science of education, and the commonality of education and personal development is analyzed from today's point of view.

Basic concepts: method, method, maturity, person, education, science, efficiency, training, technology, legality, interactive, creativity.

Barchamizga malumki, bugun mamlakatimizda yangi Uyg'onish davri, ya'ni uchinchi Renesans masalalarini strategik vazifa sifatida milliy g'oya darajasiga ko'tarilayotgan ekan, ta'limni rivojlantirish, ilm-fanni taraqqiy ettirish eng ustuvorlik kasb etmog'i, shubhasiz. Bunga esa faqat ta'lim-tarbiya , shuningdek, ta'lim maskanlarida tarbiya fanini o'qitishni jo'riy etilishi orqaligina erishish mumkin.

Shu nuqtai- nazardan olib qaraganda, ushbu maqolada ta'lim va tarbiya va ularni ijtioid taraqqiyotdagi o'rni masalasiga o'rin ajratilgan.

Faoliyatimizda anglab etilgan bir haqiqat bor : ya'ni bilim-insonning najotkori, kerak bo'lsa , eng kuchli qurolidir. Insoniyatning shu paytgacha o'rgangan jamiki bilimi, egallangan ilmi, chiqargan xulosalari, qo'yingki, qo'lga kiritgan xazinasilmlarda jam bo'lib, ular orqali saqlab kelinmoqda.

Shu nuqtai nazardan, yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish xalqimizning faravon yashashini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda barcha soha qatori ta'lim tizimida ham tub islohatlar olib borilmoqda. Yosh avlodning bilim egallashi uchun barcha sharoit yaratilmokda . Navqiron avlodni ilmga mehr ruhida tarbiyalash, ularning tafakkur madaniyatini yuksaltirish maqsadida qanchadan-qancha tanlovlar o'tkazilib, diqqatga molik ijtimoiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu yoshlarimizni ilmga qaytarish va ular ilmiy dunyoqarashini rivojlanishiga muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning shu yil 30 sentyabrdagi "O'qituvchi va murabbiylarga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida alohida qayd etilganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni buyuk qiladigan kuch ham bu-ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi hamda farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq." Bugungi kunimizni Asosiy g'oyasi «barcha darajada ta'lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar natijalarini keng joriy etish uchun ta'lim, ilm-fan va tarbiyani integratsiya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish»ni o'z ichiga olishini takidlash lozim.

Ta'lim va tarbiya – aynan shular mamlakatning raqobatbardoshligi, uning innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi inson kapitalini yaratishi lozim. Bizning kelajagimiz ham shunga bog'liq. SHunisi aniqki, innovatsion rivojlanishning drayverlari bo'lishga qodir mutaxassislar paydo bo'lishi uchun, hech bo'lmaganda, xalqaro talablarga javob beruvchi ta'lim bo'lishi lozim.

Prezidentimiz aytganidek, «Agar biz 10 yil davomida maktabgacha ta'lim-maktab-oliy ta'lim muassasasi tizimida ishlasak, jamiyatimizda ko'zlari chaqnab, kelajakka ishonch bilan boquvchi va hech kimdan qo'rqmaydigan insonlar paydo bo'ladi». Aynan shu insonlar mamlakatimizni ilg'or mamlakatlar qatoriga kiritishga qodir yoshlardir.

Shunday ekan, mamlakatimiz Bosh qomusida kafolatlangan huquqdan barchaning unumli foydalanishi uchun, avvalo, o'zimiz bilimga tashna, ilm-ziyoga intiluvchan va axloqiy jixatdan etuk bo'lishimiz lozim. Faqat shu orqaligina yoshlarga, farzandlarimizga namuna ko'rsata olamiz.

Ma'lumki, ta'lim samaradorligini oshirishda noan'anaviy ta'lim usullarining ahamiyati juda katta. "chunki, noan'anaviy ta'lim usullari hozirgi yangi zamonaviy ta'lim usullaridan tortib pedagogik texnologiyalari, ta'limning samarali metod va vositalaridan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga keng imkon beradi. SHu nuktai nazardan olib karaganda ta'limni sifat samaradorligiga erishishda dars jarayonida ko'laniladigan zamonaviy pedtexnologiyalar va ularni ijtimoiy tarakkiyotdagi o'rni masalasiga xam o'rin ajratdik.

Ta'lim-tarbiya bilan shaxs kamolotini mushtarakligi, ta'lim usullarining muayyan tizimga ega ekanligi kelib chiqib ta'lim berishni nazarda tutadi. Ta'lim sohasida ilmiy izlanishlar olib borish, tahlil qilish, ta'lim samaradorligini ta'minlashda o'qitishning noana'naviy shakllaridan foydalanish va ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish dolzarb muammolardan biridir. Hozirgi kunda o'qitish jarayonining asosiy vazifasi - ta'lim mazmunini yangilashning uzluksiz tizimini ro'yobga chiqarishdan iborat. Bunday asosiy maqsad har jihatdan rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalashdir.

Erkin fikrlaydigan insonni, yangicha iqtisodiy sharoitda, aniqrog'i bozor iqtisodiyoti sharoitida, har qanday o'zgarishlarga tayyor tura oladigan insonni tanlash unga yangi yangi texnologik axborotlarni qabul qilishga tayyorlash uzluksiz ta'limning asosiy vazifalaridan xisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun ta'lim mazmunini yangilashning o'zi kifoya qilmaydi, balki ilg'or tajribalarni o'rganib, yangi pedagogik texnologiya va usullarni egallash zarur bo'ladi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng o'quvchi va talabalarni dars jarayonida faollashtiruvchi rivojlangan xorijiy davlatlar olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan innavatsion texnologiyalar deb ataluvchi o'qitish metodlari o'quv jarayoniga tatbiq qilina boshlandi. Ular jumlasiga "Muammoli o'qitish", "o'yinli texnologiya", "Aqliy hujum", "individual o'qitish", "tarmoqlar" (klaster) metodi, "bumerang texnologiya"si, "skorabey" texnologiyasi, "taroz"i texnologiyasi, "elpig'ich" texnologiyasi va boshqalarni keltirish mumkin. Dars o'tish uchun qaysi texnologiyani tanlab olish o'quv fani va undagi mavzuning xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Fanlarni o'qitish jarayonida talabalarga faqat ma'lum holdagi tayyor hajmdagi bilimlarni berishdagina iborat bo'lib qolmay, balki asosiy bosh maqsad ularda hayotiy xolatlarni ham tahlil etish va shu asosda ular o'zlari mustaqil ravishda to'g'ri xulosa chiqarishni o'rganishdan iboratdir. Albatta, talabalarni faol fikrlashga o'rgatish jarayoni o'quvchilarning o'zidan ham chuqur bilimga ega bo'lishini talab qiladi.

Demak, ta'lim samaradorligini ta'minlashda ta'limning noana'naviy shakli ya'ni yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Mazkur

muammo yuzasidan qator metodik tavsiyalar adabiyotlar mavjud bo'lib, ular ta'limni samaradorligini oshirishning atroflicha tadqiq etishga erishganlar.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va bu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va bu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish ta'lim tizimida chuqur bilim olishiga, ijtimoiy xayot qonunlarini puxta o'rganishga, ijtimoiy fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishga yangi talablar qo'yimoqda.

Fanlarni o'qitish jarayonini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligi quyidagi zaruriyatdan kelib chiqadi;

- Jaxon talablari darajasida raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash;
- Ta'lim tizimida yondashuvlar va dars o'tish metodlarini tanlash, ishlab chiqish;
- O'qituvchining o'quv jarayonida tutgan o'rni, ta'lim-tarbiyaviy jarayonga qo'yilgan talab, erishilgan natija va xakozolar.

Albatta, fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning imkoniyatlari katta bo'lib, bunda dars o'tish metodlari ta'lim qonuniyatlari va didaktik prinsiplaridan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Dars -o'quvchi talabalarga bilim berishning asosiy tashkilish shaklidir. SHu o'rinda xozirgi zamon darslari qanday bo'lmog'i kerak? Bugungi fan o'qituvchisi darsi qanday natijalarga erishishi kerak? O'qituvchi – talaba darsdan qanday bilimlar olib ketishi kerak? degan savollar tug'ilishi tabiiy.

Bugungi dars o'quvchi-talabada ijodiy qobiliyatni o'stirishi, aqliy salohiyatni kengaytirishi, ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirishi va har bir yangilikni to'g'ri qabul qila olishni o'rgatishi kerak. SHunday ekan, darsda o'qituvchi va o'quvchi-talaba munosabatlari qanday tashkil etilishi, o'qituvchi darsda o'quv maqsadlarini amalga oshirish uchun metod va vositalarni to'g'ri tanlay olishi g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Bugun darsda o'qituvchining asosiy vazifasi darsni boshqarish hisoblanadi. Darsni boshqarish uchun dars o'quv-metodik ta'minot to'liq bo'lishi kerak. O'qituvchi darsni to'g'ri belgilashi kerak. Darsda o'qitish vazifalari bilan tarbiya vazifalari o'zaro bog'liq bo'lib, muayyan tushunchalar, g'oyalar tarkib topishi natijasida ilmiy dunyoqarash va e'tiqodlar hosil qilishi muhim ahamiyatga ega.

Darsda talabalarning erkin, ijodiy ishlari uchun sharoit yaratish kerak. Buning uchun darslarning har bir qismi uchun o'quv materiallarini to'g'ri va aniq tanlash kerak. An'anaviy ta'lim metodlari bilan birga noan'anaviy ta'lim metodlari-interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Interfaol metodlardan foydalanganda o'quvchi – talabaning ijodiy ishlariga imkon berishi g'oyat muhim.

Interfaol metodlar o'quvchida erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchi (talaba)lar bu metodlardan foydalanganda yangi bilim va tushunchalarni tez va mustaqil o'zlashtirib oladilar. Ular o'z fikrlarining to'g'ri yoki xato ekanligini isbot qila oladilar. Interfaol metodlardan foydalanganda quyidagi talablarga amal qilish lozim:

- Dars o'quv dasturi asosidagi ta'limiy tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lmog'i lozim;
- Dars maqsadlari amaliyotdagi tajribalarga asoslanib, metodlar qo'llanilganda to'liq hal qilinishi muhim;
- Metod barkamol shaxsni tarbiyalash mezonlariga asosan axloq-odob me'yorlariga mos kelishi zarur;
- Metod tashkil qilinishi mantiqiy ketma ketlikka ega bo'lishi kerak;
- Interfaol metodlardan foydalanganda didaktik prinsiplarga amal qilingan holda eng kam vaqt sarflashga erishish kerak.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, interfaol metodlardan foydalanib, fanlar o'qituvchisi dars o'tganda, o'quvchi talabalarning alohida va o'ziga xos xususiyatlari to'liq namoyon bo'lishini kuzatadi. Ular ijodiy ishlaydilar, berilgan muammo ustida qo'shimcha manbalar hamda o'z kuzatishlari asosida xulosalar chiqaradilar. Yangi g'oya va fikrlar asosida o'zlariga ishonch, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash sifatleri tarkib topadi. Bunday darslarda belgilangan maqsad va vazifalar to'liq amalga oshiriladi va yakuniy natija kafolatlanadi.

HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA KADRLAR TAYYORLASHNING AXBOROTLASHTIRILGAN TALIM MUXITIDA INNOVATSION YONDASHUVLARI

Egamberdiyev Ilhomjon Yigitaliyevich. – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyatini axborotlashtirilgan talim muxitida yuzaga kelishi, ta'lim tizimini jadallashtirish va samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni to'g'risida so'z boradi

Kalit so'zlar: O'quv jarayoni, ta'lim, innovatsion texnologiyalar, axborotlashtirilgan talim muxiti

Аннотация: В данной статье рассматривается необходимость использования современных педагогических технологий в условиях

информированного обучения, роль современных педагогических технологий в ускорении и повышении эффективности образовательной системы.

Ключевые слова: Образовательный процесс, образование, инновационные технологии, информационная среда обучения.

Abstract: This article discusses the need to use modern pedagogical technologies in an informed learning environment, the role of modern pedagogical technologies in accelerating and increasing the efficiency of the educational system.

Key words: Educational process, education, innovative technologies, information learning environment.

Ayni paytda, ta'limga, tashkiliy, iqtisodiy, pedagogik, uslubiy va texnologik qayta jihozlashga yangi yondashuvlar talab qilinmoqda. Shuning uchun ta'lim tizimi faoliyatini tubdan yangi shakllarda barpo qilish uchun, mamlakatimizdagi ta'lim muassasalari ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga asoslangan ta'lim rivojlanishining strategiyasini loyihalashtirishga, ta'lim xizmati bozorining dinamikasiga ehtiyoj paydo bo'lmoqda.

Ushbu muammoni hal qilishning samarali usullaridan biri ilmiy va innovatsion yondashuvga asoslangan an'anaviy va global tendensiyalar eng yaxshi tajribalar hisoblanadi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlash kerak.", bu xususida yanada yuqori samaraga erishishi uchun muhtaram Prezidentimiz o'z nutqlarida "...umumiy ta'lim maktabini, Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini jiddiy ravishda mustahkamlash, o'quv dasturlarini yangilash, boyitish, zamonaviy darsliklar va maxsus adabiyotlar chiqarishni yo'lga qo'yish zarur ..." deb ta'kidlab keladilar.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilinishi va islohotlarning uzviy davomi sifatida ta'lim sohasida ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Buning yaqqol misoli, Davlatimiz rahbarining "Oliy ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi,

«Respublika oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, qarori, «Fan va oliy ta'lim sohasi xodimlarining mehnat haqi miqdorini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari joriy etilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari ijrosini ta'minlash yuzasidan Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Unda Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibi mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy lavozim maoshlari, miqdorlari belgilandi. Bularning barchasi o'qituvchilar mehnatini yanada qadrlash, soha xodimlariga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik va e'tiborning yorqin namunasidir.

Prezidentimiz bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. Zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin. Mazkur sohani va olimlarni har tomonlama qo'llabquvvatlash davlatimizning ustuvor vazifalaridandir, deb takidladilar. Bu boradagi ishlar bugun izchil va tizimli ravishda davom ettirilmoqda.

Mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasida rivojlanishni ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o'zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi. Bu o'z-o'zidan ma'lumki, kelajakda yosh mutaxassislarning bilimli, malakali kadrlar bo'lib yetishishining omili bo'lib hisoblanadi. «Ta'lim jarayonining didaktik mohiyati» ta'lim jarayonining «yaxlitligi», «tizimlilik» va «majmuaviyligi»ni bir xilda talqin etish mumkin emas, biroq, ta'lim jarayonining yaxlitligi uning tizimlilik bilan uzviy bog'liq.

Shuning bilan bir qatorda zamonaviy dars olib borish uslubiyoti ham ishlab chiqilmoqda va takomillashtirilmoqda.

Jumladan, ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar o'qitish jarayonlarini optimal tashkil etishdir. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab kursant yoki tinglovchilarning dunyoqarashiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl va hajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. Pedagogik texnologiya o'z navbatida ta'lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari va diagnostik maqsadlari asosida o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir, ya'ni fan va texnika yangiliklarini o'zida mujassamlashtiradigan o'quv jarayonidir.

Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda qo'llash bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilashga xizmat qiladi, o'quv mashg'ulotlarining samaradorligi va o'qituvchi (pedagog)lar

mehnatining foydali ish koeffitsientini oshiradi. Boshqacha aytganda, bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish samaradorligini oshirishning muhim sharti-ta'lim jarayoniga tizimli yondashuv va rang barang pedagogik faoliyatdan iborat xizmat ko'rsatish sanaladi.

Ayni davrda ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar – tizimli yondashuvlar asosida o'qitishning shakllarini qulaylashtirish, uning natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun zarur bo'lgan inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro hamkorligini namoyish qiladi. Ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish, o'qitish va o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul, metod va vositalarlarni xilma-xillash, ta'lim va tarbiya jarayonlari mazmunini chuqurlashtirish-bular hammasi ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish demakdir. Vaholanki, takomillashtirishning chegarasi, ya'ni oxiri yo'q, deyiladi. Shunday bo'lgach, pedagogik texnologiyalar ham, pedagogik mahorat ham sarhadsiz tushunchalardir. Bu borada qancha ko'p izlanilsa va qanchalik tashabbuskorlik bo'lsa, shunchalik kamdek tuyulaveradi. O'qitishning eng oddiy va bosh haqiqati ham ana shundadir. O'qituvchilarning faqat ana shu taxlitdagi faoliyati oxir oqibatda yuksak ijtimoiy buyurtmaning bajarilishiga olib keladi.

Ma'lumki, innovatsion texnologiyalar, pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi-kursant faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda ko'proq interfaol usullardan to'liq foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik o'zaro ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu usullarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-kursantlarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi, o'quvchi-kursantlarning erkin o'zaro, bir-biriga ta'siri orqali amalga oshiriladi.

Jumladan, pedagogning shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablar: Talabchanlik, haqqoniylik, halollik, mehribonlik, xushmuomalalik, o'quvchilar bilimlarni xolisona baholash prinsiplari, metodlari va mexanizmlarini bilish, ta'lim oluvchilarni o'zlashtirilishini nazorat qilishning turli shakllarini samarali qo'llay olishdir. Oliy o'quv yurtida qanday dars o'tish kerak? Javobini hamma biladigan savolni qo'yamiz. Muammoni qo'yish, yechimini izlab topish, javoblarni diqqat bilan tinglash. Faollik nima? Nima uchun kerak? Dars qanday shakllanishi lozim? Faollik bu-pozitiv holat, ijobiy, intellektual-ijtimoiy, jamiyatni bilishga harakatga keltirish, o'z fikrini himoya qilish, o'z fikrini ifodalay olish, tinimsiz o'z ustida ishlash natijasi, tashqi va ichki hisni yengish, zavq keltirish va hokazo. Ijodkorlik nima? Nima uchun zarur? Ijodkorlik pedagogning alohida faoliyati, yangicha metod, yangicha fikr. Ijodkorlik nimaga olib keladi -yaxshi mahsulotga, ya'ni samaraga olib keladi. Ijodkor odam-tasavurli shaxs. Nimaga moyil?-qiziquvchan, doimo izlanadigan, o'z ustida

ishlaydigan, mustaqil fikrlashi o'ziga xos, kompetentlik, ziyrak, intuitsiyaga boy, dadil o'z fikrini ayta oladi. Bularni barchasi nimaga olib keladi? innovatsiyaga olib keladi. Bu-innovatsiya. Dars mashg'uloti jarayoni o'quvchi-kursantni fikrlashga, masalaning yechimini bir necha usullar asosida topib undan eng muhimini tanlashni bilishga, ekstremal vaziyatlarni his qila olishga o'rgatishi lozim.

O'quv jarayonidagi vazifaga ko'ra ta'lim vositalari kommunikatsiya (muloqot) va o'quv ishlari vositalariga tasnif etiladi. O'quv ishi vazifa, muammo, masalalarni hal etish, turli mashqlarni bajarish jarayonidir. Ta'lim – kommunikatsiya (muloqot) o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv faoliyati sanaladigan kommunikativ-faoliyatli jarayon. Kommunikatsiya – bu kodlash (o'qituvchi nutqidagi atamalarda), uzatish (yozilish) va o'quvchilarning axborotni qabul qilishi (tushunish va dastlabki eslab qolish). Didaktik vositalar- his qilish, sezish uchun foydalanishiga ko'ra ham tasnif qilinadi. Bunday bog'liqlikka ko'ra didaktik vositalar vizual (ko'rish)– haqiqiy(original) narsalar yoki turli obrazli ekvivalentlari, diagrammalar, kartalar; audial(eshitish) – radio, magnitofon; audiovisual (ko'rish-eshitish) – ovozli filmlar, televidenie, kompyuterlar, didaktik mashinalar, elektron darsliklardir.

Dars maqsadining aniq bo'lishiga erishish uchun o'qituvchidan quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi: darsda yuzaga keladigan didaktik jarayon ma'lum sharoit va belgilangan vaqt ichida ta'lim maqsadiga erishishni to'la ta'minlay olishi; o'qitish jarayonining yakuni bo'yicha maqsadni amalga oshirish darajasi to'g'risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatining mavjudligi.

Demak, innovatsion faoliyat yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga yo'naltirilgan faoliyat sanaladi. U shaxsning, xususan, pedagogning innovatsion jarayonni tashkil etishga tashkiliy – texnologik, metodik va ijodiy jihatdan tayyorligi hisobiga tashkil etiladi. Pedagogik innovatsiyalarning izchil ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklarni olib kirishga imkon berish orqali ta'lim tizimi yoki jarayoni muntazam rivojlanib boradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi hamda u ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu bois har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olsa, ta'lim jarayoni ham, sifat ham samaradorlik nuqtayi nazardan taraqqiy etadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimining rivojini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ma'rifatli va madaniyatli dunyoning ta'lim tajribasi shuni ko'rsatadiki, shaxsning intellektual salohiyati, dunyoqarashi, shuningdek, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishida o'zi mansub bo'lgan muhit hamda

unda qaror topgan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati katta bo'ladi. Shu bois, bilim berish uzluksiz ta'limning eng muhim jabhalaridan hisoblanib, Oliy va o'rta maxsus harbiy ta'lim muassasalarida etishtirilayotgan kadrlar, har jihatdan yetuk, salohiyatli va mukammal bilimga ega bo'lishi jamiyat va davlatning, unda istiqomat qiluvchi fuqarolarning xavfsiz yashashi, faoliyat yuritishida munosib o'rin tutadi.

Bibliografik ro'yxat:

1.O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr O'RQ-637 son Qonuni.

2.O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.– 396 b.

4.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsan javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 102 b

5.Nishonova Z. Mustaqil fikrlashga o'rgatish // Boshlang'ich ta'lim. – Toshkent, 1999. –№ 3. –34- 35 b.

Adabiyotlar ro'yxati .

1. Mirziyoev. SH.M. 30 sentyabrdagi “O'qituvchi va murabbiylarga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Toshkent- 2020.

2.Mirziyoev. SH. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent-2017. O'zbekiston.

3.U.Inoyatov, N.Muslimov, M.Usmonboeva , D.Inogomova. Metodik qo'llanma. Toshkent-2012. 122-bet

4 .SH.Tillavoldiev. G'oyaviy immunitetni kuchaytirish zarurati. Tezis. TDPU -2016 yil. Konferensiya materiallari.

5 .D.Ro'zieva, M.Usmonboeva, Z.Xoliqova. Metodik qo'llanma. Inter faol metodlar mohiyati va qo'llanishi. Toshkent-2013 yil. 8- bet.

ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕСС ОБРАЗОВАНИЯ

*Далакьян Ж.С. ст.преп.кафедры «Узбекского языка и литературы»
Ташкентского архитектурно-строительного университета*

Одной из самых обсуждаемых сегодня тем как в отечественном, так и зарубежном сообществе, предстает внедрение инновационных технологий в образовательный процесс, который протекает в самых различных ракурсах. В современном мире образование играет ключевую роль в развитии современного общества. Однако, с появлением новых технологий и изменением требований рынка труда, важно постоянно обновлять содержание образования и развивать новые компетенции учащихся. Одной из важнейших компетенций, необходимых в будущем, является цифровая грамотность. В условиях стремительного развития информационных технологий и их влияния на все сферы жизни, умение работать с различными программами и устройствами, эффективно использовать информацию из сети Интернет, становится неотъемлемой частью образования. Цифровая грамотность позволяет учащимся эффективно ориентироваться в информационном пространстве, критически оценивать получаемую информацию, а также развивает навыки работы в сети и дает возможность создавать новые инновационные проекты. Помимо цифровой грамотности, важными компетенциями будущего являются:

- креативность и инновационное мышление. Способность мыслить творчески и генерировать новые идеи является неотъемлемой частью успешной карьеры в современном мире. Учащиеся должны научиться применять свои креативные способности в решении задач и поиске новых подходов.

- критическое мышление и аналитические навыки. В условиях информационного общества важно уметь анализировать получаемую информацию, сравнивать различные точки зрения и делать обоснованные выводы.

- коммуникативные навыки. Умение эффективно общаться, слушать и выражать свои мысли является ключевой компетенцией в эпоху информационного общества. Учащиеся должны быть способными работать в коллективе, адаптироваться к различным коммуникационным ситуациям и эффективно использовать.

Следующим этапом становится задача о применении инновационных технологий в процесс образования. Инновационные технологии в предметном обучении можно разделить на две группы:

1. Общие технологии:

- информационно-коммуникационные технологии (ИКТ);
- информационно-аналитическое сопровождение обучения и управление качеством образования;
- дидактические;
- здоровьесберегающие.

2. Технологии, в основу применения которых ставится личностный подход к обучению:

- личностно-ориентированные;
- психолого-педагогическое сопровождение внедрения инновационных технологий;
- мониторинг интеллектуального развития;
- воспитательные;
- технология перспективно-опережающего обучения.

Внедрение информационно-коммуникационных технологий в процесс образования предполагает под собой интеграцию различных областей знаний с информатикой. Это приводит к информатизации мышления учащихся и пониманию ими процессов информатизации в современном мире. К преимуществам ИКТ относятся: наглядность преподаваемого материала, творческий стиль работы, беспрепятственный доступ к любому источнику информации на различные темы, оперативность в обновлении сведений.

Применение данных технологий в деятельности преподавателя позволяет сократить время, затрачиваемое на обработку данных и подготовку к урокам.

Главной целью инновационных технологий образования является подготовка человека к жизни в постоянно изменяющемся мире. Развитие умения самостоятельно ориентироваться в получаемой информации, формирование творческого нешаблонного мышления, развитие детей за счёт максимального раскрытия их природных способностей - основные цели инновационной деятельности. В настоящее время существует множество инновационных технологий. К современным образовательным технологиям относятся: развивающее обучение; проблемное обучение; разноуровневое обучение; коллективная система обучения; технология решения задач; исследовательские методы обучения; проектные методы обучения; технологии модульного обучения; лекционно-семинарско-зачетная система обучения; использование в обучении игровых технологий (ролевые, деловые и другие виды обучающих игр); обучение в сотрудничестве (командная, групповая

работа); электронно-интерактивное обучение; дистанционное обучение; развитие критического мышления.

Одним из наиболее популярных методов на сегодня является дистанционное обучение. Дистанционное обучение – это обучение с помощью технологий, позволяющих получать образование на расстоянии с применением информационных и телекоммуникационных технологий при опосредованном или не полностью опосредованном взаимодействии педагога и учащегося. Дистанционное обучение проводится чаще всего при использовании Интернета. Преимущества дистанционного обучения:

- возможность заниматься в удобное для себя время, в удобном месте и темпе;
- нерегламентированный отрезок времени для освоения дисциплины;
- использование в образовательном процессе новейших достижений информационных и телекоммуникационных технологий;
- равные возможности получения образования независимо от места проживания, состояния здоровья, материальной обеспеченности обучаемого.

Дистанционные технологии позволяют разрабатывать и создавать разные виды заданий для учащихся. Выполненные задания учащиеся могут предоставлять на рассмотрение учителю в любом виде: эссе, таблицы, рефераты, презентации, аудио-, видео-файлы и т.д.

Наиболее распространенной является модель дистанционного обучения, при которой образовательная коммуникация между участниками учебного процесса осуществляется асинхронно, посредством обычной или электронной почты или через web-сайт. Преимуществом является то, что дистанционное обучение дает возможность ученику ликвидировать пробелы в знаниях или углубить свои знания в интересующих их областях, позволяет учителю осуществлять дифференцированную работу с одарёнными и слабоуспевающими учащимися, индивидуально подходить к обучению: ученик сам выбирает время, место работы, имеет возможность не торопиться, привлечь дополнительный материал по теме. Но при всех плюсах использования сайта при дистанционном обучении есть проблемы, с которыми приходится сталкиваться: не все учащиеся имеют дома компьютер и выход в Интернет, недостаточная компьютерная грамотность. Но в любом случае человечество и технологии не стоят на месте, и данного вида проблемы будут поэтапно решаться.

Итак, общие инновационные технологии включают в себя целый арсенал методов. В большинстве своем они основываются на применении достижений науки и техники. В основе их использования лежат принципы технологизации и

информатизации процесса обучения. Неотъемлемой целью является развитие творческих способностей всех участников образовательного процесса и вариативности мышления.

Литература:

1. Алексеева, Л. Н. Инновационные технологии как ресурс эксперимента/ Л. Алексеева// Учитель. — 2009г. — № 3. — с. 28.
2. Загвязинский// Инновационные процессы в образовании: Сборник научных трудов. — Тюмень, 2013г. — с. 8.

RAQAMLI TEXNOLOGIYLA SHAROITIDA OLIY TA'LIMNING TRANSFORMATSIYASI

To'yeva Muhayyo Shuhrat qizi

TDPU "Ijtimoiy fanlar" kafedasi stajor-tadqiqotchi o'qituvchisi

Annatsiya: Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar kundalik hayotning ajralmas bo'lagiga aylanib borayotgani hech kimga sir emas, zero bu masalada ta'lim muassasalari asosiy o'rinni egallaydi, raqamli texnologilarni o'quv jarayoniga olib kirish va ulardan unumli foydalanmog'imiz zarur. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoning har bir jabhasida asosiy rol o'ynaydi, ma'muriy masalalarda to online tarzda uy vazifalarini bajarishgacha qo'llanilmoqda. Bugungi talabalar raqamli dunyoda ulg'ayishdi va kundalik hayotlarida

Kalit so'zlar: Intelekt, siyistema, raqamli texnologiya, ta'lim sifati, reyting, taxlil, sintez, integratsiya, loyihaklash, modellashtirish

Аннотация: Не секрет, что в современном мире цифровые технологии становятся неотъемлемой частью повседневной жизни, поскольку образовательные учреждения играют в этом вопросе ключевую роль, необходимо привлекать цифровых технологов в образовательный процесс и эффективно их использовать. Цифровые технологии играют ключевую роль во всех аспектах образовательного процесса.

Ключевые слова: Интеллект, система, цифровые технологии, качество образования, рейтинг, анализ, синтез, интеграция, проектирование, моделирование.

Abstract: It is no secret that in the modern world digital technologies are becoming an integral part of everyday life, since educational institutions play a key role in this matter, it is necessary to involve digital technologists in the educational

process and use them effectively. Digital technologies play a key role in all aspects of the educational process.

Key words: Intelligence, system, digital technologies, quality of education, rating, analysis, synthesis, integration, design, modeling.

*“Agar biz kecha o’qitganlarimiz kabi
bolalarimizni o’qitsak, biz ularni
kelajagini o’g’irlagan bo’lamiz”.*
Jon Dyu, Faylasuf va ta’lim islohatchisi.

So’ngi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal suratlardarivojlanib borayotganligi, ish beruvchilar tomonidan AKTga doir kompetensiyalar talab etilishiga juda qattiq ta’sir ko’rsatdi. Mutaxassislarining fikriga ko’ra, raqamli kompetensiya hayotning barcha sohalarida axbarot jamiyati texnologiyalaridan ishonchli va tanqidiy foydalanishni nazarda tutadi⁶. Endi nafaqat kompyuterdan, balki sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishni bilish ham eng zaruriy talablardan biriga aylanib borayotganligini ko’rishimiz mumkin. “Raqamli” atamasining kelib chiqishiga ko’ra lotin va ingliz tillariga taalluqli holda “digital” so’zidan olingan “raqamlardagi ma’lumotlar, signal”, qadam ba -qadam⁷ ma’nolarida ketma-ketlikni bildiruvchi, sifat darajasini anglatadi. Sun’iy intellekt elementlariga foydalanuvchilar juda ko’p, tez-tez murojaat etishlarining o’zidayoq, ularning hayotlarida muhim ahamiyat kasb etayotganligini ko’rishimiz mumkin. Misol tariqasida kundalik turmushda tez-tez ishlatiladigan Google qidiruv roboti yoki Youtube video xostinglarini ham misol qilish mumkin. Siz qidirib topib tomosha qiladigan videoroliklar aslida raqamli tavsiflarni yig’ib olgan robot, Sizga ma’qul kontentni qidiruvni boshlashingiz bilan tavsiya qiladi.

O’tib borayotgan yillarda butun dunyoda Data science (Ma’lumotlar ilmi) yo’nalishi yuqori sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Mazkur yo’nalish o’z ichiga bir necha katta yo’nalishlarni qamrab olgan. Bular: sun’iy intellekt (AI), Mashinani o’rgatish (ML), Data analitika. Qayd etilgan yo’nalishlarni rivojlantirish uchun, albatta, har birini chuqur tadqiq etish zarur. Ammo biz ilmiy izlanishimizda ko’proq pedagogik ko’rsatkichlarni tahlil qilish orqali ta’lim sifatini oshirish yo’nalishini tanladik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida” 2022-yil 22 avgustdagi PQ-357-son qaroriga muvofiq,

⁶ Тоджибаева К. С. К. Формирование мотивационной сферы нравственных качеств учащихся //Проблемы педагогики. – 2017. – №. 4 (27). – С. 14-16.

⁷ Duden. Das Fremdwörterbuch. Mannheim. 1997. - 191 б

shuningdek, yoshlar orasida axborot texnologiyalari bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish, iqtisodiyotning turli sohalarida raqamlashtirishda faol ishtirok etadigan iqtidorli yoshlarni tayyorlash maqsadida 2023-yil 19-mayda Vazirlar Mahkamasi tomonidan №206-sonli qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulug'bek" jamg'armasi hamda Toshkent shahridagi Inha universiteti ishtirokida respublika davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichida (barcha ta'lim shakli bo'yicha) 2-kursni muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarni raqamli texnologiyalar sohasida malakasini oshirish maqsadida "Mirzo Ulug'bek vorislari" tayyorlov o'quv kurslariga tanlov e'lon qilindi. Bugungi kunda amalga oshirayotgan ishlar va qonun va loihalar albatta o'z ko'zlagan maqsadiga erishishida biz pedagoglardan yosh mutaxassislariga mukammal bilim berish talab etiladi.

O'zbekiston sharoitida oliy ta'limning sifat darajasini qanday ko'tarish mumkin? Baholashning kredit tizimi sifat darajasini butun dunyo ish beruvchilari tan olishi uchun ta'limning ayni qaysi jihatlari va ko'rsatkichlarini yaxshilash kerak? Raqamli ta'limda sifat ta'minoti va ish beruvchi talablariga moslashish qay tarzda amalga oshirilishi zarur degan savollar hammamizni o'ylantirishi aniq ayni vaqtda dolzarb sanaladigan savollar hisoblanadi.

Yurtimizda ta'lim sifatini nafaqat auditoriyadagi darslar sifatiga, balki ta'lim xizmatini iste'mol qiluvchi har bir insonning ijtimoiy tarmoqlarda qoldiradigan raqamli izlariga, uning ijtimoiy, raqamli va boshqa faolligi asosida shakllantiradigan axborotni tahlil qilish orqali ta'minlash zarurligi ham ayni haqiqatdir. Har bir foydalanuvchi tarmoqlarda milliardlab xabarlar joylashtiriladi, butun sayyora bo'ylab elektron pochta qutilari kiruvchi va chiquvchi xatlar bilan gavjum. Biz kundalik turmushimizda foydalanadigan internet do'konlar, to'lov tizimlari va davlat raqamli xizmatlarini hisobga olmaganimizda ham internetga ulangan har bir kompyuter terabayt hajmidagi ma'lumotlarni generatsiya qiladi.

Afsuski, bugungi kunda generatsiya qilinadigan ma'lumotlar hajmiga nisbatan o'sha ma'lumotlarni tahlil qila oladigan yoki qayta ishlash uslublarini o'zlashtirgan mutaxassislar juda ham kam bo'lishiga qaramasdan. Bunday hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun kuchli dasturchi yoki noyob analitik bo'lish shart emasligi va shunchaki raqamli texnologiyalardan xabardor bo'lishi, internetdan foydalanayotganda internet madaniyatiga ega bo'lish talab etiladi.

L.F.Solovev "multimediali interaktiv darsliklarning, amaliy mashg'ulotlarni o'rgatishda katta ahamiyat kasb etishi, ularning tarkibini tanlash maqsadga muvofiqligi, o'quv materiallarini tashkil etish va taqdim etish yo'llarini, estetik va axloqiy xususiyatlarini, darsliklardan foydalanish usullarini, tashkiliy mexanizmlarini

ishlab chiqish lozimligi”⁸ haqida fikr yuritar ekan talaba yoshlar va professor ustozlardan nafaqat raqamli texnologiyalar haqida bilim va tajribaga ega bo’lish shu bilan birgalikda keng dunyoqarash, etik va estetik bilimlarga egalik ham muhim ahamiyat kasb etishi takidlanadis.

Pedagogika sohasini yangi sifat bosqichiga olib chiqish uchun, sifatli soha mutaxassislarini tayyorlashning mazmuni, shakli va uslubini ham innovatsiyalarga asoslangan holda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun pedagogika sohasida bo’lajak o’qituvchilar tayyorlash tizimining dasuriamal bosqichida, davlatimizning ta’lim mazmuni va sifat ko’rsatki oldiga qo’ygan talablari asosida takomillashtirish lozimligini barchamiz keng va chuqur o’lamog’imiz zarur.

Bu haqda, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”⁹ qarorda quyidagilar pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari etib belgilangan: – tarbiya va o’qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o’zlashtirgan, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash ko’nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash; – pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo’lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni – maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish; – pedagogik ta’lim sohasining ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari bo’yicha o’quv reja va dasturlarini ilg’or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o’quv – me’yoriy va ta’lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish; – sohada ta’lim, ilm – fan va ishlab chiqarish uyg’unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish; – pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam o’rganib borish, ular bilan o’zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan istiqbolli rejalarini belgilash va ularni amalga oshirish; – oliy pedagogik ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborotkommunikatsiya va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo’shimcha sharoitlar yaratish; – pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish; – pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, sohadagi xalqaro hamkorlikni – yanada kengaytirish; – yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko’nikmaga ega, tarbiya, o’qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog

⁸ Соловьева Л. Ф. Компьютерные технологии для преподавателя // 2-е изд., перераб. и доп. – СПб.: БХВ-Петербург, 2012. – 454 с.

⁹ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022– 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo’yicha milliy dasturni tasdiqlash to’g’risida”gi PF-134-sonli Farmoni (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y., 06/22/134/0407-son)

kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish maqsad qilib qo'yilgani hech kimga sir emas albatta.

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar zamonaviy jamiyatimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi va hayotimizning ajralmas bo'algiga aylandi, jamiyatimizning turli sohalariga, jumladan, ta'lim sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy ta'limda raqamli pedagogika tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, bu professional ta'lim muassasalari o'qituvchilaridan kadrlar tayyorlash va ta'limda raqamli vositalar va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha yangi kompetensiyalarni rivojlantirishni taqazo etmoqda. Biroq raqamli muhitda o'quv jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchilar tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ham talab etiladi. Ushbu maqolada o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradigan omillar o'rganilib chiqildi. O'zbekistonning ko'plab maktablarida elektron kundalik va jurnallar, interaktiv elektron doskalar, kompyuter, planshetlar, videokameralardan ta'lim va tarbiya jarayonida unumli foydalanilib kelinmoqda.

Ta'limdagi zamonaviy tendensiyalardan biri bu raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga kirishi. Ta'lim jarayonini raqamlashtirish faqat raqamli texnologiyalardangina foydalanishdan iborat emas. Internet, mobil ilova va turli platformalar orqali online va offline tarzda amalga oshiriladigan ta'limda pedagogning moslashuvchanligi, ularni individuallashtirish, oliy ta'limning ijodiy xususiyatini oshradigan yangi ta'lim modelini yaratish kabi muhim vazifalar maqolamizning salmog'ini oshiradi. Zamonaviy davr raqamli resurslarning keng tarqalishi va ulardan foydalanish bilan yasniflanadi.

References

1. Тоджибаева К. С. К. Формирование мотивационной сферы нравственных качеств учащихся // Проблемы педагогики. – 2017. – №. 4 (27). – С. 14-16.
2. Duden. Das Fremdwörterbuch. Mannheim. 1997. - 191 б
3. Соловьева Л. Ф. Компьютерные технологии для преподавателя // 2-е изд., перераб. и доп. – СПб.: БХВ-Петербург, 2012. – 454 с.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022– 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli Farmoni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y., 06/22/134/0407-son)

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM SOHASIDAGI MUVAFFAQQIYATLARI

*Toshkent davlat pedagogika universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi,
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs magistri Turg'unboyeva Dilyoraxon*

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni joriy qilishga e'tibor, ularning ta'lim sohasidagi dolzarbliligi, ta'lim tizimida undan foydalanishning ustunliklari va hozirgi kundagi natijalari keltirilgan. Zamonaviy ped-texnologiyalardan unumli foydalanish tarbiyalanuvchilar hayoti va faoliyatida nechog'lik dolzarbliligi tasvirlangan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, raqamli avlod, zamonaviy metodlar, pedagogik mahorat, innovatsiya, an'anaviy ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim jarayoni, axborot, sifatli ta'lim.

Abstract: This article focuses on the introduction of digital technologies, their relevance in the field of education, the advantages of its use in the educational system, and its current results. The importance of efficient use of modern ped-technologies in the life and activities of the students is described.

Key words: digital education, digital generation, modern methods, pedagogical skills, innovation, traditional education, modern technologies, educational process, information, quality education.

Аннотация: В данной статье речь идёт о внедрении цифровой технологии, их актуальность в сфере образования, преимущества его использования в системе образования и настоящем преимуществе. Описано насколько важно эффективное использование современных пед-технологии в жизни и работе студентов.

Ключевые слова: цифровое образование, цифровое поколение, современные методы, педагогические навыки, инновация, традиционные образование, современные технологии, процесс обучения, информация, качественное образование.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda yashar ekanmiz, yaratilgan har bir sohada rivojlanish va yangi bosqichga ko'tarilishga guvoh bo'lamiz. Shu bilan birga aynan shu jarayonda o'zimiz ham bevosita va bilvosita ishtirok etamiz. Insoniyat hayotidagi barcha yo'nalishlarga raqamli texnologiyalarning joriy qilinganlari insonlar yashash turmush-tarzi va ish faoliyatini sezilarli darajada yaxshiladi. Bu haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev uning joriy etilishidagi ahamiyatini ta'kidlab shunday deganlar: „ Barqaror rivojlanishga erishish uchun biz raqamli bilimlarni va

axborot texnologiyalarini chuqur o'zlashtirishimiz kerak, bu esa bizga har tomonlama rivojlanishga erishish uchun eng qisqa yo'ldan borishimizga imkon beradi. Bugungi dunyoda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Darhaqiqat, texnologiyalar ta'lim tizimida bir qancha qulayliklar va yengilliklar yaratdi. Axborot texnologiyalari bilimni keng miqyosda tarqatish va uni samarali o'zlashtirishni ta'minlash maqsadida paydo bo'ldi va ta'lim islohotlarining bugungi kundagi asosiy harakatlantiruvchi bosh markazi desak adashmaymiz. Mobil qurilmalar, aqlli doskalar, kompyuterlar, skaner, electron pochta, planshetlar, videokamera, vizualizatsiya va virtual laboratoriyalar kabi gadjetlar va yangi innovatsiyalarning maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar va oliygohlarda keng ko'lamli qo'llanilishi ta'lim sifati va samaralilik darajasini oshirdi.

Ta'lim tizimimizning hozirgi holati shu kungacha qo'llanilib kelgan an'anaviy ta'lim tizimimizning ko'plab kamchiliklariga barham berdi. Ta'lim oluvchilar tomonidan egallanishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar an'anaviy usul va texnikalarga qaraganda zamonaviy texnologiyalar bilan anchagina vaqtni tejashga xizmat qiladi. Bu kabi texnologiyalar o'quvchilar bilimlarini qulay tarzda egallash, rivojlantirish va tarqatish vositalarini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fan mazmun doirasini chuqurlashtirish va kengaytirish, yuqori samarali o'qitish usullarini qo'llash imkonini beradi.

Avvalo, texnologiyalar qo'llanilmasdan avvalgi ta'lim tizimimizga e'tibor qaratadigan bo'lsak:

1. Ma'lumot bazasining kamligi.

Ta'lim oluvchilar faqatgina darsliklar bilan yoki o'qituvchi tomonidan berilgan qo'llanma bilan chegaralanib qolishi. Bu mavzuning yetarlicha tushinilmasligiga, tushinish darajasi past bo'lishiga va dunyoqarashning sezilarli darajada kengaymasligiga sabab bo'lgan. Bundan tashqari, hozirgi kunda judayam zarur bo'lgan kreativ qobiliyatni rivojlanishida mavzuga qo'shimcha manbaning topilmasligi va taqqoslab o'rganishning imkoniyatining yo'qligi oqibatida bu qobiliyatning o'ta past darajada shakllanishi.

2. O'quv jarayonidagi birxillik.

Texnologiyalar yo'qligi oqibatida dars jarayonida qo'llaniladigan metod uslublarda yangiliklar yo'qligi oqibatida ta'lim oluvchilarning mavzuga nisbatan befarqligi va buning o'zlashtirish darajasiga nisbatan salbiy ta'siri

3. Vaqt tanqisligi.

Darsga oid materiallar, ma'lumotlar va topshiriqlarning yetkazishda ko'p vaqt sarflanishi oqibatida asosiy maqsad bo'lgan yangi bilimni berishga kam vaqt qolganligi yoki ba'zan, hattoki yetmay qolishi

4. O'qituvchining fokusi noto'g'ri yo'nalishi.

O'zlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida o'tkazilgan nazorat ishlari va yozma ishlar tekshirilishiga e'tibor berilishi maqsadida, mavzuga yaxshi tayyorlanmaslik va talab darajasida yetkazib berolmaslik.

5.Noqulayliklar.

Ta'lim jarayonida kerak bo'ladigan materiallarni (katta hajmadagi kitoblar, qo'llanmalar, o'quv materiallari va hk) olib yurishdagi noqulayliklar.

Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish bir qancha natijalar beradi. Jumladan:

1. Bilim va axborotni turli ko'rinishda (matn, multimedia, animatsiya,grafika, jadval, video, ovoz va hk) ko'rinishlarda taqdim etilishi ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan obyektga nisbatan qiziqish uyg'otadi va ularni osonlikcha jalb qiladi.

2. Bilimni keng va mukammal o'zlashtirish imkoniyati va uni qabul qiluvchi xotirasida uzoq muddat saqlanishi, zarur paytlarda amaliyotga qo'llash darasi ortadi.

3. Ta'lim oluvchilar egallagan bilim, ko'nikmalar asosida didaktik topshiriqlar, test savollari, muammoli vaziyatga bergan javoblarini, o'zlashtirish darajalarini tekshirib hisoblab beradi (bu jihat orqali o'qituvchi faqat ularni bilimlarini tekshirish uchun vaqt sarflamaydi, o'rniga ko'proq ma'lumot berishga muvaffaq bo'ladi).

4. Dars jarayoni to'liq va yangidan modifikatsiyalanadi, ya'ni vaqt tanqisligi muammosining oldi olinadi(tashkiliy ishlar, topshiriq tuzish ishlari o'qituvchi zimmasidan olinib , birxillikdan qochish ta'minlanadi).

5. Ma'lumot bazasining kengligi va turli tumanligi tufayli, barcha axborot bazalaridan o'qitilayotgan fanga oid axborotlar va yangiliklardan xabardor bo'lish imkonini beradi

6. Ta'lim oluvchining faol ishtirokini ta'minlaydi, mustaqil ta'lim olish imkoniyati paydo bo'ladi va o'qituvchi bilan erkin muloqotga kirisha oladigan shaxsga aylanadi.

Bundan tashqari raqamli ta'lim:

- a) Istagan joyingizda va istagan vaqtingizda ta'lim olish;
- b) vaqt va moddiy xarajatni kamaytirish;
- c) cheksiz va turli axborot olish;
- d) professional tarzda o'rganib, zamonaviy kasblarni egallash;
- e) rivojlangan davlatlar bilan tenglasha olish;
- f) barcha sohadagi tizimlarimizni yangi pog'onaga ko'tarish uchun keng yo'l ochdi.

Ta'limda axborot texnologiyalarining keng ko'lamda joriy etilganidan so'ng, ushbu sohadagi muvaffaqiyatlar barchamizga sir emas. Ta'lim samarasini yanada yaxshilash va bu yutuqlar sonini yanada ko'paytirish maqsadida davlatimizda yurtboshimiz tomonidan bir qancha loyihalar va dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Jumladan, har bir viloyat va tumanlarda IT-parklarning tashkil topishi, har bir o'quv maskanlarining zamonamizning eng so'nggi axborot texnologiyalari bilan to'liq ta'minlanishi va bunday loyihalarning tez-tez o'tkazilib turilishi yoshlarning raqamli texnologiyalardan unumli foydalanishi, yuqori darajada o'zlashtirishiga va bu sohada yutuqlarga erishishiga sabab bo'ladi. Bunday loyihalardan biri sifatida joriy yilning oktyabr oyida o'tkazilgan keng qamrovli „President tech award“ loyihasini misol qilishimiz mumkin. Ushbu tanlovda umumiy jamg'armasi 1 million dollarni tashkil etuvchi tanlov g'oliblariga pul mukofotlari natijalarga qarab taqdim etildi. Bundan tashqari „Raqamli texnologiyalar vazirligi stipendiyasi“ kabi tanlovlarning amalga oshiriliyotganligi bu ushbu sohani rivojlantirishga bo'lgan e'tibor va talabning ifodasidir.

Ma'lumki, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulotlar va xizmatlar sifatini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi, balki meni juda qattiq tashvishga soladigan eng jiddiy muammo – korrupsiyaga qarshi kurashda ham samarali vosita hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi davlat va jamiyat boshqaruvining samaradorligini oshirishga, bir so'z bilan aytganda, odamlar hayotini tubdan yaxshilashga yordam beradi, Sh.Mirziyoyev.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, raqamli texnologiyalarni turli sohalarga, ayniqsa, ta'lim sohasiga joriy qilinishi mamlakatimiz ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni samarali qo'llash orqali bugungi kun tarniyalanuvchilariga, ya'ni raqamli avlodga moslashtirish orqali mavjud tizimni yuqori pog'onaga ko'tarish oliy maqsadimiz ekanini har bir pedagog yaxshi anglashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. 27-yanvardagi IT sohasini va IT-Parklarni rivojlantirishga bag'ishlangan nutqi. Toshkent-2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. 15-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun „Raqamli texnologiyalar yo'nalishida eng yaxshi startap“ (President Tech Award) tanlovini o'tkazish tartibi tog'risidagi qarori. Toshkent-2023.
3. Yuldashev U.A., Xudoyberdiyev, M.Z., & Axmedov, T.B. (2021). O'quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. // Academic research in educational sciences, 2(3).
4. Yo'ldashev U.A. Use of video lesson creative technologies in the process of electronic education // Scientific Methodical Journal. T-2021.

5. Raqamli texnologiyalar va ta'lim istiqbollari. Konferensiya materiallari. Qo'qon-2021.

6. Babaraximova D. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llashning ilmiy-pedagogik masalalari. Toshkent-2022

RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN XOLDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI O'ZIGA XOS JIHATLARI.

Alfraganus universiteti pedagogika fanlari nomzodi dotsent v/b Ongarov Mansurbek Bayrambekovich

Buxoro innovatsiyalar universiteti magistri Buronova Sitora Tohir qizi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalardan foydalangan holda hususan integratsiyalashgan fanlarni o'qitish orqali o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini yanada teranroq ularni ongiga singdirish maslalariga e'tibor berilgan. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish uchun avvalo qaysi darslar integratsiyalash uchun mos kelishini aniqlab olish kerak.

Aynan ana shunday darslarda o'quvchilarda jonli mushohada va idrok rivojlanadi, estetik did va dunyoqarashi oshadi. Ona tiliga, tabiatga, adabiyotga, musiqaga bo'lgan ijobiy munosabat shakllanadi, dunyoqarashi boyiydi, shakllanadi.

Maqolada o'quvchilarga aynan raqamli texnologiyalardan foydalangan holda turli fanlardan misollar keltirilgan va o'quvchilar tushinib olishiga imkonini beradi.

Tayanch tushunchalar: raqamli texnologiya, ko'nikma, madaniyat, mediasavodxonlik, ta'lim, usul, muommo, shaffoflik, raqamli ta'lim, tafakkur, raqam, mantiq, o'qituvchi, didaktika va boshqalar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы углубления знаний, умений и навыков учащихся путем преподавания интегрированных предметов с использованием цифровых технологий. Чтобы организовать интегрированные уроки, в первую очередь необходимо определить, какие уроки подходят для интеграции.

Именно на таких уроках у учащихся развивается живая наблюдательность и восприятие, повышается их эстетический вкус и мировоззрение. Формируется положительное отношение к родному языку, природе, литературе, музыке, обогащается и формируется мировоззрение.

Ключевые понятия: цифровые технологии, навыки, культура, медиаграмотность, образование, метод, проблема, прозрачность, цифровое образование, мышление, число, логика, учитель, дидактика и др.

Abstract: This article discusses the issues of deepening the knowledge, skills and abilities of students by teaching integrated subjects using digital technologies. To organize integrated lessons, you first need to determine which lessons are suitable for integration.

It is in such lessons that students develop keen observation and perception, and their aesthetic taste and worldview increase. A positive attitude towards the native language, nature, literature, music is formed, the worldview is enriched and formed.

Key concepts: digital technologies, skills, culture, media literacy, education, method, problem, transparency, digital education, thinking, number, logic, teacher, didactics, etc.

Raqamli ta'lim texnologiyalariga asoslangan xolda integratsiyalashgan darslarni tashkil etish uchun avvalo qaysi darslar integratsiyalash uchun mos kelishini aniqlab olish kerak. Bunday darslarning asosi turli fanlar asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalarida ko'rinadi.

Didaktik tizimda fanlar-aro integratsiyalash o'qituvchi (ta'lim berish) va o'quvchi (ta'lim olish) harakatlarining mos kelishini ko'zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat shakllari olib boriladi. Biroq o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining mazmunida bir necha farqlarni keltirishimiz mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning quyidagi bosqichlari mavjudligi aniqlandi:

1-jadval

	Bosqich nomlari	Amalga oshiriladigan vazifalar mazmuni
	Maqsadli bosqich.	O'qituvchi umumiy maqsadni qo'yadi. O'quvchilar o'qituvchi boshchiligida predmetlararo bog'liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari kerak, bunda ular e'tiborlarini, fikrlarini faqat umumiy bilimlarni o'zlashtirishga emas balki, ko'chirish tahlil qilish shaxsning belgilari qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratishlari kerak.
	Isbotlash bosqichida	O'qituvchi o'quvchilarni dunyoqarashini o'stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag'barlantiradi. O'quvchilar o'z irodalarini dunyoqarashini kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo'naltiradilar.
	Mazmunli bosqichi	O'qituvchi yangi o'quv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmui

		darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O'quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o'zlashtiradilar.
	Vositalar ni tanlash bosqichi	O'qituvchi bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi turli predmetlarni, ko'rgazmali vositalarni, darsliklarni, jadvallarni, savolnomalarni, amaliy vazifalarni tanlaydi. Bu vositalar o'quvchilarga ko'chirish, umumlashtirish, biriktirish xarakteridagi integratsion masalalarni hal qilishga yordam beradi.
	Natijali bosqich	O'qituvchi ta'lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo'llaydi. O'quvchi bilimlar tizimida, umumlashtirib ularni amalda qo'llaydi.
	Nazorat qilish bosqichi	O'qituvchi bir-biri bilan bog'langan predmetlarga o'quvchilarning tayyorgarligini nazorat qiladi, o'zlashtirishlarini baholaydi. O'quvchilar o'z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo'yicha o'z-o'zini ham, ularni birlashtirish ko'nikmalarini ham nazorat qiladilar.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida boshlang'ich ta'limda integratsiyani amalga oshirishga yordam beruvchi usul va vositalar aniqlandi:

2-jadval

№	Usul va vositalar nomi
1.	Evristik suhbatlar.
2.	Umumiy suhbatlar.
3.	Ekskursiyalar.
4.	Ona tili, tabiatshunoslik darslarida kuzatishlar, badiiy asar materiallari asosida nutq o'stirish uchun yozilgan ijodiy ishlar.
5.	Ta'limning ko'rgazmali metodlari.
6.	Mustaqil ishlar.
7.	O'qish, matematika darslarida og'zaki rasm chizish.
8.	Imo-ishorali ko'rinishlar (pantomimlar).
9.	Tabiatshunoslik darslarida tabiat tasvirlarini ifodali o'qish.
10.	Ona tili darslarida tabiatshunoslikka oid diktantlar, matnlar yozish (shu sinfga tegishli orfogrammalarni takrorlagan holda).
11.	O'lkashunoslik asosida matematik masalalarni hal qilish, yechish va

Ta'limni tabaqalashtirishni rad etmaydigan, uni to'ldiradigan integratsiyani ta'lim tizimiga kiritish, jamiyatga yaxlit dunyoqarashga, o'zidagi bor bilimlarini mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga noan'anaviy yondoshish qobiliyatiga ega bo'lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalab, kamolga yetkazishda an'anaviy predmetlarga bo'lib o'qitishga nisbatan ko'proq yordam beradi.

O'quvchilar nutqini "Tabiatshunoslik" hamda "Ona tili" fanidan atamalar bilan boyitishda berilgan umumiy ma'noli atamalarning xususiy ma'nolarini topish, ularni esa o'z navbatida, muayyan uyadosh so'zlarga ajratish, "Tabiatshunoslik" sohasiga oid atamalarning ma'nosini sharhlash va izohlash, bunday atamalarning kichik izohli lug'atini tuzish, berilgan atamalar uyasini davom ettirish, atamalarni alifbo tartibida joylashtirish, har ikki fanga oid atamalarning talaffuzi va imlosi ustida ishlash singari ijodiy-amaliy ishlar nutqini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Ayniqsa, berilgan maqollardan "Tabiatshunoslik" faniga oid atamalarni topish, ularni izohlash, ular asosida matnlar yaratish, bunday matnlarni dialoglarga aylantirish kabi ish turlari o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga imkon yaratadi.

Subekt fikr bayon etishi uchun uning o'z so'zlari bilan qayta hikoya qilishga doir mashqlar bajartiriladi. Bunday mashqlar o'quvchilarning nutqiy malakasini oshiradi, berilgan topshiriqqa ijodiy yondashtiradi, ularni fikrlashga undaydi. O'quvchilarning nutqiy ta'sirchan, mantiqiy jihatdan asosli, yoqimli bo'lishi uchun ularning nutq ijodlariga to'liq erkinlik berish taqozo etiladi. Buning uchun esa darsda xalq maqollaridan foydalanish ham samarali usul hisoblanadi.

Ma'lumki, shaxs kamolotida axloqiy, ekologik, nafasat, iqtisodiy kabi tarbiya turlari ta'sir etadi. Ana shu tarbiyani amalga oshirishda integratsiyadan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz.

Tog'larda, dam olish joylarida gulxan yoqish mumkin emas. Chunki, gulxanlardan ko'pincha yong'in chiqib, odam uchun qimmatli bo'lgan o'simliklarga emas, balki hayvonlar ham nobud bo'ladi, degan satrlar berilgan.

Ta'limni raqamlashtirishning mazmunini birinchidan, axborot va kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish orqali o'quvchilarga ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishni, ikkinchidan, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirish va qo'shimcha ta'lim resurslaridan foydalanishni tashkil etish orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlariga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quv jarayonida mustaqil ta'lim salmog'ini ortishi yangi ta'lim resurslaridan foydalanishni taqozo etadi. Ta'limda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, eng avvalo, pedagogik-psixologik talablarga javob berishi kerak. Pedagogik va psixologik talablarga uyg'un bo'lgan raqamli texnologiyalarni qo'llash uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

– taqdim etilayotgan axborot resurslari ishonchli, tegishli fanning hozirgi zamon holatiga mos, tizimli va ketma-ket, ko'rgazmali, amaliyot bilan bog'langan bo'lishi;

– o'quv materiallari ilmiyligi va qabul qilinishi osonligining o'zaro optimal variantida berilishi;

– o'quv-metodik materiallarining bayon etilishi shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Axborot-ta'lim resurslari dasturlarning mazmuniga mos bo'lishi bilan birga o'quvchilarda zarur ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi topshiriqlar va vazifalardan tashkil topishi, o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar hajmini aniqlashi, ma'lum bir mantiqiy tizimda taqdim etilishi, uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga mos kelishi, nihoyat, tizimlilik tamoyiliga javob bera olishi zarur. Shuningdek, ta'lim resurslari o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga mos bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Texnologik jihatdan ta'limda axborot va raqamli texnologiyalarni qo'llash quyidagi talablarga javob berishi lozim:

– giper murojaatlarning mavjudligi;

– hamkorlikdagi faoliyatni ta'minlashi;

– o'zida mavjud resurslarni boshqarishi;

– foydalanuvchilarni boshqarishi;

– nazorat olib borishi;

- bilimlarni boshqarishi;
- kommunikasiyani ta'minlashi;
- qidiruvni ta'minlashi;
- ruxsat etilmagan kirishdan barcha resurslarni himoyalashi, ya'ni axborot xavfsizligini ta'minlashi;

–barcha o'quvchilar uchun qulay usullar orqali axborotlardan foydalanish imkoniyatini yaratishi;

–o'quv materialining mazmuni izchil va mantiqiy ketma-ketlikni buzmaganda holda joylashtirilishi zarur.

Ta'lim berishda axborot va raqamli texnologiyalarni yaratish va qo'llash quyidagi kontseptual tamoyillarga ega bo'lishi lozim deb hisoblaymiz:

1. **Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili.** Axborot va raqamli texnologiyalar orqali fan bo'yicha axborot-ta'lim resurslarini taqdim etadi va ta'lim oluvchilar, ta'lim muassasasi, ta'lim xizmatlari buyurtmachilari, ta'limni boshqarish organlari uchun axborot-ta'lim manbai bo'lib xizmat qiladi.

2. **Integrasiya tamoyili.** Axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali pedagogik ta'lim muassasasining integrallashgan axborot-ta'lim resurslari yagona manzilda joylashtiriladi, shuningdek, ta'lim muassasasi resurslariga alohida murojaat yo'li ham ajratib ko'rsatiladi.

3. **To'laqonlilik tamoyili.** Axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sohasi bo'yicha o'quv-me'yoriy, metodik hujjatlar, ilmiy faoliyat, tarbiyaviy faoliyati tashkil etish to'laqonlilik ta'minlaydi.

4. **Yaxlitlik tamoyili.** Axborot va raqamli texnologiyalar markazlashtirilgan boshqaruv orqali axborot-ta'lim resurslarini taqdim etadi, resurslarini rivojlantirish pedagogik ta'lim muassasalarining resurslarini tahrirlash va joylashtirish yagona tizim asosida amalga oshiriladi.

5. **Ochiqlik tamoyili.** Axborot va raqamli texnologiyalar pedagogik ta'lim sohasi bo'yicha ma'lumotlarni ochiq taqdim etish tizimini yaratadi va birinchi navbatda, pedagogik axborot-ta'lim resurslarining ochiqlikini ta'minlaydi.

Axborot va raqamli texnologiyalar joriy etish quyidagi 3 bosqichni o'z ichiga oladi:

– mazmun bosqichi – bu bosqichda Axborot va raqamli texnologiyalarni qo'llashning axborot-ta'lim resurslarini shakllantirish va uning axborot ta'minoti mazmuni yaratiladi;

– tashkiliy bosqich – bu bosqichda Axborot va raqamli texnologiyalarni qo'llashning texnik jihatlari bilan bir qatorda, foydalanuvchilarning toifalarini

aniqlashtirish, mavjud resurslarni tizimlashtirish va yangilab borish mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim muassasalaridagi mavjud resurslarni integrasiyalash, masofaviy ta'limni tashkil etish, axborot-ta'lim resurslariga bo'lgan talabni aniqlash maqsadida axborot va raqamli texnologiyalari foydalanuvchilari bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil etish amalga oshiriladi;

– metodik ta'minot bosqichi – bu bosqichda axborot va raqamli texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini ishlab chiqish, maslahat xizmatlarini bajarish yo'lga qo'yiladi.

Yuqoridagi mulohazalar asosida quyidagi xulosaga kelindi. Hozirgi rivojlanib borayotgan davrni raqamli texnologiyalarsiz, Internet tizimlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yurtimizning har bir sohasida raqamli texnologiyalar jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Shulardan biri ta'lim sohasi bo'lib, bu sohada zamonaviy texnologiyalardan, kompyuterlardan, smart-doskalardan va virtual zallardan foydalanish juda samarali va yuqori natijali hisoblanadi. Ta'lim berishda axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni joriy etish o'quv jarayonida mustaqil ta'lim salmog'ini ortishi, yangi axborot-ta'lim resurslarining shakllanishi, ta'lim jarayonini optimallasuvi, intensivlashuvi, ta'lim jarayoni qatnashchilarining o'zaro aloqasini, ta'lim jarayonini ochiqligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Xolmatov P.Q., Shirinov M.K. Umumiy pedagogika. Toshkent. Navro'z. 2016. 496 b. 115-b.

2. To'raqulov X.A., Fayzimatov B.I., Ubaydullayev S., To'raqulov O.X., Hamidov J.A. Texnika fanlarini o'qitishga yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ilmiy-pedagogik asoslari. Farg'ona. Texnika. 2003. 184 b., 22-b

3. Turdiyev U. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosidagi jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etish // Xalq ta'limi. Ilmiy metodik jurnal. 2020 № 6, B.109-115

4. Orishev J.B. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda axborot texnologiyalarining o'рни // Tafakkur ziyosi. Ilmiy metodik jurnal. 2020. №2, B.216-218

5. Abduqodirov A.A. Masofali o'qitish modellari va ularning sinflari. // Fizika, matematika va informatika jurnali. Toshkent, 2004. – № 5. –B. 50-56.

6. Begimkulov U.Sh. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta'limni tashkil etish //Pedagogik ta'lim jurnali. – Toshkent, 2004. – № 1. B. 25-27. 7. Yuldashev U., Raxmatullaeva Sh.K. Internet asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2002. – 28 b.

ПОЛОЖИТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ, ТЕНДЕНЦИИ И ОСОБЕННОСТИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ

Садокат Абдураходова
Преподаватель кафедры «Зоология и анатомия»
Ташкентский Государственный Педагогический Университет им. Низами
(abidovasadokat@gmail.com).

Аннотация: В статье рассматриваются положительные аспекты в высшего образования, а также особенности системы и тенденции развития высшего образования в эпоху цифровизации общества, что требует от современных педагогов творческого подхода и разработки электронных методических материалов для удовлетворения потребностей цифрового образования.

Ключевые слова: образование, цифровизация, цифровое общество, тенденции, положительные аспекты, электронные учебные пособия, сайты, приложения.

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'limning ijobiy tomonlari, shuningdek, jamiyatni raqamlashtirish davrida oliy ta'lim tizimining xususiyatlari va rivojlanish tendentsiyalari ko'rib chiqiladi, bu esa zamonaviy o'qituvchilardan ijodiy yondashish va elektron o'quv materiallarini ishlab chiqishni talab qiladi. raqamli ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun.

Kalit so'zlar: ta'lim, raqamlashtirish, raqamli jamiyat, tendentsiyalar, ijobiy jihatlar, elektron darsliklar, veb-saytlar, ilovalar.

Abstract: The article discusses the positive aspects of higher education, as well as the features of the system and trends in the development of higher education in the era of digitalization of society, which requires modern teachers to have a creative approach and develop electronic teaching materials to meet the needs of digital education.

Key words: education, digitalization, digital society, trends, positive aspects, electronic textbooks, websites, applications.

Цифровые технологии все сильнее входят в нашу жизнь, оказывая своё влияние во все сферы жизни. Особенно широко ими пользуется молодёжь,

которая посредством гаджетов, смартфонов, ноутбуков черпает разнообразную информацию из социальных сетей и других источников интернета. В таких условиях традиционные методы и средства, которые применялись в образовании начинают терять свою актуальность, и наряду с традиционными методами образования возникает необходимость введения новых современных методов, связанных с широким применением технических средств обучения и возможностей интернета. Возникает необходимость совершенствования системы образования на основе её цифровизации.

В процессе реформирования отечественного образования большую роль приобретают современные технологии, внедрение которых способствует модернизации и развитию образовательной сферы, а также повышению качества подготовки будущих специалистов и сближению образования с наукой. Сегодня в качестве нового направления в развитии отечественного образования выделяется цифровизация. Цифровизация охватывает все сферы жизни современного общества: экономику, культуру, образование и другие сферы. В нашем государстве также уделяется огромное значение вопросам цифровизации всех сфер жизни и доказательством этому является принятие ряда нормативных документов, касающихся цифровизации экономики, культуры, образования.

В своем последнем послании к Олий Мажлису и народу Узбекистана 20 декабря 2022 года президент Ш.М.Мирзиёев объявил 2023 год в Узбекистане «Годом заботы о человеке и качественного образования» и указал, что «Повышение качества образования – единственно правильный путь развития Нового Узбекистана». Вместе с тем президент назвал образование «самой важной инвестицией в Новом Узбекистане» и указал, что необходимо в первую очередь уделить внимание образованию [1].

В связи с переходом Узбекистана к цифровому обществу, в государстве осуществляются большие усилия по внедрению цифровизации во все отрасли и сферы, в том числе и в сферу образования. Это связано с тем, что цифровое развитие отраслей и сфер национальной экономики требует наличия квалифицированных кадров, что в свою очередь, повышает требования к сфере высшего образования, в которой также осуществляется переход к её цифровизации.

По мнению ряда учёных, «такая сфера, как образование, не сможет надолго задержаться в доцифровой эпохе, иначе новые поколения выпускников окажутся не готовы к жизни в мире, который меняется слишком быстро. Как мы видим мир стремительно меняется, и школа не может остаться в стороне от этих перемен. Одно из главных направлений развития современной школы —

цифровизация обучения. Именно образование на самых разных уровнях, начиная с уровня начальной школы и заканчивая университетским уровнем, формирует общество будущего» [2].

Рассмотрим некоторые определения термину «цифровизация» (от англ. digital, цифровой) (рис. 1)




Рис.1. Определения понятию цифровизация [2].

Цифровизация образования является инновационным шагом в развитии образования, поскольку имеет ряд позитивных аспектов, которые необходимо внедрить в систему образования:

1. В результате цифровизации образования предполагается, что основной материал, по которому будут проводиться занятия будет переведён в цифровой формат. В результате реализации данной задачи появится возможность использования электронных ресурсов: электронных учебников, учебных платформ, сайтов, виртуальных лабораторий, электронных программ по контролю знаний, видео и аудио материалов, которые обеспечивают наглядность объектов и процессов.

2. Создание единой интегрированной электронной системы (HEMIS) в рамках проекта Всемирного банка. Она включает базу данных всех студентов по республике (в том числе частные и международные вузы), их посещаемость и успеваемость, а также преподавателей страны, электронные ресурсы, академические программы, образовательный контент. Это даёт возможность обеспечения академической мобильности, что облегчит работу по обмену студенческими кадрами и даст возможность нашим студентам обучаться в ведущих мировых ВУЗах [3].

3. Предоставление учебным организация современных компьютеров, проведения им свободного доступа к высокоскоростному интернету, а также их оснащение интерактивными панелями и другим оборудованием. Подобная модернизация образовательных учреждений позволит учителям и ученикам использовать современный образовательный контент, а также расширит их возможности для осуществления более креативного подхода к организации образовательного процесса [4].

Несмотря на очевидную пользу реализации процесса цифровизации образования, его проведение в жизнь также сформирует новые вызовы для образовательной системы и характеризуется следующими особенностями и тенденциями:

1. Онлайн-образование – развитие интернета и цифровых технологий способствует созданию множество онлайн-курсов, виртуальных университетов и платформ, предлагающих образовательные материалы, что даёт возможность обучаться удаленно, не выходя из дома или офиса, получать образование из любой точки мира и гибко управлять своим временем;

2. Гибкость и индивидуализация – цифровые технологии позволяют студентам выбирать курсы и программы обучения по своим интересам и потребностям, создавать индивидуальные учебные планы, выбирать специализации и сферы знаний, которые наиболее соответствуют их карьерным целям

3. Использование новых технологий в образовательном процессе – в цифровую эпоху образование становится более интерактивным и практическим благодаря использованию различных технологий, таких как виртуальная реальность, искусственный интеллект, блокчейн и другие, что позволяет студентам получать более реалистичные и практические навыки

4. Развитие навыков цифровой грамотности – высшее образование на основе цифровизации требует развития навыков работы с компьютерами, программным обеспечением, анализом данных и другими цифровыми технологиями у студентов

5. Учебные материалы и ресурсы в цифровом формате – большинство учебных материалов теперь доступны в цифровом формате, что облегчает доступ к информации и учебным ресурсам, а также позволяет студентам изучать материалы в любое время и в любом месте

6. Непрерывное обучение и переподготовка – в цифровую эпоху знания и технологии быстро меняются, поэтому важно, чтобы высшее образование обеспечивало постоянное обучение и переподготовку студентов, что даёт

возможность быть готовыми к новым требованиям рынка труда и успешно адаптироваться к изменяющимся условиям

7. Междисциплинарность – цифровизация приводит к появлению новых областей знаний, которые объединяют различные дисциплины и сферы деятельности. Высшее образование должно учитывать эти изменения и предоставлять студентам возможность изучать междисциплинарные программы и получать широкий спектр знаний

В контексте вышесказанного для внедрения цифровизацию в систему высшего образования для повышения эффективности образовательного процесса необходимо улучшить материально-техническую базу образовательных учреждений, а также создать электронные образовательные ресурсы в форме электронных учебных пособий, мобильных тематических платформ, электронных сайтов по предметам и курсам, тематических приложений, тестовых программ для проведения тестирования, виртуальных лабораторий и других.

Литература:

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана. 20 декабря 2022 года [Электронный ресурс]. – URL: <https://president.uz/ru/lists/view/5774>

2. Воронов Г.Д. Цифровизация образования в современном мире. Казанский вестник молодых учёных. 2021;5(1):20-24.

3. <https://yuz.uz/ru/news/vsshee-obrazovanie-v-epochu-tsifrovizatsii-razvivat-i-sovershenstvovat>

4. <https://dzen.ru/media/digitalteacher/cifrovizaciia-v-sisteme-shkolnogo-obrazovaniia-rossii-5d469c581e8e3f00adc9c05f>

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ 3D – ТЕХНОЛОГИЙ, СРЕДИ ДРУГИХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ, В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ АСТРОНОМИЧЕСКИМ ДИСЦИПЛИНАМ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ

*Орлова Татьяна Алексеевна (доцент ТГПУ им. Низами)
Тен Лейло Азимовна (студентка 2 курса ТГПУ им. Низами)*

Современные требования повышения качества обучения студентов в педагогических вузах, их соответствие и компетентности по будущей специальности, побуждают соискателей в сфере педагогической науки – искать новые эффективные формы, технологии и методы - для развития познавательной деятельности студентов. Из всех многообразных форм, технологий и методов в подготовке учителей, одна из перспективных является цифровая технология, осуществляемая при помощи 3D–оборудования: 3D–графики, 3D–принтера, 3D–сканера, интерактивной доски. При помощи этой технологии возможно применение наглядного и практического метода обучения студентов, по астрономическим дисциплинам в педагогических вузах.

Трёхмерная графика – раздел компьютерной графики, посвящённой методам создания изображения или видео путём моделирования в трёх измерениях. 3D–моделирование – процесс создания трёхмерной модели объекта. Задача 3D –моделирования – разработать зрительный образ желаемого астрономического объекта. 3D–модель наиболее полно описывает проект, позволяет увидеть конструкцию – астрономическое явление или объект со всех сторон. Презентация, на основе 3D– астрономической модели производит самое яркое впечатление (рис.1).

3D–графика (трёхмерная графика) – это область конструирования, в которой объёмная модель создаётся при помощи специальных компьютерных программ. Программы для 3D–моделирования: Tinker CAD, 3D–slash, FreeCAD, SketchUP, Blender, MeshMixer, Fusion360, Vectary. Чтобы эти программы работали необходимо оборудование: компьютеры, планшеты и оргтехника [1].

Моделирование включает в себя несколько этапов: построение геометрической основы наложение материалов, постановка света – максимально приближённая к реальности визуализация выбранных видов модели.




Рис.1. 3D– астрономическая модель внутреннего строения Марса

3D–принтер – это оборудование, с помощью которого можно создавать реальные объёмные физические изделия, используя в основе 3D –модель. Сама печать на 3D–принтере, подразумевает построение реального изделия по разработанному макету трёхмерной модели.

3D–сканер – это устройство, которое исследует какой-либо предмет, оцифровывая его с помощью датчиков, и использует полученную информацию для создания трёхмерной модели. 3D–сканер создаёт цифровую копию физического или астрономического объекта любой конфигурации и степени сложности. Сам процесс сканирования может происходить по-разному, – в зависимости от вида 3D–устройства и применяемой технологии. Технология 3D Photoscan позволяет создать 3D–модель из фото сразу на смартфоне [3].

Важность использования трёхмерной графики и 3D–технологий в современном высшем образовании определяется тем, что графика и анимация образуют виртуальную информационную среду, в которой студенты педагогических вузов могут найти новые возможности для развития творческих способностей и усвоения новых знаний по астрономическим дисциплинам. С помощью трёхмерной графики возможно создание 3– мерных астрономических моделей небесных объектов, макетов телескопов, орбитальных станций и ракет, повторяя их геометрическую форму и эмитируя материал, из которого они сделаны. Например, модель ракеты и её составные компоненты (рис.2).

3D–технологии, среди образовательных технологий обладает большим образовательным потенциалом. 3D–технологии позволяют разнообразить лекционные, лабораторные и практические занятия студентов по астрономическим дисциплинам, сделать образовательный процесс эффективным и визуально – объёмным. Например, на 3D–принтере ученые напечатали модель ранней Вселенной [2].

Как показали результаты педагогических экспериментов: у студентов педагогических вузов повышается успеваемость при применении на занятиях 3D–технологий, и у них происходит развитие аналитических способностей и навыков критического мышления. А по астрономическим дисциплинам, при применении 3D–технологий у студентов педагогических вузов, обучающая среда, созданная с этой технологией, делает их участниками увлекательного педагогического процесса [5].

3D –принтер, является основным инструментом для STEM лаборатории, его можно использовать на лекционных и лабораторных занятиях по астрономическим дисциплинам в педагогических вузах. Это может познакомить студентов с опытом создания астрономических моделей, потому что объёмная печать макетов по астрономии, развивает пространственное представление и практические навыки построения объектов. Если использовать 3D–принтер, то можно сделать копии небесных объектов, макетов космических и наземных телескопов [4]. Включение изучения 3D– технологий в обучение астрономических дисциплин студентами педагогических вузов, позволяет им хорошо ориентироваться в цифровых образовательных процессах.




Рис.2. 3D- модель ракеты и её составные компоненты

Можно сделать вывод, что 3D–печать и использование 3D–технологий, позволит развивать любые навыки при обучении студентов астрономическим дисциплинам в педагогических вузах. Любая учебная программа по астрономическим или смежным дисциплинам, дополненная изучением и использованием в обучении 3D–печати и 3D–технологий, может стать увлекательной и прикладной и будет способствовать повышению более высокому уровню освоения студентами учебного материала. 3D–технологии являются полноценным и важным звеном современного высшего педагогического образования.

Список использованной литературы

1. <https://3dtoday.ru>blogs>fatalik>
2. <https://naked-science.ru>article>sci>
3. 3d today.ru – энциклопедия 3D- печати <https://3dtoday.ru > wiki>
4. 3 D – принтеры в образование: наступающее будущее <http://newtonew.com:81/tech/3d-printer-in-school>
5. Orlova T. Effectiv use of 3D technologies in the process of teaching astronomy students of pedagogical universities // Computer technologies in sharing the cultural heritage and education of the Silk Road from Uzbekistans // Monograph of the International Conference. – Lublin., Poland. 2022, – P. 207 – 213.

MATERIALLAR QARSHILIGI FANINI O‘QITISHDA SOLIDWORKS KOMPYUTER DASTURIDAN FOYDALANISH VA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

*Katta o‘qituvchi, Tojiboyev Bobir Tolibjonovich
Farg‘ona politexnika instituti*

Xozirgi kunda talabalarga axborot va yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llab dars mashg‘ulotlarini olib borish, dars turiga qarab turli metodlarni qo‘llash - talabalarda fikrlash qobiliyati, fanni chuqurroq o‘zlashtirishga turtki bo‘lmoqda.

Materiallar qarshiligi fani umummuhandislik fani hisoblanib, konstruktsiyalar (tuzilmalar), inshootlar, mashina va mexanizmlar qismlarini hamda mazkur konstruktsiyalarni mustaxkamlikka, bikrlikka va ustivorlikka hisoblash, mashina detallari, inshoot elementlarida, konstruktsiyalarda hosil bo‘ladigan zo‘riqishlar,

deformatsiyalarni aniqlash usullarini o‘rgatadi. Fanni o‘qitilishidan maqsad talabalarda inshootlarni loyihalash jarayonida asosiy masalalardan biri hisoblangan loyiha-konstruktorlik hisoblari bo‘yicha boshlang‘ich ko‘nikmalar hosil qilishdan iborat. Talabalar inshoot konstruktsiyalarining hisobiy modellarini to‘g‘ri tanlash, amaliy masalalarni yechishda kursning hisob formulalaridan, zamonaviy hisoblash usullaridan yaxshi foydalanishi uchun asosiy formulalarni puxta egallashi lozim. [1].

Materiallar qarshiligi fanining amaliy mashg‘ulot darsida “Balkadagi eguvchi kuch va burovchi momentni aniqlash” mavzusiga doir masalalarni yechishda quyidagi ikki xil usuldan foydalaniladi.

1-usul. Masalalar yechishda daftar, ruchka, chizg‘ich, qalam va kalkulyatorlardan foydalangan holda.

2-usul. Masalalar yechishda kompyuter va “SOLIDWORKS” kompyuter dasturidan foydalangan holda.

Bizga quyidagicha misol berilgan bo‘lsin:

Quyidagi berilgan konsol balka (to‘sin) uchun Q va M epyuralari qurilsin.

Berilgan: $P = 14 \text{ kN}$, $q = 12 \text{ kN/m}$, $m = 24 \text{ kN}\cdot\text{m}$ (1-rasm).

1-usul. Sterjenni chap tomondan boshlab ikkita oraliq (uchastka)ga ajratamiz. Kesish usulini qo‘llab, avvalo har bir uchastka uchun eguvchi kuch Q va burovchi momentni M ni aniqlaymiz.

1-oraliq $0 \leq Z_1 \leq 2m$


$$Q_1 = -q \cdot z_1 \quad M_1 = m - q \cdot z_1 \frac{z_1}{2};$$

$$z_1 = 0 \text{ metrda } Q_1 = 0 \quad M_1 = 24 \text{ kN}\cdot\text{m}$$

$$z_1 = 1 \text{ metrda } Q_1 = -12 \text{ kN}$$

$$M_1 = 18 \text{ kN}\cdot\text{m}$$

$$z_1 = 2 \text{ metrda } Q_1 = -24 \text{ kN} \quad M_1 = 0 \text{ kN}\cdot\text{m}$$



1-rasm. Balkadagi eguvchi kuch va burovchi moment epyurasi

$$2\text{-oraliq } 0 \leq Z_2 \leq 3m \quad Q_2 = -q \cdot (2m + z_2) - P; \quad M_2 = m - q \cdot (2m + z_2) \frac{(2m + z_2)}{2} - P \cdot z_2;$$

$$z_2 = 0 \text{ metrda } Q_2 = -38 \text{ kN}; \quad M_2 = 0 \text{ kN} \cdot m$$


$$z_2 = 1,5 \text{ m metrda } Q_2 = -56 \text{ kN} \quad M_2 = -70,5 \text{ kN} \cdot m$$

$$z_2 = 3 \text{ m metrda } Q_2 = -74 \text{ kN} \quad M_2 = -168 \text{ kN} \cdot m$$

$$Q_{\max} = -74 \text{ kN}; \quad M_{\max} = -168 \text{ kN} \cdot m$$


Demak yuqorida aytganimizdek 1-rasmda ko'rsatilgan epyuradan eguvchi kuch va burovchi moment holatlarini ko'rishimiz mumkin.

2-usul. Endi "SOLIDWORKS" kompyuter dasturida shu misolni ko'rib o'tamiz. Birinchi o'rinda "SOLIDWORKS" dasturining CAD tizimi orqali berilgan qiymatlar asosida chizmani chizib olamiz.



2-rasm. SOLIDWORKS dasturi yordamida chizilgan balka detalining 3D ko'rinishi

Shundan so'ng masalada berilgan shartlar bo'yicha "SOLIDWORKS" dasturida chizilgan sterjenga kuchlar qiymati qo'yiladi va CAE tizimi orqali analiz qilinadi. [2]. Shundan so'ng quyidagicha oyna hosil bo'ladi:



3-rasm. Sterjen detalini kuchga tekshirish

Yuqoridagi 3-rasmdan ko'rinib turibdiki, Balkaga qo'yilgan kuchlar ta'sirida hosil bo'lgan eguvchi kuch va burovchi momentlarning maksimal qiymati balkaning

qistirib mahkamangan qismida bo'lar ekan va u quyidagiga teng:

$$Q_{\max} = -74 \text{ kN}; M_{\max} = -168 \text{ kN} \cdot \text{m}$$

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kompyuter dasturi bo'lgan "SOLIDWORKS" dasturi yordamida qurilish konstruksiya elementlarini analiz qilish, kuchga hisoblash, hamda Materiallar qarshiligiga oid masalalarni yechish oson va qulay. Shuningdek ushbu dasturdan foydalanish o'quvchilarda fanga qiziqishini oshirish, o'quvchilarda vizual tasavvurni oshirish, o'quvchilarga yuklatiladigan hisob kitob jarayonlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1]. Materiallar qarshiligi I.H.Hamzayev, E.S.Umarov. O'quv qo'llanma/"Classic"-2021 360 bet.

[2]. Ruzaliyev, X. S. o'g'li. (2022). MURAKKAB VA SHAKLDOR DETALLARNI LOYIHALASHDA SIEMENES NX KOMPYUTER DASTURIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(10), 209–213. Retrieved from <http://researchedu.org/index.php/cf/article/view/812>

[3]. <https://en.wikipedia.org/wiki/SolidWorks>

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI AQLIY TAFAKKURLARINI RIVOJLANTIRISH

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim)

1-bosqich magistranti G`ofurova Mohidil Sayfutdin-qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy tafakkurlarini rivojlantirish imkoniyatlari haqidagi fikrlar o'rin olgan. O'zlashtirish jarayonida tashkil etiladigan darslarning raqamli ta'lim muhitida yangicha texnologiyalar asosida yondashgan holda tashkil etish qay darajada samarali ekanligi ifodalangan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, ta'lim muhiti, texnologiya, tafakkur, aqliy tafakkur, innovatsiya, rivojlanish, zamonaviy ta'lim.

Аннотация: В данной статье изложены мысли о возможностях развития психического мышления учащихся начальных классов в современной цифровой образовательной среде. Выражено, насколько эффективно организовывать

уроки, организуемые в процессе освоения, в цифровой образовательной среде на основе новых технологий.

Ключевые слова: цифровое образование, образовательная среда, технологии, мышление, интеллектуальное мышление, инновации, развитие, современное образование.

Bugungi globallashuv zamonida yangidan-yangi ta'lim texnologiyalari, yangidan-yangi bilimlar samarasining guvohi bo'lmoqdamiz. Biz yashayotgan axborot asrida ilm-fanning jadal rivojlanishi jamiyat muhitini sezilarli ravishda o'zgartirib yubormoqda. Shu sababli, bugungi kunda bizning jamiyatimizga ilg'or va kreativ fikrlarga ega, zamonaviy texnologiyalar bilan hamnafas, jamiyat ishlariga ijodiy moslashuvchan, muammolarga yangi va to'g'ri yechim topa oladigan, erkin harakatlanuvchi shaxslarni tarbiyalash talablari qo'yilmoqda. Yangilik yaratish qobiliyatiga ega, muammolarni samarali hal qila oladigan shaxslarga bo'lgan talab juda kuchaygan. Shunday ekan, zamonaviy ta'limimizning dolzarb vazifalaridan biri ham raqamli ta'lim sharoitida shaxsning faolligi, aqliy tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan. Aqliy tafakkur rivojlanishidagi asosiy qadam boshlang'ich ta'lim jarayonida ekanligini hisobga olsak, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning qiziqishlaridan kelib chiqib, raqamli ta'lim-texnologiyalari bilan birgalikda aqliy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi samarali usullarni topa bilish pedagogning kasbiy faoliyatidagi tajribasi va izlanuvchanligini belgilab beradi.

Ma'lumki, turli sohalarda, xususan, ta'lim tizimining turli jabhalarida ham raqamli davrni guvohi bo'lmoqdamiz. Ta'lim sohasini raqamlashtirish- bu kata hajmli ma'lumotlar bazasini yaratish bilan bir qatorda, ularni qayta ishlab, o'zaro almashinib, jamoatga taqdim qilishdan iborat. Raqamli texnologiyalar orqali boshlang'ich sinflardan oq ta'lim berilsa, ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Demak, raqamli ta'limda:

-xohlagan vaqtda va xohlagan joyida ta'lim olish imkoniyati;

-internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanishi;

- ta'lim tizimining yangi bosqichga ko'tarilishi;

-vaqt va mablag' sarfining keskin kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Oxirgi yillarda biz ta'limning masofaviy online tizimini ham boshdan kechirdik. Aynan shu jarayonda pedagog-xodimlar bilan bir qatorda mamlakatimiz aholisi, kichik yoshdagi maktab o'quvchilari ham raqamli ta'lim muhiti bilan yaqinroqdan tanishdilar. Hozirda har bir o'quvchida raqamli ko'rinishda eng yaxshi axborotlarni qabul qilish imkoniyati mavjud. Masalan, eng nufuzli xorijiy ta'lim muassasalari o'qituvchilari ma'ruzalarini tinglash, ulardagi axborotlar bilan tanishish, media vositalari va shu kabi jarayonlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, raqamli ta'lim muhiti orqali aqliy fikrlash qobiliyati yoki

ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu pedagoglarga nihoyatda taalluqli bo'lib, raqamli muhit, aqliy tafakkur ustida ishlash pedagoglarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi.

Ta'lim tizimida ham uning dasturlari, mazmuni, standartlari takomillashib bormoqda. Bunday tezkor o'zgarishlar bilim olishning yangi texnologiyalari, masofaviy, loyihalangan ta'lim, zamonaviy ta'limda kredit tizimi, media ta'limini, yani shaxsiy ijodkorlikka asoslangan ta'limni joriy qilish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda. Umuman inson faoliyatida yaratuvchanlik, aqliy fikrlash har qanday muammoni, vazifani, loyihani yechishda sermahsul jarayon hisoblanadi. Raqamli ta'lim muhitida esa bu ayni qo'l keladi. O'quv jarayonida o'quvchi mustaqil ravishda masalaning kreativ yechimiga intilsa, o'qituvchi muammoli vaziyatni o'z vaqtida qiziqarli tarzda tashkil etsa, o'quvchi uchun sekin-asta ko'nikma va malakaga aylanib boradi, o'quvchilarda aqliy tafakkur chegaralari kamol topa boshlaydi. Ta'lim sohasida raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish o'qituvchilarga o'qitishning metodini, tashkiliy shakllarini, mazmunini sifatli o'zgartirish imkonini beradi. Negaki, raqamli ta'lim resurslari an'anaviy o'qitish vositalariga nisbatan juda ko'p afzalliklarga ega. Misol qilib, electron kutubxona, electron ensiklopediya, trenajyorlar, praktikumlar, multimedia darsliklari, bulutli texnologiyalar, virtual laboratoriyalarni keltirishimiz mumkin.

Inson o'zidagi imkoniyatlar doirasidan chetga chiqib, o'z ustida ishlab aqliy qobiliyatini rivojlantirsa, u o'zida yangidan yangi g'oyalarni tizimini ishlab chiqadi. Boshlang'ich sinflardan oq aqliy qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish bu inson o'z ongi bilan belgilangan chegaralarni hatlab o'tishi, to'siqlarni hech kimning aqliga kelmaydigan yangicha usullar bilan bartaraf etishi demakdir. Xulosa qilib aytganda zamon talablariga mos keluvchi, ma'nan yetuk, intellektual rivojlangan kadrlarni tayyorlash uchun o'qituvchi muammoning yechimiga, o'quv materialini o'rgatishga ijodiy tarzda raqamli sharoit asosida yondashishi shart. Ularga mashg'ulotlar mazmuni, o'ziga xosligi, elastikligi, innovatsion mohiyatga egaligi, shaxsga yo'naltirilganligi, ijodiy potentsiali, shaxsning zamon bilan hamanafas rivojlanishi uchun istiqbolni belgilashi kabilarni singdirish lozim. Buning uchun mashg'ulotlar mazmuni chuqur, jozibador, esda qoladigan, o'quvchilarning idrok qilish faoliyati esa rang-barang, ijodiy, raqamli va reproduktiv bo'lishi kerak. O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, bo'lajak pedagoglarda tanqidiy, aqliy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'ladi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy

tafakkurlarini rivojlantirish mamlakatimiz ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda kata rol o'ynaydi va ta'lim samaradorligining ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Mirzahmedova, N. Dilmurodova. Raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasida qo'llanilishi.
2. Darslik va o'quv qo'llanmalar.
 1. Raqamli ta'lim resurslari va ularning taqdimoti va mazmuni bo'yicha turlari. N.V. Jo'rayeva
 2. Arapbayeva D.K., Norqulova N.T., Rustamova M.M. "Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari". T.: "Navro'z 2017-y.
3. Ochilova G. Pedagogik mahorat asoslari. Ma'ruzalar matni. – Toshkent, TDIU, 2012.
4. Sayidahmedov N. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". – T.: 2003.
5. Xoliqov A. "Pedagogik mahorat" Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011 y

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Toshbekova Mohira Xasanovna

university of science and technologies

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'limni raqamlashtirish jarayoni tahlil qilingan. Ta'limning zamonaviy jamiyat hayotidagi alohida roli tadqiqotning dolzarbligini ifodalaydi, bu postindustrial davr tamoyillari va qadriyatlariga asoslanadi. Shaxs intellekti, inson salohiyatining sifati, odamlarning tabiiy va ijtimoiy qiyinchiliklarga dosh berishga tayyorligi ko'p jihatdan ta'lim tizimining samaradorligiga bog'liq.

Kalit so'zlar: novatsiya, innovatsiya, innovatsion texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofali o'qitish, elektron ta'lim.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy

mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida ITparklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash, ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlari va raqamli texnologiyalarni o'qitish markazlari negizida davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'ul rahbarlarini o'qitish va malakasini oshirishni tashkil etish kabi dolzarb vazifalar belgilangan [1].

Shu nuqtai-nazardan, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, ta'lim samaradorligini oshirish, ta'limning yuqori sifat darajasida o'quv mashg'ulotlarini o'tishni ta'minlash, mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini mustaqil nazorat qilish imkonini yuzaga keltirish, bilim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, axborotni mustaqil o'rganishning turli uslublarini qo'llash, o'quv materiallarni o'rganish vaqtini tejash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish kabi bir qator mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda innovatsiya va axborot texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalanilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani tayyorlash jarayonida tadqiqot metodologiyasining ushbu mavzu uchun eng maqbul deb topilgan usullari qo'llanilgan. Raqamlashtirishning ijobiy salohiyatini aniqlab, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonlarini loyihalashda ko'plab variantlarni taklif qilishini ta'kidlaymiz. Shu bilan birga, raqamlashtirish orqali shakllantirilgan ta'lim maydoni universallik xususiyatlariga ega. Norasmiy takliflarning xilma-xilligi va ulardan ta'limda foydalanish imkoniyati hozirda juda katta. Virtual va real ta'lim komponentlarining kombinatsiyasi o'qituvchilarga bilimlarni bevosita va bilvosita uzatish imkonini beradi. Ushbu yondashuvning o'ziga xos xususiyati shundaki, siz ushbu usullardan foydalanishingiz va ularning kamchiliklaridan qochishingiz mumkin. Raqamli vositachilik (videolar, slaydlar, simulyatsiyalar va boshqalar) yordamida o'quvchilar ko'proq erkinlikka ega bo'lib, masalan, taqdimot tadbirlarida boshqa o'quvchilar va o'qituvchi bilan rol almashish imkonini beradi. Fikrimcha, raqamlashtirish jarayonlarining rivojlanishi insoniyat taqdirida yangi bosqichni boshlab beradi. Bugungi kunda texnikaning roli nihoyatda ortib borishi va inson hayotida ijtimoiy taraqqiyotning asosiy tashabbuskori va dvigatelinining oldingi rolini yo'qotmoqda. Yangi ijtimoiy-texnologik hayot tarzi insonni innovatsion texnologiyalarsiz har qanday narsani hal qilish qobiliyatidan mahrum qiladi va hatto tashqi ko'rinishi ham nazoratdan chiqib ketadi. Shubhasiz, bu

jarayonlar insoniyatni ma'lum bir chiziqqa olib keladi, uning orqasida allaqachon tubdan yangi dunyo chizilmoqda, uning asoslari bugun bizdan chuqur tushunishni talab qiladi. Raqamlashtirish, o'z mohiyatiga ko'ra, eng avvalo, inson faoliyatining turli sohalarida samarali foydalanishni ta'minlash, yangi muloqot va kognitiv imkoniyatlarni shakllantirish uchun muhim axborotni raqamli shaklga o'tkazishni nazarda tutadi. Bu imkoniyatlarni kengaytirgan holda, raqamlashtirishning o'zi allaqachon yangi inson yashash joylarini yaratmoqda - raqamli, texnologik, reallikdan farqli, lekin o'zini yanada mukammal o'rnini egallashga da'vo qilmoqda. Global raqamlashtirish zamonaviy jamiyat madaniyatining yangi turini – raqamli madaniyatni shakllantiradi, bu texnologik innovatsiyalar imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishga va ularning yordami bilan tegishli kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantirishga tayyor bo'lish yo'nalishi bo'yicha kasbiy ta'lim tizimini va modernizatsiya qilishni talab qiladi. Raqamlashtirish, (V. G. Xalin va G.V. Chernov) agar u faqat uning natijalaridan samarali foydalanish bilan birga bo'lsa, samarali jahon taraqqiyotining tendentsiyasi deb hisoblanishi mumkin. Zamonaviy ilmfanning eng muhim vazifasi - bu hodisaning bir qarashda ko'rinadigan darajada aniq bo'lmagan ijobiy tomonlarini aniqlashdir. Shunday qilib, ta'limni raqamlashtirish tajribasini tavsiflab, D. Kross ta'kidladi: "Biz o'qituvchilarni o'quv jarayonidan olib tashlashimiz va o'quvchilarning mustaqil harakat qilishiga imkon berishimiz mumkin deb o'yladik. Biz xato qildik. Elektron ta'lim tizimlarining birinchi avlodi muvaffaqiyatsiz yakunlandi" [3]. Kasbiy ta'limda qo'llanila boshlangan raqamli o'yinlar orqali o'qitish shakllari zamonaviy mutaxassisning muhim shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ijobiy ahamiyatga ega. O'yin simulyatsiyasi sizga o'quv profiliga muvofiq sinflarda haqiqiy hayotiy vaziyatlarni takrorlash imkonini beradi. Albatta, ta'lim jarayoniga joriy etilgan raqamli texnologiyalar axborotni samarali qidirish va qayta ishlash, "masofaviy" aloqaning yangi shakllari, o'rganilayotgan yoki o'rganilayotgan narsa va jarayonlarni vizuallashtirish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonining voqeliklari shundan iboratki, ta'limning asosiy xususiyati jahonda kechayotgan integratsiya jarayonlari va jamiyat hayotining turli sohalarida davlatlarning o'zaro ta'siri tufayli uning globalligidir. Shunday qilib, ta'lim rivojlangan mamlakatlardagi milliy ustuvorliklardan jahon ustuvorliklariga bosqichmabosqich o'tmoqda. Jamiyatning turli sohalarida texnologiyalarni joriy etish har doim o'zgarishlar bilan birga keladi, chunki yangi va eski (an'anaviy) to'qnash keladi. Shunday qilib, innovatsiyaga "ijodiy yo'q qilish" va ayni paytda yaratilish jarayoni sifatida qarash kerak. Shu munosabat bilan texnologik taraqqiyot va ishlanmalar muqarrar ravishda har xil ziddiyatlar va muammolarni keltirib chiqaradi. E'tibor bering, raqamlashtirish siyosatining o'zini amalga oshirishda ham, uning kengayishining zamonaviy jamiyat

hayoti va ilm-fanida oqibatlarida ham ko'plab muammolar mavjud. Ulardan biri, masalan, "texnologiya" tushunchasining o'zi dastlab gumanitar sohada emas, balki faqat ishlab chiqarish jarayonlariga nisbatan qo'llanilganligi bilan bog'liq.

Tahlil va natijalar

Bizning tadqiqotimiz ta'lim sohasini raqamlashtirishni xolisona tahlil qilishga urinishni amalga oshirdi va mamlakatimiz ta'lim tizimida raqamlashtirishni rivojlantirishning qator muammolari va istiqbollari aniqlash imkonini berdi. Raqamli inqilobni "qo'llab-quvvatlovchi" dalillar orasida biz mehnat bozoridagi tub o'zgarishlarni, yangi vakolatlarning paydo bo'lishini, hamkorlikni yaxshilashni, fuqarolarning mas'uliyatini oshirishni, ularning mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini ajratib ko'rsatamiz; ta'lim jarayonlarini o'zgartirish, ma'lumot izlashda talabaning rolini oshirish va muammolarni hal qilish, muloqot qobiliyatlari va ijodkorlikni rivojlantirish; iqtisodiy samaradorlik, vaqt va geografik chegaralarning yo'qligi, o'qituvchining ishini individuallashtirish, optimallashtirish imkoniyati. Biroq, chuqurroq o'rganib chiqqach, bu dalillarni unchalik aniq talqin qilish mumkin emas. Milliy ta'limni takomillashtirish jarayonida zamonaviy texnologiyalarning o'rni yildanyilga ortib bormoqda, ularning joriy etilishi ta'limni modernizatsiya va rivojlantirish, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish va ta'limni ilm-fanga olib borishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar ta'lim faoliyatiga mavjud yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni, shuningdek ularning jamiyat va alohida ijtimoiy guruhlarga ta'sirini tahlil qilishni talab qiladi. Shu munosabat bilan ta'limni raqamlashtirish va uning ijtimoiy oqibatlarini o'rganish ilmiy tadqiqotning juda dolzarb yo'nalishi bo'lib ko'rinadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi ta'lim sohasidagi asosiy muammolarni aniqlash va raqamlashtirish istiqbollari aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ijtimoiy bilish dialektikasi, falsafiy, sotsiologik, pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, ijtimoiymadaniy jarayonlarni sintez qilish va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Ta'lim tizimini raqamlashtirishni rivojlantirish istiqbollari quyidagilardan iborat: instrumental - ta'lim muassasalarini yuqori sifatli dasturiy ta'minot, ta'lim resurslaridan foydalanishni ta'minlaydigan axborot tizimlari, axborot (masofaviy) texnologiyalarni joriy etish, onlayn ta'lim, o'qituvchilarga qo'yiladigan talablarni o'zgartirish va talabalar, yangi tashkiliy ta'lim tuzilmalarining shakllanishi, o'qitishning odatiy shakllari va usullarining muqarrar o'zgarishi, qadriyat-semantik, milliy tarbiyaning eng yaxshi an'analari bilan uyg'un birlikni topish. Jamiyat uchun raqamlashtirishning xavfxatarlari ta'lim, keyin esa boshqa barcha ijtimoiy munosabatlarning insoniylashuvi, odamlarning intellektual madaniyati inqirozining mumkin bo'lgan chuqurlashishi, ularning yaratish qobiliyati, shaxsiy qadriyatlarga asoslangan pragmatizm va individualizmning kuchayishi bilan bog'liq. konfor va

xudbin iste'mol. Mahalliy ta'lim tizimida raqamlashtirishni rivojlantirishning yaqin istiqbollari uchta belgilovchi yo'nalishni o'z ichiga oladi:

birinchidan, ta'lim muassasalarini yuqori sifatli dasturiy ta'minot, ta'lim resurslaridan foydalanish imkonini beruvchi axborot tizimlari bilan jihozlash;

ikkinchidan, talaba va o'qituvchining bilvosita o'zaro hamkorligini nazarda tutuvchi axborot (masofaviy) texnologiyalarni joriy etish; uchinchidan, ta'lim faoliyatini tashkil etish va o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi onlayn muloqotni tashkil etish imkonini beruvchi onlayn ta'lim (e-learning). Albatta, raqamlashtirishning rivojlanishi pedagoglar va talabalarga qo'yiladigan talablarni o'zgartiradi, yangi tashkiliy ta'lim tuzilmalarini shakllantirishni rag'batlantiradi. Raqamli ta'lim formatlarini joriy etish, shu bilan birga, ta'lim arxitekturasida murakkab o'zgarishlarni, o'qitishning odatiy shakllari va usullarida muqarrar o'zgarishlarni nazarda tutadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilishimiz mumkinki, mahalliy oliy ta'limni modernizatsiya qilish muqarrar, u zamon bilan hamnafas bo'lib bormoqda, ammo innovatsiyalar xavfini hisobga olish va isbotlangan an'anaviy ta'lim texnologiyalaridan voz kechmaslik zarur. Samarali ta'lim muhitini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning muhim roli shubhasizdir, chunki ulardan foydalanish bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirishga, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va mustaqil fikrlash. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ta'lim faoliyatida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yuqori saviyali mutaxassislar tayyorlashning asosiy shartidir. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayonida jamiyat uchun yangi xavf-xatarlar paydo bo'lishini unutmaslik kerak. Albatta, zamo-naviy ta'lim muhitini amaliy o'zgartirishda ilmiy tahlil va mavjud tajriba bilan taqdim etilgan ularning o'ziga xosligini hisobga olish kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079- sonli Farmoni, 2020 yil 5 oktyabr.
2. Ахромеева Т.С., Малинецкий Г.Г., Посашков С.А. Смыслы и ценности цифровой реальности: Будущее. Войны. Синергетика // Философские науки. 2017. № 6. С. 104-120.
3. Буданов В.Г. Новые технологии цифровой жизни – перспективы и риски изменений антропосферы // Философские науки. 2016. № 6. С. 47-55.

4. Дубровский Д.И. Электронная культура. Кто против? // Философские науки. 2017. № 2. С. 50-57.
5. Иванова В.П., Еременко В.В. Интеллектуальная культура цифрового общества // Цифровое общество как культурно-исторический контекст развития человечества: сборник научных статей / общ. изд. Р.В. Ершова. Коломна: Государственный социальногуманитарный университет, 2016. С. 151-155.
6. Кутырев В.А. О судьбе управления и права в цифровом обществе // Вестник Нижегородской академии МВД России. 2019. Номер 1 (45). С. 278-281.
7. Луман Н. Правда СМИ. М.: Праксис, 2005. - 256 с

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ В ДОО

*Рахимова Дилафруз Студентка 1 курса
дошкольного образования Денауский институт
предпринимательства и педагогики*

Аннотация В соответствии с профессиональным стандартом педагога одной из компетенций, необходимых для осуществления педагогической деятельности по реализации программ дошкольного образования, является владение ИКТ- компетенциями, что в первую очередь означает использование инновационных цифровых технологий в образовательном процессе. Они необходимы для того, чтобы разнообразить обучение и идти в ногу со временем.

Ключевые слова: процесс, формирование, обучение, развитие, ребенок

Annotatsiya o'qituvchining kasbiy standartiga muvofiq, maktabgacha ta'lim dasturlarini amalga oshirish bo'yicha pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vakolatlardan biri bu AKT kompetentsiyalariga egalik qilishdir, bu birinchi navbatda ta'lim jarayonida innovatsion raqamli texnologiyalardan foydalanishni anglatadi. Ular o'rganishni diversifikatsiya qilish va zamon bilan hamnafas bo'lish uchun zarurdir.

Kalit so'zlar: jarayon, shakllanish, o'rganish, rivojlanish, bola

Abstract In accordance with the professional standard of a teacher, one of the competencies necessary for the implementation of pedagogical activities for the

implementation of preschool education programs is the possession of ICT competencies, which primarily means the use of innovative digital technologies in the educational process. They are necessary in order to diversify training and keep up with the times.

Keywords: process, formation, training, development, child

[3] Bekimbetova Ainagul Amangeldievna .World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Vol. 6, January,2022 ISSN: 2749-361X/ / USING THE EXPERIENCE OF KOREAN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN.P-29-30.

[4] <https://ru.wikipedia.org/Болонский процесс>.

[5] <https://lex.uz/docs/4545884/> Ўзбекистон Республикасида олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси

[6] Shuxratjon Farmonovich To‘rayev /EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.1 | SJIF = 5.685 www.in-academy.uz/ / INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ORQALI TASHKIL ETILGAN MUSTAQIL TA‘LIM KREDIT-MODUL TIZIMIDA TA‘LIM SAMARADORLIGINING ASOSI SIFATIDA / Volume 2 Issue 5, May 2022 ISSN 2181-2020 Page 877

[7] [https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/16/Бизга Эйнштейнлар керакми?](https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/16/Бизга_Эйнштейнлар_керакми?)

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INSONNING MUNOSIB HAYOTINI TA‘MINLASHDAGI O‘RNI

Xalmamatova Lola Amankulovna
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida dotsenti
Shatmanova Sabina Oybekovna, TAQU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadqiqot metodologiyasi insonning munosib hayotini belgilovchi omillarni hisobga olgan holda muammoni mantiqiy va gnoseologik tahlil qilishdan, shuningdek, raqamli texnologiyalarning ta‘sir qilish jarayonlarini qiyosiy tahlil qilish va tavsiflash usulini qo‘llashdan iborat. Maqolaning ilmiy yangiligi raqamli texnologiyalarni yanada rivojlantirish zarurligini isbotlashdan iborat, chunki ular insonni shakllantirish va uning ijodiy va ijodiy salohiyatini kengaytirishning yangi bosqichiga olib keladi. Maqola xulosalarining ilmiy va amaliy ahamiyati inson hayotiga munosib hayot kechirishni ta‘minlash maqsadida raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish jarayonida ularning miqdoriy tahlilini istiqbolli chuqurroq tavsiflashdadir.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, munosib inson hayoti, avtomatlashtirish, raqamlashtirish, raqamli transformatsiya, qo‘llash sohalari.

Аннотация. В данной статье методология исследования состоит из логико-гносеологического анализа проблемы с учетом факторов, определяющих достойную жизнь человека, а также использования метода сравнительного анализа и описания процессов воздействия цифровых технологий. Научная новизна статьи заключается в обосновании необходимости дальнейшего развития цифровых технологий, поскольку они ведут к новому этапу формирования человека и расширению его творческого и творческого потенциала. Научная и практическая значимость выводов статьи заключается в перспективном более глубоком описании их количественного анализа в процессе разработки и внедрения цифровых технологий в целях обеспечения жизни, достойной жизни человека.

Ключевые слова: цифровые технологии, достойная жизнь человека, автоматизация, цифровизация, цифровая трансформация, области применения.

Annotation. In this article, the research methodology consists of a logical and epistemological analysis of the problem, taking into account the factors that determine a decent human life, as well as the use of a method of comparative analysis and description of the impact processes of digital technologies. The scientific novelty of the article is to prove the need for further development of digital technologies, as they lead to a new stage of shaping a person and expanding his creative and creative potential. The scientific and practical significance of the conclusions of the article lies in the prospective deeper description of their quantitative analysis in the process of developing and introducing digital technologies in order to ensure a life worthy of human life.

Key words: digital technologies, decent human life, automation, digitization, digital transformation, fields of application.

Hozirgi kunda har bir inson munosib hayot kechirishga intiladi. Garchi «munosib hayot» tushunchasi noaniq bo'lsa-da, har bir kishi o'z ma'nosini o'zi belgilaydi, chunki asar ushbu tushunchaning «skeleti» bo'lgan umumiy ta'rifni beradi. Shuningdek, u munosib hayot va hayot sifati o'rtasidagi farqni – chalkashtirmaslik kerak bo'lgan tushunchalarni tushuntiradi. Bundan tashqari, insonning munosib hayotiga ta'sir qilishning muhim jihati zamonaviy dunyoda inson hayotini yaxshilash va osonlashtirish uchun mo'ljallangan raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi bo'ldi. Ushbu maqola raqamli texnologiyalar va ularning yordami bilan munosib inson hayotini ta'minlash o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi.

Raqamli texnologiyalarni qo'llash doirasi va inson faoliyatiga ta'sirining aniq misollari keltirilgan. Insonning munosib hayotining mohiyati va umumiy xususiyatlari Insonning munosib hayotining ta'rifi qizg'in munozaralarga sabab bo'ladi, chunki mualliflar ushbu kontseptsiyaga insonning ehtiyojlari, uning huquqlarini ro'yobga chiqarish va inson ijodiy salohiyatini rivojlantirishni hisobga olgan holda turli tomonlardan yondashdilar.

Bundan tashqari, munosib hayotdan o'zini o'zi anglash jarayoni bilan ajralib turadigan «munosib mavjudlik» tushunchasi ajralib turadi [2]. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy me'yorlarni o'z ichiga olgan insonning munosib hayotga bo'lgan huquqini amalga oshirish mexanizmi ham bundan kam ahamiyatga ega. Bu davlat shaxsning shaxsiy huquqlarini ta'minlashi, shuningdek, ularga rioya etilishini kafolatlashi kerakligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, bu jarayon faqat davlat tomonidan sodir bo'lmasligi kerak, chunki har bir shaxs o'z ijodiy faoliyati orqali shaxsiy qobiliyatlari, malakalari va mehnatidan foydalangan holda o'zi uchun munosib hayotni ta'minlashga harakat qilishi kerak. Bundan tashqari, munosib

hayotni tushunishga yaqin bo'lgan, ammo sinonim bo'lmagan hayot sifati kabi tushunchani ta'kidlash kerak va hayot sifati, o'z navbatida, turmush darajasi, shu jumladan turmush darajasi bilan bir xil emas. Ushbu tushunchalarni farqlash uchun biz ularning xususiyatlarini taqdim etamiz.

Inson hayotining sifati insonning shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan nomoddiy ne'matlarning etarli darajada mavjudligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar to'plamini o'z ichiga oladi. Turmush darajasi ko'pincha aholining zarur moddiy va nomoddiy tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasini bildiradi. Davlat tomonidan insonning munosib hayot va erkin rivojlanishini ta'minlash sifatini baholash uchun turli xalqaro indeks va ko'rsatkichlar mavjud: Inson taraqqiyoti indeksi (HDI), Jini koeffitsienti, Iqtisodiy erkinlik indeksi (IEF) va boshqalar. Har qanday davlat o'z fuqarolarini munosib hayot bilan ta'minlashga intiladi va har bir inson bunga haqli. Biroq, mamlakatlarning turli darajadagi rivojlanish darajasi odamlarni turli xil vaziyatlarga qo'yadi, bu shuni anglatadiki, shaxs davlatdan qat'i nazar (lekin uning roolidan) qat'i nazar, o'zi uchun munosib hayotni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak va shuning uchun unga mos keladigan turmush tarzini olib borishi kerak. Inson qadr-qimmati, jumladan, qonun talablariga rioya qilish, o'z sog'lig'ingiz, oilangiz va yaqinlaringiz, atrof-muhit va madaniy qadriyatlar haqida qayg'urish, o'zgalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, intellektual, ma'naviy va ijodiy kamolotga erishish.

Ilmiy ta'rifga ko'ra, raqamli texnologiyalar (DT) – bu nisbatan qisqa vaqt ichida turli xil muammolarni hal qilish imkonini beruvchi axborot ma'lumotlarini kodlash va uzatish usullariga asoslangan diskret tizimdir [3]. Jamiyatning barcha jabhalarida odamlarning taraqqiyoti bevosita raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq. Ulardan axborot texnologiyalari tarmog'i – ob'ekt, jarayon yoki hodisaning holati to'g'risida yangi sifatdagi ma'lumotlarni olish uchun ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va uzatish vositalari va usullaridan foydalanadigan jarayon. Hozirgi vaqtda hayotimizni ularsiz tasavvur qila olmaydigan raqamli qurilmalar (smartfonlar, shaxsiy kompyuterlar, maishiy elektron qurilmalar) paydo bo'lishi va tarqalishi muqarrar bo'lib qoldi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar – bu ma'lumotlarni elektron shaklda izlash, to'plash, qayta ishlash, saqlash, uzatish va taqdim etish usullari. Raqamli texnologiyalar va munosib hayotni ta'minlash o'rtasidagi munosabatlar hozirgi vaqtda insonning butun hayoti ketma-ket uchta bosqichga qurilganligi bilan belgilanadi: avtomatlashtirish, raqamlashtirish, raqamli transformatsiya. Avtomatlashtirish – bu qisman yoki to'liq inson aralashuvisiz ishlaydigan avtomatik qurilmalardan foydalanish. Raqamlashtirishdan farqli o'laroq, avtomatlashtirish ishlab chiqarishni yaxshilaydi va inson mehnatini osonlashtiradi, lekin ishning mohiyatini va jarayonni boshqarish modelini o'zgartirmaydi. O'z

navbatida, raqamlashtirish – bu hayot va ishlab chiqarishning turli sohalariga raqamli texnologiyalarni joriy etishdir. Shuningdek, hozirgi vaqtda “raqamli transformatsiya” atamasi ham mashhur bo’lib, u har qanday sohada (masalan, biznes, sog’liqni saqlash, ta’lim, qurilish va boshqalar) boshqaruv tizimini o’zgartirish va uning faoliyatini raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshirishni anglatadi. Texnologiyalari (DT). DTlar, birinchi navbatda, hisoblash raqamli elektronikada, birinchi navbatda, kompyuterlarda, robototexnika, asbobsozlik, o’yin mashinalari, avtomatlashtirish, radio va telekommunikatsiya qurilmalari va boshqa ko’plab raqamli qurilmalar kabi elektrotexnikaning turli sohalarida qo’llaniladi. Raqamli texnologiyalarni qo’llash sohalar Intellectual sohaning jadal rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning inson hayotiga tatbiq etilishi tufayli ijtimoiy dunyoda progressiv evolyutsiya sodir bo’lmoqda. Har kuni raqamli texnologiyalar inson hayotiga tobora ko’proq kirib bormoqda va jamiyatning yangi sohasini qamrab oladi. Keling, aniq misollar yordamida ularning qo’llanilishini ko’rib chiqaylik.

Hozirda o’quv jarayonini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Har bir o’qituvchi, o’quvchi, talaba kompyuter, telefon, internet tarmog’idan foydalanadi. Ta’lim tizimiga faol joriy etilayotgan raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini osonlashtirish va tezlashtirish, shuningdek, uni qiziqarli qilish uchun mo’ljallangan.

Eng ko’p talab qilinadigan elektron kundalik. Uning yordamida butun mamlakat bo’ylab talabalarning o’zlashtirish natijalari bo’yicha real statistik ma’lumotlarni yuritish va tegishli muassasalarga statistik ma’lumotlarni taqdim etish mumkin. Ta’limning kam talab qilinadigan elementi - bu interfaol doskalar bo’lib, ular yordamida siz bo’r taxtalarini almashtirishingiz, darslar o’tkazishingiz, chizish, ko’rsatish, chizish funksiyalaridan foydalanish. Kitob darsliklarini elektron kitoblarga almashtirish tendentsiyasi davom etmoqda va uni ham o’quvchilar, ham ota-onalar faol qo’llab-quvvatlamoda. Ushbu o’zgarish o’quvchilarning jismoniy faolligini kamaytirishga imkon beradi, bu ayniqsa maktabgacha yoshdagi va boshlang’ich maktab yoshidagi bolalar uchun juda muhimdir. 2020-yilgacha maktablarda masofaviy ta’limni ta’minlaydigan texnologiyalarga bo’lgan talab 64 foizni tashkil etdi. Biroq pandemiya davrida barcha ta’lim muassasalari vaqtincha ushbu ta’lim shakliga o’tishga majbur bo’ldi, bu esa talabni deyarli maksimal darajada oshirdi. Raqamli laboratoriyalar ham talabga ega, ammo uning past darajasi barcha rus maktablari profillarga bo’linmaganligi bilan belgilanadi. Maktablar bilan bir qatorda universitetlar va boshqa ta’lim muassasalarida ham raqamli texnologiyalardan faol foydalanilmoqda. Masalan, proyektorlar, institutsional veb-saytlar, virtual o’quv muhitlari va elektron kutubxonalar qo’llaniladi. Shu tariqa, raqamli texnologiyalar har bir shaxsga yuqori sifatli va chegarasiz interaktiv ta’limni ta’minlovchi ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi.

Raqamlashtirish odamga ish vaqtini qisqartirishni va shu bilan birga murakkab aqliy jarayonlarni amalga oshirish va raqamli texnologiyalarni samarali boshqarish uchun yangi tizimlar va dasturlarni ishlab chiqish munosabati bilan ish haqini oshirishni ta'minlashi mumkin. ularning jamiyat hayotining barcha jabhalariga faol tatbiq etilishi. Bundan tashqari, odam ko'proq bo'sh vaqtga ega bo'ladi, u ma'naviy rivojlanishga bag'ishlashi mumkin. Hozirgi kunda odamlar ishdan tashqari shug'ullanishi mumkin bo'lgan sevimli mashg'ulot yoki mashg'ulotni topishga tobora ko'proq intilmoqda, masalan, qo'shiq aytish, raqsga tushish, ot minish. Agar ilgari, masalan, qo'shiq aytish faqat professional qo'shiqchiga xos bo'lgan bo'lsa, endi tobora ko'proq odamlar bu mahoratga ega bo'lishga intilmoqda. Bundan tashqari, odamlar tobora ko'proq psixologiya bilan shug'ullana boshlaydilar va barcha psixologik jarayonlarni tushunishni xohlashadi, bu odamlararo muloqot endigina rivojlana boshlaganini va yangi darajaga ko'tarilishini anglatadi. Odamlar o'zaro hurmat, rahm-shafqat va o'zaro yordamga asoslangan munosib shaxslararo muloqotga kelishlari kerak.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda mavjud raqamli texnologiyalar inson hayotida rivojlanish va joriy etish uchun katta istiqbolga ega. Ular jamiyat hayotining barcha jabhalariga, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, transport, iqtisodiyot va biznes kabi muhim tarmoqlarga ta'sir ko'rsatdi. Raqamli texnologiyalar inson mehnatini tizimlashtirish va optimallashtirish imkonini beradi. Ular insonning kelajagini ochib beradi, u erda u o'zini rivojlantiradi va amalga oshiradi, bu erda har bir kishi o'z maqsadini topishi, hayot kechirishi, o'z ehtiyojlarini boshqalarga tegmasdan qondirishi va uning konstruktiv va ijodiy salohiyatini ochib berishi mumkin. Shuning uchun inson raqamli texnologiyalar sohasiga qiziqishi, raqamli savodxonligini oshirishi, dunyodagi barcha texnologik tendentsiyalarga amal qilishi kerak. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning shaxs va jamiyatga salbiy ta'sirini tushunish, joriy etish va undan keyingi foydalanish xavfidan xabardor bo'lish muhimdir. Zamonaviy texnologiyalar inson mehnatini to'liq o'rnini bosmasligi, hatto uni yo'q qilmasligi, aksincha, iqtisodiyotni insonparvarlashtirishga olib kelishi, bunda odamlarning ijodiy va mehnat faolligini kengaytirish, munosib hayotni ta'minlashga intilishi zarur.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Artyushina E. O. Muzeylarning raqamli transformatsiyasi. Eng yaxshi jahon amaliyotlari // E-Scio. - 2019 yil - 5-son.
2. Barsukova V.N. Insonning munosib hayotga bo'lgan huquqi: umumiy xususiyatlar // Zamonaviy huquq. - 2016. - No 1. - B. 5-10.

3. Izotova M.D. Raqamli texnologiyalarning jamiyatga ta'siri // Iqtisodiyot. Moliya. Innovatsiya. Mintaqalararo talabalarning o'quv va ilmiy konferentsiyasi: VIII Mintaqalararo konferentsiya ma'ruzalari to'plami 05 dekabr 2019 yil, 6-son - Yaroslavl, YPEC, 2019. - 108 b.

4. Kodaneva S.I. Sog'liqni saqlashdagi raqamli texnologiyalar: xorijiy tajriba // Rossiya: tendentsiyalar va rivojlanish istiqbollari. - 2020. - 15-2-son.

5. Mashkina N. A., Veliev A. E. Raqamli iqtisodiyotning dunyoda transport sanoatining rivojlanishiga ta'siri. // SHAHAR. — 2020. — 1-son (23). - 290–299.

6. Salixova I. S. Insonning munosib hayotini ta'minlashning institutsional-huquqiy mexanizmi // Ilmiy eslatmalar. - 2009. - No 2. - B. 142–147.

7. CNews: veb-sayt. — URL: <https://www.cnews.ru/> (kirish sanasi: 28.05.2021). — Kirish rejimi: <https://www.cnews.ru/articles/2015>.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR - UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA

Tashtemirova Nargiza Nematovna

Perfect university, "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchi

Annotatsiya: Maqolada pedagog xodimlarni kasbiy kompetentligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rni, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasining joriy qilinishi va unda matematika fani o'qituvchilarining ta'lim olishi hamda malakasini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, **uzluksiz kasbiy ta'lim, o'qituvchi,** malakasi oshirish.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida globallasuv va keskin raqobatchilik kuchayib borayotgan sharoitda insonning butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Uzluksiz ta'lim g'oyasining paydo bo'lishi o'z navbatida, bir tomondan pedagogik konsepsiya sifatida, boshqa tomondan esa, amaliyotning natijasida paydo bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25-yanvardagi PQ-4963-sonli "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga[1] asosan an'anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy o'qitishning uyg'unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan, masofaviy va boshqa turlari joriy etilishi nazarda tutilgan.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar raqamli texnologiyalarga asoslangan ta‘lim platformalari va uning o‘quv-metodik ta‘minotni yaratish va rivojlantirishning konseptual tamoyillarini aniqlashtirish, fanlar bo‘yicha integrallashgan o‘quv-metodik resurslarni yaratishga qo‘yiladigan talablarni takomillashtirish, fan bo‘yicha o‘quv-metodik resurslarini optimal taqdim etish, raqamli texnologiyalarga asoslangan o‘quv-metodik ta‘minot orqali kasbiy kompetentlikni oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoq va sohalariga keng hamda jadal kirib borishi axborotlashgan jamiyatni shakllantirishga zamin yaratmoqda. “Elektron hukumat”, “Elektron boshqaruv”, “Masofaviy ta‘lim”, “Masofaviy o‘qitish”, “Ochiq ta‘lim”, “Elektron ta‘lim” kabi tushunchalar hayotimizga keng kirib keldi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda uzluksiz ta‘lim borasida bir-biridan farqlanuvchi bir necha nuqtayi nazarlarni uchratish mumkin. Ulardan eng ko‘p uchraydiganlari: “uzluksiz ta‘lim - butun hayot davomida egallaydigan ta‘lim”, “uzluksiz ta‘lim - kattalar uchun ta‘lim”, “uzluksiz ta‘lim - bu uzluksiz kasbiy ta‘lim” kabi iboralar qo‘llanilsa, jahon pedagogikasida uzluksiz ta‘lim bir nechta atamalar bilan izohlanib, ular ichida “davom etuvchi ta‘lim”, “hayot davomida o‘qish”, “doimiy o‘qish” iboralari keng qo‘llaniladi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sifatini oshirishning ta‘minlovchi zamonaviy, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, tinglovchilarning bilimi, pedagogik mahoratini uzluksiz ravishda yangilab borish, zamon talablariga mos ta‘lim sifatini ta‘minlash uchun kasbiy tayyorgarligini oshirish imkonini beradigan ta‘lim shaklidir [2].

Mazkur ta‘lim bugungi kunda tinglovchilarning ilmiy salohiyati va kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, rivojlangan mamlakatlardagi tinglovchilar kasbiy mahoratidan kam bo‘lmagan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bunda birinchi bo‘lib matematika o‘qituvchilarining fanga kiritilgan yangi mavzularni o‘qitish metodikasini rivojlantirish, yangi metodikalarni dars jarayonida samarali qo‘llash vazifasi turibdi. Shu sababdan ta‘lim jarayonida tinglovchilarning fanni o‘qitish metodikasini takomillashtirishga ehtiyoj ko‘paymoqda.

G.Boymurodova malaka oshirish tizimini modernizatsiyalash jarayonida o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishning nazariy asoslari, malaka oshirish tizimini modernizatsiyalash jarayonida o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish tizimining didaktik xususiyatlari, uzluksiz rivojlantirish mexanizmlari va ularni tanlash parametrlari, o‘qituvchilar kasbiy

kompetentligini uzluksiz rivojlantirish mexanizmining komponentlari (motivatsion, kognitiv, protsessual, kreativ) va amalga oshirish bosqichlarini tadqiq etgan [3].

A.Ibragimov pedagog xodimlari malakasini oshirish tizimi taraqqiyotining metodologik va ilmiy asoslari, malaka oshirishning dolzarb muammolarini hal etishda ko'p vektorli yondashuvning imkoniyatlari, pedagoglar kasbiy rivojlanishida ilmiy-metodik kuzatuvning xususiyatlari, shuningdek, modulli o'qitish va o'quv mazmunini takomillashtirishning o'zaro aloqadorligi, malaka oshirishning ko'p vektorli modeli, ilmiy-metodik kuzatuv texnologiyasi, o'quv dasturlarini takomillashtirib borish mexanizmi, modulli jamg'ariladigan tizim mohiyati va pedegogning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash tuzilmasini asoslab bergan[4].

A.Askarovning tadqiqot ishida xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish o'quv me'yorlarini optimallashtirish va subyektlarning motivatsion faoliyatini tizimlashtirish asosida o'quv jarayonining integratsiyalashgan modeli mazmuni, tarkibiy tashkil etuvchilari, xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish sharoitida samarali o'quv faoliyati uchun tinglovchi tayyorgarligi sifatiga qo'yiladigan kompetensiyaviy talablarning parametrlari va indikatorlari adaptatsiya shartlari asosida aniqlashtirilgan[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy adabiyotlar tahlili, ilg'or xorijiy va mahalliy pedagogik tajribalar, qiyoslash, umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida matematika fani o'qituvchilarining ta'lim olish va malakasini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish hozirgi kunda *onlinedu.uz* platformasi orqali amalga oshirilmoqda. Elektron platforma resurslaridan foydalanish ta'lim muassasalarining yagona axborot makoni ta'lim jarayoni qatnashchilarini o'zaro samarali aloqasini ta'minlovchi sifatida platformaga joylashtirilgan resurslar elektron shakldagi o'quv materiallari yagona ta'lim muhitining tarkibiy qismi sifatida ayrim muammolarni yechishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimiga o'tish xalq ta'limi xodimlarining barchasini har yili malaka oshirishga jalb qilishni va bunda ularning kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib o'quvlarni turli xil shakllarda tashkil etishni nazarda tutadi. Ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirishni esa faqatgina intellektual dasturiy vositalar yordamida ya'ni, A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali amalga oshiriladi.

Har bir xalq ta'limi xodimi joriy kalendar yili oxirida qayerda va qanday shaklda malaka oshirishni xohlayotgani haqidagi ma'lumotlarni platformaga bazasiga kiritadi, platforma esa barcha ma'lumotlarni umumlashtirgan holda tizim

xodimlarining navbatdagi kalendar yilida kasbiy rivojlanishning hududlar va malaka oshirish muassasalari kesimidagi o'quv rejasini shakllantirib beradi [2]. Albatta, uzluksiz kasbiy ta'lim platformasi orqali malaka oshirish kasbiy rivojlanishni tashkil etishning yagona shakli emas, ishdan ajralgan holda bevosita malaka oshirish ta'lim muassasalarida an'anaviy tarzda yoki ishdan ajralmagan holda tashkil qilingan malaka oshirish kurslarida o'qish imkoniyatlari ham saqlab qolingan. Ushbu malaka oshirish kurslari ham 36 soatlik dasturlar asosida ta'lim tashkil etilgan bo'lib, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" platformasi belgilangan kreditlarni to'plagan tinglovchilarga malaka oshirganlik to'g'risidagi sertifikatlarni beradi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishni tashkil etish bo'yicha hududiy markazlarning faoliyati muvofiqlashtirildi va natijada tegishli yo'nalishlar bo'yicha xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish kurslarining o'quv reja va dasturlari qayta ishlab chiqildi, an'anaviy va onlayn tarzda tashkil etiladigan kurslarning o'quv-metodik ta'minoti to'la yangilandi. Shuningdek, yangilangan o'quv reja va dasturlari asosida platformada tashkil etiladigan malaka oshirish kurslarining video kontentlari tayyorlandi.

Bugungi kunda pedagog xodimlarning malakasini oshirish va ilg'or metodikalarni ta'lim jarayoniga olib kirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi ilg'or xorijiy mutaxassislar va milliy metodika yordamida kontentlari qayta ishlanmoqda. Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektron platformaning yaxshi tomonlari bilan birga kamchiliklari ham ko'zga tashlanmoqda. Hozirgi kunda malaka oshirishning barcha shakllarida faqatgina, bir xil toifaga mo'ljallangan malaka oshirish kurslari faoliyat olib bormoqda. Zero, elektron platforma – diagnostik tahlil olib borish, tinglovchilar bilimidagi mavjud bo'liqlarni to'ldirishga yo'naltirilgan. Demak, mazkur muammolarni bartaraf etish va elektron platformaning kelgusi istiqbollarini ta'minlash maqsadida, ilg'or xorijiy tajribalar, yangi ilmiy tadqiqotlar hamda rivojlanayotgan milliy metodikalardan foydalanib, toifalar kesimida uzluksiz kasbiy rivojlanishni takomillashtirish zarur. Kasbiy kompetentlikni oshirish jarayonida nazariy va amaliy bilimlarni konvergentlash talab etiladi [6].

Xulosa. Bugungi kun o'qituvchisi axborotlar shiddat bilan tez almashayotgan davrda faoliyat olib bormoqda. Unga bir yilda bir marotaba malaka oshirishga borib, kasbiy ta'limni olish kamlik qiladi. Kerak bo'lsa, har kuni yangiliklarni o'rganishi, tahlil qilishi va amaliyotga olib kirishga harakat qilishi kerak. Chunki bugungi o'quvchi juda ham yangilikka o'ch, o'zini ijodkorlik maydonida ko'rishni xohlaydi. Agar o'qituvchi uning qalbiga yo'l topa olmasa bergan bilimi va tarbiyasi bekor ketadi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi o'z ustida uzluksiz ijodiy ishlamas ekan, bugungi zamonaviy o'quvchini faniga qiziqтира olmaydi. O'quvchining qiziqishi, ehtiyojlari va imkoniyatlariga asoslanib, dars jarayonini loyihalash kerakligini unutmasligi kerak. Hozirgi zamon o'quvchisi axborot asrida ma'lumotlarni tez o'rganmoqda, agar o'qituvchi undan o'zib ketmasa, o'zining o'rnini o'quvchiga bo'shatib beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-sonli "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

2. Radjiyev A.B. Xalq ta'limi tizimida rahbar xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni boshqarish samaradorligini oshirish (umumta'lim maktablari direktorlari misolida): ped. fan... (PhD) diss. avtoref. – Toshkent.: 2020. – 52 b.

3. Boymurodova G.T. Malaka oshirish tizimini modernizatsiyalash jarayonida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish mexanizmi. Avtoref. diss. p.f.d. 2021. – 68 s.

4. Ibragimov A.A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko'p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish. Avtoref. diss. p.f.f.d. 2018. – 56 b.

5. Askarov. A.D. Xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish. Avtoref. diss. p.f.f.d. 2017. – 51 b.

6. Петунин О.В. Профессиональный стандарт и повышение квалификации педагогов // Вестник Костромского государственного университета имени Н.А.Некрасова. Серия: Педагогика. Психология. Социальная работа. Ювенология. Социокинетика. – 2015. – Т. 21. – № 3. – С. 113-116.

TA'LIMDA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Tarix fakulteti 4-bosqich talabasi Temirov Islomjon Ilxomjon o'g'li*

Annotatsiya: Globallashayotgan davrda sog'lom va teran fikrlarga ega avlodni tarbiyalash eng ustuvor masalalardan hisoblanadi. Ularning ta'limi va tarbiyasining rivojida esa, zamonaviy axborot vositalari, raqamli texnologiyalar, shu jumladan, sun'iy intellektdan foydalanish orqali, eskicha ta'lim berish uslublarini modernizatsiyalashda keng foydalanish zarur. Ushbu maqolada bu sohaga oid bir qator masalalarga to'xtalib o'tildi.

Аннотация: В эпоху глобализации воспитание поколения со здоровыми и глубокими мыслями является одним из важнейших вопросов. В развитии их образования и воспитания необходимо широко использовать современные информационные носители, цифровые технологии, в том числе искусственный интеллект, модернизировать старые методы обучения. В данной статье затронут ряд вопросов, связанных с этой сферой.

Annotation: In the era of globalization, educating a generation with healthy and deep thoughts is one of the most important issues. In the development of their education and upbringing, it is necessary to widely use modern information media, digital technologies, including artificial intelligence, to modernize the old teaching methods. This article touched on a number of issues related to this field.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, raqamli texnologiya, masofaviy va inklyuziv ta'lim, animatsion video darslar, imkoniyati cheklanganlar uchun internet saytlar.

Ключевые слова: Информационные технологии, цифровые технологии, дистанционное и инклюзивное образование, анимационные видеоуроки, сайты для людей с ограниченными возможностями.

Key words: Information technology, digital technology, distance and inclusive education, animated video lessons, websites for people with disabilities.

Bugungi kun shiddat bilan rivojlanib, axborotlashib bormoqda va qulog'imizga "raqamli iqtisodiyot", "raqamli hukumat", "raqamli tadbirkorlik" kabi so'zlar tez-tez chalinayapti. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat kelajagi yo'q"[1]deb bejizga takidlagandi. Axborot texnologiyalari kirib bormagan soha yoki xonadon qolmadi desak mubolag'a bo'lmaydi nazarimda. Shuning uchun ham tezlik bilan o'zgarib borayotgan, globallashuv davrida yoshlarni zamon bilan hamnafas va har sohada yetuk kadr etib yetishtirish uchun ta'limga alohida e'tibor berish kerak albatta. Zero ta'lim va tarbiya masalasi har qanday jamiyatni ustuvor yo'nalishi sanaladi. Shuning uchun bugungi kunimizni raqamli texnologiyalar bilan ishlay oladigan yuqori malakali kadrlarsiz tasavvur qila olmay qoldik. Ta'limga ham raqamli texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifatini oshirish bilan bir qatorda yoshlarning ham zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishini va zamon bilan hamnafas rivojlanishini ta'minlaydi .Prezidentimizning shu sohani rivojlantirish uchun 2020-yil 28-apreldagi qarori ham qabul qilingan bo'lib, unda quyidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilangan:

ta'lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan raqamli bilimlarning darajasini

oshirish, ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, "Besh tashabbus" loyihasini amalga oshirish doirasida 2022-yilga qadar respublikaning barcha hududlarida raqamli bilimlarga o'qitish markazlarini ochish[2].

Raqamli axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayoniga qanday ta'sir o'tkazadi:

Birinchidan, o'quvchilarning va o'qituvchilarning vaqtini tejaydi va dars samaradorligini oshiradi;

Ikkinchidan darsning qiziqarli o'tishini va o'quvchilarning ko'proq bilim olishini ta'minlaydi.

Uchinchidan ta'lim sohasidagi korupsion holatlarni yuzaga keltirishni oldini oladi. Umuman olganda har qanday sohaning raqamli texnologiyalar asosida elektronlashishi inson omilini kamaytirishga yordam beradi. Korupsion holatlarni kamaytirishda bu ham sinalgan jahon tajribasi sanaladi. Axborot texnologiyalaridan ta'limda, ya'ni, dars jarayonida foydalanishning muhim jihatlari shundaki inson psixologiyasida insonning biror axborotni saqlab qolishi uchun ko'rish va eshitish dastlabki omillar ekanligini hisobga olsak, darsda multimediya vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan tarix darslarida biror bir voqea yoki obyekt, ma'lum uzoq muddat va energiya sarflab og'zaki tushuntirgandan ko'ra, uni video, rasm yoki 3D shaklini ko'rsatish yaxshiroq samara beradi. Biror moddiy manba, ya'ni, xumdonni olaylik, uning shakl-shamoyili, rangi, qanday tasvirlar bilan bezatilganligi, o'troq yoki ko'chmanchilik madaniyatiga oidligi haqida ma'lum muddat tavsif bergandan, shu xumdonni o'zini suratini ko'rsatish, uni uzoqroq va yaxshiroq xotirada saqlash hamda tushuncha xosil qilishga yordam beradi. 2020-yildagi pandemiya bizga ko'p narsalarni o'rgatdi va hayotimizga, shu o'rinda ta'limga ham o'zgartirishlar kiritish jarayoning tezlashuviga turki bo'ldi. Ya'ni, yangi ta'lim shakllari joriy etildi. Masofaviy, inklyuziv ta'lim kabi shakllar tizimda yangicha yondashuv zarurligini, dunyo ta'lim standartlariga moslashish kerakligini ko'rsatib berdi. Masofaviy, inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.[3]

Bizda bugungi kunda ta'limda imkoniyati cheklanganlar uchun bir qator sharoitlar yaratilgan. Bu yaxshi albatta, lekin ularni yaxshi bilim olishi uchun, biz axborot texnologiyalarini keng joriy qilish orqali yanada, ularning kengroq va chuqurroq bilim olishi uchun mavjud sharoitlarni yanada yaxshilashimiz mumkin. Ularning darsliklari cheklangan yoki ma'lum bir saytlar va programmalar orqali amalga oshirilyapti, ammo bular yetarli darajada emas. Bizning oldimizdagi vazifa shundan iboratki, audio kitoblarning sonini ko'paytirishimiz, tarix misolida aytaman video darslar, tarixiy jarayonlarni animatsion videolar orqali jonlantirish, tarixiy shaharlar, shaxslarning 3D formatdagi suratlarini tiklash orqali yanada

yaxshilashimiz mumkin. Bu kabi muammolarni hal etishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish bir qancha yengilliklarga sabab bo'ladi. Shu orqali bir qancha muammolarni hal qilgan bo'lardik. Birinchidan, masofaviy yoki inklyuziv ta'lim uchun material; Ikkinchidan, bu elektron video darsliklar, imkoniyati cheklanganlar uchun eshitish, ko'rish, imkoniyatini beradi va bu nafaqat, ular uchun balki butun jamiyat uchun ham foydalansa bo'ladi. To'g'ri bunday darsliklar bazi saytlarda yoki internet tarmoqlarida bo'lishi mumkin, lekin ularda xatoliklar va noprofessionaliklarni ko'zatishimiz mumkin. Saytlarning asosiy xatolaridan biri, dasturchilarning mutaxassislar bilan birgalikda ishlamaganligidir. Buni ishonchli va sifatli shaklda ishlab chiqish uchun soha mutaxasislari, pedagoglar jamoasi bilan hamkorlikda ishlash yaxshi samara beradi. Axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etish uchun Prezidentimiz qarorida quyidagilar keltirilgan:

Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim berish va malaka oshirishning ustuvor yo'nalishlari:

axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish;

raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali kadrlar avlodini shakllantirish maqsadida umumta'lim maktabi o'quvchilariga dasturlashni o'rgatish uchun sharoit yaratish;

Ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

ta'lim pog'onasining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamlı raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish;

yagona masofaviy ta'lim platformasini kelajakda ta'limning barcha yo'nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish;

o'quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarining asosiy o'quv dasturlariga doimiy o'zgartirishlar kiritish;

texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o'qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta'lim tizimiga joriy etish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq yo'nalishda kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari sonini, axborot texnologiyalar sohasida o'rtacha darajada kompetensiyaga ega bo'lgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini oshirish;

axborot texnologiyalar sohasidagi tashkilotlarining o'quv jarayonlarga qatnashishini rag'batlantirish orqali umumta'lim maktablarda informatika fanini o'qitish metodlarini takomillashtirish;

oliy ta'lim muassasalarida tegishli sohalarda "Buyumlar interneti", robototexnika, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va o'rganish bo'yicha laboratoriyalar, shuningdek, xorijiy korxonalarni ushbu sohaga jalb qilishni tashkil qilish;

qog'oz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish formatlaridan foydalanish bo'yicha davlat yagona talabini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash orqali ta'limda o'quv materiallarini raqamlashtirish;

raqamli texnologiyalar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va rag'batlantirish, ularning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish.[4]

Bu ishlarning samarasi o'laroq bugungi kunda maktablarda E.MAKTAB va oliy ta'lim uchun HEMIS dasturlari ishlab chiqilib integratsiya qilindi. Bular o'quvchi va o'qituvchilarga har tomonlama ijobiy ta'sir o'tkazadi. O'qituvchilar ortiqcha hujjatlardan xoli va buning ortidan orttirilgan vaqtdan, o'zining ustida ishlash, yangi bilimlarga ega bo'lish va darsning sifatli tashkil etilishi uchun turli pedtexnologiyalar ustida izlanishi uchun sharoit yaratilmoqda. Bu dasturlarda o'quvchilar uchun ham ancha yengilliklar bor. Elektron kutubxona, darslar jadvali, topshiriqlar, mavzular va ma'ruzalar to'plamlari barchasi o'quvchilarga juda katta qulayliklar yaratadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki bu qilinayotgan ishlar, yaratilayotgan sharoitlar va kiritilayotgan o'zgarishlarning barchasi mamlakatimizning rivoji, xalqimizning farovonligi va biz yoshlarning dunyo yoshlari bilan har sohada bellasha olishimiz uchundir. Yurtboshimiz aytganlaridek, uchinchi renesansni biz yoshlar quramiz. Bu yo'lda bizga ulug' bobomiz, naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi Xoja Ahror Valiyning "Shunchaki orzu bilan ish bitmaydi, maqsadga erishish uchun g'ayrat va himmat kerak", degan so'zlari biz uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.[5] Faqat biz bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishimiz kerak, faqat birinchi va ikkinchi renesans qurgan bobolarimiz bilan faxrlanibgina qolmay, ularga munosib bo'lishimiz ham kerak. Fikrimni Adissonning so'zi bilan tugatmoqchiman: "Ajdodlar nomi va sharafi unga munosib bo'lganlarga yarashadi".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalq so'zi gazetasi 03 Noyabr 2020 <https://xs.uz/uz/post/raqamlashtirish-osish-va-samaradorlik-omili>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.04.2020 yildagi PQ-4699-son. <https://lex.uz/docs/-4800657>
3. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni 16,20 modda 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/-5013007#-5013199>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957#-5032118>
5. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, Shavkat Mirziyoyev, T.: 2022, 19-bet

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM SOHASIDAGI MUVAFFAQQIYATLARI

*Toshkent davlat pedagogika universiteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi,
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
1-kurs magistri Turg'unboyeva Dilyoraxon*

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni joriy qilishga e'tibor, ularning ta'lim sohasidagi dolzarbliligi, ta'lim tizimida undan foydalanishning ustunliklari va hozirgi kundagi natijalari keltirilgan. Zamonaviy ped-texnologiyalardan unumli foydalanish tarbiyalanuvchilar hayoti va faoliyatida nechog'lik dolzarbliligi tasvirlangan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, raqamli avlod, zamonaviy metodlar, pedagogik mahorat, innovatsiya, an'anaviy ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim jarayoni, axborot, sifatli ta'lim.

Abstract: This article focuses on the introduction of digital technologies, their relevance in the field of education, the advantages of its use in the educational system, and its current results. The importance of efficient use of modern ped-technologies in the life and activities of the students is described.

Key words: digital education, digital generation, modern methods, pedagogical skills, innovation, traditional education, modern technologies, educational process, information, quality education.

Аннотация: В данной статье речь идёт о внедрении цифровой технологии, их актуальность в сфере образования, преимущества его использования в системе образования и настоящем преимуществе. Описано

насколько важно эффективное использование современных пед-технологии в жизни и работе студентов.

Ключевые слова: цифровое образование, цифровое поколение, современные методы, педагогические навыки, инновация, традиционные образование, современные технологии, процесс обучения, информация, качественное образование.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda yashar ekanmiz, yaratilgan har bir sohada rivojlanish va yangi bosqichga ko'tarilishga guvoh bo'lamiz. Shu bilan birga aynan shu jarayonda o'zimiz ham bevosita va bilvosita ishtirok etamiz. Insoniyat hayotidagi barcha yo'nalishlarga raqamli texnologiyalarning joriy qilinganlari insonlar yashash turmush-tarzi va ish faoliyatini sezilarli darajada yaxshiladi. Bu haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev uning joriy etilishidagi ahamiyatini ta'kidlab shunday deganlar: „ Barqaror rivojlanishga erishish uchun biz raqamli bilimlarni va axborot texnologiyalarini chuqur o'zlashtirishimiz kerak, bu esa bizga har tomonlama rivojlanishga erishish uchun eng qisqa yo'ldan borishimizga imkon beradi. Bugungi dunyoda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Darhaqiqat, texnologiyalar ta'lim tizimida bir qancha qulayliklar va yengilliklar yaratdi. Axborot texnologiyalari bilimni keng miqyosda tarqatish va uni samarali o'zlashtirishni ta'minlash maqsadida paydo bo'ldi va ta'lim islohotlarining bugungi kundagi asosiy harakatlantiruvchi bosh markazi desak adashmaymiz. Mobil qurilmalar, aqlli doskalar, kompyuterlar,skaner, electron pochta, planshetlar, videokamera, vizualizatsiya va virtual laboratoriyalar kabi gadjetlar va yangi innovatsiyalarning maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar va oliygoohlarda keng ko'lamli qo'llanilishi ta'lim sifati va samaralilik darajasini oshirdi.

Ta'lim tizimimizning hozirgi holati shu kungacha qo'llanilib kelgan an'anaviy ta'lim tizimimizning ko'plab kamchiliklariga barham berdi. Ta'lim oluvchilar tomonidan egallanishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar an'anaviy usul va texnikalarga qaraganda zamonaviy texnologiyalar bilan anchagina vaqtni tejashga xizmat qiladi. Bu kabi texnologiyalar o'quvchilar bilimlarini qulay tarzda egallash, rivojlantirish va tarqatish vositalarini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fan mazmun doirasini chuqurlashirish va kengaytirish,yuqori samarali o'qitish usullarini qo'llash imkonini beradi.

Avvalo, texnologiyalar qo'llanilmasdan avvalgi ta'lim tizimimizga e'tibor qaratadigan bo'lsak:

1.Ma'lumot bazasining kamligi.

Ta'lim oluvchilar faqatgina darsliklar bilan yoki o'qituvchi tomonidan berilgan qo'llanma bilangina chegaralanib qolishi. Bu mavzuning yetarlicha tushinilmasligiga, tushinish darajasi past bo'lishiga va dunyoqarashning sezilarli darajada

kengaymasligiga sabab bo'lgan. Bundan tashqari, hozirgi kunda judayam zarur bo'lgan kreativ qobiliyatni rivojlanishida mavzuga qo'shimcha manbaning topilmasligi va taqqoslab o'rganishning imkoniyatining yo'qligi oqibatida bu qobiliyatning o'ta past darajada shakllanishi.

2.O'quv jarayonidagi birxillik.

Texnologiyalar yo'qligi oqibatida dars jarayonida qo'llaniladigan metod uslublarda yangiliklar yo'qligi oqibatida ta'lim oluvchilarning mavzuga nisbatan befarqligi va buning o'zlashtirish darajasiga nisbatan salbiy ta'siri

3.Vaqt tanqisligi.

Darsga oid materiallar, ma'lumotlar va topshiriqlarning yetkazishda ko'p vaqt sarflanishi oqibatida asosiy maqsad bo'lgan yangi bilimni berishga kam vaqt qolganligi yoki ba'zan, hattoki yetmay qolishi

4.O'qituvchining fokusi noto'g'ri yo'nalishi.

O'zlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida o'tkazilgan nazorat ishlari va yozma ishlar tekshirilishiga e'tibor berilishi maqsadida, mavzuga yaxshi tayyorlanmaslik va talab darajasida yetkazib berolmaslik.

5.Noqulayliklar.

Ta'lim jarayonida kerak bo'ladigan materiallarni (katta hajmadagi kitoblar, qo'llanmalar, o'quv materiallari va hk) olib yurishdagi noqulayliklar.

Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish bir qancha natijalar beradi. Jumladan:

7. Bilim va axborotni turli ko'rinishda (matn, multimedia, animatsiya,grafika, jadval, video, ovoz va hk) ko'rinishlarda taqdim etilishi ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan obyektga nisbatan qiziqish uyg'otadi va ularni osonlikcha jalb qiladi.

8. Bilimni keng va mukammal o'zlashtirish imkoniyati va uni qabul qiluvchi xotirasida uzoq muddat saqlanishi, zarur paytlarda amaliyotga qo'llash darasi ortadi.

9. Ta'lim oluvchilar egallagan bilim, ko'nikmalar asosida didaktik topshiriqlar, test savollari, muammoli vaziyatga bergan javoblarini, o'zlashtirish darajalarini tekshirib hisoblab beradi (bu jihat orqali o'qituvchi faqat ularni bilimlarini tekshirish uchun vaqt sarflamaydi, o'rniga ko'proq ma'lumot berishga muvaffaq bo'ladi).

10. Dars jarayoni to'liq va yangidan modifikatsiyalanadi, ya'ni vaqt tanqisligi muammosining oldi olinadi(tashkiliy ishlar, topshiriq tuzish ishlari o'qituvchi zimmasidan olinib , birxillikdan qochish ta'minlanadi).

11. Ma'lumot bazasining kengligi va turli tumanligi tufayli, barcha axborot bazalaridan o'qitilayotgan fanga oid axborotlar va yangiliklardan xabardor bo'lish imkonini beradi

12. Ta'lim oluvchining faol ishtirokini ta'minlaydi, mustaqil ta'lim olish imkoniyati paydo bo'ladi va o'qituvchi bilan erkin muloqotga kirisha oladigan shaxsga aylanadi.

Bundan tashqari raqamli ta'lim:

g) Istagan joyingizda va istagan vaqtingizda ta'lim olish;

h) vaqt va moddiy xarajatni kamaytirish;

i) cheksiz va turli axborot olish;

j) professional tarzda o'rganib, zamonaviy kasblarni egallash;

k) rivojlangan davlatlar bilan tenglasha olish;

l) barcha sohadagi tizimlarimizni yangi pog'onaga ko'tarish uchun keng yo'l ochdi.

Ta'limda axborot texnologiyalarining keng ko'lamda joriy etilganidan so'ng, ushbu sohadagi muvaffaqiyatlar barchamizga sir emas. Ta'lim samarasini yanada yaxshilash va bu yutuqlar sonini yanada ko'paytirish maqsadida davlatimizda yurtboshimiz tomonidan bir qancha loyihalar va dasturlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, har bir viloyat va tumanlarda IT-parklarning tashkil topishi, har bir o'quv maskanlarining zamonamizning eng so'nggi axborot texnologiyalari bilan to'liq ta'minlanishi va bunday loyihalarning tez-tez o'tkazilib turilishi yoshlarning raqamli texnologiyalardan unumli foydalanishi, yuqori darajada o'zlashtirishiga va bu sohada yutuqlarga erishishiga sabab bo'ladi. Bunday loyihalardan biri sifatida joriy yilning oktyabr oyida o'tkazilgan keng qamrovli „President tech award“ loyihasini misol qilishimiz mumkin. Ushbu tanlovda umumiy jamg'armasi 1 million dollarni tashkil etuvchi tanlov g'oliblariga pul mukofotlari natijalarga qarab taqdim etildi. Bundan tashqari „Raqamli texnologiyalar vazirligi stipendiyasi“ kabi tanlovlarning amalga oshiriliyotganligi bu ushbu sohani rivojlantirishga bo'lgan e'tibor va talabning ifodasidir.

Ma'lumki, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulotlar va xizmatlar sifatini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi, balki meni juda qattiq tashvishga soladigan eng jiddiy muammo – korrupsiyaga qarshi kurashda ham samarali vosita hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi davlat va jamiyat boshqaruvining samaradorligini oshirishga, bir so'z bilan aytganda, odamlar hayotini tubdan yaxshilashga yordam beradi, Sh.Mirziyoyev.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, raqamli texnologiyalarni turli sohalarga, ayniqsa, ta'lim sohasiga joriy qilinishi mamlakatimiz ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni samarali qo'llash orqali bugungi kun tarniyalanuvchilariga, ya'ni raqamli

avlodga moslashtirish orqali mavjud tizimni yuqori pog'onaga ko'tarish oliy maqsadimiz ekanini har bir pedagog yaxshi anglashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. 27-yanvardagi IT sohasini va IT-Parklarni rivojlantirishga bag'ishlangan nutqi. Toshkent-2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. 15-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun „Raqamli texnologiyalar yo'nalishida eng yaxshi startap“ (President Tech Award) tanlovini o'tkazish tartibi tog'risidagi qarori. Toshkent-2023.
3. Yuldashev U.A., Xudoyberdiyev, M.Z., & Axmedov, T.B. (2021). O'quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. // Academic research in educational sciences, 2(3).
4. Yo'ldashev U.A. Use of video lesson creative technologies in the process of electronic education // Scientific Methodical Journal. T-2021.
5. Raqamli texnologiyalar va ta'lim istiqbollari. Konferensiya materiallari. Qo'qon-2021.
6. Babaraximova D. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llashning ilmiy-pedagogik masalalari. Toshkent-2022

ZAMONAVIY TELEKOMUNIKATSIYA

*Norinov Muhammadyunus Usibjonovich
TATU Farg'ona filiali o'qituvchisi
Ergashev Ahrorbek Akmaljon o'g'li
TATU Farg'ona filiali talabasi
Maqsudov Shoyatbek Abdusalom o'g'li
TATU Farg'ona filiali talabasi*

Yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi, qoida tariqasida, ulardan amaliy foydalanish mumkin bo'lgan sohalarning keng doirasini qamrab oladi. Bu mashinasozlik, qurilish, tibbiyot, ishlab chiqarish sohasining turli sohalarida va hokazolarda sodir bo'ladi.

Biroq, har bir soha taraqqiyotning dvigateli bo'lib, rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishni rag'batlantirmaydi. Shu ma'noda telekommunikatsiya texnologiyalarini yangi g'oyalarni yaratish uchun universal vosita sifatida ko'rish mumkin, ular keyinchalik qo'llanishning boshqa sohalariga o'tishi ham mumkin. Telekommunikatsiya tizimlarining asosiy vazifasi ham yuqori boladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida sug'urta tizimini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va bu orqali sohada iqtisodiy samaradorlikni oshirish borasida davlat tomonidan islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, "Ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda uzoq muddatli ixtiyoriy pensiya sug'urtasining yangi turlari va mexanizmlarini joriy etish yo'li bilan fuqarolarning pensiya ta'minoti darajasini oshirish"¹² hamda "Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy ta'minotdan foydalanish huquqini ta'minlash, xalqaro standartlarga muvofiq ijtimoiy sug'urta orqali homiladorlik va tug'ish nafaqalarini to'lab berish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish"¹³ maqsadida qarorlar chiqarilgan.

O'zbekistonda 2022 yil boshida shaxsiy sug'urta sohasi ko'rsatkichlari jahondagi o'rtacha ko'rsatkichlarga nisbatan o'ta past darajada bo'lib, shaxsiy sug'urta tushumining yalpi sug'urta tushumidagi ulushi 21 %ni, YaIM dagi ulushi 0,1 %ni, aholi jon boshiga sug'urta mukofotlari esa 2 AQSh doll.ni tashkil qilgan¹⁴. O'zbekistonning shaxsiy sug'urta sohasida boshqaruv ham makro, ham mikro darajada samarador bo'lgan taqdirdagina soha yetarli rivojlanadi. Aks holda, bir tomondan davlat boshqaruv tizginini qo'ldan boy beradi, sug'urta kompaniyalari esa o'zaro nosog'lom raqobatni rivojlantirib, demping botqog'iga botadi, kompaniyalar moliyaviy holati jiddiy yomonlashadi, ularning rentabellik darajasi pasayadi va iste'molchining ishonchini butkul yo'qotadi. Hayot sug'urtasi mahsulotlariga davlat tomonidan berilgan imtiyozlar o'zini oqlamay qo'yadi. O'zbekiston shaxsiy sug'urta sohasida bu tendensiya ma'lum darajada namoyon bo'lmoqda. Bu holatlarni bartaraf etish sohada boshqaruv masalalarini chuqur o'rganish va shu asosda tegishli takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi. Sohada boshqarish samaradorligini oshirish, samaradorlikni baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish zaruratini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Faoliyat maqsadlariga erishish uchun kompleks yondashuvni o'z ichiga olgan strategik boshqaruv usuliga ya'ni muvozanatlangan ko'rsatkichlar tizimiga asoslangan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (KPI) ko'plab boshqaruv konsepsiyalari orqali qo'llanilgan. KPIning maqsadli (maqsadlarga yaqinlashish darajasi), jarayonli (iqtisodiy samaradorlik mezoni sifatida), loyihali (loyihadan kutilgan natija, natijaviylik) ko'rinishi bo'lib, boshqaruv ular orqali moliyaviy, mijoz, ichki jarayonlar, rivojlanish bilan bog'liq

¹² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Суғурта бозорини рақамлаштириш ва ҳаёт суғуртаси соҳасини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2021 йил 21 октябрдаги ПҚ -5265-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/5692504?ONDATE=07.07.2023&action=compare>

¹³ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Давлат ижтимоий суғурта тизimini ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2022 йил 20 сентябрдаги № 515-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/6200266>

¹⁴ Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари.

yo'nalishlarning samaradorlik mezoniga yaqinlashish darajasi yoki iqtisodiy samaradorligini aniqlaydi¹⁵.

«Fundamentalnye issledovaniya»¹⁶ ilmiy jurnalida quyidagicha fikr keltirilgan: Mezon bu o'lchov, andoza bo'lib, uning yordamida jarayon, hodisa, holat baholanadi. Mezon ko'rsatkichga ko'ra kengroq tushuncha bo'lib, ko'rsatkich mezoni ifodalaydi. KPI borasida esa uning tarjimasining qabul qilingan yakuniy tushunchasi yo'q. Shunday bo'lsa-da, xorij tadqiqotlari asosida bu tushunchaning eng aniq tarjimasini quyidagicha deb bilamiz, ya'ni bu amalga oshirilgan harakatlarning natijaviyligi va samaradorligini o'lchash uchun absolyut yoki nisbiy qiymatlarda ifodalanuvchi ko'rsatkichlardir. Jahon amaliyotida Swiss Re Institute tadqiqot instituti o'z hisobotlarida sug'urta mukofotlari hajmi, sug'urtaning kirib borishi va zichligi va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida global sug'urta bozorini baholab, keyingi rivojlanish bo'yicha o'z xulosalarini beradi. Bu ko'rsatkichlar har bir davlat miqyosida sug'urta sohasining iqtisodiy tarmoq sifatida rivojlanish darajasi va sug'urta turlari hamda tarmoqlarini baholash imkonini beradi.

Yevropa Ittifoqining Solvency II Direktivasida sug'urta kompaniyalari faoliyati bo'yicha belgilangan nazoratning muhim komponentlari biriktirilgan. Unga ko'ra miqdorli, sifatli va ochiq ma'lumotlar talablari orqali sug'urta kompaniyalari va guruhlariga me'yoriy talablar belgilanadi. Miqdorli baholashda kompaniya kapitalining biznes va operatsiyalarni hisobga olgan holda sug'urta faoliyati bilan bog'liq risklarni qoplash darajasi aniqlanadi. Kompaniya boshqaruviga joriy etilgan tizimning samarador va moslashuvchanligi sifat usulida baholanadi. Ochiq hisobot esa kompaniya ma'lumotlarining regulyator va iste'molchilar uchun mavjudligi va shaffofligini ta'minlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada shaxsiy sug'urta tizimini rivojlantirishda boshqaruv samaradorligini oshirish borasida olib borilgan islohotlarni qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

¹⁵ Вишнякова М. В. Мифы и правда о КПИ / Худож. А. Васильева. – М.: ЛЕТОПИСЬ, 2017. – 274 с. – 2000 экз. — ISBN 978-5-91051-096-2, УДК 65.01.005, ББК 65.9(4Рос)29-21

Ветлужских Е. Н. Система вознаграждения. Как разработать цели и КПИ / Тех. ред. Н. Лисицина. – 2-е. – М.: Альпина Паблицер, 2013. – 216 с. – 2000 экз. – ISBN 978-5-9614-4385-1, УДК 658.3; 331.221; 65.013, ББК 65.291.6; 65.245; 88.4.

¹⁶ [Электрон ресурс]: <https://fundamental-research.ru/ru/article>

Tahlil va natijalar. Xorijiy amaliyotda ko'plab sug'urta kompaniyalari tomonidan muvozanatlangan ko'rsatkichlar tizimiga asolanigan strategik xaritaga muvofiq muhim ko'rsatkichlar belgilab olingan. Bunga yorqin misol sifatida muvozanatlangan ko'rsatkichlar tizimi asosida boshqaruv samaradorligiga erishgan CIGNA P&C jahon sug'urta kompaniyasi hisoblanadi. Ushbu tizimga asolanigan baholash ko'rsatkichlari joriy etilgan ilk kompaniyalar qatorida CIGNA P&Cda ham muvaffaqiyatli tarzda boshqaruv maqsadlari va operatsion vazifalarini baholash tizimi yaratildi. Birinchi navbatda, kompaniya keng qamrovli sug'urta xizmatlaridan tor yo'nalishga ixtisoslashtirildi.

Jahonda Yaponiya hayot sug'urtasi rivojlangan mamlakatlar lideri hisoblanadi. Yaponiyada joylashgan jahon miqyosidagi Nippon Life Insurance Company, Japan Post Insurance Company limited, Meiji Yasuda Life Insurance Company, The Dai-ichi Life Insurance Company, Sumitomo Life Insurance Company, MetLife Insurance K.K. singari yirik kompaniyalar 2021 yil yakuniga ko'ra 300 mlrd. AQSh dollari hayot sug'urta tushumlari bilan dunyo sug'urta bozorining 10 %iga ega bo'ldi. Sug'urta boshqaruvi samardorligini makrodarajada baholashda sug'urtaning zichligi va kirib borishi, imzolangan sug'urta mukofotlari hajmi asosiy hisoblanib, ushbu ko'rsatkichlar asosida mamlakatda keyingi davr uchun ustuvor yo'nalish va vazifalar belgilab olinadi.

Iste'mol qiymati iste'molchi uchun mahsulotning afzalliklari va xarajati o'rtasidagi farqni tashkil qiladi, ya'ni mahsulotning sotib olish xarajati kam va aksincha foydalilik yuqori bo'lsa, tovarning iste'mol qiymati yuqori bo'ladi. O'zbekiston shaxsiy sug'urta sohasi taklifning iste'mol qiymati sug'urta munosabatlarining turli bosqichlarini aks ettirishi kerak deb hisoblaymiz. Bu bosqichlar sug'urtalanuvchi sug'urta tashkiloti, mahsulot sifatini tanlashdan boshlab yakuniy xizmat, ya'ni sug'urta qoplamasi to'langungacha muddatni o'z ichiga oladi. Biz shaxsiy sug'urta bo'yicha taklifning iste'mol qiymatini bir necha bloklarda taqdim etdik (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston sug'urta bozorida shaxsiy sug'urta mahsulotlari bo'yicha taklifning iste'mol qiymati¹⁷

Blok	Iste'mol qiymati
Sug'urtalashgacha	Xizmat tavsifi: A) sug'urta himoyasi darajasi: 1. Riskli holatda moliyaviy ta'minot 2. Jamg'arma orqali daromad, uzoq muddatli pensiya

¹⁷ Муаллиф ишланмаси.

	<p>V) sug'urta narxi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Bazaviy hisoblash miqdorining 3-70%gacha 2. Bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravaridan yuqori <p>S) sug'urta mukofotini to'lash tartibi:</p> <p>-naqd, naqdsiz, to'lov ilovalari orqali</p> <p>D) sug'urta qoplamasi: bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan yuqori</p> <p>Sug'urta kompaniyasi imiji va obro'si: taniqli; moliyaviy barqaror</p> <p>Mijoz bilan o'zaro munosabat: xodimlar malakasi; ma'lumotlar shaffofligi; javoblar tezligi; servis, yetkazib berish, mobil ilova va sayt orqali savdo</p>
Sug'urta davrida	<p>Xizmat tavsifi: oldini olish choralari taqdim etish; shartnoma shartlarini o'zgartirish imkoniyati; sug'urta mahsulotining konversiyasi; assistans xizmatlaridan foydalanish qulayligi; qo'shimcha xizmatlar (mobil ilova, moliyaviy maslahat); kompleks xizmatda chegirmaning mavjudligi</p> <p>Mijoz bilan o'zaro munosabat: xodimlar malakasi; ma'lumotlar shaffofligi; javoblar tezligi; servis</p>
Sug'urtadan keyingi: a) sug'urta hodisasi yuz bermagan holatda	<p>Xizmat tavsifi:</p> <p>-chegirma va bonuslar berish:</p> <p>a) shartnoma zararsiz bo'lsa, b) shartnoma uzaytirilganda;</p> <p>-sug'urta shartnomasini qayta rasmiylashtirish/uzaytirish tartibining sodda shakli;</p> <p>-sug'urtachining adolatsiz xatti-harakatini isbotlovchi faktlarni aniqlash imkoniyati;</p> <p>Mijoz bilan o'zaro munosabat: qayta aloqa</p>
b) sug'urta hodisasi yuz bergan holatda	<p>Xizmat tavsifi: murojaatning oson va soddaligi; sug'urta qoplamasini to'lash tezligi; sug'urtaning maqsadga muvofiqligi; sug'urta hodisasi holatlarini hujjat asosida tasdiqlash jarayoni.</p> <p>Mijoz bilan o'zaro munosabat: xodimlar malakasi; ma'lumotlar shaffofligi; javoblar tezligi; malakali maslahat; qayta aloqa; servis</p>

Iste'molchi xayrixohligini oshirishda sug'urta xizmatlari bo'yicha mijozlar ehtiyojlariga mo'ljal olish va bunda sug'urta xizmatlarini barcha parametrlarini qamrab oluvchi baholash muhimligi yuzaga keldi.

Masalan, Yaponiya kompaniyalari tajribasini o'rganish ko'rsatmoqdaki, xodimlar malakasini oshirish va qayta o'qitishga ish haqi fondining 10-20 % miqdoriga teng summa sarflanadi. Bu kabi xarajatlar tashkilot uchun qilingan uzoq

muddatli investitsiya sifatida qaraladi. Bunda sug'urta kompaniyasi o'qitish talabini, o'qitish uchun byudjet shakllantirish, malakali o'qitishning maqsad va samaradorligini baholashni bosqichma-bosqich amalga oshiradi. O'qishlar seminar, leksiya, keys, ishbilarmon o'yinlar, trening, kouching ko'rinishida bo'lishi mumkin. Albatta, o'qitish samaradorligini baholashda kompaniya o'qitishdan maqsadi nima ekanini aniqlab olishi muhim. Maqsadlar daromadni oshirish, sotuvni oshirish, xodimlar bazasini saqlash va xokazolarni tashkil qilishi mumkin.

Xulosa. Eng malakali va qimmatli xodim ham ishga rag'bati bo'lmasa hamda uning qaror qabul qilishiga cheklovlar o'rnatilsa, u ishga yetarlicha hissa qo'shmaydi. Rag'bat, vakolat va kompaniya maqsadlariga hamohang bo'lish rivojlanish yo'nalishining yana bir muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Bunda kompaniya rivojiga bir xodimga to'g'ri kelgan takliflar soni tahlil qilinadi. Shuningdek, kompaniya maqsadlari haqida tushunchaga ega bo'lishi, bo'linmada qabul qilinayotgan o'zgarishlarda fikrlar mutanosibligiga erishishi, rag'batlantirilayotgan mehnati uning maqsadiga mosligi xodimning ishga rag'bati darajasini belgilaydi.

O'zbekiston shaxsiy sug'urta sohasida boshqaruv samardorligini kompleks baholash tizimini ishlab chiqdik. Shaxsiy sug'urta sohasida boshqaruvning maqsadi shaxsiy sug'urta turlarini joriy etish orqali mamlakat ijtimoiy hamda iqtisodiy barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Shaxsiy sug'urta sohasida boshqaruv samaradorligini makrodarajada baholashda sug'urta sohasini yoritib beruvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida, mikrodarajada baholashda esa sug'urta kompaniyasi boshqaruvini 4 ta asosiy, ya'ni moliyaviy, mijoz, biznes jarayon va xodim yo'nalishlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar yordamida baholash mumkin.

O'zbekiston shaxsiy sug'urta sohasida boshqaruv samaradorligini kompleks baholash tizimi sug'urta sohasining hozirgi rivojlanish muhitida operativ vazifalarni birgalikda olib borish va maqsadga yo'nalgan muvozanatli qarorlarni qabul qilish uchun sug'urta faoliyatini kompleks baholash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодекси
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Суғурта бозорини рақамлаштириш ва ҳаёт суғуртаси соҳасини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2021 йил 21 октябрдаги ПҚ -5265-сонли қарори.
<https://lex.uz/docs/5692504>

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Давлат ижтимоий суғурта тизимини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2022 йил 20 сентябрдаги № 515-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/6200266>

4. Вишнякова М. В. Мифы и правда о КРІ / Худож. А. Васильева. – М.: ЛЕТОПИСЬ, 2017. – 274 с. – 2000 экз. — ISBN 978-5-91051-096-2, УДК 65.01.005, ББК 65.9(4Рос)29-21

5. Ветлужских Е. Н. Система вознаграждения. Как разработать цели и КРІ / Тех. ред. Н. Лисицина. – 2-е. – М.: Альпина Паблишер, 2013. – 216 с. – 2000 экз. – ISBN 978-5-9614-4385-1, УДК 658.3; 331.221; 65.013, ББК 65.291.6; 65.245; 88.4.

6. Панов М. М. Оценка деятельности и система управления компанией на основе КРІ. – М.: Инфра-М, 2013. – 255 с. – (Просто, Кратко, Быстро). – 500 экз. – ISBN 978-5-16-005781-1.

7. [Электрон ресурс]: <https://fundamental-research.ru/ru/article>

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA ARXITEKTURA YO’NALISHIDA TA’LIM BERISH

*Toshkent Kimyo xalqaro Universiteti, “Arxitektura va shaharsozlik”
Kafedrasi dosent v.b. N.X.Gulyamova. n.gulyamova@kiut.uz.
Toshkent Kimyo xalqaro Universiteti, “Arxitektura va shaharsozlik” yo’nalishi
3 bosqich talabasi M.Abdurasulova*

Annotatsiya: Maqolada raqamli texnologiyalardan foydalanib, arxitektura yo’nalishi talabalariga “Arxitektura tarixi” fanidan dars o’tish uchun ko’rsatmalar berilgan.

Аннотация: В статье с использованием цифровых технологий даны инструкции студентам архитектурного факультета по изучению предмета «История архитектуры».

Annotation: Using digital technologies, the article provides instructions to students of the Faculty of Architecture for studying the subject “History of Architecture”.

Kalit so’zlari: Texnologiya, chastota, masofaviy ta’lim, infratuzilma, arxitektura, madrasa, xonaqoh, peshtoq, gumbaz.

Ключевые слова: Технология, частота, дистанционное обучение, инфраструктура, архитектура, медресе, дом, крыша, купол.

Keywords: Technology, frequency, distance learning, infrastructure, architecture, madrasah, house, roof, dome.

Mazkur maqolani yozishda respublikamiz oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash maqsadi qo'yilgan bo'lib, unda raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasida nafaqat muhim o'rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo'yicha tahlillar amalga oshirildi.

Raqamli texnologiyalar - ma'lum bir ketma-ketlik va chastotalarda kodli impulslarni yozish uchun qo'llaniladigan elektron hisoblash mashinalaridan foydalaniladigan texnologiyalar.

Tadqiqot usullari sifatida oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga tegishli xulosalar tuzishda normativ hujjatlarni, mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirishdan foydalanildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "COVID-2019" pandemiyasi barcha sohalar singari ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi, jumladan oliy ta'lim muassasalarining barchasi ommaviy ravishda muddatidan oldin ta'tilga chiqishdi. UNESCOning ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'yicha 1,7 milliard o'quvchilar darslar to'xtatilgani sabab an'anaviy o'qishdan mahrum bo'lishdi. Yuzdan ortiq mamlakatlarda universitetlarning yopilishi dunyo talabalarining 90 foizini uyda o'tirishga majbur qildi. 3 martga kelib UNESCO 13 ta mamlakatda ta'lim muassasalarining vaqtincha yopilishi oqibatida 290,5 million o'quvchi va talaba o'qishdan uzilib qolganini ma'lum qildi va ularni zudlik bilan masofaviy ta'limga o'tishga chaqirdi.

Internet manbalarida xabar berilishicha, bugungi kunda atigi o'nga yaqin davlatdagi talabalarining 95 foizida kompyuter bor. Indoneziyada esa 34 foiz yoshning internetdan foydalanishga sharoiti yetarli. Qolgan davlatlarda bu ko'rsatkich ancha past. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasida ham bu ko'rsatkich yuqori darajada emas. Bunga sabab esa chekka hududlarda Internet infratuzilmasining yaxshi rivojlanmaganligidir. Bu esa ayrim mutaxassislar taxmin qilayotganidek, ta'lim sifati tushib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Oliy ta'limni Arxitektura yo'nalishida bilim olayotgan talabalar aynan mutaxassislik fanlarini tarixini yaxshi bilishlari kerak. Arxitekturamiz tarixi deganda ko'z oldimizga bevosita ajdodlarimiz-u, ular tomonidan bunyod etilgan tarixiy yodgorliklar kelishi tabiiy. Ayniqsa, tarixiy obidalar boyligi bilan butun dunyo sayyohlarini o'ziga jalb qila olgan Buxoro, Samarqand, Xorazm viloyatining tarixiy shaharlari shular jumlasidandir. Bu shaharlardagi yodgorliklar asrlar davomida

saqlanib qolib, biz avlodlargacha yetib kelgani quvonarli albatta. Shular qatorida O'zbekistonning ilk poytaxti bo'lmish, Buyuk ipak yo'lidagi yirik tijorat markazlaridan biri bo'lgan muqaddas Buxoro shahri bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu shaharning go'shasida – boy tarixga ega minoralari, osori – atiqalari, muqaddas qadamjolari va obidalarida olis o'tmishning aks – sadosi, qoldirgan izi bor. Buxoro – o'rta asrning 140 dan ortiq arxitektura yodgorliklarini o'zida saqlagan “Muzey shahar”dir. 16-asrdan beri qad ko'tarib turgan, xushmanzarali ulkan hovuz bo'yida bunyod etilgan va Labi-hovuz nomi bilan mashhur bo'lgan arxitektura ansambli shular qatoriga kiradi.

Buyuk ipak yo'lidagi savdo nuqtasi bo'lgan va yaqin atrofdagi savdo ko'chalarining joylashuvida bo'glanma hudud bo'lib hissa qo'shgan muhtasham Labihovuz (“hovuz bo'yida”, “havza bo'yida”) ansambli qadimiy Buxoroning markaziy yodgorliklaridan biridir. XVI – XVII asrlarda yaratilgan bu majmua, sakkiz qirralik hovuz va uning atrofida joylashgan Ko'kaldosh madrasasi, qo'sh tizimida Nodir Devonbegi xonaqohi va madrasalaridan tashkil topgan. Ansambl Buxoro shahristonining janubi – sharqiy qismida, Buxoro markaziy savdo ko'chasiga yaqin joylashgan. Labi hovuz yaqinida Toqi Telpakfurushon va Nug'ay karvonsaroyi joylashgan. Ansambl o'lchami, tahminan 150*200 metrdir. Asr o'rtalarida Labi hovuz jonli savdo gumbazlariga yaqinligi va Buxorodagi qurilishlarning nihoyatda zichligi bilan ajralib turgan. Labihovuz inshootlarining o'zaro ancha murakkab bog'lanishi bilan farq qiladi. Ko'kaldosh madrasasi xonaqoh bilan Devonbegi madrasasi orasida bo'lsada Samarqand Registonidagi singari qoq o'rtasida emas, balki o'ng, ya'ni sharq tomonga ancha surib qurilgan. Ammo bu kompozitsiyaga putur yetkazmaydi, chunki, ansamblning chap qismini hovuzning o'zi muvozanatlab turadi. Arxitektura ansambli tarkibiga birlashtiruvchi ob'yekt sifatida hovuz kiritilganligi, Buxoro me'morlarining O'rta Osiyo shahar qurilishi sohasiga eng ajoyib hissalarini desak adashmagan bo'lamiz. Ansambl bosh tarxiga e'tibor bilan qaraganimizda, qo'shuv arifmetik belgisini pastgi qismi yo'q holatini eslatadi. Majmuani beihtiyor koreys tilidagi “O” harfiga o'xshatish mumkin.

Buxoro xonligida, Buxoro amirligi va Buxoro xalq sovet respublikasining o'ziga xos Fanlar akademiyasi - Dor ul-funun bo'lgan. Labihovuz ansamblining shimolida joylashgan, hajmi va ko'lami jihatidan nafaqat Buxorodagi balki Markaziy Osiyodagi yirik madrasa hisoblangan Ko'kaldosh madrasasi 1568-1569 yillarda Abdullaxon vaziri Qulbobo Ko'kaldosh tomonidan qurdirilgan. Madrasaga asosiy kirish Labihovuz maydonidan tashkil etilgan. Kirish uchun peshtoq ayvonidan ketma-ket joylashgan yo'laklardan o'tiladi. Tarhi an'anaviy o'rtasini hovli egallagan, to'g'ri burchakli shakldan iborat. Madrasanining old fasadi maydoniga qaratilgan bo'lib, unga o'sha zamonning an'analariga muvofiq muzzam peshtoq qilingan. Madrasa

peshtoqidagi salobatli qalin eshikka o`ymakorlikning butun san`atini ishlatib, geometrik ornament va o`simlik nusxa jimjimador naqshlar solingan. Mix qoqmay tirnoqqa o`rnatib mahkamlangan pilakchalardan yasalgan eshik bir butun taxtadan tayyorlangandek tuyiladi.

Madrasa hovlisiga bir qancha kvadrat xonalardan o`tib kiriladi. Bu xonalarning gumbazlari arxitektura jihatdan ajoyib ishlangan. Bir-biri bilan kesishgan ravoqlar sistemasi tufayli gumbaz o`z markazi atrofida simmetrik joylashgan xilma-xil shakllardan tarkib topgan. Madrasaning fasadi uzoq-uzoqdan ko`zga tashlanib turishini nazarda tutib, me`morlar uning yon fasadlarini ham hushmanzarali bo`lishi uchun ikkinchi qavat ravoqlar qilganlar. Ravoqlarning sonini va yo`nalishini o`zgartirish ko`p nusxada bezatishga imkon tug`dirgan. Yassi yulduzlar turli burchak hosil qilib tutashtirilganda yorug`lik va soya beradigan effekt to`la namoyon bo`lishidan qadimiy ustalar Ko`kaldosh madrasasi bezagida mohirlik bilan foydalanganlar. Me`morlar bu gal gumbazlarni rangdor, koshinli qoplama qilib emas, balki sayqal berilgan g`isht terib bezatganlar. Shu tufayli ularning konstruksiyasi yaqqol bilinib turadi. Gumbazlardan bittasi hovliga chiqaverishdagi gumbaz mustasno tariqasida sayqal berilgan g`isht bilan birga koshin ham ishlatilib bezatilgan.

Buxoroning eski shahar va Labihovuz ansamblining sharqiy qismida joylashgan yana bir obidamiz Nodir devonbegi madrasasi, Buxoro xoni Imomqulixonning vaziri Nodir devonbegi tomonidan 1622 – 1623 yillarda bunyod etilgan. Madrasa Samarqanddagi Sherdor madrasasi misolida qurilgan. Madrasa dastlab karvonsaroy sifatida qurilgan, xonning qarori bilan madrasaga aylantirilgan. Uning boshidan madrasa uchun qurilmagani ko`zga yaqqol tashlanib turadi. Buni madrasalarga xos ayvon, masjid va dars xonalar yo`qligi ko`rsatib turadi. Qo`shimchasiga madrasaning ingichka kirish yo`lagi to`g`ri ichki hovli atrofida joylashgan hujralarga olib boradi. Hovli atrofi 4 tomondan 2 qavatli hujralar bilan o`ralgan. Hujralarga o`ymakori uslubida bezatilgan eshiklar va eshiklar tepasiga panjaralar o`rnatilgan. Madrasaning tarzi maydonga qaragan va old tomonida hovuz bor.

Peshtog`i o`ziga xos va serhasham qilib qurilgan. Peshtoqda o`simliksimon naqshlar orasida quyoshga intilayotgan xumo qushi, bug`uning o`tlab yurgan tasviri aks ettirilgan. Nodir devonbegi madrasasi shu tomonlari bilan Buxxorodagi boshqa madrasaardan ajralib turadi. Peshtoqning 2 yon qanotidagi 2 qavatli 3 tadan chuqur ravoqli peshayvon alohida zeb berib pardozlangan. Old ko`rinishdagi olchamlarning o`zaro mutanosibligi madrasa tarziga puxta chiroy baxsh etadi. Burchaklaridagi 2 guldasta ravoqdagi naqshlar bilan o`zaro uyg`unlashgan. Madrasa ikki ko`chaning o`rtasida qurilgan. Madrasa tarhi 52*45 m, hovlisi esa 34*20 m ni tashkil etadi. Madrasa tarhi qurilishida 52 ta har xil o`lchamdagi xom va pishgan g`ishtlar, loy,

yog`och, tunuka, marmar, tosh, ganch, shunga o`xshash ashyolardan keng foydalanilgan.

Nodir devonbegi xonaqohi shu nomdagi, ya`ni Devonbegi madrasasi ro`parasida bo`lib, markaziy binosi masjidning kvadrat shaklidagi katta zalidir. Bu yerda so`fiylar ibodat qilganlar va dam olganlar. Xonaqoh 1620-1621-yillarda Nodir devonbegi tomonidan qurdirilgan. O`rta Osiyo me`morchiligi uslubida bunyod etilgan. Xonaqoh simmetrik tarhli (22*23), kiraverishda ayvon bo`lgan va zal devorlariga taxmonlar qilingan. Bino burchaklarida darvishlar uchun yotoqxonalar va ikkinchi qavatga hamda tomga olib chiqadigan aylanma zinalar bor.

Honaqoh oldidagi hovuz 1620-yilda barpo etilgan. Unga teng keladigan boshqa katta hovuz Buxoroda ham, Samarqandda ham yo`q. Hovuz sakkiz qirralik bo`lib, uning bo`yi – 42 m, eni esa 36 m, chuqurligi 5 metrgacha yetadi. Hovuz kanal tizimidan keladigan 4000 m³ dan ortiq suvni saqlashga qodir edi, ammo hovuzga kiruvchi oqim mavjud bo`lmagan. O`rta asrlarda sun`iy suv havzalari ichimlik suvi manbayi sifatida xizmat ko`rsatgan. Hovuzning zinası sarg`ish xarsang toshdan qilingan. Hovuzning suvi kamayganda zinadan tushib olish juda qulay. Ilgarilari gir atrofi choyxona, kabobxona, sartaroshxonalar edi. Tarvaqaylab o`sgan azim tutlarning muzdek salqin soyasida choy ichib hordiq chiqarish uchun qo`shni choy bozoridan keladigan odamlarning keti uzilmas edi.

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki, Labi hovuz majmuasi va uni atrofıdagi obidalar tarixini arxitektor sifatida bilishimiz, o`rganishimiz muhimdir. Sababi bu kabi majmualarni saqlab, kelajak avlodga yetkazib berishga o`z xissamizni qo`shishimiz kerak. Aynan talabalar o`z mutaxassisliklarini o`rganish jarayonlarida zamonaviy ta`lim texnologiyalaridan yuqori darajada foydalana olishlari muximdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xashimov D.P. “Zamonaviy ta`limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari”. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil.
2. Ikromov T.I. “Ansambl Labi-Xauz”. 1969 g.
3. Pugachenkova G.A., Rempel L.I. “Istoriya iskusstv Uzbekistana”. 1965 g.
4. Meros.uz. sayti
5. Archnet. sayti

LOYIHA YECHIMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Amirov Zubaydulla Toir o'g'li

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti "Iqtisodiyot kafedrasi" assistenti

E-mail: zubaydulla@gmail.com

Tel: +99897 751 56 66

Annotatsiya: Loyihalananayotgan obyektning iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan ekspluatatsiya shart-sharoiti, chiqarilayotgan mahsulot tannarxi hamda loyiha yechimlari qanchalik to'g'ri qabul qilinganligiga bog'liq bo'ladi. Loyiha yechimlari iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ladi: hajmiy - rejayiy yechimlar, konstruktiv yechimlarni takomillashtirish, ilg'or texnologiya asosida olingan materiallar va konstruksiyalarni qo'llash va boshqalar.

Аннотация: Экономическая эффективность проектируемого объекта во многом зависит от условий эксплуатации, стоимости выпускаемой продукции и правильности принятия проектных решений. Основными направлениями повышения экономической эффективности проектных решений являются: объемно-плановые решения, совершенствование конструктивных решений, использование материалов и конструкций, полученных на основе передовых технологий и т.д.

Annotation: The economic efficiency of the object being designed depends on a large extent on the conditions of operation, the cost of the manufactured product, and how well the project solutions are adopted. The main directions of increasing the economic efficiency of the project solutions are as follows: volume-planned solutions, improvement of constructive solutions, use of materials and constructions obtained on the basis of advanced technology, etc.

Kalit so'zlar: Loyiha, turar-joy, hajmiy - rejayiy yechimlar, binolarni yiriklashtirish va bloklashtirish, sanoat binolari, yarim o'tuvchan va o'tuvchan kanallar, asbest-sement buyumlar, metall konstruksiyalar, yog'och konstruksiyalar.

Ключевые слова: Проект, жильё, объемно-планировочные решения, укрупнение и блокирование зданий, промышленные здания, полупроницаемые и проницаемые каналы, асбестоцементные изделия, металлоконструкции, деревянные конструкции.

Key words: Project, residential areas, volume-planning solutions, enlargement and blocking of buildings, industrial buildings, semi-permeable and permeable canals, asbestos-cement products, metal structures, wooden structures.

Loyihalananayotgan obyektning iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan ekspluatatsiya shart-sharoiti, chiqarilayotgan mahsulot tannarxi hamda loyiha yechimlari qanchalik to'g'ri qabul qilinganligiga bog'liq bo'ladi. Loyiha yechimlari iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ladi: hajmiy - rejaviy yechimlar, konstruktiv yechimlarni takomillashtirish, ilg'or texnologiya asosida olingan materiallar va konstruksiyalarni qo'llash va boshqalar.

Hajmiy - rejaviy yechimlarni takomillashtirish. Hududda qurilish obyektlari zichligi (tig'isligi)ning oshishi loyihaviy yechim iqtisodiy samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Qurilishning past koeffitsientida injenerlik kommunikatsiyalarni tortib kelish masofasi, yo'llarning uzunligi o'sib boradi, ko'kalamzorlashtirishga, zavod ichidagi transport va injenerlik kommunikatsiyalari tarmoqlarini ekspluatatsiya qilishga sarflanadigan mablag'lar oshadi.

Obyektlarni hudud bo'yicha kompaktli joylashtirishga binolar orasidagi masofalarni qisqartirish orqali erishiladi. Sanoat korxonolari binolarining hududga o'zaro birgalikda joylashtirilishi zavod ichida qo'llanadigan transport turiga bog'liq bo'ladi, ayniqsa temir yo'l transportidan foydalanilganda binolar orasidagi masofa katta bo'ladi. Bundan temir yo'l transportidan faqat yoqilg'i, xom – ashyo, qurilish materiallarini tashish (kiritish) va tayyor mahsulotni olib ketish uchun foydalanish zaruriyati kelib chiqadi.

Binolarni yiriklashtirish va bloklashtirish solishtirma kapital mablag'larni keskin (sezilarli darajada) qisqartirish va hududda qurilish obyektlari zichligini (tig'is joylashuvini) oshirish imkonini beradi. Binolarni yiriklashtirish jarayoni qurilishning hamma turlari uchun xarakterlidir. Yirik shaharlarda quriladigan turar - joy binolari ko'p qavatli bo'lib, katta uzunlikka (200 - 500 kvartiraga) ega bo'ladi. Qishloq xo'jaligida 100-180 ming chorva mollariga mo'ljallangan majmualar, yirik parrandachilik fabrikalari va sut beruvchi qoramol fermalari quriladi.

Sanoatda binolarni sexlar va yordamchi - xo'jalik xizmat bloklariga bloklashtirish olib boriladi. Alohida sexlar o'nlab gektar maydonni egallashi mumkin.

Yiriklashtirish jarayonini mikrorayonlar va qishloq aholi punktlari uchun ham qo'llash tavsiya etiladi.

Yarim o'tuvchan va o'tuvchan kanallar ichiga kommunikatsiyalarni birgalikda (qo'shma tarzda) yotqizish orqali injenerlik kommunikatsiyalari tarmoqlari uzunligini qisqartirishga hamda ekspluatatsiya jarayonida sarflanadigan mablag'larni kamaytirishga erishish mumkin.

Loyihalashtirishning ilg'or yo'nalishi - bu texnologik jarayon nuqtai-nazaridan o'zaro bog'langan (hamda bog'lanmagan) bir nechta korxonalarni bir guruhga birlashtirishdir. Bunda *sanoat tuguni* haqida so'z yuritilayapti. Sanoat tuguniga tegishli bo'lgan korxonalar turli vazirliklarga bo'ysunishi mumkin.

Korxonalarni ta'mirlash, asbob - uskuna va quyish sexlari, suv - kanalizatsiya, transport va energetika xo'jaliklari, tibbiy va bolalar maussasalari hamda boshqalarni o'z ichiga olgan yagona xizmat ko'rsatish bazasida binolar bevosita bir - biriga yaqin joylashtiriladi. Sanoat tugunlarini qurish alohida korxonalarni qurishga qaraganda qurilish maydonini ancha qisqartirish imkonini beradi va ekspluatatsiya xarajatlarini 20 foizga kamaytiradi.

Bunday sanoat tuguniga neft-kimyoy va mashinasozlik korxonalaridan tashkil topgan Sanoat tugunini misol tariqasida keltirish mumkin. Bu sanoat tuguni tarkibiga "Nitron" birlashmasi, rezina texnika buyumlari zavodi, sanitar - texnik jihozlar ishlab chiqaruvchi zavod, dizel zavodi, qator kengaytirilayotgan va mavjud bo'lgan zavodlar bilan bir birgalikda Issiqlik elektr stansiyasi ham kiradi. Qabul qilingan yechimlar sanoat tuguni hududini 14 gektarga qisqartirish, injenerlik kommunikatsiyalari uzunligini 93 km ga kamaytirish, bino va inshootlar sonini 16 taga, xodimlar sonini esa 344 taga qisqartirish imkonini berdi.

Kapital mablag'larni iqtisod qilish 5 mln. so'mni tashkil etdi, yillik ekspluatatsion xarajatlar 3 mln. so'mga qisqardi.

Sanoat tugunlari bosh rejasi tipli sxemasidan foydalanish orqali yanada kattaroq iqtisodiy samaraga erishish mumkin.

Sanoat qurilishida binolar hajmini qisqartirish maqsadida ko'priklari kranlar o'rniga *yer usti transporti qo'llaniladi*, texnologik jihozlar ochiq holatda joylashtiriladi, madaniy - maishiy xizmat ko'rsatish joylarining antresollar va fermalar (qurilish konstruksiyasi) orasidagi fazoviy kengliklarga joylashtirilishi loyihalash jarayonida ko'zda tutilishi taqozo etiladi.

Sex ichidagi transport sifatida ko'priklari kranlarning sex ichiga joylashtirilishi yuk ko'taruvchi konstruksiyalarni og'irlashtiradi, bino balandligi va hajmini asossiz ravishda oshiradi.

Massasi 5 tonnadan oshmaydigan yuklar bilan ishlaydigan ishlab chiqarishda (sexlarda) polda yuradigan va osma transport (elektrokaralar, avtoyuklagichlar, konveyerlar, kran - balkalar) dan foydalanish ancha maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda ko'plab ishlab chiqarish korxonalari ishlab chiqarish sexlarida *texnologik jihozlarni binolar tashqarisiga emas, balki ichkariga ochiq*

holatda joylashtirish uchun imkoniyatlar mavjud bo‘ladi yoki ularni joydagi usti yopiq joylarga joylashtirish talab etiladi.

Texnologik o‘rnatmalarni kimyo va metallargiya, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati hamda shu kabilarda yopiq va yarim yopiq holatda joylashtirish mumkin. Hozirgi vaqtda tashqarida joylashgan maydonlarga joylashtirish uchun zarur bo‘lgan issiqlik izolyatsiyasiga ega bo‘lgan yangi germetik jihozlarning namunalari ishlab chiqarilmoqda. Texnologik jihozlarni ochiq maydonlarga joylashtirishda qurilishga sarflanadigan mablag‘lar 4 - 6% ga qisqaradi.

Maishiy xizmat ko‘rsatish xonalarini antresollarga, fermalar orasidagi va sexlardagi bo‘sh joylarga joylashtirish orqali kattaroq miqdordagi mablag‘larni iqtisod qilishga erishish mumkin. Ayniqsa ko‘priki kranlarga ega bo‘lmagan sexlar uchun bunday yechimni qabul qilish ancha maqsadga muvofiq bo‘ladi (qurilish sarfi qisqaradi, ishchilarga xizmat ko‘rsatish yaxshilanadi, chunki dam olish joylari hamda oshxona ish joylariga yaqin joylashadi). Madaniy - maishiy va ma‘muriy xonalarni fermalar orasidagi bo‘sh joylarga (ochiq fazoviy kenglikka) joylashtirish tepa qismida fonari bo‘lmagan ko‘p oraliqli sanoat binolarini qurishda ancha yengil yechiladi. Binoning tepa qismiga fonarlar qurish qurilish umumiy tannarxining 7% ini tashkil etadi. Fonarlar har doim ham aeratsiya va tabiiy yorug‘likni ta‘minlayvermaydi.

Tomi yassi bo‘lgan va devorlarida yorug‘lik o‘tkazuvchi oraliqlar (derazalar)ga ega bo‘lmagan fonarsiz ko‘p oraliqli binolar keng tarqalmoqda. Ularda havo almashinuvi sun‘iy ventilyatsiya, yoritish esa kunduzi yoritadigan chiroqlar yordamida ta‘minlanadi. Bunday binolar nisbatan ancha past tannarxga ega bo‘ladi, ularni qurish uchun esa ancha kam tipli va markali konstruksiyalar talab qilinadi. Qurilish ishlari va binoni ekspluatatsiya qilish sezilarli ravishda soddalashadi. Mehnat unumdorligi oshadi, chunki bunday vaziyatda ish joylari sutka davomida har doim bir maromda yoritilib turiladi, havoning muntazam ravishda almashinib turishi mehnat sharoitini yaxshilaydi.

Kolonnalar *yirik gabaritli to‘rlarining* qo‘llanilishi texnologik jihozlarni ratsional joylashtirish va ishlab chiqarish maydonini 10% ga iqtisod qilish imkonini beradi. Bunday binolarni qurish mayda to‘rli binolarni qurishga qaraganda 3-4% ga qimmat bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda ularni qurishga sarflanadigan solishtirma sarf-xarajatlar 6-7% kam bo‘ladi. Bunday binolarda texnologik jarayonlarni qayta tashkil etish ancha yengil amalga oshiriladi, chunki jihozlarni qayta o‘rnatish va transport oqimini o‘zgartirish uchun katta imkoniyat (keng maydon) mavjud bo‘ladi.

Konstruksiyalarni yiriklashtirish va fazoviy konstruksiyalarga o‘tish orqali

konstruktiv yechimlarni takomillashtirishga erishish mumkin. Temirbeton zavodlarida qoliplash metodini qo'llash orqali maqbul hajmdagi konstruksiyalar tayyorlanadi. Zavodda tayyorlangan yassi elementlardan yig'ma-quyma konstruksiyalar yaratiladi. Bunday konstruksiyalarga hajmli sanitar - texnik kabinalar, lift shaxtalari, tonnellarning shaxtalari, kvartira bloklari, sanoat binolari yopilmasi metall bloklarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Qurilishda katta o'lchamli oraliq va tom yopish plitalari hamda devor panellarini qo'llash keng tarqalmoqda.

Loyihachilar bir nechta operatsiyalarni avtomatlashtirish bilan mexanizatsiyalashgan usulda yangi konstruksiyalarni tayyorlash ustida ish olib borishmoqda. Temirbeton konstruksiyalarda montaj uchun mo'ljallangan ilgaklarni boshqa moslamalar bilan almashtirish oldinga maqsad qilib qo'yilgan.

Bu esa yiliga 0,3 mln. tonna po'latni iqtisod qilish imkonini beradi.

Loyihalarning iqtisodiy jihatdan samara keltirishini va sifatini yaxshilashga tipli loyihalarni keng qo'llash, unifikatsiyalangan konstruksiyalar va gabaritli sxemalardan foydalanish evaziga erishish mumkin. Qurilish - montaj ishlarining 80% dan ortiqrog'i obyektlarda tipli loyihalar bo'yicha bajariladi. Ayniqsa tipli loyihalar turar - joy binolarini tiklashda va qishloq qurilishida keng qo'llaniladi (95% ortiqrog'i). Tipli loyihalar qo'llanishi loyihada ko'rsatilgan materiallar hajmini kamaytiradi, bu esa o'z navbatida loyihalarni ishlab chiqish muddatini qisqartirish uchun shart - sharoit yaratadi, loyihalash va ilmiy - tadqiqot ishlariga sarflanadigan mablag'larni 30-40% pasaytiradi.

Axamiyatli tarzdagi iqtisodiy samaraga qurilish jarayonida erishiladi. Tipli loyihalar bo'yicha quriladigan obyektlarning smeta narxi individual loyihalar bo'yicha quriladigan obyektlarnikiga nisbatan 10- 15%ga arzon bo'ladi. Bu shu bilan tushuntiriladiki, tipli loyihalar ularni loyihalash institutlarida ishlab chiqish jarayonida quruvchilar va loyiholovchilar tomonidan keng muhokama qilinadi, ularda qurilish ishlab chiqarishida ratsional texnologiyani ta'minlaydigan tipli va standart detallar hamdikonstruksiyalar qo'llaniladi.

Ko'plab tipli loyihalar tanlovlar orqali qabul qilinadi. Turar-joy obyektlarini tipli loyihalashtirish o'lchamlari bo'yicha har xil bo'lgan kvartiralarni yaratish, ularni rejalashtirishni yaxshilash, umumiy foydalanish maydonlari (dahliz, oshxona va sanitar tugunlarning maydonlari)ni oshirish, sanitar-texnik va oshxona jihozlarini takomillashtirish, kvartiralar, binoning kirish joylari zinapoya kletkalari va liftlarni yaxshi pardoqlashga yo'naltirilgan. *Ilg'or texnologiya asosida ishlab chiqarilayotgan materiallar va konstruksiyalar.* Agar qurilish maydoniga korxonalar (zavodlar)da masimal darajada puxtalik bilan tayyorlanib keltirilgan yig'ma konstruksiyalar va detallardan obyektlar tiklansa iqtisodiy samaradorlik

ahamiyatli tarzda oshadi. Detallarning qoniqarsiz sifatda tayyorlanishi esa qurilish-montaj ishlarini bajarishda qo'shimcha mehnat sarfini yuzaga keltiradi va bu esa ishlarning tannarxini oshirishga olib keladi.

Pol va tom bo'yicha ishlar bajarish jarayonida mehnat sig'imini qisqartirish va ularning sifatini oshirish uchun keyingi yillarda tom va oraliq tom yopmalarining kompleksli plitalari ishlab chiqarilmoqda.

Konstruksiya va detallarning zavodda tayyorlanish darajasini oshirish qurilishda amalga oshiriladigan qurilish-montaj ishlarini 4-6%ga qisqartirish imkonini beradi.

Yig'ma beton va temirbeton konstruksiyalarni qo'llash bilan ishlab chiqarish va metall hamda yog'ochdan tayyorlangan konstruksiyalar hajmi ortadi.

Metall konstruksiyalar qo'llanilishi sanoatning shunday tarmoqlarida keng tarqalganki, bu tarmoqlarda texnologik jarayonning o'ziga xos jihatlarga bog'liq ravishda temirbeton konstruksiyalarni qullashga yo'l quyilmaslik talab etiladi, bunday tarmoqlarga katta dinamik yuklanganlikka ega bo'lgan metallurgiya korxonalarini misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek, metall konstruksiyalardan katta oraliqli binolarni qurishda ham keng ko'lamda foydalaniladi, bunday binolarda temirbeton konstruksiyalarni qo'llash iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas (aviatsiya sanoatidagi yig'ish sexlari, oraliqli ko'priklarni qurishda va h.k.). Metall konstruksiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga ularni ishlab chiqarish jarayonida yuqori mustahkamlikka ega bo'lgan po'latlardan, egilgan profillardan, keng taxtali prokatdan, elektrpayvandlanadigan quvurlardan foydalanish bilan erishiladi.

Samarador *yengil metall konstruksiyalarni* keng tadbiiq etish qurilish obyektlarini qurish uchun moddiy ta'minot tuzilmasini takomillashtirishga katta ta'sir ko'rsatdi. Ishlab chiqarilgan konstruksiyalarning tadbiiq etilishi qurilishda bino va inshootlarni to'liq zavodda tayyorlangan elementlardan kompleks - mexanizatsiyalashgan holda yig'ish jarayonini tashkil etish imkonini berdi.

Bunday konstruksiyalardan qurilgan binolarda montaj qilish ishlarining mehnat sig'imi 20-25%ga qisqaradi, devorlar va tom yopmalari massasi esa 5-7 marta kamayadi.

Bino massasining kamayishiga asosan temirbeton plitalar o'rniga antikorroziya qoplamasiga ega bo'lgan po'latdan tayyorlangan profilli yopilmalarni qo'llash orqali erishiladi. Alyuminli qotishmalardan tayyorlangan konstruksiyalarni derazalar tabaqalari, vitrajlar, devorbop osma panellar, agressiv muhitli binolarning yuk ko'taruvchi konstruksiyalari, qurilish uchun suyuqliklarni saqlashga mo'ljallangan sig'imli idishlar yasash va shu

kabilar uchun qo'llash ancha maqsadga muvofiqdir. Transport magistrallaridan olisda joylashgan qurilish obyektlarini tiklashda ularning qo'llanilishi ayniqsa katta samara beradi. Qurilishda alyuminli qotishmalardan tayyorlangan konstruksiyalar qo'llanishi fuqaro va sanoat qurilishi obyektlari sifatini yaxshilashda keng istiqbolga egadir va fasadlar umrboqiyliigi hamda ularning estetik sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Asbest-sement buyumlar ikkinchi jahon urushidan oldingi besh yillikdan buyon qo'llanilib kelinmoqda. Asbest-sement detallar yengil, suv o'tkazmaydigan, olovbardosh va uzoq muddatga jidaydigan bo'lib, ulardan buyumlar tayyorlash uchun katta mehnat sarfi va ko'p mablag' talab qilinmaydi. Asbest-sementdantayyorlangan tashqi devor panellari temirbetondan tayyorlangan xuddi shunday konstruksiyalardan 5 marta yengildir.

Asbest-sement sanoatining asosiy vazifasi - yirik o'lchamli (uzunligi 3 metr va undan yuqori bo'lgan) zichlangan yassi va to'lqinsimon tom yopmalari (shifer) ishlab chiqarish hajmini ancha oshirish, asbest-sement panellar va plitalar hamda rangli asbest-sement tom yopmalari ishlab chiqarishni tashkil etishdan iboratdir.

Asbest-sement konstruksiyalar qishloq qurilishida ham keng qo'llanilmoqda.

Yog'och konstruksiyalar mamlakatning o'rmonli hududlarida, yuklarni tashishda uzoq qishloqlarda qurilish obyektlarini tiklashda, kimyoviy agressiv muhitga ega bo'lgan sanoat binolarini barpo etishda, ko'priklari o'tish joylar, tomosha va ko'rgazma zallar, sport inshootlari, yopiq bozorlar va pavilonlarni qurishda keng ko'lamda qo'llanadi.

Fan va texnologiya taraqqiyoti zamonaviy darajasi yog'och konstruksiyalarning yuqori konstruktiv sifati, ularning massasini kamaytirish, kimyoviy bardoshligini oshirish, umrboqiyliigi (uzoq muddutga chidamliligi) va olov bardoshligini ta'minlash imkonini beradi.

Yelimlab tayyorlanadigan yog'och konstruksiyalardan foydalanish yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Qishloq ishlab chiqarish qurilishida bu konstruksiyalar arkali, balkali va ramali konstruksiyalar, to'suvchi konstruksiyalarni o'rnatish uchun foydalaniladigan yig'ma panellar sifatida qo'llaniladi. Sanoat qurilishida oralig'i 12 - 18 metr bo'lgan yelimlab tayyorlanadigan va faneralarni yelimlash orqali yasaladigan to'sinlar, 25 - 30 metr oraliqli arkalar va faneralarni yelimlash orqali tayyorlanadigan panellar binolarning to'suvchi konstruksiyalari uchun samarali qo'llaniladi. Jamoat binolari va sport - tomosha inshootlarini yopishda katta oraliqli arkali konstruksiyalardan foydalanish yuqori samarador va keng istiqbolga egadir. Yog'ochdan ishlanadigan tom yopmalar temirbeton tom yopmalaridan 5 marta yengildir. Yog'och tom yopmalari narxi temirbeton tom yopmalari narxidan 30-40%ga arzon bo'ladi.

Pardozlash materiallari. Keyingi yillarda pardozlash ishlarini industirlash sohasida shaxdam qadamlar qo'yildi, sintetik materiallar asosidagi o'ramli va plitka materiallar keng qo'llanilmoqda, yog'och qipqlaridan tayyorlangan va yog'och tolali plitalar ham keng tadbiiq qilina boshlandi.

Plitalar va o'ramli materiallarning qurilishga tadbiiq etilishi pardozlash ishlari sifatini yaxshiladi va pardozlash ishlari xarakterini tubdan o'zgartirdi. Pollarni qoplash, devorlarni pardozlash, pardevorlar uchun bu materiallardan foydalanish binolarni montaj qilish metodlari va montajdan keyingi hamda pardozlash ishlari orasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etdi.

O'sib borayotgan hajmga ega bo'lgan yig'ma konstruksiyalarni chiqarish ko'plab qurilayotgan obyektlarda yig'ma qurilishga o'tish, mashinalar yordamida bino va inshootlarni tayyor konstruksiyalardan tiklash imkonini berdi. Qurilish maydonlari asta-sekinlik bilan konveyerli qurilish maydoniga aylanmoqda, ularda zavodlarda yuqori darajada tayyorlangan yirik o'lchamli tugunlar va detallarning montaj qilinishi orqali binolar va inshootlar tiklanadi. Texnologikligi bo'yicha qurilish yanada katta mavqeda yirik sanoat korxonalari bilan uzviy bog'lanishga ega bo'lmoqda.

Panelli isitish samaradorligini aniqlash uchun zarur bo'lgan dastlabki ma'lumotlar

1-jadval

Ko'rsatkichlar	Isitish tizimi	
	radiatori	panelli
Bajariladigan ishlarning tannarxi, ming so'm	5208	3759
Qurilmalarni o'rnatish davomiyligi, kun	30	23
Yillik o'rtacha ekspluatatsion xarajatlar, ming so'm	2523,8	2534,8
Qurilish ishlab chiqarish sferasida ishlab chiqarishning asosiy fondlaridagi kapital mablag'lar, ming so'm	375	753
Xuddi shunday quvurlar va priborlar uchun, ming so'm	2747	1193

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zoyirov L.S, Asamxodjayeva Sh.Sh, Yunusova S.B. Investitsiya. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2019. – 652 b.
2. A.A. Xashimov, Sh.A. Madjidov, N.M. Muminova “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” O'quv qo'llanma Toshkent 2014.

3. В.Л.Горбунов. Бизнес - планирование с оценкой рисков и эффект-ти проектов. Москва "РИОР ИНФРА-М". Научно-практическое пособ. 2020г
4. В.И.Сетков,Е.П.Сербин. Строительные конструкции.Расчёт и проектирование. Москва ИНФРА-М. 2019г.
5. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. **«Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak»**. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14-yanvar/ Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. – 104 b. (.pdf 32.5Mb)
6. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. **«Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi»**. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b. (.pdf 22 mb.)
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to’g’risida. 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.

Internet saytlari

1. www.ziynet.uz
2. www.lex.uz
3. www.bilim.uz
4. www.gov.uz
5. www.gkas.uz

RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING OLIY TA'LIMDAGI O'RNI

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Aripova Nasiba Atxamovna, rahbar

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Abdullayev Saxobjon, talaba

Annotatsiya: Ushbu maqola respublikamiz oliy ta'lim tizimida raqamli iqtisodiyotni qo'llash, uni tahlil qilish va bugungi kundagi ahamiyati, ularning bir qancha ijobiy imkoniyatlari, ommaga taklif qilinish oliy ta'limda raqamli iqtisodiyotni keng qamrovi, oliy ta'limda raqamli iqtisodiyotni o'qitishning sifatli yo'llari haqida.

Аннотация: В данной статье говорится об использовании цифровой экономики в системе высшего образования нашей республики, ее анализе и значении сегодня, некоторых их положительных возможностях, широком охвате цифровой экономики в высшем образовании, качестве преподавания цифровой экономики в нашей стране.

Abstract: This article is about the application of digital economy in the higher education system of our republic, its analysis and today's importance, some of their positive opportunities, a wide coverage of digital economy in higher education, quality of teaching digital economy in higher education. about the ways.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, an'anaviy iqtisodiyot, oziq-ovqatlar, elektron hujjatlar, kompyuter texnologiyalari, xalqaro pul, bozor iqtisodiyoti, internet do'konlar, elektron hujjatlar almashinuvi, korporativ tarmoqlar.

Ключевые слова: Цифровая экономика, традиционная экономика, продукты питания, электронные документы, компьютерные технологии, международные деньги, рыночная экономика, интернет-магазины, обмен электронными документами, корпоративные сети.

Raqamli iqtisodiyot-raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan uzviy bog'liq iqtisodiy faoliyat hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan tovarlar va xizmatlar yig'indisidir.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib, o'sib borayotgan davrni texnika-texnologiyasiz tasavvur qilish qiyin. Chunki hozirgi kunda deyarli barcha soxalar raqamli texnika, raqamli iqtisodiyotga o'tib bo'ldi.

Raqamli iqtisodiyot bilan an'anaviy iqtisodiyotni farqini ko'rib o'taylik

Oddiy misol bilan tushuntiradigan bo'lsak an'anaviy iqtisodiyotda bozorga insonlar tashrifi bilan olib boriladigan savdo-sotiq usuli tushuniladi.

Raqamli iqtisodiyotni oladigan bo'lsak internet aloqasi orqali masofadan sotish, sotib olish, xalqaro pul o'tkazmalari va shu kabilarni misol qilsak bo'ladi.

Belgilari:

- yuqori avtomatlashtirilganlik;
- elektron hujjat almashinuvi;
- buxgalterlik va boshqaruv tizimlarida elektron integratsiyalashuv;
- mijozlar bilan o'zaro munosabat mavjudligi;
- korporativ tarmoqlar;

Qulayliklari:

- To'lovlar uchun xarajatlar kamayadi.
- Tovarlar va xizmatlar haqida ko'proq va tezroq ma'lumot olinadi.
- Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta.
- Tezroq, sifatliroq, qulayroq.

Raqamli iqtisodiyot insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir. Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va „qora iqtisodiyot“ning asosiy kushandasidir. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma'lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji yo'q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo'yadi. Ma'lumotlar ko'pligi va tizimliliigi yolg'on va qing'ir ishlarga yo'l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot qay darajada rivojlangan? Ta'kidlash joizki, bugungi kunda foydalanuvchilar oziq-ovqat mahsulotlariga buyurtma berish uchun Telegram botlaridan faol foydalanmoqdalar. Shuningdek, turli internet do'konlar, elektron to'lov tizimlari ham faol rivojlanib bormoqda. Demak, fuqarolarimiz elektron bitimlarni amalga oshirishga ishonaptilar. Faqat hozirgi kungacha foydalanuvchilar katta xarajatlar talab qilmaydigan kichik bitimlarni amalga oshirmoqdalar, o'rtacha xarid hajmini oshirishga esa unchalik tayyor emaslar. Endigi masala o'rtacha va yirik iqtisodiy bitimlar va moliyaviy operatsiyalarni raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirishni rivojlantirishdan iborat.

Hozirda ko'plab rivojlangan yoki rivojlanayotgan davlatlarda davlatning rivojlanishida raqamli iqtisodiyot yoki iqtisodni o'zi ham katta rol o'ynaydi. Chunki davlatda ishsizlar kamayishi orqali davlatni iqtisodiyoti yuqori o'rinlarga ko'tarilishi mumkin, ya'ni o'z-o'zini band qilish hozirgi yanda takomillashib bormoqda.

Respublikamizda ham raqamli iqtisodiyotga keng yo'llar ochilmoqda. Uydan chiqmay turib oziq-ovqatlar, suvlar, kiyim-kechak, dori-darmon deymizmi hammasiga buyurtma bera olamiz va eshigimiz oldigacha yetkazib berish xizmatlari

bor. Bularning barchasi yurtimizda raqamli iqtisodiyotga bo'lgan e'tibor desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirgi kunda dunyoda raqamli iqtisodiyot hodisasi haqida umumiy bir tushuncha mavjud emas, shunday bo'lsada, uning ko'plab ta'riflari mavjud. Raqamli iqtisodiyot - jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovarlar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan va raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili deb sanalgan xo'jalik faoliyatidir. Bizning fikrimizcha, ushbu ta'rif juda to'g'ri, lekin foydalanish uchun biroz noqulay. Bir tomondan, raqamli iqtisodiyotga uzil-kesil ta'rifning yo'qligi ko'plab xususiy va tor ixtisosli savollarni muhokama qilish uchun to'siq hisoblanmaydi. Lekin, boshqa tomondan, ushbu o'quv qo'llanmadan maqsad - raqamli iqtisodiyot fenomenini integral ko'rishni shakllantirish ekanligi sababli biz o'z ta'riflarimizni taklif qilishga jazm etdik. Yuqorida aytganimizdek, raqamli iqtisodiyot bu - gibrid dunyo sharoitlarida mavjud bo'ladigan iqtisodiyotdir. Ushbu ta'rif ham to'g'ri bo'lib, mohiyatni aks ettiradi, lekin kutilayotgan o'zgarishlarni tushuntirmaydi va mos ravishda, amaliyotda undan foydalanish birmuncha murakkabdir. Aynan shu sababli biz quyidagi funksional ta'rifni ifodaladik: Raqamli (elektron) iqtisodiyot bu - axborot, jumladan, shaxsiy axborotdan foydalanish hisobiga barcha qatnashchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uning o'ziga xos xususiyati bo'lgan iqtisodiyotdir. Bu axborotkommunikatsiya va moliya texnologiyalarining rivojlanganligi, shuningdek, birgalikda gibrid dunyoda barcha iqtisodiy faoliyat subyektlari - tovarlar va xizmatlar yaratish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayoni obyektlari va subyektlarining to'laqonli o'zaro aloqa qilish imkoniyatini ta'minlaydigan infratuzilma ochiqligi tufayli mavjud bolishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish yo'nalishlari

Raqamli iqtisodiyotni tashkil qilishga ikkita bir-biriga qaramaqarshi yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin: rejali iqtisodiyot va bozor iqtisodiyoti. Real hayotda amalga oshiriladigan barcha strategiyalar bu ikki yondashuvning kombinatsiyasi hisoblanadi. Ushbu nomlar tanlab olinganligi bejiz emas, xuddi shu tariqa ular reja iqtisodiyoti va bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq tasavvurlar uyg'otishi ham bejiz emas. Raqamli iqtisodiyot tashkil qilishga bozor yondashuvida ko'zda tutiladiki, davlat optimal sharoitlar, birinchi navbatda, raqamli iqtisodiyot shakllanishi uchun qulay muhit yaratadi va bu bilan biznesning yangi sektorga o'tishini rag'batlantiradi. Optimal sharoitlar normativ-huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy xarakterdagi o'zaro bog'liq chora-tadbirlar majmuini va texnologik baza mavjudligini ko'zda tutadi. Raqamli iqtisodiyotning ijobiy samarasi sezilarli darajada uning

ko'lamiga bog'liq ekanligi sababli, ushbu yondashuvni amalga oshirish uchun yetarli miqdordagi mustaqil iqtisodiyot subyektlari - xususiy biznes subyektlari mavjudligi zaruriy shart hisoblanadi.

Iqtisodiyotda bugungi kunda ro'y berayotgan va yaqin kelajakda bashorat qilinayotgan o'zgarishlar butun ta'lim sohasiga daxl qilgan holda OTM muhitiga tobora katta bosim ko'rsatib, ularning diplomlari qimmatligi masalasini ilgari surmoqda. Onlayn-ta'lim sur'ati kuchaya boshlagan, biznes kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash korporativ tizimini shakllantirayotgan, kasbiy standartlar ishlab chiqayotgan va ularga muvofiqlik borasida o'z standartlarini taqdim etayotgan sharoitlarda an'anaviy oliy ta'lim muassasalari nimalarni taklif qilishi mumkin?

Hozirgi davrda universitetlar va boshqa OTM muassasalari oldida raqamli iqtisodiyotga o'tish davri vazifalari turadi: oldindan ma'lum qilingan yo'nalishlar va ixtisosliklar bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlash bilan birga dasturlar to'plamini kengaytirish va talabalar raqamli iqtisodiyot talab qiladigan ko'nikmalarni o'zlashtirishi va bilimlar olishi mumkin bolgan zarur sharoitlar yaratish eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Oldinroq qayd etganimizdek, raqamli samaralarning tarqalish tezligi turli tarmoqlarda turlicha bo'ladi, amaldagi analogli iqtisodiyot uchun ham, raqamli iqtisodiyot uchun ham kadrlar tayyorlashni uyg'unlashtirish zarurati aynan shu bilan izohlanadi. Lekin shunga qaramay, o'tish davri davomida universitetlarning yangi modellari shakllanishi lozim va ekspertlar bu modellar asosida yaratish mumkin bo'lgan bir qator yangi funksiyalarni ajratib ko'rsatdilar:

-Atrofdagi olamni modellashtirish

-Atrofdagi olamni modellashtirish funksiyasini maksimallashtirish, ya'ni modellashtirish funksiyasi, bunda universitet shartli qilib aytganda, atrofdagi olamni modellashtirish va yaratishga qodir bo'lgan kadrlar va pedagoglar tayyorlaydi.

Ko'pincha IT sohasining rivojiga qo'shilgan hissa iqtisodiyotning rivojlanishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, odamlar va biznes uchun yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi, elektron hukumat loyihalari doirasida xarajatlarining qisqarishiga zamin yaratadi. Shu bilan bir vaqtda, axborot texnologiyalarini tatbiq etishdan hosil bo'lgan umumiy effekt kutilganidan samarasizroq bo'lib chiqadi va bir xil tartibda taqsimlanmaydi. Bu kabi investitsiyalardan maksimal natija olish uchun texnologiyalarning Jahon banki tayyorlagan ma'ruzasida «analog to'ldiruvchilar» deb nomlangan boshqa omillar bilan o'zaro ta'sirini yaxshi tushunish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev 2020-yilni "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qildi". *Daryo* (24-yanvar.2020-yil). Qaraldi: 7-aprel 2023-yil

2. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi“. *Daryo* (24-yanvar.2020-yil). Qaraldi: 7-aprel 2023-yil.
3. S.S.Gulyamov-“Raqamli iqtisodiyotda Blokcheyn texnologiyalari”-2019
4. <http://el.tfi.uz/mahsulot/raqamli-iqtisodiyotda-blokcheyn-texnologiyalari/>
5. <https://interonconf.org/index.php/fra/article/view/2633>
6. <https://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/613>

МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО РОСТУ КАДРОВОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ

Ташмухамедова Карима Саматовна
Ташкентский
Архитектурно - строительный университет

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам формирования кадрового потенциала, проблемы использования кадрового потенциала, теоретические аспекты содержания понятия «кадровый потенциал». Информационная экономика, в условиях которой результаты деятельности предприятий зависят от качества осуществляемой профессиональной деятельности работников на всех уровнях управления, способствует актуализации данного вопроса. В качестве измерительного инструмента при оценке человеческого капитала выступает реализованный кадровый потенциал, являющийся интегральным показателем компетентности и производительной активности работников.

Ключевые слова: трудовой потенциал, кадровый потенциал, инновационная деятельность, предприятие, промышленность, инновационный процесс, строительные материалы, экономика, аудит кадров.

Abstract. This article is devoted to the issues of formation of human resources, problems of using human resources, theoretical aspects of the content of the concept of “personnel potential”. The information economy, in which the results of enterprises’ activities depend on the quality of the professional activities of employees at all levels of management, contributes to the actualization of this issue. The realized human capital potential, which is an integral indicator of the competence and productive activity of employees, serves as a measuring tool when assessing human capital.

Keywords: labor potential, personnel potential, innovation activity, enterprise, industry, innovation process, building materials, economics, personnel audit.

Аннотация. Ushbu maqola inson resurslarini shakllantirish masalalariga, inson resurslaridan foydalanish muammolariga, "kadrlar salohiyati" tushunchasi

mazmunining nazariy jihatlariga bag'ishlangan. Korxonalar faoliyatining natijalari boshqaruvning barcha darajadagi xodimlarining kasbiy faoliyati sifatiga bog'liq bo'lgan axborot iqtisodiyoti ushbu masalani dolzarblashtirishga yordam beradi. Xodimlarning malakasi va samarali faoliyatining ajralmas ko'rsatkichi bo'lgan amalga oshirilgan inson kapitali salohiyati inson kapitalini baholashda o'lchov vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mehnat salohiyati, kadrlar salohiyati, innovatsion faoliyat, korxonalar, sanoat, innovatsion jarayon, qurilish materiallari, iqtisodiyot, kadrlar auditi.

Среди функций в системе управления кадровым потенциалом важной функцией являются учет, отчетность и мониторинг развития. В современных условиях усложнения управления эта функция приобрела новые формы и стала именоваться как аудит кадров. При аудите кадров следует уделять особое внимание реализации мер по обеспечению роста эффективности производства, так как «кадры решают всё», т.е. эффективное управление потоками и потенциалом кадров, их наиболее правильным подбором определяется как политика, так и эффективность производства, его оснащение и переоснащение инновационными технологиями, повышение производительности труда, оптимальная численность кадров на предприятии (отрасли) и т.д.

Поэтому необходимо отметить, что на любом производстве социально-трудовые отношения как правило привносят изменения в различные структуры и функции управления рабочим и управленческим персоналом и их соотношению. Эти отношения и соотношения на современном этапе представляются все более дифференцированными и специализированными. Современные промышленные компании с гибким управлением характеризуются сложными и комплексными целевыми системами, состоящими из множества разнохарактерных, неоднородных и взаимосвязанных элементов.

Зарубежный исследователь Г.Спенсер изучал и анализировал институты как образования, появившиеся благодаря эволюции, и их формирование напрямую связано с реализацией определенных социально-трудовых отношений [1].

Поэтому аудит кадров должен подразделяться на три типа: аудит трудового потенциала, аудит системы управления персоналом и аудит кадровой документации [2].

Определено, что аудит трудового потенциала необходимо рассматривать как основу развития системы подготовки и оптимального размещения кадров, так как в социально-трудовых отношениях кадровый потенциал занимает наиболее существенное место и направлен на выполнение ключевой роли в управлении производством и предприятием в целом. Поэтому от эффективности проводимых мероприятий в определяющей степени зависит процветание и успешность любой промышленной компании, в частности. Отметим, что ряд авторов обращают внимание на то, что при аудите кадров необходимо применять экономико-социальные технологии управления социально-трудовыми процессами в компании [3] [4].

Для аудита кадров необходимо учитывать оптимизацию системы производства продукции, товаров и услуг, в результате реализации потенциала и профессиональных компетенций персонала аудит кадров может быть достигнут синергетический эффект, обеспечен более качественный переход к информационной экономике на уровне предприятия, а в последующем отрасли в целом.

Исследователи А.Виделер, Дж.Шадоу предложили считать аудит кадров специфической формой социального контроля [5].

Эффективные результаты проведенного аудита кадров должен быть направлен на обеспечение системой управления установленных предприятием (организацией) стратегических и оперативных целей, которые в свою очередь будут непрерывно и в срок реагировать как на внутренние, так и на внешние изменения, позволит адаптироваться на нестабильном рынке производства и потребления. Поэтому данный метод наиболее оптимален для предприятий по производству строительных материалов, он необходим для применения с целью начального этапа роста конкурентного потенциала.

Таким образом, аудит кадров выступает как диагностический инструмент для определения степени эффективности и гибкости управления организацией, позволяющая эффективно преодолевать возникающие в организации трудности, при котором обеспечивается рациональность распределения трудовых и материальных ресурсов, достижение поставленных целей. Поэтому персонал (кадры) должны восприниматься как инструмент в повышении эффективности деятельности предприятий, в частности предприятий по производству строительных материалов.

На современном этапе несмотря на имеющийся передовой опыт в нашей стране очень мало используется аудит кадров, причинами этого являются:

- ограниченность понимания и восприятия системы подготовки кадров;
- односторонность толкования самого аудита кадров, отсюда недоверие к результатам аудита;
- в большинстве случаев низкой эффективностью и неразвитостью методологической основы аудита кадров.

Методология модели аудита кадров составляет основу мониторинга всех элементов системы подготовки рабочего и управленческого персоналов, потому как только комплексный подход к анализу деятельности предприятия (компании, организации) и интеграции всех составляющих для модификации структуры и обеспечения наиболее выгодных результатов по повышению эффективности работы предприятия (компании, организации).

В экономике аудит трудового потенциала понимается как инструмент контроллинга персонала предприятия (компании, организации), только с условием его проведения на определенных финансовых отрезка (периодичностью).

Одним из наиболее эффективных способов сбора и обработки информации в аудите трудового потенциала является анкетирование. Оно используется в аудите трудового потенциала с целью сбора имеющих важное значение данных, посредством опроса менеджеров и высококвалифицированных работников. Анкетирование способствует систематизации объективных данных от определенного (основного) количества работников, и является наиболее достоверным и результативным в области диагностики взаимоотношений в рассматриваемом трудовом коллективе, а также эффективности трудовой деятельности руководства и целевой подготовки кадров [6].

Также при аудите широко применяется - метод наблюдения, представляющий собой метод сбора первичных (зачастую эмпирических) данных, так называемый краткий аудит трудового потенциала, данный метод заключается в систематической регистрации значимых процессов, обстоятельств, фактов, которые могут быть подверженными мониторингу и диагностике. Зачастую этот метод применяется, когда следует проверить рабочую гипотезу аудиторов.

В целом аудит трудового потенциала способствует решению следующих задач:

- анализу обеспеченности предприятия (компании, организации) необходимым квалифицированным персоналом как по составу, численности и структуре, так и по уровню их квалификации;

- оценке соответствия профессиональных качеств и необходимых компетенций работников требованиям эффективной организации производства;
- влияние движения кадров на результативность деятельности предприятия (компании, организации);
- изучению всех аспектов трудовой деятельности предприятий.

Ниже (табл.1) представлены результаты решения этих задач, которые совпадают с основными направлениями аудита: Таблица 1

Направления аудита кадров [7]

1. КОЛИЧЕСТВЕННЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ	2. КАЧЕСТВЕННЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ
ЦЕЛЬ	ЦЕЛЬ
Исследование критериев оценки результативности персонала	Реализация целевых и индивидуальных программ по развитию компетенций работников
ЗАДАЧИ	ЗАДАЧИ
<ul style="list-style-type: none"> - выявить недостатки в процессе диагностики, - проведение дополнительной подготовки руководителей и специалистов - корректировка цели в случае изменения стратегии и если существующий уровень результативности не удовлетворителен 	<ul style="list-style-type: none"> - планирование и реализация целевых и индивидуальных программ по развитию компетенций работников, - выявление групп, требующих развития, - выявление индивидуальных компетенций, - разработка и реализация целевых и программ по развитию компетенций работников

1) исследование кадрового состава и их численности, способствующее определению трудового потенциала компании;

2) изучение трудовых показателей, способствующих определению перспектив более результативного использования трудового потенциала.

Комплексный подход к представлению трудового потенциала требует обобщения критериев аудита трудового потенциала, методы управления его развитием и собственно стратегию организации.

Преимущества, предоставляемые данным программным комплексом в целом, дает возможность существенно повысить эффективность работы персонала и предприятия (компании, организации).

Список использованной литературы

1. Спенсер Г. Основания социологии. - СПб.: И.И. Билибин, 1876-1877
2. Одегов Ю.Г., Никонова Т.В. Аудит и контроллинг персонала. –М.: АЛЬФАПРЕСС, 2010. –435с.; Плеханов А., Гагаринская Г. Управление трудовым потенциалом предприятия // Кадровик. Кадровый менеджмент, №3. 2009.
3. Ташмухамедова К.С. Повышение конкурентного потенциала предприятий промышленности строительных материалов в условиях инновационного развития. дис. PhD: 08.00.03. Ташкент. 2023. – 15 с.
4. Haunschild, A. Koordination und Steuerung der Personalarbeit. Ein Beitrag zur organisationstheoretischen Fundierung des Personalcontrolling, [Coordination and Control of Personnel Management. Towards an Organization Theoretical Foundation of Personnel «Controlling»] Hamburg, 2008.
5. Щекин Г. В. Теория и практика управления персоналом. - К.: МАУП, 2003.280с.
6. Одегов Ю.Г., Никонова Т.В. Аудит и контроллинг персонала. – М.: АЛЬФАПРЕСС, 2010. – 435с
7. Мартынов В.Г., Еремина И.Ю., Гончар Н.В. Условия формирования и инструментарий использования аудита трудового потенциала //Экономика и предпринимательство, №6-2 (59-2), 2015.С.891-895.

RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING OLIY TA'LIMDAGI O'RNI

Odilov Miroqiljon Azamat o'g'li

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, 5-bosqich talabasi

Azimova Charos Azamatovna

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot tushunchasi bir qator mamlakatlarning iqtisodiy nazariyasi va amaliyotida paydo bo'ldi. Bu raqamli

texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashuv jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turadi. Jamiyatni ijtimoiy va iqtisodiy isloh qilishning hozirgi bosqichida atrof-muhit jamiyatning institusional tuzilishiga xos xususiyatlarini keltirib chiqarmoqda va bu asosda yangi tushunchalar va yondashuvlarni shakllantirishga zarurat tugʻdiradi.

Kalitli soʻzlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, kadrlar salohiyati, mehnat bozori, taʼlim.

Аннотация: На сегодняшний день в экономической теории и практике ряда стран появилось понятие цифровой экономики. Он характеризовался бурным развитием цифровых технологий, революцией в сфере информации и ускорением процессов глобализации экономики. На современном этапе социально-экономического реформирования общества среда выявляет особенности институциональной структуры общества, и на этой основе возникает необходимость формирования новых концепций и подходов.

Ключевые слова: цифровая экономика, развитие цифровой экономики, человеческие ресурсы, рынок труда, образование.

Annotation: Today, the concept of digital economy has emerged in the economic theory and practice of a number of countries. It was characterized by the rapid development of digital technologies, the revolution in the field of information and the acceleration of the processes of globalization of the economy. At the current stage of social and economic reform of society, the environment brings out the peculiarities of the institutional structure of society, and on this basis there is a need to form new concepts and approaches.

Keywords: digital economy, development of digital economy, human resources, labor market, education.

Raqamli iqtisodiyotda inson faoliyatining asosiy sohalari samarali rivojlanishining muhim sharti – unga mos keluvchi institusional muhit shakllantirish hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish Dasturida kadrlar va taʼlim tizimi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratiladigan asosiy institutlar qatoriga kiritilishi va unga alohida boʻlim bagʻishlanishi kerak.

Dasturda kadrlar va taʼlim bilan bogʻliq quyidagi asosiy yoʻnalishlar belgilab berilishi lozim: raqamli iqtisodiyot kadrlari tayyorlash uchun asosiy sharoitlar yaratish; raqamli iqtisodiyotni chuqur bilimga ega kadrlar bilan taʼminlashi lozim boʻlgan taʼlim tizimini yanada takomillashtirish; raqamli iqtisodiyot uchun kerakli boʻlgan oliy malakali mutaxassislarini oʻrta va oliy taʼlim muassasalarida tayyorlashni yoʻlga qoʻyish; raqamli iqtisodiyot uchun kerakli boʻlgan oʻzbek tilidagi zamonaviy ilmiy va amaliy adabiyotlar yaratishni koʻzda tutish; raqamli iqtisodiyot talablariga

tayanishi lozim bo'lgan mehnat bozorini tashkil qilish mexanizmlarini ishlab chiqish; zarur chuqur bilimga ega bo'lgan dasturchilar va texnik xodimlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish; kadrlarning O'zbekiston raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ishtirokini moliyalashtirish va motivatsiyalash tizimini yaratish.

Ta'lim tizimi mehnat bozorning hozirgi holatiga ham, uning raqamli texnologiyalar joriy qilinishi bilan bog'liq o'zgarishiga ham yo'naltirilishi lozim ekanligini hisobga olib, kadrlar bilan bog'liq muammolarni har bir kadrlar salohiyatining raqamli iqtisodiyotdagi o'rni ko'rib chiqishdan, shuningdek, mehnat bozorini tahlil qilishdan boshlaymiz.

2019-2022 yillarda O'zbekiston Respublikasida axborotlashgan jamiyatni rivojlantirish Strategiyasiga amal qilgan holda, raqamli iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish omili raqamli shakldagi ma'lumotlar bo'lgan, fuqarolar va jamiyatning sifatli va ishonchli ma'lumotlar olishga ehtiyojlarini hisobga olgan holda axborot makoni shakllantirishga, O'zbekiston Respublikasi axborot infratuzilmasini rivojlantirishga, milliy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalarini yaratish va qo'llashga, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy sohalar uchun yangi texnologik asoslar shakllantirishga xizmat qiladigan raqamli xo'jalik yuritish faoliyatini ifodalashi lozim.

Shubhasizki, raqamli texnologiyalar kommunikatsiyalarga ketadigan vaqtni qisqartirish va barcha iqtisodiy jarayonlarni tezlatish imkonini beradi, lekin bu jarayonlar tezlashuvi natijasida konkret xududda nima ro'y berishi – iqtisodiyotning gullab-yashnashi yoki tanazzulga yuz tutishi – inson kapitalining rivojlanish vektoriga bog'liq bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, insoniyat rivojlanishining barcha bosqichlari uchun an'anaviy ravishda ajratiladigan asosiy ishlab chiqarish omillari – yer, mehnat va kapital iqtisodiyotni raqamli o'zgartirish davrida, tovarlar, xizmatlar va axborot qiymati shiddat bilan o'sib borayotgan bir paytda tub o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda.

Raqamli iqtisodiyotda davlatlarning asosiy aktivi inson kapitali bo'ladi. Ammo, umuman ham inson emas, balki asosiy aktiv yangi texnologiyalar sohasida chuqur bilimlarga ega, ularni hayotga tadbiiq eta olishga qodir, eski narsalarni takomillashtira oladigan konkret odamlar hisoblanadi. Hattoki, konkret odamgina ham emas, balki chuqur bilimga ega shaxslarni umumiy jamoaviy intellektga birlashtirish va faollashtirishga qodir bo'lgan odamlar guruhi davlatlarning asosiy aktivi bo'lib hisoblana boshlaydi.

Shu munosabat bilan tan olish mumkinki, kelajak iqtisodiyotida asosiy ishlab chiqarish omillari bo'lib, inson va axborot kapitali hisoblana boshlaydi, bunda asosiy omil va harakat qiluvchi kuch inson kapitaliga tegishli bo'ladi.

Bu nuqtai-nazarni iqtisodiy forumi asoschisi va prezidenti, raqamli iqtisodiyotda asosiy ishlab chiqarish omili baribir kapital emas, balki kadrlar salohiyati bo'lishini Klaus Shvab asoslab bergan.

U o'z fikrini kelajak olamda nafaqat to'rtinchi sanoat inqilobi bilan, balki texnologiyalar bilan bog'liq bo'lmagan omillar, jumladan, demografik muammolar, geosiyosiy o'zgarishlar va yangi ijtimoiy-madaniy me'yorlar bilan ham asoslanadigan yangi ixtisosliklar va kasblar paydo bo'lishi bilan izohlaydi.

Shu sababdan, kapital mavjudligi emas, balki aynan chuqur bilimga ega kadrlar taqchilligi innovatsiyalar, raqobatbardoshlik va o'sishni chegaralab turadigan cheklov hisoblanadi.

Shvabning qayd etishicha, ko'rsatilgan muammolar yuqori malaka tushunchasining o'zini to'rtinchi sanoat inqilobi nuqtai-nazaridan qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi. Malakali mehnatning an'anaviy ta'riflari yuqori darajada ma'lumot yoki ixtisoslashgan ma'lumot mavjudligi hamda ekspertlik sohasi yoki kasb doirasida belgilangan xususiyatlar to'plami mavjudligiga asoslanadi. Texnologiyalar jadal taraqqiyotini hisobga olgan holda to'rtinchi sanoat inqilobi xodimlarning doimiy moslashuviga hamda turli nuqtai-nazarlardan yangi ko'nikmalar va yondashuvlarni o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratadi.

Ta'kidlab o'tishni lozimki, bu jarayonlar ancha og'riqli bo'lsada, lekin raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga muqarrar hamrohlik qiladi. Bu iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishda, turli tizimlar faoliyatida, jumladan, ijtimoiy himoya, soliqqa tortish va ta'lim sohasida katta o'zgarishlarni talab qiladi.

Jahon iqtisodiy forumida e'lon qilingan The Future of Jobs tadqiqoti ma'lumotlarini ham keltirib o'tamiz, unga ko'ra, 2022-yilga kelib, "jahon mehnat bozorida 2 million ish o'rni qo'shiladi, lekin 7,1 million ish o'rni yo'qolib ketadi. Ish o'rinlari intellektual va yuqori texnologiyali sohalarda paydo bo'ladi, iqtisodiyotning real sektorida va ma'muriy ishlar sohasida qisqaradi".

Hisobot mualliflarning hisob-kitoblariga ko'ra, "2022 yil uchun katta ma'lumotlar texnologiyasi matematika va hisoblash texnikasi sohasida ish o'rinlari sonini 4,59 %, boshqaruv sohasida 1,39 %, moliya sektorida 1,34 % va sotuvlarda 1,25 % oshiradi. Lekin xuddi shu katta ma'lumotlar sohasi ofis xodimlari ish o'rinlari sonini 6,06 % qisqartiradi".

Shu bilan bir paytda, buyumlar internet kompyuter ixtisosliklarida bandlikning 4,54 %, loyihalashtirish va muhandislik ishlanmalari bo'yicha 3,54 % o'sishiga olib keladi. Lekin shu omilning o'zi asbob-uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va o'rnatish bo'yicha mutaxassislar bandligini yillik 8 %, ofis xodimlarining esa 6,2 % qisqartiradi.

Sanoat sohasida bandlikka yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va 3D-bosma (ish o‘rinlari soni yiliga 3,6 % qisqaradi) va acha kamroq darajada – robotlashtirish va avtomatik transportni rivojlantirishga (0,83% qisqarish) kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, bandlik ma’lumotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, u murakkab texnologik jarayonlarni boshqarish talab qilingan joylarda o’sadi va kundalik zerikarli hamda malakasiz mehnat ulushi katta bo‘lgan joylarda tushib ketadi.

Iqtisodiyot va jamiyat hozirgi paytda raqamli o‘zgartirishlardan jiddiy aziyat chekmoqda, deb ko‘rsatiladi “OECD Digital economy Outlook 2017” hisobotida: bir tomondan, avtomatlashtirish ayrim kasblarda bandlikni pasaytirishi va shu bilan bir paytda nostandart, ya’ni qisqa muddatli, to‘liqsiz yoki kam pul to‘lanadigan ish o‘rinlari sonini oshirishi va ish joylaribo‘yicha gender tafovutlarini birmuncha kengaytirishi mumkin”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Клаус Шваб. Четвертая промышленная революция. –М., Эксмо.2016. С.30
2. Из-за новых технологий в мире исчезнут миллионы рабочих мест. Ведомости. 27.01.2016.
3. Ринк труда: новые технологии убивают рабочие места. Технологии изменят труд. Ведомости, № 4002 от 27.01.2016.

RAQAMLI IQTISODIYOT – RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA XUSUSIYATLARI

M.S.Asadova Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi

N.Sh.Axmedova Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Iqtisodiyot kafedrasi PhD, dotsenti

Annotatsiya: Raqamli iqtisodiyotga bo‘lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro‘y bergan jiddiy o‘zgarishlar tufayli sezilarli darajada o‘sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o‘zaro muloqotni yanada tez va oson yo‘lga qo‘yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo‘ldi.

Iqtisodiyot diversifikatsiyasi va dinamikasi qanchalik yuqori bo‘lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko‘p, milliy

iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo'ladi. Shu bois ishtirokchilar soni ko'p va IT xizmatlar keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanadi.

Kalit so'zlar: *axborot texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot, xomashyo, kompyuterlar, iqtisodiyotning real sektori.*

Аннотация: Интерес к цифровой экономике значительно вырос в связи со значительными изменениями в обществе и экономике. Современные технологии и платформы помогли предприятиям и частным лицам сократить расходы за счет минимизации личного общения с клиентами, партнерами и государственными организациями, а также сделав общение более быстрым и простым. Результатом является цифровая или электронная экономика, основанная на сетевых ресурсах.

Чем выше диверсификация и динамика экономики, тем больше оборот уникальной информации внутри страны и за ее пределами, тем больше информационный трафик внутри национальных экономик. Поэтому цифровая экономика быстро развивается на рынках, где число участников велико и широко распространены ИТ-услуги.

Ключевые слова: *информационные технологии, цифровая экономика, сырье, компьютеры, реальный сектор экономики.*

Annotation: Interest in the digital economy has grown significantly due to significant changes in society and the economy. Modern technologies and platforms have helped businesses and individuals reduce costs by minimizing face-to-face interactions with customers, partners and government agencies, and by making communication faster and easier. The result is a digital or electronic economy based on networked resources.

The higher the diversification and dynamics of the economy, the greater the turnover of unique information within the country and abroad, the greater the information traffic within national economies. Therefore, the digital economy is developing rapidly in markets where the number of participants is large and IT services are widespread.

Key words: *information technology, digital economy, raw materials, computers, real sector of the economy.*

Raqamli iqtisodiyot - bu elektron va raqamli texnologiyalarga yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyat turi hisoblanib, u o'z ichiga elektron biznes va tijoratni ham qamrab olgan.

Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinshidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar,

qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiriq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron tulovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

Raqamli iqtisodiyot kontseptsiyasi barcha ijtimoiy, biznes, iqtisodiy va tarmoq aloqa texnologiyalarini qamrab oladi. Ushbu atama birinchi marta 1995 yilda Don Tapscott tomonidan nashr etilgan kitobda ishlatilgan. So'nggi yillarda Internet iqtisodiyotining o'sishi eng muhim bo'ldi. Avvalo, bu doimiy ravishda yangi raqamli platformalarning paydo bo'lishi bilan seziladi.

Ijtimoiy tarmoqlar iste'molchiga katta ta'sir ko'rsatadi, ilgari bu unchalik ahamiyatli emas edi. Ayni paytda Internet inson hayotining ajralmas qismidir. Shuningdek, u bank, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa sohalarda chuqur singib ketgan. Raqamli iqtisodiyotni kompyuter texnologiyalari taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, onlayn xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq xizmatlarni, shuningdek elektron to'lovlarni, kraudfanding va savdo-sotiqni va boshqalarni birlashtirgan faoliyat deb hisoblash mumkin.

Avvalo, shuni aytish joizki, raqamli iqtisodiyot, bu - alohida faoliyat turi emas. Bu, aslida, ishbilarmonlik, sanoat ob'ektlari, xizmatlar deganidir. "Raqamli" atamasi mazkur sohalarning barchasi axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi. Ularning tahlilidan so'ng to'g'ri boshqarish bo'yicha yechim ishlab chiqiladi.

Shuningdek, "raqamli iqtisodiyot" atamasi milliy qonunchiligimizda ilk bor qo'llanilmoqda. Biroq dunyo tendensiyasi shuni ko'rsatadiki, barcha rivojlangan davlatlar uni shakllantirishga allaqachon kirishgan. O'zbekiston ham mazkur jarayondan chetda qolmasligi kerak. Zero, biz globallashuv, dunyo hamjamiyati bilan integratsiyaga kirishish haqida gapirar ekanmiz, bu borada o'zgargan (transformatsiya qilingan, yangilangan) iqtisodiyot ravnaqi muhim sanaladi.


Yaratilgan maxsus boshqarma iqtisodiyotning real sektori korxonalariga avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish bilan shug'ullanadi. Bu yirik sanoat ob'ektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o'sish, faoliyat shaffofligini ta'minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi.

Agar global nuqtai nazardan qaralsa, bugun jahon iqtisodiyoti tarmoqlari, insonlar hayoti, turmush asoslari o'zgarishi bilan bog'liq qiziq davrni boshdan kechirmoqda. Bu barcha texnologiya, kompyuterlar internet orqali bir-biri bilan bog'lanib borayotgani bilan izohlanadi. Ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda qariyb besh milliard qurilma butunjahon "o'rgimchak to'ri"ga ulangan. Yaqin besh yil ichida ularning soni yigirma milliardga yetishi mumkin.

Ayni paytda sun'iy aql va kognitiv intellektual tizimlar jadal taraqqiy etmoqda. Buning

natijasida yaqin kelajakda ayrim kasblar o'z dolzarbligini yo'qotadi hamda vaqti kelib, yo'q bo'lib ham ketadi. Misol uchun, "IoT" avtomatlashtirilgan tizimi allaqachon sinovdan o'tkazilayapti. Pirovardida robotlar avtomobil haydovchilari, uchuvchilar va hatto, huquqshunoslarning ham o'rmini egallashi mumkin.

Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot – bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash asosida turli xil ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlarni asosiy ishlab chiqarish omili hisoblangan faoliyatdir.



Zamonaviy taraqqiyotning keyingi istiqbolida katta hajmli ma'lumotlar bilan ishlash texnologiyalari (Big Data), sun'iy intellekt, neyrotexnologiyalar, kvant texnologiyalari, buyumlar interneti, robototexnika va sensorika, raqamli elektron platformalar, bulutli va mobil texnologiyalar, virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalari, kraudsorsing, blokcheyn texnologiyalari, kriptovalyutalar va ICO, 3D-texnologiyalari singari raqamli texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda Internet iqtisodiyotining o'sishi eng muhim omil bo'lmoqda. Avvalo, bu doimiy ravishda yangi raqamli platformalarning paydo bo'lishi bilan seziladi.

Ijtimoiy tarmoqlar iste'molchiga katta ta'sir ko'rsatadi, ilgari bu unchalik ahamiyatli emas edi. Ayni paytda Internet inson hayotining ajralmas qismidir. Shuningdek, u bank, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa sohalarda chuqur singib ketgan. Raqamli iqtisodiyotni kompyuter texnologiyalari taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, onlayn xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq xizmatlarni, shuningdek elektron to'lovlarni savdo-sotiqni va boshqalarni birlashtirgan faoliyat deb hisoblash mumkin.

Raqamli iqtisodiyotni raqamli ishlab chiqarish deb ham hisoblash mumkin. Ayni paytda dunyo aholisining taxminan 50% har kuni Internetdan dars berish yoki biznes bilan shug'ullanish maqsadida foydalanadi. Internet orqali sotiladigan mablag tez orada boshqa savdo aloqalarini chetlab o'tishi bashorat qilinmoqda.

Bu qisman elektron to'lovlar qog'oz pul o'tkazmalariga qaraganda ancha ishonchli ekanligi bilan bog'liq. Virtual hayotda, hozirgi paytda ko'plab yangi g'oyalar amalga oshirilmoqda va yangi mahsulotlar paydo bo'lmoqda. Agar yangi ixtironi sinovdan o'tkazish zarurati bo'lsa, yangi texnologiyalar tufayli uni ancha yaxshi va tezroq bajarish mumkin.

Loyihalarni taqlid qilish orqali olimlar o'zlarining barcha ijobiy va salbiy tomonlarini minimal narxlarda aniqlaydilar. Yana bir necha yil ichida, ekspertlarning fikriga ko'ra, elektron iqtisodiyot biznes va iqtisodiy munosabatlarni tushunishda katta o'zgarishlar kiritadi.



Har bir kelajakdagi ishbilarmon o'z biznesini muvaffaqiyatli boshlash uchun raqamli iqtisodiyot asoslarini o'rganishi kerakligini tushunishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гулямов С.С. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: "Iqtisod- Moliya" nashriyoti, 2019.
2. Shuxratovna, Akhmedova Nilufar, Mirdjalilova Dildora Shuxratovna, and Asadova Maftuna Sa'dullayevna. "Issues of Forming a Digital Real Estate Management Base." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* 1.1 (2023): 60-63.
3. Mahmudovich, Abduvaliev Zafar. "Corporate Social Responsibility Is An Important Factor In The Sustainable Development Of Modern Companies."

RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING OLIY TA'LIMDAGI O'RNI

Yusupov Shavkat Ergash o'g'li
Toshkent Arxitektura-Qurilish Universiteti talabasi

Annotatsiya : Raqamli iqtisodiyot o'qish, tadqiqot va malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirib, oliy ta'limga salmoqli hissa qo'shmoqda. Shuningdek, u ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi va ta'lim sifatini oshiradigan innovatsiyalar va hamkorlikni rag'batlantiradi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish dinamikasi, empirik yo'nalish, nazariy yo'nalish, siyosiy yo'nalish.

Аннотация: Цифровая экономика вносит значительный вклад в высшее образование, расширяя возможности для обучения, исследований и профессиональной подготовки. Он также поощряет инновации и сотрудничество, которые повышают конкурентоспособность учебных заведений и качество образования.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровая экономика, динамика цифровизации, эмпирическое направление, теоретическое направление, политическое направление.

Abstract: The digital economy is making a significant contribution to higher education by expanding opportunities for study, research and training. It also encourages innovation and collaboration that increases the competitiveness of educational institutions and the quality of education.

Key words: digital technology, digital economy, digitization dynamics, empirical direction, theoretical direction, political direction.

Raqamli texnologiya innovatsiyalari oliy ta'limni yaxshilash va talabalar, olimlar va universitet ma'muriyatiga imtiyozlar berish salohiyatiga ega. Ular, shuningdek, yangi monetizatsiya imkoniyatlarini olib keladi. Darhaqiqat, IBIS Capital¹⁸ hisob-kitoblariga ko'ra, ta'lim texnologiyalari bozori 15% o'sish sur'ati bilan 187 milliard dollarga teng. Ta'lim texnologiyasiga investitsiyalar misli ko'rilmagan darajada oshmoqda, shu jumladan korporativ kapitallashuv ham. 2020-yil oktabr holatiga ko'ra, butun dunyo bo'ylab 20 ta ta'lim texnologiyalari bo'yicha yagona tarmoqlar, ya'ni HolonIQ¹⁹ tomonidan baholangani 1 milliard dollardan ortiq kompaniyalar mavjud edi. Ushbu o'sib borayotgan bozorning qatnashchilari kimlar va undan kimlar foyda ko'radi, qanday monetizatsiya modellari ishlab chiqilmoqda va bu nima uchun muhim ?

¹⁸ IBIS Capital, korporativ investitsiyalar va moliyalashtirish, xususan, ommaviy axborot vositalari, ta'lim va sog'liqni saqlash sohaslarida ixtisoslashgan konsalting firmasi: <http://www.ibiscap.com/index> .

¹⁹ <https://www.holoniq.com/edtech-unicorns/>

Dunyo bo‘ylab universitetlar o‘zlarining barcha operatsiyalarini tobora ko‘proq raqamlashtirmoqdalar, COVID-19 pandemiyasi boshqa sharoitlarda doimiy bo‘lishi mumkin bo‘lgan siljishni tezlashtirdi. O‘qitish uchun virtual o‘quv muhitlari va raqamli aloqa platformalaridan foydalanish, qarorlar qabul qilish uchun ta‘lim va biznes tahlillarini qo‘llash va universitet binolarini aqlli joylarga aylantirish oliy ta‘limda o‘sib borayotgan global raqamli ekotizimning bir nechta misolidir.



Raqamli texnologiya bo‘yicha o‘qitish va o‘qish jarayonlari, jumladan, ma‘lum dasturiy ta‘minot yoki ilovalarning ta‘siri bilan bog‘liq katta tadqiqotlar mavjud. Oliy ta‘limni raqamlashtirish bilan bog‘liq xususiyashtirish, monetizatsiya va qiymatning yangi shakllari masalalari bo‘yicha tadqiqotlar ancha kam. Bu savollarni o‘rganish endigina boshlanmoqda. Shunga qaramay, ushbu jarayonlarni tahlil qilish sektordagi zamonaviy raqamlashtirish dinamikasini tushunish uchun juda muhimdir.

Maqolamda men oliy ta‘lim tadqiqotchilari uchun empirik, nazariy va siyosiy yo‘l-yo‘riqlarni taklif qilaman. Ular oliy ta‘lim bo‘yicha qaror qabul qiluvchilar va manfaatdor tomonlar uchun ham dolzarbdir.

Empirik yo‘nalish

Biz oliy ta‘limni raqamlashtirishni global miqyosda kengayib borayotgan raqamli iqtisodiyotdan alohida tushuna olmaymiz. Raqamli iqtisodiyotning belgilovchi elementi raqamli platformalar tomonidan faollashtirilgan raqamli tovarlar va xizmatlarga yo‘naltirilgan biznes modellaridir. Ushbu platformalar ijtimoiy-texnik vositachilar bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida infratuzilma vazifasini bajaradi. Shu

tarzda, ular foydalanuvchi harakatlari va o‘zaro ta’siri haqidagi barcha ma’lumotlarni, shuningdek, foydalanuvchilarning joylashuvi, foydalanadigan qurilmalari haqidagi metama’lumotlarni yozib oladi va chiqaradi. To‘plangan raqamli ma’lumotlar keyinchalik ramkalash, saqlash, yig‘ish, tahlil qilish va razvedkaga aylantirish orqali yaxshilanadi. Ta’lim texnologiyalari (EdTech) sanoati ta’lim sohasida raqamli iqtisodiyot mavjudligining yaxshi ko‘rsatkichidir. Yuqorida aytib o‘tilganidek, EdTechning o‘sishi ta’sirli.

Oliy ta’lim sohasida juda ko‘p turli platformalar mavjud. Ba’zilar universitetlar tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi. Aksariyati savdo belgisi bo‘lib, universitetlar xususiy virtual o‘quv muhiti platformalarida bo‘lgani kabi foydalanuvchi sifatida ham ishlaydi; yoki hamkorlar sifatida, masalan, onlayn dasturlarni boshqarish kompaniyalari ularga onlayn dasturlarni taklif qiladilar va foydani bo‘lishadi. Nihoyat, ba’zi platformalar bevosita talabalar va xodimlarga qaratilgan. Maqolada men oliy ta’limda raqamlashtirish jarayonlarining bir qismi bo‘lgan ishtirokchilar turlarini, nima raqamlashtirilayotganini va turli xil monetizatsiya modellarini o‘rganishni boshlayman. Men aniqlagan turli xil modellar o‘rtasidagi umumiylik shundaki, ular mahsulotni sotmaydilar, lekin obuna to‘lovlari, click uchun to‘lovlar, platformada o‘tkaziladigan vaqt va boshqalar shaklida ijara haqi oladilar. Tijorat va monetizatsiya shartnomalaridagi ushbu turli ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlar yaxshi tushunilmagan. Bularni har birini alohida holatda chuqur tahlil qilish kerak.

Nazariy yo‘nalish

Bugungi kunga qadar oliy ta’limni raqamlashtirish va tijoratlashtirish kesishishi bo‘yicha olib borilgan ko‘pgina tadqiqotlar bozorlar nazariyasidan tovar ayirboshlash institutlari sifatida foydalanadi. Tovar va tovar shakli analitik jihatdan birinchi o‘rinda turadi. Biroq, raqamli iqtisodiyotning kengayishi ijaraga olishning kuchayishi, ya’ni Kean Birch ta’kidlaganidek, mulkchilik va nazorat qilish huquqi orqali qiymatni o‘zlashtirish bilan ajralib turadi. Mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan tadbirkorlik strategiyalari o‘rniga, asosiy e’tibor narsalarni aktivlarga aylantirishning moliyaviy strategiyalariga qaratiladi. Birch uch bosqichda ijaraga olish nazariyasini taklif qiladi: bilimlarni «tovarlash», narsalarni aktivlarga aylantirish va iqtisodiy renta olish.

Aktivlar har xil turdagi, o‘lcham va shakllarda bo‘ladi. Oliy ta’limni raqamlashtirishda dolzarb bo‘lgan aktivlar turlari nomoddiy aktivlar bo‘lib, boshqaruvning asosiy mexanizmlari mualliflik huquqi va platforma egalari tomonidan kafolatlangan patentlar ko‘rinishidagi shartnomalarga aylanadi. Nazariy yo‘nalishda men oliy ta’lim tadqiqotchilariga ijaraga olish nazariyasini qo‘llashni va narsalarni aktivga aylantirish jarayonlarini o‘rganishni taklif qilaman. Men ularga

raqamli izlarimizni tark etayotganimizda sektorda ishlab chiqilayotgan turli xil ma'lumotlarni ijaraga olish modellarini aniqlash va kuzatishni taklif qilaman. Oliy ta'limda olingan raqamli ma'lumotlar bilan ishlashning turli usullari mavjud deb taxmin qilish mumkin. Shu nuqtai nazardan, ma'lumotlarga kirish, egalik qilish va nazorat qilish muhim masalalarga aylanadi.

Siyosiy yo'nalish

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyotning evolutsiyasi hozirgi kunga qadar o'rnatilgan intellektual mulk huquqlari rejimiga asoslangan ijaraga olishning o'ziga xos shakli bilan ajralib turadi. Amaliyot nazariya va siyosat o'rmini egallaydi. UNCTAD²⁰ evolyutsiyaning yo'nalishi raqamli tafovut, tengsizlik va notekis rivojlanish bilan belgilanadi, deb ogohlantiradi. U global siyosatni muvofiqlashtirish va tartibga solishni talab qiladi. Oliy ta'limda qiymat konstruksiyasi qanday rivojlanganligi aniq emas. Shuning uchun biz zudlik bilan tadqiqot va siyosatga muhtojmiz.

Raqamlashtirilgan oliy ta'lim ekologiyasida turli munosabatlar mavjud. Birinchisi, platforma egalari tomonidan chiqarilgan foydalanish shartlari bilan boshqariladigan platforma kompaniyalari va individual foydalanuvchilarga tegishli. Ikkinchisi platforma kompaniyalari va universitetlar o'rtasida bo'lib, ular muzokaralar olib boradigan shartnomalar bilan tartibga solinadi. Uchinchisi, platforma kompaniyalari yoki universitetlar tomonidan uchinchi shaxslarga autsorsing qilingan xizmatlarga tegishli bo'lib, ular o'rtasidagi shartnomalar bilan tartibga solinadi. Ushbu munosabatlarning ba'zilarida talabalar va xodimlar platformalarning individual foydalanuvchilari sifatida bir-biriga bog'langan ma'lumotlar va maxfiylik siyosatlariga bo'ysunadilar.

Talabalar va xodimlar foydalanuvchilar sifatida ular ishlab chiqaradigan ma'lumotlar qayerga ketayotganini bilishadimi yoki yo'qmi, biz bilmaymiz. Platforma egalari tomonidan bir tomonlama ravishda chiqarilgan foydalanish shartlariga rozilik berish ba'zi mualliflar tomonidan individual kuchni yo'qotish deb hisoblanadi. Bundan tashqari, bu oliy ta'lim boshqaruvida davlat huquqidan shartnoma huquqiga va tijorat sezgirligiga o'tishning mumkin bo'lgan belgisi bo'lishi mumkin. Bu yana juda zarur bo'lgan tadqiqot e'tiboriga loyiqdir.

Hozirgi kunga qadar mavjud bo'lgan yagona reglament ma'lumotlar maxfiyligiga taalluqlidir, GDPR dunyodagi eng rivojlangan tizim hisoblanadi. Ma'lumotlarning maxfiyligi, ayniqsa kuzatuv nuqtai nazaridan juda muhimdir. Biroq, ma'lumotlar maxfiyligi qoidalari faqat dunyoning ayrim qismlariga nisbatan qo'llaniladi. Bundan tashqari, u ma'lumotlarni identifikatsiya qilishdan tashqari

²⁰ UNCTAD. (2019). Raqamli iqtisodiyot hisoboti: qiymat yaratish va qo'lga kiritish - rivojlanayotgan mamlakatlar uchun oqibatlari. Jeneva: Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va rivojlanish bo'yicha konferentsiyasi.

ma'lumotlarga egalik qilish va nazorat qilish masalasini ko'rib chiqmaydi. Anonimlashtirilgan va umumlashtirilgan ma'lumotlarni monetizatsiya qilish masalalari hal etilmagan. Olingan ma'lumotlardan kim va qanday foyda olishi kerak? Iqtisodiy qiymatni egallashning hozirgi vositalari qonuniymi? Raqamli oliy ta'limda qiymatni boshqarish usuli ijtimoiy jihatdan adolatlimi? Biz hali ham ta'lim texnologiyasining qanday siyosiy iqtisodini xohlayotganimiz haqida bahslashishimiz kerak va buni xalqaro darajada tashkil qilish kerak.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Butaboyev, A. O'rinov, F. Mulyaydinov, Isroiljon Tojimatov. Raqamli iqtisodiyot. "SamDu" nashriyoti - 2021.
2. <https://www.google.co.uz/>
3. <https://www.holoniq.com/edtech-unicorns/>
4. <http://www.ibiscap.com/index>

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШ

*Файзиева Гулноза Абдурумановна
Тошкент архитектура-қурилиш университети
Иқтисодиёт кафедраси в.б.доценти*

Аннотация: Бугунги кунда бутун жаҳон иқтисодий жараёнларига рақамли технологияларнинг шиддат билан кириб бориши, ахборот технологияларининг инсон иш фаолиятида катта аҳамият касб этиши маҳсулот ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва бошқариш асосларини тубдан ислоҳ этиш кераклигини англатади. Ўзбекистоннинг маҳаллий ишлаб чиқариш қувватларини халқаро тажрибаларда синалган инновацион тараққиёт моделларига асосан ривожланишини, рақамли технологиялар асосидаги платформалар яратилиши, ишлаб чиқаришни дигитализациялаш ва бошқариш, экспортбоп юқори қўшимча қийматга эга маҳсулотларнинг яратилиши билан таърифлаш мумкин.

Калит сўзлар: дигитализация, реиндустриализация, иқтисодий трансформация, автоматизация, роботизация, интеллектуализация.

Аннотация: Сегодня стремительное проникновение цифровых технологий в экономические процессы мира, значение информационных технологий в труде человека означают, что основы организации и управления производством продукции должны быть кардинально реформированы. Можно охарактеризовать развитие внутреннего производственного потенциала

Узбекистана на основе инновационных моделей развития, проверенных международным опытом, создание платформ на основе цифровых технологий, цифровизацию производства и управления, создание продукции с высокой добавленной стоимостью для экспорта.

Ключевые слова: цифровизация, реиндустриализация, экономическая трансформация, автоматизация, роботизация, интеллектуализация.

Abstract: Today, the rapid penetration of digital technologies into the economic processes of the world, the importance of information technologies in human work mean that the fundamentals of organizing and managing production must be radically reformed. We can characterize the development of Uzbekistan's domestic production potential based on innovative development models proven by international experience, the creation of platforms based on digital technologies, digitalization of production and management, and the creation of products with high added value for export.

Key words: digitalization, reindustrialization, economic transformation, automation, robotization, intellectualization.

Иқтисодиётни янги технологик тартибга ўтишининг замонавий тендециялари маҳаллий ишлаб чиқариш қувватларини модернизация қилишга, ишлаб чиқариш жараёнларини ташкилий ва иқтисодий таъминотига ноодатий ёндашувлар асосида қайта кўриб чиқишни тақозо этмоқда. Ушбу мавзуда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ўз нутқларида мазкур масалага алоҳида тўхталиб: «Рақамли иқтисодиётсиз мамкалакат иқтисодиётининг келажаги йўқ» деб таъкидлаб ўтганлар [1]. Рақамли иқтисодиёт концепцияси илк бор XX асрнинг охириги декадасида пайдо бўлган. 1995 йилда америкалик информатик Николас Негропonte “атомлардан қайта ишлашдан “бит”ларни қайта ишлашга ўтиш” метафорасини ишлатган [2]. Бунда у классик иқтисодиётда томонлар ўртасидаги савдо алоқаларида тўлов, вақт, хавфсизлик каби камчиликларни қайд этиб ўтган. Рақамли иқтисодиётда эса ҳаракатлар томонлар ўртасида виртуал тарзда амалга оширилганлиги туфайли вақт жиҳатидан ўта қисқа муддат ва глобал тарзда чекланмаган масофада иқтисодий ҳаракатларни амалга ошириш имконияти туғилади. Ишлаб чиқариш технологияларининг ривожланиши саноатда реиндустриализация босқичини келтириб чиқаради. Бунда маҳсулот ишлаб чиқариш жараёни автоматизациялаштирилиб, қўл меҳнати роботизация жараёнига алмаштирилади ҳамда бошқарувда фақат инсон салоҳиятининг ўзи эмас, балким, интеллектуализация яъни бошқарувда сунъий интеллект тизимларидан кенг фойдаланишга ўтилади [3]. Рақамли иқтисодиётнинг шаклланиши саноат

ташкilotларининг янги турдаги рақобатини келтириб чиқаради, бунда ишлаб чиқаришни ташкил этишда технологияларнинг тезкорлиги ва мослашувчанлиги энг муҳим параметрларга айланади. Ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва бошқаришнинг замонавий парадигмаси меҳнат объектлари ва субъектлари ўртасида реал вақт режимида ахборот алмашинувига, ишлаб чиқариш ускуналарини тез алмаштириш имкониятларига, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш ходимлари сонини камайтириш имкониятларига, робототехника ва рақамли технологиялар ёрдамида мутлақо янги турдаги маҳсулотларни ишлаб чиқара олиш имкониятларига таянади [4]. Бундай имкониятни яратиш учун аввало инсон илмий салоҳияти, инсон капиталига катта инвестиция киритиш керак.

Рақамли иқтисодиёт шароитида ишлаб чиқаришни ташкил этишда катта ҳажмдаги маълумотларни тезкорлик билан қайта ишлаш ва ушбу қайта ишланган маълумот асосида қарор қабул қилишни автоматлаштирилганлиги муҳим омил сифатида қаралади. Иқтисодиётда рақамли технологияларни кескин равишда ортиб бориши, ушбу технологиялардан таркиб топган ишлаб чиқариш ташкilotларини пайдо бўлишига туртки бўлади. Хўш, бундай ташкilotларда бошқарув, менежмент қандай шаклда бўлади деган табиий савол туғилади. Жавоб сифатида шуни айтиш мумкинки, энди бошқарув субъектлари сифатида тажрибали раҳбар эмас, хорижий тилларни мукамал ўзлаштирган, замонавий информацион технологияларни яхши тушунадиган, соҳанинг сўнгги янгиликларини доимий кузатиб бориш қобилияти эга, кенг дунёқараш салоҳияти мавжуд кадрлар бош ролга чиқади.

Хулоса сифатида қуйидагиларни айтишимиз мумкин: рақамли иқтисодиётни шакллантириш шароитида ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва бошқариш бир неча муҳим асослари мавжуд бўлиб:

1) Ишлаб чиқариш жараёнига илмий-тадқиқот ва конструкторлик изланишларнинг қанчалик жалб этилганлиги: агар кўп миқдорда бўлса, ишлаб чиқариш ташкilotи мослашувчан ва рақобатбардош маҳсулотларни ишлаб чиқара олади;

2) инсон капиталига киритилган инвестициялар миқдорига тўғри пропорционал равишда боғлиқ, инвестиция ўсиши юқори квалификацияли кадрларни шаклланишига олиб келади. Бу эса ўз навбатида ҳар қандай мураккабликдаги ишлаб чиқариш технологияларини эксплуатация қилиш имкониятини беради;

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш.М. Тармоқ ва ҳудудларда рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни жорий қилиш масалалари бўйича видеоселектордаги нутқи, 2020, [электрон ресурс], URL: <https://president.uz/uz/lists/view/3848>
2. И.А. Матвеев, Электронная экономика: сущность и этапы развития. Управление экономическими системами, электронный научный журнал, 2012, Выпуск 6 (42).
3. С.Д. Бодрунов, Реиндустриализация: социально-экономические параметры реинтеграции производства, науки и образования. Социологическая исследования, 2016, № 2, стр.22-28.
4. Я. П. Силин, Управление промышленным предприятием в условиях новой индустриализации, Уральский государственный экономический университет, Екатеринбург, 2016, стр. 270.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISHNING USTUVOR VAZIFALARI

Shodmonov Baxtiyorxo'ja Isaxonovich
Toshkent viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasini mudiri

Аннотация: Мақоллада та'лим берishda рақамли texnologiyalardan foydalanishning zarurati, afzalliklari va masofaviy ta'lim sohasidan foydalanish bo'yicha statistikalar keltirilgan hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish va masofaviy ta'limning yangi avlod tizimlarini joriy etish lozimligi, masofaviy ta'lim tizimi orqali yangi ko'nikmalarni yoki mavzuga oid materiallarni o'rganish tezroq, osonroq va arzonroq ekanligi atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, mamlakatimizda masofaviy ta'limni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda samarali yo'lga qo'yish borasida to'sqinlik qilayotgan muammolar va ularni echish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Калит so'zlar: masofaviy ta'lim, raqamli texnologiyalar, raqamli o'qitish ta'lim tizimi, masofaviy platformalar, mobil qurilmalar, Internet tarmog'i.

Аннотация: В статье приводятся статистические данные о необходимости, преимуществах использования цифровых технологий в дистанционном образовании и о необходимости внедрения цифровых технологий и систем дистанционного образования нового поколения, а также подробно описывается,

как быстрее, проще и дешевле изучат новые навыки или материалы по теме через систему дистанционного образования. Также представлены проблемы, препятствующие эффективному внедрению дистанционного образования в нашей стране с использованием цифровых технологий, а также предложения и рекомендации по их решению.

Ключевые слова: дистанционное обучение, цифровые технологии, цифровая система обучения, дистанционные платформы, мобильные устройства, сет Интернет.

Annotation. The article presents the need, advantages and statistics on the use of digital technologies in distance education, as well as the need for the use of digital technologies and the introduction of new generation systems of distance education, the fact that it is faster, easier and cheaper to learn new skills or materials related to the subject through the distance education system is Also, in our country there are problems that are hindering the effective way of distance learning using digital technologies and suggestions and recommendations for their solution.

Key words: distance learning, digital technology, digital learning education system, remote platforms, mobile devices, Internet network.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida faol qo'llanilmoqda. iqtisodiyot, bank, xizmat sektori shuningdek ta'lim jarayonini ham tez sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan yosh bolalardan tortib nafaqaxo'rlarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikrni shakllantirmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining robotlashtirilishi, masalan bank sektorida, robotlar va ishchilar o'rtasidagi raqobat masalasi ham ko'tarilmoqda. Raqamlardan foydalanishga asoslangan hamda joriy etilgan texnologiyalarning so'zsiz foydasi bilan axloqiy, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, robotlar va tashkilotlar xodimlari o'rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlari bilan bog'liq masalalar tobora ko'proq e'tiborga olinmoqda. Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi

bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi” [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Raqamli iqtisodiyot bu birgina faoliyat turi emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat ob‘ektlari, sifatli ta‘lim va xizmatlar deganidir. “Raqamli” atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma‘lumotlar bo‘ladi. Ularning tahlilidan so‘ng esa to‘g‘ri boshqarish bo‘yicha echim ishlab chiqiladi. Mazkur maqolani yozishda respublikamiz oliy ta‘lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o‘quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash maqsadi qo‘yilgan bo‘lib, unda raqamli texnologiyalarning ta‘lim sohasida nafaqat muhim o‘rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo‘yicha tahlillar amalga oshirildi. Tadqiqot usullari sifatida oliy ta‘limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga tegishli xulosalar tuzishda normativ hujjatlarni, mavjud bo‘lgan amaliyotni o‘rganish, tizimlashtirish va umumlashtirishdan foydalanildi. Internet manbalarida xabar berilishicha, bugungi kunda atigi o‘nga yaqin davlatdagi talabalarning 95 foizida kompyuter bor. Indoneziyada esa 34 foiz yoshning internetdan foydalanishga sharoiti etarli. Qolgan davlatlarda bu ko‘rsatkich ancha past. Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasida ham bu ko‘rsatkich yuqori darajada emas. Bunga sabab esa chekka hududlarda Internet infratuzilmasining yaxshi rivojlanmaganligidir. Bu esa ayrim mutaxassislar taxmin qilayotganidek, ta‘lim sifati tushib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin [2].

Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Biz raqamlashtirishga tayyormizmi? Xavf-xatarni oldindan ko‘ra bilish, uning natija hamda oqibatlarini to‘g‘ri baholay olish vaziyatdan talafotsiz chiqib ketishni ta‘minlaydi. Xususan, 2021-yilning 17 martida Prezidentimizning “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, mazkur qarorda ta‘limning barcha sohalarini raqamlashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi. 2021- yil 23 martdan talabalar uchun televizion darslar efirga uzatila boshladi. Bundan tashqari, bir nechta oliy ta‘lim muassasalari talabalar va o‘quvchilar uchun virtual ta‘lim tizimlarini ishga tushirdi. Masalan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida maktab va akademik litsey o‘quvchilari, talabalar va AKT sohasida bilim olishni xohlovchilar uchun to‘rtta virtual ta‘lim tizimi faoliyat boshladi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va

adabiyoti universitetida “O‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish” axborot tizimi hamda MOODLE masofaviy ta’lim platformasi ishga tushirildi. Boshqa oliy ta’lim muassasalarining rasmiy veb-saytlarida ham MOODLE, Platonus, Moodle LMS, SRS (Student Records System), MOOC kabi masofaviy ta’lim platformalari hamda mobil telefon va planshetlar uchun Google Classroom, Ereader ilovalari ishga tushirilib onlayn darslar tashkil etilishi boshlandi. Shular qatori, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ham qisqa muddat ichida “remote-education” masofaviy ta’lim platformasining dasturiy ta’minoti ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Yurtimizdagi nufuzli xususiy o‘quv markazlari ham zamon talabidan kelib chiqqan holda onlayn ta’limni yo‘lga qo‘ydi. Bu jarayonning o‘zi ham mamlakatimiz ta’lim tizimida yangi bosqich boshlanganini anglatadi. Sababi, shu kungacha hali hech bir o‘quv markazi bunday tartibga o‘ta olmayotgan edi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko‘plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi yillarda ta’limni “raqamlashtirish” muammolari, uning shakllanishiga ta’siri bo‘yicha birorbir davlat loyihasi yoki so‘rovnoma asosida tadqiqotlar o‘tkazilmaganligi ham muhimdir [3]. Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta’sirining ahamiyati hukumatning, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma’ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, magistrant va tadqiqotchilarning, shuningdek deputatlarning izlanishlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, oldin raqamli texnologiyalarni barcha sohalarda, ya’ni, sanoat, iqtisodiyot, bank va boshqa sohalarda joriy etish bilan cheklanib qolgan edik. Bugungi kunda esa raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanib borayotganini e’tiborga olib, raqamli rivojlanish bo‘yicha barcha soha rahbarlarining o‘rinbosarlari lavozim tarkibiga kiritilmoqda [4].

Raqamlashtirish yo‘nalishi bo‘yicha faollashtirish barcha biznes tuzilmalarida amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda “tajovuzkor”, ayniqsa iqtisodiy samarasi topilgan joylarda, barcha darajalarda qo‘llab-quvvatlanmoqda. Iqtisodiyotda ro‘y berayotgan jarayonlar dinamikasi iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasida oliy ta’limni rivojlantirish bo‘yicha takliflarni tahlil qilish va ishlab chiqishda ta’lim hamjamiyatining faol pozitsiyasini talab qilmoqda. Ta’lmda raqamli texnologiyalarni o‘qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo‘llash uchun nimalar qilish kerak?

Birinchiidan, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va

eng muhimi aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so'ng yutuqlarini o'zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berishimiz lozim.

Ikkinchidan, o'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish va axborot resurslari, o'qitish vositalari va masofaviy o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish bo'yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O'zbekistonning barcha oliy ta'lim muassasalarida qo'llash.

Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish.

To'rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma'ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o'tkazish.

Beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, video-konferensaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish.

Oltinchidan, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo'llash, raqamli didaktika va raqamli ta'lim modellarini qo'llash, o'qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta'lim sifatini tushirmagan holda talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz.

Alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda hayotimiz har jihatdan texnika va texnologiyalar bilan bog'liq, ya'ni ertalab soat bongidan boshlab to kun rejasini tuzish va o'qish bilan yakunlashgacha. Biz ta'lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan manfaatli foydalanish imkoniyatini yaratishni istadik. Qachonki, planshet ta'lim olishning bir elementiga aylansa, bolalar o'qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadi. Bu o'yin bilan klassik ta'limni birlashtirishga tengdir. Natijada o'qish jarayoni yaxshilanadi, o'zlashtirish, ta'lim darajasi va kadrlarni

tayyorlash samaradorligi oshadi. Bilimli avlod, professional kadrlar — bu jamiyatning keng miqyosda rivojlanishining garovidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kun auditoriyalari o'n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli avlodning etti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo'lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Raqamli avlod ota-onalarimiz o'rgangan uslubda o'qitilishi mumkin emas va bo'lmasligi ham kerak. Bu avlodni o'qitishda qora doska va oq bo'rdan foydalanish ham mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo'rni markerga o'zgartirish hech narsani o'zgartirmaydi, ya'ni zamonaviy talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko'nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo'la olmaydi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozim va bu bilan ilmiy tadqiqotda talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirish va IT-kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta'lim tizimidagi barcha muammolarga echim emas, balki raqamli avlod uchun ma'ruzalar va seminarlarni ma'lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, o'qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan interfaol o'quv jarayonida asosiy rolni saqlab qoladi. O'qituvchining obro'si va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina kurs mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o'quv materialini to'plash, qayta ishlash va o'qitishda o'qituvchining qanchalik zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash darajasiga bog'liq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta'lim qayta ko'rib chiqilishi va ta'lim paradigmasi o'zgartirilishi shart, chunki talabalar ortiq an'anaviy uslubda o'qishni xohlamaydilar va o'qituvchilar ham bu kabi odatiy usulda o'qitishni davom ettirishlari kerak emas

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidentishavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
2. Шаронин Ю.В. Сифровые технологии в высшем и профессиональном образовании: от личносно ориентированной Смарт-дидактики к блокчейну в селевой подготовке спесиалистов // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – №
3. Абдуллаев М., Саидахроп, Г., & Аюпов, Р. (2020). Рақамли иқтисодиёт - кадрлар тайёрласхнинг долзарб ёналисхлари. Архив научных исследований, 1(23). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2702>. URL: <http://science-yeducation.ru/ru/article/view?id=28507> (дата обращения: 25.06.2020).
4. Norboeva N Yerkinovna, Khas'himova D Pakhritdinovna. The role of the digital yeconomy in the development of information and communication technologies // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10 (3), 25-31.

AXBOROTLASHTIRILGAN MUHITDA BO`LAJAK MUTAXASISLARNI KASBIY INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHDA TA`LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Aripova Nasiba Atxamovna, rahbar talaba Amirqulov Muzaffar

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy va o`rta talim darslarida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishning afzalliklari yoritilgan. Zamonaviy ta`limni olib borishda axborot texnologiyalarining o`rni haqida ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: Ta`lim, axborot texnologiyalari, kompyuter, dars, tarbiya.

Аннотация: В данной статье собрана современная информация о классах высшего и среднего образования. выделены преимущества использования возможностей технологий. Представлена информация о роли информационных технологий в проведении современного образования.

Ключевые слова: Образование, информационные технологии, компьютер, урок, образование.

Annotation: This article contains modern information on higher and secondary education classes the advantages of using the possibilities of technologies are

highlighted. Information about the role of information technologies in conducting modern education is given.

Key words: Education, information technology, computer, lesson, education.

Kundan kunga globallashib borayotgan bu hayotimizda zamonaviy texnologiyalar hayotimizning muhim va ajralmas qismiga aylanib ulgurdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Hech bir mamlakat, hech bir mahalla, hech bir xonadon qolmaganki zamonaviy texnologiyalar kirib bormagan. Ulardan faqat ezgu niyatlarda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuni tan olishimiz kerakki zamonaviy texnologiyalar ta'lim tizimida bir qator yengilliklar, imkoniyatlar yaratish bilan birgalikda bir muncha ziddiyatli vaziyatlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Ta'lim tizimidagi ta'lim texnologiyalari bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda juda keng qo'llaniladi. Ta'lim sohasini yangi sifat bosqichiga ko'tarishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish va faol foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish bugungi kundagi o'zining ijobiy yechimini topayotgan muhim masalalardan biridir. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan izchil va samarali foydalanish orqali amalga oshiriladi. Ta'lim sohasida bu kabi islohotlarni amalga oshirish pedagoglar zimmasiga ulkan mas'uliyatli vazifani yuklaydi ya'ni bugungi kun pedagogi zamon talablariga to'liq javob bera olishi shart. Yangiliklarni ta'lim jarayoniga olib kirish va joriy etish, o'z ustida ishlash pedagogik faoliyatini yangilab turish har bir pedagogning asosiy vazifasidir. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh maqsadi zamonimiz davomchilarini intellektual va ma'naviy-axloqiy barkamol avlod ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Bilimli pedagog ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy usullarini darsning didaktik vazifasi va o'quvchilarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda tanlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshirish barobarida o'quvchilarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Barcha sohalar asosida yotuvchi bosh g'oya ham tabiat va inson uzviyligini anglab yetadigan, avtoritar va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan, sabrbardoshli, qanoatli, o'zgalar fikrini hurmat qiladigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxs sifatlarini shakllantirishni ko'zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Komil ishonch bilan shuni aytish mumkinki, pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga yangiliklarni olib kiruvchi asosiy manbadir.(1)

Maxsus ta'lim tizimida ham dars jarayonlarda bu kabi pedagogic texnologiyalardan faol foydalaniladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish jarayonida hamda korreksion-rivojlantiruvchi tarbiya faoliyatida ham pedagogik texnologiyalarni qo'llash ijobiy samara beradi. Chunki imkoniyati

cheklangan bolalar ham an'anaviy darsdan ko'ra interfaol uslublarni o'z ichiga qamragan, pedagogik texnologiya va texnik vositalar bilan jihozlangan darslarga ko'proq qiziqishadi.

Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.(2)

Hozirgi davr o'qituvchi va o'quvchi oldiga katta talablar qo'yimoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatliigi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga, maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o'quvchilarni turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishidir.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman?» deya o'ziga savol berishi ya'ni, an'anaviy ta'limdan qochib, noan'anaviy ta'lim berishga intilishi lozim.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi dastlab:

/darsning maqsadi;

/maqsadga erishish yo'llari;

/o'quv materiallarini taqdim etish usullari;

/o'qitish metodlari;

/o'quv topshiriqlarining turlari;

/muhokamalar uchun savollar;

/munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;

/o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayonida talaba-o'quvchilarni aqlan va ruhan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz mohiyati bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda ularda buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy me'roslarini o'rganishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish muxim rol o'ynaydi. Kompyuter va axborot texnologiyalari vositalari orqali pedagog xodimlar hamda talaba-o'quvchilar juda ko'p miqdorda ma'lumotlarni olish, izlash qayta ishlash va o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham ta'lim jarayonida didaktik vosita sifatida foydalaniladigan dasturlarning maxsus bozori shakllanmoqda. Hozirda umumta'lim

darslarida foydalanishi mumkin bo'lgan internetga joylashtirilgan ko'plab dasturlar mavjud. Bular sirasiga birinchi navbatda elektron darsliklarni kiritish mumkin. Kompyuter texnologiyalari turli xil interaktiv xarakterdagi topshiriqlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Masalan, talaba-o'quvchilar voqealarni xronologik ketmaketlikda joylashtirish, fanga oid atamalar va tushunchalarni to'g'ri izohlash yoki o'ng va chap qatordagi atamalar va ularning ma'nosini mos ravishda strelka bilan ko'rsatish yoki berilayotgan mavzudagi tayanch so'zlarni to'ldirish, test topshiriqlarini bajarish, krosvordlarni yechish kabi topshiriqlarni qanday ajarganliklarini katta ekranda multimedia yordamida tushirilgan javoblar bilan taqqoslab, bilib borishlari mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tmoqchimanki axborotlashtirilgan muhitda bo'lajak mutaxasislarni kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lib bunda talaba-o'quvchilarda bilim va ko'nikmani ma'lum darajada shakllantirib beradi. Bir muncha yengilliklar yaratib beradi, ma'lum darajada vaqtdan unumli foydalanadi,

mustaqil fikrlashni ma'lum darajada o'stiradi, erkin ijodiy ishlar uchun har qanday vaziyatda har qanday holatda doimo shart sharoit borligi bu katta yutuqlardan biri hisoblanadi. Biz bu imkoniyatlardan maksimum to'g'ri maqsadlarda foydalanib yurtimizni bayrog'ini yuksaklarga ko'taradigan mutaxasis bo'lib yetishishimiz lozim. Shundagina biz bu yaratilgan shart-sharoitlarga munosibligimizni isbotlagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://cyberleninka.ru/article/>
2. <https://e-library.sammu.uz/>
3. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012
4. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS BOZORI TAHLILI

Abdullayev Sh.Sh.

TAQU "Iqtisodiyot" kafedrasida KMBo'-22/2 – guruh magistri

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida uy-joy ko'chmas mulk bozori rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlili, baholovchi tashkilotlar va rieltorlik tashkilotlar tahlili keltirilgan.

Kalit soʻzlar: Koʻchmas mulk, baholash, baholovchi tashkilotlar, kvartira, turar joy, qurilish.

Аннотация: Анализ показателей развития рынка жилья и недвижимости в Республике Узбекистан, анализ недвижимости. оценочных организаций и агентств недвижимости.

Ключевые слова: Недвижимость, оценка, оценочные организации, квартира, жилье, строительство.

Abstract: Analysis of indicators of housing and real estate market development in the Republic of Uzbekistan, analysis of appraisal organizations and real estate agencies.

Key words: Real estate, appraisal, appraisal organizations, apartment, housing, construction.

Bugungi kunda baholash faoliyati hayotimizning barcha sohalarida zarur. Mulk bilan bogʻliq har qanday jarayonlarni olib borishda yoki bitimlar tuzishda professional baholash xizmatlaridan foydalaniladi. U xoʻjalik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborotlar asosini taʼminlaydi, iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishga xizmat qiladi.

Respublikamiz prezidenti 2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida farmonida ham oʻz aksini topgan.

Oʻtgan yilda yosh oilalar, eskirgan uylarda yashovchilarning hamda uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj boʻlgan boshqa toifalardagi fuqarolarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash yuzasidan qabul qilingan qarorlarga muvofiq Toshkent shahrida va Respublikaning boshqa shaharlarida maydoni 554.8 ming m² boʻlgan 191 ta koʻp kvartirali uylar qurilishi va rekonstruksiya qilinishi amalga oshirilmoqda. Natijada shu yilning oʻzidayoq uy-joy sharoitlari yaxshilanishiga muhtoj boʻlgan shahar oilalaridan 7919 nafari arzon va shinam uy-joy bilan taʼminlanadi.

2022-yil yanvar oyida Toshkentda uy-joy sektorida (ikkilamchi bozor) uy-joy taklifining oʻrtacha narxi 697 dollar/kv.m (oylik oʻsish surʼati 0,3%) yoki 7 322,0 ming soʻm/kv. m (oʻtgan oyga nisbatan oʻsish surʼati 0,7% ni tashkil etdi). 2022-yil yanvar oyida poytaxtda uy-joy narxlari indeksi 656 dollar/kv.m (2021-yil dekabriga nisbatan oʻsish surʼati 0,5% ni tashkil etdi) yoki 6 891,3 ming soʻmni/kv. m (oʻtgan oyga nisbatan oʻsish surʼati 0,9% ni tashkil etdi) ni tashkil etdi.

2022-yil yanvar oyida Toshkentda kvartiralami ijaraga olishning oʻrtacha qiymati 1,8% ga oshdi (5,6 dollar/kv.m darajasiga). Milliy valyutada kvartiralami ijaraga

olish qiymati 2021-yil dekabr oyiga nisbatan 2,2% ga oshdi va 58,8 ming so'mni/kv. m. ni tashkil etdi.


Toshkent shahridagi kiyartiralamning ikkilamchi bozorida taklif narxlarining oshishiga to'sqinlik qiluvchi yana bir omil faol uy-joy qurilishi. 2021-yilda 125 ta ko'p qavatli uy (8,5 ming xonadon) foydalanishga topshirildi.

1-jadval.

2021-yil
yanvar oyida
poytaxtimizda
ofislarni ijaraga
olishning o'rtacha
qiymati o'tgan oy — 8,7 dollar/kv. m. da saqlanib qoldi.

Toshkent shahri ko'chmas mulk bozori indikatorlari, 2021 yil

T/r	Indikator turalari	O'lchov biriligi	Indikator ko'rsatkichi	O'zgarishi, (%)
1.	Turar joy ko'chmas mulk qiymati indikatorlari	AQSh.doll./kv.m.	656	0,5
2.	Ofis qiymati indikatorlari	AQSh.doll./kv.m.	785	0,1



1-rasm. Toshkent shahrida ikkilamchi bozor (turar-joy sektori) ning o'rtacha taklif narxi, AQSh dollari.kv.m

Ayni paytda Toshkentda uy-joyga bo'lgan talabni yetarli darajada ushlab turishda yana bir omil muhim rol o'ynay boshladi. 2021 yilning iyun oyida O'zbekiston Markaziy banki 2021 yilning 1 iyulidan 2022 yilning 1 yanvariga qadar 18% (ilgari samarali 23-24% o'miga) milliy valyutadagi omonatlar bo'yicha maqbul foiz stavkalari hisoblanishini ma'lum qildi. 10 sentyabr kuni esa Markaziy Bank asosiy stavkani 15% dan 14% gacha qisqartirdi. Bu esa jismoniy shaxslarning O'zbekiston banklaridagi omonatlari bo'yicha stavkalarining 1 oktyabrdan -17% gacha qo'shimcha qisqarishiga olib keldi. Kurslari, shuningdek, xorijiy valyutadagi omonatlar uchun kamaytirilgacha 4% dollar jinsidan omonatlar uchun.

Toshkent shahrida 2022 yilga kvartira bozoridagi o'rtacha taklif narxining dinamikasi o'tgan yilga nisbatan umumiy va tarkibiy material bo'yicha ham birmuncha

o'sishni ko'rsatdi. O'rtacha taklif narxlarining o'zgarishi mutaxassislar tomonidan bashorat qilingan dinamika bilan tasdiqlandi.

2-jadval.

Turar-joy ko'chmas mulk narxлари (turar-iov sektori, ikkilamchi bozor)

Turar-joy ko'chmas mulk narxлари (turar-joy sektori, ikkilamchi bozor)	2021 yanvar	2020 yil dekabr tomonidan %	2020 yil yanvar tomonidan %
O'rtacha taklif narxi doll.kv.m.	697	100,3	108,9
O'rtacha taklif narxi, ming so'm. kv.m	7 322,0	100,7	119,9
Uy-joy xarajatlari indeksi. Doll.kv.m	656	100,5	110,8
Uy-joy xarajatlari indeksi. ming so'm. kv.m	6 891,3	100,9	122,0

Bino va inshootlar bo'yicha ijara to'lovlari (ijara to'lovi bazaviy stavkasi) quyidagicha hisoblanadi:

$$Bs = Ms \times Kz \times (Ks + Kst + Kk)$$


Bu yerda:

Bs - 1 kv. m ga 1 yil uchun bazaviy ijara stavkasi;

Ms – korxonalar faolyat turidan kelib chiqib 1 kv. Mga 1 yil uchun minimal ijara stavkasi.


Ko'chmas mulk bozoridagi ijara ma'lumotlari ko'chmas mulk qiymatini daromad usulida baholashning asosiy manbaasi hisoblanadi. Chunki turar joy va noturar joy binolarining asosiy daromadlari ijara asosida keladi. Demak Toshkent shahridagi turar joy ijarasi va noturar joy binolari, ya'ni ofis binolari ijarasi o'zgarishi tahlil qilingan.

Mamlakatimizda bugungi kunda 231 ta baholash tashkilotlari, shu jumladan xalqaro kompaniyalar mavjud bo'lib, ularda 1189 dan ortiq baholovchilar professional faoliyat yuritib kelmoqda, mol-mulkni baholash bo'yicha 95 mingdan ortiq shartnomalar tuzilgan. Shu bilan birga, baholash xizmatlari bozori hajmi 2020 yilda atigi 72 mlrd so'mni tashkil etdi. 1-diagrammada hududlar kesimida baholash tashkilotlari soni keltirilgan.



1 — diagramma. O'zbekistonda baholovchi tashkilotlar holati.

“Rieltorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga binoan, yurtimizda rieltorlik sohasidagi vakolatli organ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Shu bois, hukumatimizning 2011 yil 10 maydagi “Rieltorlik faoliyatini lisenziyalash to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori bilan rieltorlik faoliyatini lisenziyalash O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki Qo‘mitasi tomonidan amalga oshirilmoqda. 2-diagrammada 2020 yilda Rieltor tashkilotlari va rieltor mutaxassislari to‘g‘risida ma'lumotlar keltirilgan.



2-rasm. O‘zbekistonda rieltorlik faoliyati rivojlanishi

Ma'lumki so‘nggi yillarda rieltorlik faoliyati keng rivojlanmoqda. Shunday qilib, rieltor tashkilotlarning soni 2015 yilda 169 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yilga kelib 185 tani, 2017 yilda 192 tani, 2018 yilda 205 tani, 2019 yilda 252 tani va 2020 yilda 278 ta rieltor tashkilotlari hamda 1849 ta rieltor litsenziyasiga ega jismoniy shaxslar tashkil etgan.

Hozirgi vaqtda rieltorlik tashkilotining developmenti, keyingi sotish maqsadi bilan, yangi ko‘chmas mulk obyektlarini yaratishga qaratilgan. Bu faoliyat investitsiya — qurilish kompaniyalari bilan hamkorlik asosida amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini bosqichma-bosqich isloh qilish, mamlakatda xo‘jalik yuritishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish, baholash faoliyatining vujudga kelishi va rivojlanishi bilan kuzatilmoqda. Davlat uning me'yoriy-huquqiy asosini yaratish chora-tadbirlarini izchil amalga oshirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Baholash faoliyati” to‘g‘risidagi 811-I-son

qonuni. 19.08.1999 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Mulkni baholash 10-son milliy standarti (MBMS) "Ko‘chmas muk qiymatini baholash" (AV tomonidan 18.11.2009 y. 2044-son bilan ro‘yxatga olingan Davlat mulki qo‘mitasining 12.10.2009 y. 01/19-18/21-son Qarori bilan tasdiqlangan)

3. "O‘zbekiston Respublikasini 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi PF-27-son prezident farmoni. 28.02.2023 y.

4. M.Ikramov, M.Mraxmedov, V.U.Yodgorov, D.Sh.Mirdjalilova, Ko‘chma5 mulk iqtisodiyoti. Darslik. T.:2018 y.

5. Alimov R.X., Berkinov B.B., Kravchenko A.N., Xodiyev B.Yu. Ko‘chmas mulkni baholash. T.: "Fan".2005y.

6. www.gov.uz

7. uybor.uz

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛОГО ФОНДА КРУПНОГО ГОРОДА

Хаджаев Рустамхон Махмудханович

Доцент Ташкентского архитектурно-строительного университета

На современном этапе стратегически направленного социально-экономического развития региона приоритетным является модернизация всех сфер и отраслей экономики. Жилищно-коммунальное хозяйство является одной из важнейших сфер экономики, так как доступность и качество услуг жилищного хозяйства являются определяющими факторами.

Реформирование отрасли жилищного хозяйства приобретают актуальные вопросы управления жилым фондом.

Целью реформ, проводимых в жилищном хозяйстве, является развитие рыночных механизмов в жилищной сфере путем создания и функционирования жилищных объединений различных организационно-правовых форм и создание эффективного собственника.

В результате проведенных исследований и изучения современных методов и форм развития и использования жилого фонда выявлено наличие различных видов резервов роста эффективности развития управления жилого фонда крупного города. В условиях урбанизации жилой фонд имеет значительный

потенциал и играет роль своеобразного позитивного катализатора социально-экономических процессов.

Локальной целью данных исследований состоит в следующем:

- в обеспечении развития жилого фонда крупного города в соответствие с потребностями его жителей и с учетом социального расслоения, а также путем широкого применения инновационных форм использования жилого фонда;

- в обеспечении более полного раскрытия урбанистического потенциала города за счет улучшения условий проживания как аборигенов и жителей представителей внутренней миграции;

- в снижении непроизводительных затрат на формирование (воспроизводство) жилого фонда и затрат в течение жизненного цикла жилья.

Исходя из этой цели предлагается программы по развитию жилищного строительства увязывать со стратегией развития страны. При этом учитывать основные положения стратегии пространственного развития города.

Конечным результатом обеспечения населения жильем и программ по строительству жилья должно стать не только рост сдаваемой в эксплуатацию жилой площади, но и количество граждан, улучшивших свои жилищные условия, с учетом достижения современных стандартов жилищной обеспеченности.

Считаем необходимым повышение адресности предоставления жилищной поддержки наиболее нуждающимся гражданам, не обеспеченным жилыми помещениями на уровне минимальных жилищных стандартов и не имеющим доходов для самостоятельного решения жилищных проблем.

Исходя из практики зарубежных стран считаем необходимым расширение и дифференциация форм удовлетворения жилищных потребностей граждан, в том числе в зависимости от уровня нуждаемости. Расширение возможностей выбора гражданами различных форм предоставления жилищной поддержки из перечня таких форм, предусмотренных для той или иной группы граждан в соответствии с уровнем их доходов.

Для снижения стоимости жилья на первичном рынке предлагается:

- снижение себестоимости за счёт уменьшения административной нагрузки;
- предоставление льгот строительным организациям при безвозмездной передаче ими объектов социальной, инженерной и транспортной инфраструктуры в государственную собственность;

- предоставление льгот строительной отрасли, при реализации проектов строительство социального, жилья по государственным жилищным программам.

Внедрение альтернативных источников финансирования работ по строительству объектов инфраструктуры.

Всемерное развитие сегмента арендного жилья, включая доступный найм жилья. Создание управленческой инфраструктуры и правовых оснований для реализации проекта «арендное жильё», в том числе: внесение изменений в действующее законодательство, предусматривающих совершенствование института социального найма, в частности, отказ от бессрочного льготного найма, увязка стоимости найма с уровнем доходов.

Расширение возможностей найма за счет частного сектора за счет снижения налога на недвижимость для владельцев недвижимости, сдаваемой в долгосрочный наём.

Предусмотреть возможность предоставления малообеспеченным гражданам, нуждающимся в улучшении жилищных условий, субсидий для компенсации расходов на аренду жилых помещений.

Внедрение мер государственной поддержки развития местной промышленности строительных материалов, малого и среднего бизнеса в этом виде деятельности. Негативное влияние на себестоимость строительства оказывает неразвитость промышленности по производству строительных материалов. Вместе с тем, многие регионы обладают необходимой сырьевой базой для развития собственного производства строительных материалов.

Обеспечить изучение и использование современных технологий в строительстве индивидуальных домов, в том числе энергосберегающих, иных мероприятий по снижению себестоимости строительства и использованию локальных инновационных источников газо-, тепло- и водоснабжения.

Считаем, что проведение эффективной жилищной политики и ее успешная реализация возможны только в случае комплексного подхода, использования всех предложенных в данном исследовании рекомендаций.

Только такой подход позволит достигнуть желаемого социально-экономического эффекта.

Совершенствования управления развитием жилого фонда крупного города позволяет более полно обеспечить соответствие параметров городского жилого фонда потребностям развивающегося города. При этом обеспечивается консолидация ресурсных потенциалов, участвующих в формировании жилого фонда, и обеспечивается сбережение финансовых, материальных, трудовых ресурсов и сокращение временных затрат.

Касаясь экономической эффективности исследования, отметим, что основными и самыми весомыми традиционными недостатками в системе: «потребности урбанистически развивающегося города – возможности жилого

фонда» в отечественной практике в настоящее время по мере убывания приоритета выступают:

1. Недостаток жилой площади как для горожан, так и для вновь прибывших мигрантов;

2. Негармоничная структура жилого фонда по уровню доступности, что ведет к временным диспропорциям и недостаток доступного жилья для менее обеспеченной части населения, включая молодые семьи и вновь прибывших мигрантов;

3. Диспропорции в структуре жилья по виду использования -низкая доля жилья, сдаваемого в наем;

4. Высокие коэффициенты доступности жилья для приобретения жилья на первичном и вторичном рынках, а также секторе найма жилья.

Все эти 4-е группы недостатков взаимосвязаны. Например, наличие пустующих многоквартирных домов-новостроек ведет к временному омертвлению капитала и к недостатку средств на строительство жилых здания с меньшими комфортными характеристиками в общем объеме жилого фонда. А ведь это явление 1-го концентрира. В следующем круге этот недостаток в формировании жилого фонда города отражается на снижении темпов урбанизации и недоиспользованию урбанистического потенциала города (табл. 1).

Таблица 1

Традиционные недостатки в системе: «потребности урбанистически развивающегося города – возможности жилого фонда»

Наименование недостатка	Последствия	
	1-го концентрира	2-го концентрира
Недостаток общего объема жилой площади как для горожан, так и для вновь прибывших мигрантов	Снижение темпов урбанизации города	Недоиспользование урбанистического потенциала, снижение темпов социально-экономического развития города
- конструирование: отбор материала для данного занятия с учётом способностей студентов к его восприятию:, подбор и разработка системы знаний и задач, исходя из поставленных целей:, выбор рациональной структуры занятий в зависимости от цели, содержания и уровня развития обучаемых:, планирование содержания уроков с учётом межпредметных связей:, разработка заданий для самостоятельной работы студентов:, выбор системы рейтинговой оценки и контроля обучаемости студентов.

- организация: организация активных форм обучения, дискуссий, деловых игр, тренингов, использование педагогических методов, адекватных данной ситуации:, ясное изложение материала, выделение ключевых понятий, закономерностей, построение обобщающих выводов, создание тестов по читаемому предмету.

- социально-психологическое регулирование: стимулирование обучаемых к постановке вопросов, проведению дискуссий:, дисциплинирование студентов:, установление и поддержка отношений с коллегами, студентами, их родителями, администрацией.

- в научном исследовании использование методик психолого-педагогического исследования способов обобщения и оформления результатов, анализ деятельности коллег на основании достижений психолого-педагогической науки.

- использование компьютера: подготовка докладов и статей с помощью персонального компьютера: разработка сценариев обучающих компьютерных программ.

Вышеизложенное свидетельствует о том, насколько сложно и многообразна педагогическая деятельность педагогов высшего и среднего специального образования и какие требования предъявляют к ней общество и государство.

Исходя из этого, каждый педагог должен осознавать, что педагогическая деятельность является зеркальным отражением его способностей, состоящих из конструктивно-проектируемого, организационного, коммуникативного и других компонентов, а их совершенствование и развитие отражается на качестве подготовке специалистов народного хозяйства, разного профиля.

Библиографический список

1. Ro‘ziyev E.I., Ashirboyev A.O. Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi. -Т., “Fan va texnologiya”, 2010.
2. Rahmonov I., Valiyev A. va boshqalar. Chizmachilikni o‘qitishda pedagogik texnologiyalar (I va II qismlar). -Т., “TDPU rizografi”, 2012.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -Т., “Adabiyot jamg‘armasi”, 2006.
4. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. -Т., TDIU “Iqtisodiyot”, 2011.
5. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. -М., 1995.

ТАЪЛИМДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ

*Бердалиев Низомиддин Шералиевич
Сиёсий фанлар номзоди, доцент
Ренессанс таълим университети*

Ҳар бир соҳада кўзланган мақсадга муваффақиятли эришишда аввало услубни тўғри танлай билиш керак, тўғри ёндашув кўпгина қулайликларни, самарадорликни олиб келади. Хусусан, бугунги кунимизда замонавий ахборот-технологиялари барча соҳада ўз ўрнини кўрсатди. Бу дегани жамият ишини осонлаштириб тезда ривожланиши учун босилган қадам демакдир.

“Инновация – бу келажак дегани. Биз буюк келажакимизни барпо этишни... айнан инновацион ғоялар асосида бошлашимиз керак. Инновацион ривожланиш ва рақамли иқтисодиёт йўлига ўтишимиз бежиз эмас. Чунки замон шиддат билан ривожланиб бораётган ҳозирги даврда ким ютади? Янги фикр, янги ғояга, инновацияга таянган давлат ютади.[1]

Инновация – бу ихтиронинг амалий аҳамиятини ажратиб кўрсатиш ва уни муваффақиятли сотиладиган маҳсулотга айлантириш.

Инновациялар – бу билимлар ва ғояларни маблағларга айлантиришдир.

Инглиз профессори В.Р. Спенсер “Инновация – бу аниқ вазиятда мутлақо янги нарса, биз буни англаганимизда фойдаланишимиз мумкин” [2] деб таъриф беради. Россиялик олимлар А.Кулагин “Инновация – бу инновацион, ишлаб чиқариш, институционал молиявий, илмий-техник ва бошқа соҳалардаги янгиликдир” [3] деб таъриф берадилар. Д.Форининг “инновацион имкониятлар - бу мунтазам равишда комбинациялашган билимларни кашф қилиш, улардан фойдаланиш демакдир. Бунда комбинациялашган жараёнларда асосий эътибор бериладиган жиҳат – бу билимдир” [3] деб таъкидлайди. И.Балабанов “Инновация-капитални янги техника ёки технологияга, ишлаб чиқаришни ташкил қилиш, меҳнат, хизмат кўрсатиш ва бошқарувнинг янги шакллари, жумладан, янгича назорат ва ҳисоб шакллари, режалаштириш ва таҳлил усулларига киритишдан олинган, моддий тус олган натижадир” [4] деб таърифлаган.

Бугунги кунда барча соҳалардаги глобаллашув жараёнлари ва ахборотларнинг шиддат билан кириб келиши замонавий таълим муассасаларида инновацион жараёнларни тизимли бошқаришни йўлга қўйишни талаб этмоқда.

Айнан шу боис XXI аср - интеллектуал билимлар асрида инсон капиталига инвестициялар йўналтиришни устувор вазифа сифатида танлаган мамлакатларгина юксак тараққиётга эришиши мумкин. Фақат том маънодаги билимли жамиятгина замонавий таҳдид ва муаммоларни енгиб ўтишга қодир бўлади. Бугунги кунда ҳар қандай мамлакатнинг жаҳон бозорида рақобатбардошлиги нафақат табиий ресурсларнинг мавжудлигига, балки, биринчи навбатда, замонавий, мунтазам янгиланиб турган технологияларни ўзлаштиришга қодир юксак билимли ва интизомли ишчи кучини мунтазам тайёрлашга боғлиқдир. Бундай ишчи кучисиз иқтисодиётнинг юқори технологияларга асосланган замонавий тузилмасини шакллантирадиган янги ишлаб чиқаришларни ташкил этиб бўлмайди. Ҳар қандай давлат мамлакатнинг интеллектуал ва маънавий салоҳиятини юксалтиришдан манфаатдор бўлмоғи керак.

Жамиятда билимли, маълумотли ва юксак интеллектга эга одамларнинг мавқеини ошириш; таълим ва касб-ҳунар дастурларининг жаҳондаги таълим, илм-фан, техника ва технологиялар, иқтисодиёт ҳамда маданият соҳасидаги замонавий ютуқларга мувофиқлиги; таълимни ёшларнинг келажакдаги амалий меҳнат фаолияти билан узвийлигини таъминлаш; таълим олаётган ёшлар онгида умуминсоний кадриятлар, юксак маънавият, маданият ва ижодий фикрлаш устуворлигини шакллантириш; таълимнинг миллий тарих, халқ анъаналари ва урф-одатлари билан муштараклиги, бошқа халқлар тарихи ва

маданиятини ҳурмат қилиш таълим тизимини ислоҳ этишнинг асосий принциплари бўлиши лозим. Таълим соҳасида, ҳам ушбу соҳада меҳнат қилаётганлар, ҳам замонавий кадрлар талаб қилинадиган тармоқлар вакиллари ўртасида халқаро ҳамкорликни мунтазам ривожлантириш зарур.

Шу боисдан, замонавий таълим-тарбия тизимини ислоҳ қилиш, замон талабларига мос кадрлар тайёрлаш ишини йўлга қўйишда “Таълим тўғрисида”ги Қонун ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”нинг ҳаётга татбиқ этиш ишлари давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида фаолиятимизнинг бош мезонига айланмоғи даркор.

Ўзбекистон Республикасининг “Инновацион фаолият тўғрисида”ги Қонунида “инновация” ва “инновацион фаолият”га қуйидагича таъриф берилган: “инновация – фуқаролик муомаласига киритилган ёки шахсий эҳтиёжлар учун фойдаланиладиган, қўлланилиши амалиётда катта ижтимоий-иқтисодий самарага эришишни таъминлайдиган янги ишланма”, “инновацион фаолият – янги янги ишланмаларни ташкил этиш, шунингдек ишлаб чиқариш соҳасида уларнинг ўтказилиши ва амалга оширилишини таъминлаш бўйича фаолият” деб, таъриф берилган. [5]

Инновацион фаолият бу аввало фаолиятдир. Бу фаолият бир пайтда ҳам иқтисодий ҳам ижтимоий фаолиятдир. Иқтисодий фаолият асосан корхонларнинг ишлаб чиқаришини модернизацияси билан боғлиқ бўлса, ижтимоий фаолият бу ижтимоий соҳага янгиликларни кириб келиши ва жорий этилиши билан характерлидир. Шунингдек, бу фаолият инновацияларни яратиш ёки амалга ошириш илмий тадқиқотлар ва ижод билан боғлиқ ҳамдир.

Бугунги кунда таълим тизимини рақобатбардош мутахассислар тайёрлашдаги ролини ошириш кўп жиҳатдан мазкур таълим муассасаларидаги инновацион жараёнларни тизимли бошқаришга боғлиқ бўлиб қолмоқда. Чунки, инновацион жараёнларни тизимли бошқариш ўқув жараёни самарадорлигини таъминлаш, ёшларнинг маънавий, интеллектуал, жисмоний ва ахлоқий жиҳатдан камол топишига кўмаклашиш, уларни ватанпарварлик, фуқаролик туйғуси, бағрикенглик, қонунларга, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат руҳида, зарарли таъсирлар ва оқимларга қарши тура оладиган, ҳаётга бўлган қатъий ишонч ва қарашларга эга қилиб тарбиялаш, очик ва сифатли таълимни таъминлаш, иқтидорли ва истеъдодли ёшларни қўллаб-қувватлаш, ёшларда соғлом турмуш тарзига интилишни шакллантириш ва юқори салоҳиятга эга кадрларни тайёрлашнинг муҳим омилдир.

Бошқарув назариясига доир тадқиқотлардан маълум бўладики, инновация тушунчаси мазмунан “янги”, “янгилик” тушунчаларининг айнан ўзи эмас. Исталган янгилик, қачонки, амалий фаолиятда ўзининг кенг қамровли

самарасини берса ва кенг кўламли эҳтиёж объектига айлансагина, том маънодаги *инновация* деб аташ мумкин бўлади.

Инновацияларни таълим жараёнига кундан-кунга тезлик билан кириб келиши тизимли ёндашув асосида инновацион жараёнларни бошқаришни шарт қилиб қўяди. Акс ҳолда ички бошқарув меъёрий хужжатларида қуйидаги камчилликларни келтириб чиқариши мумкин:

- Инновацион жараёнларни бошқариш суръатининг пастлиги;
- Олий ўқув юртларини бошқаришга таъсир этувчи ички ва ташқи омилларнинг ўзаро алоқадорлигини тўлиқ ҳисобга олинмаслиги;
- инновацион жараён таркибий қисмларининг тизимли равишда бошқарилмаслиги;
- Олий ўқув юртларини тизимли бошқаришга доир ташкилий моделнинг мавжуд эмаслиги ва уни амалга ошириш технологиясининг яратилмаганлиги кабилардир.

Айнан шуларни ҳисобга олган ҳолда “Янги дарсликларни, замонавий педагогик ва ахборот технологияларини ўз вақтида ишлаб чиқиш ва жорий этишни таъминлашни назорат остига олиш зарур“.[6] Бугун олимлар ва профессор-ўқитувчилар илғор педагогик технологияларни ишлаб чиқишга астойдил киришишлари шарт ва улар бу ишга масъулдирлар.

Ривожланган мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, агар мамлакат ривожланиши учун тўғри стратегия танланса уни ҳал этиш мумкин. Айрим муаммоларни инновацион йўл билан ечиш учун вақт керак, аммо айримларини эса ҳозир ҳал этиш мумкин.

Бунда инновация нега керак? Чунки, бу биринчи навбатда эскириган пойдевор, тиргаклардан воз кечиб, мавжуд моддий-маънавий бойликларни қайта кўриб чиқиб, давлат ва одамлар ўртасидаги муносабатларнинг самарали услубларига ўтишдир. Бунинг натижасида ҳаёт сифати анча яшиланади, аҳолининг хавфсизлик даражаси ва фаровонлиги юксалади, бу инновация худудларнинг, шаҳар ва қишлоқ ва маҳалаларнинг иқтисодиётига нисбатан кўпроқ таъсир этади.

Юртимизда ижтимоий-сиёсий, маънавий-иқтисодий ислоҳатларни амалга оширишга жаҳон андозалари даражасида билим олган заковатли, ҳар томонлама баркамол, мустақил фикрлайдиган, бирон бир масалани онгли равишда, масъулият билан ҳал қиладиган, изланувчи, янгиликка интилувчи истеъдодли ёшлардан халқ хўжалигининг устувор тармоқлари учун юксак малакали мутахассислар етказиш, олий таълим тизимида етук мутахассисларни тайёрлаш мақсадида мутахассислик фанларини ўқитишда ўқув-тарбия жараёни сифатини жаҳон стандартлари даражасига кўтариш, таълим, замонавий

педагогик ва ахборот технологияларининг бутунлай янги усуллари жорий этиш асосида ташкил этиш ўта муҳим шунингдек долзарб масаладир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисига Мурожаатномаси. – Т.2018, 19-20-бетлар.
2. Инновации: теория, механизм, государственное регулирование: Учебн. пособие /Под ред. Ю.В. Яковца. – М.: РАГС, 2000.
3. Кулагин А. Оценка и самооценка научной организации. Инновационная экономика. 2011 г. Ст. 54-55.
4. Балабанов И. Инновационный менеджмент. Питер, 2001.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Инновацион фаолият тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-630-сон.
6. Аҳмадалиев А. М., Қосимов А. Х. "Инновацион фаолият ва илғор педагогик технологиялар" Ўқув қўлланма. Т.: ТАТУ, 2006 й.

TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI VA UMUMLASHTIRUVCHI YONDASHUVI TO'G'RISIDA

*Dotsentlar G.M. Shertaylaqov, F.M. Israilov
Jizzax politexnika instituti*

Аннотация: Hozirgi zamon pedagogika – psixologiya fanlarida amalga oshirilgan tadqiqotlarga asosan, inson tomonidan axborotlar o'zlashtirilishining didaktik jarayon tizimini uchta o'zaro bog'liq komponentlar ko'rinishida tasavvur qilish mumkin: yani motivizatsiya, talabning bilish faoliyati, ta'lim jarayonini boshqarish.

Аннотация: На основе исследований, проводимых в современной педагогике и психологии, систему дидактического процесса усвоения информации человеком можно представить в виде трех взаимосвязанных компонентов: мотивации, познавательной активности обучающегося, управления учебной деятельностью. процесс.

Abstract: Based on the research carried out in modern pedagogy and psychology, the didactic process system of information acquisition by a person can be imagined in the form of three interrelated components: motivation, cognitive activity of the student, management of the educational process.

Kalit soʻzlar: taʼlim, tizimlar, texnologiya, predmet, tuzilishi, nazariya, amaliyoti, texnik, tarbiyaviy, madaniy, estetik, uslubiy ahamiyati.

Ключевые слова: образование, системы, технология, предмет, структура, теория, практика, техническая, образовательная, культурная, эстетическая, методологическая значимость.

Key words: education, systems, technology, subject, structure, theory, practice, technical, educational, cultural, aesthetic, methodological.

Zamonaviy taʼlimning rivojlanib borishi yangi ijtimoiy-madaniy muhitning yuzaga kelishi oldindan koʻra bilishni talab etadi. Aynan ularning ifodalanishida innovatsiyalar uchun, individlar va jamiyatning rivojlanishi uchun turtkilar yuzaga keladi. Ularda taʼlimni tashkil etish shakllari, mazmuni, vazifasi, natijalaridagi oʻzgarishlarning zaruriyatini aks ettiruvchi axborot texnologiyalarida taʼlimning yangi hodisalarini koʻrishimiz mumkin boʻladi. Bunda taʼlim muassasalarining yangi turlari va taʼlim xizmatlarida axborot texnologiyaning yangi turlari hamda shakllari yuzaga keladi.

Maktab bitiruvchisi bitirganidan keyin taʼlim tizimidan ijtimoiy tizimga, yaʼni ijtimoiy etuklik, shaxsiy masʼuliyat va mustaqillik talab etiladigan hayot darajasiga oʻtishda toʻsiqlarni yengishiga toʻgʻri keladi, deb taʼkidlash mumkin. Jamiyatning yangi maqsadlari va qadriyatlari taʼlim turlarini anglash zaruriyatini koʻrsatadi.

Bundan kelib chiqadiki, maktab oldida bilimlarni egallash va toʻplash hamda shaxsning yuzaga kelishi, shakllanishi va ijodini taʼminlay oladigan faoliyat sharoitlari, uning mazmuni, texnologiyalarini yaratish zarurati toʻgʻrisidagi masala yuzaga keladi. Maktab hayoti – bu yaxlit inson hayotining hodisasidir.[1]. Taʼlimda yondashuvning mohiyatini aniq tushunish uchun taʼlim oluvchining ichki olami bilan bogʻliq boʻlgan bilish jarayonlarining asoslari va usullarini aniqlash zarurdir.

Taʼlim muassasasida u alohida vaziyatga – oʻz imkoniyatlarini anglash va boshdan kechirishga jalb etadi. Hozirgi vaqtda bilimlarni toʻplash bilan bir qatorda bilimlarni izlashga qobiliyatlarni va intilishlarni rivojlantirishga katta eʼtibor berilmoqda. Bu rivojlantiruvchi taʼlim toʻgʻrisida soʻz yuritish imkonini beradi. Mantiqiy yakunlangan bilimlar tizimi koʻrinishidagi madaniy tajribani etkazish asosiy hisoblangan taʼlimdagi yondashuv asta-sekin oʻtmishda qolmoqda.

Zamonaviy umumtaʼlim maktabi taʼlim sifatini boshqarishda yangi tizimli IT metodlarni joriy etishni talab etuvchi sharoitlarda turibdi. Yangi sharoitlardagi rivojlanish davlat taʼlim tizimida amalga oshirilayotgan va taʼlim sohasidagi qonunchilikdagi oʻzgarishlar, milliy taʼlim siyosatida yangi ustuvorliklarni ishlab chiqish, ijtimoiy, iqtisodiy, maʼnaviy sohalardagi paydo boʻlgan yangi voqelik bilan

yuzaga kelgan institutsional o'zgarishlar bilan belgilanadi [2].

Mohiyati bolalar jamoasidagi hamkorlikdagi ishlarda ifodalanadigan o'quvchining aqliy faoliyati va ijtimoiy munosabatlari xususiyatlariga ko'ra o'quv guruhlarini tashkil etish hisoblangan ta'limdagi samarali-umumlashtiruvchi yondashuv konsepsiyasi o'quv vazifalarini hal etish hamda o'quvchilarning munosabatlari takomillashtirish uchun bolalarning muloqotlari xususiyatlaridan foydalanish imkonini beradi.

Jamiyatdagi zamonaviy vaziyat, shuningdek, maktabni boshqarish tajribasi ta'lim tizimining rivojlanishi va mustahkamligining asosiy yo'li—bu har bir ta'lim muassasasi bitiruvchisining raqobatbardoshligini ta'minlash ekanligini ko'rsatadi.

Maktab jamoasida boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili fanidan bilim va ko'nikmalarni egallashlarida turli xil muammolarga duch keladilar. Ularning bilimlarni egallashlari shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi bir qator omillar mavjuddir.

Maktabning murakkab iqtisodiy va ijtimoiy-demografik vaziyatga moslashishi jarayonini tahlil qilib, biz, raqobatbardoshlik bir necha tashkil etuvchilardan hosil bo'lishi to'g'risidagi xulosaga keldik.

Birinchidan, bu, maktabning bitiruvchisini keyin bosqich ta'lim xizmatlari yoki mehnat bozoriga moslashishi ta'minlovchi, ta'limning I, II, III bosqichlarida sifatli ta'lim berish qobiliyatidir. Ikkinchidan, bu, maktabning «imidji»: ota-onalar va o'quvchilarning maktab tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar to'g'risidagi etarlicha xabardorliklari va mazkur ta'lim xizmatlari darajasidan qoniqishlari. Uchinchidan, ota-onalar va o'quvchilar ta'lim xizmatlarining barcha turlaridan etarlicha qoniqishlari.

Maktab raqobatbardoshligining ko'pgina bilvosita ko'rsatkichlari ham mavjud. Bunda o'quvchilar salomatliklarini saqlash, ruhiy rivojlanishlarining ijobiy dinamikasi, maktab olimpiadalardagi ishtirokining samarasi, sinflar jamlanishining muvaffaqiyatliliigi, kadrlar malakasining yuqori darajasi, fan, madaniyat va boshqa muassasalarning kadrlar imkoniyatlaridan foydalanish, ta'minlovchi xizmatlarning muvaffaqiyatli ishlari: psixolog, valeolog, logoped, pullik ta'lim xizmatlarining hajmi va sifati bilan qiziqтира olish qobiliyati, ta'lim sifati bo'yicha shikoyatlarning yo'qligi va ko'pgina boshqalar. Maktabning yuqori raqobatbardoshligini rahbar va butun ma'muriyatning ta'lim xizmatlari siyosati sohasidagi malakali ishlari ta'minlashi ayondir. Ta'lim tizimi tarixiy jihatdan jamiyatlar asosida yuzaga kelgan, ularning ijtimoiy aloqalari tashkilotlarning birlashishi bilan bog'liq. Bu jihatdan, ta'lim tizimi ijtimoiy institut, ijtimoiy tizim sifatida xizmat qiladi.

Ta'lim tizimi iste'molchining ta'lim modelini tanlashi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashi kerak (tashkiliy, kadrlar, o'quv-metodik, axborot va h.k.). Ta'lim olishning eng boshidan o'quvchi-iste'molchi tanlash sharoitiga ega bo'lishi va

o‘z tanlovi uchun javobgarlikka ega bo‘lishi kerak. Tanlash vaziyati doimo o‘quvchining imkoniyatlari va ehtiyojlari, standartlar talablari o‘rtasidagi ziddiyatlarda bo‘lishi kerak.

Ta‘lim xizmatlari sohasidagi savodli siyosatni qurish uchun davlat ta‘lim standartlari hamda o‘quvchilar va ota-onalarning talablariga mos yo‘nalganlik zarurdir [3].

Ammo, ta‘lim muassasasi raqobat sharoitlarida ta‘lim xizmatlari iste‘molchilariga o‘zlarida o‘sib boruvchi madaniyat talablarni qondirishning va individual o‘ziga xosliklarini amalga oshirish yangi imkoniyatlarini ochishlariga imkon beradigan ta‘lim xizmatlarini izlash holatida bo‘ladilar. SHu sababli, o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning yangi g‘oyalarini, o‘quvchilarning millat, texnika, texnologiya, ishlab chiqarishdagi rivojlanishining zamonaviy darajasiga olib chiqadigan yangi imkoniyatlarni izlash amalga oshiriladi. Ta‘lim muassasasi tomonidan o‘ta muhim vazifa – jamiyatni isloh etishning asosiy omili sifatida shaxsning shakllanishi uchun sharoitlarni yaratish hal etiladi. Buning uchun maktabning pedagogik tizimida o‘zgarishlar – innovatsiyalar zarurdir. Innovatsion ta‘lim tizimidan foydalanib talabning bilimini oshirish mumkin bo‘ladi, misol tariqasida oddiy o‘lsash tizimi qanday tarzda o‘rganish lozim.

Ta‘limda o‘lchashlar tizimining yaratilishi va rivojlanish istiqbollari atrofimizdagi ixtiyoriy olingan biron bir ob‘ekt (predmet, jarayon yoki xodisa) to‘g‘risida gap borganda, albatta ularni tavsiflovchi muayyan xossa (xodisalar)ni ko‘z oldimizga keltiramiz. Bu xossalar ko‘p yoki kam darajada nomoyon bo‘lishi, boshqacharoq aytganda, miqdoriy baholanishi mumkin. Odatda miqdoriy baholashni faqatgina o‘lchashlar amali orqaligina bajarish mumkin.

Hozirgi vaqtda xech bir mutaxassis yo‘q-ki, u o‘z ish faoliyati mobaynida o‘lchashlarni qo‘llamas. Uning oldida turgan muammo qanchalik murakkab bo‘lsa, o‘lchashlarning ahamiyati shunchalik salmoqli bo‘ladi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, hozirda inson faoliyatining 3000 dan ortiq sohasi aynan o‘lchashlar bilan chambarchas bog‘liq ekan.

O‘lchash texnikalari, ayniqsa hisoblash vositalariga asoslangan o‘lchash qurilmalari ilm va fanning rivojlantiruvchi katalizatori hisoblanadi. O‘lchashlar hamma uchun, havoning xarorati va namligiga qarab ekin ekuvchi dehqondan tortib, ulkan kashfiyotlar qilayotgan tadqiqotchi uchun ham o‘lchash haqida ma‘lumot zarur. SHu bois fan va texnikaning rivoji (taraqqiyoti) hamma vaqt o‘lchashlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan va albatta o‘lchashlarning insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Bu borada xattoki Qur‘oni Karimda ham aytib o‘tilgan: “Bu dunyoda hamma narsani aniq o‘lchov bilan yaratdik”. Mashxur rus olimi D.I. Mendeleev o‘lchash haqida shunday degan edi: “... har bir fan, eng avvalo

o'lchash bilan boshlanadi", "Bilish uchun o'lchash kerak, o'lchash uchun esa o'lchovni bilish kerak". Shuning uchun ham asosiy maqsad faqat o'lchash emas, uning o'lchovini ham bilish zarurligini ko'rsatib o'tgan. Galileo Galiley "O'lchab bo'ladiganini o'lchang, mumkin bo'lmaganiga imkoniyat yarating" kabi bashoratlari o'lchashlarning ahamiyatini yanada yuqoriga ko'targan.

Ta'limda "O'lchash" atamasining tom ma'nosi bo'yicha tahlil etadigan bo'lsak, qadimda insoniyat asosan "organoleptik o'lchashlar" – ya'ni, o'zining xis etish a'zolari orqali u yoki bu fizikaviy xossa bo'yicha taxminiy ma'lumotlar olgan. Bunda mana shu xis etish organlari o'lchash vositasi vazifasini bajargan. Garchand bu kabi o'lchashlarda aniq bir qiymat olinmasa ham, har bir o'lchashda, aniqrog'i baholashda muayyan bir o'lchovga nisbatan solishtirish amalga oshirilgan. Dastlab solishtirish o'lchovi moddiy bo'lgan, balki insonning o'z tajribasi, zakovati va atrof-muhitni bilish darajasiga qarab individual tarzda belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shertaylaqov G.M. O'lchashlarning fizikaviy asoslari. Darslik. Jizzax sh. 2023.
2. Eshonkulov SH., Burliev A., Eshonkulova, SH. (2019). Nauchno-metodicheskiy podxod k sozdaniyu elektronogo uchebnika.
3. Savurbaev A., Dangalov N. A., SHertoylokov, G. M., Eshonkulov, SH. U. (2014). Algoritm rascheta perexodnogo protsessa pri udare silindricheskogo kolsa o jestkoe poluprostranstvo. *Molodoy uchenyy*, (8), 246-250.
4. Eshonkulov SH., Nomozov O., Eshonkulova SH., (2021). Rol vostochnyx mysliteley v sovremennom obrazovanii. *Jurnal innovatsii v nachalnom obrazovanii*, 2(3).

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA FALSAFIY-AXLOQIY MEROSNI TUTGAN O'RNI

Boirova N.S., TAQU, 45-22-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Tillavoldiyeva M.X., TDPU, dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimiy va tabarruk zaminimizdan yetishib butun jahon tan olgan buyuk olim-u ulamolar o'z kashfiyotlari va ilmiy asarlari bilan jahon ilm-fani va madaniyatini rivojlantirishdagi hissasi tahlil etiladi. Shuningdek, ularning fanda yangicha yo'nalishlarni, yangicha tafakkur uslubini kashf qilganliklari o'zlaridan ilgari hech kim aytmagan va qila olmagan yangi ta'limotlarni

yaratganliklari va ilmiy asoslab berilganligi, shuningdek, bugungi O‘zbekiston ijtimoiy rivojlanish davrida tutgan nazariy va amaliy ahamiyatiga e’tibor qaratiladi.

Tayanch tushunchalar: fan, ilm, ta’limot, tafakkur, uslub, ijtimoiy taraqqiyot, madaniyat, axloq, huquq, din, hurfikrlik va boshqalar.

Аннотация: В данной статье анализируется вклад всемирно известных великих учёных нашей древней и благодатной земли в развитие мировой науки и культуры своими открытиями и научными трудами. Также обращается внимание на то, что они открыли новые направления в науке, новый образ мышления, создали новые учения, о которых до них никто не говорил и не мог сделать, и что они были научно обоснованы, а также их теоретическое и практическое значение. в период общественного развития сегодняшнего Узбекистана.

Основные понятия: наука, наука, учение, мышление, стиль, общественное развитие, культура, мораль, право, религия, суеверие и другие.

Annotation: This article analyzes the contribution of the world-renowned great scientists from our ancient and blessed land to the development of world science and culture with their discoveries and scientific works. Also, attention is paid to the fact that they discovered new directions in science, a new way of thinking, created new doctrines that no one said and could not do before them and that they were scientifically substantiated, as well as their theoretical and practical importance in the period of social development of Uzbekistan today.

Basic concepts: science, science, doctrine, thinking, style, social development, culture, morality, law, religion, superstition and others.

**“ Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan
yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning
odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan
aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq....
Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning
avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida
doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga
undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz?
Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan".**

Sh.M.Mirziyoyev.

Ma'lumki, jahon ilm-fan taraqqiyotining asosida antik davr allomalarining ilmiy ijodlari bilan bir qatorda, o'rta asr Sharq uyg'onish davri mutafakkirlarining izlanishlari va ularning qoldirgan boy ilmiy merosi yotadi. Shuningdek, O'zbekistonni ijtimoiy rivojlanishida xam o'zbek xalqi safidan etishib chiqqan Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ali-G'azoli, Farg'oniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Yusuf Xos Hojib, Ahmad ibn Umar, Mahmud Yugnakiy, Pahlavon Mahmud, Amur Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Bahovuddin Naqshband va boshqa jahonga mashhur bo'lgan buyuk qomusiy allomalarning ilmiy-falsafiy, huquqiy, diniy-axloqiy karashlarini muhim ahamiyat kasb etishiga e'tibor qaratmoq lozim. Shu nuqtai-nazardan ushbu maqolada yuqorida qayd qilingan mashhur allomalarimiz falsafiy-axloqiy merosi va uchinchi renessans davri asoslari va takomilida tutgan o'rni masalasi tahliliga o'rin ajratdik.

Dadillarga murojaat etaylik: Mazdak- mavludning 529 – yilida vafot etgan tuslik ilohiyotchi va siyosiy arbob. U ortiqcha boyib xam, ortiqcha qashshoqlashib xam ketmaydigan jamiyat qurish to'g'risidagi ta'limotini amalga oshirish niyatida ijtimoiy harakatni vujudga keltirgan. Mazdakiylik Markaziy Osiyoda javonmardlik harakatining vujudga kelishiga hamda arab bosqinchilariga qarshi kurashda aholi uchun g'oyaviy qurol xizmatini o'tagan.

Abu Bakir ar-Roziy ijodini o'rganish esa (864-925) uni karashlari Markaziy Osiyoda ilmiy, falsafiy an'analar vujudga favqulodda rol o'ynaganligini, shu bilan birga hurfikrlilik rivojiga bebaho hissa qo'shganligini ko'rsatadi.

Abu Nosir al-Forobiyni (873-950) Arastudan keyin Sharqda «Birinchi muallim» nomi bilan mashhur bo'lgan olim, usta tarjimon ekanligini tarixiy-falsafiy manbalar orqali yaxshi bilamiz. U vahdat ul-mavjud nuqtayi nazarida turib fikr bildirgan. Farobiy fikricha, materiya olamdagi narsa va hodisalarning asosi bo'lib, Er va Osmon jismlari materiya va shakldan iboratdir. U harakat materiyaning obyektiv xususiyati, moddiy olam esa harakat manbai deb hisoblaydi. Farobiy jamiyat va insonlar haqida fikr yuritib, insoniyat qachonlardir birgalikda tinch yashash qobiliyatiga ega bo'lishiga oid g'oyalarni ilgari suradi. Bilish nazariyasiga katta hissa qo'shgan Farobiy tabiat bilish obykti, inson esa bilish sohibi deydi. Bilish cheksiz bo'lib, odamzod bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatlashga qarab borishini isbotlaydi. Bilishda hissiy va aqliy bosqichlar borligiga e'tiborni qaratadi.

Keyingi o'rinda, Abu Muhammad ibn Ahmad Rayhon al-Beruniyni (973-1048) hayoti va ijodiga e'tibor qaratgan kitobxon albatta, uni falsafa, riyoziyot, jo'g'rofiya, madaniyatshunoslik, tilshunoslik tarixga oid 150 dan ortiq asarlar muallifi ekanligini

guvohi bo'lishligini ta'kidlash muhimdir deb hisoblaymiz. Beruniy Vaxdat ul-mavjud nuqtai -nazarida turib, olam va odam haqida fikr yuritadi. Uning fikricha, xudo birinchi sabab, ammo, materiya o'z ichki qonunlariga ega. U to'xtovsiz harakatda, o'zgarish va barham topishdadir. Beruniyning fikricha, odamda boshqalar haqida qayg'urish hissi bo'lgach, unda mardlik, jasorat sifatleri namoyon bo'ladi. Inson boshqalar dardida mashaqqatlarga chidab, fidoyi bo'lgandagina chinakam axloq egasi sifatida gavdalanadi.

O'z o'rnida Umar Xayyomni ham (1048-1123) riyoziyot, falakiyot va falsafa faniga bebaho hissa qo'shgan, o'z ribolaridagi falsafiy teranlik va hayotiyliigi bilan G'arb va Sharq kitobxonlarining qalbidan chuqur joy egallagan ulug' allomaligiga alohida urg'u ajratish maqsadga muvofiqdir. Uning fikricha, narsalar asosida «umumiy aql» yotadi. Umumiy aqlni yaratgan moddiy olam harakat, tug'ilish, rivojlanish, bir holatdan boshqa holatga o'tib turish jarayonida bo'ladi. Tabiatdagi barcha narsalar havo, suv, olov va tuproqdan tashkil topgan. U tirik tabiat bilan notirik tabiat uyg'un holda rivojlanishini aytib, ularni bir – biriga qarama - qarshi qo'yish xato ekanini ko'rsatdi. Uning bilish nazariyasiga ko'ra, inson aql-zakovati olam sirlarini bilishga qodirdir. Umar Xayyom dunyoning o'tkinchi, bevafoligi, jonning o'lmasligi, jannat va do'zax, taqdir-u – azal to'g'risidagi o'z davrida keng tarqalgan fikrlarni rad etadi. Ularni umid va qo'rquvlar manbai, deb izohlaydi.

Ko'rib turibmizki, jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga bebaho hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlarning insonni ma'naviy-axloqiy yetuklikka chorlovchi ta'limotlari bugungi taraqqiyotimizning oltin poydevori, madaniyatimiz va ma'naviyatimizning tag zaminidir. Milliy tariximiz va umumbashariyatga hissa qo'shgan olim-ufuzalolarning ilmiy merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o'rganish darkor. Bundan ming yilcha muqaddam yaratilganiga qaramasdan, bugungi o'quvchi ham bu asarlardan hozirgi hayotning murakkab muammolarini hal qilishda asqatadigan muhim fikr va yo'l-yo'riqlarni topa oladi . Falsafiy –axloqiy qadriyatlar mohiyati jihatidan haddan tashqari chuqurligidadir. Ularning buyuk insonparvarliklari, ilmga, insonga, bashariyatga cheksiz mehr-muhabbatlari, adolatparvarliklari, ezgu maqsadlari diqqatga sazovor va ushbu g'oyalardan bugungi Yangi O'zbekiston ijtimoiy rivojlanishida va uchinchi renessans asoslari takomilida hayotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonning falsafiy-axloqiy merosi faqat o'zbek xalqining uzoq tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan, avaylab-asrab kelayotgan ilmiy bilim xazinalari, boy tarixiy tajribalari, xalq donishmandligining timsoli, ajoyib namunasi bo'lgan urf-odatlar va an'analar, udumlariga, milliy qadriyatlariga asoslanishi bilan kifoyalaniib, milliy qobiqqa o'ralib va cheklanib qolganda, u hech qachon jamiyatimiz taraqqiyoti

va istiqboliga to'la javob bera olish imkoniyatiga ega bo'laolmas edi. Uning xalqimiz va millatimizning talab-istaklari va madaniyatlariga bemaolol javob berishi, davrimizga monandligining asosiy sababi-mafkuramizning ayni bir paytning o'zida ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarga asoslanganligi, ularning har ikkalasidan kuch-quvvat olayotganligidandir.

Ilmiy - falsafiy qadriyatlar – O'zbekiston milliy va ijtimoiy taraqqiyotida bir-biridan aslo kam bo'lmagan ikki muhim manba, ikki tayanch nuqtasi, ikki o'q ildizidir. Xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlar, tili va ruhi negizida qurilgan axloqiy - umuminsoniy qadriyatlar mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg'usini odamlar qalbi va ayniqsa yuqorida prezidentimiz ta'kidlaganidek, yoshlar ongiga etkazish, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, halollikni, mardlik va sabrdoshlikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida ma'naviy yaqinlashuviga ko'maklashmog'i kerak. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dunyodagi biron-ta ham xalq va millat o'zidan boshqa xalqlar va millatlardan, umumjahon sivilizatsiyalardan ajralgan holda yashay olmagani singari uning mafkurasi ham boshqa xalqlar va millatlarning yutuqlaridan ijodiy va tanqidiy asosda foydalanmay turib yuzaga kelmaydi va rivojlanmaydi. Bizning ilmiy-falsafiy merosimiz tarixida sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan mafkuradir. U eng rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlarning tarixiy tajribasiga ham tayanadi.

Shuning uchun unda umuminsoniy g'oyalar – tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, mamlakat va dunyo barqarorligi kabi umumbashariy g'oyalar mavjud. Ko'rinib turganidek, har bir jamiyat, har bir millat va uning mafkurasi o'z doirasida cheklanib qolmay, jahon xalqlari yutuqlaridan bahramand bo'lgan holda taraqqiy etadi.

Ilmiy - falsafiy – axloqiy g'oyalar yaratilishidan odamlarning iymon-e'tiqodli bo'lishiga, birovlarining haqiga xiyonat qilmaslikka da'vat etib kelayotgan islom va boshqa dinlar g'oyalaridan o'rinli foydalanish ham katta tarbiyaviy ahamiyatga molikdir.

Yuqoridagi fikrlarning hammasi ilmiy- falsafiy –axloqiy qadriyatlar bo'm-bo'sh, huvullagan joyda emas, birinchi navbatda Turon zaminda qadim-qadimdanshakllanib, rivojlanib kelgan milliy qadriyatlar, madaniy-ma'naviy an'analar va tamoyillarga, qolaversa, bashariyatning o'tmish davrlardagi va hozirgi zamonaviy bilimlari, yutuqlari, an'analariga asoslanganligini, shuning uchun ham uning ildizlari nihoyatda baquvvatligini ko'rsatib turibdi.

Xullas yuqoridagi fikr – mulohazalardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Qadimiy va tabarruk zaminimizdan etishib, butun jahon tan olgan buyuk olim-u ulamolar o'z kashfiyotlari va ilmiy asarlari bilan jahon ilm-fani va madaniyatini ijodiy boyitdilar. Eng yuqori cho'qqiga ko'tardilar, uning bir necha asrlik taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdilar. Ularning ko'pchiligi fanda yangicha yo'nalishlarni, yangicha tafakkur uslubini kashf qilishdi, o'zlaridan ilgari hech kim aytmagan va qila olmagan yangi ta'limotlarni yaratishdi va ilmiy asoslab berishdi.

2. Donishmand bobolarimiz tomonidan madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat, adolat, ezgulik, inson qadr-qimmatini, haq-huquqlari, qonunchilik haqidagi chuqur ilmiy asoslangan davrlar uchun ko'zguna emas, balki keyingi asrlar, zamonlar, barcha davrlardagi mamlakatlar va xalqlar va olis istiqbol uchun ham bebahodir.

3. Sharq uyg'onish davri mutafakkirlarining hali-hanuz insoniyatni lol qoldirib kelayotgan ulug' fazilatlaridan biri ma'naviyatlari-ma'rifatlarining g'oyat darajada keng qamrovligi, xizmat qilishni hayotlarining mazmun-mohiyati, bosh maqsadi deb bilganliklari butun insoniyat uchun, hozirgi va kelgusi avlod, yosh nasllar uchun eng katta saboq, ta'lim-tarbiya va hayot maktabidir.

4. Buyuk daholar o'zlarining nodir asarlari va o'lmas ta'limotlarida har doim insonni ulug'lab, uning maqomini ko'klarga ko'tarib, haq-huquqlarini himoya qilib, insonlarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lib, ular uchun qayg'urganlar, tinch-osuda, to'q-farovon yashashlarini targ'ib-tashviqot qilganlar.

5. Jahon tarixida ham, jumladan xalqimizning o'tmishida ham – axloqiy g'oyalarning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati juda muhim falsafiy masalalar ekanligi, buyuk donolarimiz qarashlarida ham o'z aksini topgan.

6. Ayniqsa, uchinchi renessans davri asoslari va uni takomillashtirishda ilmiy - falsafiy qadriyatlarining o'rni alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlash muhimdir.

Adabiyotlar ro'yxati.

-
1. O'zMU xabarlar . Toshkent. 2017 yil. 3-son.273-bet.
 2. Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1 jild. T.:O'zbekiston, 2018 yil. 137-151; 461-496; 504-538 betlar.
 3. Shavkat Mirziyoev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: 2018 y. 136-146; 176-221 betlar.
 4. Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1998 yil, 12-bet.
 5. Aristotel Poetika, Axloqi kabir.M.Mahmudov tarjimasini. – T.:Yangi asr avlodi, 2004

6. Ziyomuxammedov B. Komillikka eltuvchi kitob. –T.: Turon-iqbol nashriyoti, 2006.

**AXBOROTLASHTIRILGAN TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK
MUTAXASSISLARNI KASBIY INNOVATSION - FAOLIYATGA
TAYYORLASHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH
SAMARADORLIGI**

*Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Aripova Nasiba Atxamovna, raxbar
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Jamoliddinov Muhiddin Salohiddin o'g'li
talaba*

Annotatsiya: Bu maqolada oliy ta'lim davlat tizimida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish, shu jumladan zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va bugungi kunda axborot texnologiyalarining ta'lim sohasidagi ijobiy ro'li haqida fikr mulohazalar bayon etiladi.

Аннотация: В данной статье описано использование современных цифровых технологий в государственной системе высшего образования, в том числе приоритетные направления развития образовательного процесса на основе использования современных цифровых технологий, а также положительная роль информационных технологий в сфере образования сегодня.

Abstract: This situation describes the use of modern digital technologies in the state higher education system, as well as the priority directions of the development of the educational process and the basis of the use of modern digital technologies, as well as the positive role of information technologies in the field. education the field of education today.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, didaktik funksiya, axborot kommunikatsiya, telekommunikatsiya, masofaviy ta'lim, elektron resurslar, internet, kompyuter, planshet, pedagogik texnologiyalar, smart-doskalar.

Ключевые слова: цифровые технологии, дидактическая функция, информационная коммуникация, телекоммуникации, дистанционное образование, электронные ресурсы, интернет, компьютер, планшет, педагогические технологии, смарт-доска.

Key words: digital technologies, didactic function, information communication, telecommunication, distance education, electronic resources, internet, computer, tablet, pedagogical technologies, smart board.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalardan deyarli barcha insonlar, jumladan yosh bolalardan tortib keksalar ham raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha yangiliklardan habardor bo'lishlari mumkin. Bizning yurtimizda ham raqamli texnologiyalar barcha sohalarda rivojlanib bormoqda. **Hozirgi kunda zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarining o'rnini aniq va yaqqol ko'rinishga boshladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat, bank, sanoat, tibbiyot, ta'lim, va xavfsizlik va boshqa sohalarda keng foydalanilmoqda. Bu esa jamiyatimizdagi barcha soha va yo'nalishlarda ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan to'la va izchil joriy qilishdan dalolat beradi. Shu asnda mamlakatimizda zamonaviy texnologiyani joriy etish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.** Shu jumladan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi". Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin.

Ta'lim jarayonlariga axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni qo'llashda avvalo ta'lim muassasalarida axborotlashtirishni tashkil etish, ya'ni barcha o'quv, ma'muriy va xo'jalik xizmatlarini, kutubxona va boshqaruv bo'limlarini yagona tarmoqqa birlashtirish, ularning Internet tizimiga chiqish imkoniyatlarini yaratish, ta'lim muassasasida o'quv jarayonini nazorat qilish, hujjatlar elektron almashuvini hamda axborot texnologiyalari negizida maxsus o'quv-metodik materiallarni yaratish orqali o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish kabi vazifalarni amalga oshirish zarur bo'ladi. Ta'lim tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri – axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar bilan ta'lim jarayonini tizimli integratsiyalash va uni boshqarish hisoblanadi. Islohotlar jarayonida bosh vazifa qilib o'quv jarayonini tashkil etish, uning mazmunini tubdan yangilash, raqamli texnologiyalarni qo'llash, kompyuterlashgan muhitda o'qituvchining pedagogik faoliyati va o'quvchilarning bilim olish jarayonini tashkil etish belgilanadi. Hozirda bunday vazifalarni bajarish raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ijobiy hal etiladi. Ta'lim muassasasi yoki ma'lum fanning yagona axborot - ta'lim muhitini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri o'quv jarayonida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Axborot va

telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilarga axborot-ta'lim resurslaridan foydalanishni yengillashtiradi. Yagona ta'lim muhitini yaratish va o'quvchilarning samarali bilim olishlarini tashkil etish o'qituvchining tayyorgarligining yuqori talablar darajasida bo'lishi, dars mazmunining maqsadga muvofiqligi, axborotlarning tizimlashtirilishini ta'minlash axborot-ta'lim muhitini yaratish va uni rivojlantirishda tizimli yondashuvni amalga oshirishni shart qilib qo'yadi. Raqamli texnologiyalarni qo'llash axborotlarni mantiqiy tartiblash va tizimlashtirishga yordam beradi.

Ta'limning turli sohalarida kompyuter telekommunikatsiyalarining qo'llash tajribalaridan shuni ko'rish mumkinki, axborot texnologiyalari bizga bir qator ijobiy imkoniyatlarni yaratib bermoqda, bunga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

1) ilmiy-uslubiy markazda ta'lim olayotgan keng ommaga tezkor mutaxassis maslahatlarini tashkil etish va yetkazish; m o'rin egallashi va qanday shaklda joriy qilinishi bo'yicha takliflar keltirilgan.

2) professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va talabalarning har xil turdagi hamkorlik ilmiy tadqiqotlarini (har xil ilmiy-amaliy loyihalar yordamida chinakam ijodiy tadqiqot, mustaqil amaliy faoliyat, mustaqil bilim orttirish, amaliy ijodiy faoliyat va boshqa turdagi hamkorliklarni tashkil etish.

3) masofaviy ta'lim va pedagogik kadrlar malakasini oshirish tarmog'ini tashkil etish;

4) ta'limdagi sheriklarning, bu talaba, o'quvchi, o'qituvchi, ilmiy xodim bo'lishidan qat'iy nazar, ularga o'zaro fikr almashinish ko'nikmalarini hosil qilishni, muomala madaniyatini va o'z fikr-mulohazalarini tez, lo'nda va aniq ifoda etishni o'rgatish;

5) madaniy, etnik, insonparvarlikning keng qamrovli ijobiy axborotlari bilan fikr almashinish natijasida yoshlarning madaniy va ijtimoiy qobiliyati va layoqatini o'stirish.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashda talabalarni faqatgina ekrandagi axborotlarni ko'rishiga va ularni qabul qilishgagina emas, balki ularning o'zlari ham bu jarayonda ijodiy ishtirok etishlariga o'rgatishimiz lozim. Ta'limning didaktik xossalari bilan bog'langan yashirin imkoniyatlar olamini bevosita kompyuter telekommunikatsiyalari bilan bog'lash bu ta'lim sohasida zamonaviy va istiqbolli maqsadlarga ega. Didaktik funktsiya sifatida biz o'quv-tarbiyaviy jarayonda ma'lum bir maqsadlarda qo'llanilayotgan ta'lim vositalarining tashqi xossalari namoyonini tushunamiz. Tadqiqot usullari sifatida oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga tegishli xulosalar tuzishda normativ hujjatlarni, mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirishdan foydalanildi.

Ta'lim berishda axborot va raqamli texnologiyalarni yaratish va qo'llash quyidagi kontseptual tamoyillarga ega bo'lishi lozim deb hisoblaymiz:

1. Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili. Axborot va raqamli texnologiyalar orqali fan bo'yicha axborot-ta'lim resurslarini taqdim etadi va ta'lim oluvchlar, ta'lim muassasasi, ta'lim xizmatlari bu yurtmachilari, ta'limni boshqarish organlari uchun axborot-ta'lim manbai bo'lib xizmat qiladi.

2.Integrasiya tamoyili. Axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali pedagogik ta'lim muassasasining integrallashgan axborot-ta'lim resurslari yagona manzilda joylashtiriladi, shuningdek, ta'lim muassasasi resurslariga alohida murojaat yo'li ham ajratib ko'rsatiladi.

3.To'laqonlilik tamoyili. Axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sohasi bo'yicha o'quv-me'yoriy, metodik hujjatlar, ilmiy faoliyat, tarbiyaviy faoliyatitashkil etish to'laqonliligi ta'minlaydi.

4.Yaxlitlik tamoyili. Axborot va raqamli texnologiyalar markazlashtirilgan boshqaruv orqali axborot-ta'lim resurslarini taqdim etadi, resurslarini rivojlantirish pedagogik ta'lim muassasalarining resurslarini tahrirlash va joylashtirish yagona tizim asosida amalga oshiriladi.

5.Ochiqlik tamoyili. Axborot va raqamli texnologiyalar pedagogik ta'lim sohasi bo'yicha ma'lumotlarni ochiq taqdim etish tizimini yaratadi va birinchi navbatda, pedagogik axborot-ta'lim resurslarining ochiqligini ta'minlaydi.

Axborot va raqamli texnologiyalar joriy etish quyidagi 3 bosqichni o'z ichiga oladi:

-mazmun bosqichi bu bosqichda Axborot va raqamli texnologiyalarni qo'llashning axborot-ta'limresurslarini shakllantirish va uning axborot ta'minoti mazmuni yaratiladi;

-tashkiliy bosqich bu bosqichda Axborot va raqamli texnologiyalarni qo'llashning texnik jihatlari bilan bir qatorda, foydalanuvchilarning toifalarini aniqlashtirish, mavjud resurslarni tizimlashtirish va yangilab borish mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim muassasalaridagi mavjud resurslarni integrasiyalash, masofaviy ta'limni tashkil etish, axborotta'lim resurslariga bo'lgan talabni aniqlash maqsadida axborot va raqamli texnologiyalari foydalanuvchilari bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil etish amalga oshiriladi;

-metodik ta'minot bosqichi bu bosqichda axborot va raqamli texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini ishlab chiqish, maslahat xizmatlarini bajarish yo'lga qo'yiladi.

Yuqoridagi mulohazalar asosida quyidagi xulosaga kelindi. Ta'lim berishda axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni joriy etish o'quv jarayonida mustaqil ta'lim salmog'ini ortishi, yangi axborot-ta'lim resurslarining

shakllanishi, ta'lim jarayonini optimallasuvi, intensivlashuvi, ta'lim jarayoni qatnashchilarining o'zaro aloqasini, ta'lim jarayonini ochiqligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, dunyoning boshqa joylarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli avlodning yangi ekranli avlodi - televizor, kompyuter, smartfon va smartsoatlari paydo bo'lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Raqamli avlod ota-onalarimiz o'rgangan uslubda o'qitilishi mumkin emas va bo'lmasligi ham kerak. Bugungi rivojlanib borayotgan avlodni o'qitishda qora doska va oq bo'rdan foydalanish ham mumkin emas. Yagona ta'lim muhitini yaratish va o'quvchilarning samarali bilim olishlarini tashkil etish o'qituvchining tayyorgarligining yuqori talablar darajasida bo'lishi, dars mazmunining maqsadga muvofiqligi, axborotlarning tizimlashtirilishini ta'minlash axborot-ta'lim muhitini yaratish va uni rivojlantirishda tizimli yondashuvni amalga oshirishni shart qilib qo'yadi. Ta'limni raqamlashtirishning mazmunini birinchidan, axborot va kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish orqali o'quvchilarga ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishni, ikkinchidan, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirish va qo'shimcha ta'lim resurslaridan foydalanishni tashkil etish orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlariga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quv jarayonida mustaqil ta'lim salmog'ini ortishi yangi ta'lim resurslaridan foydalanishni taqozo etadi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta'lim qayta ko'rib chiqilishi va ta'lim paradigmasi o'zgartirilishi shart, sababi talabalar ortiq an'anaviy uslubda o'qishni xohlamaydilar va o'qituvchilar ham bu kabi odatiy usulda o'qitishni davom ettirishlari kerak emas, balki yangi innovatsiyalarni darsda qo'llay bilishi kerak. O'quv dars mashg'ulotlarini texnologiyalar yordamida o'qitish anchagina samarali, onson hamda natijali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D. Babaraximova, Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llashning ilmiy pedagogik masalalari; 6 – tom 3 – son / 2022 - yil / 15 – mart <https://bestpublication.org/index.php/pedg/issue/view/81>.

2. D. Babaraximova, O'qituvchilarning akt sohasida vakolatlarini takomillashtirishda uzluksiz ta'lim : muammolari va ba'zi yechimlari. 2023-yil. <https://unionedu.ru/index.php/use/issue/view/1>

3. Begimkulov U.Sh. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta'limni tashkil etish //Pedagogik ta'lim jurnali. – Toshkent, 2004. – № 1. B. 25-27.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni

5. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali.

6. Muxitdinov A.B. Jizzax politexnika instituti Muhandislik va kompyuter grafikasi kafedrasida katta o'qituvchisi (TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ZAMONAVIY USULLARNI JORIY ETISH)

7. Yuldashev U, Raxmatullaeva SH.K. Internet asoslari: o'quv qo'llanma.- Toshkent, 2002. -28 b.

AXBOROTLASHTIRILGAN TA'LIM MUXITIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA NOAN'ANAVIY METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI (tezis)

*Nasrulayeva Yulduz Farxadovna Osiyo xalqaro universiteti
70110501 –Ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

Annatsiya: Ushbu tadqiqot boshlang'ich sinflar o'quvchilarining matematik savodxonligini oshirishda noan'anaviy metodlar hamda ulardan foydalanishning ahamiyatiga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: Tadqiqot, boshlang'ich sinflar, matematik savodxonlik, noan'anaviy metodlar,

Аннотация: В данном исследовании основное внимание уделяется важности нетрадиционных методов и их использованию в повышении математической грамотности учащихся начальной школы.

Ключевые слова: Исследования, начальная школа, математическая грамотность, нетрадиционные методы,

Abstract: This study focuses on the importance of non-traditional methods and their use in improving the mathematical literacy of elementary school students.

Key words: Research, elementary school, mathematical literacy, non-traditional methods,

Mavzuning ahamiyati: Matematika o'sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirishda o'quv fani sifatida keng imkoniyatlarga ega. Matematik tafakkur obyektlari va ularni yasash haqida mantiqiy xulosalar chiqarish, mulohazalarni

shakllantirish, asoslash va isbotlash ko'nikmalarini shakllantiradi va bu asosda mantiqiy tafakkur rivojlanadi. Matematikadan misol va masalalarni yechish jarayonida tafakkurning ijodiy va amaliy qirralari rivojlanadi.

Matematik isbotlardagi aniq, qisqa, ravon fikr yuritish, geometrik shakllarni tasavvur qilish, ulardagi simmetriya, qat'iy qonuniyatlar asosida go'zallikni ko'ra olishga o'rgatish orqali o'quvchilarga estetik ta'lim-tarbiya beriladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikani o'qitishdan ko'zlangan maqsadlar: - o'quvchilarning hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini umumlashtirib borib, matematik tushuncha va munosabatlarni ular tomonidan ongli o'zlashtirilishiga hamda hayotga tatbiq eta olishga intilish; -o'quvchilarga izchil mantiqiy fikrlashni shakllantirib borish natijasida ularning aql-zakovat rivojiga, tabiat va jamiyatdagi muammolarni hal etishning maqbul yo'llarini topa olishlariga ko'maklashish.

Boshlang'ich sinflarga matematikani muvaffiqiyat bilan o'qitish uchun noannanaviy interfaol usullar ishlab chiqilgan tizimini, ya'ni boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi rivojlantirish va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishish kerak. «Metodika» grekcha so'z bo'lib, "yo'l, usul" demakdir. Matematika metodikasi pedagogika fanlari tizimiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog'i bo'lib, jamiyat tomonidan qo'yilgan o'qitish maqsadlariga muvofiq matematika qonuniyatlarini matematika rivojining ma'lum bosqichida tadqiqidir.

Matematika boshlang'ich ta'lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

1. Matematika o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarni asoslash. (nima uchun o'qitiladi).

2. Matematika o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (ya'ni matematikadan qaysi material boshlang'ich sinflarda o'rganilishi, nima uchun aynan shu material tanlanishi, boshlang'ich sinflarda kursning har qaysi ayrim masalasi umumlashtirishning qanday darajasida o'rganilishi, mavzular qanday tartibda o'rganilsa, eng ratsional bo'lishi ko'rsatiladi).

3. O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish.

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shu jamiyatda yashayotgan har bir insonni o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara oladigan, intellektual qobiliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati fikrlash darajasi faol rivojlanadi. Bir qator psixolog va pedagog olimlar: A.V. Petrovskiy, B.M.Teplov, V.A. Kruteskiy, E. G'oziev, G'.Shoumarov, O. Roziqov, B. Adizov ta'kidlashlaricha, - bu davrda o'quv faoliyati ta'sirida bolalarning ruhiy faoliyati, diqqati, xotirasi, idrok etish darajasi, tafakkuri, his-tuyg'usi kabi jarayonlar rivojlanadi. A. M. Matyushkin, I. S. Averina, G. D.

Chistyakovalar o'quvchi shaxsining intellektual qobiliyatini tashkil qilish masalalari ustida izlanish olib borib, ularning har bir rivojlanish bosqichi bilish jarayonlarining rivojlanishi bilan bog'liq holda qaralishi lozimligini uqtiradilar. R.Ibragimov, O. Roziqov, V.Karimova, E.G'oziev, G'.Shoumarov, Z.Nishonova, B. Qodirovlar ham shaxsning intellektual qobiliyatini rivojlantirishni uning aqliy qobiliyati, bilish faoliyati, mustaqil fikr yuritish muammolariga bog'lab talqin etadilar. Jumladan, V.Karimova shaxsning faolligi, faoliyat turlari va ularni boshqarishda ijtimoiy-xulq motivatsiyasi ustida ilmiy izlanish olib borgan.

Tadqiqot maqsadi: Boshlang'ich sinf oquvshilarininig matematika savodxonlik oshirishda noanaviy metodlardan foydalanishning ahamiyetini o'rga, nishtahlil qilish, tajribadan o'trazish, ushbu uslublarni ana'naviy dars usullaridan afzal tomonlarini aniqlash, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Matematik savodxonlik -bu shaxsning turlihayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini qilish va baholashdafoydalana olish qobiliyatidir. Alohida ta'kidlash lozim, matematika darslarida turli tuman masala, muammo va jumboqlarni yechish orqali o'quvchilar to'g'ri fikr yuritish, mantiqiy fikrlashni o'rganadilar. O'qituvchilarning matematika fanlarini o'qitishda yo'naltirilgan darslar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.

Qayd etilgan maqsadlardan umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematika o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchilarni Vatanga sadoqat , yuksak axloq , ma'naviyat va ma'rifat , mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash; ta'limning insonparvar bo'lishishiga erishish; zarur bo'lgan matematik bilim, ko'nikma va malakani berish kelib chiqadi. Bunga badiiy va ilmiy-ommaviy adabiyotlarni o'qish, qiziqarli boshqotirmalar,aqlni charxlaydigan o'yinlardan ,maxsus tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifat kunlarida turli mavzularda suhbatlar tashkil etish natijasida axlohiy,tarbiyaviy tushunchalar va xulq-odatlar paydo bo'la boshlaydi. O'quvchilar o'zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini baholay boshlaydilar. Buning uchun turli ma'naviy- tarbiyaviy mavzularda o'tkaziladigan suhbat va munozaralarda o'quvchini fikr yuritish, o'ylashga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega.Matematik tafakkur o'quvchilarni o'ylash, fikr yuritishga yo'llaydi, ularda salbiy xislatlardan saqlanish, yaxshi odatlarni o'rganishga bo'lgan intilish va

qiziqishlari tarkib topa boshlaydi. Boshlang`ich sinflarda matematik savodxonlikni oshirishda turli noan`anaviy metodlardan foydalanib quyidagi natijalarga erishiladi

Xulosa: Matematikadan olingan nazariy bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tatbiq qila olishga o`rganadi ,ularda turli sonlar va matematik ifodalar ustida turli sonlar va matematik ifodalar ustida amallar bajarish malakalarini shakllantiradi.

O`quvchilar matematika darslarida ko`rgazmali qurollar va jadvallardan foydalana olish malakalari tarkib toptiriladi.O`quvchilar matematikadan misol va masalalar yechish orqali ularda sabr qanoatga, mehnatga ,mulohazali, og`ir- vazmin kabi xususiyatlarga ega bo`ladi. O`quvchi faoliyatini tashkil etish va xulq-odobini shakllantirish metodlaridan mashqlantirish, o`rgatish, pedagogik talab qo`yish jamoa fikrini hisobga olish, topshiriqlar berish, tarbiyaviy vaziyatlar hosil qilish va boshqa metodlardan foydalanish samarali natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saparova.G. “O`zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali”. 2023-yil.
2. “Prospects of development of science and education proceedings of first conference”.27-april,2020.
3. Isamitdinov.S. “Ta`lim va innovatsion usullar” uslubiy tavsiyanoma. Toshkent. RTM,2005-yil.
4. Sobirov B. “Ta`lim tizimi takomillashmoqda” // O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi.–Toshkent,2008-yil.
5. Jumayev M.E. Matematika o`qitish metodikasi (darslik)Toshkent. . “Turon-Iqbol” 2016 yil .
6. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi. (darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2005 yil.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИНТЕРНЕТ-РЕСУРСОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Атаджанова Сайёра Эгамовна
старший преподаватель кафедры «Узбекского языка и литературы»
Ташкентского архитектурно-строительного университета*

Современный этап развития образования связан с широким использованием современных инновационных технологий информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в деятельность всех участников образовательного процесса и возможностей, предоставляемых глобальной сетью Интернет.

В Узбекистане большое внимание на государственном уровне уделяется информатизации общества в целом и сферы образования, в частности, реализуются государственные программы, направленные на решение актуальных задач информатизации образования.

Развиваются содержание и методы обучения, меняется роль педагога, который постепенно превращается из транслятора знаний в организатора деятельности обучаемых по приобретению новых знаний, умений и навыков. Существенным средством информатизации выступают образовательные информационные ресурсы, опубликованные в сети Интернет. Не случайно их своевременное и корректное использование всеми специалистами, работающими в системе образования, служит залогом эффективной подготовки учащихся.

Реализовываются ряд проектов, направленных на развитие телекоммуникационной среды сферы образования. Во многих регионах страны существенно расширен круг образовательных учреждений, обладающих полноценным доступом в Интернет. Существенные успехи достигнуты в области повышения квалификации работников образования и подготовки членов формирующегося информационного общества. Большая работа проведена в направлении совершенствования содержания образования и содержательного наполнения электронных изданий и ресурсов. В рамках этой работы сформирована система образовательных порталов, разработаны профессиональные комплекты электронных образовательных ресурсов, созданы и развиваются сайты, предоставляющие доступ к информационным ресурсам практически по всем школьным дисциплинам.

Вместе с тем, развитая инфраструктура Интернет предоставляет такие возможности, как:

1. Охват широчайшей аудитории (не только узбекской, но и международной).
2. Оперативное обновление информации.
3. Использование непосредственных ссылок на другие ресурсы Интернет.
4. Широкое распространение информации о существовании ресурса с помощью информационно-поисковых систем сети Интернет.

Существенной проблемой стала интеграция интернет-ресурсов, размещенных на образовательных порталах, на сайтах учебных заведений, в электронных библиотеках и коллекциях. Для решения этой проблемы создана новая информационная система «Единое окно доступа к образовательным ресурсам» (<http://edu.uz>), нацеленная на обеспечение свободного доступа к интегральному каталогу образовательных ресурсов сети Интернет, к электронной библиотеке учебно-методических материалов для общего и профессионального образования, а также к ресурсам системы федеральных образовательных порталов.

Использование сети Интернет порождает ряд проблем, требующих немедленного разрешения. В их числе подготовка и переподготовка педагогов к осуществлению профессиональной деятельности с использованием телекоммуникаций, обеспечение системы образования качественными информационными ресурсами, опубликованными в сети Интернет, а также информирование педагогов и обучаемых о способах доступа к таким ресурсам.

В этом направлении уже многое сделано: сформирована система подготовки преподавателей в области информатизации образования, созданы образовательные порталы, разработаны и опубликованы в сети электронные образовательные ресурсы практически по всем школьным дисциплинам.

Но отсутствие системного подхода к размещению информационных ресурсов в сети Интернет, а также отсутствие единообразия в решении психолого-педагогических, технологических, эстетических проблем при разработке и использовании образовательных информационных ресурсов приводит к практическому неиспользованию преимуществ телекоммуникационных средств в целях повышения качества образовательного процесса в системе общего среднего образования.

Несмотря на это, использование системы порталов позволяет более эффективно организовать работу педагогов, поскольку на порталах собраны и систематизированы наиболее востребованные ресурсы. Используя их, учителя,

ученики и родители смогут получить доступ к качественным учебным и методическим материалам, сократить время на поиск требуемой информации, изучить особенности классификации информационных ресурсов сети Интернет.

Полезными могут оказаться собранные на порталах ссылки на ресурсы, содержащие контактную информацию об учреждениях образования и отдельных педагогах, новости сферы образования, объявления об олимпиадах, конкурсах, конференциях и других мероприятиях, в которых регулярно принимают участие преподаватели и студенты.

Использование аудио и видеoinформации, получаемой с помощью сети Интернет (с использованием образовательных порталов или без них) имеет свои особенности. В некоторых случаях воспроизведение такой информации может оказать вред здоровью студентов или привести к снижению эффективности учебного процесса. Современные педагоги должны знать и предвидеть негативные моменты, возникающие при применении информационных ресурсов, получаемых из Интернета в системе образования. В частности, некоторые студенты не способны воспользоваться той свободой, которую предоставляют образовательные средства ИКТ. Часто запутанные и сложные способы представления могут стать причиной отвлечения, как педагогов, так и студентов от изучаемого материала из-за различных несоответствий. Преподаватели должны овладеть основными требованиями, предъявляемыми к образовательным Интернет-ресурсам с точки зрения минимизации вреда, наносимого здоровью и психике обучаемых.

Педагог, работающий в высшей школе, должен знать, что художественное решение, положенное в основу оформления используемого или создаваемого интернет-ресурса, должно определяться предметной направленностью ресурса. При этом оформление средства ИКТ должно строиться на стилистических решениях, преемственных по отношению к отечественным традициям оформления учебной и специальной литературы, используемой в ВУЗе и соответствующей требованиям здоровьесберегающей среды, а в случае заимствования визуальных решений, принятых в иностранных мультимедийных ресурсах, необходима их адаптация к национальным культурным традициям.

Литература:

1. Послание президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису. Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан.

[Электронный ресурс] URL: <https://president.uz/ru/lists/view/2228>. (Дата обращения 10.09. 2019).

2. «Социально-экономическое положение Республики Узбекистан» за январь-декабрь 2018 года. Стр.192. Официальный сайт Госкомстата Республики Узбекистан. [Электронный ресурс] URL: <https://stat.uz/uploads/doklad/2018/yanvar-dekabr/ru/doklad-yan-dekabrru.pdf>. (Дата обращения 10.09. 2019).

3. Анализ развития инфраструктуры связи. Официальный сайт Госкомстата РУз. [Электронный ресурс]. URL: <https://stat.uz/uploads/docs/Svyaz17-ru.pdf>.

MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARIDA AutoCad GRAFIK DASTURINI IMKONIYATLARI

Saydaliyev S.S. p.f.n. professor TAQU,

Ramozonova G.S. o'qituvchi TAQU.

Annotasiya. Maqolada muhandislik grafikasi fanlarida AutoCAD grafik dasturini imkoniyatlardan foydalanib uch o'lchamli madellarni qurish usullari oid tavsiyalar keltirilgan.

Аннотация. В статье даны рекомендации по методам построения трехмерных моделей с использованием графического программного обеспечения AutoCAD в инженерной графике.

Annotation. The article provides recommendations on methods for constructing three-dimensional models using AutoCAD graphics software in engineering graphics.

Kalit so'zlar: grafik dastur, AutoCAD, grafik savodxonlik, interfes tugmalar, ishchi stol, tatbiq etish, kompyuter grafikasi, muhandislik grafikasi fani, sifat, samaradorlik.



Ключевые слова: графическое программное обеспечение, AutoCAD, графическая грамотность, кнопки интерфейса, рабочий стол, Реализация, компьютерная графика, наука инженерной графики, качество, эффективность.

Keywords: graphic software, AutoCAD, graphic literacy, interface buttons, desktop, Implementation, computer graphics, engineering graphics science, quality, efficiency.


“Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” fanlari konstruktiv-handasaviy tayyorgarlikni ta'minlaydi, hamda umumnazariy fandan, umummuhandisaviy grafika ishlariga, jumladan ixtisoslik fanlarni o'rganishda umummuhandislik fani poydevori

bo'lib xizmat qiladi. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish va zamonaviy informatsion texnologiyalarni qo'llash yordamida talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini beruvchi o'quv vositalari bo'lib, o'ziga xos didaktik va uslubiy asoslarga egadir. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlari uchun ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim samaradorligini oshirishda xizmat qiladigan uslubiyotlarni ishlab chiqish dolzarb masalalaridan biridir. Grafik dasturlardan foydalanib, chizma geometriya, muhandislik grafikasi va badiiy bezak fanlarida, intererni bezash, talabalarni fanni yaxshi o'zlashtirishga, talabalarda fazoviy tasavvurlarini rivojlanishiga hamda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Grafik dasturlaridan foydalanib talabalarga dars o'tish fanni yanada qiziqarli bo'lishiga, masalalar ko'rimli, tushunarli bo'lishiga, talabalar xotirasida saqlashni ta'minlaydi va o'zlashtirishni hamda ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi. Yuqoridagi muloxazalardan kelib chiqqan holda bugungi kunda bir necha grafik dasturlar mavjud va ulardan chizma geometriya, muhandislik va kompyuter grafikasi fanlariga mos keladigani AutoCAD va 3ds MAX dasturidir. Ushbu dastur chizma standartlariga mos, berilgan o'lchamlarda, yuqori aniqlikda, ikki va uch o'lchamli formatda, chizma chizish qoidalariga asosan chizmalarni bajarishga va chizmalarni JPEG xolida saqlashga mo'ljallanganligi bilan ajraladi.

AutoCAD dasturida naqsh kompozitsiyasini chizib, chiziqlarni bir-biriga ulab **tushuvchi menyular** qatoridan Tools-Options...-Open end Save darchasidan



AutoCAD 2000/LT 2000 Draving(*.dvg) formatida saqlanadi [1.11]. Bu formatda saqlangan ishni 3ds MAX dasturi o'qiy oladi. 3ds MAX dasturidan File-Import darchasiga kiriladi. AutoCAD dasturida saqlangan faylni topib "Tip faylov" ga AutoCAD Draving (*.DWG,*DXF) formati yuklanib "Otkri" buyrug'i tugmasi bosiladi. AutoCAD dasturida tayyorlangan naqsh kompozitsiyasi 3ds MAX dasturi oynasida paydo bo'ladi. Bu naqshdan intererni bezashda o'yilgan ganch namunasi sifatida foydalanamiz. Naqshga qalinlik



berish uchun **tushuvchi menyular** qatoridan “Extrude Modifier” buyruqi tanlanadi. Bu buyruq o‘ziga yuklatilgan “*standart*” qalinlikni qo‘yaadi. Biz Amount:1.0cm qalinlikga qo‘yamiz [1.37]. Tayyor bo‘lgan ganch kompozitsiyasini intererni bezashda xonaning kerakli joyiga qo‘yaamiz. 3ds MAX dasturining qulaylik taraflaridan yana biri 3-“D” ko‘rinishdagi chizmalarni, chizma bajaruvchi o‘z talabiga binoan kameralarni kerakli joyga o‘rnatib, kadrni “Quick Render (Producktion)” buyruqi orqali rendr qiladi. Bir necha daqiqadan so‘ng 3-“D” ko‘rinishdagi chizma JPEG xoliga keladi. Tayyor bo‘lgan intererni saqlanadi.


Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda undagi nazariyalar, misol va masalalar yechish, interer va ekstererni bezash talabalardan fazoviy tasavvur qilishni talab etadi. Fazoviy tasavvurni shakllanishiga esa, o‘qituvchi dars jarayonida talabalarga tayyor ishlarni ko‘rsatib, ularni ishlanish jarayonini o‘zi amalda chizib, elektron dars ishlanmalari vositasida ham ko‘satish mumkin. Chunki, ish jarayonini namoish qilish talabaga kerakli ma‘lumotlarni berib, fazoviy tasavvurlarini rivojlanishiga hamda chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitish jarayonida sifatini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari muhandislik grafikasi siklidagi fanlarning ma‘ruza, amaliy mashg‘ulotlarini kompyuter texnologiyalari asosida tashkil etish, internet sahifalaridan mavzular bo‘yicha sistemalashtirilgan ma‘lumotlardan keng foydalanish o‘qitish ishlarida kutilgan natijalarga erishishni ta‘minlanishiga imkoniyat yaratadi. Talabalar chizmachilik fanlarini o‘zlashtirishda, eng avallo, chizmalarni o‘qishni uni bajarishni, grafik axborotlarni to‘plashni, sxemalarni chizishi va ularni o‘qiy olishi lozim. Muhandislik grafikasidan ma‘lumki konstruktorning yoki tatqiqotchining ma‘lum yo‘nalish bo‘yicha, u biron texnikaga oid qurilma yoki biron jarayonning modeli haqida hayolida yaratilgan obrazni birinchi galda qog‘ozda tasvirlab ko‘rsatadi. Bu tasvirlar to‘g‘ri burchakli proeksiyalash usuliga asoslansa ham u chizmachilik asboblari yordamisiz eskiz ko‘rinishida qo‘lda bajariladi. Uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aniq o‘lchamlar asosida chizish amaliy jihatdan mumkin ham emas, chunki u bor-yo‘g‘i faqat g‘oyadir. Tasvirlar bo‘yicha qurilmaning tuzilishi, uning ishlash prinsiplari muhokama qilinadi va ma‘lum tuzatishlar kiritiladi. Mashinasozlik chizmachiligidan ma‘lumki “Eskiz” deb chizmachilik asboblari yordamisiz tomonlarining nisbatlarini ko‘z chamasida saqlagan holda qo‘lda bajarilib, vaqtincha xarakterga ega bo‘lgan chizmaga aytiladi. Shuni ham alohida ta‘kidlash joizki, ayrim hollarda ishlab chiqarish sohalarida detallar bevosita eskiz bo‘yicha tayyorlanadi. Shuning uchun ham eskizda detalning ish chizmasida beriladigan barcha ma‘lumotlar o‘z aksini topishi lozim. Chunki eskizda ish chizmadagi kabi proyeksion bog‘lanishlar, tasvirlanayotgan detalning qismlari orasidagi nisbatlarning saqlanishi

bilan uning ichki va tashqi ko‘rinishlarining to‘laqonliligi, uni aniq tasavvur qilish va ishlab chiqarishga yetarliligi bilan baholanadi. Bu esa, uni aniqlik darajasida ishlab chiqarishga olib keladi. Shuningdek, eskizlar buyumlar va detallarning eng boshlang‘ich loyihalash ishlarini, ta‘mirlash ishlarida detallarning asliga qarab uning chizmalarini bajarishda foydalaniladi. Ba‘zan uning aksonometrik proeksiyalarning biriga asoslangan “Texnik rasm” deb ataluvchi ko‘rgazmali tasviri ham bajariladi, chunki texnik rasm ham chizmachilik asboblari yordamisiz qo‘lda bajariladi. Detalning aslidan o‘lchamlari o‘lchov asboblari yordamida o‘lchanib, bajarilgan eskizga olib borilib qo‘yiladi. Bulardan ko‘rinib turibdiki eskiz yoki texnik rasm bajarish uchun chizmachilik asboblari yordamisiz to‘g‘ri chiziq, aylana yoki ellipsning tasvirlarini qo‘lda bajarish bo‘yicha ma‘lum ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish talab qilinadi. Eskizlarni kompyuterda o‘rnatilgan chizish dasturlari asosida bajarilganda, agar uch o‘lchamli modeldan foydalanilsa eskiz bilan texnik rasm bir vaqtda parallel bajariladi. Endi bu jarayonni hozirgi zamon yutuqlariga asoslanib, kompyuterda bajaraylik. (*Texnik rasm ko‘rinishida*)

“**Вид**”-ko‘rinish panelidagi sakkizinchi “Yuz izometriya” tugmasi yuklanadi va ekranda o‘lchamlari kiritilgan prizma yasaladi. “**Обрезка**”-faskasi bajarilgan burchakni kesib tashlash yoki uni kesmasdan qoldirish imkoniyatini beradi. Detalni tashkil qiluvchi geometrik sirtlarning shakli dasturdagi tayyor shakllardan tomonlar nisbati ko‘z chamasida saqlangani holda olinib, ular “**Объединение**”- “Birlashtirish” buyrug‘i orqali o‘zaro birlashtiriladi va yaxlit detal shakli hosil qilinadi. Bu operatsiya aksincha ham bajarilishi mumkin, unda “**Вычитание**”-“Ayirish” buyrug‘i ishlatilib, butun shakldan “ortiqchasi”ni olib tashlash orqali tasvirlanuvchi narsaning umumiy shakli yasaladi [2.47].


AutoCAD grafik dasturida **3D моделирование** va ularga qirqim berish uchun **редактируют -3D operatsii-Сечение** buyruqlari tanlanadi va ob’ektning qirqim berish koordinatalari ko‘rsatiladi hamda ob’ektning keraksiz qismi olib tashlanadi. Qirqim berilgan **3D Объекты** kesim yuzasini ko‘rsatish uchun odatda avval **Сервис–Палитры-** Instrumentальные palitry buyruqlari ketma-ket tanlanib hosil bo‘lgan oynadan “**Штриховка**” bandi tanlanadi. Ob’ektning shtrix chiziqlar bilan ko‘rsatilgan joyi **Рисование-Полилиния** buyruqlari yordamida chegaralanadi. Shundan so‘ng **3D Объекты** chegaralangan qismiga “**Штриховка**” bandidan kerakli ko‘rinishidagisi tanlab qo‘yiladi [2.48]. Natijada **3D объекты** kesim yuzasini ko‘rsatuvchi shtrix chiziqlar hosil bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm

Bu harakatlarning birinchisida bilish nazariyasiga mos “Deduktiv” (Umumiydan xususiy)ga, ikkinchisida esa “Induktiv”(Xususiydan umumiy)ga metodlarini ishlatgan bo‘lamiz. Bu harakatlar talabdan berilgan detalni tahlil qila olish ya’ni uni tashkil qilgan geometrik shakllarga ajrata olish va ularni o‘zaro birlashtira olishdan iborat bo‘lgan bilimni talab qiladi. Bulardan ko‘rinib turibdiki bu operatsiyalarni bajarish uchun talaba ishning mazmuniga chuqur kira olishi zarur, aks holda bu ishni mexanik ravishda bajarib bo‘lmaydi. Demak, didaktikaning onglilik tamoili to‘la bajariladi. Talabalardan bilish nazariyasining deduktiv va induktiv usullarini amalda tadbiiq qilish bo‘yicha ma’lum ko‘nikma shakllanib boradi. Bu esa talabalarni yangi standartlarda, hamda xalqaro standartlarda grafik ishlarini “AutoCAD” grafik

dasturida bajarilishini va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonga ijodiy yondashib o'zining ijodiy faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlariga ham ega bo'ladi (2-rasm).



2-rasm

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy grafik dasturlarni mukammal o'zlashtirish uning maqbul bo'lgan usullarni topish va ishlab chiqish imkoniyatlarini beradi. *Shuning uchun bo'lajak mutaxassislarni ijodiy fikrlash ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish oliy ta'limning dolzarb vazifasi va istiqbolli muammolari biri hisoblanadi.* Bu esa, tobora barcha sohalarni egallab borayotgan kompyuter texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish va uni amaliy ish faoliyatida qo'llash chog'ida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.Rixsiboev, B.Nigmonov, Ch.Shokirova, K.Malikov, T.Sobirxodjaeva, U.Rixsiboev "Kompyuter grafikasi" Toshkent "Tafakkur qanoti" 2012 y.
2. А. Федоренков, А.Кимаев, AutoCAD 2002: «Практический курс», Москва, «ДЕСС СОМ», 2002г., 340 ÷ 374 бетлар.
3. www. info-baz.narod.ru, III-боб «Редактирование геометрии», 3-қисм.

ANIMATSIYALI ELEKTRON DARS ISHLANMALARNI AutoCAD

DASTURIDA ISHLAB CHIQISH USLUBI

Tursunaliev N.- TAQU.

Аннотасија. Maqolada animatsiyali elektron dars ishlanmalarni AutoCAD dasturida ishlab chiqish uslubi ketma-ketlikda didaktik tahliliy materiallar keltirilgan.

Аннотация. В статье электронный урок с анимацией методика разработки разработок в программе AutoCAD представлен дидактический аналитический материал в последовательности

Annotation. The article electronic lesson with animation methodology of development of developments in the AutoCAD program presents didactic analytical material in sequen

Kalit so'zlar: AutoCAD grafik dastur, grafik material, grafika, animasiya, qo'llash, tatbiq etish, loyhalsh, chizmachilik, sifat, samaradorlik, ta'lim.




Ключевые слова: AutoCAD графическое программное обеспечение, графический материал, графика, анимация, аппликация, реализация, loyhalsh, рисование, качество, эффективность, образование.






Keywords: AutoCAD graphic software, graphic material, graphics, animation, application, implementation, loyhalsh, drawing, quality, efficiency, education.

Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy kamoloti yosh avlodning sa'y harakatiga bog'liq ekanligi endi hech kimga sir emas. Davlat dasturi mamlakatimizda olib borilayotgan ta'limiy islohotlar tizimida chizma geometriya va muhandislik gafikasining ham munosib o'rni borligi va ularga hukumatimiz alohida e'tibor bilan qarayotganligining e'tirofidir.

Chizmachilik darslarida kompyuter grafikasidan foydalanishda ya'ni GOST standartlari, shirft, mashtab, chiziq turlari, geometrik yasashlar, tutashmalar, ko'rinishlardan torib eg'ish chizmalari, qurilish chizmalari va sxemalarni kompyuterda bajarishni o'quvchilarga ularning o'zlashtirishga qarab quyidagi dasturlarni tavsiya qilamiz. O'quvchilarga 8 va 9-sniflarda chizmachilik darslarini o'qitishda rejaga asoslangan xolda soddadan murakkabga yo'nalgan uslubda *Microsoft Word* dasturidan foydalanishni lozim topdik. Chunki biz kompyuterda chizib ko'rsatilgan chizmalar shu dasturda bajarilgan. Darslikda berilgan chizmalarni

 ,  ,  , 

 ,  ,  , Stykz.lnk, Programe Anime studio pro, Animating Touch, Mezona, Toon Boom Studio5, Solid Works 2004, Design Review... va boshqa dasturlar bilan ilash mumkin, lekin bu dasturlar ikki o'lchamli dasturlar deb yurtiladi. Ularda qirqim va kesimlarni proektsiyalada chizish mumkin ammo yaqqol tasvirida tasvirlash ancha murakabdirdir. Darsliklarda berilgan mavzularni

 ,  ,  ,  ,  qu

ydagidagi dasturlarda muomosiz engil va onson barcha ko'rinishdagi chizmalarni bajarishlari mumkin. Quyidagi berilgan dasturlar uch o'lchamli dsaturlar bo'lib, ularda xar qanday murakkab bo'lgan chizmalar, animatsiyalarni, multimediyalar,

qurilish chizmalarini, eg'ish chizmalarini harakatlanish printsplari bilan bajarish mumkin. Lekin bu dasturlar o'rta ta'lim muasasalarida tahsil oluvchi o'quvchilarga murakkablik qiladi. Shuning uchun biz o'quvchilarga *Microsoft Word* dasturini oddiy va sodda chizmalarni bajarish mumkim bo'lganligi uchun va barcha kompyuterlarda bu dastur mavjud topgan. Qolgan dasturlarni o'rnatish talab etiladi. Bizning bu tavsiyamiz *Microsoft Word* dasturida o'quvchi o'zlashtirgan bilimlari fundamet vazifasini o'taydi. O'quvchilar qolgan dasturlarda ishlash osonlashadi va o'zlashtirish engil kechadi.

Illustrator- bu dastur barcha tasviriy va amaliy sana'tga doir chizmalarni bajarishga yo'naltirilgan.


AutoCAD- qurilish chizmalarini tasvirlashda va boshqa chizmalarni chizishda foydalaniladi.

BricsCAD- bu ham qurilish chizmalarini tasvirlashda va boshqa chizmalarni chizishda foydalaniladi. Ba'zi vazifalarni bajarishda farqlanadi.

ArchiCAD- Me'mori obidalarni chizmalarini chizishda, tamirlashda qo'laniladigan uslublarni ko'rsatishda ishlatiladi.

3ds max8- bu dasturda yuqorida ko'rsatilgan dasturlardagi hamma imkoniyatlar unda mujasam topgan bo'lib, qolgan dasturlar shuning bo'lagidir. Dastur uch o'chamli bo'lib, unda prdmetning uchta proektsiyasi va yaqqol tasviri bir vaqitda ko'rib tasavvur qilish uchun oson qilib tuzilgan.


Stydz.lnk, Progame Anime studio pro, Animating Touch, Mezona, Toon Boom Studio5, Solid Works 2004, Design Review- bu dasturlarda rasmlar qo'yish, chizish hamda animatsiyalashtirish vazifalarini bajaradi (1-shakl).



1-shakl

“Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” fanlari konstruktiv-handasaviy tayyorgarlikni ta’minlaydi, hamda umumnazariy fandan, umummuhandisaviy grafika ishlariga, jumladan ixtisoslik fanlarni o’rganishda umummuhandislik fani poydevori bo’lib xizmat qiladi. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlarini o’qitish va zamonaviy informatsion texnologiyalarni qo’llash yordamida talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini beruvchi o’quv vositalari bo’lib, o’ziga xos didaktik va uslubiy asoslarga egadir. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlari uchun ularning o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim samaradorligini oshirishda xizmat qiladigan uslubiyotlarni ishlab chiqish dolzarb masalalaridan biridir. Grafik dasturlardan foydalanib, chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlarini animatsiyalashtirish, fanni yaxshi o’zlashtirishda, talabalarda fazofiy tasavvurlarini rivojlanishiga hamda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Animatsion pedagogik texnologiya chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlarini o’qitish jarayonida qayta-qayta namoyish etish imkonini beradi va o’z navbatida vaqtni tejaydi masalalar ko’rimli, tushunarli bo’lib, talabalar xotirasida saqlashni ta’minlaydi va o’zlashtirishni hamda ta’lim sifatini oshirishga imkon beradi. Yuqoridagi muloxazalardan kelib chiqqan holda bugungi kunda bir necha grafik dasturlar mavjud va ulardan chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlariga mos keladigani AutoCAD dasturidir. Ushbu dastur chizma standartlariga mos, berilgan o’lchamlarda, yuqori aniqlikda, ikki va uch o’lchamli formatda, chizma chizish qoidalariga asosan chizmalarni bajarishga va chizmalarni animatsiya qilishga mo’ljallanganligi bilan ajraladi.

AutoCAD dasturida 3D (uch o’lovli) formatda aksonometrik proeksiyalar modelini berilgan o’lchamlariga asosan qurilgandan keyin, ushbu modelni dasturdagi animatsiya qilish imkoniyatidan foydalanib, uni namoyish etish uchun, modelning bosh kuzatish nuqtasini va shu nuqtaga nisbatan kuzatuvchi kameraning uch o’lchamli fazoda harakat traektoriyasini (yo’lini) rejalash asosida belgilanadi. Avval ikki o’lchamli proeksiyalarda kamera xarakat traektoriyasini to’g’ri chiziqlar orqali belgilab keyin shu chiziqlarning bog’lanish nuqtalari orqali egri chiziqqa o’zgartiriladi. Bosh nuqta modelni markzida bo’lsa, nuqtaga qaratilgan kamera belgilangan traektoriyasi bo’yicha xarakatlanadi. Kameraning xarakat traektoriyasini ob’ektdan shunday masofada olish kerakki xarakat traektoriyasidagi nuqtalardan kamera kuzatish nuqtasigacha hamda ob’ektni (qamrash) eng yaxshi ko’rish burchagi 28° - 33° gradus burchagi ostida olinsa ob’ekt chiroyli ko’rinadi. Ob’ektning ba’zi qismlarini



alohida ko'rsatish kerak bo'lsa kamera traektoriyasi ob'ektga yaqinlashtiriladi. Animatsiya ishlarini qilish uchun AutoCAD dasturidagi «*vid*»ga kirib, «*animatsiya traektorii peremeyeniya*»tanlanadi. Bunda ob'ektni nomayish qilish xarakat traektoriyasi prametrlari, kuzatish nuqtasi, kadrlarning bir sekunda o'tish miqdori, namoish etish vaqti, kadrlar miqdori, qaysi formatda namoish qilinishi, «*razresheniya*»-tiniqlik darajasi miqdori, «*vizualnnyy stil*»- yaqqolligida «*realistichnyy*» tanlanadi. Ush bu jadvalda berilgan parametrlarni animatsiya bajaruvchi o'z talabiga binoan belgilaydi. Belgilab bo'lgandan so'ng hosil bo'lgan vidio rolikni dastlab tekshirib olinadi va lozim bo'lsa kerakli o'zgartirishlar kiritiladi hamda saqlaydi.

1-shakl

Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda undagi nazariyalar, misol va masalalar yechish talabalardan fazoviy tasavvur qilishni talab etadi. Fazoviy tasavvurni esa shakllanishiga, tasavvurni o'sishdagi ko'nikma va malakalarini oshirish, tasavvurni rivojlanish, quyidagi animatsiyalashtirilgan elektron dars ishlanmalari vositasida samaradorlikni ko'rish mumkin. Muhandislik grafikasi fanining asosiy mavzularidan bo'lgan aksonometrik proeksiyalar mavzusini o'qitish va turli buyum model va detallarni loyihalashni yengillashtirib talabalarning buyum haqidagi fazoviy tasavvurlarini rivojlantiradi. Bu modellarni geometrik sirtlarga ajratish, ular yordamida sodda hamda murakkab model va detallarni talabalar tomonidan loyihalash orqali o'zlashtirishning samaradorligini oshishiga zamin yaratadi. Yuqorida ko'rsatilgan uslub yordamida dars jarayonida talabalarga o'qituvchi modelni yaqqol tasvirini animatsiyalashtirilgan elektron dars ishlanma yordamida tushuntirish bir necha qulayliklarni keltiradi. Chunki, modelni namoish qilish jarayonida talabaga kerakli ma'lumotlarni berish, olingan ma'lumotlarga takror namoish qilish orqali to'ldirishga va yuqorida aytib o'tilgan fazoviy tasavvurlarini rivojlanishiga hamda chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish jarayonida sifatini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Fedorenkov, A.Kimaev, AutoCAD 2002: «Prakticheskiy kurs», Moskva, «DESS SOM», 2002g., 340 ÷ 374 betlar.
2. B. Barchard va boshqalar. «Vnutrennyy mir AutoCAD» (Inglizchadan tarjima) Kiev: DiaSoft 2000. III-bob.

GRAFIK DASTURLAR VOSITASIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Xalimova Sh.A. - dotsent v.b. TDTU,
Saydaliyev S.S. p.f.n. professor TAQU.*

Annotasiya. Maqolada maktab ta'limida grafik dasturlardan foydalanish orqali o'quvchilarning grafik savodxonligi darajasini oshirishning integrativ asoslariga oid tahliliy materiallar keltirilgan.

Аннотация. В статье представлен аналитический материал, касающийся интегративных основ повышения уровня графической грамотности учащихся средствами использования графических программ в школьном образовании.

Annotation. The article presents analytical material concerning the integrative foundations of improving the level of graphic literacy of students by means of using graphic programs in school education.

Kalit so'zlar: grafik dastur, grafik material, grafik savodxonlik, integrativ asos, qo'llash, tatbiq etish, geometriya o'quv fani, chizmachilik o'quv fani, sifat, samaradorlik.

Ключевые слова: графическая программа, графический материал, графическая грамотность, интегративная основа, применение, реализация, учебная дисциплина по геометрии, учебная дисциплина по рисованию, качество, эффективность.

Keywords: graphic program, graphic material, graphic literacy, integrative basis, application, implementation, academic discipline in geometry, academic discipline in drawing, quality, efficiency.

Davlat dasturi asosida mamlakatimizda olib borilayotgan ta'limiy islohotlar tizimida chizma geometriya va muhandislik grafikasining ham munosib o'rni borligi va ularga hukumatimiz alohida e'tibor bilan qarayotganligining e'tirofidir.


“Chizmachilik” fani konstruktiv-handasaviy tayyorgarlikni ta'minlaydi, hamda umumnazariy fandan, umummuhandisaviy grafika ishlariga, jumladan ixtisoslik fanlarni o'rganishda umummuhandislik fani poydevori bo'lib xizmat qiladi. Chizmachilik fanini o'qitish va zamonaviy informatsion texnologiyalarni qo'llash yordamida talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini beruvchi o'quv vositalari bo'lib, o'ziga xos didaktik va uslubiy asoslarga egadir. Chizmachilik fani uchun ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim samaradorligini oshirishda xizmat qiladigan uslubiyotlarni ishlab chiqish dolzarb masalalaridan biridir. Fan va texnikaning, sanoat va ishlab chiqarishning rivojlanishida texnikaviy ma'lumotlardan iborat muhim hujjat –

chizmalarning ham o'ziga xos o'rni bor. Zero, bu turdagi hujjatlarning tarkibiy qismi – chizmalarsiz birorta ham ishlab chiqarish sohasi mavjud bo'la olmaydi. Shuning uchun O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimida chizmachilik fani o'qitiladi. Chizmachilik o'quv fanining ta'limiy ahamiyati bir o'quv fani doirasida qo'llanilmaydi. Chunki grafik shakldagi har xil o'quv materiali boshqa fanlar tarkibida ham qo'llaniladi. Shuning uchun ham chizmachilik o'qituvchisi o'z sohasidagi butun kompleks bilimlarga ega bo'lishi, xususan, grafik tasvirlarning nazariy asoslari, geometrik yasashlar, GOST tomonidan qabul qilingan chizmani bajarish va taxt qilishning umumiy qoidalari yuzasidan kasbiy-pedagogik kompetensiyaga ega bo'lishi lozim..

Maktab ta'limidagi chizmachilik o'quv fani o'quvchilarga chizmalarni o'qish malakasini hosil qilish va grafik tasvirlar yasashning o'rnatilgan tartibdagi usullari haqidagi nazariy asoslarini o'rgatish hamda ularni bajarish bo'yicha amaliy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu fan o'quv dasturiga binoan, 8-sinfda to'g'ri burchakli proeksiyalar tizimidagi chizmalar, aksonometrik proeksiyalar va texnik rasmlar, chizmalarni o'qish va bajarish usullari, eskizlar, 9-sinfda esa kesimlar va qirqimlar, chizmada zaruriy va yetarli tasvirlar sonini aniqlash, detallar birikmalarining chizmalari, yig'ish chizmalari, qurilish chizmalari haqida bilimlar beriladi (2). O'quvchilarning grafikaviy bilimlarini shakllantirishning bu tarkibiy elementlari o'rta maktab bitiruvchisidan o'z grafikaviy tayyorgarligidan bevosita ishlab chiqarishdagi faoliyatida amaliy qo'llay olishni talab etadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda chizmachilik o'qituvchisining zimmasidagi mas'uliyatning murakkabligini shu omil bilan izohlash mumkin, chizmachilik fani 8 – 9 sinflarda haftasiga bir soatdan o'qitiladi. O'qituvchi shu vaqt ichida o'quvchilarga chizmachilikning nazariy asoslarini berib ulgurishi va grafik ishlar bajartirib, ularni mustahkamlashi kerak. Ko'p hollarda bularga vaqt yetmay qoladi. Shunday ekan, chizmachilik o'qituvchisi berilgan vaqtdan unumli foydalanish yo'llarini o'rganishi va o'quvchilarning grafik ta'lim samaradorligini oshirishga yordam bera oladigan qo'shimcha imkoniyatlarni qidirib topishi lozim [1].

Boshqa fanlarni o'qitish jarayoni chizmachilikda olingan bilimlar va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida foydalanish shunday imkoniyatlardan biri bo'lishi mumkin. Shularni nazarda tutgan holda biz 9-sinf geometriya darslarida turli tasvirlardan foydalanishning o'ziga xosligi, o'qitiladigan mavzularning tahlili shuni ko'rsatadiki, uning mazmunida grafikaviy tasvirlar shakldagi materiallar muhim o'rin egallaydi (1-rasm).



1-rasm

Geometriya darsligi mazmunini tahlil qilish natijasida darslikda 13 xil tasvir turlari qo'llanilganligi, jami 453 tasvir ishlatilganligi aniqlandi. Shundan 367 tasi (81,0%) tekis planimetrik tasvirlar, 27 tasi (6,0%) perspektiv tasvirlar, 16 tasi (3,6%) To'g'ri burchakli Dekart koordinalari sistemasidagi chizmalar, 10 tasi (1,9%) jadval, 8 tasi (1,7%) to'g'ri burchakli izometrik proeksiyalar, 5 tasi (1,1%) buyumning tekislikdagi bitta proeksiyasi, 6 tasi (1,3%) foto tasvirlar, 4tasi (0,8%) qiyshiq burchakli frontal dimetrik proeksiyalar, 4 tasi (0,8%) sxema va sxematik rasmlar, 3 tasi (0,6%) joy xaritasi, 2 tasi (0,4%) buyum (detal) eskizi, 2 tadan (0,4%) stereometrik yaqqol tasvir va turli tasvirlarni tashkil qiladi [2].

Bu tasvirlarni to'g'ri bajarish hamda ularni to'g'ri o'qib tushunish uchun geometriya o'qituvchisi chizmachilikda qo'llaniladigan GOST qoidalari – chiziq turlari, shriftlar, o'lcham qo'yish qoidalari, masshtablar, aksonometrik proeksiyalar,

ko‘rinishlar haqidagi ma’lumotga ega bo‘lishi zarur. Universitetlar va pedagogika institutlarining fizika-matematika fakultetlari, matematika yo‘nalishlarida chizma geometriya hamda chizmachilik o‘qitilmaydi. Shuning uchun maktabdagi geometriya o‘qituvchilari chizmachilik qoidalarini yaxshi bilmaydi. Demak, chizmachilik o‘qituvchisi boshqa fan o‘qituvchilariga, jumladan geometriya o‘qituvchilariga chizmachilikda o‘tiladigan mavzular, grafik shakldagi boshqa materiallarni boshqa fanlarni o‘qitishda qo‘llanish tartiblarini, GOST qoidalarini tushuntirib berish borasida hamkorlik qilish yaxshi samara beradi. Ayniqsa umumiy xarakterdagi quyidagi mavzularga alohida e’tibor qaratish lozim: . Chizmachilikka oid asosiy GOSTlar, formatlar; chizmalarda yozuv, (shriftlar); chiziq turlari; o‘lcham qo‘yishning asosiy qoidalari; ko‘rinishlar. Asosiy ko‘rinishlar, qo‘shimcha ko‘rinishlar va ularni joylashtirish; qirqim va kesimlar. Kesimlarning joylashtirilishi bo‘yicha turlari va ularni belgilash; oddiy va murakkab qirqimlar. Ularning tasvirlanishi va belgilanishi. Ayrim joy qirqimi, ko‘rinish va qirqimni qo‘shib tasvirlash holatlari; aylanani aksonometriyada tasvirlanishi (izometriya va qiyshiq burchakli frontal dimetriyada). Aylananing aksonometriyasi bo‘lgan ellips o‘rniga chiziladigan to‘rt markazli ovalni yasash; buyumlarning aksonometrik proeksiyalarini yasash qoidalari bo‘yicha texnik rasmlarini qirqimi bilan tasvirlash. Texnik rasmlarda buyum hajmini bo‘rttirib tasvirlash usullari (shtrixlash, shrafirovkalash va hokazo); rezba. Rezbali detallar va rezbali birikmalar; buyumning yig‘ish chizmasi haqida tushuncha; sxemalar haqida tushuncha kabi mavzularga bir soatdan vaqt ajratilishi belgilab qo‘yilgan. Nisbatan murakkabroq bo‘lgan mavzu – aksonometrik proeksiyalar. Aksonometrik o‘qlarning yo‘nalishi. Aksonometrik o‘qlarni yasash. Aksonometrik o‘qlar bo‘yicha buzilish koeffitsientlari. Aksonometrik proeksiya turlari mavzusiga ikki soat, jami 14 soat hajmda o‘qitilishi nazarda tutilgan. Demak, jami 14 soatdan iborat bo‘lgan 13 mavzuda turli grafik shakldagi o‘quv materiallari o‘qitiladi.

Yuqorida zikr etilgan tahlilning ta’limiy ahamiyati shundan iboratki, u yoki bu o‘quv fani mazmunini o‘quvchilarga tushuntirishda chizmalardan grafik vosita sifatida foydalanilishi egallanayotgan bilimlarning onglilik darajasini, tabiiyki, grafik ta’lim samaradorligini oshirishni ta’minlaydi. Xususan, geometriya darslarida chizmachilikda o‘tilgan qonun-qoidalardan integrativ tarzda foydalanish bir fan negizida o‘zlashtirilgan bilimni ikkinchi bir fan doirasida oson va puxta o‘zlashtirish imkonini beradi. Xuddi shu ta’limiy prinsipni boshqa o‘quv fanlarini o‘qitishda ham samarali qo‘llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Metodika obucheniya chercheniyu. Pod.red. Vasilenko Ye.A.–M.: 1990.

2. Odilov P., Rahmonov I., Hurboev N., Bo‘ribekov A. Chizmachilik. 8–9-sinflar uchun darslik. – T.: 2004.
3. Haydarov B., Sariqov E., Qo‘chqorov A. Geometriya. 9-sinf uchun darslik. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006.

AXBOROTLASHTIRILGAN TA’LIM MUXITIDA BO’LAJAK MUTAXASISLARNI FAOLIYATGA TAYYORLASHDA MUSTAQIL TA’LIMNING ROLI

Renessans ta’lim universiteti
“Pedagogika va filologiya”
кафедраси dosenti Маҳкамова М.Ю.

Annotatsiya: Maqolada ta’lim jarayonida mustaqil ishlashning mohiyati, shakllari, turlari, o‘rni va vazifalari ko‘rsatilgan hamda ularning ta’lim ishtirokchilarida namoyon bo‘layotgan kompetentliklarga ta’siri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, bilim, ko‘nikma, mahorat, fikrlash, ma’lumot, kreativ fikrlash, tahliliy fikrlash, tanqidiy fikrlash.

Абстракт

В статье показаны сущность, формы, виды, роль и задачи самостоятельной работы в образовательном процессе и даны комментарии об их влиянии на компетенции участников образования.

Ключевые слова: самостоятельное образование, знания, умения, навыки, мышление, информация, творческое мышление, аналитическое мышление, критическое мышление.

Abstract

The article shows the nature, forms, types, role and tasks of independent work in the educational process and comments on their influence on the competences of the participants of education.

Key words: independent education, knowledge, skills, skills, thinking, information, creative thinking, analytical thinking, critical thinking.

Hozirgi davrda ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish, talabalarning mustaqil ravishda o‘quv materiallarini o‘zlashtirishi, ularning kasbiy o‘rishini rag‘batlantirish, ularda ijodiy faollikni tarbiyalashda pedagoglarning mas’uliyatini oshirish zarur. Talaba va pedagog mustaqil ta’lim ularning manfaati uchun olib borilishini tushinishi kerak. Talaba bajarayotgan mustakil ish pedagogi uchun emas, balki o‘zi uchun, uning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta’minlashning asosiy omili

ekanligini tushunishi kerak. Talaba olayotgan bilim natijasiga o'zi mas'ulligini anglashi zarur. Pedagog esa mustaqil ta'lim fakatgina talaba uchun emas, balki o'zi uchun ham kerak ekanligi, o'zini ishini osonlashtirish, mustaqil fikr yurita oladigan talabalar bilan mulokotda bo'lib, o'z bilimini boyitish va kelajda xizmat pog'onalarida o'sishini ta'minlashini anglashi lozim.

O'quv jarayoni sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli so'zsiz katta. Pedagogdan tayyor ma'lumot olgandan ko'ra mustaqil faoliyat jarayonida olgan bilimni o'zlashtirish nisbatan ancha yaxshi natija beradi.

Talaba va pedagog mustaqil ta'lim ularning manfaati uchun olib borilishini tushunishi kerak. Talaba bajarayotgan mustaqil ish pedagogi uchun emas, balki o'zi uchun, uning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlashining asosiy omili ekanligini tushunishi kerak. Talaba olayotgan bilim natijasiga o'zi mas'ulligini anglashi zarur.

Pedagog esa mustaqil ta'lim faqatgina talaba uchun emas, balki o'zi uchun ham kerak ekanligi, o'zini ishini osonlashtirish, mustaqil fikr yurita oladigan talabalar bilan muloqotda bo'lib, o'z bilimini boyitish va kelajda xizmat pog'onalarida o'sishini ta'minlashini anglashi lozim.

Mustaqil ta'limni faollashtirmasdan oliy ta'limda talabalarni samarali o'qitishni ko'z oldimizga keltirish qiyin.

Hozirgi davr mutaxassisidan yuqori darajadagi tayyorgarlik, mustaqil ravishda qarorlar qabul qila olish, belgilangan vazifalarni bajarish uchun ko'p ma'lumotlar orasidan kerakligini tanlab olish va bu ma'lumotlarni qayta ishlay olish talab qilinadi.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, har bir pedagog faqatgina o'zining fanini asosiy deb hisoblamasdan, talabaning mustaqil ta'limga ajratilgan vaqti o'quv rejadagi barcha fanlar uchun ajratilganligini esdan chiqarmasligi kerak, aks holda talabalarga keragidan ortiq berilgan vazifa mustaqil ta'limdan kuzatilgan ijobiy natija o'rniga, aksincha salbiy natijaga olib kelishi mumkin.

Talabalarining mustaqil ta'limidan asosiy maqsadlar quyidagilardan iboratdir:

- yangi bilim olish usullarini egallash, jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- auditoriyadagi mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va tartibga solish;
- me'yoriy-huquqiy aktlar, ma'lumotlar va maxsus adabiyotlar bilan ishlashni o'rganish;
- o'quv materiallarini mustaqil o'rganish;
- faolligi, bilim orttirishi, ijodiy tashabbusi, mas'uliyati va tartibligini rivojlantirish;
- olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishni shakllantirish;
- mustaqil fikr yuritish, o'z-o'zini o'stirish, o'zining rejasini amalga oshirishni shakllantirish;

-tadqiqot qila olish qobiliyatini rivojlantirish.

Talabalar mustaqil ta'limining asosiy vazifasi mustaqil ravishda ma'lumotlar topish usuli bilan bilim olishni rivojlantirish, o'quv jarayoniga ijodiy yondashishga faol qiziqishni shakllantirishdan iborat.

Talabalar mustaqil ravishda kurs ishlari, kurs loyihasi, bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlayotganlarida qo'yilgan muammolarni chuqur tahlil qilib, o'zlarining mustaqil asoslangan fikr va xulosalarini chiqarishlari kerak...!!!

Hozirgi kunda kompyuter bilimlariga ega bo'lish zamon talabiga aylandi, bunga sabab kompyuter savodxonligiga ega bo'lgan kadrlarga bo'lgan talabning kundankunga ortib borayotganligidir.

Talabalarning zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalari bilan ishlay olish malakalarini egallashlari, dunyoda bo'layotgan voqea-hodisalardan xabardor bo'lishlarida, o'z bilim darajalarini yanada boyitib borishlarida Internet tarmog'i bilan ishlay olish malakalarini egallashgan bo'lishlari muhim hisoblanadi.

Talabalarning fanlardan mustaqil ta'limni tashkil etish va ularning mustaqil bilim olishlari uchun dastlab, ularning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda kompyuter texnologiyasidan foydalanishni amalga oshirish uchun avval quyidagi ishlarni bajarish zarur:

1.Mavzudagi asosiy tushunchalarning o'zlashtirilish sifatini baholash mezonini ishlab chiqish.

2.Mavzudagi asosiy tushunchalarning talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirishlari uchun maxsus kompyuter dasturlarini ishlab chiqish.

3.Talabalarning fandan mustaqil bilim olishiga zarur, kerakli kompyuter jihozlarini tayyorlash.

4.Oliy o'quv yurtlarining o'quv-tarbiya jarayonida talabalarning o'zlashtirish darajalariga mos ravishda bilimlarni egallashida zamonaviy kompyuter dasturidan foydalanishning samarali yo'llarini izlab topish.

Talabalar mustaqil ish topshiriqlarini tayyorlashda, bajarishda quyidagilarga amal qilishlari lozim:

- ma'ruza mashg'ulotiga oid mustaqil ta'lim topshiriqlarini tanlashda ularning auditoriyada o'rganiladigan mavzular bilan uzviylikini ta'minlash;
- uyda mustaqil ravishda o'rganiladigan mavzularning va o'rganilishi lozim bo'lgan asosiy savollarning aniq bayon etilishiga erishish;
- amaliy mashg'ulotlar topshiriqlarini o'rganilayotgan nazariy o'quv materiallari bilan mutanosib bo'lishini hisobga olish;

- amaliy ishlarni, mustaqil ishlarni bajarishga oid mavjud metodik ishlanmalar yaratilganligini hisobga olish;
- mustaqil ravishda yechilishi lozim bo'lgan misol va masalalarning aniq ro'yxatini tuzish;
- mustaqil ish topshiriqlarining axborot ta'minoti, jumladan adabiyotlar ro'yxati, betlari ko'rsatilgan holda, elektron o'quv qo'llanmalar va Internet manzili ko'rsatilishiga erishish va h.k.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, talabanning bilish faoliyati, ya'ni qobiliyati uning aqliy rivojlanish darajasi bilan o'lchanadi. Bilish qobiliyatini aniqlaydigan mezonga o'zlashtirish tezligi, tafakkurlash jarayoni egiluvchanligi va tafakkurning aniq komponentlari kiradi. Bilish tushunchasi umumiy holda aqliy qobiliyatlar tushunchasiga mohiyati jihatidan yaqindir. Umumiy aqliy qobiliyat talabanning o'quv faoliyatida talab etiladigan barcha qobiliyatlar majmuasini o'zida mujassamlashtiradi. Bunga talabanning o'quv materialini xotirasida saqlab qolish, ijodiy fikrlash, mantiqiy amallar bajarish qobiliyati kabilar kiradi. Bu qobiliyatlar psixologiyada turli sinflarga ajratiladi va har xil talqin qilinadi.

O'quv ishlarining har qanday shakli o'quv-malaka talab qiladi, masalan, o'qituvchi ma'ruzasini eshitish, amaliy topshiriqlarni bajarish, test topshiriqlari bilan ishlash, mustaqil ishlash malakasi kabilar.

O'quv jarayoni davomida ma'ruza mashg'ulotlarini o'tishda ko'pgina pedagoglarimiz "Qanday metoddan foydalanish mumkin?" degan muammoga duch kelishadi. Ko'p hollarda bu muammo ma'ruza metodidan foydalangan holda yechiladi. Dars jarayonida ta'lim metodlarini tanlash mavzuning mazmuniga bog'liq bo'ladi va o'ziga xos mazmunini bayon qilish texnologiyasi tanlanadi, bunda talabalarning psixologik tayyorgarliklari, bilimlarni o'zlashtirish va fikrlash darajalari, har xil ta'lim bosqichi uchun mos metodlari hisobga olinadi. Talabalar o'quv jarayonida mustaqil faoliyat olib borish uchun pedagogdan quyidagi tayyorgarlik ishlari olib borish talab qilinadi: fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmua tayyorlash va o'qitish muhitini loyihalash; o'quv dasturini yaxshilash, ya'ni mustaqil ish mavzularini kiritish, mustaqil ishni mustaqil ta'limga namunaviy topshiriqlarni kiritish bilan muntazam ravishda nazorat kilib borish; talabalarning har tomonlama bilimdonligi, malakaviy bilimni rivojlantirish; talaba mustaqil ishni bajarayotganda qancha soat va ball berilishini hisoblash; o'qitishning usul va vositalarini ko'rsatgan holda texnologik xarita ishlab chiqish.

Pedagog maslahatchi, ekspert, tyutor va moderator vazifasini bajaradi, ya'ni talabani qo'llab-quvvatlaydi. Pedagog talabaga ma'lumot, texnologik va psixologik nuqtai nazardan maslahat beradi. Shunday talabalar borki, ular mustaqil ravishda faoliyat olib bora olmaydilar, bu holatda pedagog moderator vazifasini amalga

oshiradi. Moderatorlik talabaning ichki imkoniyatlarini ochishga karatilgan bo'lib, ichki qobiliyatlari va yashiringan imkoniyatlarini ochishga karatilgan. Moderatorning asosiy vazifasi talabaning faoliyatini faollashtirish, ulardagi muammolarni aniqlashdir. Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishda mustaqil o'rganishga olib chiqilayotgan o'quv materiallari hajmi va mazmunining tuzilishiga katta e'tibor berish bilan bir qatorda uslubiy ta'minlashga katta e'tibor berish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. xalq so'zi.-2017.-8-fevral.-№28.

2. Iminov A.A., Djamatov M.X. "Boshqaruvda axborot texnologiyalari" ma'ruzalar matni. Toshkent-2017.

3. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. "Axborot texnologiyalari" O'quv qo'llanma. T.: "NOSHIR"-2009.

4. Aripov A.N., Iminov T.K. "O'zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi menejmenti masalalari" Monografiya -T.: Fan va texnologiya, 2005.

5. Kadirov A.M., Shakirova K., Innovatsionnyy potentsial povыsheniye konkurentosposobnosti natsionalnoy ekonomike. // Sbor.2018.

6. Maxkamova M.A. Razvitiye i upravleniye innovatsionnoy deyatelnostyu predpriyatiy. T.: ALOQACHI NMM, 2006.

5-SHO'BA: PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

*Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Aripova Nasiba Atxamovna, raxbar
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Evatov Rahmatulla O'ralboy o'g'li
talaba*

Annotatsiya: Maqolada respublikamiz Professional ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning ustuvor yo'nalishlari qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor

yoʻnalishlari va bugungi kunda raqamli texnologiyalarining bir qator ijobiy imkoniyatlari va taʼlim muassasalarida raqamli texnologiyalarni tadbiq etish sifatining samarali yoʻllari haqida.

Аннотация: В данной статье речь идет о приоритетных направлениях применения цифровых технологий в профессиональных образовательных учреждениях нашей республики, приоритетных направлениях развития образовательного процесса на основе анализа их возможностей, а также ряде положительных возможностей цифровых технологий сегодня и использование цифровых технологий в образовательных учреждениях об эффективных способах реализации качества.

Abstract: This article is about the priority directions of application of digital technologies in professional educational institutions of our republic, the priority directions of the development of the educational process based on the analysis of their possibilities, and a number of positive opportunities of digital technologies today and the use of digital technologies in educational institutions about effective ways of implementing quality.

Kalit soʻzlar: taʼlim jarayoni, raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, oliy taʼlim tizimi, zamonaviy taʼlim, masofaviy oʻqitish, pedagogik texnologiyalar, multimedia vositalar.

Ключевые слова: образовательный процесс, цифровые технологии, информация и связь технологии, система высшего образования, современное образование, дистанционное обучение, педагогические технологии, мультимедийные инструменты.

Key words: educational process, digital technologies, information and communication technologies, higher education system, modern education, distance learning, pedagogical technologies, multimedia tools.

Hozirgi kunda taʼlim muassasalarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini oʻquv jarayoniga tatbiq etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Taʼlim muassasalarida har bir fan boʻyicha zamonaviy pedagogik texnologiya asosida ishlab chiqilgan dars rejalari maʼlum darajada oʻqitish sifati va samaradorligini oshirishda alohida oʻrin tutadi. Bu, birinchi navbatda, oʻqituvchi va professor-oʻqituvchilarning professionalligi va ijodkorligi, ikkinchidan, oʻz ishlarida turli xil texnik va axborot texnologiyalari vositalarini qoʻllash bilan bogʻliq.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun dunyo boʻylab barcha taʼlim muassasalarini rivojlantirish uchun yangi vositalarni taqdim etadi. Raqamlashtirish, oʻrganilgan saboq va bilimlarni almashish uchun imkoniyatlar yaratib, odamlarga

ko'proq ma'lumot olish va kundalik hayotlarida yaxshi qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Yaqin kelajakda ta'lim muhitida raqamlashtirish bilan bog'liq katta o'zgarishlar yuz beradi.

Ta'limni raqamlashtirish bo'yicha etakchilik qilib kelayotgan Finlandiyada amaliy fanlar onlayn universiteti (Finnish Online University of Applied Sciences (FOUAS) Campus Arena; 2015 yil) platformasi, Singapurda Aqlli millat sensor platformasi (Smart Nation Sensor Platform; SNSP; 2017 yil), Yaponiyada Cloud Campus (Bulutli kampus; 2017 yil), Web Class (Veb sinf; 2018 yil) ta'lim platformalari orqali sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatishga erishildi. Mavjud yutuqlar Singapur davlatiga Raqamli texnologiyalar bo'yicha raqabatbardoshlik bo'yicha Jahon reytingida 2017-2018 yillarda birinchi hamda ikkinchi o'rinni egallash imkoniyatini yaratdi.

Jamiyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb ijtimoiy zaruriyat ekaniga urg'u bergan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni qayd etib o'tadi: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi" [1].

Raqamli texnologiyalar (inglizcha: Digital technology) - signallarni uzluksiz spektr shaklidaemas, balki analog darajadagi diskret diapazonlarda ko'rsatishga asoslangan texnologiyalar. Boshqacha qilib aytganda, raqamli texnologiya kodlashtirilgan (raqamli signallar yordamida uzatiladigan) axborotlarning diskret holda, ya'ni, uzlukli – qisqa, ammo muayyan vaqt oralig'ida olish imkonini beruvchi texnologiya sanaladi. O'qitish tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish "ta'limni raqamlashtirish" deb nomlanadi. Bunda barcha o'quv hujjatlari – o'quv rejalari, fan dasturlari, tegishli fanlarning ishchi o'quv dasturlari, guruh jurnallari, o'quv materiallari onlayn shaklga o'tkaziladi. Talabalar istalgan sharoitda – axborot resurs markazida, uy sharoitida Internetga bog'lanish orqali masofadan tashkil etilayotgan o'quv mashg'ulotlari, sinov va imtihonlarda ishtirok etishi mumkin.

2020-yil 17 martida Prezidentimizning "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4642-son17 qarori qabul qilinib, mazkur qarorda ta'limning barcha sohalarini raqamlashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi[2]. Shu yil 23 martdan talabalar uchun televizion darslar efirga uzatila boshladii. Bundan tashqari, bir nechta oliy ta'lim muassasalari talabalar va o'quvchilar uchun virtual ta'lim tizimlarini ishga tushirdi. Masalan,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida "O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish" axborot tizimi hamda MOODLE masofaviy ta'lim platformasi ishga tushirildi. Boshqa oliy ta'lim muassasalarining rasmiy veb-saytlarida ham MOODLE, Platonus, Moodle LMS, SRS (Student Records System), MOOC kabi masofaviy ta'lim platformalari hamda mobil telefon va planshetlar uchun Google Classroom, Ereader ilovalari ishga tushirilib onlayn darslar tashkil qilinishi boshlandi. Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarga elektron ta'lim xizmatlarini taqdim etuvchi HEMIS axborot tizimi yo'lga qo'yildi. Axborot tizimi oliy ta'lim muassasalari bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rtasida axborot ko'prigi vazifasini o'taydi hamda oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli xil ma'lumotlar sonini 2020-yil 17 martida Prezidentimizning "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4642-son17 qarori qabul qilinib, mazkur qarorda ta'limning barcha sohalarini raqamlashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi[2]. Shu yil 23 martdan talabalar uchun televizion darslar efirga uzatila boshladi. Bundan tashqari, bir nechta oliy ta'lim muassasalari talabalar va o'quvchilar uchun virtual ta'lim tizimlarini ishga tushirdi. Masalan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida "O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish" axborot tizimi hamda MOODLE masofaviy ta'lim platformasi ishga tushirildi. Boshqa oliy ta'lim muassasalarining rasmiy veb-saytlarida ham MOODLE, Platonus, Moodle LMS, SRS (Student Records System), MOOC kabi masofaviy ta'lim platformalari hamda mobil telefon va planshetlar uchun Google Classroom, Ereader ilovalari ishga tushirilib onlayn darslar tashkil qilinishi boshlandi. Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarga elektron ta'lim xizmatlarini taqdim etuvchi HEMIS axborot tizimi yo'lga qo'yildi. Axborot tizimi oliy ta'lim muassasalari bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rtasida axborot ko'prigi vazifasini o'taydi hamda oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli xil ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularning qog'oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi.

Xo'sh, o'qitish sifatini saqlab qolgan holda ta'lmda raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash uchun nimalar qilish kerak?[3].

Birinchi, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhimi aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborotkommunikatsiya

texnologiyalarining so‘ng yutuqlarini o‘zlashtirishga shartsharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berishimiz lozim.

Ikkinchidan, o‘quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish va axborot resurslari, o‘qitish vositalari va masofaviy o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o‘quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o‘z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O‘zbekistonning barcha oliy ta‘lim muassasalarida qo‘llash.

Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta‘lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta‘minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish.

To‘rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma‘ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog‘liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o‘tkazish.

Beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, video-konferensaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o‘qitish jarayonini amalga oshirish.

Oltinchidan, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo‘llash, raqamli didaktika va raqamli ta‘lim modellarini qo‘llash, o‘qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta‘lim sifatini tushirmagan holda talaba yoshlargabugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz. Biz ta‘lim sifatini oshirish varivojlantirish uchun texnologiyalardan manfaatli foydalanish imkoniyatini yaratishni istadik[5]. Qachonki, planshet ta‘lim olishning bir elementiga aylansa, bolalar o‘qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadi. Bu o‘yin bilan klassik ta‘limni birlashtirishga tengdir. Natijada o‘qish jarayoni yaxshilanadi, o‘zlashtirish, ta‘lim darajasi va kadrlarni tayyorlash samaradorligi oshadi. Bilimli avlod, professional kadrlar — bu jamiyatning keng miqyosda rivojlanishining garovidir.

Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa

yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi”. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish joizki ta’limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bir tomondan muayyan qiyinchiliklar va muammolarni keltirib chiqarsada boshqa tomondan turli yutuqlarni qo‘lga kiritilishiga sabab bo‘ladi. Bu jarayon induvidial salohiyatli o‘quvchilarning yanada rivojlanishi holatida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-martdagi “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4642-sonqarori.
3. D. Babaraximova. Ta’lim tizimida axborot texnologiyalarini qo‘llashning ilmiy pedagogic masalalari; 6 – tom 3 – son / 2022 - yil / 15 – mart. <https://bestpublication.org/index.php/pedg/issue/view/81>
4. Begimkulov U.Sh. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta’limni tashkil etish //Pedagogik ta’lim jurnali. – Toshkent, 2004. – № 1. B. 25-27.
5. Yuldashev U., Raxmatullaeva Sh.K. Internet asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2002. – 28 b.

TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARI KREDIT-MODUL TIZIMIDA TA’LIM SIFATINI TRANSFORMASIYA QILISH VOSITASI SIFATIDA.

*Aliyev Islambek Tursinbayevich
Renessans ta’lim universiteti dotsenti, p.f.n.*

Mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy hayotda tub o‘zgarishlar, jumladan ta’lim sohasidagi islohotlarda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi muhim o‘rin tutadi. Har bir mamlakatning rivojlanishi yoki

aksincha, inqirozga yuz tutishi mamlakatdagi ta'lim tizimining qay darajada taraqqiy etganiga bog'liq.

Kelajak avlodning bilimli va barkamol bo'lib yetishishi, ularga berilayotgan imkoniyatlarning dunyo bo'ylab keng qamrovli bo'lishini ta'minlash maqsadida mamlakat ta'lim tizimiga yangi ta'lim texnologiyalari, xorij tajribalari joriy etilmoqda va mos tarzda o'zgarishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, 1999 yil iyun oyida Italiyaning Bolonya shahrida dunyoning 29 ta mamlakati o'rtasida imzolangan, ayni paytda dunyoning 48 ta mamlakati ishtirokchisiga aylangan Bolonya deklaratsiyasiga O'zbekistonning qo'shilishi va ta'lim tizimiga kredit-modul tizimini joriy etish borasida ishlarning boshlab yuborilishi mamlakat oliy ta'lim tizimida zamonaviy o'zgarishlar davrini boshlab berdi.

Kredit-modul tizimi dunyoning ilg'or mamlakatlari oliy ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan tizimdir. Ushbu ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri o'quv jarayonida asosiy e'tibor talabalarning mustaqil ishlashiga qaratilganligidir. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, o'quv-uslubiy ta'minotini shakllantirish va takomillashtirib borish, "o'qituvchi \leftrightarrow talaba" mexanizmini doimiy harakatini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish va ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga strategik masalalar sifatida alohida ahamiyat berilgan. Jumladan, Konsepsiyada "mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" vazifasi belgilangan. Shuningdek, unda ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash, malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarga ega bo'lishi, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga erishishlari mumkinligi ta'kidlangan. Malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish alohida o'rin tutadi. Hozirgi kunda o'quv rejalarda talabalar o'quv yuklamasining hajmi auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta'limning nisbati bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida 40/60 foiz

nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha, magistratura mutaxassisliklarida 30/70 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha ajratilgan. Ta'lim dasturining o'zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masala va muammolari mustaqil ta'lim orqali o'rganilishi lozim. Mustaqil ta'lim talabalar tomonidan u yoki bu fan bo'yicha dastur materiallaridan bir qismining mustaqil o'zlashtirilishi hisoblanadi.

Tez suratlarda rivojlanib borib borayotgan dunyo, shuningdek ilm-fan, ishlab chiqarish oliy ma'lumotli mutaxassisdan butun hayoti davomida o'z bilimlarining oshirishni va doimiy boyitib borishni talab etadi. Buning uchun esa bilimlarni mustaqil egallay olish kerak. Bu narsaga talabalarimiz tayyormi? Talabalar mustaqil ishlashni va o'qishni to'g'rirog'i xoxlamaydi yoki bilmaydi. Ularga maktabda buni o'rgatmagan. Ayniqsa, ular uchun mutaxassislik fanlaridan mustaqil bilimlarni egallashlari juda qiyin kechadi. Bundan tashqari OTM o'qituvchilari ham talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil eta oladimi? Ular ham mustaqil ta'limni qanday tashkil etishdan xabardormi degan savol ham paydo bo'ladi?

Bu masalada mavjud me'yoriy hujjatlarga murojaat qilamiz. Asosiy hujjat Oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning kredit-modul tizimiga o'tishida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi №824-son qarori dasturulamal bo'lib xizmat qiladi²³. Bu qaror bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida» gi Nizom hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida juda muhim me'yoriy hujjat bo'lib, u asosida barcha oliy ta'lim muassasalari kredit modul tizimida ishlamoqda. Bu yerda hamma tushunchalar ochib berilgan. Faqat talabaning usha kreditlarni topshlashi, ayniqsa mustaqil ta'limga ajratilgan shuncha soatni qanday o'zlatirilishi, talabalarning mustaqil ta'limi qanday tashkil qilinishi va qanday ko'rinishda bo'lishi va bu jarayonga qancha kredit berilishi ko'rsatilmagan. Shu kunga qadar juda ko'p mualliflar bu masalaga har xil yechim berishga harakat qilgan. Masalan, U.Mehmonov har bir «*Fandan kredit yig'ish kundalik yo'l xaritasi*»ni ishlab chiqqan va uni taklif etgan. Lekin u yerda ham muallif qanday turdagi topshiriqlar berish kerakligi va ularning mazmuni to'g'risida ma'lumot keltirilmagan²⁴. Bu muammoga yana bir manbada talabalar mustaqil ishlarining

²³ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 31 декабрдаги «Олий таълим муассасаларида таълим жараёнини ташкил этиш билан боғлиқ тизимни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 824-сон қарори. - lex.uz/docs/-5193564

²⁴ Махмонов У.А. Кредит-модуль тизимида талабалар билимини баҳолашнинг ўзига хос хусусиятлари. Журнал. Замонавий таълим / Современное образование. Тошкент. 2021.-№ 3 (100) .-Б.12-18.

mazmuni va turlari taklif etilgan, lekin bu talabalar mustaqil ishini qanday baholash kerakligi va ularga qancha kredit-ajratilishi to‘g‘risida fikrlar bildirilmagan²⁵.

Kredit-modul tizimida asosan talabaning ko‘proq mustaqil ishlashiga ahamiyat qaratilgan. Ma’lumki, kredit-modul tizimiga o‘tgan OTMlarda berilgan o‘quv yuklamasining qariyb 60%ga yaqini talabalarining mustaqil ishiga ajratilgan. Bu jarayonni qanday tashkil etish bo‘yicha respublikamiz OTM larida haligacha bir to‘xtamga kelinmagan. Har bir OTMsi o‘z imkoniyatlari, moddiy texnik bazasi va professor-o‘qituvchilarining salohiyatidan kelib chiqqan holda tashkil etib kelmoqda. Internet tarmog‘idan oliy ta’lim muassasalarining kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish bo‘yicha ma’lumot izlaganimizda Jizzax davlat pedagogika institutining 2021 yili tasdiqlangan “Talaba va magistrantlarning mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo‘riqnoma”si mavjudligin ko‘rishimiz mumkin. Mazkur yo‘riqnomada Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlar bo‘yicha tahsil olayotgan va Tabiiy va aniq yo‘nalishlar bo‘yicha tahsil olayotgan bir talabaga to‘g‘ri keladigan mustaqil ta’lim me’yorilari jadval ko‘rinishida berilgan. Ushbu jadvalda topshiriqlar bir talabaga qancha muddatga berilganligi ko‘rsatilmagan va referat, dars ishlanmasi, test tuzish, topshiriqlar va ko‘rgazmali materiallar tayyorlash kabi mustaqil ish uchun topshiriqlar keltirilgan. Ushbu yo‘riqnoma ham talabaning mustaqil ta’limini tashkil etishga qo‘yilgan talablarga to‘liq javob bermasligini ko‘rishimiz mumkin. Berilmoqchi bo‘lgan topshiriqlar talabaga ijodiy fikrlashga, o‘z ustida ishlashga, kreativlikka undashiga ishonchimiz komil emas. Bundan tashqari Namangan davlat universitetining “Talabalarining kredit-modul tizimi buyicha ta’lim natijalarini baholash va nazorat qilish tartibi” to‘g‘risidagi nizomida ham O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda qabul qilingan “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018 yil 9-avgusta qabul qilingan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 19-2018-sonli bo‘yruqidagi mavjud boblar ketma-ketlikda joylashtirilgan bo‘lib unda ham ko‘zga ko‘rinadigan yangilik topa olmaysiz.

Bu muammoni hal etish uchun albatta rivojlangan davlatlar tajribasiga e’tibor berishimiz kerak bo‘ladi. Ya’ni boshqacha qilib aytganda me’yorlashtirishimiz kerak.

²⁵ Усмонов Б.Ш., Хабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртларида ўқув жараёнини кредит-модул тизимида ташкил қилиш. Ўқув қўлланма. – Тошкент, ТКТИ, 2020. - 120 бет.

Birinchidan, zamon talabiga javob beradigan talabalarning mustaqil ish topshiriqlarini ishlab chiquvchi professor-o‘qituvchilar zarur. Agar kafedrada shunday professor-o‘qituvchilar yo‘q bo‘lsa ularni tayyorlashimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ikkinchidan, talaba semestr boshida fanning soatidan kelib chiqqan holda nechta mustaqil ishini topshirishi kerakligini bilishi zarur.

Uchinchidan, talaba semestr boshida mustaqil ta‘lim bo‘yicha berilgan topshiriqlarga qanday muddat qo‘yilganligini bilishi muhim.

To‘rtinchidan, talabalar mustaqil ishining mazmuni qanday talablarga javob berish kerakligini oldindan xabardor bo‘lishi kerak. Demak, berilgan mustaqil ish topshirig‘i ijodiy, original, plagiyat dasturidan o‘tgan, talabaning kreativ fikrni ifodalovchi, boshqa hech bir yerda chop etilmagan bo‘lishi kerak.

Beshinchidan, talabalar mustaqil ishlarini baholash qanday va kim tomonidan amalga oshirilishini talabaga semestr boshida berilishi zarur. Talabalar mustaqil ishlarining Baholash mezonini bo‘lishi kerak.

Oltinchidan, fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalar mustaqil ishlarini toifalarga ajaratish kerak. Albatta ko‘lamiga qarab.

Yettinchidan, talabalarning mustaqil ishlarini platformaga yuklash muddatini o‘zgartirmaslik maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Sakkinchi, qolib ketgan yoki muddatida yuklamagan talabalar keyinchi qayta topshirishgacha platformada ochib berilishi kerak bo‘ladi.

To‘qqizinchidan, talabalarga har semestr boshida shu semestr uchun berilgan mustaqil ishlarni bajarish tartibi, mazmuni, alohida e‘tibor qaratish kerak bo‘lgan joylari to‘g‘risida to‘liq ma‘lumot berilishi shart.

O‘ninchidan, har yili talabalar mustaqil ishlarining mazmuni va mohiyati takomillashtirilib borilishi zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, respublikamizning ta‘lim tizimida dunyoda keng qo‘llanayotgan kredit-modul tizimini to‘liq joriy etishimiz uchun albatta talabalar mustaqil ishini to‘g‘ri tashkil qilishni bilishimiz va u orqali ta‘lim sifatini ta‘minlashimiz kerak bo‘ladi. Uning uchun vazirlik doirasida kredit modul tizimi uchun vaqt e‘yorlari ishlab chiqilishi, shungdek har bir oliy ta‘lim muassasasi doirasi mavjud mutaxassislik va ta‘lim yo‘nalishlarni hisobga olgan holda talabalar mustaqil ta‘limin tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar tayorlanishi zarur bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 824-son qaroriga asosan qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom". Toshkent, 2020 yil
3. Aliyev I T., Kazakbayeva N.A. Kredit-modul tizimida talabani mustaqil ta'lim turlarini o'rganish. Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. Toshkent. 2023. -№3.- B.81-89
4. Aliyev I.T. Kredit-modul tizimida talabani mustaqil ta'lim turlarini tashkil etish. "Qurilishda innovatsion texnologiyalar". Xalqaro ilmiy-texnik anjuman (1-qism). T.: TAQU. 2023. -B-246-252.
3. O'rinov V. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. Qo'llanma. El-yurt umidi jamg'armasi va Respublika Oliy Ta'lim Kengashi bilan hamkorlikda. 2020 y. -64 b.
4. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, TKTI, 2020. - 120 bet.
5. Zaripov L. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish [Matn] : metodik qo'llanma / L. Zaripov, N. Xayitov, Z. Tohirov. – Toshkent: "Sano-Standart", 2023. – 32 b
6. Maxmonov U.A. Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va nazorat qilish texnologiyasi: *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, (1). izvlecheno ot <https://journal.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/980>
7. Maxmonov U.A. Kredit-modul tizimida talabalar bilimni baholashning o'ziga xos xususiyatlari. *Jurnal. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoye obrazovaniye*. Toshkent. 2021.-№ 3 (100) .-B.12-18.

CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Xasanov Muzafar Sodiqovich, TDPU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Talabalarda kompetentlikni rivojlantirish muammosining dolzarbligi asoslangan, talabalarda kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, shaxsning rivojlanish sohasi doirasida subyekt, shaxs va individuallik sifatida talabalarning yosh tavsifi bir tomondan, uning pedagogik-psixologik o'rni va rolini hamda talabalik yillari o'z-o'zini namoyon etishda aks etadigan faol axloqiy tanlov davri ekanligi alohida ajratib ko'rsatilgan.

Tayanch soʻzlar: kompetensiya, kompetentlik, innovatsiya, metod, vosita.

Аннотация: Обоснована актуальность проблемы развития компетентности у обучающихся, уточнены педагогико-психологические особенности развития компетентности у обучающихся, особо подчеркнуто, что возрастная характеристика обучающихся как субъекта, личности и индивидуальности в рамках сферы развития личности является, с одной стороны, периодом активного нравственного выбора, отражающим ее педагогико-психологическую роль, а также самовыражение в студенческие годы.

Ключевые слова: компетентность, инновация, метод, инструмент.

Annotasia: The urgency of the problem of competence development in students is substantiated, the pedagogical and psychological features of competence development in students are clarified, it is emphasized that the age characteristics of students as a subject, personality and individuality within the sphere of personality development is, on the one hand, a period of active moral choice, reflecting its pedagogical and psychological role, as well as self-expression in student years.

Keywords: competence, innovation, method, tool.

Kirish.

Jahonda axborot- texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan tezkor oʻzgarishlar taʼlim tizimi oldiga zamonaviy kadrlarni tayyorlash uchun yuqori sifatli taʼlim berishni taʼminlaydigan murakkab vazifalarni talab etmoqda. Sohada kechayotgan integratsiyalashuv jarayoni sharoitida axborot-texnologiya taʼlimni amalga oshirishga, jahondagi yetakchi oliy taʼlim muassasalarida yaratilgan elektron taʼlim platformalaridan foydalanish nuqtai nazaridan ochiq virtual taʼlim kurslarni yaratishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Obʼektga yoʻnaltirilgan dinamik taʼlim muhiti hamda axborot- texnologik vositalar didaktik muhitni amalga oshirish sohasidagi eng mahsuldor loyihalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiy qism.

Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan keng qamrovli islohatlar negizida oʻsib kelayotgan yosh-avlodni ilmi va maʼrifatli qilish boʻyicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, taʼlim va fan sohasida harbiy taʼlim oʻqituvchilarining yetuk kadrlar boʻlib voyaga yetishlarida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish harbiy pedagog ofitserlar oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13 yanvar kuni Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31-yilligi munosabati bilan vatan himoyachilariga bayram tadbiridagi nutqida “Tarix va kelajak avlodlar oldidagi burch” mavzusida toʻxtalib, “bugungi qutlugʻ ayyomda

bir fikrni alohida takidlamogchiman: harbiy-jangovar salohiyat va yuksak ma'naviy salohiyat O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylanishi zarur. Shonli tariximiz, buyuk ajdodlarimiz, yengilmas sarkardalarimiz jasorati, ularning "Bilagi zo'r-birni yengar, ongi va yuragi zo'r esa-mingni" degan dono o'g'itlari bizga aynan mana shunday hayotiy haqiqiatni o'qtiradi. Shu ma'noda, harbiy ta'lim va yoshlarni-harbiy vatanparvarlik ruhida, milliy o'zligimi, ezgu qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash tizmini yanada takomillashtirish barchamizning eng muhim vazifamizdir" deb takidlaganlari ham bejiz emas. Chunki, bo'lajak harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ularning imkoniyatlarini oshirish, kreativ fikrlashlari uchun pedagoglar jamoasi oldida muhim vaziflar belgilab berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasi[10] da ham kelajak avloda kadalari masalasida to'xtalar ekan: "yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz" degan ushbu murojaati mazmunida ham oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak kadrlarni tayyorlash, avvalo ularning kasbiy mahoratini oshirib borish, kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda ma'naviy barkamol shaxs sifatida kamol toptirishning asosiy ustuvor strategiyalari oliy ta'lim muassasalari pedagoglari oldida turgan eng muhim vazifadir" deb takidlab o'tganlari ham bejiz emas.

Pedagogika fanida taraqqiyotida mazkur muammoga xorij olimlaridan A.V.Xutorskoy[178]ning yondashuvi alohida tan olingan bo'lib, u kompetentlikni «muayyan predmetlar va jarayonlarga nisbatan talab etiladigan va ularga nisbatan sifatli samarali faoliyat uchun zarur o'zaro bog'liq bo'lgan shaxsiy sifatlarning majmui (bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, faoliyat usullari)» sifatida ta'riflaydi. Olim kompetentlikni – bu "inson uning tegishli kompetensiyalarga va faoliyat predmetiga shaxsiy munosabatini qamrab olishi, ularni egallaganligi" natijasidir deb izohlashga ham turtki bo'ladi deb takidlash mumkin. Ushbu tushunchaning etimologik jihatlariga pedagogika izohli-lug'atida shunday to'xtalib o'tiladi, kompetentlik - u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik, ya'ni kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda o'qituvchi pedagogik faoliyati, pedagogik mahorati, pedagogik muloqoti va muayyan qadriyatlar, ideallar hamda pedagogik ong orqali bilim va ko'nikma, malakalarni tashuvchi sifatida shaxsining shaxs bo'lib rivojlanishini belgilovchi, bilim, ko'nikma va malakalarning zarur yig'indisini egallash orqali natijaga erishish mumkin.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalish talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shartsharoitlari quydagi jihatlar iblang ajaralib turadi:

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalish talabalarining ta'lim jarayonida taktik va maxsus tayyorgarliklarda tayanch kompetensiyalarni o'zlashtirilishi va shu asosda ularda kasbiy kompetentligi rivojlanishi;

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalish talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik shartsharoitlarilari o'quv - tarbiya hamda taktik-tayyorgarliklarda o'zlashtirishning maqsadi, ta'lim jarayoni mazmuni, o'qitish shakllari, ta'lim metodlari va innovatsion texnologiyalar asosida kasbiy layoqatini rivojlantirish omillari;

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalish talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etishda maxsus va taktik mashg'ulotlarda kasbiy layoqatini oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy zaruriy pedagogik shartsharoitlari (ta'lim jarayonini tashkil qilish va o'qitish shakllari, ta'lim vositalari va usullari);

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalish talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarni amalga oshirishga tayyorlash orqali kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim jarayonining o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish orqali kasbiy metodik pedagogik ta'sir etish omillari;

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalish talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda talablaning shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari, intilishi, ichki-imkoniyatlari, o'z kasbi yuzasidan hohio' va istaklari, kasbiy ijodkorligi, ahloqiy tarbiyaviy sifatleri orqali o'z-o'zini uzluksiz tarzda rivojlantirib borish imkoniyatlari muhim o'rin egallaydi.

Masalan, chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalish talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kompetentlikka oid ta'riflarni tahlilini ta'limiy yondashuvlarga oid pedagogik jihatlarni guruhlariga ajratamaiz: masalan,

kompetentli talaba o'z kasbiy faoliyatida o'z bilimi va malakalarini rivojlantirishi;

kompetentlik tushunchasining ta'lim jarayonida qo'llanilish darajasi talabalarda o'z kasbiy ko'nikmalari va tajribasi rivojlanishiga turtki bo'ladi;

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalish talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari quydagicha aniqlashtirildi:

- ijtimoiy-psixologik;
- psixologik-pedagogik;
- umumpsixologik ta'sir etish shart-sharoitlari bilan ajratib ko'rsatiladi.

Demak, chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalish talabalarining kasbiy kompetentligi – bu talabaning o'zi tomonidan qo'yilgan maqsadga muvaffaqiyat bilan erishishga imkon berishda o'zi mustaqil qarorlarni qabul qilishi, kasbiy faoliyatini rejalashtira olishi, o'z o'zini rivojlantirishda kasbiy qobiliyat meyorlarini aniqlashtirishga aytiladi.

Ma'lumki, chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalish talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda talabalarining kasbiy faoliyatida muayyan sohada tajribaning egallanishi va faol mustaqil takomillashishi, o'z kasbiga oid aniq vazifalarni yechish uchun usullarni mosini tanlay olishi, o'z harakatlarini to'g'rilash uchun kasbiy faoliyatni amalga oshirishda qayta aloqaning mavjudligi, kasbiy faoliyatda olingan natijalar uchun javobgarlik hissining mavjudligi kabi omillar alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish tadqiq qilishga ehtiyojni shartlovchi bir qator yuzaga kelgan ziddiyatlarni hal etishga qaratilgan.

Bo'lajak harbiy mutaxassislarining tayyorgarligi bilan bog'liq ta'lim vazifalarini hal etish tajribasini o'rganish maxsus fanlarni o'rganishda talabalarda kasbiy kompetenlarning zaruriy darajasini takomillashtirish maqsadida mazkur ziddiyatlarning hal etilishi pedagogika, xususan, harbiy fakultetlar bo'lajak bitiruvchilari tayyorgarligiga tizimli, kompetentli, shaxsga yo'naltirilgan, texnologik yondashuvlar sohasida ilg'or yutuqlarni qo'llash hamda zaruriy darajadagi kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishga yordam beruvchi pedagogik shartlarni yaratish va rioya qilish ko'lamida yotadi.

Adabiyotlar

Abduqodirov A., Pardaev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti.

Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug'ati. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 44 b.

Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta'lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyoti. – T.: Tafakkur, 2014. – 367 b.

Abdurahmonov Q., Rahimova D. va boshqalar. Davlat xizmati personalini boshqarish. – Toshkent: Akademiya, 2002.

Adizova T.M. Boshqaruv muloqoti. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. Bolotov V.A, V.V.Serikov. Kompetentnostnaya model: ot idei k obrazovatelnoy programme. – Moskva: Pedagogika, №10, 2017. - S.8-14.

СЕГОДНЯШНЯЯ КАРТИНА ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

*Ибрагимова Муслимахон Студентка 1 курса
дошкольного образования Денауский институт
предпринимательства и педагогики*

Аннотация: в данной статье рассматривается тема внедрения цифровых технологий и дошкольных образовательных учреждениях, а также вытекающие в ходе данного процесса и другие нововведения, среди которых переподготовка персонала, экономический вопрос в связи с обеспечением материально-технической среды.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровизация дошкольного образования, условия внедрения.

Jismoniy tarbiya yo‘nalishidagi tekshiruvlar, birinchi navbatda o‘quv-tarbiyaviy jarayon hosilasini o‘rganish bilan bog‘liq. Tekshiriladigan ob‘ektning rivojlanish darajasi sifatidagi pedagogic samaradorlik orqali, o‘rganilayotgan metodlar, vositalarning ijobiy va salbiy tomonlari aniqlanadi. Shunday ekan, o‘rganilayotgan ob‘ektlar orasida katta farqlanish mavjudligida ham (masalan, sport mashg‘uloti yoki dars mazmuni, o‘rgatish metodlari) uning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash usullari, barcha vaziyatlarda asosan bir xil (o‘xshash). Ilmiy tekshiruvlardan hosil bo‘lgan ahamiyatli ma‘lumotlarga imkon qadar vaqtni behuda o‘tkazmasdan, ya‘ni tadqiqotchining xotirasi susaymasidan ishlov berish lozim. Faktlarni qayd etishda qanchalik aniqlikka erishilgan bo‘lmasin, olingan ahamiyatli ma‘lumotlarni muayyan tizimga keltirish, qoniqtiradigan tahlil darajasiga tortish va undan keyingina, mazkur xulosalarga o‘rin berish mumkin. Tahlil jarayonida tasodiflar olib tashlanadi va qonuniyatlar aniqlanadi (yoki muayyan qonuniyatga muvofiqlik). To‘plangan ma‘lumotlarga ishlov berish jarayonining ba‘zi hollarida, uning yetishmovchiligi yoki qarama-qarshiligi oqibatida, yakuniy xulosalanishiga o‘rin bermasligi mumkin. Shu sababli, zaruriy qo‘shimchalar kiritish orqali tekshiruvni davom ettirish lozim bo‘ladi. Haqiqatan ham pedagogik jarayon samaradorligi to‘g‘risida fikr yuritish uchun, uning natijaviyligini aniqlashdan farqli boshqa yo‘l mavjud emas. Aslida, umumiy

qoidalarga muvofiqlikda ham jismoniy tarbiya jarayoni natijaviyligi sifatida faqat jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining o'sish darajasi bilan kifoyalanishi, mumkin emas. Chunki, pedagogik tekshiruvlarda ta'lim va tarbiyaning to'liq ta'rifiga ega bo'lish uchun, tibbiy-biologik ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi. Jismoniy tarbiya va sport faoliyatida pedagogik samaradorlik (effekt) tushunchasi sifat va son parametrlarida xarakterlanadi. Hozirgi kunga qadar va ayni paytda samaradorlikning ko'proq sifat tomonlarini baholashga e'tibor qaratilib, uning son (miqdoriy) parametrlarining baholanishi esa, o'ta sodda usullari qo'llanilishi natijasida kuzatilayotgan hodisaning har tomonlama tahlil qilish imkoniyatini sun'iy ravishda cheklashlarga olib keladi. Pedagogik hodisalarning sifat parametrlari tahlili ahamiyatini inkor etmagan holda, miqdoriy tahlil usullari ayni paytda qo'llanilmasa, jismoniy tarbiyaning ob'ektiv qonunlarini to'liq tushunishga imkon bo'lmaydi. Jismoniy tarbiyaning ta'lim va tarbiya jarayon qonuniyatlarini aniqlash, baholash uchun aynan matematik tekshiruv metodlari vositasida yondashilib, pedagogik hodisaning miqdoriy parametrlari tahlil etiladi. Matematikani qo'llash imkoni bo'lgan hodisalarda ilmiy mukammallikka erishish mumkin. Demak, pedagogik hodisalarni miqdoriy tahlil qilish maqsadida matematik statistika usullari qo'llaniladi. Biologik tekshiruv xususiyatlariga muvofiq, matematikaning mazkur bo'limi biometriya deb nomlanadi. Pedagogik o'lchovlarga xos statistik raqamlar, ko'rsatkichlar tushunchasi – biron bir, ko'p yoki kam ko'lamdagi yig'indidan iborat bo'lib u yoki bu ishoralarga ega bo'lgan (masalan, muayyan jismoniy tayyorgarlik darajasidagi sportchi-o'smirlarning soni) son ifodasidagi tekshiruv ob'ektlar to'g'risida ma'lumot bo'lishi mumkin.

Matematik statistika predmeti, statistik tekshiruv metodlarining rasmiy jihatlari bo'lib, o'rganilayotgan ob'ekt xususiyatlariga mutloq befarq. Misol, matematik statistika, suzuvchi va qisqa masofaga yuguruvchining harakatlanish tezligining o'zgarishni bu harakatlanishlarning tabiatida kattagina farq mavjud bo'lsada, butkul o'xshashlikda baholaydi. Real vaziyat taqozoligida qayd etilgan baholash mezonlariga matematik ishlov berilishi orqali faqat pedagogik jarayon

samaradorligining muhokama qilinishi bilan birga, ayni paytda ular harakat ko'nikma va malakalarning umumiy ko'rinishini ifodalaydi, lekin o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi ko'p qirrali bog'liqlikni aniqlash imkoniyati bundan istisno. Aslida, statistik metod (asosida) ishonchlilik o'lchovlarini hisoblashda, tekshiriladigan me'yorlar (katta-kichiklik) taqsimotiga doir ma'lum bo'lgan oddiy qonuniyat joizdir. Lekin, shunga o'xshash ehtimollik hamma vaziyatlarda ham o'zini oqlamaydi. Birinchi navbatda, tabiatiga ko'ra misol keltirilgan tekshiruvlar sifat jihatlarida xarakterlanadi, chunki miqdoriy (son) baholashlarda o'rganilayotgan ob'ektlarning mohiyatiga ko'ra o'zgaruvchanligi ma'lum miqdorda vaziyatni qiyinlashtiradi, ko'p hollarda oldindan kutilmagan (tasodifiy) natijalar kelib chiqadi. Pedagogik tekshiruvlarda matematik statistikadan foydalanish asosiy maqsad emas, balki ta'lim va tarbiyaning ob'ektiv qonuniyatlarini bilishning (aniqlashning) samarali vositalaridan biridir. Pedagogik hodisalarning sifat tomonlarini xarakterlaydigan va ifodalaydigan matematik formulalarning aniq hosilalari kabi har tomonlama, malakali va sifatli tahlil qilingandagina haqiqiy ko'rinishi bilan o'zini oqlaydi.

Yuqorida aytilganlar, miqdoriy tahlil ahamiyatini pasaytirmasdan o'rganilayotgan ob'ektning haqiqiy sifat tomonlarini baholashdan to'g'ri foydalanish muhimligini shartlaydi. Shunday qilib, u yoki bu tekshiruv metodlarini qo'llash natijasida o'rganilayotgan hodisani xarakterlaydigan katta yoki kichik hajmdagi turli miqdoriy o'lchov ko'rsatkichlari tadqiqotchi tomonidan qayd etiladi. Ba'zi tekshiruvlarda o'ta katta hajmdagi raqamli ma'lumotlar bilan ishlashga to'g'ri keladi. Bu vaziyatda tekshiruvchi oldida murakkab vazifa kelib chiqadi, ya'ni to'plangan raqamli ma'lumotlarni to'g'ri baholash asosida amaliy xulosalash. Shu bilan birga tadqiqotchi qanchalik katta hajmdagi raqamli ma'lumotlarga ega bo'lmasin, ular aslida chegaralangan sondagi tekshiruvchilardan olinadi.

O'z navbatida nafaqat tekshirilayotgan guruh qatnashchilari uchun, balki analogik guruh a'zolari ham ahamiyatli bo'lgan xulosalarga o'rin bera oladigan usullarni qidirish zarurati mavjud.

Agarda, yakka insonning o'xshash vaziyatlarda ham jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari ko'p miqdorda o'zgaruvchanligi e'tiborga olinsa, mazkur vazifaning murakkabligi uning oshkoralik xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Demak, bir insonning boshqa insonlardan jismoniy tayyorgarlik darajasiga ko'ra farqlash lozimligi zarurati ham mavjud. Matematik til yordamida ifodalanganda, alohida shaxslar (individ) bilan bir qatorda barcha tekshiriluvchi guruh a'zolariga (bosh to'plam) xos qayd etilgan ma'lumotlarning ishonchliligini belgilash zarur. Nihoyat, o'tkaziladigan barcha tekshiruvlar amaliyotida to'liq kirib borgandagina, uning amaliy mohiyati namoyon bo'lib boradi. Ko'p hollarda tadqiqotchi tomonidan ifodalangan (umumiylikka xos, yuzaki) xulosalari bilan shu yo'nalishda izlanuvchi olimlarni gapirmasa ham bo'ladi va asosan amaliyot talablarini qoniqtirmasligi mumkin. Shuning uchun, har bir xulosa, aynan haqiqiy dalillarga tayanishi talab etiladi. Lekin, tadqiqotchining isbot sifatida olingan barcha miqdoriy ma'lumotlarini namoyon qilmoqchi bo'lsa, o'zaro bog'liqlik asosida xulosalarni asoslash uchun bir kunlik mehnat kifoya bo'lmaydi. O'z navbatida, ilmiy ishning asosiy mazmunini to'la-to'kis bayon etish uchun imkon qadar kamroq miqdorda (tahliliy ma'lumotlar) ko'rsatkichlardan foydalanish kabi yana bir zarurat mavjud. Matematik statistika metodlariga asoslanib, bu turdagi barcha murakkab vazifalar yechimini topishga imkon yaratiladi. Zamonaviy ilmning barcha sohalari, qoidaga ko'ra matematik model shaklida ob'ektiv qonunlarni ochib berish, ya'ni ko'rsatkichlar – aro o'zaro munosabatdorlikni bilish imkoniyatidagi hodisalarning turli tomonlarini xarakterlashga intiladi.

Tadqiqot ko'rsatkichlari o'rtasidagi muayyan muvofiqlikni xarakterlaydigan model funksional bog'liqlik deb nomlanadi. Uning mohiyatida, bir miqdorning har galdagi o'zgarishi boshqa miqdorning ham qonuniyatlarga muvofiq holda o'zgarishini keltirib chiqaradi (ta'minlaydi). Funksional bog'lanishni bilish, bu barcha mazmundagi boshqariladigan erkli o'zgaruvchan miqdor bilan bog'liqlikda o'zgaradigan boshqa miqdor me'yorini oldindan ko'ra bilishdir. Bundan funksional modellashtirishning amaliy va ilmiy qimmatini namoyon bo'lib, tasvirlanadigan

jarayon sur'atini nafaqat oldindan bashorat qila bilish, balki bu jarayonni maqsadli boshqarishga imkon yaratiladi.

Ma'lumki, hattoki barcha o'rganilayotgan omillarni standartlashtirishda anchagina imkoniyatga ega bo'lgan aniq fanlarda ham o'zaro bog'liq bo'lgan tajribalarni o'tkazish shartlarini yaqinlashtirishga imkon bo'lmasligi mumkin. Pedagogik tekshiruvlarda amalga oshirish bundan-da qiyin kechishi tabiiydir.

Muammoli sabablari anchagina bo'lishi mumkin:

1. Ta'lim va tarbiyaning borishiga ta'sir qiluvchi aksariyat omillar mavhum bo'lishi mumkin (misol, tajribada qatnashuvchining shaxsiy hayotidagi qandaydir hodisa yoki uning hayotiy tajribasini to'la e'tiborga olish imkoniyatining cheklanganligi, tashqi muhitning doim o'zgaruvchan sharoitidan insonni butkul yakkalamoq imkoni yo'qligi va boshq.).

2. Qiyosiy tajribalar uchun butkul o'xshash insonlarni saralash imkoniyatining yo'qligi.

3. Tadqiqot va nazorat guruhlarida mashg'ulot o'tkazuvchi mutloq o'xshash pedagoglarni uchratishga imkon bo'lmasligi qatorida bir o'qituvchi tomonidan barcha guruhlarda o'zgarimas kayfiyat bilan dars o'tishning ham iloji yo'q.

4. Tadqiqot qatnashuvchisining sub'ektiv ichki kechinmalari va mashg'ulotga nisbatan munosabatini to'g'ridan-to'g'ri tadqiq etish imkoniyati ham chegaralangan. Insonning tekshiruv ob'ekti sifatida hatti-harakatlarini qandaydir formulaga joylashtirish, o'zining namoyon bo'lishi juda murakkab hodisa sanaladi. Ma'lumki, ushbu qonuniyat, materialistik dialektikaning sabab va oqibatlar aloqadorligini matematik ifodalanish ma'nosida namoyon bo'ladi. Demak, har bir hodisa, yuzaki tasodifiy o'yinlardan hosil bo'lsa-da, ushbu tasodif aslida, doim ichki ko'rinmas qonuniyatlarga bo'ysunadi. Hamma gap, bu qonunlarni ochib bilishdadir

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kerimov F.A., Sportda prognozlashtirish va modellashtirish; Jismoniy tarbiya fakultetlari magistrantlari uchun darslik - Toshkent: 2005

2. Kerimov F.A., Sport sohasida ilmiy tadqiqotlar; Jismoniy tarbiya fakultetlari magistrantlari uchun darslik - Toshkent: 2004
3. N.A. Tastanov., Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati; -Toshkent: 2015.

ТЕХНОЛОГИИ ЦИФРОВОГО ПРОИЗВОДСТВА ДЛЯ ПОЛИМЕРНОЙ ОТРАСЛИ

*Усмонова Дилноза Тулкуновна
старший преподаватель кафедры “Химия и методика ее преподавания”
Абдушукурова Хосият Шавкатовна
студентка 2 курса
Ташкентский Государственный Педагогический Университет им. Низами
(dilnoza.usmonova@yandex.ru),
г. Ташкент*

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы рассматриваются возможности и тенденции развития полимерной отрасли в условиях технологии цифровой производства. Уделено внимание основным направлениям производства полимеров и перспективы применения роботизированных и цифровых решений в промышленности.

Ключевые слова: технологии цифровой производства, цифровая среда, оптимизация процесса, индустрия, отрасли, полимеры, технические знания,

Не так давно цифровизация стала главным трендом в промышленном производстве, впрочем, как и во многих других сферах жизнедеятельности. Она постепенно проникает на предприятия и становится основой многих процессов. Почти каждый шаг — от контроля над производством и до документооборота на предприятии — теперь делается с помощью цифровых технологий.

Цифровизация промышленности — это переход на полностью автоматизированное цифровое производство, которым управляют интеллектуальные системы в режиме реального времени, постоянно взаимодействуя с внешней средой. Суть цифровой трансформации промышленных предприятий заключается в автоматизации процессов и

переводе информации в более доступную цифровую среду, в которой ее быстрее и легче анализировать, чтобы получать точные решения.

Цель цифровизации — сделать производство более гибкими, приспособленным к реалиям современного дня, и конкурентоспособным. С ее помощью предприятие получает возможность точно определять, что нужно рынку в определенный момент времени, и подстраивать под это производство.

Химическая промышленность и нефтехимия играют важную роль в различных сферах нашей жизни. От производства пластиковых изделий до создания новых материалов, эти отрасли требуют постоянного развития и применения современных технологий. В последнее время облачные решения стали неотъемлемой частью различных отраслей промышленности, включая полимерную индустрию. Облачные технологии предлагают удобные и эффективные инструменты для оптимизации процессов на заводах и предприятиях, способствуя росту производительности и снижению затрат.

За последние годы в области химии полимеров были достигнуты большие успехи. Создан ряд оригинальных методов синтеза полимеров в присутствии новых систем инициаторов и катализаторов. Получены новые виды пластических масс, синтетических каучуков и каучукоподобных полимеров, химических волокон и пленок. Быстро развивается производство искусственной кожи, синтетических клеев, герметизирующих составов, компаундов, ионитовых поглотителей. Изучены зависимости химических, механических, электрических и других свойств полимеров от их строения. Значительные успехи достигнуты в области высокотермостойких полимеров.

Улучшение комплекса свойств крупнотоннажных полимеров было достигнуто в результате оптимизации условий синтеза, направленного регулирования молекулярной массы и молекулярно-массового распределения на нано-, микро- и макроуровнях. Значительную роль в решении этой задачи сыграло совершенствование процессов производства пластмасс на основе

улучшенных полимерных связующих и усовершенствования способов подготовки сырьевых компонентов, методов и приемов смешения композиций.

Мировой опыт последних десятилетий свидетельствует, что полимерные материалы используются практически во всех отраслях промышленности, и сфера их применения расширяется. В связи с этим все более возрастает число специалистов, работающих с высокомолекулярными соединениями и с материалами на их основе. Известно, что в промышленно развитых странах более 50 % химиков, работающих в промышленных и исследовательских группах, имеют непосредственное отношение к полимерным системам. Однако по отраслям применения полимерные материалы распределяются весьма неравномерно. Европейская статистика свидетельствует, что более трети объема производства полимеров расходуется на тару и упаковку, то есть на производство таких изделий, потребительская ценность которых теряется задолго до утраты полимерным материалом, из которого они изготовлены, своих исходных свойств.

До недавнего времени использование вторичного полимерного сырья являлось прерогативой предприятий по производству изделий. Однако расширение как ассортимента возвращаемых в технический оборот пластиков, так и разновидностей отработавших свой, в ряде случаев весьма немалый, ресурс изделий привели к необходимости разработки новых химико-технологических процессов восстановления свойств в различной степени деградированных полимеров, модификации, в том числе содержащего неорганические фракции вторичного сырья, создания технологии смесевых составов из полимеров с различной степенью совместимости. В конечном счете сформировалось самостоятельное направление — рециклирование пластмасс, разрабатывающее специфические комбинированные технологические процессы. Рециклинг огромного количества пластмасс, измеряемого десятками миллионов тонн, способствует решению не только сырьевых, но и экологических проблем, в частности, защиты окружающей среды.

В место приобретения и установки сложного программного обеспечения на каждом компьютере, сотрудники полимерных предприятий могут получить доступ к необходимым инструментам через облачную платформу. Это значительно упрощает процессы взаимодействия и сотрудничества между различными отделами и сотрудниками, ускоряя принятие решений и повышая эффективность работы. В полимерной индустрии облачные решения находят применение в различных областях производства. Одной из них является управление производственными процессами. С использованием облачных платформ можно создавать централизованные системы управления, которые позволяют контролировать и оптимизировать работу на заводах и предприятиях. Это включает мониторинг параметров производства, управление запасами сырья и материалов, планирование производственных задач и т.д. Благодаря облачным решениям руководители и инженеры полимерных заводов имеют возможность получать реально временные данные о работе производства и быстро реагировать на любые непредвиденные ситуации. Еще одной областью применения облачных решений в полимерной индустрии является исследование и разработка новых материалов. С использованием облачных платформ и вычислительных ресурсов можно проводить сложные моделирования и симуляции, которые помогают ускорить процесс разработки и оптимизации новых полимерных материалов. Это позволяет сэкономить время и ресурсы, а также повысить точность прогнозирования свойств и характеристик материалов еще на этапе проектирования. Кроме того, облачные решения способствуют сбору и анализу больших объемов данных, что позволяет предсказывать и оптимизировать производственные процессы. Аналитические инструменты и машинное обучение, доступные в облаке, позволяют анализировать данные производства, выявлять тенденции и паттерны, а также определять оптимальные параметры работы для достижения максимальной эффективности и качества продукции.

Полимерная индустрия является одной из наиболее динамично развивающихся отраслей в мире. Благодаря новым технологиям и инновациям, производители полимеров постоянно совершенствуют свои продукты, делая их более эффективными и экологически чистыми. Одним из главных направлений развития полимерной индустрии является создание биоразлагаемых полимеров. Это материалы, которые разлагаются в природе без оставления вредных следов. Среди новых технологий, используемых для создания биоразлагаемых полимеров, стоит отметить использование микроорганизмов и растительных волокон. Кроме того, в последние годы все большую популярность приобретают полимерные материалы, созданные с использованием нанотехнологий. Такие материалы обладают особыми свойствами, например, повышенной прочностью и устойчивостью к воздействию различных факторов.

Возобновляемую замену ископаемому сырью - нефти - для нефтехимических производств ищут по всему миру. А так как большинство полимеров получают из нефти, то важно и для полимерной промышленности найти сырьё, которое заменит нефть. Благодаря такому процессу химическая промышленность может избавиться от необходимости использовать ископаемое сырьё. У некоторых стран есть разработки получения полимеров из относительно недорогих биомасел.

Использованная литература:

1. Рашидова С.Ш., Кудышкин.В.О. «Введение в химию высокомолекулярных соединений» - Т.: «Навруз», 2014,194 стр.
2. Asqarov M. A., Ismoilov I.I. Polimerlar kimyosi va fizikasidan amaliy mashg`ulotlar. Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2006
3. Кулезнев В.Н. ,Шершнеv В.А. Химия и физика полимеров. - 2-е изд., испр.- СПб.:Лань, 2014. - 368

4. Усмонова, Д. Т. (2023). ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЕ ЦЕЛЛЮЛОЗЫ ИЗ ДРЕВЕСИНЫ. *Conferencea*, 116-121.
5. FA, A., & DT, U. (2021). The Problem Of Formation Of Information Competences In Future Chemistry Teachers. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 8(2), 1117-1122.
6. Razakov, G. A. (2021). Determination of natural science literacy of students according to the international assessment program. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 866-871.
7. Alimova, F. A. (2022). Problems with using the possibilities of digital educational resources in studying chemistry. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 2(1.5 Pedagogical sciences).
8. Алимова, Ф. А. Цифровые образовательные ресурсы в обучении химии. *ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ*, 24.

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА 6-7 YOSHLI BOLALARNI JISMONIY TARBIYA VA SOG‘LOMLASHTIRUVCHI MASHG‘ULOTLARIDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Aripova Vasila Baxtiyarovna
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o‘qituvchisi (PHD)
Toshkent Arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat turlari ichida o‘yin shakllari muhim rol o‘ynaydi, chunki o‘yin faoliyati bolaning tabiatiga mos keladi. Bolalar uchun nafaqat qiziqarli o‘yinlar, balki tashqi dunyoni, kattalar dunyosini modellashtirish usuli, jamiyatdagi munosabatlarini modellashtirish usuli bilan birga bu jarayonda bola tengdoshlari bilan munosabatlar sxemasini ishlab chiqadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari: yurish, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, emaklash, uloqtirish, ilib olish, muvozanatni saqlash kabi

asosiy harakat turlarini o'zlashtirish va to'g'ri texnikasini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bundan tashqari koordinatsion qobilyatlarni rivojlantirishga ham alohida e'tibor beriladi[8].

Kalit so'zlar: *o'yinlar, harakat, chaqqonlik, o'yin, maktabgacha yosh bolalar, jismoniy rivojlanish, tayanch-harakat tizimi, jismoniy sifat.*

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliyoti shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun jismoniy tarbiya mashqlari bir xil uslubda bajariladi va cheklangan darajada qo'llaniladi, bu esa bolalarning aqliy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Shuning uchun, bir qator mutaxassislarning fikriga ko'ra, bunday tamoyillarga asoslangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari ko'pincha kerakli natijani bermaydi.

Tayanch-harakat tizimi kasalliklari bilan og'rigan bolalarni sog'lomlashtirish muolajalarisifatida sport o'yinlaridan muvaffaqiyatli foydalanilganligi haqida dalillar ham mavjud[5.] Shu bilan birga, hozirgi vaqtda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishning o'yin usuli hali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida keng qo'llanilmagan. Uni qo'llash odatda "harakatli o'yinlar" mavzusi bilan cheklanadi.

Dolzarbli. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va sog'lomlashtirishda jismoniy madaniyatning ahamiyati. Yosh avlodning sog'lig'ini yaxshilash zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir. Muammo shundaki, ko'pincha tor mutaxassislar tomonidan tayanch-harakat tizimining kasalliklarini aniqlash bola maktab ostonasida qadam qo'yganida aniqlanadi. Shuning uchun bolaga o'z vaqtida tuzatuvchi mashqlar yordam bera olmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ushbu muammolarga e'tibor qaratilib, bolalar tomonidan harakatlarning asosiy harakat turlarini o'zlashtirishga qaratilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'yin texnologiyalari ishlab chiqilmoqda.

Rivojlanayotgan texnologiya davrida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va uyda bolalar ko'p vaqtlarini harakatsiz holatda o'tkazishadi (stollarda, televizor, kompyuter, telefon ko'rish va hokazo). Bu ma'lum mushak guruhlariga statik yukni

oshiradi va ularni charchashga olib keladi. Tayanch mushaklarining kuchi va ish qobiliyatini kamaytiradi, bu esa skolioz, yassioyoqlik, rivojlanishning kechikishi, tezkorlik, chaqqonlik, koordinatsion harakatlarni, chidamlilik, egiluvchanlik va kuch sifatlarini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar organizmi rivojlanish va o'sish bosqichida turli xil noqulay sabablarga ko'ra umurtqa pog'onasi, oyoq va tizzalar deformatsiyalari paydo bo'lishi mumkin. Ular tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Bu kasalliklar jarohatlar, yuqumli kasalliklar, zaharlanish, asab tizimining shikastlanishi, moddalar almashinuvi buzilishi natijasida paydo bo'ladi.

Qaddi-qomatni to'g'ri tutishqobiliyati nafaqat bolalarning ko'rinishiga, balki uning ichki organlarining holatiga, sog'lig'iga ham ta'sir qiladi. Gavda nuqsonlari o'sayotgan organizmning organlari va tizimlari ishining yomonlashishiga olib keladi, ayniqsa bu tayanch-harakat tizimi, yurak-qon tomir tizimi va nafas olish tizimining ishlariga ta'sir qiladi. Gavda, qaddi-qomat bolalarning o'sishi jarayonida shakllanadi, kun tartibi va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish darajasiga qarab o'zgarib turadi. Gavda nuqsonini aniqlashning eng yaxshi usuli - bolani profilga joylashtirish. Ushbu holatda tabiiy fiziologik egri chiziqlar aniq ko'rinadi. Umurtqa pog'onasining tabiiy egri chiziqlarining haddan tashqari ko'pligi yoki yetarli emasligi noto'g'ri holatni bildiradi, bu esa umurtqa pog'onasi disfunktsiyasiga va boshqa noxush oqibatlariga olib keladi.

Qaddi qomatning bir necha turlarimavjud: to'g'ri fiziologik va patologik (lordoz, kifoz, egilgan va tik). To'g'ri fiziologik holat nafaqat nisbatlarning uyg'unligi, balki bolaning jismoniy chidamliligi bilan ham ajralib turadi. MTT larida jismoniy tarbiya va davolash jismoniy tarbiyasi mashqlarini o'tkazishning o'yin usullarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

O'yinlar-har doim va barcha xalqlarda keng qo'llaniladigan bolalarning yagona qiziqarli sevimli faoliyatidir. O'yin faoliyati hissiy fazilatlarni va jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi, bolada ilgari olingan ko'nikmalarni kengaytirish va takomillashtirish imkoniyatlarini ochadi. Bundan tashqari, o'yin bolalardan

tashabbuskorlik, jamoatchilik, o'z harakatlarini tengdoshlari bilan muvofiqlashtirish qobiliyati kabi fazilatlarni namoyon etishni talab qiladi, shu bilan ijtimoiy munosabatlarning asoslarini yaratadi.

Bolalar uchun sog'lomlashtiruvchi va rivojlantiruvchi o'yinlar turli xil murakkablikdagi qiziqarli harakat vazifalarini qo'yishga va ularni hal qilishga, erishilgan sog'lomlashtirish effektini mustahkamlashga, yangi his-tuyg'ularga ega bo'lishga va ularga emotsiyalarni oshirishga imkon beradi. Ushbu o'yinlar qo'shimcha o'rganish holatini yaratadi va bolaga o'zlashtirish qiyin bo'lgan harakat turlarini o'zlashtirishga yordam beradi.

Sog'lomlashtiruvchi va rivojlantiruvchi o'yinlarida rol o'ynash bolalarga jismoniy ma'suliyatni his qilish, turli xil xatti-harakatlar bilan tajriba o'tkazish va bu qanday natijalarga olib kelishini ko'rish uchun ijtimoiy jihatdan maqbul shaklda reaksiyaga javob berishga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkonini beradi. Dam olish va tarbiyaviy o'yinlar bolalarga ko'ngil ochish, tasavvurlarini yoritish, madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish va ma'lum ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bola uchun o'yin yetakchi faoliyatdir. O'yinlar bilan shug'ullanishdan olingan zavq bolalarning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Vaqt o'tib o'sib ulg'aygan sayin, bolalar duch keladigan faoliyat doirasi kengayadi va shu asosda o'yinlar kengroq va xilma-xil bo'lib boradi, va ularning mazmuni o'zgarib boradi.

MTT dagi kichik maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yinlarning asosiy mazmuni kattalar buyumlarini ob'ektlar yordami bilan tanishishdan, sinab ko'rishdan iborat bo'lsa, demak, o'rta guruh maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu insonlar o'rtasidagi munosabatlarni qayta tiklash, katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun esa bu o'yinda qabul qilingan rol bilan bog'liq qoidalarga bo'ysunishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, sog'lomlashtiruvchi va rivojlanayotganlarni ishlab chiqilgan o'yinlar birinchi navbatda eng qiziqarli va tushunarli mashg'ulot sifatida bolalar o'yin

faoliyatining yangi shakllari amalga oshiriladi. O'yinlar tarkibining tobora qiyinlashtirib borilishi o'yin ishtirokchilari sonining ko'payishiga, ular o'rtasidagi haqiqiy munosabatlarning murakkablashishiga olib keladi. Birgalikda o'ynashda bolalar muloqot, o'zaro tushunish va o'zaro yordam tilini o'rganadilar, o'z harakatlarini boshqalarning harakatlari bilan muvofiqlashtirishni o'rganadilar. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik faoliyatning bir qismi sifatida sog'lomlashtiruvchi o'yinlarni rivojlantirish birinchi navbatda uning individual xususiyatlarini, salomatlik darajasi va ijtimoiylashuv talablarini hisobga olgan holda bolaning optimal jismoniy va psixologik rivojlanishiga qarab tanlanadi.

Shu maqsadda barcha vazifalarni shakllantirish va hal qilish quyidagicha ko'zda tutilgan, jumladan:

- nafas olish, yurak-qon tomir va asab-mushak tizimini rivojlantirish va organizmdagi metabolik jarayonlarni rag'batlantirish orqali bolaning salomatligini ta'minlash;

- harakatlarning asosiy shakllari statikasi va dinamikasini (yurish, yugurish, sakrash, emaklash va toqqa chiqish va boshqalar) maqbul harakat uyg'unligini shakllantirishga asoslanib, asosiy harakat mahoratini rivojlantirish;

- asosiy jismoniy sifatlarini rivojlantirishga yordam berish (kuch, epchillik, tezlik, moslashuvchanlik, chidamlilik, aniqlik, koordinatsiya). Ularning har biri murakkab jarayondir. Masalan, koordinatsiya - bu harakatning yakuniy natijasiga erishish maqsadida markaziy asab tizimi va mushaklarning birgalikdagi o'zaro ta'sirining natijasidir.

Yaxshi koordinatsiya sifatini rivojlantirish uchun tanani boshqarish, mazmunli harakatlarni qabul qilish va qayta ishlash qobiliyatiga ega bo'lish zarur: yo'naltirish qobiliyati (ixtiyoriy va beixtiyor harakatlarni to'g'ri yo'nalishda o'tkazish qobiliyati); reaksiya qilish qobiliyati (reaksiya tezda javob berish qobiliyati); muvozanat saqlash qobiliyati (tanani muvozanatda ushlab turish yoki uning muvozanatini tiklash

qobiliyati); ritm qobiliyati (harakatni tegishli ritmda bajarish qobiliyati); farqlash qobiliyati (xavfsiz, aniq, tejamkor harakatni amalga oshirish qobiliyati, muhim rol o'ynaydi).

Shuning uchun har bir jismoniy (harakatli) sifatni shakllantirish bir qator aniqroq muammolarni hal qilishni nazarda tutadi:

- mushak korseti va tos-son muskullarini mustahkamlash, to'g'ri qomatni shakllantirish, bolaning jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish;

- tana muvozanatini shakllantirish va harakatlarni ixtiyoriy ravishda tartibga solish. Ushbu vazifa ma'lum vazifalar to'plamini o'z ichiga oladi: statik va dinamik harakatlardan tashqari mo'ljalga olish qobiliyatini shakllantirish; tana qismlarini mushaklarini boshqarishni shakllantirish; sensorimotorlarni muvofiqlashtirish, muvozanat va vestibulyar barqarorlikni rivojlantirish; obrazli harakatlarni rivojlantirish; mushaklarning egiluvchanlik qobiliyatini rivojlantirish va boshqalar;

- nutq mahoratini rivojlantirish: nutqni to'g'ri nafas olishni bilmoqlik, ovoz va ovoz balandligini muvofiqlashtirishni rivojlantirish, tovushlarni talaffuz qilishda o'z sezgilarida yo'naltirilgan e'tiborni shakllantirish, nutqning balandligini, nutq tempi va ritmini o'zgartirish qobiliyatini shakllantirish va hk.;

Mana shu jihatlarni hisobga olib, yuqorida aytib ta'kidlangan, maktabgacha yoshdagi bolalarning tayanch-harakattizimini rivojlanishidagi buzilishlarning oldini olish uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun o'yin texnologiyalarini rivojlantirishning dolzarbligi to'g'risida xulosa qilishga imkon beradi, shuningdek, tanlagan mavzuning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalash tizimini takomillashtirishda muhimligini ko'rsatadi.

Xulosa qilinganda bolaning psixikasi, bolalikdan shunday yaratilganki, bolalarni har qanday, hatto eng foydali mashqlarni maqsadli bajarishga majburlash deyarli imkonsizdir. Bola biror narsani "zarur" va "foydali" bo'lgani uchun emas, balki uni yoqtirgani uchun bajaradi. Mana shu jihatlarni hisobga olgan holda bolalarning sog'lig'ini yaxshilash va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan o'yinlarni o'zgartirilgan va moslashtirilgan holda qo'llash maqsadga muvofiqir. Bu o'sayotgan

organizm ehtiyojlariga mos keladigan nafaqat to'g'ri qilingan harakatlardan qoniqish, balki quvonch va hissiy ko'tarinkilikni paydo qiladi. Bolalar o'yin faoliyati davomida ko'pincha kutilmagan qiziqarli holatlar yuzaga keladi. Bu bolalar va otalarni samimiy kulishga undaydi. Qiziqarli va quvnoq muhit unga ko'proq e'tibor qaratishga imkon beradi va bolalar bilan mehr, g'amxo'rlik va quvonch muhitida muloqotni kuchaytiradi. Bu kuchli davolovchi asosiy vositadir.

Adabiyotlar

1. SH.M. Mirziyoyev «Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz» 2018 T:
2. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonun»gi. - T.:O'zbekiston. 2015 4-sentyabr
3. SH.M. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi 2017-yil 3-iyundagi PQ–3031-son [qarori](#)
4. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish to'g'risidagi Konsepsiya 2019 13-fevral.
5. Normurodov A.N. Jismoniy tarbiya. Darslik. T.: 2011.
6. Usmonxo'jayev T.S. va boshq. 500 xil harakatli o'yinlar. Darslik. T.: O'qituvchi. 2005.
7. K.M.Mahkamjonov, M.Sh.Rasuleva va bosh. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy va kengaytirilgan jismoniy tarbiyasi". Tuzuvchi-mualliflar: T.: "Ilm Ziyο" nash. 2006.
8. Лях В.И. Мой друг — физкультура. М., 2002.
9. Махансва М.Д. Здоровый ребенок. М., 2004.
10. Моргунова О.Н. Профилактика плоскостопия и нарушений осанки в ДОУ. Воронеж, 2005.

11. Пензулаева Л.И. Оздоровительная гимнастика для детей дошкольного возраста (3—7 лет)., 2001.

BIOLOGIYADAN VIRTUAL LABAROTORIYA DASTURLARI ISHLAB CHIQUISH VA UNDA FOYDALISH METODI

Toshmanov Nizom Jumanovich
Nizomiy nomidagi TDPU Zoologiya va anatomiya kafedrasi dotsenti
(nizon148@mail.ru)

Raximova Kumush Abdirauf qizi Bakalavr, 4-kurs talabasi
(kumushrahimova19991117@gmail.com)

Ro'ziyeva Madina Ural qizi Bakalavr, 2-kurs talabasi
(mruziyeva950@gmail.com)

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim tizimida virtual laboratoriyalardan foydalanish o'zlashtirishda yuqori samara beradi. Virtual laboratoriya ishlari maxsus kompyuter dasturlari bo'lib, biror bir jarayon yoki obyektning modellarini monitorda yoki noutbukda ko'rish imkoniyatini beradi. Umumta'lim maktablari uchun biologiya fanidan bitta mavzu bo'yicha virtual laboratoriya dasturi ishlab chiqildi, tajribadan o'tkazildi va o'quvchilar o'zlashtirish samaradorligi oshishiga olib keldi.

Kalit so'zlar: AKT, virtual laboratoriya, dastur, elektron mundarija, mikroskop, lupa, mikropreparatlar, reaktivlar.

Аннотация: Использование виртуальных лабораторий в современной системе образования высокоэффективно в обучении. Виртуальные лаборатории — это специальные компьютерные программы, позволяющие просматривать модели процесса или объекта на мониторе или ноутбуке. Была разработана и апробирована одна виртуальная лабораторная программа по биологии для общеобразовательных школ, которая привела к повышению успеваемости учащихся.

Ключевые слова: ИКТ, виртуальная лаборатория, программа, электронный контент, микроскоп, микроскоп, микропрепараты, реагенты.

Abstract: The use of virtual laboratories in the modern education system is highly effective in teaching. Virtual laboratories are special computer programs that allow you to view models of a process or object on a monitor or laptop. A one-subject virtual laboratory program in biology for secondary schools was developed and tested, which led to increased student achievement.

Key words: ICT, virtual laboratory, program, electronic content, microscope, microscope, microslides, reagents.

Respublikamizda zamonaviy axborot-texnologiyalari va kommunikatsiyalarini yaratish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini ishlab chiqish, davlat organlarining axoli bilan muloqot qilishining yangi mexanizmiga o'tish, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'limni elektron o'quv vositalar bilan ta'minlash uchun mukammal dasturiy ta'minotga bo'lgan extiyoj oshib bormoqda. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalariga izchil kirib borayotgan bir paytda birgina ta'lim sohasini kompyuterlashtirish va avtomatlashtirish, boshqaruvda axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta'lim muassasalarining o'quv laboratoriya va texnik jihozlar, kompyuterlar, multimediali elektron resurslar, elektron darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanganligi, shu bilan birga, ta'lim tizimida masofaviy ta'lim yoki zamonaviy pedagogika joriy etilganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. (1)

Zamonaviy ta'lim tizimida virtual laboratoriyalardan foydalanish o'zlashtirishda yuqori samara beradi. Virtual laboratoriya ishlari maxsus kompyuter dasturlari bo'lib, biror bir jarayon yoki obyektning modellarini monitorida yoki noutbukda ko'rish imkoniyatini beradi. Virtual laboratoriya quyidagi holatlarda kerak bo'ladi: laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun kerak bo'ladigan sharoit; materiallar, reaktivlar va jihozlar bo'lmasa; masofaviy ta'limda; va ilmiy ishlar olib borilayotganda.

Tabiiy fanlardan virtual tajribalar, virtual laboratoriya ishlari ta'limning istiqbolli yo'nalishi bo'lib, talabalar va o'qituvchilar e'tiborini tabiiy ravishda o'ziga

tortadi. Virtual laboratoriyalarni o'quv amaliyotiga joriy etishning zaruriyati, axborot texnologiyalari ishlab chiqarishga keng tadbiiq etish bugungi davr talabi hisoblanadi. O'quv jarayonlarida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish ta'limning amaldagi standartlari o'quv jarayonida darslarni o'tkazishning faol va interaktiv shakllarini, shu jumladan kompyuter simulyatsiyalarini, sinfdan tashqari ishlar bilan birgalikda keng qo'llashni nazarda tutadi va talabalarning kasbiy mahoratini rivojlantiradi.

Virtual laboratoriyalar tabiiy fanlarni o'qitish amaliyotida ishonchli o'rin egallaydi, shu bilan birga ulardan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari va ular asosida virtual laboratoriya ishlarini yaratish endigina shakllana boshladi. Hatto "virtual laboratoriya ishi" atamasi hali boshqa tushunchalar, jumladan, tabiiy fanlarni o'qitishda virtual laboratoriya tushunchasi va virtual tajriba bilan bog'liqligini aniq ifodalovchi asoslangan ta'rifni olmagan. (2)

Tabiiy fanlardan tajriba jarayonida o'quvchilar kuzatish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, asbob-uskunalar va reagentlar bilan ishlash ko'nikmalarini egallaydilar. Bular: o'quvchilar eksperimenti; tajribalar (fan obyektning alohida tomonlarini o'rganishga yordam beradi), laboratoriya ishi (laboratoriya tajribalari majmuasi obyektlar va jarayonlarning ko'p tomonlarini o'rganish imkonini beradi), amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ustaxonasi; uy tajribasi, tadqiqot tajribasi va boshqalar. Kimyoviy tajriba tabiiy, aqliy yoki virtual bo'lishi mumkin. "Virtual" - "jismoniy timsolsiz mumkin" degan ma'noni anglatadi; virtual haqiqat - kompyuter qurilmalari yordamida real muhitga taqlid qilish; asosan ta'lim maqsadlarida foydalaniladi; shu munosabat bilan virtual tajriba ba'zan simulyatsiya yoki kompyuter tajribasi deb ataladi.

Dubovikova Z.N. virtual laboratoriyalarni qo'llash bo'yicha quyidagicha klassifikatsiyani taklif qiladi:

- demonstratsion qo'llash (real ishdan oldin) – real qilinishi kerak bo'ladigan ishni katta ekranda proyektor yordamida namoyish qilish;

- umumlashtirish uchun qo'llash (real ishdan so'ng) frontal (demostratsiya orqali natijalarni aniqlashtirish, xulosalarni shakllantirish va mustahkamlash), yoki individual (eksperimentning matematik tomoni, grafiklarni analiz qilish, sonlar ahamiyati, olingan natijalarni real hayotga solishtirish) rejimlarda;

- eksperimental qo'llash (real ish o'rnida) - individual (kichik guruhlarda) topshiriqlarni real bajarmasdan virtual bajaradi va kompyuterda eksperiment o'tkazadi (3).


Virtual laboratoriyadan foydalanish amaliy ko'nikmalarni shakllanishi, yangi laboratoriya jihozlarini qo'llay olish, amaliy ishlarni bajarishda mustaqil kuzatishlar olib borish, eksperimental masalalarni yechish va shu bilan birga tabiiy bilimlarni shakllantirish ko'nikmalarni hosil qilishda katta ahamiyatga ega.

Laboratoriya ishlarini virtual bajarish bilimni mustahkamlashga, malakani hosil bo'lishiga, laboratoriya ishini qisqa muddat ichida bajarishga va muammoni materiallar bazasi kam bo'lsada xal qilishga erishiladi.

Respublikamizda o'rta umumta'lim maktablari uchun biologiya fanidan virtual laboratoriya dasturlash bugungi kunning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. O'quvchining virtual olamda laboratoriyalarni o'tkazish, undagi topshiriqlarni kompyuterda yoki qo'l telefoni (smartfon) orqali bajarish fanga nisbatan qiziqishni oshirishga va o'zlashtirishning samadorligini yuqori bo'lishiga olib keladi.

Maktab 7- sinf biologiya darsligida keltirilgan laboratoriyalarning quyidagi virtual shaklini tavsiya etamiz.

Virtual laboratoriyaning birinchi sahifa oynasi:



Nazariy qismga mavzu, maqsadi, ish tartibining ketma ketligi

Masalan:

Mavzu: Kattalashtirib ko'rsatuvchi asboblar va o'simlik to'qimasidan vaqtinchalik preparat tayyorlash.

Maqsad. Lupa va mikroskop tuzilishi bilan tanishish, ishlashni o'rganish, o'simlik organlaridan vaqtincha preparat tayyorlash ko'nikmasini shakllantirish.

1. Kattalashtirib ko'rsatuvchi asboblar

Ishning borishi:

1. Kattalashtiruvchi asboblarni ko'rib chiqish.
2. Lupani tuzilishini o'rganib chiqish
3. Mikroskop bilan ishlash qoidalari bilan tanishib chiqish.
4. Mikroskopni yaxshilab o'rganib chiqish va uning optik va mexanik qismlarini topish.


2. O'simlik to'qimasidan vaqtinchalik preparat tayyorlash.

Ishning borishi: O'simlik to'qimalarini, ularning hujayraviy tuzilishini o'rganish uchun har xil preparatlar tayyorlanadi. Qoplovchi to'qimani o'rganishda tradiskansiya bargidan foydalaniladi. Buning uchun barg yuviladi, buyum oynachasini tozalab ustiga bir tomchi suv tomiziladi. Barg ostidan skalpel yordamida yupqa qilib kesma olinadi va priproval igna yordamida buyum oynachasining suv tomizilgan



joyiga qo'yilib qoplagich oyna yopib mikroskopda ko'riladi. Xuddi shunday preparat tayyorlab kartoshka tunganagi yoki ivitilgan bug'doy donidan g'amlovchi to'qimani, nok yoki behi mevasining eti (mezokarp)dan olib hujayralarini ko'rish mumkin.

Bu qism to'liq o'qib chiqilgandan so'ng ikkinchi ya'ni "1-topshiriq" oynasini ochish mumkin. Xuddi shunday boshqa topshiriqlar ham daslabkisini bajargandan so'ng keyingisi ochiladi.


1- topshiriq: Kattalashdirib ko'rsatuvchi asboblarni sxemaga joylashtiring?



2- topshiriq: Optik mikroskop qanday qismlardan iborat?



3- topshiriq: Mikroskop qismlari vazifalarini aniqlang.



4- topshiriq: O'simlik to'qimasidan vaqtinchalik preparat tayyorlang.

- Pinset yordamida pivozning yuqqa po'stidan bo'lakcha olinadi
- Priproval igna yordamida kesma eritma ustida tekislanadi
- Qoplama oynani yopib mikroskopda ko'riladi
- Pivoz po'sti bo'lakchasi buyum oynachasiga qo'yiladi
- Buyum oynachasidagi suvga bir tomchi vod eritmasi
- Buyum oynachasi ustiga pepitka yordamida suv tomiziladi


Jarayonlar ketma-ketligini aniqlang:

- 1 →
- 2 →
- 3 →
- 4 →
- 5 →
- 6 →

Kerakli material va jixozlar:



Son bilan keltirilgan topshiriqlarda ekranda maxsus katakchali maydonlarga topshiriqlar va xuddi shunday katakchalarda topshiriqlar javobi keltirilgan. O'quvchi topshiriqni bajarish uchun topshiriqdagi katakchalar ustiga sichqoncha yordamida to'g'ri javob keltirilgan katakchani qo'yadi. Agar o'quvchi to'g'ri topgan bo'lsa topshiriqdagi katakcha yashil yonadi, agar noto'g'ri topsa qizil yonadi.



Topshiriqlar to'liq bajarilib bo'lgandan so'ng oxirgi oyna "Laboratoriyaning amalga oshirish" oynasi ochilib, kerakli materiallar va jihozlardan foydalanib sichqoncha yordamida laboratoriya ishi bajariladi. Mikroskopda quyidagi manzara hosil bo'ladi.

O'quvchining laboratoriya ishini bajarish jarayoni video formatda yozib olishi mumkin bo'ladi.

Virtual laboratoriyaning sinov variantida bitta laboratoriya dasturlanib maktabda sinovdan o'tkazildi. Bunda Toshkent shahar 101- o'rta umumta'lim maktabi 7- sinf o'quvchilaridan 97 nafari ishtirok etishdi. Shundan 63 nafari (2 ta sinf) eksperiment va nazorat guruhi 34 nafari (1 ta sinf) etib tanlab olindi. Mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimi tekshirilganda (og'zaki va test) o'zlashtirish, laboratoriyaning ishining ketma-ketligi, asbob uskunalarning tanishi va natijalarni izohlay olishi eksperiment guruhlarida yuqori ekanli aniqlandi. Quyida test natijalarini keltiramiz.

6all	86-	71-	55-	55 dan	O'quv
-----------------	-----	-----	-----	--------	-------

guruh	100	85	70	past	chilar soni
Eksperiment guruh	28 % (16)	56 % (37)	12 % (8)	3% (2)	63
Nazorat guruhi	7% (2)	33 % (11)	48 % (16)	12% (3)	34

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. TATU Nukus filiali direktori B.T.Kaipbergenov (t.f.d.), A.M.Tumayeva (magistrant)

2. Гавронская Й.Й., Оксенчук В.В. МЕТОДИКА СОЗДАНИЯ ВИРТУАЛНИХ Лабораторных работ по химии // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 2-2.;URL:

<https://science-education.ru/ru/article/view?id=22290>

3. Дубовикова З.И., Использование виртуальных лабораторных работ по биологии в условиях реализации ФГОС ООО, февраль 2020 год

<https://infourok.ru/ispolzovanie-virtualnyh-laboratornyh-rabot-po-biologii-v-usloviyah-realizacii-fgos-ooo-5565323.html>

OLIV TA'LIM YURTI TALABALARI UCHUN JISMONIY TARBIYA FANIDA TAIBO FITNES TIZIMINING TEXNALOGIYASI

Egamberdiyev Muhammad Nizomiddin o'g'li
Alfraganus university Sport faoliyati kafedrasida o'qituvchisi

Annatsiya. Ushbu maqola Aerobika mutaxassisligi misolida oliy o'quv yurti talabalari uchun Taibo fitness tizimidan foydalanish xususiyatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: taibo, jismoniy madaniyat, universitet, talabalar, aerobika, jismoniy tarbiya.

Hozirgi vaqtda yoshlarning turmush tarzi sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Ularning yangi turmush tarzi jismoniy va ma'naviy rivojlanishga, farovonlikni

yaxshilashga, aqliy va jismoniy salomatlikka erishishga yordam beradi. Talabalar o'rtasida jismoniy faoliyatning yangi va xilma-xil turlarining paydo bo'lishi sport va sog'lomlashtirish ishlarining rivojlanishi, turli sport tizimlari bo'yicha ko'plab savdo klublarining mavjudligi bilan bog'liq. Shuning uchun hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga kadrlar tayyorlashning innovatsion vositalari va shakllarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy fitnessda faol bo'lgan jang san'atining Taibo deb ataladigan kikkoksing texnikasiga asoslangan aerobik mashqlar juda mashhurdir. Taibo - bu aerobika mashqlari va jang san'atining turlaridir. Taibo kardio va intensiv mashqlarni samarali birlashtiradi. Ushbu tizim, ayniqsa, yuqori vazn yo'qotish natijalariga erishmoqchi bo'lganlar uchun tavsiya etiladi. Taibo mashqlari mushak tizimini mustahkamlaydi. Bu erda 6 qo'l va oyoq faol ishtirok etadi, chunki to'satdan qilinadigan harakatlar juda ko'p energiya talab qiladi. Bundan tashqari, yurak-qon tomir tizimi mustahkamlanadi va chidamlilik rivojlanadi. Jismoniy tarbiya va sport fani yo'nalishlardan biri sifatida ushbu jang san'atini kiritish mumkin. Ushbu o'quv yo'nalish oliy o'quv yurtining birinchi kurs talabalari uchun mo'ljallangan.

Kikkoksing mashg'ulotlarining birinchi yilida boshlang'ich texnik mashg'ulotlar o'tkaziladi: hujum harakatlari (zarbalar), mudofaa harakatlari (himoya texnikasi), harakatlarni tayyorlash (harakat turlari, aldash). Jismoniy tarbiya va sport darslarida asosiy e'tibor kuch, moslashuvchanlik, chidamlilik, shuningdek, harakatlarni muvofiqlashtirishni rivojlantirishga qaratilgan.

Yakkakurash turlarida quyidagi mashqlar guruhlari ko'rsatilgan:

- umumiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun mashqlar;
- maxsus jismoniy fazilatlarni rivojlantirish uchun mashqlar, ya'ni tezlik-kuch, chaqqonlik va va boshqalar;
- salomatlikni yaxshilash uchun mashqlar.

Ushbu mashqlar talabalar organizmiga ta'sir qilish darajasi mezoniga ko'ra guruhlarga bo'linadi. Talabaning sog'lig'ini ma'lum darajada ushlab turish uchun tananing funktsional tizimlariga individual, maqsadli, kompleks, o'quv ta'siri zarur.

Bu ixtisoslik ham 1-kurs talabalarini ham jismoniy, ham texnik jihatdan oliy o'quv yurtlarida 2-3-kurslarda o'tiladigan "Aerobika" mutaxassisligi, "Taibo" yo'nalishi bo'yicha keyingi darslarga tayyorlaydi. Aerobika bilan jang san'ati elementlarini qo'llash asosan yoshlar orasida mashhur, ammo yaqinda qizlar ham bunga katta qiziqish bildirishdi.

Kikboksing ixtisosligining 1-kursida talabalarga 4 ta bo'limni o'z ichiga olgan boshlang'ich tayyorgarlik o'tkaziladi. Birinchi blok: jangovar pozitsiya va harakat texnikasi (qadamlar, sirpanish, sakrash, muvozanat). Ikkinchi blok: qo'l texnikasi (to'g'ri, yon, pastki), (musht holati, mushtni mustahkamlash); oyoq texnikasi (tekis, lateral, dumaloq). Uchinchi blok: qo'lni himoya qilish texnikasi (qiyalik, burilish, rebound, orqaga qadam); zarbalardan himoya qilish texnikasi (qochish, rebound, yiqitish, blokirovka qilish). To'rtinchi blok: qo'l va oyoq texnikasining ketma-ket kombinatsiyasi; harakatlardagi qo'l texnikasining tipik birikmalari; oldinga siljish bilan oyoq texnikasi.

"Taibo" mashg'ulotlari 3 qismdan iborat:

I tayyorgarlik - isinish va cho'zish (cho'zish mashqlari);

II asosiy - kikboksing elementlari bilan aerobik mashqlarning asosiy to'plami;

III yakuniy qism - cho'zishdan keyingi (cho'zish va dam olish mashqlari), yurish (oyoq uchlarida, tovonda, oyoqning ichki tomonida, oyoqning tashqi tomonida yurish); yugurish (o'rtacha tezlik, 2 daqiqa).

Kikboksing elementlari bilan aerobik mashqlarning asosiy to'plami: 1 mashq - asosiy qadam va zarbalar. A.T. tik turgan holda, oyoqlari yelka kengligida, tizzalar bir oz egilgan, qo'llar musht holatida bo'ladi. Tana vaznini chap oyoqqa o'tkazib, o'ng tomonni diagonal ravishda orqaga suriladi. Oyoq barmog'iga qo'yib, tovonni biroz o'ngga qaratamiladi - bu asosiy qadamdir. Shu bilan birga, tanani biroz o'ngga burab, o'ng qo'lni oldinga tekkiziladi. Keyin asosiy qadamlarni qo'llarning harakati bilan sinxron ravishda bajarishni davom ettiriladi, pastdan oldinga zarba beriladi (musht pastdan yuqoriga harakat qiladi, engil yoyni tasvirlaydi, qo'llar tirsaklarda bir oz egilgan). Har bir qo'llar bilan bitta 45 zarba bajariladi.

2 mashq - tekis zarbalar. A.T. tik turgan holda, oyoqlari son kengligida, tizzalarni bir oz egib, qo'llar musht holatda bo'ladi. Chap oyoq bilan bir qadam orqaga qaytib va o'ng sonni polga parallel bo'lguncha tushiriladi. Keyin o'ng oyoq bilan orqaga qadam tashlab, tana pastga tushiriladi. Chap oyoqni pastga tushirib, chap qo'l bilan to'g'ridan-to'g'ri zarba beriladi. Har bir zarbani 45 zarba bilan bajariladi.

3 mashq - sakrash bilan to'g'ridan-to'g'ri zarba: A.T. tik turgan holda, oyoqlar yelka kengligida, tizzalarda bir oz egilib, qo'llar musht holatda bo'ladi. Chap oyoq bilan orqaga qadam qo'yib, bir vaqtning o'zida chap qo'l bilan to'g'ri zarba beriladi. Keyin sakrash bilan oyoqlarning holatini o'zgartirib, o'ng oyoq pastga tushiriladi. O'ng qo'l bilan to'g'ridan-to'g'ri zarba beriladi. Har bir qo'llar bilan 45 zarba bilan bajariladi.

III mashq – cho'zishdan keying zarbalar (cho'zish va dam olish mashqlari): A.T. chalqancha yotib holda bir oyoqni tizzada bukib, ikkinchi oyoq yuqoriga cho'ziladi, oyoq boldirini qo'l bilan ushlab turish kerak bo'ladi. Oyoqlarning holatini o'zgartirib, sonning orqa mushaklari ham cho'ziladi. A.T. oyoqlarini elka kengligida ajratib turiladi, oldinga egilib, qo'llar bilan polga tekkiziladi.

Boldir mushaklarini bo'shashtirish mashqlari: A.T. tik turgan holda, oyoqlar elka kengligida – qo'llar va bilaklarni silkitiladi. Tik turgan holda, oyoqlari elkalarining bir vaqtning o'zida va yuqoriga ko'tarib, yon tomonlarga, oldinga qo'llarning muqobil bo'shashtiriladi.

Mashg'ulotlar to'xtovsiz rejimda dinamik musiqa ostida olib boriladi. Trening mashg'ulotlari muvofiqlashtirishni yaxshilash, umumiy chidamlilikni oshirish va mushaklarni kuchaytirishga qaratilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda jang san'ati yosh avlod o'rtasida juda mashhur. Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya darslarida o'ziga xos darajaga ega bo'lgan va zamonaviy sog'liqni saqlash tizimlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan noan'anaviy shakl va vositalar qo'llaniladi va zamonaviy sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya dasturlarini qurish inson tanasining hayotni qo'llab-quvvatlovchi

funksional tizimlariga ta'sir qiluvchi texnologiyalardan (shakllar, vositalar va usullar) foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu mushak-skelet tizimi, yurak-qon tomir, nafas olish, immunitet.

ADABIYOTLAR

1. Барчуков И. С. Физическая культура и спорт: методология, теория, практика: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / И. С. Барчуков, А. А. Нестеров; под. общ. ред. Н. Н. Маликова. — 3-е изд., стер. — М.: Издательский центр «Академия», 2009. — 528с.
2. Зайцева Г. А., Медведева О. А. Оздоровительная аэробика в высших учебных заведениях — М., Физкультура и Спорт, 2007. -104с., ил.
3. Ильинич В. И. Физическая культура студента и жизнь: учебник для вузов / В. И. Ильинич — М.: Гардарики, 2007. — 366 с.
4. Ширяев А. Г. Бокс и кикбоксинг: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / А. Г. Ширяев, В. И. Филимонов. — М.: Издательский центр «Академия», 2007. — 240 с., л. цв. ил.; ил.

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.

Tolibjonova Sarvinoz Tokir qizi, Saidova Dilfuza Abdufattoxovna, Qarshiyev Azamat.

Annotatsiya: Zamonaviy hayotni bugun ilm-marifat va ta'lim taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Maqolada hayotimizning barcha jabhalarini raqamlashtirish, jumladan, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, oliy ta'lim integratsiyasida raqamli texnologiyalarning o'rni, raqamlashtirish muammolari ko'rilgan.

Kalit so'zlar: intellektual salohiyat, ta'lim-tarbiya, innovatsion yondoshuvlar, ilm-fan, professional ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, "simulyasion markazlar", ta'lim standartlari, fan, amaliyot, ilg'or pedagogik tajriba, barkamol inson.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarni ijodiy g'oyalari va

ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standartlari asosida shakllantirish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlarning taqdiri yoshlarning yuksak ma'naviy kamoloti, intellektual salohiyati va kasbiy fazilatlariga bog'liq. Ma'naviy, axloqiy hamda jismoniy jihatdan yetuk bo'lgan avlod haqida so'z yuritilar ekan, shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrini keltirish o'rinlidir: "Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini ko'rish demakdir. Biz tarixan qisqa fursat ichida boshqa sohalarda bo'lgani kabi ta'lim-tarbiya borasidagi maqsad va vazifalarimizni yaxshi anglab yetdik. Hammamiz yana bir haqiqatni anglashimiz zarurki, faqat chinakam ma'rifatli insongina millat qadrini, o'zligini anglaydi. Chinakam barkamol shaxsni tarbiyalashda esa ta'lim-tarbiyaning o'рни beqiyosdir." Yoshlarning bilim va iqtidorini chuqurlashtirish ularning kelgusida malakali kadrlar bo'lib O'zbekistonni yanada rivojlantirishdagi ishtirokini ta'minlash maqsadida ta'lim jarayoniga innovatsion yondoshuvlar joriy etilmoqda. Bu esa O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tog'risida" gi qonuni alohida ta'kidlab o'tilgan.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida quyadigi fikrlarni bildirib o'tadilar " Eng kata boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun ilg'or bilimlarni o'zlashtirish chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayot ehtiyojiga aylanish kerak. Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday tus olayotganini hammamiz ko'rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat ilm-fan, yuqori texnologiyalar hamda innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz".

Bugungi kunda yangi professional ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni, soni va sifati, ta'lim dasturlari, texnologiyalarning isloh qilinishi oqibatida bir qancha o'zgarishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi esa iqtisodiyotni taraqqiy ettirish, kambag'allikni qisqartirish yoshlar va xotin qizlarning

hayotda munosib o'rin topishi, natijada xalqimiz turmush faravonligini oshirish masalalarining ijobiy hal etishini ta'minlaydi Prezidentimizning 2019 yil 6 sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qoshimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon O'zbekiston tarixida yangi professional ta'lim tizimini tashkil etishga asos bo'lgan bo'lsa, 2020-yil 24-yanvarda davlatimiz rahbari o'z murojaatnomasida "Joriy o'quv yildan boshlab, mutlaqo yangi professional ta'lim tizimi yo'lga qo'yilib, kasb hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar tashkil etiladi" deb mazkur tizimning ahamiyatini yana bir bor alohida ta'kidladi. Bunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari barobarida tadbirkorlik, kichik biznes, tomorqa biznesi, qurilish, xizmat ko'rsatish, chorvachilik, parrandachilik kabi tez sur'atlarda ravnaq topayotgan sohalar uchun ishchi kasblar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashi ko'zda tutildi. O'z navbatida, yangi tizimning barcha huquqiy - me'yoriy asoslari yaratildi. Jumladan, yaqinda "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ – huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi hukumat qarori e'lon qilindi. Qaror bilan uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi nizom, boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar maktablarining namunaviy ustavi, O'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning namunaviy ustavi hamda O'rta- maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlidigan texnikumlarning namunaviy ustavi tasdiqlandi. Ushbu hujjatlar asosida o'quv jarayoni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan ta'lim dasturlari asosida tashkil etiladigan 3 ta toifadagi ta'lim muassasalari yo'lga qo'yiladi. Joriy etilayotgan yangi tizim xalqaro andozalarga to'la mos bo'lishi uchun 14 ta xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari o'rganildi.

Professional ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlash maqsadida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo'llashga o'rgatadigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim dasturlari yaratildi va yangi o'quv yilidan tadbiriq etish boshlandi. Professional ta'lim

muassasalari bazasida zamonaviy agrateknologiyalarga o'qitishni joriy qilish, "simulyasion markazlar" faoliyatini yo'lga qo'yish amalga oshiriladi.

Oliy ta'limda ta'lim-tarbiya olayotgan talabalardan ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida fan, amaliyot ilg'or pedagogik tajriba birligi hamda o'zaro aloqadorligida uning samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ta'lim me'yorlari, qoidalari, daraja va sifat ko'rsatkichlarini o'zlarida mujassamlashtirib, malakali mutaxassis bo'lib yetishishni talab qiladi. Talabalarning olgan mutaxassisligiga tayyorgarlik darajasi zamon talablariga, bozor iqtisodiyotiga javob berishi lozim. Bu esa biz o'qituvchilar oldiga ijodiy izlanish o'qitishning progressiv usullarini qidirib topish, fanlar yutuqlaridan o'qitishning noan'anaviy uslublaridan unumli foydalanish kabi talablarni qo'yimoqda. Oliy ta'limda o'quv faoliyatini boshqarishning o'qituvchi tomonidan emas, balki o'qituvchi boshqaruvida, talaba tomonidan o'quv jarayonini olib borishning yangi uslublarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunday holda talabalarda oliy ta'limning mazmuni, o'quv faoliyatining tarkibiy qismlari, uning pedagogik-psixologik xususiyatlari va qonuniyatlari, uni tarkib toptirish yo'llari, vositalari, o'zlashtirish, egallab olish usullari anglangan asosda singdirib borilishi lozim. Ushbu murakkab muammolarning yechimini topib, ularni amalga keng qo'llash bo'lajak boshlang'ich ta'lim tarbiyalanuvchilari va murabbiylari oldiga juda katta vazifalarni qo'ydi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o'quv jarayonini yaxshilash, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga tadbiiq etish, texnik vositalardan keng foydalanish va joriy qilish belgilab berilgan.

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida jumladan, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'qitish bo'yicha ta'lim texnologiyalari, ularni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar bayon etilgan. Ushbu tavsiyalar mashg'ulotlari texnologiyalarini ishlab chiqish usul va vositalari, ularning muhim belgilaridan iborat ta'limni texnologiyalash qoidalarini hisobga olgan holda loyihalashtirilgan. Shuningdek maktablarda mashg'ulotlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik kommunikatsion texnologiyalarini ushbu usullarini qo'llash mumkin. Hozirgi kunda jahon tajribasidan

ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayoniga o'qitishning yangi, zamonaviy usul va vositalari kirib kelmoqda va samarali foydalanilmoqda. Jumladan, oliy o'quv yurtlari boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida ham innovatsion va zamonaviy pedagogik g'oyalar amalga oshirilmoqda: o'qituvchi bilim olishning yagona manbai bo'lib qolishi kerak emas, balki o'quvchilar mustaqil ishlash jarayonining tashkilotchisi, maslahatchisi, o'quv jarayonining menejeri bo'lishi lozim.

Talabalarning fanlarni o'zlashtirish uchun o'qitishning zamonaviy pedagogik usullaridan va informastion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Bunda elektron darslik uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materallar, virtual stentlar va yangi nashr etilgan zamonaviy adabiyotlardan foydalaniladi. Ma'lumki taraqqiyot har bir sohada o'z ta'sirini o'tkazadi. Taraqqiyot tufayli izlanishlar, yangilanishlar joriy etiladi. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilishni ta'minlashga yangi axborotkommunikatsion tizimlarning biri hisoblanadi. Pedagoglar uchun kompyuter zamonaviy o'qitish usuli hisoblanibgina qolmay, ularning kasbiy mahoratini yanada oshirib, takomillashtirib borishga imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, kompyuter texnologiyasi pedagog uchun o'quv ma'lumotlarini berish loyihalarini amalda kengaytirishga sharoit yaratadi, ya'ni ranglardan foydalanish, grafiklar, multipilikatsiyalar holatini aniq tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Kompyuterdan foydalanish pedagogning ta'lim berish jarayonini kengaytiradi. O'qitish faqat kompyuterdan foydalanish bilan chegaralanib qolmasdan, balki pedagog uchun talabalar oldiga masala va topshiriqlarni qo'yilish darajasini turli variantlarda o'zgartirish imkoniyatini yaratadi. Ta'lim jarayonida madaniyatning sara qadriyatlarini asosida o'quv va tarbiya birligi shakllanadi. Ta'lim jarayonida shaxs ijtimoiy xayotda bajarishi kerak bo'lgan sotsial va professional rollarga tayyorlanadi. Fandagi, texnikadagi o'zgarishlar ta'lim tizimiga jiddiy ta'sir etadi. Ta'lim sifati va darajasini ko'tarmasdan ishlab chiqarishga fan va texnika yutuqlarini joriy qilish, uning samaradorligini oshirish mumkin emas. Ta'lim texnologiyalarini qo'llashda muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil

oluvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida respublikamiz ta'limiga mos bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish hamda undan foydalanish samaradorligini oshirishda pedagoglar juda e'tiborli, zukko, mahoratli bo'lishlari zarur. Zero, o'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon-atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol insonni tarbiyalash vazifasi istiqloq yillarida biz uchun hal qiluvchi masalaga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2021. 29-bet.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish. – TDPU, 2004. -35 b.
3. Mavlonova R, To'raeva O, Xoliqberdiev K. Pedagogika.- Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 510 b.
4. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'tod, 2008. -108 – b.
5. Yusupov X. Tizimli innovatsion yondashuv asosida ta'lim sifatini boshqarishning asosiy yo'nalishlari. – T.: Xalq ta'limi, 2019. – 44- b.
6. Omonov B. Ta'lim va milliy taraqqiyot. – T.: Xalq so'zi, 2020. – 2-3 – b.
7. Rahmonov, Oliy ta'lim tizimi: O'zbekiston qanday marralarni ko'zlamoda? – T.: Xalq so'zi, 2021. – 2-3 – b.

EKSPERIMENTAL SURUNKALI BUYRAK YETISHMOVCHILIGI MODELIDA O'PKADAGI MORFOLOGIK O'ZGARISHLAR VA UNI QIZILMIYA ILDIZI BILAN KORREKTSIYALASH.

Avezova Dilora Botirovna

*Buxoro davlat tibbiyot instituti anatomiya va klinik anatomiya(OXTA) kafedrası
assistenti.*

Annotatsiya. Turli xil ekologik omillar ta'sirida o'pka morfologiyasini o'rganish tibbiyot va biologiyaning turli sohalari uchun katta qiziqish uyg'otadi. Eksperimentda o'pkaning yallig'lanishida kalamushlar o'pkasining nafas olish qismida patomorfologik o'zgarishlarni va farmakokoreksiya ta'sirini o'rganish amalga oshirildi.

Kalit so'zlar: o'pkaning yallig'lanishi, o'pka patomorfologiyasi, glitserin,qizilmiya ildizi damlamasi

Kirish. Odam va har bir boshqa tirik organizm tashqi muhitdan kislorod qabul qilib, karbonat angidrid gazini chiqarib turishi nafas olish deb ataladi. Nafas olish har bir tirik organizmning hayoti uchun eng zarur fiziologik jarayon hisoblanadi. Nafas olish jarayoni quyidagi qismlardan iborat: 1. O'pka alveolalari va tashqi muhit o'rtasida kislorod va karbonat angidrid almashinuvi (tashqi nafas olish). 2. O'pka alveolalari va o'pkaning kapillyar qon tomirlari o'rtasida kislorod va karbonat angidrid almashinuvi. 3. Qon va to'qimalar o'rtasida kislorod va karbonat angidrid almashinuvi (ichki nafas olish). Nafas olish orqali tashqi muhitdan qabul qilingan kislorod ishtirokida hujayra va to'qimalarda oqsil, yog' va uglevodlar oksidlanib, energiya hosil qiladi. Hujayra va to'qimalardagi barcha hayotiy jarayonlar (qo'zg'alish, harakatlanish, ko'payish) ana shu energiya hisobiga amalga oshadi. Bu hayotiy jarayonlar natiijasida hosil bo'lgan karbonat angidrid gazi hujayra va to'qimalardan qonga o'tib, o'pkalar orqali tashqi muhitga chiqariladi.

Chap o'pka esa yuqorigi va pastki bo'lakdan tashkil topgan. O'pkalar pastki tomondan diafragma, orqa tomondan umurtqa pog'onasi, oldingi tomondan to'sh suyagi va atrof tomondan qovurg'alar bilan chegaralangan. O'pka to'qimasi daraxtsimon shakldagi o'rtacha, mayda va eng mayda bronxchalardan hamda pufakchasimon alveolalardan tashkil topgan. O'pka to'qimasi bronxlar va alveolalardan tashkil topganligi tufayli, u g'ovaksimon tuzilgan bo'ladi. O'pka alveolalarida gaz almashinuvi jarayoni kechadi. Ularning dev'iri bir qavatli epiteliy to'qimasidan iborat bo'lib, atrofi mayda qon tomirlari - kapillyarlar bilan to'rsimon shaklda o'ralgan. Alveolalarning soni ikkala o'pkada 750 mln atrofida bo'ladi. Alveolalarning umumiy sathi 100 m kvni tashkil qiladi.

O'pkalar katta qon aylanish doirasidan kelgan bronxial arteriya tomiri orqali oziqlanadi. Kichik qon aylanish doirasining tomirlari, ya'ni o'pka arteriyalari va o'pka venalari o'pka to'qimasini oziqlantirishda ishtirok etmaydi. Bu tomirlardagi qon o'pka alveolalariga o'zidagi karbonat angidridni berib, ulardan kislorod qabul qiladi, ya'ni venoz qon arterial qonga aylanadi.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqotda 150 nafar 5,9,12 oylik erkak va urg'ochi laborator oq sichqonlardan foydalanib, ular kuzatuv muddatlariga qarab 3 ta guruh (har birida n=50)ga ajratildi. Jonivorlar vivariy sharoitida standart rastinga (oziq-ovqat va suv ta'minotiga ega) muvofiq saqlandi. Ularga tajribada surunkali buyrak yetishmovchiligini chaqirish uchun bir oy davomida mushak orasiga glitserin 5%-0.8mg/100mg dozada in'ekstiya qilindi.30-kundan boshlab kalamushlarning bir qismiga korrektsiyalash maqsadida qizilmiya ildizi damlamasi berildi. Jonivorlar morfologik tekshirish uchun kuzatuvning 30-, 60- kunlarida rejaga muvofiq eksperimentdan chiqarildi. Eksperimentlarni o'tkazish, hayvonlarda tajribalar qo'llashda qonunchilik me'yoriy hujjatlari doirasidan chiqmasdan hamda butunjahon konvenstiyasi (umurtqali hayvonlarni himoya qilish to'g'risida, 1997 yil) ga to'liq amal qilindi. Oq sichqonlarning o'pkasi ajratib olinib, 10%li formalinda fiksastiya qilindi. 3-4 mkr qalinlikdagi gistologik kesimlar gematoksilin eozin bilan bo'yaldi. Gistologik preparatlar mikroskopda taxlil qilindi va rasmga olindi.

Tadqiqot maqsadi: Eksperimental o'pka yallig'lanishida o'pkaning morfologiyasi va uni qizilmiya ildizi damlamasi vositalari bilan korrektsiyalash.

Tadqiqot natijalari va muhokama.

Nazorat guruhida o'tkir o'pka shikastlanishining belgilari eng keng tarqalgan edi. Qizilmiya ildizi damlamasi kiritilgandan o'n kun o'tgach, o'pkaning gistologik rasmida qon talashlar va shish kuzatilmadi. O'tkir o'pka shikastlanishining gistologik belgilarini miqdoriy baholashda qizilmiya ildizi damlamasi qo'llashdan maksimal ijobiy ta'sir qo'llashdan 48 soat o'tgach rivojlanadi. Qizilmiya ildizi damlamasi birinchi navbatda o'pka shishining pasayishiga olib keldi.

Morfologik jihatdan o'tkir o'pka shikastlanishining uch bosqichi mavjud (bundan buyon matnda ALI deb yuritiladi). Ulardan birinchisi erta eksudativ bosqich (besh kungacha). Bu kapillyarlarning tiqilib qolishi, o'pka alveolarining qulashi, mikrotromblar, alveolsitlarning shikastlanishi, neytrofillar infiltratsiyasi, o'pka shishi, alveolalar ichida gialin parda va fibrin mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi bosqich - fibrino-proliferativ (olti kundan o'n kungacha). O'pka shishi asta-sekin yo'qoladi va fibroblast proliferatsiyasi boshlanadi. ALI boshlanganidan keyin o'ninchi kundan boshlab shakllanadigan uchinchi fibrotik bosqich destruksiya o'choqlarida biriktiruvchi to'qima (hujayralar va tolalar) paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi [1].

Barcha bosqichlarda asosiy dekompensatsiyalanuvchi hodisa havo-qon to'sig'i tarkibiy qismlarining o'tkazuvchanligini oshirish bo'lib, bu o'pka shishining rivojlanishi va rivojlanishiga yordam beradi. O'tkir amfizemning paydo bo'lishi kompensatsion mexanizmdir. Atelektaziya va distelektaz bronxiolalar sekreti bilan to'sqinlik qilganda, epiteliya hujayralari desquamatsiyalanganda va sirt faol moddalar sintezi va sekreti uchun javobgar bo'lgan II turdagi alveolsitlar shikastlanganda yuzaga keladi, bu o'pkada tarkibiy o'zgarishlarning yanada rivojlanishiga va gipoksiyaning kuchayishiga yordam beradi. [2]. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ALI rivojlanishining qo'zg'atuvchisi reaktiv kislorod, reaktiv azotning chiqarilishi bo'lib, bu o'z navbatida proteolitik fermentlar, yallig'lanishga qarshi sitokinlar ta'sirini kuchaytiradi va neytrofillar, alveolyar va interstitsial makrofaglarni faollashtiradi [3]. Bunday holda, endotelial vazodilatatsiya qiluvchi omil NO kamayadi va antioksidant himoyaning kuchayishi uni tiklaydi [4]. ALI fonida antioksidantlarni qo'llashda paydo bo'ladigan yallig'lanishga qarshi ta'sir makrofaglar, monotsitlar va neytrofillarning o'pkaga migratsiyasini kamaytirish va bu hujayralar tomonidan reaktiv kislorod va reaktiv azot ishlab chiqarishni kamaytirish orqali amalga oshiriladi [5].

Alveolyar-kapillyar membrananing o'tkazuvchanligini cheklash va ekstravaskulyar o'pka suyuqligini kamaytirishning farmakologik usullari ALI prognozi va natijalariga foydali ta'sir ko'rsatishi endi aniq bo'ldi [6]. Masalan, osmos tufayli gipertonik eritmalar suyuqlikni hujayra ichidagi bo'shliqdan hujayradan tashqari (tomir) bo'shliqqa qayta taqsimlashga qodir.

Gistologik tekshirish uchun o'pka 10% formalin eritmasida mahkamlangan. Preparatlar kerosinga solingan va PFM Rotary 3003 aylanadigan mikrotomida 7-8 mkm qalinlikdagi bo'laklar tayyorlangan, mumdan tozalangan qismlar gematoksilin va eozin bilan bo'yalgan.

Gistologik preparatlar Nikon Eclipse NI-SS yorug'lik mikroskopi yordamida ko'rildi. Mikrofotosuratlar Nikon DS-F21 kamera ilovasi yordamida 100, 200 va 400 marta kattalashtirishda olingan. Gistologik rasmni miqdoriy baholash uchun har xil chuqurlikdagi o'pkaning har bir bo'lagidan qalinligi 5 mkm bo'lgan beshta bo'lak tayyorlandi. O'pkaning shikastlanish darajasi morfologik belgilarning uchta guruhining mavjudligi va zo'ravonligi bilan miqdoriy jihatdan baholandi: 1) alveolalar ichida fibrin yoki gialin membranalarining mavjudligi, 2) alveolalar bo'shlig'ida va nekroz o'choqlarida qon hujayralari mavjudligi. alveolyar septalarning, 3) turli lokalizatsiyadagi granulotsitlar va monositik hujayralar bilan infiltratsiya [19]. Belgilarning har bir guruhiga zo'ravonlik darajasiga qarab 0 dan 3 gacha ball berildi (0 - belgi yo'q, 1 - engil ifodalangan, 2 - o'rtacha ifodalangan, 3 - eng aniq o'zgarishlar) [19-20]. Agar o'pkaning bir bo'lagining turli gistologik bo'limlarida

o'zgarishlarning og'irligi har xil bo'lsa, u holda zararning maksimal belgilari bo'lgan bo'lim statistik tahlilga o'tkazildi. Guruhdagi har bir hayvon uchun barcha 5 o'pka bo'lagidagi har bir belgi uchun ballar yig'indisi aniqlandi, shunda maksimal ball 15 ga teng bo'lishi mumkin. Raqamli qiymatlardagi kuzatilgan farqlar Student's t -test va ch-kvadrat yordamida baholandi. sinov. Statistik jihatdan ahamiyatli farqlar haqidagi xulosa $p < 0,05$ ahamiyatlilik darajasida qilingan.

Xulosa . Turli xil ekologik omillar va kimyoviy vositalar ta'sirida o'pka morfologiyasini o'rganish tibbiyot va biologiyaning turli sohalari uchun katta qiziqish uyg'otadi. Tajribada surunkali buyrak yetishmovchiligi rivojlangan kalamushlar o'pkasining nafas olish qismida patologik o'zgarishlar va farmakologik tuzatish ta'sirini o'rganish amalga oshirildi. Zarar etkazuvchi vosita sifatida glitserin, farmakologik tuzatish vositasi sifatida qizilmiya ildizi damlamasi ishlatilgan. Hayvonlarning nazorat guruhi antibiotik terapiyasini oldi. Slaydlarni bo'yash gematoksilin va eozin yordamida amalga oshirildi. O'pka to'qimalarining shikastlanishining gistologik belgilarining miqdoriy bahosi o'tkazildi. O'pka preparatlarini o'rganish natijasida o'pka shishi darajasi, shuningdek, farmakologik tuzatishlarning shishga qarshi ta'siri aniqlandi. O'pkaning gistologik tekshiruvi zarar etkazuvchi omil ta'siriga javoban organ arxitektonikasining umumiy buzilishini va farmakologik tuzatishlar ta'sirida uning pasayishini ko'rsatdi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Q.R. To'xtayev. Gistologiya, sitologiya va embriologiya. 2019.
- 2.F.X. Azizova. Gistologiya, sitologiya va embriologiya. 2019
- 3.Sh.R. Abzalov, E.A. Tursunov. Gistologiya.
- 4.Novikov NY. Vliyanie gemodinamicheskogo i membranogenogo faktorov oteka na morfologicheskie izmeneniya v legkikh. Zaporozhskiy meditsinskiy zhurnal. 2012;71(2):41–42
5. Shaman. Premradzh Sudebno-meditsinskaya otsenka dinamiki morfologicheskikh izmeneniy dykhatel'noy sistemy pri aspiratsii zheludochnogo sodержimogo i krovi. Avtoreferat diss. kand. med. nauk: 14.03.05. Moskva, 2011. S. 22.
6. Chow CW, Herrera MT, Suzuki T, Downey GP. Oxidative stress and acute lung injury. Am J Respir Cell Mol Biol. 2003;29(4):427–431. DOI:10.1165/rcmb.F278.
7. Shuvaev VV, Han J, Tliba S, Arguiri E, Christofidou-Solomidou M, Ramirez SH, Dykstra H, Persidsky Y, Atochin DN, Huang PL, Muzykantov VR. Anti-inflammatory effect of targeted delivery of SOD to endothelium: mechanism, synergism with NO donors and protective effects in vitro and in vivo. PLoS ONE. 2013;(8)10:e77002. DOI: 8.1371/journal.pone.0077002.

9. Gorąca A, Józefowicz-Okonkwo G. Protective effect of an early treatment with lipoic acid in LPS-induced lung injury in rats. *J Physiol Pharmacol*. 2007;58(3):541–549.
10. Jozwiak M, Silva S, Persichini R, Anguel N, Osman D, Richard C, Teboul JL, Monnet X. Extravascular lung water is an independent prognostic factor in patients with acute respiratory distress syndrome. *Crit Care Med*. 2013;41(2):472–480.
11. Zafar MA, Hussain MH, Muhammad G, Saqib M. Potential Use of Hypertonic Saline Solution (7-7.5% NaCl) Resuscitation in Hypovolemic and Endotoxic Shock. *International journal of agriculture and biology*. 2004;6(5):926–930.
12. Yu G, Chi X, Hei Z, Shen N, Chen J, Zhang W, Li S. Small volume resuscitation with 7.5% hypertonic saline, hydroxyethyl starch 130/0.4 solution and hypertonic sodium chloride hydroxyethyl starch 40 injection reduced lung injury in endotoxin shock rats: Comparison with saline. *Pulmonary Pharmacology & Therapeutics*. 2012;25(1):27–32..
13. Roch A, Hraiech S, Dizier S, Papazian L. Pharmacological interventions in acute respiratory distress syndrome. *Annals of Intensive Care*. 2013;3(20):1–9. DOI:10.1186/2110-5820-3-20.
14. Bulger EM, May S, Kerby JD, Emerson S, Stiell IG, Schreiber MA, Brasel KJ, Tisherman SA, Coimbra R, Rizoli S, Minei JP, Hata JS, Sopko G, Evans DC, Hoyt DB. Out-of-hospital hypertonic resuscitation after traumatic hypovolemic shock: a randomized, placebo controlled trial. *Ann Surg*. 2011;253(3):431–441..
10. Jozwiak M, Silva S, Persichini R, Anguel N, Osman D, Richard C, Teboul JL, Monnet X. Extravascular lung water is an independent prognostic factor in patients with acute respiratory distress syndrome. *Crit Care Med*. 2013;41(2):472–480.
11. Zafar MA, Hussain MH, Muhammad G, Saqib M. Potential Use of Hypertonic Saline Solution (7-7.5% NaCl) Resuscitation in Hypovolemic and Endotoxic Shock. *International journal of agriculture and biology*. 2004;6(5):926–930.
12. Yu G, Chi X, Hei Z, Shen N, Chen J, Zhang W, Li S. Small volume resuscitation with 7.5% hypertonic saline, hydroxyethyl starch 130/0.4 solution and hypertonic sodium chloride hydroxyethyl starch 40 injection reduced lung injury in endotoxin shock rats: Comparison with saline. *Pulmonary Pharmacology & Therapeutics*. 2012;25(1):27–32..
13. Roch A, Hraiech S, Dizier S, Papazian L. Pharmacological interventions in acute respiratory distress syndrome. *Annals of Intensive Care*. 2013;3(20):1–9. DOI:10.1186/2110-5820-3-20.
14. Bulger EM, May S, Kerby JD, Emerson S, Stiell IG, Schreiber MA, Brasel KJ, Tisherman SA, Coimbra R, Rizoli S, Minei JP, Hata JS, Sopko G, Evans DC, Hoyt

DB. Out-of-hospital hypertonic resuscitation after traumatic hypovolemic shock: a randomized, placebo controlled trial. Ann Surg. 2011;253(3):431–441..

BO‘LAJAK TEXNIK MUTAXASISLARNI KASBIY KOMPETENSIYASINI MULTIMEDIYA VOSITALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Norinov Muhammadyunus Usibjonovich

(TATU Farg‘ona filiali, o‘qituvchi)

Rahmatxonov Boboxo‘ja Shukrilloxon o‘g‘li

(TATU Farg‘ona filiali, talaba)

Ajdodlarimiz bizga inson mehnatining minglab ajoyib namunalari, san‘at, fan, adabiyotga doir jahonga mashhur asarlarini qoldirganlar. Ular azaldan yosh avlod ta‘lim-tarbiyasini o‘zlarining eng muhim vazifalari sifatida ko‘rganlar. Asrlar mobaynida insonga ta‘lim-tarbiya berishning asosiy tamoyillarini hisobga olgan xalq pedagogikasi rivojlanib va takomillashib kelgan. Yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, Vatanga muhabbat va o‘zaro hurmat ruhida tarbiyalash xalq pedagogikasining asosiy yo‘nalashlaridan biri bo‘lgan.

Har bir jamiyatning taraqqiyoti millat yoshlarini milliy ruhda tarbiyalash, ularni milliy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy hayot, turmush tarziga qay darajada samarali tayyorlanishiga bog‘liq. Shu sababli asrlar davomida har bir millat, xalq o‘z milliy qadriyatlari negizida yosh avlod tarbiyasini tashkil etishga oid qarashlarni shakllantirib kelgan. Milliy yondashuv asosida tarbiya jarayonini tashkil etish natijasida yoshlar milliy mentalitet xususiyatlarini o‘zida namoyon etuvchi sifatlarga ega bo‘lganlar.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun keng yo‘llar ochildi. Mustaqillikning birinchi kunidan boshlab respublikamizning barcha sohalarini texnik qayta rivojlantirish, zamonaviy texnika va texnologiya bilan ta‘minlash hamda xalqaro zamonaviy talablarga javob beruvchi telekommunikatsiyali va kompyuterli aloqa tizimini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoldi. O‘zbekiston hamdo‘stlik davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib axborotlashning yaxlit davlat siyosatini amalga oshirishga asos soldi.

Yuqori malakali pedagog kadrlarga bo‘lgan talablar ortib borayotgan hozirgi sharoitda barkamol yosh avlodni asrlar davomida shakllanib kelayotgan

umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega bo'lgan, fanning fundamental asoslarini puxta egallagan, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirib olgan ijodkor pedagog kadrlarni shakllantirish talab etiladi. Bunday vazifalarni bajarish mavjud ta'lim tizimini mukammallashtirishni, uni hozirgi zamon talablariga mos rivojlantirishni, xususan oliy ta'lim paradigmasini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fundamental bilimlarni mustahkam egallashga qodir pedagoglar tayyorlashga yo'naltirishshsh taqozo etadi.

Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'yimoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish" vazifasi belgilandi. Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug'iladi. Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir. Har qanday o'qituvchi ham "kompetentlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya"dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. "Kompetentlik" tushunchasi pedagogning ma'lumoti, ko'nikmasi, qobiliyati va tajribasini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma'lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o'xshashdir. Ta'lim tarbiya tizimining umumiy maqsadi jamiyatimizga teng huquqli demokratik davlat talablariga javob bera oladigan mas'uliyatli barkamol jamiyat a'zolarini tabiyalab berishdan iboratdir.

Pedagogik texnologiyalarni o'rganish va ta'limga joriy qilish borasidagi olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida Respublikamiz sharoitiga mos bo'lgan ta'lim texnologiyalarini topish imkoniyatlariga ega bo'lish mumkin. Buning uchun mavjud bo'lgan ta'lim texnologiyalari va ilg'or davlatlardagi pedagogik texnologiyalarni o'rganib chiqib, talabalarning ta'lim olish xususiyatlari tadqiqot qilindi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni oshirish uchun kerak bo'lgan bilimlarning, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni o'z faoliyati davomida munosib qo'llay olishidir. O'qituvchi albatta, alohida bilim ko'nikmalarni egallashi bilan birga, ma'lum bir mustaqil yo'nalish boyicha bilimlar va harakatlarni o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tizimi – pedagogik mahorat orqali namoyon bo'ladi. Kasbiy tayyorgarlik modelini shakllantirishda umumiylikdan xususiy mahorat sari boriladi. Umumiy mahorat – bu pedagogik fikr yuritish va faoliyat yurgazish hisoblanadi, fakt va hodisalarni nazariy jihatdan tahlil qilishga undaydi. Pedagog uchun zarur bo'lgan mahoratning bu ikki unsurini birlashtirish asosida konkretlikdan abstraklikka, ya'ni aniqlikdan mavhumlik sari o'tiladi. Ular sezgi, tafakkur va nazariy asoslarda yuz beradi. Tahlil etishni nazariy darajaga olib chiqish mahorati bo'lg'usi o'qituvchilarni pedagogik mahoratga o'rgatishning yoki pedagogik mahoratni yanada takomillashtirishning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Pedagogik masalalarning umumlashganligiga qaramay, pirovard natija, echim “fikrlash, faoliyat yurgazish, fikrlash” mana shu uchlikka kelib taqaladi hamda pedagogik faoliyat unsurlari va unga mos bo'lgan axborot bilan uyg'unlashib ketadi. Natijada o'qituvchining kasbiy kompetentligi modeli uning nazariy va amaliy tayyorgarligi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismatov, N. A., Radjabova, V. E., & Toirov, B. B. (1999).
2. Toirov, B. B., Khamidov, Y. Y., & Asadova, Z. A. (2019). INNOVATIVE TRAINING TECHNOLOGIES. BULLETIN OF MASTER'S,(5-3),
3. АЛИМОВ, А. А., Тоиров, Б. Б., & Савриева, И. Б. (2020). УМУМКАСБИЙ "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 (SJIF) January 2023 / Volume 4 Issue 1 www.openscience.uz / ISSN 2181-0842477
ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БАҲОЛАШ. Science and Education, 1(8), 199-206.
4. Toirov, B. B. (2021). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH VOSITASI SIFATIDA. Science and Education, 2(2), 338-343.
27. Tosheva, G. D., & Toirov, B. B. (2020). INNOVATION TECHNOLOGIYALAR TA'LIM TARAQQIYOTINING ASOSIY KUCHI VA TUTGAN O'RNI. Science and Education, 1(8), 222-228

ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

TOSHBEKOVA MOHIRA XASANOVNA

University of science and technologies

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i

Annotatsiya. Mazkur maqolada respublikamiz oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan. Shuningdek, oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan xulosalar tuzishda mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish orqali ta'lim sohasida nafaqat muhim o'rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, oliy ta'lim tizimi, zamonaviy ta'lim, raqamli bilimlar, Internet tizimi, masofaviy o'qitish.

Аннотация. В данной статье определены приоритетные направления развития образовательного процесса на основе применения цифровых технологий в системе высшего образования Республики, анализа их возможностей. Также были высказаны предложения о том, как и в какой форме внедрение цифровых технологий в высшее образование может занять важное место в сфере образования только путем изучения, систематизации и обобщения существующей практики составления научно обоснованных выводов.

Ключевые слова: цифровые технологии, информационно-коммуникационные технологии, система высшего образования, современное образование, цифровые знания, Интернет-система, дистанционное обучение.

Annotation. In this article, priority directions of development of the educational process are determined on the basis of application of digital technologies in the higher education system of the Republic, analysis of their capabilities. Also, proposals have been made on how and in what form the introduction of digital technologies in higher education can only take an important place in the field of education by studying, systematizing and summarizing the existing practice in drawing up scientifically based conclusions.

Key words: digital technology, information and Communication Technology, higher education system, modern education, digital knowledge, Internet system, distance learning.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida faol qo'llanilmoqda: iqtisodiyot, bank, xizmat sektori shuningdek ta'lim jarayonini ham tez sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan yosh bolalardan tortib nafaqaxo'rlarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikrni shakllantirmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining robotlashtirilishi, masalan bank sektorida, robotlar va ishchilar o'rtasidagi raqobat masalasi ham ko'tarilmoqda. Raqamlardan foydalanishga asoslangan hamda joriy etilgan texnologiyalarning so'zsiz foydasi bilan axloqiy, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, robotlar va tashkilotlar xodimlari o'rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlari bilan bog'liq masalalar tobora ko'proq e'tiborga olinmoqda. Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi" [1].

Tadqiqot metodologiyasi

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Raqamli iqtisodiyot bu birgina faoliyat turi emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat ob'ektlari, sifatli ta'lim va xizmatlar deganidir. "Raqamli" atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi. Ularning tahlilidan so'ng esa to'g'ri boshqarish bo'yicha yechim ishlab chiqiladi. Mazkur maqolani yozishda respublikamiz oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash maqsadi qo'yilgan bo'lib, unda raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasida nafaqat muhim o'rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo'yicha tahlillar amalga oshirildi. Tadqiqot usullari sifatida oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga tegishli xulosalar

tuzishda normativ hujjatlarni, mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirishdan foydalanildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugun pandemiya sabab ta'lim muassasalarini yopgan mamlakatlarning 60 foizigina to'liq raqamli ta'limga o'tgan. Ba'zi xalqaro ekspertlar onlayn ta'limga to'liq o'tib bo'lmashligi, bu jarayonga muammoli vaziyatdan chiqish yo'li sifatida qarash lozimligini, aks holda ta'lim sifati tushib ketishini ta'kidlasa, ba'zilar zamonaviy ta'lim uchun yangi davr boshlanganini e'tirof etmoqda. Ayrim davlatlar ziyolilari esa masofaviy ta'limga qamrab olishda ta'minot masalasini ilgari surmoqda. Internet manbalarida xabar berilishicha, bugungi kunda atigi o'nga yaqin davlatdagi talabalarning 95 foizida kompyuter bor. Indoneziyada esa 34 foiz yoshning internetdan foydalanishga sharoiti etarli. Qolgan davlatlarda bu ko'rsatkich ancha past. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasida ham bu ko'rsatkich yuqori darajada emas. Bunga sabab esa chekka hududlarda Internet infratuzilmasining yaxshi rivojlanmaganligidir. Bu esa ayrim mutaxassislar taxmin qilayotganidek, ta'lim sifati tushib ketishiga sabab bo'lishi mumkin [2].

Xo'sh, shu o'rinda savol tug'iladi. Biz raqamlashtirishga tayyormizmi? Xavf-xatarni oldindan ko'ra bilish, uning natija hamda oqibatlarini to'g'ri baholay olish vaziyatdan talafotsiz chiqib ketishni ta'minlaydi. Dunyoda pandemiya tarqalishi ortidan mamlakatimizda iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, xizmat ko'rsatish sohalari singari ta'lim jarayoni uzluksizligini ta'minlash uchun ham kerakli choralar ko'rildi. Xususan, 2021 yilning 17 martida Prezidentimizning "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish choratadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, mazkur qarorda ta'limning barcha sohalarini raqamlashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

2021 yil 23 martdan talabalar uchun televizion darslar efirga uzatila boshladi. Bundan tashqari, bir nechta oliy ta'lim muassasalari talabalar va o'quvchilar uchun virtual ta'lim tizimlarini ishga tushirdi. Masalan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida maktab va akademik litsey o'quvchilari, talabalar va AKT sohasida bilim olishni xohlovchilar uchun to'rtta virtual ta'lim tizimi faoliyat boshladi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida "O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish" axborot tizimi hamda MOODLE masofaviy ta'lim platformasi ishga tushirildi. Boshqa oliy ta'lim muassasalarining rasmiy veb-saytlarida ham MOODLE, Platonus, Moodle LMS, SRS (Student Records System), MOOC kabi masofaviy ta'lim platformalari hamda mobil telefon va planshetlar uchun Google Classroom, Ereader

ilovalari ishga tushirilib onlayn darslar tashkil etilishi boshlandi. Shular qatori, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ham qisqa muddat ichida “remote-education” masofaviy ta’lim platformasining dasturiy ta’minoti ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Yurtimizdagi nufuzli xususiy o‘quv markazlari ham zamon talabidan kelib chiqqan holda onlayn ta’limni yo‘lga qo‘ydi. Bu jarayonning o‘zi ham mamlakatimiz ta’lim tizimida yangi bosqich boshlanganini anglatadi. Sababi, shu kungacha hali hech bir o‘quv markazi bunday tartibga o‘ta olmayotgan edi. Ta’lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko‘plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi yillarda ta’limni “raqamlashtirish” muammolari, uning shakllanishiga ta’siri bo‘yicha birorbir davlat loyihasi yoki so‘rovnoma asosida tadqiqotlar o‘tkazilmaganligi ham muhimdir [3]. Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta’sirining ahamiyati hukumatning, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma’ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, magistrant va tadqiqotchilarning, shuningdek deputatlarning izlanishlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, oldin raqamli texnologiyalarni barcha sohalarda, ya’ni, sanoat, iqtisodiyot, bank va boshqa sohalarda joriy etish bilan cheklanib qolgan edik. Bugungi kunda esa raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanib borayotganini e’tiborga olib, raqamli rivojlanish bo‘yicha barcha soha rahbarlarining o‘rinbosarlari lavozim tarkibiga kiritilmoqda[4].

Tahlil va natijalar

Raqamlashtirish yo‘nalishi bo‘yicha faollashtirish barcha biznes tuzilmalarida amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda “tajovuzkor”, ayniqsa iqtisodiy samarasi topilgan joylarda, barcha darajalarda qo‘llab-quvvatlanmoqda. Iqtisodiyotda ro‘y berayotgan jarayonlar dinamikasi iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasida oliy ta’limini rivojlantirish bo‘yicha takliflarni tahlil qilish va ishlab chiqishda ta’lim hamjamiyatining faol pozitsiyasini talab qilmoqda. Ta’lmda raqamli texnologiyalarni o‘qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo‘llash uchun nimalar qilish kerak? Birinchidan, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhiki aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so‘ng yutuqlarini o‘zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berishimiz lozim.

Ikkinchidan, o'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish va axborot resurslari, o'qitish vositalari va masofaviy o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish bo'yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O'zbekistonning barcha oliy ta'lim muassasalarida qo'llash.

Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish.

To'rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma'ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o'tkazish.

Beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, video-konferensaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish.

Oltinchidan, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo'llash, raqamli didaktika va raqamli ta'lim modellarini qo'llash, o'qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta'lim sifatini tushirmagan holda talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz. Alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda hayotimiz har jihatdan texnika va texnologiyalar bilan bog'liq, ya'ni ertalab soat bongidan boshlab to kun rejasini tuzish va o'qish bilan yakunlashgacha. Biz ta'lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan manfaatli foydalanish imkoniyatini yaratishni istadik. Qachonki, planshet ta'lim olishning bir elementiga aylansa, bolalar o'qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadi. Bu o'yin bilan klassik ta'limni birlashtirishga tengdir. Natijada o'qish jarayoni yaxshilanadi, o'zlashtirish, ta'lim darajasi va kadrlarni tayyorlash samaradorligi oshadi. Bilimli avlod, professional kadrlar — bu jamiyatning keng miqyosda rivojlanishining garovidir.

Xulosa va takliflar

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kun auditoriyalari o'n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli avlodning etti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo'lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Raqamli avlod ota-onalarimiz o'rgangan uslubda o'qitilishi mumkin emas va bo'lmasligi ham kerak. Bu avlodni o'qitishda qora doska va oq bo'rdan foydalanish ham mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo'rni markerga o'zgartirish hech narsani o'zgartirmaydi, ya'ni zamonaviy talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko'nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo'la olmaydi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozim va bu bilan ilmiy tadqiqotda talabalarining ko'nikmalarini rivojlantirish va IT-kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta'lim tizimidagi barcha muammolarga echim emas, balki raqamli avlod uchun ma'ruzalar va seminarlarni ma'lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, o'qituvchilar talabalarining ehtiyojlariga yo'naltirilgan interfaol o'quv jarayonida asosiy rol ni saqlab qoladi. O'qituvchining obro'si va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina kurs mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o'quv materialini to'plash, qayta ishlash va o'qitishda o'qituvchining qanchalik zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash darajasiga bog'liq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta'lim qayta ko'rib chiqilishi va ta'lim paradigmasi o'zgartirilishi shart, chunki talabalar ortiq an'anaviy uslubda o'qishni xohlamaydilar va o'qituvchilar ham bu kabi odatiy usulda o'qitishni davom ettirishlari kerak emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.

<https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidentishavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.

2. Sharonin Yu.V. Сифровые технологии в высшем и профессиональном образовании: от личностно ориентированной Смарт-дидактики к блокчейну в селевой подготовке специалистов // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – №

3. Abdullayev M., Saidahrar, G., & Ayupov, R. (2020). Raqamli iqtisodiyot - kadrlar tayyorlashning dolzarb yo'nalishlari. Архив научных исследований, 1(23)

извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2702>

URL:<http://science-education.ru/ru/article/view?id=28507> (дата обращения: 25.06.2020).

4. Norboeva N Erkinovna, Khashimova D Pakhritdinovna. The role of the digital economy in the development of information and communication technologies // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10 (3), 25-31.

OTMLARDA ADAPTIV JISMONIY TARBIYA FANINING AHAMIYATI

Akbarova D. R. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Kayumova A. N. - Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarga adaptiv jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyati, nogironligi bor talabalarni sinchkovlik bilan nazoratga olgan holda musobaqalarga tayyorlash, adaptiv jismoniy tarbiyaning muhim va ustuvor vazifalari haqida ma'lumotlar berildi.

Kalit so'zlar: Adaptiv jismoniy tarbiya, nogiron talaba, kasallik, kompetentsiya, jarohatlar, tiklash, kompensatsion, aksiologik, sog'lomlashtirish.

Аннотация. В данной статье представлена информация о важности адаптивной физической культуры для студентов высших учебных заведениях, о подготовке учащихся с ограниченными возможностями, о важных и приоритетных задачах адаптивной физической культуры.

Ключевые слова: Адаптивное физическое воспитание, учащийся с ограниченными возможностями, болезни, компетентность, травмы, восстановление, компенсаторное, аксиологическое, оздоровительное.

Annotation. This article presents information about the importance of adaptive

physical culture for students of higher educational institutions, about the preparation of students with disabilities, about important and priority tasks of adaptive physical culture.

Keywords: Adaptive physical education, students with disabilities, diseases, competence, injuries, recovery, compensatory, axiological, wellness.

В высших учебных заведениях осуществляются последовательные меры по популяризации физической культуры и спорта, пропаганде здорового образа жизни среди населения, созданию необходимых условий для физической реабилитации лиц с ограниченными возможностями здоровья. Ярким примером этого является сдача дисциплины адаптивная физическая культура во многих вузах.

Адаптивная физическая культура-это активно развивающаяся сфера общественной жизни, элементы которой проникают в различные сферы общественной жизни и функционируют как адаптивная физическая культура, адаптивный физический отдых, адаптивный спорт, физическая реабилитация, творческая (художественно-музыкальная) и экстремальные виды физической активности людей [2]

Адаптивное физическое воспитание-служит активно развивающейся областью социальной практики, представленной в таких областях, как физическая культура и спорт, образование, здравоохранение, социальная защита населения, наука, культура.

Указ Президента Республики Узбекистан от 1 января 2017 года:

Среди студентов физкультурного направления в вузах важное значение приобретает комплексная поддержка лиц с ограниченными возможностями здоровья, имеющих инвалидность.

1995 г. в России появляется термин "адаптивное физическое воспитание", рассматривающий адаптивную физическую культуру как основной объект ее познания и воздействия не только на здоровых, но и на больных людей, в том числе и инвалидов.

Наука адаптивная физическая культура принципиально отличается от разделов общей физической культуры тем, что это реабилитационная или лечебная физическая культура (Матвеев Л. П., 1983) и двигательная реабилитация (Выдрин В. М.), 1985). Например, анализу основных понятий теории физического воспитания посвящена специальная монография Б. В.

Евстафьев (1985) рассматривает в качестве основной цели в этом разделе "восстановление функций, временно утраченных после болезни, травмы и т. д." [3].

Важные задачи адаптивного физического воспитания:

- Формирование у учащихся профессионального мировоззрения, основанного на аксиологической концепции, отражающей отношение общества к людям с проблемами здоровья, в том числе к инвалидам, составляющей основу культурной компетентности, интереса и познавательной деятельности;

- Обеспечение усвоения учащимися основ теории адаптивного физического воспитания и его организации, целостного понимания профессиональной деятельности, методических подходов, общих закономерностей данного вида социальной практики;

- Формирование у обучающихся стремления к самостоятельности и творчеству в процессе обучения, приобщение их к научным исследованиям, обеспечение развития собственного опыта в творческой деятельности;

- Создание условий для обучения студентов опыту эмоционально-ценностного отношения к будущей профессиональной деятельности, оказания им в будущем всестороннего оздоровления инвалидов, обеспечения их социальной интеграции в здоровье и улучшения качества жизни [4].

Приоритеты адаптивного физического воспитания:

- ✓ лицам с ограниченными возможностями здоровья и инвалидам.

- ✓ Это отладчик, по типу компенсационных и профилактических задач. образования, воспитания и оздоровительные функции.

В адаптивной физической культуре в основном требуется внимание и скрупулезность. То есть особое внимание уделяется студентам с дефектами органов тела. У них есть нарушения опорно-двигательного аппарата (плоскостопие, ожирение и т. д.) и сенсорных систем, таких как зрение, слух, речь, интеллект, эмоционально-волевые встречаются случаи нарушения сферы, соматических функциональных систем.

Согласно мнению П. Я. Гальперина, глазодвигательные работы, направленные на укрепление мышц, может привести к улучшению зрения; фаза формирования умственных действий в материальной форме (этого процесса значительно повышает работоспособность; необязательно задействует мышцы обучение навыкам расслабления снимает психологические "зажимы", корректирует эмоциональное состояние [7].

Коррекционная работа направлена на устранение как основного дефекта, так и сопутствующего заболевания также рекомендуется при вторичных заболеваниях, вызванных дефектом.

При невозможности коррекции возникают компенсаторные задачи (формирование пространственно-временной ориентации у слепых, "обучение" сенсорных систем, обучение ходьбе на протезах и т.д.) разрабатываются меры.

Роль адаптивной физической культуры в вузах неразрывно связана со многими дисциплинами, а именно с физкультурой, медициной, коррекционной педагогикой, большим количеством биомедицинского и социально-психологического образования, а также с научными дисциплинами.

Использованные литературы:

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
2. Теория и организация адаптационной физической культуры. Под ред. Есеева С.П.-М.:Советский спорт.2002
3. Salomov R.S., Mirjamolov M.X. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarning sport mashg'ulotlariga moslashishi o'quv uslubiy qo'llanma. T.:ITAPRESS,2015
4. Лечебная физкультура в системе медицинской реабилитации: Руководство для врачей /Под ред. А.Ф. Каптелина, И.П. Лебедевой. - М.: Медицина, 1995. - 400 с.
5. Выдрин В.М. Методические проблемы теории физической культуры //Теория и практика физической культуры, 1984, № 6, с. 10-12.
6. Акбарова Д. Р. Показана важность видов врачебного наблюдения врача в развитии медицинских знаний будущих учителей физической культуры Сборник международной научно-практической конференции «образование, воспитание и применение инновационных технологий в области физического воспитания и спорта: проблемы и пути решения» часть I 2023 год 3-4 ноября
7. Аксёнов А.В. Адаптивный спорт: инклюзивные и интеграционные процессы. Москва, 2021.
8. Аксенов А. В Инклюзивное физическое воспитание в начальной школе. М. : ТИД «Арис, 2013. 116 с

9. Соломин В. П., Митин А. Е. Применение специалистами по физической культуре гуманитарных технологий в условиях инклюзивного образования // Адаптивная физическая культура. 2014. № 4. С. 15–17 и др.)
10. Ильин Е. П. Мотивация и мотивы – СПб.: Питер, 2002 – 512 с: ил. – (Серия «Мастера психологии») / ISBN 5-272-00028-5

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITUVCHI MAHORATI MASALALARI

Renessans ta'lim universiteti
“Pedagogika va filologiya”
кафедраси доценти Маҳкамова М.Ю.

Annotatsiya Maqolada professional ta'lim muassasalari amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari tahlil etilgan. Sharq mutafakkirlarining o'qituvchi-ustoz to'g'risida aytgan fikrlari, zamonaviy darsga qo'yiladigan talablar, bugungi kunda o'qituvchi oldiga qo'yiladigan talablar haqida so'z yuritilgan.

Annotation The article analyzes the issues of teacher skills in high school practice. It discusses the views of Eastern thinkers on the teacher, the requirements for modern lessons, the requirements for teachers today.

Аннотация В статье анализируются вопросы навыков учителя в практике высшей школы, рассматриваются взгляды восточных мыслителей на учителя, требования к современным урокам, требования к учителям сегодня.

Mamlakat kelajagi, barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, o'z sohasining ustalari bo'lgan insonlarga bog'liq. Shu bois mamlakatimizda aynan ta'lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor [qaratilmoqda](#).

Professional ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish masalalari haqida fikr yuritilib, yuqori malakali professor-o'qituvchilar, olimlarni ta'lim jarayoniga jalb qilishning samarali mexanizmlarini yaratish haqida fikr bildirilgan.

Inson-tabi'atning bir bo'lagi. Inson bolasi ma'lum layoqat kurtaklari, ma'lum imkoniyatlar bilan tug'iladi. Ammo, bular imkoniyat. Bu layoqat kurtaklarining rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy muhit, sharoit, ta'lim-tarbiya zarur.

Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdulla Avloniy va boshqalar ham inson tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar ahamiyatiga katta e'tibor berib kelganlar. Farobiy inson kamolatida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: "Munosib inson bo'lish uchun odamda ikki imkoniyat – ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolatga erishiladi, tarbiya esa bu kishilarda muloqatda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir",-deydi.

O'tmishda yashagan buyuk mutafakkir va donishmandlar, ayniqsa Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino o'z asarlarida tabiatning shakllari va usullari haqida qimmatli fikrlarini bayon qilganlar.

Farobiy ta'lim-tarbiyagi birinchi marta ta'rif bergan olim hisoblanadi. Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya-nazariy fazilatlari, mas'ul hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim.

Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajribada o'rganishdir.

Farobiy, "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida" asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. U: "Avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy bilimlarni o'rganish zarur. Undan so'ng umuman, jonli tabiat – o'simliklar va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi",- deydi.

Farobiy didaktik qarashlarida ustoz o'qituvchining ma'suliyatini ifodalaydi. "Ustoz,-deydi u shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim". Chunki, ortiqcha zulm shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi-yu ustoz juda yumshoq bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib qoladi. Ayniqsa, Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri", "Falsafiy savollar va ularga javoblar", "Hikmat xulosalari", "Sharhlar" kabi asarlarida insonni tarbiyalash haqida ham fikr yuritadi.

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino pedagogik qarashlar insoning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uning kamolga yetishining asosiy mezoni sifatida talqin etiladi. Sharqda "Shayx ar-Rais" nomi bilan mashhur bo'lgan alloma – Abu Ali ibn Sino o'qituvchi mahorati haqida fikr yuritarkan, quyidagilar eslatib o'tiladi:

-bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;

- berilayotgan bilimning talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berish;
- ta’limda turli metod va shakllaridan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- aqliy darajasiga mos ravishda ta’lim berish;
- har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish zarur.

Abdulla Avloniyning fikricha, bolalarda fikrlash qobiliyatini o‘stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug‘ullanish benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimning **“diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir...Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog‘liqdir”**.

Zamonaviy dars oldiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- 1.Har bir dars albatta, ma’lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo‘lmog‘i lozim.
- 2.O‘quvchi talabalarni dastlab axborot yangiliklari bilan tanishtirishi kerak.
- 3.Har bir dars mustahkam g‘oyaviy yo‘nalishga ega bo‘lmog‘i kerak. Darsning mazmuni o‘qitilayotgan mavzuga bog‘liq holda o‘quvchilarga milliy istiqlol mafkurasi g‘oyalarini, mustaqillik, vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini sindirishga, ularda milliy g‘urur, milliy odob, yangicha dunyoqarash, iymon-e’tiqod kabi fazilatlarni tarbiyalashni nazarda tutish kerak.
- 4.Dars turmush bilan bog‘langan bo‘lishi kerak.
- 5.Har bir dars xilma-xil metod, usul va vositalardan keng,unumli foydalanilgan holda olib borilishi lozim.
- 6.Darsga ajratilgan vaqtni tejash va undan samarali foydalanish kerak.
- 7.Har bir dars o‘qituvchi talabalarning aktiv faoliyati birligini ta’minlamog‘i lozim, bunda interaktiv metodlardan foydalanish yangi samara beradi.
- 8.Mashg‘ulotlar butun auditoriya bilan va har bir talaba bilan ularning o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak.
- 9.Darsda talabalarning qunt bilan ishlashlarini ta’minlaydigan mustahkam intizom o‘rnatilgan bo‘lishi kerak.
- 10.Har bir dars talabalarning mustaqilligini oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Mohir o'qituvchi talabalarda o'qishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va doimo rivojlantirib borish uchun quyidagilarga amal qilish muhimdir:

1. Talabalarni bilishga intilishini, fanga, aqliy mehnatga, qiziqishlarini rivojlantirish o'quv jarayonini shunday tashkil etilishini ta'minlaydiki, unda o'quvchi faol harakat qiladi, mustaqil izlanish va yangi omillarni "kashf etish"ga, muammoli vaziyatlarni o'zi hal etishga intiladi.

2. O'quv faoliyati, boshqa faoliyatlar kabi faqat turlicha bo'lgandagina, qiziqarli bo'ladi. Bir xil usulda axborot berish va bir xil usuldagi harakat tez orada zerikishni vujudga keltiradi.

3. Fanga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda bu fanni va uning ayrim qismlarini o'rganishning zarurligi, muhimligi va maqsadga muvofiqligini talabalarga anglatish juda zarur.

4. O'qitilayotgan material va oldingi material ham qanchalik ko'proq bo'lib tushuntirilsa, u talabalarga shunchalik qiziqarliroq tuyuladi. O'quv materialini talabalarni qiziqtiradigan narsalar bilan bog'lab tushuntirish ham ularni darsga qiziqtirishda muhim rol o'ynaydi.

5. O'rtacha qiyinchilikdagi o'quv materialini ham talabalarda qiziqishni uyg'otmaydi. O'quv materialini biroz qiyinroq, lekin, talabalar kuchi yetadigan bo'lishi kerak.

6. Talabalar bajargan ishlarini tez-tez tekshirish ham ularni fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi.

7. O'quv materialining aniqligi, hissiyotga boyligi, o'quvchining zavqlanib gapirishi ham o'quvchiga, unda fanga bo'lgan qiziqishning ortishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Ilg'or o'qituvchilar o'qitish metodlarini tanlashga alohida e'tibor beradilar. Talabalarining frontal, differentsiallashtirilgan va yakka tartibdagi faoliyatlarining umumiy jihatlari ko'proq bo'lsada, ularni tashkil etish o'qituvchidan o'ziga xos yondashuvni talab qiladi, agar butun auditoriya, guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil metod bilan ta'sir ko'rsatilar ekan, unda tarbiya ham, ijodiy yondashish ham barbod bo'ladi.

Ayrim hollarda o'qishga qiziqtiruvchi metodlardan ham ko'ra, burch va javobgarlikni his etishni rag'batlantiruvchi metodlarga ko'proq e'tibor berish tavsiya etiladi.

Mohir pedagoglar ma'ruza, seminar, munozara, konferensiya, o'quv sayohati, o'quvchi-maslahatchilar yordamida mustaqil dars, ko'rik-tanlov kabi dars turlaridan foydalanishga alohida e'tibor beradilar.

O'qituvchining mohirligi yuqorida qayd qilingan noan'anaviy dars turlarini o'tish texnikasini egallashda namoyon bo'ladi.

Talabalar yangi bilimlarni va qonuniyatlarni kashf etish bilan bog'liq bo'lgan aqliy faoliyatni rivojlantirishda seminar darslar muhim ahamiyat kasb etadi. Seminar darsda eng bo'sh talaba ham boshqa turdagi darsda uddalay olmaydigan miqdorlardagi aqliy ish bajarar ekan, mashg'ulotlar odatdagidan tashqari an'anaviy usullarda olib boriladi. Ba'zan u munozara yoki suhbat shaklida bo'lishi mumkin. Lekin, o'quv materialini aniq va ishonarli qilib bayon etiladi.

Ilg'or o'qituvchilar ish tajribasida munozara darslar ham muhim o'rin egallab kelmoqda. Munozara darslarini o'tash talabalardan juda katta mohirlikni talab etadi. Bunda, eng avvalo, talabalar fikrlarini taqqoslash va ularning fikrlaridagi qarama-qarshiliklarni aniqlash muhimdir. Lekin, darsning bu turini har doim ham o'tilavermaydi. Chunki, hamma mavzular munozarabop emas.

Darsning noan'anaviy shakllaridan biri ko'rik-konkurs darsidir. Bunda auditoriya talabalari 3-4 tadan guruhlariga bo'linib, mavzuni mustaqil o'zlashtirib, darsni o'zlari bayon qiladilar. Darsning bu turi musobaqa shaklida o'tkazilganligi uchun har bir talaba unga astoydil tayyorgarlik ko'rishga intiladi. Baholashda ham, guruhdagi barcha talabalar ishtirok etadilar. Bunday darsning mazmuni, metodik ta'minoti, materialni tushuntirishini o'ziga xosligiga alohida e'tibor beriladi. Talabalarni guruhlariga bo'linib ishlashi esa, ularni jamoada hamkorlik bilan ishlashiga, o'zaro yordam berishga o'rgatadi.

Bunyodkor va ilg'or talabalarning tajribasiz o'qituvchilardan tubdan farq qiluvchi tomonlari quyidagilardan iborat: tajribasi kam bo'lgan o'qituvchilar darsda talabalarga asosan bilimlarni tayyor holda beradilar. Bunday o'qituvchilar darsda ko'proq o'quv materialini o'qituvchi tushuntirishdan yoki darslikdan talabalarni yod olishiga harakat qiladilar. Albatta, bunday o'qitish muammoni izlab topish va muammoli vaziyatlar yaratishdan oson.

Ba'zi o'qituvchilar esa rivojlantiruvchi ta'lim mohiyatini to'la-to'kis tushunib yeta olmaydilar. Ular yetarli darajada didaktik va umumpedagogik ma'lumotlarga ega emaslar. Natijada, muammoli o'qitishni joriy etishda muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar.

Mohir o'qituvchi dars o'tish metodikasini doimo takomillashtirib boradi. Muammoni qo'yar ekan, talabani uni hal qilishdagi ichki ziddiyatlarni ovoz chiqarib mulohaza yuritadi, o'z fikrlarini bayon qiladi va ularni muhokamaga qo'yadi. Sodir bo'ladigan e'tirozlarni oldindan bartaraf qiladi, haqiqatni tajribada isbotlaydi. O'qituvchi talabalar oldida ilmiy tafakkur yuritish yo'llarni namoyish qiladi. Talabalarni ilmiy izlanish yordamida haqiqat tomon yo'llaydi, ularni bunda ishtirokchi bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, V.F. Shatalov talabalarga juda ko'p masalalar yechtiradi va nazariy bilimlarni amalda qo'llash malakalarini shakllantiradi. Agar o'qituvchining tushuntirishi, qo'llaniladigan signallar, sxemalar va konspektlar ularning xotiralarini rivojlantirsa, masalalar yechish esa ularning tafakkurini o'stiradi, matematik mantiqiy fikrlash esa mustaqil faoliyatda tarkib toptiriladi.

Talabalarni ijodiy tafakkurini rivojlantirishda tayanch signallar tizim, "ochiq fikrlar darslari", olimpiadada ishtrok etishlari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ilg'or o'qituvchilarning fikriga muammoli o'qitish talabalarning darsdagi faolligini, ularning erkin fikrlashlarini ta'minlaydi. Ilg'or o'qituvchilar o'quv materialini bloklar bo'yicha berish, umumiylikdan xususiylikka, qonunlardan hodisalar tomon yo'nalishga asoslangan prinsiplardan oqilona foydalanadilar.

Shunday qilib, bunyodkor talabalar muammoli vaziyat amaliyotini yana bir pog'onasiga ko'tariladilar. Ularning tajribasi zamonaviy darsga yondashish, uni tashkil etishni yangicha tushunishga asos yaratadi. Bu muammoli-rivojlantiruvchi o'qitishga bevosita bog'liqdir.

Mohir o'qituvchi darsi—bu pedagog va o'qituvchilarni qiziqish, sinchkovlik, bilimga oid ehtiyojlari namoyon bo'ladi. Talabalar savol beradilar va o'zlari javob izlaydilar, tafakkurini ishga solib o'qishdagi kuchiga mos bo'lgan qiyinchiliklarni yengishga o'rganadilar.

Talabalarning faolligi va izlanuvchanligini oshirishda, muammoli o'qitishni qo'llashda mohir o'qituvchilar talabalarga beriladigan savollar va topshiriqlar tizimini o'ylab topadilar. Ular tuzgan savollar qisqa, lo'nda va aniq bo'lishi kerak. Ular talabalarning qiziquvchanligini mustaqil fikrlash qobiliyati emas, balki ularning ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Lekin, shuni ta'kidlash lozimki, yosh o'qituvchilar tomonidan talabalarga berilgan savollarning 80 foizi fikrlashni talab etmaydi. Albatta, mexanik xotirani ishlatish, uni rivojlantirish zarur, lekin shu bilan birga talabalarning bilishdagi faolligini, tafakkuri va diqqatini rivojlantirish zarurligini ham yoddan chiqarimaslik kerak. Talabalarga beriladigan savollar qarama-qarshi isbot talab qiluvchi fikrlarga boy, mavjud bilimlardan faqat muayyan holatda

zarurligini talab etishni ta'minlaydigan, bilimlarni amalda qo'llanishini ta'minlaydigan bo'lishi lozim.

Izlanuvchi o'qituvchi, tajribasiz o'qituvchiga nisbatan oz mehnat va vaqt sarf qilib, ko'zlangan maqsadga erishadi, chunki, u talabalarni doim mustaqil bilim olib borishiga o'rgatib boradi. Ular "agar mavzuni o'zlashtirishga talabalarning kuchi yetmasa, mustaqil o'zlashtirsinlar, aks holda materialni o'qituvchining o'zi tushuntirib berishi kerak" degan qoidaga amal qiladilar.

Mustaqil ishlash sirasiga mavzuni takrorlash uchun anketa savollariga javoblar, mashq va masalalar yechish, sxema va jadvallarni to'ldirish, tavsiya etilgan adabiyotlarni o'qish va boshqalar kiradi.

Nazariy yoki amaliy dars bo'lishidan qat'i nazar, talabalarning mustaqil ishlari o'qituvchi tomonidan boshqarilishi lozim. Bo'lajak o'qituvchilar talabalarni kitob bilan ishlashga, konspekt tuzishga, ijodiy ishlarni tashkil etishga va bajarishga o'rgatishga alohida e'tibor berishlari lozim.

Masalan, V.F. Shatalov o'quvchilarning bevosita yaratuvchi fikrlashlarini rivojlantirishga oid usullar tizimini qo'llaydi. Keng ko'lamdagi topshiriqlarni, turli hil o'ziga xos mustaqil ishlarni bajaradilar. Bunga erishish uchun, u darsda masalaning bitta variantini ko'rsatadi. Shunga o'xshash masalalar qaysi ekanligini talabalardan so'raydi va mustaqil yechishni tavsiya etadi.

Ayniqsa, dalillar mustaqil tahlil qilib, umumlashtirib va xulosa yasab, yangi bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilarning mustaqil ishi nihoyatda foydali bo'ladi. Darsda talabalarni kitob bilan mustaqil ishlarini tashkil qilishda, o'qituvchi tezkor talabani to'xtatmaydi, asta-sekin o'zlashtirayotgan talabani shoshiltirmaydi, savolga to'g'ri javob bergan talabaga esa, qo'shimcha topshiriq beradi.

Pedagogik mahoratni egallash uchun o'qituvchi o'z ishini chuqur bilishdan tashqari, talabalar siyosatini, fan, madaniyat, texnika sohalari bo'yicha nimalar qiziqtirayotganligidan ham xabardor bo'lishi lozim.

Dars to'la o'quv jarayoni kabi ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lishi lozim. Dars bu ham kafedra, ham minbar, umuman olganda, o'qituvchi dunyoqarashini ifodalaydi, o'qituvchi o'zining va talabalarni hayotiga, boshqa mafkuraga nisbatan munosabatini shakllantiradi. Pedagogik mahoratni egallash kaliti ham darsning o'zidadir.

O'qituvchi o'z faoliyatida talabalarning rivojlanish darajasi, xotirasi, diqqati, irodasi, fikrining ixchamligi va muhim ishlash qobiliyatlarini har doim sinab boradi. Bunda, eng avvalo, u o'z talabasi-inson haqida yomon so'z aytishga shoshilmasligi

zarur. Talabalarda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni sinchikovlik bilan o'rganish va ularni tushunishi, mulohazali ish tutishi, o'quvchi qalbiga, uning ruhiyatiga to'g'ri yo'l topish-bunyodkor o'quvchilarga xos bo'lgan hislatdir.

Yosh o'qituvchilar darsda kimning yo'qligi va talabalar nima bilan shug'ullanayotganliklariga befarq qaramaslik lozim. Talabalar esa nihoyatda sertashvish bo'ladilar. Matematikadan tayyorlanmagan uy vazifasi qiziqarli badiiy asarlardan hozirgina o'qigan obraz, u yoqtiradigan futbol yoki xokkey komandasining omadsizligi, do'stlar bilan aytishib qolishi, bularning hammasi o'qituvchi xotirjamligini buzadigan omillardir. Shuning uchun ham, o'qituvchi talabalarning yuz ifodasidan tushunishi, uning diqqatini boshqara olishi, uni kuzatish kabi psixologiya bilimlarga va amaliy malakalarga ega bo'lishi lozim.

O'qituvchi talabalarning qiziqishlarini, qobiliyatlarini, fikrlash sur'atini, auditoriyadagi har bir talabaning xarakter xislatlarini bilishi darsga ijobiy yondashishning psixologik omilidir.

Shunday qilib, o'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishdagi mahorati o'ta murakkab, lekin o'z ishiga ijodiy yondashgan har bir o'qituvchi uddalay oladigan vazifadir.

Adabiyotlar ro'yxati.

- 1.Mahkamova M.Yu.Pedagogik texnologiya.T.2012-yil.
- 2.Mahkamova M.Yu.Tarbiyaviy ish metodikasi. T.2019-yil.
3. Mahkamova M.Yu.Kasbiy pedagogika. T.2019-yil.

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASI SIFATIDAGI MASOFAVIY (DISTATSION) O'QITISH TIZIMI

*Azimdjanova Muxayyo Tulkunovna
Toshkent arxitektura qurilish universiteti*

Annotatsiya: Masofaviy ta'lim texnologiyasi bu shaxs bilan mustaqil, lekin nazorat

qilinuvchi belgilangan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida muloqot qilish vositalari, shakllari va metodlari yig'indisidir. Uning asosiy bo'g'ini telekommunikatsiya vositalari va ularni yetkazuvchi vositalar hisoblanadi

Kalit so'zlar: Texnologiya, masofaviy ta'lim tizimi, axborot kommunikatsiya

Texnologiyalari, internet tarmog‘i, axborot vositalari

Аннотация:Технология дистанционного обучения - это набор средств, форм и методов общения с человеком в процессе усвоения устоявшихся знаний, которые независимы, но контролируются. Его основное звено - телекоммуникации и средства их передачи.

Ключевые слова: технология, система дистанционного обучения, информационнокоммуникационные технологии, интернет, медиа

Annotation: Distance learning technology is a set of means, forms and methods of communication with person in the process of assimilation of established knowledge that is independent but controlled. Its main link is telecommunications and their means of transmission.

Keywords: Technology, distance learning system, information and communication technologies, Internet, media

Masofaviy o‘qitish texnologiyasi XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida jahonda intensiv rivojlana boshlagan. Ushbu texnologiyadan foydalanish – ta’lim sohasi oldida turgan muhim konstitutsion masalalardan birini yechishga ko‘mak beradi – bu masala insonning ta’lim va axborot olish huquqini ta’minlashdir. Masofaviy o‘qitishning strategik maqsadi – yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish asosida, fuqarolarga yashash joyida ixtiyoriy darajadagi ta’lim olishning teng imkoniyatlarini taqdim etishdir.

Masofaviy o‘qitish shakli – ta’limning yetakchi shakllaridan biridir, chunki masofaviy ta’limning rivojlanish perspektivalari ko‘p yo‘nalishlarda kuzatilmoqda. Masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga asoslanib, ta’lim tizimi fanlarni o‘qitish va bilim tarqatish usullari mohiyatini yangilash uchun qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratishga ko‘mak berishi kerak. Shuningdek, texnologiya ko‘pgina yoshlar, jumladan, moliyaviy yoki jismoniy imkoni yo‘qligi, malakaviy bandligi va boshqa sabablar tufayli, an‘naviy shakldagi o‘quv muassasalarida o‘qiy olmaydigan yoshlar uchun ta’limning barcha darajalariga bog‘lanish, bilim olish imkoniyatlari realizatsiyasini kengaytirishga ko‘mak beradi.

Masofaviy ta’lim – bu internet, zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalar yordamida ta’lim olishdir. Masofaviy ta’limda masofada turib, zamonaviy vositalar yordamida o‘quv axborotlari almashinuvi amalga oshiriladi. Masofaviy ta’lim sifatli malakali ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Masofaviy ta’lim rivojining dunyo tajribasi, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda uning turli-tuman modellari tahlilidan, masofaviy ta’limning paydo bo‘lishi turlicha yondashuv, turlicha ta’lim siyosati, milliy an‘analar bilan tushuntiriladi, degan xulosa qilish mumkin.

Masofaviy ta'lim tizimi – ham kunduzgi, ham masofaviy shaklda o'tkaziluvchi ta'limni o'z ichiga olgan tashkilotdagi barcha o'quv tadbirlarini rejalash, o'tkazish va boshqarish uchun mo'ljallangan axborot tizimidir. Masofaviy ta'limning zamonaviy tizimlariga ega, funksional imkoniyatlarni aks ettiruvchi masofaviy ta'lim tizimining aniqroq nomi – bu ta'limni boshqarish tizimidir. Masofaviy ta'lim tizimidan foydalanish imkoniyatlari orasida, masofaviy o'qitish imkoniyati bilan bir qatorda mustaqil ta'limni ham ajratish mumkin.

Masofaviy ta'lim bugungi kunda birinchi navbatda korporativ ta'limni tashkil qilishga yo'naltirilgan. Masofaviy o'qitishda ko'pgina tinglovchilar bir vaqtning o'zida o'z lavozim majburiyatlarini bajarishlari kerak. Natijada, ular uchun an'anaviy kunduzgi ta'limda o'qitish uchun o'quv grafigini tuzish qiyindir. Bu kategoriyadagi tinglovchilar uchun qulay vaqtda mustaqil ta'lim olish imkoniyati bu yagona yechimdir.

Masofaviy ta'limning zamonaviy tizimlarini funksiyalari jihatdan uchta asosiy blokka ajratish mumkin: ta'limni boshqarish, o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaroharakatini ta'minlash, o'quv kontentini ishlab chiqish.

Masofaviy ta'lim tizimining ta'limni boshqarish bloki doirasida quyidagi asosiy funksional imkoniyatlar ko'zga tashlanadi:

- kompetensiyalarni boshqarish;
- o'quv rejalarning avtomatlashtirilgan shakllanishi;
- foydalanuvchilar profillarini boshqarish;
- masofaviy kurslar va testlarga kirishni boshqarish;
- foydalanuvchilar faoliyatini jurnallash;
- foydalanuvchilarning texnik va uslubiy tayanchini ta'minlash;
- hisobotlarni shakllantirish;
- ta'lim jarayoni tahlili.

Masofaviy ta'lim tizimidagi o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaroharakatini ta'minlashda, foydalanuvchilar munosabatini tashkil qilishning forum, chat, blog, videokonferensiya kabi vositalari jalb qilinadi. Masofaviy ta'lim axborot texnologiyalari bilan uzviy bog'langan, ayrim ma'noda, mohiyatan, ularning qismidir. Shu sababli, axborot texnologiyalari sohasida paydo bo'luvchi yangi

imkoniyatlar masofaviy ta'limda o'z o'rnini tezda topmoqda, u boshqa o'qitish shakllariga nisbatan, ularni tezda joriy qilmoqda.

Ko'pgina tinglovchilar masofaviy ta'limni mustaqil o'tkazishadi. Masofaviy ta'lim doirasida, tinglovchilarga uslubiy ko'mak ko'rsatiladi. Jumladan, ular o'qituvchi bilan davriy on-line ulanish imkoniyatiga egadirlar. Lekin, ko'pincha o'qitish vaqtida tinglovchilarda qo'shimcha ma'lumot olish zaruriyati tug'iladi.

Boshqa ta'lim shakllaridan farqli ravishda, masofaviy ta'lim tinglovchiga qo'shimcha materialning katta miqdoridan foydalanish imkoniyatini beradi, u bevosita ta'lim vaqtida ulardan foydalana oladi. Masofaviy ta'lim doirasida aniq kurs ishtirokchilari bilan guruhli ishlashni tashkil qilish juda muhim rol o'ynaydi. Kurs ishtirokchilarining bir-birlari bilan qo'shma telekommunikatsion loyihalari, muhokamalari, elektron telekonferensiyalar o'tkazishda oraliq va yakuniy natijalarning shaxsiy va guruhli prezentatsiyalarini tashkil qilish, ishtirokchilar orasida, shuningdek, zaruriyat tug'ilganda, ixtiyoriy boshqa kasbdoshlar, jumladan xorijiy kasbdoshlar bilan Internet tarmog'i orqali fikr, axborot almashinuvi ko'zda tutilgan bo'lishi kerak.

Bunday ta'limning afzalligi nazorati – mos o'quv materiallarni ishlab chiqishda tezkor (operativ) va yetakchi o'qituvchi, maslahatchi-koordinator tomonidan testlar, prezentatsiyalar, ijodiy ishlar ko'rinishida yakuniy bo'lishi kerak. So'nggi vaqtlarda, bunday maqsadlar uchun ko'proq maxsus WEB-varaqlardan foydalanilmoqda, ularni har bir tinglovchi yoki guruh o'zi uchun tashkil qilishi mumkin. Bunday varaqlar bilan ishlash butun o'zorumuloqot jarayonini sezilarli yengillashtiradi.

Bu holatda, juda katta spesifikaga ega modul xarakterli elektron darslik (elektron kitob) lar haqida gap ketmoqda, va shuning uchun, ularni kompyuter telekommunikatsion texnologiyalarni biluvchi malakali olim-uslubchilar ishlab chiqishi kerak.

Masovafiy ta'lim rivojlanishini perspektiv yo'nalishlaridan biri – bu asinxron (ya'ni talaba bilim, malakani qabul qiladi va yig'adi, o'quv muassasasi esa bu jarayonni nazorat qiladi) va sinxron (ya'ni, asosan, talabalar tyutor, o'qituvchi, va axborot bazasi bilan o'zorumuloqotga kirishadi) o'qitish imkoniyatidir. Masovafiy ta'lim rivoji perspektivalari ta'lim xizmatlari hajmini kengaytirishga bog'liq.

Masofaviy ta'limdan foydalanib, aholi malakasini oshirish, kadrlarni qayta tayyorlash, o'qitishning an'anaviy kunduzgi yoki sirtqi shakli bo'yicha ta'lim olish imkoniyati bo'lmaganlarga ta'lim jarayonini tashkil etish mumkin. Masofaviy ta'limni rivojlantirish o'qituvchilar va xodimlar uchun qo'shimcha ish joylarini

yaratish imkonini beradi, ular ta'lim jarayonini nazorat va tashkil qiladi – bu shuningdek, masofaviy ta'lim rivojining perspektivasidir.

Masofaviy ta'lim olib, aholi ta'lim uchun xarajatlarini qisqartiradi, ta'limning moddiy tomoni esa – bu ta'lim olishda muhim tomonlardan biridir. Masofaviy ta'lim rivoji perspektivalari ta'lim sifatini baholashda ham ko'zga tashlanadi.

O'qitishning zamonaviy vositalari, kompyuter dasturlari, axborot texnologiyalari, internet, masofaviy shakllardan foydalanib, ta'lim sifatini oshirish mumkin, chunki talaba o'quv va qo'shimcha materiallarni ko'proq ochish imkoniyatiga, axborot uzatishning va o'qituvchilar, o'quv jarayonini tashkilotchilari bilan o'zaro muloqotning tezkor usuliga ega bo'ladi.

Ta'lim instituti uchun masofaviy ta'lim tizimining pluslaridan biri – bu professor-o'qituvchilar tarkibidagi defitsitni qoplashdir.

Ta'limning shu shakliga ko'ra, talabalar mamlakatimiz va xorijdagi turli oliy o'quv yurtlarida yetakchi mutaxassislardan bilim olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Masofaviy ta'lim orqali o'qitish jarayonida zamonaviy kompyuter va telekommunikatsion texnologiyalarga asoslanib, eng yaxshi an'anaviy va innovatsion uslublar, ta'lim vositalari va shakllaridan foydalanish kerak.

Samaradorlik, modullik va parallellik kabi afzalliklarga ega masofaviy ta'lim zamonaviy hayot talablariga javob beradi. Shuning uchun, faqatgina oliy masofaviy ta'limgagina emas, balki uning turli shakllariga ham qiziqish ortib bormoqda.

Masofaviy ta'limda butun umr davomida ta'lim olishning realizatsiyasi bilan bog'liq yaxshi perspektivalar mavjudligini ta'lim jamiyati tushunib yetdi. Lekin afzalliklardan tashqari, bu yerda bir qator kamchiliklar ham mavjud. Masalan, ta'limning bu shaklida talaba har doim ham yetarlicha savodini chiqarmaydi, olingan bilimlarni og'zaki shaklda bayon etmaydi.

Shuning uchun, faqat qandaydir sabablar bilan an'anaviy variantlardan foydalanish mumkin bo'lmaganda, asosiy ta'lim sifatida masofaviy ta'limni qo'llash tavsiya etiladi. Qo'shimcha, yoki ikkinchi oliy ta'limni olish uchun masofaviy shakllar yetarli samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta'limning joriy etilishi ta'lim sohasida yagona axborot makonini yaratish va ta'lim oluvchilarga axborotlarni tezkor yetkazish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va o'quv-moddiy bazalaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim oluvchilar bilimini xolisona baholash va ta'lim samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar

- 1.E-mail:compmath@hwpi.spb.su.
2. Agaponov S.V. i dr. Sredstva distansionnogo obucheniya. Metodik texnologiya, instrumentariy. Pod.redak O.Djaliashvili SPb.: BXV Peterburg, 2016g.
3. Zaychenko T. P. Osnovy distansionnogo obucheniya: teoretiko-prakticheskiy bazis: uchebnoe posobie. —SPb. Izd-vo RGPU im. A. I. Gersena, 2004. - 167 s.

MILLIY G‘OYA TARG‘IBOTIDA AMALIY SAN‘AT G‘OYAVIY MAQSADLARDAN FOYDALANISH VA TARG‘IBOT QILISH TEXNOLOGIYALARI

Obidjon G‘ulomov

Toshkent arxitektura va qurilish universiteti o‘qtuvchisi

Annotatsiya. Maqolada tasviriy va amaliy san‘at misolida milliy g‘oya targ‘ibot texnologiyalarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish borasida vazifalardan kelib chiqib, milliy an‘analarni asrab avaylash, zamonaviy amaliy san‘at asarlarini taqdim etish, shuningdek, unutilib borilayotgan xalq an‘analarini o‘rganish va qayta tiklash, ulardan samarali foydalanish, O‘zbekiston tasviriy va amaliy san‘atini xalqaro darajada ommalashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar:, tasviriy va amaliy san‘at, ularni xalqaro darajada ommalashtirish, xalq rassomlari va amaliy san‘ati ustalarining namunali hayoti va ijodini keng targ‘ib qilish, milliy qadriyatlar

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy sohalarda, jumladan san‘at sohasida ham keng ko‘lamli islohotlar, modernizatsiya jarayonlari olib borildi va bu jarayon bugungi kunda ham kun tartibida turgan masalalardan biridir. Chunki, o‘zining o‘tmish tarixiga, san‘atiga madaniyatiga, tarixiy merosiga milliy an‘analariga katta e‘tibor va hurmat bilan qaraydigan millatning istiqboli porloq bo‘ladi.

Mavjud tarix qanchalik qadrlansa va e‘zozlansa, mustaqilligimiz istiqboli va ahamiyatini shunchalik chuqur hamda mukammal tushunib yetamiz, shuningdek, muqaddas qadriyatimiz, milliy g‘oyamizga tahdid solayotgan yot g‘oyalarga qarshi yoshlarimiz ongida g‘oyaviy immunitetni shakillantirishdek dolzarb masalalar o‘z vaqtida yechimini topadi. Bunday muammolarni yechishda albatta tasviriy va amaliy

san'at asarlari orqali erishish haligacha dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbek xalqi kamida uch ming yillik milliy tarixga ega ekan, tasviriy san'atimiz ham shuncha tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan tasviriy san'at durdonalari ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, hayo, andisha kabilarning ustuvorligi bilan ham belgilanadiki, ushbu jihatlarning targ'ibi yoshlar ongida yot g'oyalarga qarshi immunitetning rivojlanishida yetakchi omil bo'lib hisoblanadi.

Sovetlar hukmronligi davrida tarixiy obidalar va amaliy san'at asarlari mazmunan buzib talqin etilganligi mazkur jabhaning taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, Markaziy Osiyo tasviriy va amaliy bezak san'atida ham uzilishlarga sabab bo'ldi, hatto ayrim turlarning butkul yo'qolib, ba'zilarini esa mazmunan o'zgarib ketishiga olib kelgan. Hozirda yangi ilmiy metodologiyaning kirib kelganligi Markaziy Osiyodagi qadimgi davlatlar bo'lmish Kushonlar imperiyasi, Xorazm va Sug'd davlatlari hududlarida ishlangan hajmli rangtasvir asarlari va amaliy bezak san'atining tub mohiyati, badiiy xususiyatlari, shakllangan an'analaridagi ichki qonuniyatlarni qaytadan tarixiy jihatdan ko'rib chiqishni, taraqqiy ettirilishi lozim bo'lgan muhim jihatlarni aniqlashni taqozo etadi. Bu esa, Markaziy Osiyoda qadimda amal qilgan hajmli haykallar va rangtasvir devoriy suratlari zardushtiylilik va buddizm davri tarixiy manbashunosligida yoritilish me'morchiligi tasviriy va amaliy san'atning kelib chiqish bosqichlarini tarixiy jihatdan tahlil qilish dolzarb muammolaridan biri bo'lib qoladi. Markaziy Osiyoning janubiy va shimoliy hududlaridagi tasviriy va amaliy san'ati tarixini ilmiy o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan.

Ilk o'rta asrlar Varaxsha va Afrosiyob kabi tarixiy shaharlari Sug'd davlati hududida muhim strategik ahamiyat kasb etgan. Mazkur shaharlarning mahobatli saroylari o'z davrining eng ilg'or me'moriy inshootlari sifatida tarixga kirgan. Ayniqsa, hukmdorlar qarorgohlarining har bir zali o'ziga xos tarzda alohida bezatilgan. Ko'hna shaharlar saroy bezaklarida bo'rtma tasvirlar alohida o'rin tutgan binolar devorlarining tashqi qismlariga yaratilgan hajmli bo'rtma tasvirlar namunalarida turli mavzular ifodalangan²⁸. Hukmdorlar saroylari devori peshtoqi turli motivlardagi bezakli bo'rtma frizlar bilan ziynatlangan. Ammo ayrim hollarda mifologik mavzudagi hayvonlar qiyofalari ham ishlangan.

Bu davrda haykaltaroshlikning deyarli barcha turlari ravnaq topgan. Shular qatorida buqa haykalchalari ko'p uchraydi. Buqaning sopol haykalchalari turli hududlarda (Afrosiyob, Qovunchi, Kofirqal'a, Quva) ommalashgan.²⁹ Toshkent yonidagi Qang'a shahristonidan topilgan VI-VII asrlarga oid buqa boshlari haykallari

²⁸ Шишкин В.А. Варахша. – М.: Академии Наук, 1963. – С.172.

²⁹ Ўша жойда: – С.172.

yuqoridagilarni tasdiqlaydi. Umuman buqa timsoli tarixiy asoslarga ko'ra azaldan kuch-qudrat, qabilalar totemi, hokimiyat ramzlarini anglatgan. Shu bois uning obrazi haykaltaroshlikda va turli kapitellardan chuqur o'rin olgan. Mahalliy haykaltaroshlar bu borada ma'lum tajribaga ega bo'lgan. VIII asrga oid Varaxsha saroyida ganchdan turli motivli frizlar ishlangan. Ularda ikkita o'ymakor sirrin haykalchasi bu borada boy ma'lumot beradi. Ulardan birida chap oyoqlarini oldinga qo'yib bir qator tizilishib yurib ketayotgan afsonaviy qushlar tasviri badiiy bezak sifatida ishlatilgan. Saroy devorlariga ganchda ishlangan ayol-qush tasvirlarini ham shu turkumga kiritish mumkin.

Ilk o'rta asrlar san'atida noyob g'ayritabiiy jonzodlar ko'rinishidagi ritonlarning sopoldan ishlangan o'ziga xos namunalarini ham ko'rishimiz mumkin. Biroq, ularning aksariyati hozirda vatanimizdan tashqariga olib chiqib ketilgan. Jumladan, AQShning Metropolitan muzeyidagi VI-VIII asrlarga mansub kumush jomda buqa boshiga o'xshash riton aynan Sug'd hunarmandlari tomonidan ishlanganligi olimlar tomonidan har tomonlama isbotlab berilgan. Quvadan V-VIII asrlarga oid pishirilgan loydan ishlanib sirtiga qizil angob surilgan qandaydir noma'lum hayvon boshi shaklidagi riton topilishi³⁰ bu davr san'atida mazkur mavzu alohida o'rin tutishidan darak beradi. Bunday obrazlar Baqtriya san'atida ham uchraydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston hududlarida yaratilgan haykaltaroshlik namunalari ilk o'rta asrlarda O'rta Sharqda muhim madaniyat o'chog'i bo'lib uning shu davr badiiy tafakkurining yuksak ko'rinishi va mustaqil yo'nalishi sifatida san'at tarixida chuqur iz qoldirgan. Haykaltaroshlik san'ati o'z davrining ruhi, badiiy did va qarashlarini ifodalagan. Bu davr san'ati asosan o'zida feodal tuzum zodagonlari qarashlari va ihtiyojlari uchun xizmat qilgan. Ayni paytda Sharq va G'arb an'analari zamirida yuzaga kelgan bo'lsa ham, lekin uning asosini mahalliy san'at, uning asosi bo'lgan xalq ijodi tashkil etgan. San'atkorlarning yuksak mahorati, o'sha davr ruhi va nafasini his eta olishi va shu tuyg'ularni ifodalab o'lmas asarlar yaratdilar. Shu bilan birga Markaziy Osiyo, uning ajralmas qismi bo'lgan O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan haykaltaroshlik namunalari o'tmish san'ati an'alariga yakun yasab, keyingi davr san'atiga yo'l ochib bergan.

Dastlab 1913-yilning bahorida arxeolog sharqshunos olim Vasiliy Lavrentevich Vyatkin Afrosiyobda qazishma ishlarini olib borayotganida birinchi marotaba devorga solingan suratning yaxshi saqlanmagan parchalarini aniqladi³¹. Devorda odam figuralari tasvirlangan bo'lib ular tagidan esa yo'l-yo'l qilib naqsh berilgan.

³⁰ Булатова В.А. Древняя Кува. – Т., 1972. – С. 44.

³¹ Албаум Л.И. Живопись Афрасиаба. – Т., 1975. – С. 34.

Lekin bu rasmlarni buzilishdan saqlash (konservatsiya) usuli bo'lmaganligi oqibatida ular yetib kelmagan Suratli suvoq qurib qolib to'kilgan lekin undan nusxa olib qolingan.

Bu rasmlarning akvarel ranglarini ishlatib uning nusxasini rassom B.F. Rombert olib, Markaziy Osiyo san'at tarixiga bag'ishlangan matbuotlarda e'lon qilgan. V.L. Vyatkinning fikricha topilgan rasmlar Qoraxoniylar Tomg'achxon Ibroximga (XII asrning oxirlari) tegishli degan, V.V. Bartold esa bu rasmlarni freskalar deydi³².

Afrosiyob shaharchasida 1961- yili o'rta asrlardagi xumdonlarni qazish paytida devorlarga ishlangan naqsh bo'laklari topilgan. 1963- yilda esa Afrosiyob xududining Jome masjidi yaqinida suratlar chizilgan devor hamda 1965- yilning baxorida devorlariga rasmlar solingan yana oltita imorat ochilgan.

Shu yillarda olib borilgan ishlar natijasida olingan yirik muvafaqqiyatlardan biri Samarqand ixshidlarining ilk o'rta asrlarga oid saroyining ochilishi bo'ldi. Saroy va VIII asr devorida chizilgan rasmlar to'g'risida arxeolog L.I. Albaum o'zining "Jivopis Afrasiaba" asarida to'liq tasvirlab bergan³³. Sug'diyonaning markaziy shahri Samarqandning qadimiy o'zagi bo'lmish Afrosiyob shaharchasining hududida ajoyib devoriy suratlar chizilgan ob'ektlar arxeologlar tomonidan ochilgan.

XX asrning 30- yillar oxirida O'zbekistonning ko'plab hududlarida devorlarga solingan ko'plab rang tasvir namunalari, devoriy suratlar topilgan. Ular antik, ilk o'rta asr devoriy suratlari Tuproqqal'a, Yerqo'rg'on, Bolaliktepa, Varaxsha, Kofirqal'a, Tavka, Afrosiyob yodgorliklaridan turli o'ziga xos badiiy obrazlar aks ettirilgan diniy va dunyoviy kompozitsiyalar aks etirilgan obrazlarga ega. Bu devoriy suratlar o'sha davr tarixining qotib qolgan aynan o'zidir. Diplomantik munosabatlarini ko'rishimiz mumkin, ularga qarab xalqlarning etnik kelib chiqishi, ko'rinishi, urf-odatlarini, ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonning janubidan topilgan yodgorliklar parchalarda yetib kelgan, parchalarning o'zi san'atkorning mahorati, davr g'oyaviy-siyosiy xolati haqida hikoya qiladi. Burgut, turli qushlar, yo'lbars, sher bo'rtma tasviri tushirilgan muhr parchalari shuning uchun ham qimmatlidir. Qadimgi davr haykaltaroshlik san'ati avvalgi davr an'analari yanada rivojlanganligini, Ishlangan haykallarning ko'pchiligiga xos fazilat, voqelikni umumlashma shartli shakllarda, soddalashtirilganligida ko'rinadi.

Aksariyat asarlarda yovvoyi hayvonlar, turli ko'rinishdagi insonlar, buyumlar, jihozlar bilan birga ko'plab uy hayvonlari qiyofasini ko'ramiz.

³² Бартолд В.В. Отчет о командировке в Туркистан. Соч Т VI, – М., 1966. – С.251.

³³ Албоум Л.И. Живопись Афрасиаба. – Т.,1975. – С. 45.

Bir qator bo‘rtma tasvirlarda tog‘ echkilari, arharlar, kiyiklarning alohida yoki to‘dada paytdagi ko‘rinishi aks ettirilgan. Ular sodda bo‘lishiga qaramay hayvonlarga xos xususiyatlar, ularning gavda (tana) tuzilishi nisbatlari hamda hayvonlarning xatti-harakati nihoyatda jonli va ifodali ishlangan.

Milliy tafakkurdagi tub yangilanishlar san‘atimizni qayta idrok etish va uni ijtimoiy ongning bugungi darajasiga muvofiq milliy g‘oyaning talablari asosida baholash zaruriyatini taqozo etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish joyizki, birinchidan, o‘zbek milliy san‘atining rivojlanish yo‘llari va ichki qonuniyatlarini umumlashtirish, xolisona baholash, istiqbollarni keng ko‘lamda tadqiq etilish; ikkinchidan, tasviriy san‘at asarlari orqali milliy g‘oyani targ‘ib qilish; uchinchidan, milliy g‘oya targ‘ibotida tasviriy va amaliy san‘at asarlaridan foydalanish maqsadga muvoffiqdir.

TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI

*Toshkent-arxitektura qurilish universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti
Turdibekova Risolat Shermatovna, A12-23guruh talabasi Ergashov Mirdovud Tohir
o‘g‘li*

Annotatsiya: Hayotimizda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi. Raqamli texnologiyalar bugungi kunda hayotimizga juda katta ta'sir ko'rsatdi va u o'sishda va rivojlanishda davom etmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida kundalik hayotda qo'llaniladigan uskunalar va mahsulotlar tobora ko'proq yaratilmoqda. Ular ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda, bu erda ko'plab ta'lim muassasalari o'rganish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanmoqda. IT sohasida ham maydon o'sib bormoqda va tobora ahamiyatli bo'lib bormoqda, chunki u bizning yaxshilash imkoniyatiga ega hayot, yanada qulay va samarali bo'lishi uchun. Transport va logistika sohasida raqamli texnologiyalar ham muhim rol o'ynaydi, chunki ular yanada samarali tizimlar va infratuzilmani yaratish imkonini beradi. Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning muhim omili bo'lib, ularning yanada takomillashib, borishlari hayotimizning turli sohalariga o'z ta'sirini o'tkazaveradi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, kundalik hayot, ta'lim, ta'lim muassasalari, transport, logistika, samarali tizimlar, infratuzilma, amalga oshirish, zamonaviylik, takomillashtirish, taraqqiyot, hayotimizning turli sohalar

Аннотация: Развитие цифровых технологий в нашей жизни. Цифровые технологии оказали огромное влияние на нашу жизнь сегодня и продолжают расти и развиваться. С помощью цифровых технологий все чаще создается

оборудование и изделия, используемые в повседневной жизни. Они также оказывают влияние на образование, где многие учебные заведения используют цифровые технологии для обучения. В нем сфера также растет и становится все более значимой, потому что он получает все больше и больше жизни, которая имеет потенциал совершенствоваться, быть более удобной и продуктивной. Цифровые технологии также играют важную роль в транспорте и логистике, поскольку позволяют создавать более эффективные системы и инфраструктуру. Вообще говоря, внедрение цифровых технологий является важным фактором современности, и их дальнейшее совершенствование и прогресс будут продолжать влиять на разные сферы нашей жизни.

Ключевые слова: цифровые технологии, повседневная жизнь, образование, учебные заведения, транспорт, логистика, эффективные системы, инфраструктура, внедрение, современность, совершенствование, прогресс, разные сферы нашей жизни

Annotation: The development of digital technologies in our lives. Digital technology has had a huge impact on our lives these days, and it continues to grow and evolve. More and more devices and products used in everyday life are being created using digital technologies. They are also having an impact on education, where many educational institutions are using digital technology for learning. In the field of IT, the field is also growing and becoming more and more significant, as it has the potential to improve our life, to make it more convenient and efficient. In the field of transportation and logistics, digital technologies also play an important role, as they enable the creation of more efficient systems and infrastructure. In general, the development of digital technologies is an important factor in today's world, and their further implementation and improvement will continue to have an impact on various aspects of our lives.

Keywords: digital technologies, everyday life, education, educational institutions, transport, logistics, efficient systems, infrastructure, implementation, modernity, improvement, progress, various spheres of our life

Raqamli texnologiyalar hayotimizda juda muhim o'ringa ega bo'lib qoldi. Bugungi kunlarda insoniyat foydalanadigan barcha gadjet va ilovalar raqamli texnologiya sohalaridan biri hisoblanadi.

Ayni damda raqamli texnologiyalar ta'lim sohasida ham yuksalib bormoqda. Oliy ta'lim muassasalari raqamli texnologiyalar yordamida ancha yuksak darajaga erishdi.

IT sferalar deyarli barcha yo'nalishlarda o'z foydasini ko'rsata boshladi. Avvallari e'tiborsiz bo'lgan bu yo'nalish, hozirda eng muhim kasblardan biriga aylandi. IT sferasiga katta e'tibor berila boshladi. Sababi biz bu yo'nalishni rivojlantirar ekanmiz hayotimiz qulayligi va havfsizligi ham ortib boradi. Misol sifatida turli xil saytlarni misol qilishimiz mumkin. Endi avvallari kabi kerakli kitobni oylab qidirish shart emas, shunchaki kitobni elektron nusxasini yuklab olamiz. Kerakli xom ashyo, texnikalarni ham turli xil ilova va saytlar orqali buyurtma qilamiz xolos.

Raqamli texnologiyalar nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda ham o'z afzalliklarini ko'rsata boshladi. Davlat soliq tizimi, moliyaviy infra struktura va hisobotlarini topshirish jarayonlarida 2-3 barobarga qulayligi ortdi. Raqamli texnologiyalar yordamida 1000 dan ortiq hisob fakturalari yaratildi. Hisob fakturalarining yaratilishi soliq tizimiga yuqori darajada qulaylik olib keldi.

IT sferalarining yana bir yo'nalishda, ya'ni transport logistikasida katta qulaylik va afzalliklarga olib keldi. Raqamli texnologiyalar yordamida logistika yo'nalishi uchun infrastruktura yaratildi va yuzdan ortiq ilovalarga asos solindi. Bu sfera yordamida logistika yo'nalishi ham ancha qulay va yuqori so'rovga ega bo'lgan yo'nalishlardan biriga aylandi.

IT sferasi ilg'or va chegarasi bo'lmagan yo'nalishdir. Biz bu sferani rivojlantirishimiz va jahon standartlaridan ortda qolmasligimiz juda muhimdir. Shu sababli ham ayni damda respublikamiz bo'ylab turli o'quv markazlari va IT kompaniyalari yaratilmoqda. Turli davlat va nodavlat tashkilotlar bu sferaga bo'lgan ehtiyojini bildirmoqda. Bu yo'nalish insoniyat hayotiga singib bormoqda shu sababli bu sfera nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy, ommaviy va ta'lim sferalarida ham ilg'or kelajak sari portal vazifasini bajaradi.

O'zbekistonda raqamli texnologiyalar tez orada rivojlanmoqda. Internetga ulanish, mobil ilovalar, raqamli marketing va boshqa ko'plab sohalar rivojlanmoqda. Bu rivojlanishning asosiy sababi - aholi orasida smartfonlarning va internetga ulanishning keng tarqalishi hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar bizning hayotimizni osonlashtiradi. Ular bizga ma'lumotlarni tezroq topish, kommunikatsiya qilish, sotib olish va xizmatlardan unumli foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, ular bizning ish jarayonimizni samaraliroq qiladi, bizga yangi imkoniyatlar yaratadi va bizning hayotimizni yanada qulayroq qiladi.

Ayni damda raqamli texnologiyalar sohasida ishlaydigan kompaniyalar soni ham ko'paymoqda. Ular turli xil xizmatlarni taklif qiladilar: veb-saytlar yaratish, mobil ilovalar ishlab chiqarish, SEO optimizatsiya, SMM, kontent yaratish va boshqalar.

Raqamli texnologiyalar sohasidagi yangiliklar har doim diqqatni jalb qiladi. Masalan, "e-hukumat" tizimlari, raqamli ma'lumotlar bazasi, raqamli sertifikatlar va elektron hujjatlar - bularning hammasi O'zbekistonning raqamli texnologiyalar sohasidagi yangiliklardan faqat bir nechtasi bo'lishi mumkin xolos.

O'zbekistonda raqamli texnologiyalar sohasining kelajagi juda yorqin ko'rinadi. Bu soha tez orada rivojlanib borayotganligi bilan birga, u yangi kasblar va imkoniyatlar yaratadi. Biz buni ko'rib turamiz va bu rivojlanishni kuzatib boramiz.

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Saidahmatova Sadoqat Usmonjon qizi
TDPU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik ta'lim tizimi zamon talablariga javob beradigan, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-innovatsion faoliyat olib borishga tayyorlash uchun zamonaviy o'qitish tizimining yangi ilmiy asoslangan model va texnologiyalarini taklif qilgan holda taraqqiy etib borayotganligiga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, raqamlashtirish sharoitlarida tobora ortib borayotgan pedagogika sohasining maqomi va mazkur yo'nalishdagi malakali muassasalarga bo'lgan talabning ortib borishi, oliy pedagogika ta'limning yaxlit tizimida ularning kasbiy – pedagogik tayyorgarligini zamon talablari darajasida modernizatsiyalash zaruriyati bilan bog'liq masalalar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, texnologiya, tizim, model, innovatsiya, konsepsiya, strategiya, modernizatsiya, intellektual, islohot va muammo.

Аннотация: В данной статье акцентируется внимание на том, что система педагогического образования развивается, предлагая новые научно обоснованные модели и технологии современной системы образования для подготовки будущих учителей к профессиональной и инновационной деятельности, отвечающим требованиям времени. Также статус области педагогики, повышающийся в условиях цифровизации, и возрастающая

потребность в квалифицированных учреждениях этого направления, вызывают вопросы, связанные с необходимостью модернизации профессионально-педагогической подготовки на уровне современных требований в анализируемой интегрированной системе высшего педагогического образования.

Ключевые слова: образование, технология, система, модель, инновация, концепция, стратегия, модернизация, интеллектуальная, реформа и проблема.

Abstract: In this article, attention is paid to the fact that the pedagogical education system is developing, offering new scientifically based models and technologies of the modern education system in order to prepare future teachers for professional and innovative activities that meet the requirements of the time. Also, the status of the field of pedagogy, which is increasing in the conditions of digitalization, and the increasing demand for qualified institutions in this direction, issues related to the need to modernize their professional-pedagogical training at the level of modern requirements in the integrated system of higher pedagogic education are analyzed.

Key words: education, technology, system, model, innovation, concept, strategy, modernization, intellectual, reform and problem.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'liqlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan,

Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro

hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi etakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Mamlakatimiz Prezidenti, rahbar sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, etakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, yurtimizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg'unlantirishga qaratganligi bejiz emas.

Davlatimiz rahbarining shundan keyin sog'liqni saqlash tizimi faoliyatini yaxshilash, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlikni kuchaytirish, respublikada yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi" ishlab chiqilishi, Imom Termiziy xalqaro markazini tashkil qilish borasida va shu kabi boshqa ko'plab qabul qilingan qarorlari, farmonlari, farmoyishlarida ilm-fanni yuksaltirish asosiy masalalardan biri sifatida belgilanishi ham ana shu e'tiborning amaliy ifodasi edi. Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, ularning yutuqlarini yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotga aylantirish jarayonida intellektual mulkning ishonchli himoya qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Xususan, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Shuningdek, qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sisчилari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi.

Shunga ko'ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ham ta'lim sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo'ldi deyishimiz mumkin.

Prezidentimiz tashabbusi bilan oliy ta'lim tashkilotlari uchun akademik va tashkiliy, shuningdek, moliyaviy mustaqillikning berilishi hamda Kengashlar vakolatlarining kengayotgani ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, sifatli ta'lim xizmatlarini ta'minlash va bu borada hukumatimiz tomonidan berilgan vazifalarni to'la-to'kis ado etish orqali mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi salohiyatli kadrlar tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo'lini tutgan barcha mamlakatlarda e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e'tibor berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.05.2023 yildagi PF-76-son
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son
- 3.O'zbekiston respublikasi prezidentining Farmoni“raqamli o'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida
- 4.Saidakhmatova Sadokat Usmonjon kizi. (2023). Gnoseology – philosophical teaching about knowledge. Development and innovations in science, 2(10), 13–16. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8416402>
- 5.“Journal of science-innovative research in uzbekistan” jurnali volume 1, issue 6, 2023. September ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 issn 2992-8869 277 the

concept of existence and its main types Saidahmatova Sadoqat Usmonjon qizi –
Teacher at Navai State Pedagogical Institute

6.The essence of philosophy in science and worldview Saidahmatova Sadoqat
Usmonjon daughter Tashkent State Pedagogical University Teacher Volume 2, | Sep
_ 2023 [Science Promotion](#)

ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВЫХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ИДЕИ ПРОГРЕССИВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Халмаматова Лола Аманкуловна
Доцент ТАСУ, кафедры “Узбекского языка и литературы”
Ёдигаров Аббос Гулмирза угли
Студент ТАСУ*

Ушбу мақолада рақамли ҳамда инновацион педагогик технологияларини қўллаш зарурияти прогрессив касб таълим зоясини амалга оширишнинг самарали механизми сифатида асосланган бўлиб, замонавий технологияларни қўллаш тажрибаси ёритилган. Мазкур тадқиқот мақсади ўқув муассасасида касбий ваколатларни шакллантиришга йўналтирилган методик воситалани самарали танлашга асосланган малакали ҳодим ва мутахассисларнинг касбий тайёргарлик даражасини оширишидир.

Калит сўзлар: рақамли технологиялар, педагогик технологиялар, прогрессив таълим, назарий тайёргарлик ва амалий таълим.

В статье обосновывается необходимость применения цифровых и инновационных педагогических технологий как эффективного механизма реализации идеи прогрессивного профессионального образования, освещается опыт использования современных технологий. Целью проводимого исследования является повышение уровня профессиональной подготовки квалифицированных рабочих и специалистов за счет эффективного выбора методических средств, направленных на формирование профессиональных компетенций, на базе образовательного учреждения.

Ключевые слова: цифровые технологии, педагогические технологии, прогрессивное образование, теоретическая подготовка и практическое обучение.

The article substantiates the need to use digital and innovative pedagogical technologies as an effective mechanism for implementing the idea of progressive vocational education, and highlights the experience of using modern technologies.

The purpose of the research is to increase the level of professional training of qualified workers and specialists through the effective selection of methodological tools aimed at developing professional competencies on the basis of an educational institution.

Keywords: digital technologies, pedagogical technologies, progressive education, theoretical training and practical training.

Актуальность применения цифровых и инновационных педагогических технологий как эффективного механизма реализации идеи прогрессивного профессионального образования не вызывает сомнения.

Целью данной статьи является выделение подходов к решению проблем профессионального образования с позиции идеи прогрессивного непрерывного образования, основой которой могут и должны стать эффективные инновационные педагогические и цифровые технологии.

Современные педагогические технологии включают: технологию теоретического обучения, технологии сетевого образования, лабораторно-практические занятия, курсовое проектирование выпускных квалификационных работ, сетевую форму реализации образовательных программ, технологии модульного обучения, учебно-демонстрационный комплекс, практико-ориентированное обучение, производственное обучение, учебную и производственную практику, метод проектов и решение производственных задач, world skills (мировые умения, универсальные умения), имитационное моделирование производственных процессов и т.д.

На современном этапе развития образования повышаются требования к теоретическому обоснованию педагогических технологий, определяющих эффективность процесса обучения, а также требования к работникам профессионального образования, которые должны уметь мыслить и действовать творчески, развивать те же качества у обучающихся. Способность к инновационной работе становится важным признаком профессиональной компетентности, в новых условиях существенно меняется роль преподавателя, он становится модератором образовательного процесса, при котором новые образовательные задачи решаются с помощью новых технологий на основе компетентностного подхода. Понятие «технология обучения» на сегодняшний день не является общепринятым в традиционной педагогике. Как правило, педагогическая технология рассматривается как системный метод создания, применения и определения всего процесса преподавания и усвоения знаний с

учетом технических и человеческих ресурсов и их взаимодействия, ставящий своей задачей оптимизацию форм образования³⁴.

Использование сетевых, информационных, дистанционных технологий ставит первоочередную задачу: трансформации роли преподавателя в образовательном процессе. Преподаватель из роли единственного источника знаний переходит в статус помощника обучающегося, способного правильно и своевременно сориентировать последнего в потоке образовательной информации, оказать содействие и консультационную помощь в критическом переосмыслении полученного объема информации, его анализа и оценивания³⁵. Построение базисных основ модернизации педагогического образования в целом можно выразить в качестве модели (рис. 1).



Источник: <https://research-journal.org/pedagogy/>³⁶

Рис.1 – Модель профессионально-ориентированного образовательного процесса

Модель профессионально-ориентированного подразумевает совместное участие преподавателей образовательного учреждения с сотрудниками

³⁴ Кудрявцева А. Г. Современные педагогические технологии как основа качественной подготовки квалифицированных специалистов на основе реализации ФГОС // Актуальные вопросы современной педагогики: материалы V Междунар. науч. конф. (г. Уфа, май 2014 г.). — Уфа: Лето, 2014. — С. 167-173.

³⁵ Жуков Г.Н. Общая и профессиональная педагогика / Г.Н. Жуков, П.Г. Матросов. – М.: АльфаМ: ИНФРА-М, 2013. – 448 с.: ил. – (ПРОФИЛЬ)

³⁶ Романченко М. К. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ – ОСНОВА МОДЕРНИЗАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ / М. К. Романченко, Л. В. Шалбаева // Международный научно-исследовательский журнал. — 2016. — № 11 (53) Часть 3. — С. 70—73.

предприятий в подготовке специалистов, развитии сферы образовательного процесса. Производственники участвуют в согласовании и совершенствовании образовательных программ, оценивании качества оказания образовательных услуг и подготовки специалистов, развитии материальной базы необходимой образовательному учреждению в рамках ресурсного центра для подготовки, переподготовки и повышения квалификации педагогических работников.

В продолжительной перспективе следование идее прогрессивного непрерывного образования, использования современных инновационных технологий и практико-ориентированного обучения, позволит повысить престиж рабочих профессий, сформировать конкурентоспособную личность обучающегося путем развития индивидуальных профессиональных образовательных траекторий; разработать и реализовать модель профессионального самоопределения обучающихся, обладающих профессиональными компетенциями, которые соответствуют требованиям инновационного производства и обеспечивают международный уровень профессиональной квалификации.

Список использованной литературы

1. Кудрявцева А. Г. Современные педагогические технологии как основа качественной подготовки квалифицированных специалистов на основе реализации ФГОС // Актуальные вопросы современной педагогики: материалы V Междунар. науч. конф. (г. Уфа, май 2014 г.). — Уфа: Лето, 2014. — С. 167-173.
2. Жуков Г.Н. Общая и профессиональная педагогика / Г.Н. Жуков, П.Г. Матросов. – М.: АльфаМ: ИНФРА-М, 2013. -448 с.: ил. – (ПРОФИЛЬ)
3. Романченко М. К. Педагогические технологии – основа модернизации профессионального образования / М. К. Романченко, Л. В. Шалбаева // Международный научно-исследовательский журнал. — 2016. — № 11 (53) Часть 3. — С. 70—73.

TA'LIM-TARBIYA SOHASIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

Xolmirzaev Xayitboy Dedaxonovich, Nizomiy nomidagi TDPU san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent.

Dadahonova Zulayho Xayitboy qizi talaba.

Annotatsiya: Yosh avlodning axborot madaniyatini shakllantirish, kechiktirib bo'lmaz masala sifatida baholanadi. Ammo axborotlashgan jamiyat tushunchasiga esa ko'pincha, sof texnologik jarayon deya qarash davom etmoqda. Aslida esa mazmun-

mohiyatiga ko'ra bu hodisa chuqur ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Chunki, axborotlashgan jamiyat tinimsiz rivojlanib, nafaqat shakliy o'zgarish balki, mazmun va mohiyatdan ham murakkab shaklga o'tib, jamiyat istiqbolini belgilaydi.

Kalit so'zlar: Axborot, axborotlashgan jamiyat, mazmun va mohiyat, rivojlanish, shakliy o'zgarish, informatika, media savodxonlik, axborot madaniyati.

Аннотация: Формирование информационной культуры молодого поколения рассматривается как вопрос, который нельзя откладывать. Однако концепцию информационного общества по-прежнему часто рассматривают как чисто технологический процесс. Фактически по своей сути это явление представляет собой глубокий социальный процесс. Потому что информатсионное общество постоянно развивается, меняя не только форму, но и содержание и сущность на более сложную форму, определяющую перспективу общества.

Ключевые слова: Информатсия, информатсионное общество, содержание и сущность, развитие, изменение форм, информатика, медиаграмотность, информатсионная культура.

Abstract: The formation of the information culture of the younger generation is considered as an issue that cannot be postponed. However, the concept of the information society is still often viewed as a purely technological process. In fact, at its core, this phenomenon is a deep social process. Because the information society is constantly developing, changing not only its form, but also its content and essence to a more complex form that determines the prospects of society.

Key words: Information, information society, content and essence, development, changing forms, computer science, media literacy, information culture.

Buyuk adib, Abdulla Qodiriy "...Moziyga qaytub ish ko'rish xayrlikdir,..." deydir. iborasini bejiz keltirmadik. Chunki, o'tmish ajdodlarimiz yurt mustaqiligi, ozod va farovonligi yo'lida aziz jonlarini ham qurbon qilishgan. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi, o'tmish ajdodlarimiz orzusi ro'yobga chiqib, 32 yildirki yurtimiz mustaqil. Xo'sh, o'tgan davr mobaynida biz ziyoli ajdodlarimiz orzusini qanchalik amalga oshira oldik?

Sanoat va ishlab chiqarishning qolgan sohalaridagi singari maorif va ta'lim tizimida ham ijobiy natijalarga erishdik-mi? Yuz yil avval, ya'ni 1923 yil 4 mart sonida Munavvarqori Abdurashidxonovni "Turkiston" gazetasida "Nashri maorif" uyushmasining ahamiyati" nomli maqolasida ko'tarilgan muammoga ahamiyat qaratamiz. Yurtimiz, Chor Rossiyasi mustamlakasidan ozod bo'lgan ammo, mustabid tuzum sharoitida qad rostlayotgan o'zbek maorif va ta'limida ro'y berayotgan muammolar haqida achinish va kuyinish bilan yozgandi.

“Dunyoning eng madaniy mamlakatlariga nazar solsak, unda maorif va madaniyat ishlarini hukumat ustallaridan ko‘ra ko‘proq jamoat ustallarida, maorif nazoratidan ko‘proq “Nashri maorif” uyushmalarida ishlanganligini ko‘ramiz. Hukumat arboblarning ham ko‘brog‘i maxsus soatlarda hukumat kabinetlarida rasmiy vazifalarini ado etganlaridan so‘ngra qolg‘on bo‘sh vaqtlarida jamoat kabinetlarida o‘ltirib, xalqning taraqqiy va taoliysi, maorif va madaniyatining yo‘lida vijdoniy vazifalarini ado etadurlar. Bularning xizmatlari, harakatlari o‘z xalq va millatlarining madaniy darajasiga, ahvoli ruhiyasiga muvofiq bir suratda bo‘lg‘onlig‘i uchun, tabiiy, afkor omma, xalq va millat bularga yordam berar va orqalaridan ergashar. Mana bu yo‘llar bilan bugun Ovrupo va Amriqo xalqlari havoda uchar, dengiz ostida suzar, dunyoning eng narigi bo‘laklari bilan vositasiz xabarlashar bir holg‘a, bir madaniyatga yetishdilar...”.

1867 yilda Chor Rossiyasi, yurtimizda ilk ishg‘ol etilgan xududlarida Turkiston general-gubernatorligini tuzgan va o‘z idora uslubini joriy qilgan. Ilgari, maxalliy amaldorlar Turkistonda yer-mulk egasi bo‘lgan bo‘lsa, Chor Rossiyasi mustamlakasi davrida avvaom xalqning sotsil, madaniy va ma‘naviy turmush tarzi, hayoti yanada og‘irlashgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov va uning safdoshlari Yevropa kabi dunyoning rivojlangan musulmon mamlakatlari maorif, sanoat va madaniyat borasida erishgan yutuqlari to‘g‘risida, ziyolilarning turli madaniy, maorifiy va ijtimoiy harakat, jamiyatlar faoliyati bohabar bo‘lgan jadidlar Turkiston o‘lkasi aholisini qanchalik taraqqiyotdan ortda qolib ketganini juda yaxshi angelayotgan edi.

1895-yilda Chor Rossiyasi mustamlakasi bo‘lgan Turkistonda jadidchi-lik harakati vujudga keldi. Ammo, ularning yurt taraqqiyoti yo‘lidagi ezgu harakatiga uch birlik: eski turmush tarafdorlari bo‘lgan maxalliy amaldorlar, mutaassib mahalliy ulamo, dindorlar va Chor Rossiyasi xukumati amaldorlari qarshiligiga uchradi.

Jadidlar davri tarixini tadqiq etgan professor Dilorom Alimova fikriga ko‘ra: “...XIX asrdagi falsafa va ma‘rifatning kuchayishi, qanchalik g‘ayritabiiy ko‘rinmasin, O‘rta Osiyo xonliklarining XVI asrda Buyuk ipak yo‘li zaiflashib qolgani bilan bog‘liq yuzaga kelgan qoloqligi ob‘ektiv sabablarini anglab olishimiz kerak bo‘ladi. O‘sha vaqtda dengiz yo‘llari ochilib, G‘arbda, Yevropada texnologiya (Texnogen madaniyat davri)lar jadal rivojlana boshladi. Sub‘ektiv sabablar esa xalq xo‘jaligi va umumiy rivojlanishga ulkan zarar yetkazgan ichki urushlardir. Rossiya imperiyasi mintaqani bosib olgach, o‘lkaga Rossiya sarmoyasi kirib kelgandan so‘ng Turkistonning jadal tarzda metropoliya xomashyo bazasiga aylantirilishi maishiy hayot va huquqiy me‘yorlar o‘zgartirilishini talab etishi muqarrar edi...”. Bu jarayon og‘ir bo‘lgan, chunki bunday vaziyat, yangiliklarga nisbatan turlicha, aksariyat hollarda esa salbiy munosabatni keltirib chiqargan.

Agar, sobiq Sovetlar davri maorifiy, madaniy - sotsial turmushida din va milliy qadriyatlardan bebahra dahriy (ateist)lar jamiyatini barpo etish g'oyasi keng yoyilgan edi. Biroq, bu g'oya ta'sirida barcha birdek e'tiqod (ateist)siz bo'lib, iymon va e'tiqodli kishilar oshkora bo'lmasada, yashirin tarzda e'tiqodini saqlab qolgan edi. Demak, shaxs e'tiqodi avvalo, oilaviy muhit, tarbiya tasirida shakllanadi, tafakkur va dunyoqarashga esa qisman u yashayotgan muhitning ham ta'siriga bog'liqdir.

Maqolada keltirilganidek, "...So'ngra Ovrupo xalqi maorif va madaniyat yo'lida ishladi, bu holg'o yetishdi, biz tushdik, uxladik, bu holg'a yetushduk. Bugungacha Ovrupo xalqi osmong'a uchar ekan, bizda soch va soqol nizolari, ovrupolilar dengiz ostida suzar ekan, bizda uzun va qisqa kiyim janjallari, Ovrupo shaharlari butun elektrik bilan isitilur va yoritilur ekan, bizda maktablarda jo'g'rofiya va tabiyot o'qitish, o'qitmaslik ixtiloflari... davom etardi. Endi o'z holimiz va o'z tariximizga boqsak, bir vaqtlar Ovrupo vahshiy ekan, biz madaniy edik, Ovrupo poposlari "Osiyo osmonig'a jisman uchdimi, ruhan uchdimi?" kabi diniy nizolar bilan bir-birlarini bo'g'ushar ekanlar..".

Aslida mustamlaka siyosatidan deyarlik farq qilmaydigan, mustabid tuzum siyosati o'zbek xalqida mutelikni kuchaytirdi. Jumladan, II jahon urushidagi yo'qotish,, berilgan qurbonlar ham bu siyosat va mafkurani susaytirmay, aksincha, yanada kuchaytirdi. Bu holat jamiyatda shaxslararo munosabatda ishonchsizlik, millat va xalqni o'zaro ichidan yemirib, parokandalika olib keldi.

O'zbek jamiyatni yoshi katta vakillari mustabid tuzum sharoitida ta'lim va tarbiya olgan u davrda "dehqonlarimizning peshona teri evaziga yetishtirilgan "Oq oltin"i so'ngi misqoligacha terib olish uchun 7 yoshdan 70 yoshgacha barchaning o'rni paxtazor"da degan shiorlar ruhida tarbiyalanib, ulg'aydi. Shuningdek, o'tmish tariximiz qanchalik buzib ko'rsatilmasin usha o'quv darsliklarni o'qib o'rganishga majbur edik. Lekin, shunga qaramay aksariyat ota-onalar, farzandlarining ta'lim va tarbiya olishi, tarixiy haqiqat hamda milliy qadriyat, milliy o'zlikni anglashi uchun imkon qadar intilganlar.

Hali esimda, kuz - hosil yig'ishtirib olinadigan fasl, paxta bilan bir qatorda ro'zg'orni but qilish uchun ekilgan dehqonlik mahsulotini ham yig'ishtirishga to'g'ri kelardi. Kuz havosining tafti pasaygan, gohida yomg'ir, ba'zida esa qor yog'ib, xalqning rizq-nasibasi, hosil qor ostida qolardi. Lekin ko'pchilik ota-onalar bunday sharoitdagi mashaqatli dala yumishlarini o'zlari ado etib, farzandlarini maktabga yuborib, dars mashg'ulotlaridan qoldirmaslika harakat qilardilar.

Farzandlariga "men qora mehnatda yashadim, bolam, sen o'qib, ushalmagan orzu va armonlarimni ruyobga chiqarishing kerak" deyishgan. Qor va loy aralash sabzi, turp yoki sholg'omni tozalayotgan qo'llari sovuqdan qaltirasada yuzlarida tabassum bilan ularni maktabga, o'qishga kuzatishgan. O'sha davr aksariyat insonlari

chiroyli soʻz va iboralarni topib gapirmasalarda biroq, biroz chapani, koʻngillari dalalaridek keng va begʻubor, ogʻir hamda mashaqatlik mehnatdan qavargan qoʻllaridagi qadoqlar kabi qalblarida ezgulik mujassam edi.

Ular, hech qachon oʻzlarining ogʻir mehnati, turmush tarzi va hayotidan nafaqat farzandlariga, hatto yaqinlariga ham nolimas, qismat yoki taqdiridan deb bilib, shukronalik bilan ertangi kunga umid bilan yashardilar. Ayrimlari maktab ham koʻrmagan, oliy dargohlarda oʻqimagan, ammo, ogʻir turmush zahmati, qismat va hayotning goho achchiq, bazan totli saboqlaridan xikmat izlashgan.

Endilikda “Din bu ogʻu, inson ongini zaharlaydi” kabi oʻzida mustabid tuzum siyosati manfaatlarini aks etirgan shior va mafkuralar qurshovida kamol topgan avlod vakillari nuroniy yoshda. Din va diyonat ham oʻz oʻrnida maʼrifat ekanini nazarda tutsak, besh barmoq teng boʻlmaganidek, keksa va nuroniylarni hammasi boʻlmasada aksariyati, shu muhit va sharoitda tarbiyalangan. Har bir moʻmin-musulmon Islomning muqaddas manbasi- Qurʼoni karimda eʼzozlagan va quyida keltirilayotgan yetti toifa insonlarni qadrlab, hurmat qilishi lozim:

ota;

ona;

ustoz (manfaatli ilm yo kasb-hunar oʻrgatgan inson);

olim (faqat diniy yoʻnalishdagina emas, balki inson uchun manfaatli barcha sohalardagi olimlar. Chunki hamma sohalarning ham egasi-Alloh taoloning Oʻzidir);

Qurʼoni karimdan xabardor kishi;

moʻysafid odam;

adolatli rahbar;

Bir soʻz bilan aytganda, Islom ilm-fan taraqqiyotiga, ilimli va ziyoli kishilarni ulugʻlashga undab, ustozlarni hurmatlashni targʻib etadi. Shuningdek, ustozlar ham ushbu nom va sharafga munosib boʻlishlari lozim.

Toza, zilol suvni loyqalatish oson, lekin kezi kelganda uni tindirsa ham uni isteʼmol qilib boʻlmaganidek, taʼlimda yillar davomida yoʻl qoʻyilgan hato va kamchiliklarni tanqid qilgan bilan hato toʻgʻrilanib qolmaydi, uni oʻrniga munosib yechim topish lozim.

Joriy yilda DTM eʼlon qilgan maʼlumotlarga koʻra, oliy taʼlim muassasalarida oʻqish uchun 1 018 007 nafar abituriyent xujjat topshirgan va shundan 50 mingga yaqin abituriyent testda ishtirok etmagan, yoki 490 102 nafari 56,7 balldan kam ball toʻplagan. Bu bilim va salohiyati bilan shifokor, pedagog, huquqshunos va hokazo sohalarda mutaxassis boʻlishini uylang, yoki oʻzbekcha qilib, oʻqituvchilar “oti kalasidek” maosh olgandan keyin oʻqitsinda deymizmi ?

Bir qissada keltirilishcha, bir muzofotga odamhoʻr kelib, odamlarni toʻplab, “avval semizlarni yoyman, oriqlarni esa semirtirib yeyman, kimdan boshlay” desa,

odamlar o'z jonini saqlash uchun men oriq u semiz deb, bir-birini ko'rsatgan ekan. Qissadan hissa shuki, hozirgi kunda biror ayb yoki kamchilik aniqlansa, uni barcha bir-biriga ag'darib, go'yoki o'zini javobgar-likdan halos etadi, maktab va ota-onalar o'rtasida ham ta'lim hamda tarbiya majburiyati yakun topmas muammoga aylandi. Lekin tarbiya, avvalo oiladan boshlanib, ta'lim muassasi esa ta'lim berish asosida tarbiyalaydi. Shuningdek, ta'lim muassasidagi tarbiya jarayoni umumiy bo'lib, oilada esa individuallik kasb etadi.

“Maktab ta'limi sohasidagi islohotlar vazirlik va idoralar, tarmoq rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar, ilmiy tashkilotlar, ziyolilar, keng jamoatchilikning vazifasi bo'lishi shart va zarur. Shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin”, prezident Shavkat Mirziyoevning 28 yanvar 2022 yildagi maktab ta'limi tizimidagi kamchilik va muammolariga bag'ishlangan videoselektorda nutqidan.

Mustaqillikdan avval vujudga kelgan iqtisodiy va sotsial qiyinchi-liklar, istiqbolning dastlabki yillarida bozor iqtisodiyotiga o'tish, ijtimoiy-madaniy hayotga soya soldi, nafaqat jamiyatning, balki oilalarni ham milliy qadriyat, tarbiya va ta'limga bo'lgan e'tibordan biroz chalg'itdi. Lekin, bu jarayonga o'tkinchi holat deb qaradik. Biroq, uni odatga aylanishini yoddan chiqardik. Bir qarasaq, farzandlar ulg'ayibdi, ularning ma'naviy dunyosini boyitish uchun biz berishimiz lozim bo'lgan qadriyat o'rnini ijtimoiy tarmoqlar egallab olibdi.

Facebook, You Tube, WatsApp, Messenger, WeChat, Instagram, QQ, Tumblr, Qzone, Tik Tok va yana qancha biz bilgan va bilmagan sotsial tarmoqlar mavjud, bu borada ham faqat yoshlarni ayblasak insofdan bo'lmas, hatto katta yoshliklar ham bu tarmoqlarning “shaydosi”, ayrimlari esa yetti avlodini nomini bilmasa ham bu tarmoqlarning nomlarini sanashda hatoga yo'l qo'ymaydi.

Xulosa o'rnida. Sodiqjon Qosimovning “Axborot texnologiyalari” o'quv qo'llanmasida “Informatika” va “Axborot texnologiyalari” fanlari (kurslari)ning maktabdan boshlab o'qitdik va bu fanlar uzluksiz, bir biri bilan mantiqiy bog'langan bo'lishi kerak, degan fikr paydo bo'lganligiga ko'p vaqg bo'ldi. Lekin, afsuski, shu vaqtgacha “Informatika” va “Axborot texnologiyalari” fanlarini maktab va OTM ham uzluksiz tarzda o'qitish konseitsiyasi ishlab chiqilmaganligi achinarlidir”. Ruhshunoslar fikriga ko'ra “Ro'zg'or pichog'i bilan mohir oshpaz shohona taom tayyorlab xo'randalarni lol qoldirsa, jinoyatchi qo'lga tushgan pichoq esa jinoyat quroliga aylanib, inson hayotiga yakun yasaydi. Demak, har bir buyum, vosita foydalanish turiga ko'ra turlicha maqsadlarga hizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1.Мунаввар қори Абдурашидхонов Туркистон т араққийпарв арларининг сардори. –Т.: 2018. 158 –б.

2. Муҳаммаджонов М. Турмуш уринишлари. (Бир муллабаччанинг хотира дафтари). -Т. 2015. -Б. 206-207.
3. Долимов У. Жаҳид педагогикаси. - Тошкент. 2007. - Б.47. Манбавий асоси: //Ёш Туркистон. 1934 й. январь.
- 4.ХУР Туркистон учун газетаси - 1975-1977 йилларда Истанбулда чиқарилган.
5. Мунаввар қори. Бизни жаҳолат - жақли мураккаб. //Тараққий. 1906 йил 14 июн.
6. Мунаввар қори. Жамиятлар қандай очилур? // Садойи Туркистон. 1914 йил, 14 июн.

РАҚАМЛАШГАН ЖАМИЯТ ВА РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ.

Камолова Кимёхон Фуломжоновна

Низомий номидаги ТДПУ

“Ижтимоий фанлар” кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада ҳозирги даврда рақамлашган жамият, унинг ижобий хусусиятлари, таълим жараёнида рақамли технологиялар ва унинг замонавий усулларни жорий этиш бўйича тадбирлар тавсия этилган. Шунингдек узлуксиз ҳамда олий таълим тизимида рақамли таълимга бўлаётган талаб ва эҳтиёжлар муҳокама қилинган.

Таянч тушунчалар: рақамлашган жамият, рақамли таълим, рақамли технология, модернизация, тараққиёт стратегияси, ахборот макони, ахборот технологияси, маънавият, ижтимоий тараққиёт.

Шунингдек, бугунги кунда рақамли иқтисодиётнинг янги технологиялари масофавий таълимни янада ривожлантиришга жуда катта ёрдам бермоқда. Виртуал ва кенгайтирилган воқелик, визуал равишда йўналтирилган масофавий таълим технологиялари талабаларни бугунги кун талабларига мувофиқ сифатли билим олишлари учун хизмат қилмоқда. Яъни, масофавий таълим тизими виртуал ва кенгайтирилган воқелик ҳамда визуал равишда йўналтирилган рақамли технологияларнинг қўлланилиши орқали талабаларни дарсга бўлган қизиқишларини кенгроқ жалб этиш имконини бермоқда. Дунё миқёсида барча таълим даргоҳлари масофавий таълим

платформаларидан фойдаланиб, ўқишни ташкил этмоқда, корхона ва ташкилотлар эса масофавий иш фаолиятини йўлга қўймоқда.

Талабалар ёки ходимлар масофавий таълим олиш имкониятига эга бўлганда анъанавий ўқитиш тизими материалларини ўрганишга қараганда 60 % вақтларини камроқ сарфлайдилар. Чунки, масофавий таълим платформалари бўйича таълим олаётган талабаларни дарсларга қизиқтириш даражаси одатдаги синф муҳитига қараганда 60 %га самарали ҳисобланади.

Масофавий таълим платформасига киритилган рақамли технологиялар материалларини тингловчи анъанавий машғулотларга қараганда 5 баробар кўпроқ ўрганади, бу эса уларнинг дарсни ўзлаштириш вақтларини кўпайтирмайди, аксинча бошқа машғулотлар билан шуғулланишлари учун имконият яратади.

Масофавий таълимда рақамли ўқитиш технологиялари анъанавий дарсларда қолдириладиган бўшлиқларни тўлдиришга имконият яратмоқда. Аслида, рақамли технологияларнинг бундай воситалари келтирадиган баъзи бир самарадорлик анъанавий ўрганиш усуллари билан деярли фарқ қилиб бўлмайди. Аммо, тарқатма материаллар ва китобларга қоғоз сарфланмаслигидан тортиб, маълумотларга тез кириш ва вақтни тежашга қадар, таълим харажатларини қисқартириш, маблағларни тежаш ва талабалар учун таълимнинг самарали усулини тақдим этмоқда.

Сўнги йиллар ичида ҳаётимизда мобиль қурилмаларнинг сўнги авлодларининг кириб келиши, улардан фойдаланган ҳолда Интернет тармоғи орқали дунёда бўлаётган воқеа ва ҳодисаларни тезкор равишда кузатиб бориш ҳамда барча турдаги материалларни (видео, аудио, матн, 3D, 5D, 7D графикалар) тезкорлик билан қабул қилиш, сақлаш ва узатиш имкониятлари пайдо бўлди ҳамда рақамли технологияларнинг вужудга келишига сабаб бўлди. Бу эса, ҳар кунги анъанавий ўқитиш усуллари алмаштиришга, аудиториялар қанчалик шиддат билан ўзгариб бораётганлиги сабабли, эски усуллардан воз кечиб, рақамли технологияларга асосланган янги ўқитиш усуллари жорий қилиш орқали қоғоз ва дафтарлар ўрнига оддий планшетлардан, мураккаб дастурлар ва рақамли жиҳозлардан фойдаланиш имконини бермоқда. Масалан, АҚШда талабаларнинг учдан икки қисми масофавий платформаларга кириш учун мобиль қурилмалардан фойдаланишади. Онлайн ўқитиш эҳтиёжлари учун мобиль қурилмаларни ишлатувчи талабаларнинг 99 %и масофавий таълимнинг мобиль иловалари уларнинг таълим даражаси яхшиланганини таъкидлашган[1].

Дунёнинг кўплаб йирик корпорациялари таълим соҳасига қўйилган ўқитиш талабларини қобилият учун бериладиган сертификат сифатида қараб, дипломдан кўра кўпроқ амалий кўникмаларга эътибор беришни бошладилар.

Масалан Google, Apple ва Amazon каби дунёнинг бошқа кўплаб етакчи иш берувчилари, иш учун олий маълумотли диплом талаб қилишни тўхтатдилар. Шу боис, масофавий таълим платформалари орқали рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда талабаларни ўқитиш, уларнинг нафақат назарий билимини, балки амалий кўникмаларини юқори даражада шакллантиришга хизмат қилади[2].

Рақамли технологиялардан фойдаланиш ва масофавий таълимнинг янги авлод тизимларини ва электрон журналлар фаолиятини самарали йўлга қўйилишига олиб келди. Бунда нафақат профессор-ўқитувчилар ва талабалар, балки уларнинг ота-оналари ҳам иштирок этиши, яъни улар электрон журнал баҳоларини, берилган уйга вазифаларни, тестларни ва қайта алоқа шаклидаги ҳар бир талабанинг умумий статистикасини кўриб бориш, шунингдек хабарлардан фойдаланиб, профессор-ўқитувчилар билан ёзишмалар олиб бориш, энг асосийси эса фойдаланувчининг электрон маданиятини шакллантириш имконини беради.

Бу жараёнга мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев ҳам алоҳида эътибор қаратиб: “Тараққиётга эришиш учун рақамли билимлар ва замонавий ахборот технологияларини эгаллашимиз зарур ва шарт. Бу бизга юксалишнинг энг қисқа йўлидан бориш имкониятини беради. Зеро, бугун дунёда барча соҳаларга ахборот технологиялари чуқур кириб бормоқда. Албатта, рақамли иқтисодиётни шакллантириш керакли инфратузилма, кўп маблағ ва меҳнат ресурсларини талаб этишини жуда яхши биламиз. Бироқ, қанчалик қийин бўлмасин, бу ишга бугун киришмасак, қачон киришамиз?! Эртага жуда кеч бўлади” [3]деган.

Юқоридаги таҳлилдан кўришимиз мумкинки, бугунги кунда рақамли иқтисодиёт технологиялари масофавий таълимни янада ривожлантиришга жуда катта ёрдам бермоқда. Виртуал ва кенгайтирилган воқелик, визуал равишда йўналтирилган масофавий таълим платформалари талабаларни бугунги кун талабларига мувофиқ сифатли билим олишлари учун хизмат қилмоқда. Бугунги кунда, мазкур платформага университет профессор-ўқитувчилари томонидан, фан дастурлари, маърузалар матни, тегишли мавзу бўйича видеомаърузалар, тақдимотлар, мустақил бажариш учун машқлар ва тест саволлари жойлаштирилиб, талабалар томонидан онлайн тарзда мулоқот ўрнатилмоқда. Дарҳақиқат, бугунги кунда ижтимоий тармоқлар ва алоқа платформалари рақамли вазифалар ва кун тартибини яратиш ҳамда бошқариш учун фойдаланилмоқда. Аудиторияда қанча технологиялар ишлатилмасин, рақамли технологиялар орқали яратилган масофавий таълим платформалари ҳал қилувчи рол ўйнайди. Бу эса талабаларнинг билим олишга қизиқишини

оширади ва дунёқарашини кенгайтиради. Масофавий таълимдаги рақамли ўқитиш анъанавий ўқитиш усулларига қараганда олдинга бир қадам қўйиш ҳисобланади ва жуда кўплаб имкониятлар эшигини очади

Фойдаланилган адабиётлар

1. Касимов, О. (2018). Онлайн-образование — способ повысить качество образования: плюсы и минусы. Экономика и инновационные технологии, № 6 (2018), 90–97
2. Тўхсанов Қ. Таълим беришда рақамли технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти.-Бухоро, 2021.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, № 19, 25.01.2020.

TA`LIM SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI

Matnazarova Muhayyo Axmetjanovna


TAQU o'qituvchi

Bugungi kunda Internet bizning hayotimizga tobora kirib bormoqda. Internetda pochta, telefoniya, biznes(savdo, bank, auksion) ishlari ko`proq amalgam oshirilmoqda. Kundan-kunga tarmoqda axborot manbalari ko`paymoqda.


2004 yilgi hisobotga ko`ra Internetdan foydalanuvchilar soni 600 mln. kishidan ortiq edi. Internet deyarli ta`lim jarayoni uchun ideal muhit vazihfasini o`taydi. Bunga Internet foydalanuvchilarining dunyoning istalgan nuqtasidan tarmoq resurslaridan foydalana olishligi muhim omillardan biri sifatida ko`rsatilmoqda.

Tarmoq foydalanuvchilari va axborot sahifalari soni uzluksiz tarzda o`sib borib, ko`pchlik yoshlar uchun ermak va qulay vositaga aylanmoqda. AQSH da o`tkazilgan statistik tadqiqotlarga ko`ra Oliy o`quv yurtlarining yuqori kurs va kollejlari talabalarining 100% i Internetdan foydalanadilar. Talabalar Internetning faol foydalanuvchilari sifatida haftasiga o`rtacha 11 soatni online ga sarflaydilar. Har 10 talabadan 9 tasi kuniga elektron pochatasidan foydalanadilar. Internetdan yangilik, axborot va ish qidiradilar. Amerikalik 5 dan 17 yoshgacha bo`lgan bolalarning deyarli 90 % i kompyuterdan foydalanadilar , bu foydalanuvchilarning 59 % i Internetdan foydalanuvchilardir. 15 yoshli amerikaliklarning har to`rtinchisi Internetdan

foydalanadilar, 10 yoshlilar guruhida bo`lsa 60 % ni, 16 va undan kattalarida bu ko`rsatkichlar 80 % ni tashkil etadi (bu ko`rsatkichlar ham vaqt o`tishi bilan ortib bormoqda).



1-rasm. Internetdan foydalanuvchilar (yoshi bo`yicha 2004 yil)



2-rasm. Internetga ulangan kompyuterlar soni

Internet birinchi navbatda axborot tarmog`idir. Katta hajmdagi axborotlar ichidan kerakli ma`lumotlarni topishda maxsus Internet qidiruv mashinalari ta`lim sohasida o`qituvchi uchun ham o`quvchi uchun ham birday qulaydir. Qidiruv mashinalarida 4 mlrd.dan ortiq unikal sahifalar birlashtirilgan.

O`zbek tilidagi ma`lumotlar qidirishda o`zbek qidiruv mashinalari www.mail.uz, www.doda.uz, www.search.uz, www.ziyonet.uz, www.google.co.uz lar millionlab hujjatlarni qamrab olgandir.

O`qituvchilar va o`quvchilar qidiruv proseduralaridan ta`lim jarayonida faol foydalanishlari mumkin.

Zamonaviy jamiyatda Internet orqali masofaviy ta`limning rivojlanishiga quyidagi ikki sababni ko`rsatish mumkin:

1. Yosh avlodlarning ta`lim potensialiga bo`lgan talabning ortishi, axborot texnologiyalarini o`zlashtirish, jamiyatdagi bilimlarni tezkor almashinuvi, insonni butun umri davomida o`qishi kerakligi, uzluksiz ta`limni zaruriylashishi.

2. Internet tarmog`ining va kompyuter texnologiyalarining rivoji, ishlarni kompyuter va kompyuter dasturlari orqali bajarilishi soddalashishi.

Internetning o`qituvchi uchun qulay bo`lgan omillari qaysilar ?

Bu omillarini asosiylarini sanab o`tamiz:

- ✓ Mustaqil ravishda tarmoqdagi axborotlar orqali o`z malakasini oshirish.
- ✓ Tijorat hamda notijorat tashkilotlarining Internet tarmog`idagi masofaviy ta`limini o`zlashtirishi jaroyonida o`z malakasini oshirish.
- ✓ Dars o`tish uchun Internet tarmog`idan materiallar qidirish.
- ✓ Hokimiyat serveridan normativ hujjatlar qabul qilish.
- ✓ Yangi pedgogik texnologiyalarga oid axborotlar olish.
- ✓ Talabnomalar jo`natish, konferensiya, tanlov va grantlar, hisobot va konferensiyalarga chiqish haqidagi axborotlarni olish.
- ✓ Dasturiy ta`minot olish.
- ✓ O`z ishlarini chop qilish va o`z ishlari to`g`risida ma`lumotlar yuborish.
- ✓ Hamkasb va do`stlar bilan xat yozishmalar. Fikrdoshlar va hamkasblarni boshqa shaharlar va davlardan qidirish.
- ✓ Internet magazinlarida savdo qilish.
- ✓ Ish qidirish.

Internet texnologiyalarini ta`lim sohasidagi quyidagi afzalliklarini sanab o`tish mumkin: bu fanlarni o`zlashtirilishni yaxshilanishi; tarmoq savodxonligini ortish(Kompyuter va Inernet bilan muloqot qilishdagi yangiliklar); o`rganishga bo`lgan munosabatni yaxshilanishi; mustaqil ta`lim va tadqiqotlar malakasini takomillashishi; amaliy malaka samaradorligini oshishi.

Vaqt o`tishi bilan Internetda eng muhim fanlarning eng yaxshi ma`ruzalari chop qilinishi kutilmoqda. O`qituvchilar bu ma`lumotlardan o`z darslariga asos

sifatida foydalanishlari mumkin. Ma`lumotlar jo`natishda tezlikning ortishi bugungi matn ko`rinishidagi Internetni multimediyali interaktiv telekanalga aylanishi boshorat qilinmoqda. Bugungi kunda Internetdan ajralishlik mukammal bo`lgan ta`limdan mahrum bo`lishlikdir.

FUTBOLCHILARNING TEXNIKAGA XOS BO'LGAN QIRRALARINI KASHF QILISHDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNING BIOMETRIK HARAKATLARINI O'RGANISH.

Toshkent arxitektura-qurulish universiteti

Jjismoniy tarbiya va sport fani o`qituvchisi Xidirov Dilmurod Qurbonaliyevich.

Toshkent arxitektura-qurulish universiteti

Menejment fakulteti 33-20 QBF guruhi Isroil Sharipov Shoim o`g`li

Futbolchilar bilan ish boshlagan har bir murabbiy avvalo uning texnikasini rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. To`pni tepishni, olib yurishni, uzatishni, qabul qilishni, oyoq va boshda zarba berishni o`rgatadi. Shug`ullanuvchilar bilan yil davomida har xil mashg`ulotlar o`tkaziladi. Yosh futbolchilarning jismoniy sifatlarini va texnikasini rivojlantirishga asosiy vaqt ajratiladi. Yosh futbolchilar bilan ishlaydigan murabbiylar o`yinda yuzaga keladigan harakatlarni bajarish usullarini yaxshi egallagan bo`lishlari lozim. Futbol texnikasining o`ziga xos xususiyatlari boshqa sport turlaridan farqi, o`ziga xos bo`lgan qirralari va harakatlanish malakalarini bilmagan murabbiy, futbol o`yin texnikalarini muvaffaqiyatli o`rgatishga qodir emas.

Futbolchilar bilan ishlaydigan murabbiylar o`yinda yuzaga keladigan harakatlarni bajarish usullarini yaxshi egallagan bo`lishlari lozim. Futbol texnikasining o`ziga xos xususiyatlari, boshqa sport turlaridan farqi, o`ziga xos bo`lgan qirralari va harakatlanish malakalarini bilmagan murabbiy futbol o`yini texnikasiga muvaffaqiyatli o`rgatishga qodir emas.

Futbol o`yini texnikasi, harakat malakalarining umumiy o`ziga xos xususiyatlaridan tashqari, bir qator o`ta ixtisoslashgan malakalarga ega. Texnika usullari va to`pni egallab olishning ayrim elementlarini bajarish hamda ularni o`yin vaziyatlarida qo`llash quyidagicha tavsiflanadi;

1) futbol harakatlari malakasi har doim ma'lum bir sifatlar, masalan, mushak-kuch, tezkorlik, chidamlilikka asoslanadi;

2) harakat malakasi o'yin texnikasini ifodalovchi element hisoblanadi va u shundan iboratki, uzok vaqt ichida yuqori darajada barqaror bo'ladi, ya'ni o'yin texnikasi malakalari ko'p yillarga saqlanib qoladi;

3) futbol o'yini texnikasi uchun xos bo'lgan tabiiy holat shundan iboratki, asosiy texnika usullarini qo'l bilan emas (bu insonlar uchun odatiy hol), balki oyoq bilan bajarishga to'g'ri keladi. Bu faqat o'rgatishning boshlang'ich davridagina o'yin texnikasini egallash uchun qiyinchilik tug'diradi;

4) futbol o'yini texnikasi elementlari g'ayrioddiy bolalar uchun notabiiy bo'lganligi sababli, o'yin texnikasiga o'rgatishda tegishli uslubiy usullarni qo'llash zarur bo'ladi;

5) o'yin paytida futbolchilar texnik usullarni "o'ziga xos muhitda" qo'llaydilar; o'yin qoidalariga gavda bilan kurash olib borish ruxsat beriladi. Bunda raqibingiz sizga u yoki bu texnika usulini qo'llashingizga xalaqit berishi mumkin. Shuning uchun texnikaga o'rgatish va uni mustahkamlashda o'yindagi kurash xususiyati hamda raqibning qarshilik ko'rsatuvchi harakatlarini nazardan qochirmaslik lozim;

6) futbolda (birinchi navbatda o'yin paytida) harakatlarni oldindan mo'ljallay olish mumkin emas; ular vaqt va makonda sodir bo'ladi. Ularni oldindan rejalashtirib bo'lmaydi. Bu harakatlarning makondagi, vaqt oralig'idagi va dinamik (mushak kuchi, tashqi ta'sir kuchlari) tuzilmasi ko'pgina "individual" sport turlariga (yengil atletika, gimnastika, suzish, velosiped sport va h.k.) nisbatan boshqacharoq.

O'yin xususiyati va harakatlarning o'ziga xos tuzilmasi, o'yinchilarning individual jismoniy hamda ruhiy xususiyatlaridan tashqari, texnikaga o'rgatish va uni mustahkamlashni belgilab beradi. Harakatlarga o'rgatishni alohida qismlarga bo'lingan va parchalangan holda amalga oshirish bo'lajak futbolchilar futbol texnikasi usullari bilan tanishishlari, ularni o'rganib olishlari va kelgusida o'yin vaziyatlarida qo'llashlari lozim. Futbol texnikasini o'rganishga kirishish uchun, birinchi navbatda, muvofiq holda ulg'aygan bo'lish zarur. Bu bilan shu narsa nazarda tutiladiki, harakatlarni egallash uchun bir xil darajada ham jismonan, ham ruhan tayyor bo'lish kerak.

Hozirgi zamondagi nuqtai nazar asosida aytish mumkinki, futbol texnikasiga, ongli ravishda bajariladigan harakatlarga 9-11 yoshdan boshlash uslubiy jihatdan to'g'riroq. Bunda to'g'ri rivojlanayotgan bolalar futboldagi harakatlarni o'rganish uchun zarur imkoniyatlarga egalar. Biroq bu yosh futbolchilar 9-11 yoshgacha to'p

bilan shug'ullanmasliklari kerak, degani emas. Ma'lumki, eng kichik yoshdan boshlab bolalarning sevimli o'yinchog'i to'p (koptok) hisoblanadi.

Kichik yoshda bolalarni futbol texnikasi elementlariga majburan o'rgatib bo'lmaydi. Bu yoshda bolalarga ruxsat berish mumkin bo'lgan yagona narsa shuki, bolalar boshqa erkin o'ynaladigan o'yinlar bilan bir qatorda to'pning xususiyatlari bilan tanishishlari lozim, chunki bu yoshda "to'pni bola emas, to'p bolani harakatlantiradi". U tajriba orttiradi, unda to'p bilan muomala qilish borasida minimal malakalar avtomat ravishda hosil qilinadi.

Texnikani egallash shuni anglatadiki, futbolchi uchun zarur bo'lgan harakat malakalari o'zlashtiriladi, takomillashtiriladi hamda mustahkamlanadi. Buning natijasida ularni o'yinda, to'p uchun kurashish paytida qo'llash imkonini yuzaga keladi. Yosh futbolchilarning texnika malakalarini rivojlantirish amaliy mashg'ulotlar davomida muhim o'rin egallaydi. Amaliyotdan ma'lumki, yosh futbolchilarni texnika usullariga o'rgatish natijalari bir xilda emas. Tafvut texnika usullarining o'yinchilar tomonidan qay tarzda egallanishi va qo'llanilishida namoyon bo'ladi.

Shu narsa aniqlanganki, bo'sh zarbaga ega bo'lgan o'yinchilar to'pni qabul qilib olish, uni olib yurish va aldashlarda yuqori texnikani namoyish qiladilar, kuchli zarbaga ega bo'lgan futbolchilar esa ko'pincha bu usullarni yomon bajaradilar. Turli xildagi aldanchi harakatlarni yaxshi o'zlashtirgan o'yinchilarning to'pni olib qo'yishdagi tajribasizligi amalda kuzatilgan. Yoshlik davrida tomir otgan yomon odatlar, yomon texnika kelgusida o'yinchilarda to'g'ri malakalarning hosil bo'lishiga xalaqit qiladi. Shu tarzda texnikadagi bilimlari turlicha bo'lgan futbolchilar shakllanadi. Ular faqat o'zlari yaxshi bajara oladigan usullarnigina ishtiyoq bilan amalda qo'llaydilar. Buning hammasi ularning faoliyat doirasini kamaytiradi, jamoaning taktik imkoniyatlarini cheklaydi va uning natijalarini pasaytiradi.

Texnik mahoratni takomillashtirishda bugungi futbolning xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir. Bu xususiyatlar qanday?

1. Futboldagi sur'at tezlashgan, demak, futbolchilar o'yin davomida texnika usullarini yanada tez va sifatli bajarishlari lozim.

2. Oxirgi yillarda futbolda kuchli yakkama-yakka olishuv diapazoni ancha kengaydi. Shuning uchun o'yinchi texnika usullarini shiddatli va kuchli kurash olib borish vaziyatida bajaradi.

3. Musobaqalar paytida turli xildagi o'yin variantlari qo'llanilmoqda va yoshlik chog'idanoq egallangan texnika malakalarini oqilona qo'llashga qodir bo'lgan futbolchi ularni to'liq ro'yobga chiqara olishi mumkin.

4. Natijada, yoki sportchilar har bir texnika usulini egallab olishi zarur. Agar faqat yuzaga kelgan yoki majburan orttirilgan o'yin ampulasini hisobga olgan holda futbol texnikasiga o'rgatilsa, bu noto'g'ri bo'ladi.

Hozirgi paytda bolalarni futbol to'garaklariga (seksiyalariga) saralashda to'pni egallash ko'nikmasi hamda o'yindagi chaqqonlikka asosiy e'tibor qaratiladi. Ba'zi mutaxassislarning fikricha, agar bolalarda texnik tayyorgarlik yaxshi bo'lsa, bo'sh jismoniy qobiliyatlar faqat e'tiborga olib qo'yiladi. Ularning fikricha, hatto yaxshi jismoniy qobiliyatlar yomon texnikaning o'rnini qoplay olmaydi. Ko'p hollarda bunday bolalarni to'garaklarga qabul qilmaydilar. Bu juda noto'g'ridir. Hozirgi kunda o'yin maydonlarining yo'qligi tufayli iqtidorli bolalar kamayib bormoqda. Bizningcha, jismoniy rivojlanganlik darajasi o'rtadan yuqori bo'lgan bolalar saralab olish zarur. Ular tegishli darajada o'rgatishdan so'ng yaxshi texnikaga ega bo'lishlari mumkin. O'sib borayotgan jismoniy nagruzka yosh futbolchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish usuliyatiga muhim darajada tuzatishlarni kiritishni taqozo etadi.

Texnika malakalari, jismoniy va aqliy qobiliyatlarni takomillashtirish hamda taktik tayyorgarlik o'rtasidagi bog'liqlik aytib o'tilganlarga nisbatan turli-tumandir. Ta'kidlash joizki, turli xildagi taktika rejasi yoki taktik fikrlar hamda shu bilan bog'lik bo'lgan rejali o'rgatish kelgusida faqat boshqa o'yin omillari tegishli darajada rivojlangan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin.

Bugungi kunda futbol sport turining kun sayin rivojlanishi, jismonan baquvvat va iste'dodli o'yinchilarni tayyorlab berishni taqozo etmoqda. Bolalar va o'smirlar sport maktablari hamda futbol yo'nalishidagi maktab-internatlar nizomida ko'rsatib o'tilganidek, iste'dodli va umidli futbolchilarni tarbiyalash butun o'quv mashg'ulot davomida olib boriladi. Keyingi yillarda futbolga doir ko'pgina ilmiy maqolalar, usuliy ko'rsatmalar va qo'llanmalarda yosh futbolchilarni iqtidorli futbolchi qilib tarbiyalash masalalari keng yoritilmoqda.

Murabbiylar futbolchilarning yoshlik davrdan texnik- taktik harakatlarga katta e'tibor qaratishni ta'kidalaydilar. R.I.Nurimov yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligi, o'yin texnikasining ayrim usullariga o'rgatish, o'rganilganlarni nazoratsiz qoldirilishi mumkin emasligi, agar o'yin texnikasiga o'rgatish rejalashtirilgan, muntazam mashg'ulotlar bilan o'tkazilsa, unda yaxshi natija berishini ta'kidlagan.

Yosh futbolchilarning dastlab tayyorgarligi o'yin texnikasidagi xatolarni tuzatish, texnik tayyorgarlikda muhim ahamiyatga ega, ayniqsa, bu narsa boshlovchi o'yinchilar uchun ahamiyatlidir. Texnikani yomon o'zlashtirish oxir oqibat mahoratni

keyinchalik takomillashtirishga to'sqinlik qiladi. Futbol mutaxassislari futbolga endi kirib kelgan bolalarda texnik harakatlarini tarbiyalashda, to'pni his qilish qobiliyatini rivojlantirish, bunda to'p bilan oddiy mashqlar, to'pni olib yurish, to'pni tepish va janglyorlik qilishni, har mashg'ulotda olib borishni e'tirof etishadi.

K.X. Xedergot, A.Chanadi hamma mashg'ulotlar turlari orasida, yangi shug'ullanuvchilar uchun birinchi navbatda "sof" texnika bo'yicha o'tkaziladigan trenirovka muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashadi. Texnika turidagi trenirovkalarni o'tkazish tezligi quyidagilarga bog'liq:

- yosh futbolchilarning yoshi;
- ularning tayyorgarlik darajasi;
- trenirovka davri;
- trenirovka sharoitlari.

O'smirlar va o'spirinlik yoshidagi futbolchilar gavda tuzilishi hamda markaziy asab tizimi holati nuqtai nazardan, harakatlarni juda yaxshi egallab olish xususiyatiga ega. Yangi futbolchilar trenirovkalarida jismoniy va asab tizimiga tushadigan nagruzka o'yinchining texnika darajasiga mos bo'lishi mumkin. Haddan tashqari bo'lgan nagruzkalar zo'riqish yoki tezlik yaxshi o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi, buning natijasida harakatlarda ma'lum bir xatolar mustahkamlanib qoladi. O'yin texnikasiga boshlangich o'rgatishda sharoitlarni yengillashtirish va tegishli uslublar bilan texnikani tez egallashda o'yinchilarga yordam ko'rsatish lozim. O'yinchilar bajariladigan texnika usullarini "tushunib yetganlaridan", texnika usullarini nisbatan mustahkamlab olganlaridan so'ng kelgusidagi o'rgatishda boshlang'ich davrda qo'llanilgan o'sha uslublardan foydalanmaslik zarur.

O'rgatishdagi xatolik, bir tomondan, qo'llaniladigan o'rgatish uslublaridan, ikkinchi tomondan shundan iboratki, texnikani egallash paytida futbolchilar ba'zan tegishli jismoniy tayyorgarlikka ega emaslar. Xatolikning tez-tez yuzaga kelishi yana shunga bog'liqki, o'yin texnikasi bo'yicha mashqlar ham jadallik bilan bajarilmaydi. Ko'pchilik futbolchilar, ularga hech kim xalaqit qilmagan paytlarda, to'p bilan a'lo darajada o'ynaydilar, hattoki sirkcha tryuklarga ham qodir bo'ladilar, lekin o'yinda esa ularni tanib bo'lmaydi. Kuchli kurashish vaziyatlari futbol o'yini uchun xosdir. Yuqorida aytib o'tilganidek, gavda bilan kurash olib borishga futbol qoidalarida ruxsat beriladi. Bu o'yinda raqib tomonidan faol qarshilik ko'rsatish vaziyatida texnika usullarini har vaqt va har yerda bajarish lozim demakdir. Shuning uchun yosh futbolchilarni bunday o'yinga tayyorlab borish juda muhimdir. O'yin texnikasiga o'rgatish va trenirovka uslublari o'yin mohiyatiga zid bo'lmasligi lozim, aksincha,

texnikaga o'rgatishda o'yin talablarini har doim hisobga olish zarur. O'yin vaziyatlariga yaqinlashtirilgan va o'yinchilarning o'yindagi majburiyatlarini hisobga olib tanlangan mashqlar juda muhim bo'lib, trenirovka mashg'ulotlari o'quv materiallarining 50-60% ni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.Toshkent.16 mart 2018 yil.PQ-3610.
2. Akramov R.A,Talibjanov A.I "Podgotovka futbolistov visokoy kvalifikatsii. Uchebnoye posobiye. Tashkent, 1994.
3. Futbol. Darslik . R.A. Akramov umumiy taxriri ostida. T:. Lider Press 2005.
- 4.R.I.Nurimov. "Futbol nazariyasi va uslubiyati". Darslik. ITA-PRESS.Toshkent. 2015 yil.
- 5.R.I.Nurimov, Abidov Sh.U, Nurimov Z.R, S.R.Davletmuradov. "Sport va milliy o'yinlar" (Futbol).Darslik.ITA-PRESS. Toshkent. 2015 yil.

MUNDARIJA
SO'Z BOSHI

3

1-SHO'BA: ARXITEKTURA - QURILISH SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING MAZMUNI		
1	<i>E.B.Xaltursunov</i> YANGI O'ZBEKISTONDAGI ENG YANGI – TAQU.	4-10
2	<i>Sattorov Zafar Muradovich.,Aripova Nasiba Atxamovna, Ayoubi, Majid, Yuvasheva Dilnoza, Mirzoev Yunus</i> ASSESSMENT OF ARCHITECTURAL STUDENT PRESENTATION AND USED SOFTWARE TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES	10-18
3	<i>Ilyasov Allanazar Torexanovich, Kenjebayeva Nursulu Muxtarovna, Urazxanova Elvira Muratovna</i> ARXITEKTURA-QURILISH SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH HAQIDA	19-21
4	<i>Rizayev X.T</i> GRAFIK DASTUR YORDAMIDA ARXITEKTURAVIY ELEMENTLARNI LOYIHALASHDA UCH O'LCHOVLI MODELLASHTIRISHNING AMALIY ANAMIYATI	21-27
5	<i>Эргашиев Алишер Алмахаматович</i> КОМПЬЮТЕРНАЯ ГРАФИКА КАК СРЕДСТВО ОТОБРАЖЕНИЯ ВИЗУАЛЬНОЙ ИНФОРМАЦИИ В АВТОМАТИЗИРОВАННОМ ПРОЕКТИРОВАНИИ	28-31
6	<i>Aripova Nasiba Atxamovna, Javlanov Jamshid Xurshid</i> TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH	32-36
2-SHO'BA: TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH		
7	<i>N.S.Alimova, S.S.G'ulomova</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINI INTENSIV O'QITISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI	36-43
8	<i>Аминова Нурхон Бобомуродовна</i> ИННОВАЦИОН FOYLARNI RIVOJLANTIRISHDA FAN TA'LIM VA Iшлаб чиқариш уйғунлиги.	43-47
9	<i>P.B.Nasirov, R.A.Arzieva</i> KASIBIY MATEMATIKA FANININI O'QITISHNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQUISH MASALALARI	47-50
10	<i>Xolmirzaev Xayitboy Dedaxonovich, Dadahonova Surayyo Xayitboy qizi</i> MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI: KECHA, BUGUN VA ERTAGA	51-56
11	<i>Aripova Vasila Baxtiyarovna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TARBIYASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	56-60

12	<i>Turdibekova Risolat Shermatovna, Eyupov Timur Ruslanovich, G.Z. Xusnidinova</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM SOHASIDA QO'LLANILISHI	60-64
13	<i>Усмонова Дилноза Тулқуновна</i> ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ХИМИИ	64-68
14	<i>Aripova Nasiba Atxamovna, Nigmatov Orifjon Raxmatonovich, Nigmatov Ravshanjon Raxmatjonovich</i> TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH	68-72
15	<i>Xidirov Dilmurod Qurbonaliyevich</i> FUTBOL SPORT TURINI O'RGATISH USLUBIYATIDA RAQAMLI TEXNALOGIYANING VA NAZARIY MASHG'ULOTLARNING TAXLILY JIHATLARI.	73-76
16	<i>N.S.Alimova, A.G.Yodigarov, G.Z.Xusnidinova</i> O'ZBEK TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI	77-82
17	<i>G.A.Maksudova</i> INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI "QURILISH MEKANIKASI" FANIDA QO'LLASH.	82-86
18	<i>Tillavoldieva Matluba Xoldarovna</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYQLAR SHAROITIDA OLIY TA'LIM TIZIMIDA IJTIMOY FANLARNI O'QITILISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	86-93
19	<i>Mamatqulova Ozoda Xikmat qizi</i> OLY TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI HAMDA ULARNI TRANSFORMATSIYA QILISH ORQALI TA'LIM TIZIMINI YUKSALTIRISHNING ISTQIBOLLARI	94-98
20	<i>Mulladjanova Ra'no Abdulladjanovna</i> TARIX FANLARINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH	98-103
21	<i>Yulchiyev Avazbek, Azizjanova Charos</i> RAQAMLASHTIRILGAN JAMIYATDA TA'LIM VA TARBIYA MUSHTARAKLIGI-TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA	103-107
22	<i>Egamberdiyev Ilhomjon Yigitaliyevich</i> HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA KADRLAR TAYYORLASHNING AXBOROTLASHTIRILGAN TALIM MUXITIDA INNOVATSION YONDASHUVLARI	107-112
23	<i>Далакъян Ж.С</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕСС ОБРАЗОВАНИЯ	113-116
24	<i>To'yeva Muhayyo Shuhrat qizi</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYLA SHAROITIDA OLIY TA'LIMNING TRANSFORMATSIYASI	116-120

25	<i>Turg'unboyeva Dilyoraxon</i>	RAQAMLI	121-125
	TEKNOLOGIYALARNING TA'LIM SOHASIDAGI MUVAFFAQIYATLARI		
26	<i>Ongarov Mansurbek Bayrambekovich, Buronova Sitara Tohir qizi</i>	RAQAMLI TA'LIM TEKNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN XOLDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI O'ZIGA XOS JIHATLARI.	125-130
27	<i>Зулфкоров Х. З, Шахмурова Г. А</i>	ЦИФРОВОЕ ОБЩЕСТВО И ЦИФРОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В БИОЛОГИИ	130-135
28	<i>Нормуминова Ширин Бахромовна</i>	ПРИМЕНЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.	135-139
29	<i>Курбанова Нигора Бахтияровна, Хидирова Сарвиноз Эркин қизи</i>	ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС НА ПРИМЕРЕ ИЗУЧЕНИЯ ТВОРЧЕСТВА ФУРКАТА	140-144
30	<i>Атаджанова Сайёра Эгамовна, Джумамуратова Мадина</i>	ТРАНСФОРМАЦИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	144-147
31	<i>Aripova Nasiba Atxatovna, Tolibjonova Sarvinoz Tokir qizi</i>	TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH.	148-153
32	<i>Абидова Садокат Абдураходовна</i>	ПОЛОЖИТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ, ТЕНДЕНЦИИ И ОСОБЕННОСТИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ	153-157
33	<i>Орлова Татьяна Алексеевна , Ген Лейло Азимовна</i>	ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ 3D – ТЕХНОЛОГИЙ, СРЕДИ ДРУГИХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ, В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ АСТРОНОМИЧЕСКИМ ДИСЦИПЛИНАМ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ	158-161
34	<i>Tojiboyev Bobir Tolibjonovich</i>	MATERIALLAR QARSHILIGI FANINI O'QITISHDA SOLIDWORKS KOMPYUTER DASTURIDAN FOYDALANISH VA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH	161-164
35	<i>G'ofurova Mohidil Sayfutdin qizi</i>	RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI AQLIY TAFAKKURLARINI RIVOJLANTIRISH	164-167
36	<i>Toshbekova Mohira Xasanovna</i>	OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	167-172
37	<i>Matatqulova Ozoda Xikmat qizi</i>	OLIIY TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING	172-176

	AHAMİYATI HAMDA ULARNI TRANSFORMATSIYA QILISH ORQALI TA'LIM TIZIMINI YUKSALTIRISHNING ISTQIBOLLARI	
38	<i>Niyozova Mashhura Usmonovna</i> INGLIZ TILIDAGI "FOOT"LEKSEMASI ISHTIROKIDAGI SOMATISM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LISONIY LINGVOKULTROLOGIK JIHATLARINI O'ZBEK TILIDAGI TALQINI	177-181
39	<i>Tolibjonova Sarvinoz Tokir qizi, Asmandiyarova Regina Baxtiyor qizi</i> FURQAT IJODINI O'RGANISH MISOLIDA TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH	181-186
40	<i>Жумаев Тўлқин Холмуродович</i> КРЕДИТ МОДУЛ ТИЗИМИ АСОСИДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИЖТИМОЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ	186-195
41	<i>Xalmamatova Lola Amankulovna, Shatmanova Sabina Oybekovna</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INSONNING MUNOSIB HAYOTINI TA'MINLASHDAGI O'RNI	195-200
42	<i>Tashtemirova Nargiza Nematovna</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR - UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA	200-204
43	<i>Temirov Islomjon Ilxomjon o'g'li</i> TA'LIMDA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	204-209
44	RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM SOHASIDAGI MUVAFFAQIYATLARI	209-213
45	<i>Norinov Muhammadyunus Usibjonovich, Ergashev Ahrorbek Akmaljon o'g'li, Maqsudov Shoyatbek Abdusalom o'g'li</i> ZAMONAVIY TELEKOMUNIKATSIYA	213-217
46	<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i> O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARI ASOSIDA BAKALAVRLAR TAYYORLASHNING DOLZARBILIGI	217-220
47	<i>Алимов Фарход Шарабидинович</i> НОФИЛОЛОГИК ФАКУЛЬТЕТЛАРДА ЧЕТ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ	220-223
48	<i>Халмаматова Лола Аманкуловна, Жалолиддинов Сахобиддин Наъсмиддин</i> ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ	224-228
49	<i>Курбанова Назира Низомиддиновна</i> ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ДОО	228-233
50	<i>Raximbekova Diyora Abdulla qizi</i> KREDIT- MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINING	233-236

	TASHKIL ETISH MUAMMOLARI	
51	<i>Фазилов Алишер Шомуродович</i> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ПРОЕКТИРОВАНИЮ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ АРХИТЕКТУРЫ И СТРОИТЕЛЬСТВА	237-244
52	<i>Холмуминова М, Тиллаволдиева. М.Х</i> РАҚАМЛИ ЖАМИЯТДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ДАРС ЖАРАЁНИДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АЙРИМ ЖИХАТЛАРИ 3-SHO'VATA'LIM MUHITINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI IQTISODIYOTGA O'TISHNING ISTIQBOLLARI	244-249
53	<i>Мирджалилова Дилдора Шухратовна</i> ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СЕРВЕЙИНГОВЫХ УСЛУГ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВОЙ ИНТЕГРАЦИИ	249-254
54	<i>Saidova Dilfuza Abdufattoxovna</i> RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SHAXSIY SUG'URTA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA BOSHQARUV SAMARADORILIGINI OSHIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI	255-261
55	<i>. N.X.Gulyamova, M.Abdurasulova</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA ARHITEKTURA YO'NALISHIDA TA'LIM BERISH	261-265
56	<i>Amirov Zubaydulla Toir o'g'li</i> LOYIHA YECHIMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	266-274
57	<i>Aripova Nasiba Atxamovna, Abdullayev Saxobjon</i> RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING OLIY TA'LIMDAGI O'RNI	275-279
58	<i>Таимухамедова Карима Саматовна</i> МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО РОСТУ КАДРОВОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ	279-284
59	<i>Odilov Miroqiljon Azamat o'g'li, Azimova Charos Azamatovna</i> RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING OLIY TA'LIMDAGI O'RNI	284-288
60	<i>M.S.Asadova, N.Sh.Axmedova</i> RAQAMLI IQTISODIYOT – RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA XUSUSIYATLARI	288-292
61	<i>Yusupov Shavkat Ergash o'g'li</i> RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING OLIY TA'LIMDAGI O'RNI	293-297
62	<i>Файзиева Гулноза Абдурумановна</i> РАҚАМЛИ ИҚТISODIЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШ	297-300
63	<i>Shodmonov Baxtiyorxo'ja Isaxonovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISHNING USTUVOR VAZIFALARI	300-306

	<i>Aripova Nasiba Atxamovna , Amirqulov Muzaffar</i>	306-309
64	AXBOROTLASHTIRILGAN MUHITDA BO'LAJAK MUTAXASISLARNI KASBIY INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	
65	<i>Abdullayev Sh.Sh</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA	309-314
	KO'CHMAS BOZORI TAHLILI	
66	<i>Хаджаев Рустамхон Махмудханович</i> ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛОГО ФОНДА КРУПНОГО ГОРОДА	314-320
67	<i>Shahnozakhon Askarova</i> THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM	320-325
68	<i>N.Sh.Akhmedova, N.U.Yusupdjanova</i> THE ROLE OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE DIGITAL ECONOMY	325-331
69	<i>Каримов Иномжон Ортикбаевич</i> КОРХОНАЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯ ЛОЙИХАЛАРИНИ БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ	331-336
70	<i>Каримов Иномжон Ортикбаевич</i> ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИГА ТАЪСИР КЎРСАТУВЧИ ОМИЛЛАР	337-343
71	<i>Elbaeva M.R</i> SOLIQ RISKLARI VA ULARNING PAYDO BO'LISHIGA TA'SIR ETIVCHI OMILLAR	343-347
72	<i>Кучимов М.К.</i> КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ВЫПУСКНИКОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НА РЫНКЕ ТРУДА	348-352
	4-SHO'BA: AXBOROTLASHTIRILGAN TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUTAXASISLARNI KASBIY INNOVATSION - FAOLIYATGA TAYYORLASHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	
73	<i>Chudakova Vira</i> ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ИНФОРМАТИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ	353-357
74	<i>Расулова Феруза Саидахатовна</i> ТВОРЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ИННОВАЦИЯ ПЕДАГОГА В ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЯХ	357-362

- 75 *Бердалиев Низомиддин Шералиевич* **ТАЪЛИМДА** 362-366
ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ
- 76 *G'.M. Shertaylaqov, F.M.Israilov* **TA'LIMDA AXBOROT** 366-370
TEKNOLOGIYALARIDAN SAMARALI VA
UMUMLASHTIRUVCHI YONDASHUVI TO'G'RISIDA
- 77 *Boirova N.S, Tillavoldiyeva M.X* **AXBOROTLASHGAN** 370-376
JAMIYATDA FALSAFIY-AXLOQIY MEROSNI TUTGAN
O'RNI
- Aripova Nasiba Atxamovna, Jamoliddinov Muhiddin Salohiddin* 376-381
o'g'li **AXBOROTLASHTIRILGAN TA'LIM MUHITIDA**
- 78 **BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY INNOVATSION -**
FAOLIYATGA TAYYORLASHDA TA'LIM
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH
SAMARADORLIGI
- Nasrulayeva Yulduz Farxadovna* **AXBOROTLASHTIRILGAN** 381-384
TA'LIM MUXITIDA BOSHLANG'ICH SINIF
- 79 **O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI**
OSHIRISHDA NOAN'ANAVIY METODLARDAN
FOYDALANISHNING AHAMIYATI (tezis)
- Атаджанова Сайёра Эгамовна* **ВОЗМОЖНОСТИ** 385-388
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ
И ИНТЕРНЕТ-РЕСУРСОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
- 81 *Saydaliyev S.S, Ramozonova G.S* **MUHANDISLIK GRAFIKASI** 388-393
FANLARIDA AutoCad GRAFIK DASTURINI
IMKONIYATLARI
- 82 *Tursunaliev N* **ANIMATSIYALI ELEKTRON DARS** 393-397
ISHLANMALARNI AutoCAD DASTURIDA ISHLAB
CHIQUISH USLUBI
- 83 *Xalimova Sh.A, Saydaliyev S.S* **GRAFIK DASTURLAR** 398-402
VOSITASIDA GRAFIK TA'LIM TA'LIM
SAMARADORLIGINI OSHIRISH
- 84 *Маҳкамова М.Ю* **AXBOROTLASHTIRILGAN TA'LIM** 402-406
MUXITIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI
FAOLIYATGA TAYYORLASHDA MUSTAQIL
TA'LIMNING ROLI
- 5-SHO'BA: PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI**
TEKNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI
- 85 *Aripova Nasiba Atxamovna, Evatov Rahmatulla O'ralboy o'g'li* 406-411
PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI
TEKNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISHNING USTUVOR
YO'NALISHLARI

- 86 *Aliyev Islambek Tursinbayevich* **TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARI KREDIT-MODUL TIZIMIDA TA'LIM SIFATINI TRANSFORMASIYA QILISH VOSITASI SIFATIDA** 411-416
- 87 *Xasanov Muzafar Sodiqovich* **CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI** 416-420
- 88 *Ибрагимова Муслимахон* **СЕГОДНЯШНЯЯ КАРТИНА ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ** 421-424
- 89 *Bo'ronov A.B* **FUTBOLCHILARNI TAKTIK HARAKATLARINI O'RGATISHDA INNOVATSIYON TECHNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH** 425-427
- 90 *Davrambekov Baxodir Djurabayevich* **MA'NAVIY JISMONIY SOG'LOM AVLODNI SHAKLLANTIRISHDA BOKS SPORT TURINING AHAMIYATI** 428-432
- Davrambekov Baxodir Djurabayevich, Baxtiyorov Azizbek Alisher o'g'li* **YENGIL ATLETIKA VA UNI O'QITISH METODIKASI VA TALABALARGA YENGIL ATLETIKADA YUGURISH TEXNIKASINI O'RGATISH USLUBIYATINING MOHIYATI** 432-435
- 91 *Халмаматова Лола Аманкуловна, Ахмадиёров Улдузбек Солижонич* **ПРОБЛЕМА ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС ВЫСШЕЙ ШКОЛЫ** 436-442
- 92 *Abduxoliqov Sardor Safarovich* **JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA RAQAMLI TEXNALOGIYA QO'LLASHNING ASOSLARI, MATEMATIK STATISTIK ISHLOV BERISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.** 442-447
- 93 *Усмонова Дилноза Тулкуновна, Абдушукурова Хосият Шавкатовна* **ТЕХНОЛОГИИ ЦИФРОВОГО ПРОИЗВОДСТВА ДЛЯ ПОЛИМЕРНОЙ ОТРАСЛИ** 447-452
- 94 *Aripova Vasila Baxtiyarovna* **МАКТАВГАЧА TA'LIM TASHKILOTLARIDA 6-7 YOSHLI BOLALARNI JISMONIY TARBIYA VA SOG'LOMLASHTIRUVCHI MASHG'ULOTLARIDA O'YIN TECHNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI** 452-459
- 95 *Toshmanov Nizom Jumanovich, Raximova Kumush Abdirauf qizi, Ro'ziyeva Madina Ural qizi* **BIOLOGIYADAN VIRTUAL LABAROTORIYA DASTURLARI ISHLAB CHIQUISH VA UNDAN FOYDALISH METODI** 459-466
- 96

- 97 *Egamberdiyev Muhammad Nizomiddin o'g'li* **OLIY TA'LIM YURTI TALABALARI UCHUN JISMONIY TARBIYA FANIDA TAIBO FITNES TIZIMINING TEXNALOGIYASI** 466-470
Tolibjonova Sarvinoz Tokir qizi, Saidova Dilfuza Abdufattoxovna, Aripova Nasiba Atxamovna 470-475
- 98 **PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.**
- 99 *Avezova Dilora Botirovna* **EKSPERIMENTAL SURUNKALI BUYRAK YETISHMOVCHILIGI MODELIDA O'PKADAGI MORFOLOGIK O'ZGARISHLAR VA UNI QIZILMIYA ILDIZI BILAN KORREKTSIYALASH** 476-481
- 10 *Norinov Muhammadyunus Usibjonovich, Rahmatxonov Boboxo'ja Shukrilloxon o'g'li* **BO'LAJAK TEXNIK MUTAXASSISLARNI KASBIY KOMPETENSIYASINI MULTIMEDIYA VOSITALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH** 481-483
- 101 *Toshbekova Mohira Xasanovna* **ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI** 484-490
- 102 *Akbarova D. R, Kayumova A. N* **OTMLARDA ADAPTIV JISMONIY TARBIYA FANINING AHAMIYATI** 490-494
- 103 *Маҳкамова М.Ю* **PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITUVCHI MAHORATI MASALALARI** 494-501
- 104 *Azimdjanova Muxayyo Tulkunovna* **TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASI SIFATIDAGI MASOFAVIY (DISTATSION) O'QITISH TIZIMI** 501-506
- 105 *Obidjon G'ulomov* **MILLIY G'OYA TARG'IBOTIDA AMALIY SAN'AT G'OYAVIY MAQSADLARDAN FOYDALANISH VA TARG'IBOT QILISH TEXNOLOGIYALARI** 506-510
- 106 *Turdibekova Risolat Shermatovna, Ergashov Mirdovud Tohir o'g'li* **TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI** 510-513
- 107 *Saidahmatova Sadoqat Usmonjon qizi* **OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI** 513-517
- 108 *Халмаматова Лола Аманкуловна, Ёдигаров Аббос Гулмирза угли* **ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВЫХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ИДЕИ ПРОГРЕССИВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ** 517-520
- 109 *Xolmirzaev Hayitboy Dedaxonovich, Dadahonova Zulayho Hayitboy qizi* **TA'LIM-TARBIYA SOHASIDAGI MUAMMO VA** 520-526

ҲЕСМИЛАР

- 110 *Камолова Кимёхон Ғуломжоновна* **РАҚАМЛАШГАН** 526-531
ЖАМИЯТ ВА РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ
- 111 *Аюпова КамилаРафиковна* **ЭФФЕКТИВНОСТЬ** 531-535
ПРИМЕНЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ДОО
- 112 *Абдурахмонова Садокат Абдухалиловна* **ЦИФРОВЫЕ** 536-540
ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ
- 113 *Бикбаева ЛианаТимуровна* **ЦИФРОВИЗАЦИЯ** 541-545
ОБРАЗОВАНИЯ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ
- 114 *Xolmonova M. , Usmonova M, Tillavoldieva. M.X* **RAQAMLI** 545-550
JAMIYATDA TA'LIM TIZIMIDA DARS JARAYONIDA
QO'LLANILADIGAN ZAMONAVIY
TEKNOLOGIYALARNING AYRIM JIHATLARI
- 115 *Туленова Карима Жандаровна* **ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ** 550-555
В ОБРАЗОВАНИИ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ
ТЕХНОГЕННОГО ОБЩЕСТВА
- 116 *Е.В. Ли, Аликберова Виолетта* **ЦИФРОВИЗАЦИЯ** 556-558
ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШЕЙ
ШКОЛЕ
- 117 *Kazoqov R.T, Bo'ronov A.B* **JISMONIY TARBIYA** 559-562
DARSLARINI KEYS-STADI TA'LIM TEKNOLOGIYASI
ASOSIDA PEDAGOGIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH
YUZASIDAN TAJRIBA-SINOV ISHLARINING
NATIJALARI.
- 118 *Ахмаджон Хайдарович Худаёров* **ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА** 563-565
РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШ
САМАРАДОРЛИГИ
- 119 *Рашидова Машхура Каримовна , Буранова Нигора* 566-569
Аъзамкуловна **ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА РАҚАМЛИ**
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ
- 120 *Matnazarova Muhayyo Axmetjanovna* **ТА`LIM SOHASIDA** 569-572
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARI
- 121 *Xidirov Dilmurod Qurbonaliyevich, Isroil Sharipov Shoim o'g'li* 572-577
FUTBOLCHILARNING TEXNIKAGA XOS BO'LGAN
QIRRALARINI KASHF QILISHDA RAQAMLI
TEKNOLOGIYALARNING BIOMETRIK
HARAKATLARINI O'RGANISH.